O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2025-6/5
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2025

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d.,prof.	*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d.,prof.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d.,prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.	*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№6/5 (127), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2025 y. – 380 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573 X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2025

MUNDARIJA

Nabiyeva Z.O. “Alpomish” qahramonlik dostoni va “Ser Izumbras” ritsarlik romani qiyosiy tahlili 6
Naimjonova I.M. Lingvistikada “maydon” tushunchasi va unga doir nazariy qarashlar 8
Najimova X. Usmon Azim ijodining o‘rganilish tarixi 11
Nazarova N.M. “Yaxshilik” va “yomonlik” axloqiy tushunchalari, inson axloqining asosiy ko‘rsatkichlari 14
Nizomova T.J. Ingliz va o‘zbek sud diskursida yuridik jargonning argumentatsiyani tushunishga ta’siri 17
Norbekova F.Sh. Ekran uchun tarjima va bosma matnlarni tarjima qilish: qiyosiy yondashuv 21
Normurodova M. Shaxs nominatsiyasi lingvistik tadqiqot sifatida 23
Nosirova D.R. Semantic and pragmatic aspects of translation: the role of context and cultural connotations 26
Nuraliyev I. Ingliz va o‘zbek tillaridagi hunarmandchilik leksikasining derivatsion xususiyatlari 28
Nuraliyeva O.N. Til tizimining inson tajribasi bilan bog‘liqligi 31
Nuriddinova N.A. Ergonimlarning hududiy mansublik jihatidan tip va turlari: ergourbonimlar va ergokomonimlar 34
Obidova A. Tilshunoslikda nominatsiyaning o’rni va ahamiyati 37
Ochilova D.S., Qarshiyeva B.Z., Qosimova N.K., Nutfilloyeva S.Z. Poetika va falsafa uyg‘unligi: Walt Whitman va G‘afur G‘ulom erkin she’riyatida ekzistensializm va ijtimoiy realizmning mushtarakligi 40
Orazbaeva A.A., Xamdamova M.X. Lotin tilida tuz va oksid, kislota nomlarining yozilishidagi lingvistik tahlil 44
Otaboyeva D.D. Folklorga xos xususiyatlar hamda yozuvchi badiiy uslubining shakllanish tamoyili 47
Pardayeva D.I. O‘zbek maqol va matallarining paydo bo‘lishi hamda ularning polisematik xususiyatlari 52
Pardayeva D.I. Ingliz va o‘zbek maqollarining qiyosiy tahlili 54
Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida tarjimachilik va adabiy ta’sir 57
Qo‘chqorova F.A., Yusupova S.A. A study of english words adopted into the uzbek language during the globalization era 60
Qodirova M. “Yo‘qotilgan avlod” atamasining adabiy va madaniy mohiyati 62
Qodirova N.Y. The pragmatic and stylistic coloring of ironic expressions 65
Qodirov S.S. Sayyohlik diskursida pragmatik mazmunning aks etishiga doir ayrim mulohazalar 67
Qodirova X.U. Xushmuomalalik strategiyalarining lingvistik tasnifi 69
Qurbonova E’.Sh. O‘zbek yuridik terminologiyasining o‘rganilishi 71
Qurbonova F.I. O‘zbek romanchiligidagi bugungi kundagi izlanishlarning ijobiy samarasi 75
Radjabova D.A. The symbolism of precious stones in Shakespeare’s and Navoi’s works: a comparative analysis 77
Rahmataliyeva F.A. Sirojiddin sayyid she’riyatida vatan talqini 80
Rakhimova S.T. Jon Eshberining “Self-portrait in a convex mirror” she’ri poetikasida postmodernistik ifodalar: o‘zlik izlanishi, dekonstruktsiya va tafakkur oqimi 83
Rakhimova Z.U. Cultural identity and social structures in afghanistan as portrayed by Khaled Hosseini 86
Ravshonbekova G. Abdulla Oripov qalamiga mansub “Nay” she’rining badiiy tahlili 87
Raximova I. Ogahiyning muammo janridagi she’lari tasnifi 90
Raximova N.G’. Klassik detektiv romanlarida ayol obrazi evolyutsiyasi 94
Raxmonqulov O‘.S. Sug‘urta terminologiyasining o‘zbek tili leksik tizimidagi o‘rni 97
Ro‘zmetova M.R. Geografiya va ekologiyaga oid matnlarda terminlar tarjimasi 100
Rustamov I.T. O‘zbek va ingliz tili kichik janr matnilarning lingvistik maqomi 102
Rustamov M.A. Murakkablashgan sodda gaplarni hosil qilishda undalmaning roli 106
Rustamova Sh.A. Antique translation traditions 108
Rustamova Z. Alisher Navoiyning orifona g’azallari 112
Ruziyeva N.Z. Iqtisodiy va siyosiy sohalarga oid evfemizmlarning kundalik hayotda ifodalanishi 117
Sa’dullayeva Sh.A. “Iztirob” romanida retrospektivlikning badiiy funksiyalari 120
Saminov A.I. O‘zbek badiiy matnida qo‘llangan antroponimlarning stilistik xususiyatlari 123
Sapayev A.N. “Qizil va qora” romanida ruhiyat bilan bog‘liq leksik birliklar 126

Sapayeva R.B. "Boburnoma"ning nemischa tarjimasida ijtimoiy-siyosiy leksika 130
Sattorova G. Abdulla Qahhor hajviy hikoyalarining badiiy xususiyatlari 133
Seytimbetova A.P. Comparative analysis of interjectional phraseological units in english, russian, and karakalpak languages: a study based on A.V. Koonin's classification 135
Shamsiyeva S.R. Cognitive analysis of literary imagery: methodological foundations and interpretive mechanisms 137
Sharafutdinova N.X. Fors-tojik tilidan o'zlashgan teonimlar 140
Sharipov F. The role of "desire" and "want" in expressing modality in the uzbek language 142
Shermatova N.I. Kontakt fe'llarning o'zbek va ingliz tillaridagi strukturaviy va kontekstual tahlili 145
Shodiyeva H.I., Fayziyeva N.N. Linguocultural features of uzbek toponyms 148
Shokirova D.A. O'zbek tilida gender asosidagi til birliklari va ularning semantik xususiyatlari 151
Shukurova N.B. The concept of family in english ethnolinguistic culture 154
Shuxratova O. Alisher Navoiyning oshiqona g'azallarida obraz va timsollar talqini 157
Soatova G.K. A Cross-Cultural Lens on 'Friendship': Examining Linguocultural Features in English and Uzbek 161
Sobirova I. Shodmonqul Salom ijodida ayol obrazining badiiy talqini 164
Sobitov A.T. Qadimgi turkiy qo'lyozmalarda kelgan suvda yashovchi hayvon nomlarining qiyosiy tahlili 166
Sotvoldiyev B.T. Slengning tilshunoslikda tutgan o'rni, maqomi va tavsifi 170
Sotvoldiyeva X.V. Mumtoz arab she'riyati 173
Subxonova M.O. Diniy diskursning tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 176
Sulaymonova M.Sh. Ilmiy diskursda metaforaning roli va funksiyalari 179
Sulaymanov Z.U. "Nahj-ul-farodis" hamda Alisher Navoiy asarlaridagi Shayx Sanon qissasining qiyosiy tahlili 181
Sultanova B.D. Effective strategies for teaching adult language learners: explore various methodologies and approaches 186
Sultonova G.M. Kognitiv ligvistikda assosiativ maydon 188
Tillaboyeva G.S. Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan libos nomlarining ranglar bilan semantik-sintaktik munosabati 190
Tohirova U.A. Translation style and spiritual meaning: approaches in the english interpretation of alisher navoi's works 193
Tojimatova Z.A. Maqsuda Ergasheva hikoyalarida muallif shaxsi va adabiy qahramon parallelizmi 196
Tojiyeva Z.Z., Omonullayeva R.A. Sun'iy intellekt va mashina tarjimasining turlari ularning qiyosiy tahlili 199
Topildiyeva F.R. Farida Afro'z she'riyatida lingvomadaniy birliklar ifodasi tahlili 201
Toshpo'latova X.M. Badiiy matnlarda lingvokulturologik birliklarning qo'llanilishi 204
Turopova O. Sohaviy lug'atlardagi it terminlarining semantik va funksional tahlili: "flowgorithm" dasturidagi terminlar misolida 208
Tursunbayeva Z.R. "Yulduzli tunlar" va "Ulug'bek xazinasi" romanlarining hindcha tarjimasida qo'llanilgan sinonim so'zlar tahlili 210
Tuxtasinova Z. M. Haqoratning subyektiv tafakkur mahsuli sifatida voqelanishi 213
Ubaydullayeva D.R. The methods and functions of translating religious texts 216
Ubaydullayeva D.R. Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik va allomorfik jihatlari 218
Ubaydullayeva D.R., Xoshimov D.D. Kundalikning adabiy shakl sifatidagi nazariy asoslari 220
Ubaydullayeva M.A. O'zbek va qirg'iz tilshunosligidagi fonetik terminlarning tahlili 223
Umurzaqova A.B. Ingliz va o'zbek tillaridagi "sadoqat" leksemasining sinonimiyasi 226
Urakova H.A. "Qora" leksik birligining o'zbek va ingliz tillaridagi etimologik va semantik o'zgarishlari: tarixiy-taqqosloviy tahlili 230
Usmonova D.S. Examining the interplay of axiology and phraseological units in conveying values 232
Usmonova M.A. Luiza Glyuk ijodida feministik motivlar talqini 235
Usmonova Sh.Y., Abdurazzaqova G.A. Ingliz va o'zbek tillarida internet jargonlaridan funksional foydalanish 237
Uzakova O. Concept in linguistics: an interdisciplinary exploration 239
Xakimov D.D. Ingliz tilida ilk idiomalar paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari 242
Xakimova M.G'. Epik matn tahlili va til xususiyatlari 245
Xamdamova M.N. Televideniye matnlarining yurislingvistik tahlili 248

Xamidova N.Yu. Fransuz-o'zbek parallel korpuslari: tilshunoslik va tarjimashunoslikda yangi imkoniyatlar 251
Xayitova Sh.Sh. O'zbekistonda ingliz tilining ijtimoiy mavqeyi va ta'siri 253
Xo'jamqulova S. X., Nizomova M.B. Ingliz va o'zbek tillarida ayollar kosmetikasiga oid terminlar tadqiqi 255
Xolboyeva M.R. Tarjima jarayonida ekvivalentlik va unikal konseptual o'ziga xoslik 258
Xolmatova N.I. Politeness as a tool for managing relationships in workplace communication 261
Xonqulova N.R. Parsing modern uzbek corpora 264
Xoshimova D.R. Badiiy matnda allyuziya va uning turlari 266
Xudjayeva R.M., Boboqulova I. Omonimlar va kinoya – ma'nolar "raqs"ida 269
Xusanov H. Jahon tilshunosligida giperbola qurilmasining lingvistik tadqiq etilishi hamda "guliverning sayohatlari" asari tarjimasida giperbolik yondashuvlar 272
Xusanova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy koloritning o'rni 275
Xusainova Sh.M. "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati"dagi antroponimlar tarkibida kelgan ayrim titul-unvon va epitetlar xususida 279
Yoqubova G.F. O'zbek va ingliz bolalar foklor qo'shiqlarida takror san'atlarining qo'llanilishi 282
Yo'lchiyev Q.V. Zebo Mirzo she'rlarida lirik qahramon masalasi 285
Yorova S.K., Khushnoor P. Adjective in latin and grammar categories of adjective 289
Yuldasheva B. O'zbek va xorijiy tilshunoslikda gender masalalari: nazariyalar va tadqiqotlar 291
Yuldasheva K. Sinxron tarjima: nazariy asoslar, muammolar va amaliy yondashuvlar 294
Yunusova A.A. Shaxs dunyoqarashining lingvistik proyeksiyasi 298
Yusupova S.A. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonida Shayboniyxon shaxsiyati tasviri 300
Yunusova Sh.M. Functions of non-linguistic tools used in uzbek advertising texts 304
Zakirova G. Lexical units and their function in language and communication 309
Zokirova N.H. The portrayal of mothers in children's fairy tales 312
Абдуллаев Ф.Х. Тергов ходимларининг ҳолат юзасидан мулоқотида импликатура ҳодисасининг таҳлили 314
Джафарова Д.И. Новербал алоқа муносабатлари ва уларнинг турлари 318
Джураева Ш.И. Обобщённо-собирательное значение форм единственного числа конкретных существительных 321
Екабсонс А.В. Евгения Палехова «Подлинная музыкальная история о Хитроумном идальго, рассказанная Санчо Панса - действующим губернатором Острова Грез» 325
Ерметов С.Р. Функции и семантика художественной детали в рассказе Сергея Шаргунова «Свой» 327
Жураева Ш.С. Научные подходы к структуре и семантике названий художественных произведений 330
Исаева Г.А. Художественное осмысление темы второй мировой войны в узбекской и русской литературе 333
Клеблеева Р. Европейские корни творчества Толкина: скандинавская и кельтская традиции 336
Кодиркулова С.Б. Женщины-переводчики лирики Алишера Навои 339
Козиева И.К., Зайитхонова Ҳ. Саид Аҳмаднинг "Собиқ" ҳикоясидаги от сўз туркумига оид сўзлар таҳлили 344
Курбонов Э.Э., Кадырова О.Х. Поиск "нового" языка в русской прозе начала XXI века 348
Кучкарова Г.Э. Юмор и сатира в творчестве А.Авеченко 350
Мамадалиева Н. Метрологик атамаларнинг изоҳли луғатини тайёрлаш учун зарурат 352
Мирзаева Г.С. Культурные нюансы в переводе: анализ английских реалий в узбекском литературном контексте 357
Нуриддинова М. Турли тизимли тилларда "Лисоний лакуна" тушунчасининг изохи 359
Обидова Д.А. Сатира 20-30х годов XX века: А.Т.Аверченко 362
Обидова Д.А. Комическое как форма философского постижения: гротеск, ирония и сатира в литературе XX века 365
Рахматова Ф.Ш., Бабаева Ш.Б. Символика цвета в романе «Мастер и Маргарита» Михаила Афанасьевича Булгакова 369
Таджиматова Г.Ш. Лингвокультурные аспекты зоонимов 372
Холматова В.Н. Сўроқ гаплар таркибида юзага келадиган бирламчи ва иккиламчи прагматик вазифаларнинг ўзаро муносабати 376

UO'K 82.09

"ALPOMISH" QAHRAMONLIK DOSTONI VA "SER IZUMBRAS" RITSARLIK ROMANI QIYOSIY TAHLILI

Z.O.Nabiyeva, tayanch doktorant, Namangan davlat chet tillari instituti, Namangan

Annotatsiya. *"Alpomish" va "Ser Isumbras" asarlari turli madaniy muhitda vujudga kelgan bo'lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi umumiy epik xususiyatlar mavjud. Biri o'zbek og'zaki an'analarga, ikkinchisi esa ingliz yozma adabiyoti an'analariga mansub bo'lib, har ikkisi ham xalq ongida ideal qahramon obrazini shakllantiruvchi muhim badiiy vosita sanaladi. Ushbu maqolada asarlarning kelib chiqishi, poetik tabiati va ayniqsa safar hamda sinov motivlarining ishlatilish xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida tahlil etiladi. Qahramonlarning mashaqqatli safarlari, dushman bilan kurashlari, iztirobli sinovlardan o'tishlari orqali ular epik qahramon sifatida shakllanadi. Har ikki asarda bu motivlar nafaqat syujet harakatlantiruvchi omil, balki xalq dunyoqarashini, axloqiy ideallarini ifodalovchi poetik struktura sifatida xizmat qiladi. Asarlarning ilmiy o'rganilishi ularning janr xususiyatlarini, struktura-funksional qurilishini va xalq og'zaki ijodidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Mazkur qiyosiy tahlil epik janrning turli xalqlardagi umumiyliklari va o'ziga xos jihatlarini ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar*: Ser Isumbras, Almopish, safar motivi, sinov motivi,qahramonlik eposi, doston, ahloqiy sinov, epik reterritorializatsiya*

Аннотация. *Хотя произведения «Алпомыш» и «Сэр Изумбрас» были созданы в разных культурных средах, существуют общие эпические черты, которые их объединяют. Одно принадлежит к узбекской устной традиции, а другое — к традиции английской письменной литературы, и оба считаются важными художественными средствами, формирующими образ идеального героя в сознании народа. В данной статье анализируются происхождение, поэтическая природа произведений и особенно особенности использования мотивов путешествия и испытания на основе сравнительного подхода. Через трудные странствия героев, их борьбу с врагом и их мучительные испытания они формируются как эпические герои. В обоих произведениях эти мотивы служат не только движущим фактором сюжета, но и поэтической структурой, выражающей мировоззрение и нравственные идеалы народа. Научное изучение произведений помогает определить их жанровые особенности, структурно-функциональную структуру и место в народном устном творчестве. Целью сравнительного анализа является выявление общих черт и особенностей эпического жанра у разных народов.*

Ключевые слова: *сэр Изумбрас, Альмопиш, мотив путешествия, мотив испытания, героический эпос, эпос, моральное испытание, эпическая ретерриториализация*

Abstract. *Although Alpomish and Sir Isumbras emerged in different cultural environments, they share common epic characteristics. Alpomish belongs to the Turkic oral tradition, while Sir Isumbras is part of the English written literary tradition; yet both serve as important artistic tools in shaping the image of the ideal hero in the collective consciousness of their respective peoples. This article presents a comparative analysis of the origins, poetic nature, and especially the use of journey and trial motifs in both works. Through their arduous journeys, battles with enemies, and painful trials, the protagonists are formed as epic heroes. In both narratives, these motifs are not only plot-driving elements but also serve as poetic structures that reflect the worldview and moral ideals of the people. The scholarly study of these works helps to determine their genre characteristics, structural-functional composition, and place within folk oral literature. This comparative analysis aims to reveal both the commonalities and distinctive features of the epic genre across different cultures.*

Key words*: Sir Isumbras, Almopish, journey motif, trial motif, heroic epic, dastan, moral trial, and epic reterritorialization*

Kirish. Har bir xalqning adabiy merosida epik janr o‘ziga xos tarixiy va estetik funksiyaga ega bo‘lib, u orqali xalqning ijtimoiy hayoti, axloqiy qadriyatlari va estetik qarashlari ifodalanadi. Epik asarlar, ayniqsa, og‘zaki va yozma an’analar uyg‘unlashgan jamiyatlarda qahramonlik, fidoyilik, sadoqat, jasorat kabi tushunchalarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Dunyoning turli xalqlari bunday asarlar orqali o‘z milliy qahramonlarini yaratgan, ular obrazida tarixiy haqiqat bilan badiiy talqin uyg‘unlashgan. O‘zbek xalqimizning “Alpomish” dostoni va ingliz xalq epikasi namunasidan biri bo‘lgan “Ser Isumbras” shu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Mazkur asarlar har xil madaniy, diniy va tarixiy kontekstda yaratilgan bo‘lsa-da, ularni bog‘lab turuvchi umumiy motivlar mavjud bo‘lib, ular orasida safar va sinov motivlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu motivlar orqali qahramonlar o‘zlarining ichki va tashqi o‘sish bosqichlarini bosib o‘tadilar, turli sarguzasht va to‘siqlardan o‘tish jarayonida epik timsolga aylanadilar. Bu motivlar har ikki asarda syujet dinamikasini shakllantiribgina qolmay, balki xalq tafakkurida ideal inson timsolini yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, “Ser Isumbras” va “Alpomish” kabi asarlarni qiyosiy tahlil qilish, epik merosning universal va milliy xususiyatlarini anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Raychl o‘zining epik og‘zaki ijodga oid tadqiqotida musiqiy ijro va voqelik tuzilmasi orqali qahramonlik obrazini shakllantirish jarayonini tahlil qiladi. U epik matnlarni og‘zaki ijod kontekstida ko‘rib, Alpomish kabi dostonlarda ijro strukturasi va motivlarning funksional yukini yoritadi. Dyundes xalq epikasi semantik tahliliga urg‘u berib, qahramonning sinovlar orqali o‘zligini topishini universal arxetip sifatida talqin qiladi. Ripat epik syujetlarni identitet qurilishi va “begona hududni egallash” modeli orqali izohlaydi, bu Alpomishdagi zindon motivi talqiniga mos tushadi. Uvotson esa Ser Isumbras singari o‘rta asr romanlarini "axloqiy sinov" modeli asosida tahlil qilib, qahramon harakatining diniy emas, ijtimoiy va axloqiy asoslariga urg‘u beradi. Bozorova esa o‘zbek xalq dostonlarini struktura-funksional metod asosida tadqiq qilib, undagi safar va sinovlarning xalq idealini shakllantirishdagi rolini yoritgan. Karsak turkiy epik matnlarda motivlarning genetik ildizlarini ochib, ularning ramziy va xalq ongidagi aksini o‘rganadi. Tomson (2006) esa xalq ertaklari va dostonlarida uchraydigan tipik sinov va qahramonlik sxemalarini tizimli ravishda bayon etadi.

Natijalar va muhokama. Safar epik janrda ko‘pincha tashqi harakat bo‘lib ko‘rinsa-da, u aslida qahramonning ichki transformatsiyasi – o‘zgarish yo‘lini aks ettiradi. Ser Isumbras asarida qahramonning safar yo‘li strukturaviy jihatdan an’anaviy "qahramon arxetipi" formulasiga yaqin: u sivilizatsiyani tark etib, noma’lum makonlarga yo‘l oladi, yo‘lda to‘siqlarga duch keladi va nihoyat, muvaffaqiyatli tarzda uyga qaytadi. Bunday safar strukturasi Janey Uotson tomonidan "progressiv yo‘nalgan epik harakat" deb ta’riflanadi.

Alpomishda esa safar motivi murakkabroq ko‘rinishda ifodalanadi. Bu nafaqat geografik harakat, balki ijtimoiy, siyosiy va shaxsiy o‘zgarishlar jarayonidir. Alpomish Qalmoq eliga borish orqali nafaqat sevgilisi Barchinni, balki milliy g‘ururni, xalq sha’nini himoya qiladi. Tatyana Bozorova bu safarni "xalq o‘zligini tiklashning ramziy modeli" deb ataydi. Shu bilan birga, Alpomishning safaridagi eng muhim nuqta — uning vatanga qaytishi va To‘ychixon zulmini tugatishidir. Bu safar “uyga qaytish” modeli bilan yakunlansa-da, u yangicha ijtimoiy maqomda – qahramon va adolat vakili sifatida qaytadi.

Ikkala asarda ham safar qahramonning tashqi harakati bo‘lishi bilan birga, ularning o‘zlik izlanishidagi asosiy yo‘nalishdir. Ammo Ser Isumbrasdagi safar passiv — u ko‘proq taqdirga moslashuvni aks ettirsa, Alpomishdagi safar faol — u o‘z taqdirini belgilovchi qahramonlik aksidir.

Epik qahramon sinovsiz bo‘lishi mumkin emas. Sinov – bu qahramonning mahoratini, axloqiy tamoyillarini va irodasini tekshiruvchi asosiy mexanizm. Ser Isumbras asarida sinovlar ketma-ketligi uch bosqichda ifodalanadi: mol-dunyodan ayrilish, oilani yo‘qotish va jismoniy mehnat sinovlari. Bu sinovlar strukturaviy jihatdan "uchlik sinov" modeliga yaqin, bu esa klassik epik qurilishlarga xos . Alpomishdagi sinovlar esa ko‘p qatlamli va murakkab. Doston davomida qahramon ko‘plab real va ramziy sinovlardan o‘tadi: Qalmoq eliga kirib borish, janglarda qatnashish, zindonga tashlanish, xalq oldida tan olinishi. Qiziqarli jihati shundaki, bu sinovlar Alpomish xarakterining har bir jihatini ochib beradi: jismoniy qudrati, donishmandligi, strategik fikrlashi, sadoqati va hatto dramatik chidamliligi.

Ayniqsa, zindon epizodi – Alpomish dostonining kulminatsion sinov nuqtasi bo‘lib, bu yerda qahramonning irodasi, sabr-bardoshi va shaxsiyligi sinovdan o‘tadi. Paulin Ripat bu kabi sinovlarni “epik reterritorializatsiya” deb ataydi, ya’ni qahramon begona hududda o‘z hokimligini tiklaydi. Bu jihat Ser Isumbrasda kuzatilmaydi.

Yana bir muhim tafovut — Ser Isumbrasda sinovlar bevosita qahramonning passiv holatda chidashi orqali yechim topadi, Alpomishda esa faol qarshilik, qaror qabul qilish, strategik harakatlar orqali hal etiladi. Bu — turkiy epik an’analarning faol, “mashrapga tayyor” qahramon modelini aks ettiradi .

Xulosa. Ushbu maqolada ingliz xalq eposi Ser Isumbras hamda o‘zbek xalq dostonlarining yirik namunasi Alpomish asarlaridagi safar va sinov motivlari qiyosiy poetik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, har ikki asarda ushbu motivlar qahramonning shakllanishi, syujet dinamizmi va epik struktura barqarorligini ta’minlovchi asosiy poetik komponentlar ekanligi aniqlandi. Ser Isumbrasda safar motivi ko‘proq taqdir va ijtimoiy sinovlarga bo‘ysunuvchi passiv qahramon modeli bilan ifodalanar ekan, Alpomishda esa bu motiv faol, qat’iyatli va strategik harakat qiluvchi epik qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, sinov motivining ishlanishida ham sezilarli tafovutlar mavjud: ingliz epikasi axloqiy-pedagogik sinovlarga urg‘u bersa, o‘zbek eposida sinovlar milliy qadriyatlar va shaxsiy erkinlik uchun kurash shaklida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy tadqiqotlar (Reichl, 2000; Ripat, 2020; Bozorova, 2011; Karsak, 2019) safar va sinov motivlarining madaniy va identitet shakllanishidagi rolini alohida ta’kidlaydi. Ularning fikricha, bu motivlar orqali epik qahramon faqat voqealar qahramoni emas, balki xalq xotirasida yashovchi ideal timsolga aylanadi. Shu boisdan ham Alpomish va Ser Isumbras asarlarining bu jihatdagi poetik umumiyliklari hamda madaniy tafovutlari o‘rganilishi epik janrlarning universalligini anglashda muhim nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кодиров У. (2023). “Alpomish” dostonining o‘rganilishi. Узбекистан: язык и культура, 2(2), 117–128. https://doi.org/10.47689/ULAC-vol2-iss2-y2023-pp117-128
2. Reichl K. (2000). Oral Epic: Performance and Music. Routledge,.
3. Dundes A.(2007). Interpreting Folklore. Indiana University Press,.
4. Ripat P. (2020). Narrative Identity in Ancient and Folk Epics. Oxford University Press,.
5. Watson J. (2009)Heroism in Middle English Romances. Boydell & Brewer,.
6. Bozorova T.(2011) O‘zbek xalq dostonlarining struktura-funksional tahlili. Toshkent: Fan,.
7. Thompson, Stith(2006). The Folktale. University of California Press, (reprint).
8. Karsak R.(2019)Türk Destanlarında Epik Anlatım ve Motif. Ankara: Akçağ Yayınları,
9. Propp, V.(1968). Morphology of the Folktale. Leningrad, 1928; English ed.: University of Texas Press,
10. Watson J.(2009) Heroism in Middle English Romances. Boydell & Brewer.

UO’K: 811.512.133’374

LINGVISTIKADA “MAYDON” TUSHUNCHASI VA UNGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

I.M. Naimjonova, tayanch doktorant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda maydon nazariyasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Xorijlik olimlardan tashqari, o‘zbek olimlaridan ham ushbu sohada tadqiqot o‘tkazgan olimlar bir qancha. Ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lishiga qaramay, hali ham o‘rganilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Maqolada tilshunoslikda “maydon” hamda “semantik maydon” nazariyasiga doir olimlar ishlari, ularning fikrlari hamda nazariy qarashlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *maydon, semantik maydon, leksik maydon, paradigm, leksik birlik, til vositalari.*

Аннотация. *Сегодня теорию поля изучают многие ученые современной лингвистики. Помимо зарубежных ученых, есть ряд узбекских ученых, проводивших исследования в этой области. Несмотря на то, что было проведено множество исследований, это все еще одна из областей, требующих изучения. В статье освещены работы ученых, их мнения и теоретические взгляды на теорию «поля» и «семантического поля» в лингвистике.*

Ключевые слова: *поле, семантическое поле, лексическое поле, парадигма, лексическая единица, языковые средства.*

Abstract. *Nowadays, "field theory" is being studied by many scientists in modern linguistics. In addition to foreign scientists, there are also a number of Uzbek scientists who have conducted research in this area. Despite the fact that many studies have been conducted, it is still one of the areas that needs to be studied. The article highlights the work of scientists on the theory of "field" and "semantic field" in linguistics, their thoughts and theoretical views.*

Key words: *field, semantic field, lexical field, paradigm, lexical unit, language tools.*

Ma'lumki, mazmuniy maydon tushunchasi G.Ipsenning ishi nashr etilgach ancha keng tarqaldi. G.Ipsen maydon sifatida umumiy ma'noli so'zlarning yig'indisini ko'rsatgan edi. Biroq Y.Trirning fikricha, maydonga xos yondashuv V.Gumboldt va G.Ostgofga borib taqaladi.[2] Maydon tushunchasi tilning leksik qatlamini tadqiq qilishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Dastlab, "maydon" atamasi XIX asrning birinchi choragida fizik (M.Faradey, A.Esterd, A.Amper, Sh.O.Kulon kabi) olimlarning elektr zaryadlarining o'zaro ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Keyinchalik ushbu tushuncha biologiya, algebra, ijtimoiy fanlar, jismoniy madaniyat, sport va qishloq xo'jaligida ham keng qo'llandi.[5]

Tilshunoslik fanida maydon bilan bog'liq tushunchalar XX asrning boshlarida Vilgelm fon Humboldtning "tilning ichki formasi" haqidagi qarashlari negizida paydo bo'ldi. Tilshunos olim G.Ipsen "maydon" tushunchasi umumiy ma'noga ega so'zlar to'plami ekanligini aniqlaganidan so'ng mazkur atama tilshunoslar orasida yanada keng tarqaldi.[5]

"Maydon" atamasi tilshunoslikka 1924-yilda G.Ipsen tomonidan kiritilgan.[7] Nemis tilshunosi Gunter Ipsenning "Qadimgi Sharq va Hind-Yevropa" nomli asarida o'z ona tilidagi *bedeutungsfeld*, ya'ni "semantik maydon" birikmasini qo'llaganidan so'ng ushbu atama keng ommaga yetib bordi. Tilshunoslikda semantik maydon tushunchasini nazariy jihatdan asoslab berish borasida G.Ipsenning xizmatlari muhim o'rin tutadi, lekin ushbu terminga amaliy jihatdan yondashgan va G.Ipsenning dastlabki maydon nazariyasida g'alizliklar borligini isbotlagan olim Y.Trir hisoblanadi.[4] Nemis olimi Y.Trir tomonidan belgilangan maydon g'oyalari lingvistik tadqiqotlar amaliyotida eng ko'p qo'llangan va hozirgi kunda ham qo'llanib kelinmoqda. Y.Trir mazkur tushunchani leksik maydonlarga nisbatan qo'llab, hozirgi kunda olimlar bu tushunchani *Trir maydoni* deb izoh beradilar. Sinxron tahlil qilish nuqtayi nazaridan Y.Trir nazariyasiga ko'ra, "har bir narsa ma'noni butunlikdan oladi". Bu holatdan ma'lum bo'ladiki, mazmuniy maydon tushunchasi G.Ipsenning ishi nashr etilgach ancha keng tarqaldi. G.Ipsen maydon sifatida umumiy ma'noli so'zlarning yig'indisini ko'rsatgan edi.[7]

Leksik maydon nazariyasi birinchi marta nemis olimi J.Trier tomonidan 1931-yil 12-martda ma'lum qilinganligi qayd etiladi. Trierning aytishicha so'zlar boshqa bir, ya'ni o'sha maydonga daxldor bo'lgan so'zlarga bo'lgan munosabati orqali o'z ma'nosini yaratadi. Bir maydonga tegishli bo'lgan so'zlarning birining ma'nosi kengayishi natijasida boshqa bir so'zning ma'nosini torayishiga olib keladi. Agar ma'lum so'z semantik o'zgarishga duchor bo'ladigan bo'lsa, leksik maydondagi barcha so'zlar mazmuni o'zgaradi. Trierning nazariyasi bo'yicha leksik maydon bu oson aniqlanadigan yopiq yig'indi bo'lib, unga hech qanday boshqa bir ma'no qo'shish mumkin emas.[6] Bundan ko'rinib turadiki, maydonga doir ishlarning asosiylari xorijlik olimlar tomonidan qilingan. Dastlab, nemis olimi J.Trier maydon nazariyasiga doir g'oyalarini ilgari surgan. Keyinchalik, boshqa olimlar ham ushbu ishni davom ettirib, o'z g'oyalari bilan tilshunoslikda hissa qo'shishgan.

Trirga zamondosh bo'lgan nemis olimi V.Porsig ham semantik maydon bo'yicha tadqiqotlar olib bordi va Y.Trir nazariyasiga teskari bo'lgan ilmiy farazni ma'lum qildi. Ya'ni Y.Trir semantik maydonni paradigmatik tarzda shakllanishini ilgari surgan bo'lsa, V.Porsig esa sintagmatik usul orqali semantik maydonlar hosil qilinishini ko'zda tutuvchi nazariyani afzalliklariga ko'proq to'xtaldi. V.Porsig keltirgan misolga ko'ra, *tishlamoq* leksemasi o'z-o'zidan *tish* leksemasini yodga soladi yoxud *yalamoq* leksemasi *til* leksemasini talab qiladi. Bu yerda V.Porsig shu kabi leksemalarning ma'nolarini tushuntirish jarayonida so'zlovchilar ular bilan matnlarda birga qo'llanuvchi leksemalarni inobatga olishlari kerakligiga ishora qiladi. Lingvistik maydon

nazariyasiga oid eng puxta mulohazalar tilshunos olim L.Vaysgerberga tegishlidir. L.Vaysgerber qarashlariga ko‘ra, til jamiyatdagi insonlarga maydon orqali ta’sir eta oladi va so‘zlarning ahamiyati ham faqatgina maydon ichida mavjud bo‘ladi.[4]

Paradigma bilan semantik maydonning bir-biridan farqli jihati shundaki, so‘z turkumi doirasida bo‘lishi. Tilshunoslikda turli sath doiralari mavjud, ya’ni fonetik sath, morfemik sath, grammatik sath. Paradigamada so‘zlar bir so‘z turkumi doirasida bo‘ladi, aksincha, semantik maydon bir so‘z turkumi doirasida ham bo‘lishi mumkin, turli so‘z turkumidagi so‘zlarni qamrab olishi ham mumkin. Semantik maydonda asosiy e’tibor ma’no-mazmunga qaratiladi. Semantik maydon turli sath doiralarini ham qabul qila oladi.

“Mazmuniy maydon” termini o‘sha paytlarda tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlandi. J.Trir mazmuniy maydon sifatida “tushunchalar maydoni”, “tushunchalar darasi” ni nazarda tutdi. L.Vaysgerber — “til mazmunining ma’lum qismi”, “tarkibning bo‘lagi”, V.Porsig — “ma’nolarning mohiyatan bog‘liqligi”, G.Ipsen mazmuniy va grammatik jihatdan bog‘langan guruhini semantik maydon tarzida talqin etadi. A.Yolles esa uni “semantik birlashish” deb nomlab, uning doirasida antonomik juftliklarni belgilaydi. F. Dornzayf va V. Vartburglar til lug‘aviy tarkibi ajralish mumkin bo‘lgan semantik guruhlarida mazmuniy maydonni ko‘radilar.[1] Demak, semantik maydon turli olimlar tomonidan turlicha atamalar bilan nomlangan. Ularning tilshunoslikda eng ko‘p foydalaniladigani “mazmuniy maydon”, “leksik maydon”, “tushuncha maydoni”.

G.Ipsen qadimgi hind-yevropa tillari leksikasini qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganish davomida “mazmuniy maydon” terminini birinchi marta sharq tillaridagi metal nomlarini belgilovchi so‘zlar guruhiga nisbatan qo‘llagan bo‘lib, u bu so‘zlarning hind-yevropa tillarida funksional jihatdan chegaralanib, alohida guruhni tashkil etishiga asoslangan. V.Portsig esa semasiologiya faniga mazmuniy maydonning o‘ziga xos tushunchasini olib kirdi, u maydon nazariyasini nutqni o‘rganish asosida ochib berishga intildi. Uningcha, mazmuniy maydon ma’lum tildagi so‘zlar orasida o‘rnatiluvchi asosiy munosabatlar bilan bog‘lanadi hamda predikativ vazifani bajaruvchi fe’l, sifat va otlar orasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqadi. V.Portsig bilan bir vaqtda F.Yolles ham tilshunoslikka mazmuniy maydonning yangicha talqinini kiritdi. U ma’lum butunlikka mansub birliklar shu butunlikning biror jihatini ifodalashi bilan shu guruhga xoslanishini ko‘rsatdi.[3]

O‘zbek tilshunos-olimlaridan professor Sh.M. Iskandarova “Til sistemasiga maydon asosida yondashuv” monografiyasida maydon nazariyasining paydo bo‘lishi to‘g‘risida quyidagicha qayd etadi: “F.de Sossyur tilshunoslar diqqatini lingvistik birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatik va sintagmatik turlari mavjudligini ko‘rsatgan edi. Lingvistik birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma’no asosida ma’lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. “Maydon” atamasi qator fanlar doirasida mavjud bo‘lib, jumladan, fizikada: Maydon – fizikaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi, fazodagi taqsimlangan fizik kattaliklarning xususiyatlarini tekshiruvchi nazariya hozirgi vaqtda maydon nazariyasi ekanligi qayd etiladi. Algebrada esa qo‘shish, ko‘paytirish va ularga teskari amallar – ayirish, bo‘lish kiritilgan to‘plam sifatida belgilanadi”.[3]

D.I. Qozoqboyeva o‘z tadqiqotini semantik maydonga bag‘ishlagan bo‘lib, quyidagicha ta’kidlaydi: F.de Sossyur tadqiqotida “maydon” murakkab mexanizm ekanligi keltirilgan, G.S.Shur esa morfem tarkibi va ma’no umumiyligiga ega so‘zlar guruhini “morfosemantik” maydon deya talqin qilgan. O‘.Yusupov ilmiy izlanishlarida “maydon” tarkibiga kiruvchi ekvivalent so‘zlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli xususiyatlarni aniqlagan. “Maydon” deganda S.R.Rahimov nafaqat bir xil, balki turli til sathlariga oid birliklar tushunilishini izohlab beradi. Nemis olimi G.Ipsen semantik maydon tushunchasini “umumiy semantikaga ega bo‘lgan so‘zlarning uyg‘unlashgan majmuasi” deya ta’riflagan. J.Yakubov tadqiqotida semantik maydonni aniqlashda asosiy e’tiborni modallik kategoriyasi va uning turlariga qaratgan. A.Sobirov “O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar tizimi tamoyili asosida tadqiq etish” nomli monografiyasida o‘zbek tili leksikasi yuzlab semantik maydonlardan iborat ekanligini ta’kidlagan holda maydonlar leksik-semantik guruhlardan, guruhlar esa o‘z tarkibiga kiruvchi elementlardan tashkil topishi haqida fikr bildiradi.[5]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, barcha til birliklari ma’lum bir semantik maydonni tashkil etadi. Semantik maydonga kiritish so‘zlarni yaxshi eslab qolish, so‘z ma’nolarini yodda saqlashga yordam beradi. Semantik maydonga kirgan leksik birliklar, turg‘un birikmalar, umuman,

til vositalari bir so‘z turkumida ham, turli so‘z turkumida ham bo‘lishi mumkin. Xorijlik va o‘zbek tilshunosligida semantik maydon nazariyasiga doir ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, hali ham o‘rganilish davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedova M, Rahimova Y. Maydon tushunchasi va turli tizimli tillarda “ko‘ngil” leksik-semantik maydoni tadqiqi, Miasto Przyszłości, Kielce, ISSN-L: 2544-980X, Vol.31, 2023. – B. 51.

2. Iskandarova. Sh.M. Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 38.

3. Iskandarova. Sh.M. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 47-48.

4. Ismoilova D.R. Turli tizimdagi tillarda jinoyat semantik maydoni va uning lingvokulturologik tadqiqi, diss. avtoref. – Farg‘ona. – 2023. – B. 11.

5. Qozoqboyeva D.I. Ingliz va o‘zbek tillarida “quloq” leksik-semantik maydonini tashkil etuvchi til birliklari tadqiqi, diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – B. 10-11.

6. Sanaqulov U, Ostonov O‘. “Qutadg‘u bilig” asari va undagi ijtimoiy-siyosiy leksik maydonining tadqiqi, monografiya. Samarqand, 2018. – B. 36-37.

7. Shokirov Sh.I. Turli tizimli tillarda “ko‘z” leksik-semantik maydoni va uni tashkil etuvchi til birliklari tipologiyasi, diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 11.

UO’K 81-13

USMON AZIM IJODINING O‘RGANILISH TARIXI

X.Najimova, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Usmon Azim ijodining 1970-yillardan 2000-yilga qadar o'rganilishi tizimli tahlil etiladi. Shoirning “Insonni tushunish” to‘plamidan boshlangan poetik izlanishlari, ijtimoiy-falsafiy tafakkuri, ramziy obrazlar orqali ifodalangan murakkab poetik olami adabiyotshunoslikda qanday metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilgani xronologik prinsip asosida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Hozirgi o‘zbek she’riyati, Usmon Azim, poetika, ramz, lirik qahramon, pafos.*

Аннотация. *В статье проводится системный анализ изучения творчества Усмана Азима с 1970-х годов по 2000 год. Поэтические искания поэта, начиная со сборника «Понимание человека», его социально-философские размышления и сложный поэтический мир, выраженный через символические образы, рассматриваются в литературоведении на основе методологических подходов, следуя хронологическому принципу.*

Ключевые слова: *Современная узбекская поэзия, Усман Азим, поэтика, символ, лирический герой, пафос.*

Abstract. *The article provides a systematic analysis of the study of Usmon Azim's works from the 1970s to 2000. The poet's poetic explorations, beginning with his collection “Understanding Man”, his socio-philosophical reflections, and his complex poetic world expressed through symbolic imagery are examined in literary studies based on methodological approaches, following a chronological principle.*

Keywords: *Modern Uzbek poetry, Usmon Azim, poetics, symbol, lyrical hero, pathos.*

Usmon Azim – o‘zbek she’riyatining yorqin vakillaridan biri. Uning she’rlari inson qalbini titratadigan jo’shqin hissiyotni, hayajon va hayot haqiqatlarini o‘zida mujassam etgan. Sharq she’riyatidagi qadimiy an’analarni zamonaviy talqin bilan uyg‘unlashtirgan badiiy topilmalari o‘quvchilarga nafaqat estetik zavq, balki ruhiy tarbiya ham beradi. Shu kabi omillar tufayli shoir ijodi hamma vaqt tahlil, e’tibor va e’tirof markazida bo‘lgan. O‘zbekiston xalq shoiri, nosir, dramaturg Usmon Azim ijodi ham yigitlik davrlaridan e’tibor markaziga tushdi va bugunga qadar o‘rganilib kelinmoqda. Endi Usmon Azim ijodining o’rganilish tarixi to’g’risida gapirish ham mumkin. Quyida shoir ijodiga oid ilmiy-nazariy qarashlar va munosabatlarni xronologik tartibda ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

1. **1970–1980-yillar: Dastlabki tadqiqotlar va tanqidiy baholar.** Bu davrda uning ijodi haqida bir qator muhim ilmiy ishlar yaratildi. XX asrning 70-yillarida ijodkor o‘zining “Insonni tushunish” (1979) nomli to‘plami bilan o‘zbek she’riyatiga qadam qo‘ydi. O‘zbek adabiyotshunosligida Usmon Azimning ijodiga jiddiy e’tibor mazkur she’riy to‘plam e’lon

qilinganidan so‘ng kuchaydi. Bu to‘plamdagi she’rlar shoirning lirik qahramoni, falsafiy qarashlari va badiiy uslubining shakllanishini ko‘rsatib bergan bo‘lib, keyingi yillarda uning ijodini o‘rganishga asos bo‘ldi desak yanglish bo’lmaydi. Boshqacha aytilsa, “Insonni tushunish” shoir ijodidagi muhim bosqich hisoblanadi. Bu to‘plamda inson ruhiyati, sevgi, hayot falsafasi kabi mavzularni lirik-falsafiy tarzda talqin qilingan. Adabiyotshunoslar bu kitobni uning keyingi ijodiy yo‘lini belgilovchi asar sifatida baholaydilar. 1970 – 1980-yillarda *Ozod Sharofiddinov, Ibrohim G‘ofurov, Ibrohim Haqqul* kabi taniqli adabiyotshunoslar tomonidan uning asarlari chuqur tahlil qilindi. Dastabki she’rlari bilanoq adabiyotshunos O.Sharofiddinov nazariga tushdi. Munaqqid o‘zining *“Talant xalq mulki” (1979)* nomli kitobida shoir ijodiga yuqori baho berib, yangi ovoz kirib kelayotganligini e’tirof etadi. Olim ushbu asarida har bir iste’dodli inson – xalqning noyob mulki hisoblanishi va ularga yetarlicha e’tibor berilishi kerakligini ta’kidlaydi. Kitobdan o‘rin olgan “Hozirgi she’riyat va nashriyot” nomli maqolasida noshirlarni tanqid qila turib, “Insonni tushunish” to‘plamining badiiy qimmatini e’tirof etadi. To‘plamdan o‘rin olgan she’rlarni tanqidiy va tahliliy baholaydi hamda Usmon Azim kabi yosh ijodkorlar adabiyotimizga yangi nafas kiritishiga ishonch bildiradi.

I.G‘ofurov o‘zining *“Ohangrabo qayerda” (1979)* nomli maqolasida Usmon Azim she’riyatidan “Ohangrabo” (musiqiy ohang, lirik kayfiyat)ni izlab, uning ijodida qanday aks etganligini tadqiq etadi. Uning fikricha, Usmon Azim she’rlari nafaqat shakl jihatidan, balki “ruhiy chuqurligi” va “musiqiy jozibadorligi” bilan ham ajralib turadi. Olim Usmon Azim va Shavkat Rahmonning ilk to‘plamlarini o‘zaro qiyoslar ekan har ikki to‘plam bir biridan butunlay farq qiluvchi uslubda yozilgan bo‘lsa-da, ruhiy hamohanglik sezilib turishini ta’kidlaydi.

Ibrohim Haqqul esa turli yillarda chop etilgan *“Zamon va vijdon erki” (1987), “G‘ussali yurak – yolqinli yurak” (1996)* nomli maqolalarida Usmon Azim she’rlarini tahlilga tortadi. *“Zamon va vijdon erki”* maqolasida zamonaviy adabiy jarayon, ijodkorlarning vijdoniy pozitsiyasi va ularning asarlarida ifodalangan ijtimoiy-falsafiy qarashlarni tahlil qiladi. Usmon Azim kabi shoirlarning ijodiga to‘xtalib, muallif ularning zamon bilan munosabati, badiiy izlanishlari va insoniy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqati haqida fikr yuritadi. *“G‘ussali yurak – yolqinli yurak” nomli* maqolasida esa shoirning she’rlarini ishtiyoq bilan o‘qishini alohida ta’kidlaydi va ijodiga yuqori baho berib shunday yozadi: “She’r yozadiganalar ko‘p. Ammo sevishga qodir, ko‘nglini ishq ishg‘ol aylagan shoirlar nihoyatda kam. Usmonni Olloh sevgidan qismagan. Shuning uchun uning ko‘ngli erkin, ruhi va fikri erkindir. Shuning uchun uning eng yaxshi she’rlarida ishq va e’tiqod shu’lasi porlab turadi… She’r yozmoq Usmon Azimga kasbmas – qismat”.

1990 – 2000-yillar: Mustaqillik davri va yangi tahlillar.

– Adabiy-tanqidiy baholar: To’qsoninchi yillar o‘zbek adabiyotshunosligida Usmon Azim ijodini o‘rganishning yangi bosqichi bo‘ldi. Mustaqillik davrining dastlabki yillarida chop etilgan N.Shukurovning “So‘z sehri – she’r mehri” (1992), I. To‘lakovning “Nurli manzillar” (1992), X.Davronning “Bo‘lar elning shoiri” (1996), S.Ashurning “O‘zgarayotgan badiiy tafakkur” (1997) va J.Jumaboyevaning “Ko‘ksimni ochaman” (1999) izlanishlari shoir ijodiga yangicha yondashuvlar boshlanganini namoyish etdi. Ushbu tadqiqotlarda Usmon Azim she’riyati badiiy-falsafiy, milliy-ma’naviy va shakily-lisoniy jihatlardan tahlil qilindi. Shoir ijodiga nisbatan an’anaviy adabiy tahlillar chegarasidan chiqib, uning she’rlaridagi ramziylik, tasavvufiy tafakkur va zamonaviylik unsurlari ochib berildi. Jumladan, Xurshid Davron o‘z maqolasida shunday yozadi: “Usmon Azimning ilk g‘oyasi insonni tushunish edi. Insonni tushunish g‘oyasi aslida yoshlikka xos shijoat bilan atrof muhitda hukmron mol-dunyo xirsiga qarshi borish, hayotning asl mohiyati, insoniylik, insoniylikni qaror toptirish ekanligini uqtirish edi. Bu paytda shoir uchun dunyo aniq ikki qutbdan, oq va qoradan iborat edi. Shu sababdan u insoniy hislarini ham aniq ikkiga bo‘ladi”. Darhaqiqat, Usmon Azim o‘z avlodi bilan birga o‘sdi, insonni tushunish g‘oyasi yillar mobaynida yanada teranlashib bordi.

– **Monografik tadqiqotlar:** Mustaqillikdan so‘ng Usmon Azim ijodi chuqurroq o‘rganila boshlandi. Uning she’riyati tadqiqi, asosan, u bilan hamnafas, davrdosh shoirlar bilan bir qatorda amalga oshirildi. Xususan, 1992-yil Munavvar Farmonova *“80-yillar o‘zbek lirikasida tabiat va inson konsepsiyasi”* nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu dissertatsiya 80-yillar o‘zbek lirikasida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni falsafiy, badiiy va madaniy jihatlardan tadqiq qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda davr adabiyoti kontekstida tabiatning inson ruhiyati,

ijtimoiy hayoti va ma'naviy izlanishlari bilan bog'liqligi, shuningdek, tabiat tasvirining ramziy-ma'naviy ma'nolari o'rganilgan. Dissertatsiyada Usmon Azim she'rlari tabiat va inson uyg'unligining ramziy timsoli sifatida ko'rilgan. Muallifning fikricha, Usmon Azim lirikasida tabiat nafaqat tashqi muhit, balki inson ruhiyatining aksi, ma'naviy izlanishlarining manbayi hisoblanadi. Usmon Azim she'rlarida tabiat motivlari orqali ifodalangan insoniy qadriyatlar, milliy o'zlikning aks etishi va zamondosh hayotning falsafiy talqinlari tahlil qilingan. Olima shoir she'riyati haqida shunday deydi: "Usmon Azimov real dunyoning rangin lavhalarini ruhiyat manzaralariga aylantiradi, u tabiatdan o'zining hayratdan titragan, ishqdan qanot topgan, darddan yongan yurak suvratiga monand timsollarni izlab topadi. Shoir uchun dunyoning betakror go'zalliklarini anglab yetish bilan xayolida murakkab tuyg'ular mujassamlashgan inson qalbini tushunish o'rtasida hech qanday chegara yo'q". Dissertatsiya 80-yillar o'zbek lirikasida tabiat va inson konsepsiyasini keng ko'lamda tadqiq qilgan muhim ilmiy ishlardan hisoblanadi.

Olimlar shoir ijodini tahlilga tortishda psixologik tasvir mahoratiga alohida e'tibor berishdi. Bobonazar Aliyevning 1994-yilda yozilgan "Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi" nomli dissertatsiyasi 1970 – 1980-yillar o'zbek she'riyatida lirik qahramonning ichki dunyosi, psixologik jarayonlar va hissiy komplekslarning badiiy ifodalanishini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Omon Matjon, Usmon Azim kabi davrning yetakchi shoirlari asarlaridagi psixologizmning adabiy-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. B. Aliyevning ta'kidlashicha, U.Azim she'rlarida tabiat, tarix, milliy o'zlik motivlari insonning ichki kechinmalari bilan uyg'unlashgan holda aks etadi: "Usmon Azim ijodida ruhiyat tasviri bosh planga ko'tarilgan. Shoir ruh tarixida – lirik qahramon ruhiyatida qanday qilib bir fikr va hisning paydo bo'lishi, uning rivojlanishi, dastlabki fikr va hisning qanday qilib boshqa fikr va hisga o'sib o'tishini kuzatishga moyillik bildiradi. Kurashchan, murosasiz, haqiqatni ko'ziga boqib, hatto, o'zini ham fosh qilishdan qaytmaydigan U.Azimov lirik qahramoni iztirobli ruhiy kechinmalarga, tragik holatlarga boy". B.Aliyevning dissertatsiyasi 70 – 80-yillar o'zbek she'riyatidagi psixologizmni tizimli o'rganishga urinish bo'lib, lirikada inson ruhiyatining badiiy ifodalanishini ochib beradi.

Dilorom Mirzayeva 1994-yili *"Hozirgi o'zbek lirik she'riyatida badiiy tafsil"* mavzusidagi dissertatsiyani himoya qildi. Dissertatsiyada ushbu davrning yorqin vakillari qatori Usmon Azim ijodi ham tahlilga tortilgan. D.Mirzayeva shoirning "Dars" to'plamidan o'rin olgan "Grafika" she'rini tahlil qilish orqali uning she'riy dunyosidagi nozikliklar, uslubiy xususiyatlar va falsafiy chuqurliklarni ochib bera oldi. Bilamizki, "Grafika" she'ri Usmon Azimning ranglar yordamida murakkab insoniy hisslarni ifodalashdagi mahoratini namoyon etadi. Oq-qora ziddiyati orqali u sevgi va ayriliq, hayot va o'lim, umid va umidsizlik kabi abadiy mavzularga nafis yondashuvni ko'rsatadi. Bu she'r nafaqat o'zbek, balki jahon lirikasi uchun ham badiiy qimmatga ega. Ammo ushbu tadqiqotda shoirning boshqa she'rlari tahlilga tortilgan emas.

I.To'lakov 1994-yili "Hozirgi o'zbek lirikasida davr va qahramon talqini" nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Dissertatsiyada 70-80-yillar vakillari qatorida Usmon Azim ijodiga ham murojaat qilingan. Usmon Azim va zamondosh shoirlar, keksa avlod vakillarining vatan, ishq, erk, istiqlol g'oyasini ilgari suruvchi she'rlari qiyosiy tahlil etilgan.

Dilshod Rajabov 1998-yilda "Badiiy obraz va ritmning o'zaro munosabati" (70-80- yillar o'zbek she'riyati misolida) nomli dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu tadqiqotda Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi qator ijodkorlarning yevropa she'riyati va xalq og'zaki ijodi ta'sirida yaratilgan ijod namunalari tahlilga tortilgan. Usmon Azim she'riyatidagi obraz va ritmik harakatning mavzu va g'oyaga mos ravishda o'zgarishi misollar yordamida ochib berilgan.

Jumaboyeva Jumagulning 2000-yilda himoya qilgan "XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati" nomli dissertatsiyasi zamonaviy o'zbek she'riyatida lirik qahramonning ruhiy olami, hissiy komplekslari va psixologik teranligini ifodalash usullarini o'rganadi. Tadqiqotning ikkinchi bobi 70-80-yillar she'riyati tahliliga bag'ishlangan. Jumladan, Usmon Azim ijodi ham muhim asos sifatida keltirilib, uning she'rlaridagi psixologik tasvirning badiiy jihatlari tahlil qilinadi va shunday xulosaga kelinadi: "Usmon Azim she'rda lirik qahramon – zamon dardlarini davolashga intilgan inson sifatida tarixdan madad olib, kelajakni ham undan bahramand etishga, ajdodlar va avlodlar

qonidagi ruhiy vorislikni saqlab qolishga intilayotgan zamondoshimiz. Uning ruhiyatida kezayotgan bezovtalik tuyg‘usi barchaga oshno tuyg‘u”.

Anisaxon Mamatovaning “O‘zbek adabiyotida sarbast she’rning shakllanishi va uning badiiy estetik xususiyatlari” (2000) nomli nomzodlik dissertatsiyasida ushbu shaklda go‘zal namunalar yaratgan taniqli shoirlar qatori Usmon Azim she’rlari ham tahlilga tortiladi. Muallif shoirning sarbast shaklda yozilgan “Mayda tuyg‘ular” nomli she’rini tahlil eta turib, she’rdagi insonni tushunish g‘oyasi haqida shunday yozadi: “Har qanday kishini ham, u yolg‘onchi bo‘ladimi-boshqami, tushunish kerak, degan fikr o‘zbek she’riyati uchun muayyan darajada o‘ziga xos yangilik sanaladi. Insonni tushunish, idrok qilish, anglash borasidagi har bir yangilik esa adabiy tafakkurning o‘sganligidan dalolat beradi”.

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim ijodini o‘rganish sohasida quyidagi asosiy yo‘nalishlar aniqlangan:

1. Folklor va milliy an'analar bilan bog‘liqlik – Shoirning “Baxshiyona” kabi asarlari xalq og‘zaki ijodi va milliy qahramonlik dostoni an'analariga asoslanganligi tadqiq etilgan .

2. Tabiat mavzusi va majoziy til – U. Azim she'rlarida tabiat inson ruhiyati va axloqiy qadriyatlar ifodasi vositasi sifatida ishlatilgan .

3. Psixologik chuqurlik – Shoir ijodida inson ruhiyatining murakkab jihatlari, his-tuyg‘ular va falsafiy izlanishlar aks ettirilgan .

4. Badiiy uslubning o‘ziga xosligi – Uning she'rlarida xalqona sodda til bilan chuqur falsafiy mazmun uyg‘unlashgan .

Usmon Azim ijodining o‘rganilishi 1970-yillardan boshlab hozirgi kungacha turlicha bosqichlardan o‘tgan. Dastlab tanqidiy baholar bilan boshlangan tadqiqotlar zamonaviy ilmiy metodlar bilan boyib, uning ijodini yangi nuqtai nazardan tahlil qilmoqda. Uning she’riyati nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti kontekstida ham o‘zining o‘rniga ega. Biz undan bir tomchisinigina sizga taqdim etdik. Kelajakda shoir ijodiga bo‘lgan tadqiqotlar yanada kengayib, yangi talqinlar bilan boyishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Алиев Б. Ҳозирги замон ўзбек шеъриятида психологизм муаммоси. Фил. фан. ном. дис. – Тошкент, 1994. – Б. 148-149..

2. Ашур С. Ўзгараётган бадиий тафаккур. // Ёзувчи, 1997. 30 июль

3. Даврон Х. Бўлар элнинг шоири. //Туркистон газ. 1996, 12 октябръ.

4. Фармонова М. 80-йиллар ўзбек лирикасида табиат ва инсон концепсияси. Фил. фан. ном. дис. – Тошкент, 1992. – Б.96.

5. Ҳаққул И. Замон ва виждон ерки. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1987, 21 август.

6. Ҳаққул И. Ғуссали юрак – ёлқинли юрак. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996,11 октябр

7. Жумабоев Ж. Кўксимни очаман. // Ёшлик. 1999. 3-сон. – Б.48.

8. Маматова А. Ўзбек адабиётида сарбаст шеърнинг шаклланиши ва унинг бадиий-эстетик хусусиятлари. Фил. фан. ном. дис. – Тошкент, 2000. – Б.66.

9. Мирзаева Д. Ҳозирги ўзбек лирик шеъриятида бадий тафсил. Фил. фан. ном. дис. – Тошкент, 1994. – Б.124.

10. Ражабов Д. Бадиий образ ва ритмнинг ўзаро муносабати. Фил фан номз. дисс. –Тошкент, 1998. – Б.133

11. Тўлаков И. Нурли манзиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.24-25.

12. Тўлаков И. Хозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини Филол фанлари д-ри дис. – Тошкент, 1994. – Б.293.

13. Ғофуров И. Оҳанграбо қаерда. // Ўзбекистон маданияти. – 1979, 13 февраль.

14. Шарофиддинов О. Талант халқ мулки. – Тошкент: Ёш гвардия, 1979. – Б. 80 – 90.

15. Шукуров Н. Сўз сеҳри – шеър меҳри. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б.113-115.

UO’K 159.922; 159.922.6; 159.923

“YAXSHILIK” VA “YOMONLIK” AXLOQIY TUSHUNCHALARI, INSON AXLOQINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

N.M.Nazarova, dots., Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “yaxshilik” va “yomonlik”ning mohiyatini o‘rganish asrlar davomida faylasuf, olim va tadqiqotchilarning o‘rganish mavzusi bo‘lib kelganligi hamda “yomonlik” va “yaxshilik” axloqiy tushunchalar sifatida bir-biri bilan chambarchas lekin qarama-*

qarshi tushunchalar ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek "yaxshilik" va "yomonlik" tushunchalari haqidagi munozaralardan ayrim misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *yaxshi, yomon, yaxshilik,yomonlik, tushuncha,axloqiy, ma'no, mohiyat, me'yor, faylasuf*

Аннотация. *Эта статья исследует суть понятий "добро" и "зло", которые изучались философами, учеными и исследователями на протяжении веков. Подчеркивается, что моральные концепции "зла" и "добра" тесно связаны друг с другом, но при этом являются противоположными идеями.Приводятся также примеры из дискуссий о понятиях "добро"и "зло".*

Ключевые слова: *хороший, плохой, добро, зло, концепция, мораль, смысл, сущность, норма, философ*

Abstract. *This article explores the essence of "good" and "evil", which has been studied by philosophers, scientists, and researchers for centuries. It emphasizes that the moral concepts of "evil" and "good" are closely interconnected yet opposing ideas. Some examples are also given from discussions about the concepts of "good" and "evil".*

Keywords: *good, bad, goodness, evil, concept, morality, meaning, essence, norm, philosopher*

Biz kundalik nutqda "yaxshi"/"yomon" yoki "yaxshilik"/"yomonlik" tushunchalarini ularning ma'nosi haqida chuqur o'ylamasdan ishlatamiz. Ushbu tushunchalar hayotda axloqiy baholashning eng umumlashtirilgan shakllari bo'lib, ular axloqiy va axloqsiz narsalarni ajratishga xizmat qiladi.

Asrlar davomida "yaxshilik" va "yomonlik" tushunchalari keng tarqalgan. Ular shaxsiy tabiatga ega bo'lmasa-da, axloq masalalarida asosiy rol o'ynaydi. Ta'kidlanganidek, "yaxshilik" va "yomonlik"ning mohiyatini o'rganish asrlar davomida faylasuf, olim va tadqiqotchilarning o'rganish mavzusi bo'lib kelgan. "Yomonlik" axloqiy tushuncha sifatida, mohiyatiga ko'ra "yaxshilik"ka qarama-qarshi tushunchadir.

Keng ma'noda, "yomonlik" jamoat axloqiy me'yorlariga zid bo'lgan, qattiq tanqid va qoralashga loyiq bo'lgan barcha harakatlarni o'z ichiga oladi. Aksincha, "yaxshilik" tushunchasi mehribonlik tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu shaxsning ijobiy xususiyati, uning yuksak axloqiy qadriyatini ko'rsatadi. "Yaxshi" atamasi insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan hamma narsani o'z ichiga oladi. Bunga tabiiy resurslar, ta'lim va turli madaniy asarlar kiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, foydali narsa har doim ham yaxshilik bilan tenglashtirilmaydi.

"Yaxshilik" tushunchasi ruhiy farovonlikning bir shaklidir. Axloqiy ma'noda bu tushuncha ko'pincha "yaxshi" so'zining o'rnini bosuvchi sifatida ishlatiladi. "Yaxshilik" eng keng tarqalgan manfaat, intilishlarni bildiradi – hayotda nima bo'lishi kerak va nima ma'qullashga loyiq. Zamonaviy etika yaxshilik tushunchasini turli xil, ammo o'zaro bog'liq jihatlarda aniqlaydi. Jumladan: 1) yaxshilik ma'lum bir harakatning o'ziga xos xususiyati; 2) ijobiy axloqiy me'yorlar to'plami; 3) harakatning axloqiy maqsadi; 4) isonning axloqiy atributi.

Falsafada "yaxshilik" va "yomonlik" tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq deb ta'kidlanadi. Mutlaq yaxshilik ham, mutlaq yomonlik ham yo'q. Har bir yomon ishda hech bo'lmaganda yaxshilikning mayda zarrasi, har bir yaxshilikda yomonlik elementlari mavjud. Bundan tashqari, "yaxshilik" va "yomonlik" joylarini o'zgartirishi mumkin. Masalan, Spartada jismoniy nogiron yangi tug'ilgan bolalar chuqurlikka tashlangan. Yaponiyada esa bir paytlar keksa va nochor odamlar tiriklayin "o'lim vodiysi"ga olib ketilgan. Hozir vahshiylik deb ataladigan narsa bir vaqtlar xayrli ish hisoblangan. Hatto bizning davrimizda ham ba'zi harakatlarni bir vaqtning o'zida ham yomon, ham yaxshi deb hisoblash mumkin. Bu bevosita vaziyatga bog'liq. Jumladan, agar politsiyachi ketma-ket otishmada qotilning hayotiga zomin bo'lsa, unda bu holda jinoyatchining o'ldirilishi "yaxshilik" sifatida qabul qilinadi.

"Yomonlik" ham axloqiy kategoriya bo'lib, "yaxshilik"ning aksidir. Unda axloqsiz harakatlar, shuningdek, o'zga odamlarga zarar yetkazadigan illatlar haqidagi turli fikrlar umumlashtiriladi. Bu harakat va fazilatlar axloqiy tanqidga loyiqdir. "Yomonlik" – bu jamiyat va shaxsning yaxshiligiga

qarshi bo‘lgan hamma narsa: kasallik, irqchilik, byurokratiya, turli jinoyatlar, shovinizm, alkogolizm, giyohvandlik va h.k.

Shuning uchun ham “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari haqidagi munozaralar eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Fridrix Nitsshe odamlarni “yovuz hayvonlar” deb atagan, Jan-Jak Russo esa “Рассуждении о неравенстве” (“Tengsizlik haqidagi fikr-mulohazalar”) maqolasida shaxslar jamiyat tomonidan buzilgan tug’ma mehribonlikka ega ekanligini ta’kidlagan. Russoning bayonoti asl gunoh va keyinchalik imon orqali qutqarish haqidagi diniy tushunchaga zid deb qaralishi mumkin. Immanuil Kantning inson ichida yaxshilik va yomonlik borligi haqidagi qarashlari ham o‘ziga xos. U inson xarakteri tabiatan yovuz, yomonlik qilishga moyillikni o‘z ichiga oladi, deb ishongan. Biroq, inson ijobiy fazilatlarga ega bo‘lib, axloqiy tarbiya ushbu moyilliklarni bartaraf etishga qaratilishi kerak.Ko‘pgina faylasuflarning ta’kidlashicha, shaxs tabiatan yaxshilikka moyil bo‘lib, hayotida yovuzlikni tanlaganlar me’yordan og’gan bo‘lib, ular istisnolardir. Dunyodagi yaxshilik va yomonlikni sog’liq hamda kasallik bilan solishtirish mumkin: yaxshilikni tanlaganlar axloqiy jihatdan sog’lom, yomonlikni qabul qilganlar esa axloqiy buzuqlik, xarakterning deformatsiyasidan aziyat chekishadi.

“Yaxshilik” va “yomonlik” axloqiy tushunchalar bo‘lib, ular inson axloqining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qiladi va fikr, his-tuyg’u hamda harakatlarning qutbliligini aks ettiradi. Ular shaxsning ma’naviy tajribasi bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, bu ularning sifatini belgilaydi. Ushbu toifalar axloq va axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yaxshilik – bu eng yuqori qadriyat sifatida yuksak idealga nisbatan hodisalarning ijobiy ahamiyatini ifodalovchi axloqiy tushuncha.

Yovuzlik axloqiy idealdan chetga chiqadigan va axloqsizlikka olib keladigan barcha narsani anglatadi.

Axloqiy ta’limotlarning tarixiy rivojlanishi davomida dunyoda yaxshilik va yomonlikning mutlaq yoki nisbiy mavjudligi muammosini ko‘rib chiqish uchun turli yondashuvlar paydo bo‘ldi.

Aksariyat diniy ta’limotlar, jumladan, Nasroniylik, Islom va Buddizm dunyodagi yaxshilikning mutlaqligi va yovuzlikning nisbiyligiga ishonishga amal qiladi.

V.S.Solovyov, axloqiy fazilat burch hissi bilan amalga oshirilgan harakatlarni qamrab oladi va universal xarakterga ega, deb uqtiradi. Uning ta’kidlashicha, axloqiy fazilat aql bilan haqiqat yoki majburiyatlarning bajarilishi sifatida belgilanadi. Bundan tashqari, insonga foyda keltiradigan hamma narsa yaxshi. Ideal holda, yaxshilik va ezgulik bir-biridan ajralmas, ikkinchisi esa birinchisining bevosita, universal va zaruriy natijasi bo‘lib, yaxshilikning so‘zsiz maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ifodalaydi.

Shuning uchun yaxshilik individual mavjudlikning mutlaq va nisbiy asosi sifatida qaraladi.

Mutlaq ma’noda, yaxshilik insoniyatning abadiy va haqiqiy mukammalligini anglatadi. Bu inson ongida imkoniyat sifatida, ijtimoiy rivojlanishning tarixiy jarayonida esa voqelik sifatida amalga oshiriladi.

Nisbiy ma’noda yaxshilik boshqalarga nisbatan xayrixohlik ifodasidir.

“Yomonlik” va “yaxshilik” quyidagi sabablarga ko‘ra o‘zaro bog’liqdir: 1) ular birgalikdagi mavjudligi orqali bir-birlarini bilishadi; 2) yaxshilikni tushunmasdan yomonlikka qarshilik qilish mumkin emas.

Ular o‘zlarining mavjudligini inkor etish orqali o‘zlarining mavjudligiga ta’sir qiladigan qarama-qarshi kuchlardir.

“Yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari axloqiy tamoyillar va xulq-atvor me’yorlarini o‘rganadigan axloq sohasida katta ahamiyatga ega. Ushbu tushunchalar to‘g’ri va yomonni, axloqiy jihatdan maqbul va qabul qilib bo‘lmaydigan narsalarni ajratishga imkon beradigan asosiy toifalar bo‘lib xizmat qiladi.

Yaxshilik odatda kerakli, foydali va axloqiy jihatdan halol narsa sifatida ta’riflanadi. Bu adolat, rahm-shafqat, halollik va olijanoblik tushunchalari bilan bog’liq. Shuningdek, yaxshilik hamma uchun uyg’unlik, baxt va farovonlik ramzidir.

Aksincha, yovuzlik istalmagan, zararli va axloqiy jihatdan noto‘g’ri narsa sifatida ta’riflanadi. Bu zo‘ravonlik, shafqatsizlik, xudbinlik va adolatsizlik g’oyalari bilan bog’liq. Yomonlik azob-uqubat, baxtsizlik va halokatga olib keladi.

Yaxshilik va yomonlikning ta’riflari madaniy, diniy va axloqiy e’tiqodlarga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, ba’zi umumiy xususiyatlar ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Yaxshilik va yomonlik har doim ham mutlaq tushunchalar emasligini tan olish juda muhimdir. Ular nisbiy bo‘lishi mumkin va kontekst va sharoitlarga bog‘liq. Masalan, bir vaziyatda yaxshi deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan harakat boshqasida yomon deb hisoblanishi mumkin.

Axloq sohasida yaxshilik va yomonlikni o‘rganish axloqiy ongni rivojlantirishga va adolat, axloq hamda insonparvarlik tamoyillariga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farqni tushunish bizni eng yaxshisiga intilishga va yanada adolatli jamiyat qurishga hissa qo‘shishga undaydi.

Yaxshilik va yomonlik tushunchalari subyektiv, turli fikr va talqinlarga ochiq bo‘lishi mumkin. Ular ko‘pincha bahs-munozaralar mavzusiga aylanadi, chunki har bir inson yaxshilik va yomonlik haqida o‘z tushunchasiga ega. Masalan, ba’zi odamlar o‘lim jazosini shafqatsiz amaliyot sifatida ko‘rishlari, boshqalari esa jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun zarur deb hisoblashlari mumkin.

Yaxshilik va yomonlik natijasi ham shaxslarga, ham butun jamiyatga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yaxshi ishlar qilish shaxsiy farovonlik, baxt va ijtimoiy uyg’unlikka olib kelishi mumkin. Aksincha, yovuzlik harakatlarida ishtirok etish zarar, azob va halokatga boshlashi muqarrar. Shuning uchun yaxshilikka intilish va yomonlikdan qochish har bir inson uchun eng muhim vazifadir.

Yaxshilik va yomonlik fazilatlari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lishi mumkinligini tushunish muhimdir. Ularga madaniyat, ta’lim, din va shaxsiy e’tiqod kabi ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Shu sababli, axloq sohasida axloqiy ongni rivojlantirish va hayotimizda ongli qaror qabul qilish uchun ushbu tushunchalarni tahlil qilish hamda muhokama qilish muhimdir.

Yaxshilik va yomonlik tushunchalari kundalik hayotimizga va atrofimizdagilarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi ishlar qilish ijobiy muhit yaratadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarimizni mustahkamlaydi.

Yomon harakatlar esa salbiy oqibatlarga olib kelishi va o‘z hayotimizga ham zararli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuning uchun harakatlarga diqqatli bo‘lish va kundalik hayotda yaxshilikka intilish juda muhimdir. Hatto kichik yaxshilik ham vaziyatni sezilarli darajada o‘zgartirishi, nafaqat o‘z hayotimizda, balki boshqalarning hayotida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, “yaxshi” va “yomon” tushunchalari murakkab tarzda chuqur bog’langandir. Yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi munosabatni falsafiy tahlil qilib, biz adolat ko‘lamini kengaytirishga, farovonlikni maksimal darajada oshirishga harakat qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.https://www.syl.ru/article/378769/dobro-i-zlo-sut-dobra-i-zla-predstavlenie-ob-etih-dvuh-ponyatiyah-ih-vzaimosvyaz-v-jizni

2.Ницше Ф. По ту сторону добра и зла. Перевод на русский К.А.Свасьян, Н.Н.Полилов. – Фолио, 2013. – 448 с.

3.gallerix.ru https://gallerix.ru/news/lit/202208/rassuzhdenie-o...

4.Соловёв В.С. Оправдание добра. – М.: Азбука, 2021. – 768 с.

UO’K 81.14

INGLIZ VA O‘ZBEK SUD DISKURSIDA YURIDIK JARGONNING ARGUMENTATSIYANI TUSHUNISHGA TA’SIRI

T.J.Nizomova, o‘qituvchi, Renessans Ta’lim Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek sud diskursida yuridik jargonning argumentatsiyani tushunishga ta’siri tahlil qilinadi. Yuridik jargonning protsessual rasmiylikni oshirish bilan birga oddiy tinglovchilar uchun tushunarli bo‘lmagan holatlar yaratishi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotda jargonning sud protsessida kommunikativ muammolarni keltirib chiqarishi va sud qarorlariga ta’siri*

o'rganiladi. Maqolada jargon ishlatilganda uni oddiy tilda tushuntirish va "oddiy yuridik til" strategiyalaridan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *yuridik jargon, sud diskursi, argumentatsiya, tushunish, kommunikativ muammolar, huquqiy til, guvoh, sud protsessi, tilshunoslik, huquqiy aniqlik, adolat, sud qarori, til vositalari.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу влияния юридического жаргона на понимание аргументации в английском и узбекском судебном дискурсе. Отмечается, что юридический жаргон повышает процессуальную формальность, но создает трудности для обычных участников. В исследовании рассматриваются коммуникативные проблемы, возникающие из-за жаргона, и его влияние на судебные решения. В заключении подчеркивается необходимость объяснения жаргона простым языком и применения стратегий "plain legal language" для более эффективной и справедливой судебной коммуникации.*

Ключевые слова: *юридический жаргон, судебный дискурс, аргументация, понимание, коммуникативные проблемы, юридический язык, свидетель, судебный процесс, лингвистика, юридическая ясность, справедливость, судебное решение, языковые средства*

Abstract. *The article analyzes the impact of legal jargon on the comprehension of argumentation in English and Uzbek courtroom discourse. It highlights how legal jargon enhances procedural formality but creates challenges for ordinary participants. The study examines the communicative problems caused by jargon and its influence on court decisions. The paper concludes that explaining jargon in plain language and adopting "plain legal language" strategies are necessary for more effective and just courtroom communication.*

Keywords: *legal jargon, courtroom discourse, argumentation, comprehension, communicative challenges, legal language, witness, trial process, linguistics, legal clarity, justice, court decision, language devices.*

Kirish. Sud diskursi zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida qaraladi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek sud diskursida yuridik jargon muhim o'rin tutadi. Yuridik jargon – bu huquqiy aniqlikni ta'minlash, protsessual barqarorlik va sud ishtirokchilarining maqomini mustahkamlashga xizmat qiluvchi maxsus til shaklidir[1]. Shu bilan birga, jargonning murakkabligi va semantik qatlamlari argumentatsiya jarayonida oddiy guvoh va tinglovchilar uchun tushunarli bo'lmagan to'siqlarni yuzaga keltiradi[2]. Bu esa, sud protsessining adolat tamoyillariga va sud qarorining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuridik jargonning argumentatsiyaga ta'siri ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: bir tomondan, jargon protsessual rasmiylikni va huquqiy aniqlikni ta'minlaydi [3]; boshqa tomondan, jargon sud protsessida ishtirokchilarning, xususan guvohlar va oddiy tinglovchilarning tushunishini qiyinlashtiradi, shuningdek, sud qarorlarining adolatli qabul qilinishiga to'sqinlik qiladi[4]. Ingliz va o'zbek sud diskursida jargonning argumentatsiyani tushunishga ta'siri ayniqsa dolzarb bo'lib, sud protsessining samaradorligiga va sud ishtirokchilarining huquqlariga bevosita aloqador.

Adabiyotlar tahlili: yuridik jargon va tushunish. Ingliz yuridik tizimida jargonning keng qo'llanishi tarixan shakllangan. Bu tizimda lotin va fransuz tillaridan olingan atamalar keng tarqalgan. Masalan, "*res ipsa loquitur*" (hodisa o'zi gapirib beradi), "*habeas corpus*" (shaxs erkinligini himoya qilish uchun sud buyrug'i) kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Tilshunos B.A.Garner ta'kidlashicha, bunday atamalardan foydalanish sud qarorlarining aniqligini oshirishga yordam beradi. Biroq, tadqiqodchi P.Tiersmaning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bu atamalarning haddan tashqari qo'llanilishi sud jarayonida ishtirok etayotgan oddiy fuqarolar uchun murakkabliklar tug'dirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sudlarda oddiy fuqarolar jargonni tushunmasligi tufayli ularning huquqlari cheklanishi mumkin[7]. Shuningdek, ingliz sud diskursida ritorik savollar va freym strategiyalari keng qo'llanadi. Ritorik savollar yordamida advokatlar auditoriyani ongli ravishda o'z dalillariga qaratadi va psixologik ta'sir kuchaytiradi. Masalan, "*Did the defendant really think he could get away with this crime*?" kabi gaplar sud jarayonida hakamlar hay'atiga dalil sifatida ishlaydi. Bu uslub hozirgi kunda ham ko'plab sud muhokamalarida qo'llanilib, argumentatsiyaning kuchli quroli sifatida xizmat qiladi [8]. Freym strategiyalar esa dalilni oldindan belgilangan

kontekstdan turib tushuntirib, auditoriyaning qabul qilish doirasini chegaralaydi. Masalan, advokat muayyan faktlarni “*It is clear from the evidence that…”* deb boshlash orqali voqelikni o‘z nuqtai nazaridan tushuntirib beradi va bu esa auditoriyani kerakli pozitsiyaga tayyorlaydi.

O‘zbekiston sud tizimida yuridik jargon asosan rus va o‘zbek tillaridagi atamalarning aralashmasidan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida[9] "qonuniy kuchga kirgan hukm", "tomonlarning kelishuvi" kabi atamalar keng qo‘llaniladi. Xalimov ning tadqiqotlariga ko‘ra, bu atamalarning ba’zilari noaniq tarjima qilinganligi sababli turli talqinlarga olib kelishi mumkin. Masalan, "huquqiy vakolat" atamasi ba’zan "vakolatnoma" bilan aralashib ketishi sud jarayonida noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin[10].

Ikki tizimdagi yuridik jargonning taqqoslovchi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz yuridik tizimida jargon aniqroq va standartlashtirilgan bo‘lsa-da, u tushunish uchun qiyinroq. O‘zbekiston sud tizimida esa jargon nisbatan oddiyroq bo‘lsa-da, ba’zi hollarda noaniqliklar mavjud. Bu holat sud qarorlarining sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yuqoridagi mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, yuridik jargon argumentatsiyani kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatilsa-da, uning murakkabligi oddiy ishtirokchilar uchun tushunishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, maqolaning asosiy qismi ingliz va o‘zbek sud diskursida jargonning argumentatsiyani tushunishga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Ingliz va o‘zbek sud diskursida yuridik jargonning argumentatsiyaga ta’siri

Sud jarayonida argumentatsiya — bu sud ishtirokchilarining o‘z pozitsiyalarini asoslash va sud qaroriga ta’sir qilish uchun olib boradigan nutqiy faoliyatidir. Ushbu jarayonda yuridik jargon advokat va prokurorlar uchun asosiy qurol sifatida xizmat qiladi. Ingliz sud diskursida jargonli iboralar protsessual aniqlik va professional mavqeni belgilashga yordam beradi. Masalan, ingliz sud diskursida “mantiqan shubhadan tashqari, mantiqan shubhasiz” *(beyond a reasonable doubt)* iborasi prokurorlar tomonidan jinoyat ishlarida ayblovning isbotlanishini kuchaytiruvchi huquqiy formuladir[2]. Shu tarzda jargon ishtirokchilarning argumentlarini rasmiy va ta’sirli ko‘rsatadi. Alkabiri o‘z maqolasida jargonning sud zalida persuazivlikni oshirishini va hakamlar hay’ati qarorlariga bevosita ta’sir qilishini tahlil qiladi[5]. Ammo ayni paytda jargon oddiy guvohlar uchun tushunarsiz bo‘lib qoladi. Tkachuková jargonning murakkab tuzilishi va terminologik qatlamlari guvohlar va tinglovchilarda savol-javob jarayonida chalkashliklarni yuzaga keltirishini ta’kidlaydi. Bu esa prokuror va advokatning argumentini to‘liq tushunishni qiyinlashtiradi va guvohlarning javoblarini noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi. Ingliz sudlarida tezkor yoki qisqacha hukmni anglatuvchi “*summary judgment*” yoki “*amicus curiae*” kabi iboralar guvohlar uchun noaniqlik tug‘diradi, bu esa protsessual jarayonning adolatli kechishiga salbiy ta’sir qiladi[1].

O‘zbek sud diskursida esa jargon ko‘pincha rus tilidan o‘zlashgan yoki o‘zbek tilidagi murakkab rasmiy iboralar shaklida qo‘llaniladi. Masalan, “*ayblov e’lon qilindi*”, “*fuqarolik ishlari bo‘yicha hal qilindi*” kabi iboralar oddiy tinglovchi uchun murakkablik tug‘dirishi mumkin. Bu kabi holatlarni mutaxassislar jargonning murakkabligi argumentatsiya jarayonida ishtirokchilarning tengligini buzadi va guvohlarning javoblarini chalkashtirib yuboradi deb ta’kidlashadi. Bu esa sud protsessida dalilning sifatini va argumentatsiyaning samaradorligini pasaytiradi.

O‘zbek sud amaliyotida ko‘pincha sud qarorlari matnida jargon rasmiylashtirish vazifasini bajaradi, ammo ularning murakkabligi oddiy ishtirokchilar uchun tushunarsiz bo‘lib qoladi. Shu sababli advokatlar va prokurorlar tomonidan ishlatilgan jargon sud protsessida muloqot samaradorligini pasaytiradi va argumentatsiyani to‘liq tushunishga xalaqit beradi. Umuman olganda, ingliz va o‘zbek sud diskursida yuridik jargonning argumentatsiyaga ta’siri ikki tomonlama: bir tomondan, u protsessual aniqlik va professional mavqeni oshiradi; ikkinchi tomondan, u oddiy ishtirokchilar uchun tushunarsiz bo‘lib, kommunikativ muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, jargon ishlatilganda uni oddiy tilda tushuntirish, “oddiy yuridik til” strategiyasidan foydalanish sud protsessining adolat tamoyillarini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillar asosida ingliz va o‘zbek sud diskursida yuridik jargonning argumentatsiyani tushunishga bevosita ta’siri ikki tomonlama ekanligi aniqlandi. Bir tomondan, jargon sud protsessida huquqiy aniqlikni va protsessual rasmiylikni oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, advokat va prokurorlarning professional maqomini mustahkamlab, sud qarorining dalilliligi va huquqiy asoslanganligini ko‘rsatadi [3; 5]. Masalan, ingliz sud diskursida “beyond a

reasonable doubt" kabi iboralar prokurorning argumentini sudya va hakamlar hay'atiga yetkazishda kuchli vosita sifatida ishlatiladi [2]. Shu tarzda jargon protsessual ustunlik va huquqiy nazorat vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Biroq ikkinchi tomondan, jargonning murakkabligi va semantik qatlamlari oddiy ishtirokchilar, ayniqsa guvohlar uchun tushunishni qiyinlashtirib, argumentatsiya jarayonida kommunikativ muammolarni yuzaga keltiradi[1]. Ingliz sud diskursida jargon guvohlar va tinglovchilar uchun tushunarsiz bo'lib, ularning savollarga to'liq va aniq javob berishlariga xalaqit beradi. O'zbek sud diskursida esa jargon ko'pincha rus tilidan o'zlashgan murakkab atamalar orqali ifodalanadi, bu esa argumentatsiyani tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va sud qarorlarining adolatli qabul qilinishiga to'sqinlik qiladi[6].

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Avvalo, sud protsessida jargon ishlatilganda uni oddiy tilda tushuntirish amaliyotini joriy etish muhim[3]. Masalan, "summary judgment" iborasini "ish bo'yicha tezkor qaror" sifatida izohlab berish mumkin. Bu guvohlar va oddiy tinglovchilar uchun protsessual jarayonni tushunarli qiladi. Shu bilan birga, sud protsessida advokat va prokurorlarning nutq madaniyatini oshirish bo'yicha treninglar tashkil etish ham jargonning salbiy ta'sirini kamaytiradi [2]. Ikkinchidan, sud hujjatlari va qarorlarini mediatizatsiya qilishda jargon uchun tushuntirishli glossariylar yaratish lozim. Bu fuqarolar uchun sud qarorining mazmunini tushunishni osonlashtiradi va sud tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi[6]. Uchinchidan, tarjimonlar va sud stenograflarining malakasini oshirish va jargonni oddiy tilda izohlab yetkazish bo'yicha treninglar tashkil etish muhim[4]. Bu nafaqat kommunikativ muammolarni kamaytiradi, balki sud protsessining adolatli va tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

Ingliz va o'zbek sud diskursida yuridik jargon argumentatsiyaning asosiy unsurlaridan biri sifatida xizmat qiladi, biroq uning murakkab sintaktik va leksik xususiyatlari oddiy auditoriya uchun tushunishni qiyinlashtiradi. Ingliz tilidagi yuridik jargon ko'pincha Lotin va fransuz tillaridan olingan terminlardan tashkil topib, professional auditoriyani huquqiy aniqlik bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, "*mens rea*", "*actus reus*" kabi atamalar oddiy tinglovchilar uchun begona bo'lib, matnda ko'pincha syntaktik murakkablik va passiv gaplar bilan birga ishlatiladi. Massachusets va boshqa shtatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda bunday jargon sud ko'rsatmalarini tushunishda qiyinchilik tug'dirishi aniqlangan. O'zbek yuridik diskursida esa jargon asosan tarjima asosida shakllangan bo'lib, rus va ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri olingan terminlar matnni ortiqcha rasmiylashtirib yuboradi. Masalan, "huquqiy vakolat" yoki "ish materiallari asosida" kabi iboralar protsessual aniqlikni ta'minlasa-da, oddiy fuqarolar uchun tushunishni murakkablashtiradi. O'zbek tilida ham rasmiylashtirilgan iboralar sud jarayonida hukm matnlarida va protsessual hujjatlarda ko'p uchraydi, bu esa matnning qattiq rasmiy ko'rinishda qolishiga olib keladi. Ingliz tilida esa oddiy Ingliz tili harakati orqali matnlarni oddiylashtirishga katta e'tibor berilayotgani, comprehensionni sezilarli darajada oshirgani kuzatilgan.

Xulosa. Umuman olganda, ingliz va o'zbek sud diskursida yuridik jargonning argumentatsiyani tushunishga bo'lgan ta'siri sud protsessining samaradorligi va adolat prinsiplariga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli jargonning oddiy tilda tushuntirilishi va "plain legal language" strategiyalarining sud protsessiga tatbiq etilishi dolzarb vazifa hisoblanadi. Sud tilshunosligida ushbu yondashuv sud qarorlarining sifatini oshirib, sud jarayonida ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tkačuková, T. (2010). The Power of Questioning: A Case Study of Courtroom Discourse. Discourse and Interaction, 3(2), 49–63.

2. Al-Saidi, M. (2020). The Language of Persuasion in Courtroom Discourse: A Computer-Aided Text Analysis. International Journal of Advanced Computer Science and Applications, 11(7), 333–340.

3. Kagaba, A. G. (2025). The Linguistic Nuances of Legal Jargon. Research Invention Journal of Current Issues in Arts and Management, 4(2), 16–19. https://doi.org/10.59298/RIJCIAM/2025/421619

4. Nfor, F. M., Muluh, C., & Chenwi, J. (2024). Language and Courtroom Discourse: A Pragmatic Appraisal of Question Types in the Bamenda Court of First Instance. American Journal of Literature Studies, 3(3), 29–43.

5. Alkabiri, M. A. (2024). Argumentation Strategies in Courtroom Discourse. World Journal of English Language, 14(2), 366–378.

6. Discourse Analyzer. (2025). Courtroom Discourse in Discourse Analysis. https://discourseanalyzer.com/courtroom-discourse-in-discourse-analysis/

7. Tiersma, P. (2006). Legal Language. University of Chicago Press.

8. Charrow, V. R., & Charrow, R. P. (1979). Making legal language understandable: A psycholinguistic study of jury instructions. Columbia Law Review, 79(7), 1306–1374.
9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (2023). Toshkent: Adolat.
10. Xalimov, R. (2020). O'zbekistonda huquqiy terminologiyaning rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston.
11. Nizomova T. (2024). Lexical-Semantic Features of Uzbek Legal Discourse. Pedagog, 7(1), 220–230.

UO'K 81-13

EKRAN UCHUN TARJIMA VA BOSMA MATNLARNI TARJIMA QILISH: QIYOSIY YONDASHUV

F.Sh. Norbekova, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ekran uchun tarjima (screen translation) va bosma mahsulotlarni tarjima qilish (print translation) o'rtasidagi farqlar lingvistik, stilistik va texnologik jihatlarda tahlil qilinadi. Audiovizual vositalar bilan ishlashda yuzaga keladigan multimodal muammolar, vaqt va makon cheklovlari, subtitr, dubbing yoki voice-over formatlariga mos tarjima strategiyalari ekran tarjimasining murakkabligini ko'rsatadi. Bosma matn tarjimasi esa matnning stilistik yaxlitligi, tafsilot va til sathidagi chuqurlikni talab etadi. Ikkala turdagi tarjima jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, tarjimon oldidagi vazifalar va yakuniy iste'molchi ehtiyojlari asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ekran tarjimasi, bosma tarjima, multimodal kontekst, subtitr, dubbing, lingvistik moslashuv*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ перевода для экрана (screen translation) и перевода печатных материалов (print translation) с лингвистической, стилистической и технологической точек зрения. Подчеркивается, что работа с аудиовизуальными средствами сопровождается множеством мультимодальных трудностей, ограничениями по времени и пространству, а также необходимостью адаптации к форматам субтитров, дублирования или закадрового перевода. В отличие от этого, перевод печатных текстов требует стилистической целостности, внимания к деталям и глубокой языковой проработки. В статье рассматриваются уникальные особенности каждого типа перевода, задачи, стоящие перед переводчиком, и потребности целевой аудитории.*

Ключевые слова: *перевод для экрана, перевод печатных текстов, мультимодальный контекст, субтитры, дублирование, языковая адаптация*

Abstract. *This article provides a comparative analysis of screen translation and print translation from linguistic, stylistic, and technological perspectives. It highlights the challenges of working with audiovisual materials, including multimodal issues, time and space constraints, and the need to adapt to subtitling, dubbing, or voice-over formats. In contrast, print translation requires stylistic coherence, attention to detail, and deep linguistic analysis. The article explores the specific features of both types of translation, the responsibilities of the translator, and the needs of the target audience.*

Keywords: *screen translation, print translation, multimodal context, subtitling, dubbing, linguistic adaptation*

Ekran uchun tarjima — bu audiovizual mahsulotlar (filmlar, seriallar, hujjatli ko'rsatuvlar, multfilmlar va boshqalar)ni boshqa tilga moslashtirish jarayonidir. Bu turdagi tarjimada nafaqat matn, balki tasvir, tovush, musiqa va jest/mimika kabi ko'plab yaratuvchi elementlar birgalikda ishlaydi. Shu sababli, ekran tarjimasi polisemiyali va ko'pmodal (multimodal) xususiyatga ega. Gunilla Anderman (2007) fikricha, ekran tarjimasi "matnni emas, balki muloqotni tarjima qilish"dir, ya'ni bu turdagi tarjima vizual va verbal elementlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashi kerak. Frederik Chaume (2004) esa ekran tarjimasini "polikodli kommunikatsiya vositasi" deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, har qanday AVT mahsulotida vizual kod, verbal kod, paralel tovush kodlari va grafik kodlar mavjud bo'lib, ularning tarjimada uyg'unlashtirilishi zarur. Díaz-Cintas va Remael (2007) esa ekran

tarjimasi strategik yondashuvga asoslanishini, bunda madaniy tafovutlarni ko‘zda tutgan holda semantik va pragmatik uyg‘unlikka erishish muhimligini ta’kidlaydi. Rossiyalik olimlardan V. V. Sdobnikov (2011) va A. V. Karpov (2015) ekran tarjimasini ko‘p bosqichli kommunikatsion jarayon deb baholaydi, bunda "verbal qism — bu faqatgina umumiy kontekstning bir qismi bo‘lib, asosiy yuk tasviriy va akustik koderlarga tushadi". M. S. Snetkova (2022) esa kadrorti ekran tarjimasining iqtisodiy va semantik jihatdan eng sodiq turi sifatida ta’riflaydi. Bundan tashqari, Oltinoy Davlatova (2024) subtitrlarning texnik turlari, SDH (karlar uchun subtitrlar) va respiking texnologiyasi bo‘yicha tahlil olib boradi, bu ekran tarjimasining universal va inkluziv shakllariga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Sunanda Gaunkar (2019) esa ekran tarjimasini madaniyatlararo kommunikatsiyaning vositasi sifatida ko‘rib, tarjimada gender, irqiy stereotiplar va ijtimoiy rollarning qanday aks etishini tahlil qiladi. Bu esa tarjimaning faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy va siyosiy jihatlarini ham ko‘rsatadi. J. Linzbach va A. Matamala (2021) esa subtitrlar va voice-over usullarining texnologik evolyutsiyasi, mobil qurilmalar va striming xizmatlari kontekstida yangicha tarjima kompetensiyalarini shakllantirishini ta’kidlaydi. Qiyosiy nuqtai nazardan qaraganda, ekran tarjimasi chegaralangan vaqt va kadrlar davomiyligi bilan ishlaydi, bu esa tarjimonda qisqartirish (kompressiya), almashtirish (adaptatsiya) va tushirib qoldirish (omissiya) kabi usullarning qo‘llanilishini talab qiladi. Bosma tarjimada esa tarjimon ko‘proq tafsilotli, kengaytirilgan va stilistik boy ishlov berish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, ekran tarjimasi o‘zining multimodal mohiyati bilan boshqa barcha tarjima turlaridan ajralib turadi. Unda matn emas, balki semantik muloqot, tasvir va tovush bilan uyg‘unlik asosiy rol o‘ynaydi.

Bosma tarjima (print translation) — bu ilmiy, badiiy, ommabop yoki texnik matnlarni yozma shaklda bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish faoliyatidir. U ekran tarjimasidan farqli ravishda ko‘proq lingvistik to‘liqlik, stilistik barqarorlik va kompozitsion izchillikni talab qiladi. Bosma tarjimada asosiy mezonlardan biri matn sodiqligi bo‘lib, u tarjimaning mazmun, shakl va funksional vazifalariga mosligini ta’minlaydi. E. Nida (1964) tomonidan ilgari surilgan "formal equivalence" va "dynamic equivalence" tushunchalari bosma matn tarjimasiga ham tatbiq qilinadi. Formal tenglik original shaklini iloji boricha saqlashga intilsa, dinamik tenglik esa o‘quvchiga originalga yaqin ta’sirni yetkazishga harakat qiladi. P. Newmark (1988) bosma tarjimalarni "semantic translation" va "communicative translation" deb ikki asosiy turga ajratadi. Birinchisi muallif stiliga, ikkinchisi esa auditoriya ehtiyojlariga ko‘proq urg‘u beradi. V. Komissarov bosma tarjimada "lingvistik ekvivalentlikdan tashqari, sotsiokultural komponentlar"ni ham hisobga olish lozimligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, madaniyatga oid tushunchalar, metaforalar, idiomalar va realiyalarni tarjima qilishda bu muhim ahamiyat kasb etadi. F. Vinay va J. Darbelnet (1958) tarjima strategiyalarini sistemalashtirgan va ularning "transpozitsiya", "ekvivalentlik", "modulyatsiya" kabi uslublari hozirgi bosma tarjimada ham keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, Z. Ya. Turaeva (2000) bosma tarjimada "stilistik moslik" tushunchasini kengaytirib, har bir matn janriga mos ravishda leksik, sintaktik va pragmatik vositalarni tanlash zarurligini ta’kidlaydi.

Qiyosiy tahlil: ekran vs. bosma tarjima

Asosiy xususiyatlar	Ekran tarjimasi	Bosma tarjima
Matn uzunligi	Cheklangan (subtitr, dubbing vaqtiga bog‘liq)	Erkin (o‘quvchi vaqtiga bog‘liq emas)
Vizual komponent	Bor (tasvir, harakat, mimika)	Yo‘q
Tinglovchi auditoriyasi	Keng, ommaviy, ko‘pincha umumiy ommaviy	Cheklangan, ixtisoslashgan (fan, adabiyot)
Moslashtirish darajasi	Yuqori (madaniy, texnik, texnologik)	Stilistik va leksik moslik
Tarjima strategiyalari	Kompressiya, omissiya, adaptatsiya	Tafsilot, izoh, grammatik sodiqlik

Quyidagi jadval ekran tarjimasi bilan bosma tarjimaning asosiy metodologik, texnik va stilistik farqlarini ko‘rsatadi. Endi biz har bir ustunni tahlil qilamiz va ularning tarjima jarayoniga ta’sirini izohlaymiz.

1. Matn uzunligi

- Ekran tarjimasi: Subtitrlarda har bir kadrda ko‘rsatiladigan matn uzunligi 2–3 satr bilan cheklanadi. Dubbing va voice-over formatlarda ham ovozli eshittirish davomiyligi vaqt bo‘yicha cheklanadi. Shu sababli, kompressiya (ma’lumotni siqish), omissiya (tushirib qoldirish) kabi strategiyalar zarur bo‘ladi [2, 12-24].

- Bosma tarjima: Tarjimon matnni to‘liq bayon qilishi mumkin. Bu unga stilistik yaxlitlikni saqlash, murakkab fikrlarni izohlash imkonini beradi [5, 98].

2. Vizual komponent

- Ekran tarjimasi: Matnga tasvir, mimika, tovush, musiqa kabi ko‘pmodal (multimodal) vositalar yordam beradi. Bu esa tarjimani faqat til darajasida emas, balki vizual-konseptual darajada ham moslashtirish zaruratini tug‘diradi [1, 87].
- Bosma tarjima: Matn vizual yordamchisiz mustaqil o‘qiladi. Shu sababli, semantik aniqlik va stilistik aniqlik birlamchi ahamiyat kasb etadi.

3. Tinglovchi auditoriyasi

- Ekran tarjimasi: Ko‘p hollarda keng auditoriyaga, umumxalqga mo‘ljallangan. Shu bois, madaniy adaptatsiya va oddiylashtirish keng qo‘llaniladi [3].
- Bosma tarjima: Ixtisoslashgan matnlar (ilmiy, texnik, adabiy) uchun mo‘ljallangan. Tarjimon aniq terminlar, an’anaviy uslub va chuqur leksik tahlilni e’tiborda tutadi.

4. Moslashtirish darajasi

- Ekran tarjimasi: Yuqori darajada moslashtirish talab qilinadi — madaniyat, texnologiya, nutq uslubi. Ayniqsa, komik epizodlar, kinoya, lokal kontekst kabi jihatlarda adaptatsiya qilinmasa, ma’no yo‘qoladi [10, 7].
- Bosma tarjima: Stilistik sodiqlik ustuvor — tarjimon matn muallifining ovozini saqlab qolishga intiladi, lekin grammatik aniqlik va tafsilotda erkinlik mavjud.

5. Tarjima strategiyalari

- Ekran tarjimasi: Kompressiya, omissiya, adaptatsiya kabi qisqa va ta’sirchan vositalar orqali asosiy mazmun yetkaziladi. Bu strategiyalar ko‘pincha dublaj va subtitr soddalashtirishiga xizmat qiladi.
- Bosma tarjima: Izoh, kengaytma, grammatika sodiqligi asosida to‘liq va chuqur tarjima yaratiladi. Bunda o‘quvchi tafsilotga ahamiyat beradi va intellektual talablar yuqori.

Bu jadval asosida aytish mumkinki, ekran tarjimasi — ko‘pmodal va cheklangan vaqtga ega, shu sababli u soddalashtirish va adaptatsiyani talab qiladi. Bosma tarjima esa erkin, lekin semantik va stilistik murakkablik bilan boyitilgan. Ikkisi ham tarjimon oldiga turli malaka va yondashuvlarni talab qiladi.

Ekran tarjimasi va bosma matn tarjimasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ekran tarjimasi multimodal kontekstda ishlaydi va vaqt-makon cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lsa, bosma tarjima esa tilning to‘laqonli ifoda imkoniyatlaridan foydalanishga yo‘l ochadi. Har ikkala yondashuv ham o‘ziga xos tarjima kompetensiyasini talab qiladi va tarjimon tanlagan strategiya asosiy kommunikativ maqsadga xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anderman, G. (2007). Voices in Translation: Bridging Cultural Divides. Multilingual Matters.
2. Chaume, F. (2004). Film Studies and Translation Studies: Two Disciplines at Stake in Audiovisual Translation. Meta, 49(1), 12–24.
3. Díaz-Cintas, J., & Remael, A. (2007). Audiovisual Translation: Subtitling. St. Jerome Publishing.
4. Komissarov, V. N. (1990). Teoriya perevoda. Vysshaya shkola.
5. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
6. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating. Brill.
7. Turaeva, Z. Ya. (2000). Osnovy obshchey teorii perevoda. Fan.

UO’K 81

SHAXS NOMINATSIYASI LINGVISTIK TADQIQOT SIFATIDA

M. Normurodova, doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqola nominatsiya aktida inson faoliyati yo‘naltirilgan real yoki xayoliy obyektlargina nom oladi. Obyektlarning o‘zi tashqi dunyoga ham, ichki dunyoga ham tegishli bo‘lishi mumkin; ular haqiqiy yoki xayoliy dunyoga birdek mansub bo‘lishi mumkin, biroq nom obyekt haqidagi "to‘xtatilgan" fikrga beriladi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs nominatsiyasi, lingvistik, sinkretizm, onomasiologiya, lingvosemiotik, analitik nomlar*

Аннотация. *В данной статье названы только реальные или воображаемые объекты, на которые направлена деятельность человека в акте номинации. Сами объекты могут принадлежать как внешнему миру, так и внутреннему миру; они могут принадлежать в равной степени реальному или воображаемому миру, но имя дается «подвешенному» представлению о предмете.*

Ключевые слова: *персональная номинация, лингвистика, синкретизм, ономасиология, лингвосемиотика, аналитические имена.*

Abstract. *This article names only real or imaginary objects that are directed by human activity in the act of nomination. The objects themselves can belong to both the external and internal worlds; they can belong equally to the real or imaginary world, but the name is given to the "suspended" idea about the object.*

Key words: *personal nomination, linguistic, syncretism, onomasiology, linguosemiotic, analytical names*

Kirish. Nominatsiya mohiyati shundaki, til belgisining insonning bilish faoliyati natijasi sifatida ba'zi bir abstraktsiyani aks ettirishi bilan bog‘liq bo‘lib, u real buyumlar va hodisalardagi yagona va umumiylikning dialektik qarama-qarshiligini ifodalaydi. Zamonaviy tilshunoslik ta’kidlashicha, nominatsiya – bu buyumlarning xususiyatlarini aks ettiruvchi tushuncha belgilarning til vositasida mustahkamlanishi, xolos [1]. Ta'kidlash joizki, har qanday holatda ham nominatsiya akti fikrlash-nutq faoliyatini ifodalaydi va bu jarayondan vositachi bosqichni – kognitiv, aks ettiruvchi, konseptual-logik yoki obrazli, biroq faoliyat bilan bog‘liq bosqichni chiqarib tashlab bo‘lmaydi. Bu bosqich nom berilayotgan obyekt (yoki obyektlar majmuasi)ning inson faoliyati va hayotiga bog‘liqligini namoyon qiladi. "Nomlanish" atamasi, boshqa ko‘plab tilshunoslik terminlari kabi, ko‘p ma’noli hisoblanadi. Ushbu atamaning turli xil ishlatilishlari orasida eng ko‘p uchraydigan qarama-qarshiliklarni ko‘rib chiqish mumkin. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, dinamik jihatdan nominatsiya nom berish jarayonini, statik jihatdan esa uning natijasini – ya'ni, o‘zining nomini anglatadi. Bunday "aralashuv" odatda muntazam leksik polisemiyaning eng keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Tafakkur faoliyatida jarayon va natijaning noaniq chegaralari ko‘pincha yo‘qoladi, va tushunishga zarar yetkazmagan holda bir xil termin ikkala ma’noda ham ishlatilishi mumkin. Ma'lumki, "nominatsiya" atamasi munosabatni ham, nomlash uchun ishlatiladigan tovush majmuasini ham ifodalash uchun qo‘llaniladi. Xuddi shuningdek, "belgi" (znak) atamasi, ma’no va ifodalangan o‘rtasidagi munosabatni yoki o‘z ifodalovchisini anglatishi mumkin. Ammo ushbu atamaning ishlatilishidagi xilma-xillik lingvistik tadqiqotlarda jiddiy chalkashlikka olib kelmaydi, chunki bu holat odatiy bo‘lgan ma'no va uning tashuvchisi o‘rtasidagi sinkretizm bilan bog‘liqdir.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, tor ma’noda nominatsiya buyumlarni alohida so‘zlar yoki so‘z birikmalari orqali nomlash sifatida tushuniladi. Bu holatda, terminning etimologik ma’nosi aks etadi: **nominatio** – "nomlash, ism berish." Chunki, birinchi navbatda, predmetlar va shaxslar nomlanadi, nominatsiya odatda moddiy yoki shunday deb o‘ylangan obyektlarning ifodalanishi bilan bog‘lanadi. Shuning uchun, nominatsiya masalasi an’anaga ko‘ra, asosan, otlar, xususan, toponim va antroponimlar kabi o‘ziga xos sohalar misolida ko‘rib chiqilgan. Shunday qilib, nominatsiya – bu nomlash jarayoni va natijasi bo‘lib, bunda til birliklari belgilangan obyektlar bilan bog‘lanadi [2].

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslarning fikricha, nomlash munosabatlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, nom biror aniq holatda odatda yagona ma’noga ega bo‘ladi, ammo bir xil predmet bir qator nomlarga ega bo‘lishi mumkin. Bir obyektni ifodalashda bir nechta nomlardan foydalanish imkoniyati turli nomlarning qanday qilib bir-biriga mos kelishini aniqlash masalasini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, ushbu savolga birinchi bo‘lib G.Frege aniq javob bergan. U nominatsiyaning semantik tuzilmasida **ma’no**ni – obyektga munosabat sifatida, va **mazmun**ni – ismda mujassam bo‘lgan ma’lumot sifatida ajratishni taklif qilgan. Frege fikriga ko‘ra, nom informativdir, chunki u belgilangan obyektning bir xususiyatini aks ettiradi va u haqida ma'lumot beradi [3]. Qator lingvistik tadqiqotlarda leksik birliklar orqali nomlash tabiatini o‘rganishning asosiy jihati lingvosemiotik asosga ega ekanligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv quyidagi nazariy qoidalarga asoslanadi:

1. Tabiiy til o‘ziga xos belgilar tizimi bo‘lib, uning birliklari ikki marta strukturalashadi va ikki xil ma’no yuklanadi: nomlanuvchi vositalar tizimida (birlamchi ma’no) va nutqda predikativ birliklar sifatida yoki ularning tarkibida (ikkilamchi ma’no).

2. Inson tili, murakkab moddiy-ma’naviy hodisa sifatida, obyektiv voqelikni bir vaqtda ham belgilash, ham aks ettirish xususiyatini o‘zida mujassamlashtiradi.

3. So‘zlar orqali obyektiv voqelikni ifodalashning psixo-fiziologik asosi ikkinchi signal tizimidan iboratdir [4].

Ma’lumki, onomasiologiya – bu nomlar, nomlash tabiatini va turlarini o‘rganadigan fan hisoblanadi. Tilshunos olimlarning fikricha, uning asosiy vazifasi "haqiqiylikdagi ayrim elementlarni nomlash vositalari va usullarini" hamda "butun voqealarni belgilashni" o‘rganishdan iboratdir [5]. Nomlash vositalari har bir til tizimida o‘ziga xos tarzda shakllanadi va ular xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy onomasiologiya tilning barcha darajalaridagi nomlash birliklarini birlashtiruvchi soha sifatida qaraladi. Zamonaviy lingvistlar fikricha, onomasiologiya har qanday murakkablik darajasiga ega bo‘lgan, turli uzunlikda va kelib chiqishda bo‘lgan nomlash birliklarini o‘z ichiga oladi [6]. Tadqiqotchilar ta’kidiga ko‘ra, bir birlik nomlash birligi bo‘lishi uchun u bitta talabga javob berishi kerak – ya’ni, u **nom bermog‘i**, belgilangan obyektni alohida mohiyat sifatida ajratib ko‘rsatishi va uni til vositalari orqali ifodalashi lozim. Shu bilan birga, ushbu birlik nutqiy faoliyat va obyekt bilan bog‘liq fikrlash jarayonlarida ushbu obyektning o‘rnini egallashi va uning ismini almashishi kerak.

Mahalliy tilshunoslar qayd etadilarki, so‘zdan katta, lekin predmetni nomlash qobiliyatiga ega birliklarni nomlash vositalariga qo‘shish orqali, onomasiologiya sohasiga ko‘plab **analitik nomlar** – ko‘p so‘zli terminlar, frazeologik birikmalar, murakkab tuzilishga ega so‘z birikmalari va boshqa turdagi bog‘langan ma’no ifodalarini kiritdi [7].

Bu yondashuv natijasida nominatsiya nazariyasi doirasida quyidagi murakkab masalalar ko‘rib chiqila boshlandi:

- turli tipdagi til ma’nolarini aniqlash;
- bevosita va bilvosita, birlamchi va ikkilamchi kabi nomlash turlarini ajratish.

Bunday tahlillar tildagi ko‘p qirrali nominativ imkoniyatlarni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Nominatsiya eng muhim universal kognitiv-informatsion jarayon sifatida quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi: **antropotsentriklik** va **referensiyaning ikki qirraliligi**. Bu jarayon semiositik birliklarni nomlash funksiyasi bilan bog‘liq holda yuzaga keltiradi va atrof-muhitni inson kognitiv nuqtai nazaridan maxsus fragmentlarga bo‘ladi. Ushbu fragmentlarda insonning bilish tajribasi aks etadi.

Nominatsiyaning global jarayon sifatidagi mohiyatini yoritish uchun V. V. Morkovkinning quyidagi fikrini ta'kidlash muhim: tilning fikrlashga nisbatan asosiy vazifasi **informatsion kontinuumni diskretlashtirishdan** iborat, ya’ni uni turli hajm va mazmundagi axborot zichliklari shaklida aks ettirishdir. Bu diskretlashtirish jarayonida til atrof-muhitni fragmentlarga ajratib, ular haqida o‘ziga xos bilimlarni shakllantiradi.

V. N. Teliya nominatsiyani quyidagicha izohlaydi:

1. Nominatsiya - bu til birliklarini yaratish jarayoni bo‘lib, ular nomlash funksiyasiga ega, ya’ni voqelikning fragmentlarini nomlash, ajratib ko‘rsatish va ular haqida tushunchalar shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu birliklar so‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologizmlar va gaplar shaklida bo‘ladi. Shu bilan birga, nominatsiya jarayoni natijasi ham ahamiyatli til birligi sifatida belgilanadi.

2. Nominatsiya - bu nomlash aktlarining dinamik aspektlarini o‘rganishni, jumladan, gap shaklida va uning tarkibiy qismlarida yuzaga keladigan jarayonlarni qamrab oladi. Bu o‘rganish referensiya nazariyasi doirasida amalga oshiriladi [8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Shaxs nominasiyasi – bu insonning xususiyatlarini til orqali aks ettirish jarayonidir. Shaxs nominasiyasining lingvistik tadqiqoti, shaxs va uning xarakterini tushunishga yordam beradigan, leksik va grammatik vositalarni aniqlashga qaratilgan. Shaxs

nominasiyasi tilshunoslikda faqat so‘zlar orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida emas, balki tilning ijtimoiy va madaniy kontekstidagi funksiyasini o‘rganish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Shaxs nominasiyasi tushunchasi, madaniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi til birliklarini aniqlashga yordam beradi va milliy va madaniy tafovutlarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Колшанский Г. В. Некоторые вопросы семантики языка в гносеологическом аспекте // Принципы и методы семантических исследований. - М., 1976. - С. 5-81.

2. Гак В. Г. К типологии лингвистической номинации // Языковая номинация (Общие вопросы). - М., 1977. - С. 230-293.

3. Фреге Г. Смысл и денотат // Семиотика и информатика. - М., 1977.- с.98

4. Уфимцева А. А. Лексическая номинация (первичная нейтральная) // Языковая номинация (виды наименований). - М., 1977. - С. 5-85.

5. Матезиус В. О системном анализе // Пражский лингвистический кружок. - М., 1967.- с.45

6. Кубрякова Е. С. Номинативный аспект речевой деятельности. - М., 1986. - с.76

7. Телия В.Н. Типы языковых значений: связанное значение слова в языке. - М., 1981.-с.23

8. Телия В. Н. Номинация / Лингвистический эн- циклопедический словарь /гл. ред. В. Н. Ярцева. М,. 1990. С. 336-337.

UDC 81'25

SEMANTIC AND PRAGMATIC ASPECTS OF TRANSLATION: THE ROLE OF CONTEXT AND CULTURAL CONNOTATIONS

D.R. Nosirova, PhD student, Asian International University, Bukhara

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarjima, ayniqsa adabiy tarjima jarayonida semantika va semiotikaning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda kontekst va madaniy konnotatsiyalar insonlarning ko‘p ma'noli so‘zlar va ifoda vositalarini qanday qabul qilishlariga qanday ta'sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Muallif semantik tahlil hamda tilning dunyo manzarasi xususiyatlarini inobatga olish to‘g‘ri tarjima uchun hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Tarjima, Semantika, Kontekst, Madaniy konnotatsiyalar, Mezhkultural kommunikatsiya, Ma'noli birlik*

Аннотация. *В статье рассматривается значение семантики и семиотики в переводе, особенно в литературном. В этом исследовании рассматривается, как контекст и культурные коннотации влияют на то, как люди понимают многозначные слова и выражения. Подчеркивается, что семантический анализ и учет языковой картины мира имеют решающее значение для правильного перевода.*

Ключевые слова: *Перевод, Семантика, Контекст, Культурные коннотации, Межкультурная коммуникация, Единица смысла*

Abstract. *The article examines the importance of semantics and semiotics in translation, especially in literary. This study examines how context and cultural connotations affect how people understand polysemantic words and expressions. It is emphasized that semantic analysis and consideration of the linguistic picture of the world are crucial for correct translation.*

Key words: *Translation, Semantics, Context, Cultural Connotations, Intercultural Communication, Meaning Unit.*

Introduction. Modern translation studies pay special attention to the relationship between language and culture. Translation, in its modern sense, is not just a linguistic operation, but rather a process of intercultural communication that requires taking into account cognitive and semiotic aspects [9, p. 26]. Semantics and semiotics play a crucial role in the translation process, since the translator faces a responsible task — not only to understand the meaning of words and expressions in the original text, but also to be able to translate and convey them, taking into account the cultural and contextual features of the target language.

Main part. Through metaphors and comparisons, connotations, the author conveys ideas, emotions, using vivid, memorable images that evoke associations in the reader [5, p. 3]. No less important are the contextual meanings of words, which are formed depending on the surrounding text

and the situation in which the word or expression is used [12, p. 3]. Thus, the same word can change its meaning, depending on the context in which it is used. This creates the possibility for polysemy and multi-layered text. For example, in the phrase "He was the light of her life," the word "light" acquires a figurative meaning [5, p. 12], symbolizing hope, love, or support. Like the word "star", a star is a celestial body (the direct meaning of this word), a star is fate (connection with astrology and ancient beliefs [7, p. 60]), and cosmic objects influence a person's life. The expression "written in the stars" indicates the predetermination of fate. A star is a dear, beloved person. Thus, the context in which the author uses a particular word is decisive in its interpretation [6, p. 13].

The translator must keep in mind how the linguistic view of the world influences meaning, particularly when communicating phraseological units and metaphors, which might vary from culture to culture [5, p. 32]. While emotional colouring and associations enhance the text [2, p. 85], context determines the meanings of polysemantic terms and the actualisation of semantic components [12, p. 7]. Symbolism provides additional dimension through polysemantic signs and visuals [5, p. 40]. Cultural views differ, although symbols can be universal (e.g., a white dove, a heart, a tree).

Textual semantics examines meaning beyond individual words or sentences, focusing on the whole text and its relationships with other texts and cultural traditions [3, p. 78]. It studies how context influences the significance of linguistic units and how different components of a text combine to create a common meaning [3, p. 79]. An important aspect here is intertextuality — explicit or hidden connections between the analyzed text and other texts, that is, allusions and quotations taken from other works [3, p. 80]. Allusions are references to famous works, historical events, myths, or religious texts that expand the interpretation of a work and add polysemy to it [11, p. 232]. Allusions can serve as a kind of "bridge" connecting a text with a cultural context [8, p. 152]. There are countless examples of allusions in the world of literature; they give the text a deeper meaning, enrich it, connect it with reality, and allow the reader to discern the connection between the events of the novel and historical or mythological events.

Allusions are also used by contemporary writers; for example, J.K. Rowling makes connections to myths, folklore, biblical themes, and literary works in Harry Potter [11, p. 234]. As a "sacrificial" hero, Harry reflects Christ by voluntarily giving his life to vanquish Voldemort, a direct reference to Christ's sacrifice [6, p. 14; 11, pp. 234–235]. The story's metaphorical and cultural layers are further enhanced by mythological allusions to Pegasus, Phoenix, Cerberus, and the labyrinth [11, p. 235]. The work is enhanced by this intertextuality, which gives it multiple layers and polysemantics [11, p. 236]. Effective translation of such literature requires linguistic and cultural expertise to represent the author's style, semantic depth, and connotations [9, p. 27; 1, p. 234]. In order to preserve cultural subtleties and hidden meanings, semantics and semiotics are crucial.

According to Artemyeva [9, p. 27], a translation unit can include not only a word, but also other linguistic units [9, p. 28]. However, due to differences in language systems and semiotic diversity, the unit of translation is often a unit of meaning [9, p. 28]. This is the smallest part of the text that has a meaning that can be translated separately [9, p. 28]. It can consist of one word, a phrase, a sentence, or a larger fragment [9, p. 28]. The translation must be adequate in terms of lexical, grammatical, and stylistic transformation [9, p. 28]. Since a literal translation cannot convey the ideas and concepts of one linguacultural community so that they are understandable to another, in some situations the only possible means of translation is a unit of meaning [9, p. 28]. In this context, the translator can add new meanings, taking into account the current meaning of words [9, p. 28].

In this regard, the translator must take into account various forms of the impact of context on meaning [10, p. 5]:

A) Identifying the meaning of a polysemantic word. Context helps in that the translator can choose exactly the meaning of a polysemantic word that will be relevant in a given context [10, p. 5]. For example, the lexeme "гостья" has several meanings, but the context indicates which of the meanings is relevant [10, p. 5].

B) Actualization of specific semes. The actual meaning of a word can include a different set of primary and secondary semes, forming the speaker's communicative intention, what the author or the hero of the work wanted to say [12, p. 6]. For example, in the sentence "A tall woman was sitting on

a bench", the meaning "an adult female" is actualized, while the peripheral semes are not actualized [11, p. 6].

C) Actualization of several meanings of a word. In some cases, the context can intentionally create polysemy [11, p. 8].

It is necessary to distinguish between the meaning of a word in the language system and the actual meaning of a word in speech [11, p. 9]. The meaning of a word in the language system includes all semantic components, and in speech, these components may not be fully realized, in different combinations with each other [11, p. 9].

According to Ivanova and Chernysheva [10, p. 155], cultural connotation is a linguacultural category that expresses value-significant information known to representatives of a certain linguacultural community [10, p. 155]. Its properties include expression of attitude, axiological character, associativity, cognition, precedence, and stereotype [10, p. 155]. Cultural connotations can be primary and secondary [10, p. 156]. According to Ivanova and Chernysheva [10, p. 156], primary connotation is close to the concept of meaning as "a way of presentation denoted by a given sign" [10, p. 156]. A translator must take into account cultural connotations when translating a text from one language to another, since they can change the reader's perception of the text [10, p. 157]. Incorrect translation of a cultural connotation often leads to a distortion of the meaning and a loss of the cultural specificity of the work [10, p. 157]. Cultural connotations are known within their space, while connotations of a foreign language do not immediately become obvious, which can lead to the use of borrowings [10, p. 157].To ensure that these nuanced levels of meaning are maintained and suitably modified for the intended audience, a professional translator must therefore have both linguistic proficiency and cultural sensitivity and knowledge.

Conclusion. Translation of the semantic elements of literary works is therefore a difficult process that necessitates a thorough understanding of linguistics, semiotics, cultural studies, and translation studies. The setting, cultural implications, and rigorous semantic analysis can all be taken into consideration when translating a work to maintain its uniqueness and creative merit. It is essential to consider the way the context influences the word's meaning in order to get a translation that is suitable. Using a variety of techniques and approaches, a semantic analysis of the word in the context is required to do this.

REFERENCES:

1. Akwanya, A. N. (2003). Semantics and Literary Studies. Nsukka Journal of the Humanities, (13), 230–246.

2. Chollier, C. (2014). Textual Semantics and Literature: Corpus, Texts, Translation. Signata. Annales des sémiotiques / Annals of Semiotics, 5, 77–99.

3. Nosirova, D. R. (2025). Semantic Features of Literary Text: Concept, Classification and Role in Creating Multilayered Works. International Journal of Formal Education, 4(1), 231–235.

4. Hurford, J. R., Heasley, B., & Smith, M. B. (2007). Semantics: A Coursebook (2nd ed.). Cambridge University Press.

5. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors We Live By. London: The University of Chicago Press.

6. Lyons, J. (2020). Semantics. In Encyclopedia Britannica.

7. Bagha, K. N. (2008). What is Semantics? Humanities, (2), pp. 58–64, Azerbaijan: Baku State University.

8. Artemyeva, Yu. V. (2014). Semantics and Semiotics in Translation. RUDN Bulletin, series Theory of language. Semiotics. Semantics, 2, 26–28.

9. Ivanova, S. V., & Chanysheva, Z. Z. (2014). Semantics and Pragmatics of the Linguistic Sign as Drivers of Cultural Bearing. RUDN Bulletin, series Linguistics, 4, 154–165.

10. Sternin, I. A., & Salomatina, M. S. (2011). Semantic Analysis of a Word in Context. Voronezh: Istoki.

11. Sternin, I. A. (2011). Semantic Analysis of a Word in Context. Voronezh: Istoki.

UO'K 81'33

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI HUNARMANDCHILIK LEKSIKASINING DERIVATSION XUSUSIYATLARI

I.Nuraliyev, tayanch doktorant, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi hunarmandchilik leksikasining derivatsion xususiyatlari qiyosiy-tipologik yondashuvda tadqiq etildi. Britaniya Milliy Korpusi va O'zbekiston Milliy Korpusidan har biridan 500 tadan so'z birligi tanlab olinib, agentiv, lokativ va jarayoniy*

affiksoidlarning mahsuldorligi statistik usulda o‘lchandi. Natijalarda ingliz tilida konversiya va kompozitsiya, o‘zbek tilida esa affiksatsiya va qo‘shma so‘z yasash dominant mexanizmlar ekani aniqlandi. Diaxron tahlil sanoatlashtirish, postindustrial va “yashil iqtisod” davrlarida yangi terminlarning paydo bo‘lish jarayonini yoritdi. Tadqiqot hunarmandchilik leksikasidagi derivatsion jarayonlar jamiyatning madaniy-iqtisodiy transformatsiyalari bilan chambarchas bog‘liqligini isbotladi.

Kalit so‘zlar: *hunarmandchilik leksikasi; derivatsiya; affiksatsiya; kompozitsiya; konversiya; qiyosiy tipologiya; korpus tahlili.*

Аннотация. *В статье проведён сопоставительный типологический анализ деривационных механизмов, формирующих лексику ремёсел в английском и узбекском языках. На основе выборки по 500 единиц из Британского национального корпуса и Национального корпуса узбекского языка количественно оценена продуктивность агентивных, локативных и процессуальных аффиксоидов. Выявлено доминирование конверсии и словосложения в английском языке и аффиксации с образованием сложных слов — в узбекском. Диахронический срез показывает, как индустриализация, постиндустриальные тенденции и «зелёная экономика» порождают неологизмы, расширяющие традиционную ремесленную терминологию. Исследование подтверждает тесную связь деривационных процессов в ремесленной лексике с культурно-экономическими трансформациями общества.*

Ключевые слова: *лексика ремёсел; деривация; аффиксация; словосложение; конверсия; сравнительная типология; корпусный анализ.*

Abstract. *The article offers a comparative-typological analysis of the derivational mechanisms shaping craft-related vocabulary in English and Uzbek. Using balanced samples of 500 tokens from the British National Corpus and the Uzbek National Corpus, the productivity of agentive, locative and process-oriented affixoids is quantified. Results reveal that English primarily exploits conversion and compounding, whereas Uzbek relies on affixation and compound formation. A diachronic perspective highlights how industrialisation, post-industrial trends and the contemporary “green economy” generate neologisms that extend traditional craft terminology. The study demonstrates that the evolution of craft lexicon mirrors broader socio-economic and cultural shifts, underscoring the value of derivational research for tracing linguistic responses to technological change.*

Keywords: *craft lexicon; derivation; affixation; compounding; conversion; comparative typology; corpus analysis.*

Hunarmandchilik insoniyatning eng qadimiy faoliyat sohalaridan biri bo‘lib, uning atrofida shakllangan leksik qatlam tilning tarixiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti haqida boy ma’lumot beradi. Hunarmandlar yasagan buyumlar, ularni tayyorlash jarayonidagi har bir texnik detali, ishlatilgan asbob-uskuna va xomashyo nomlari turli davrlarda tilga qo‘shilgan va semantikasini o‘zgartirib borgan. Shuning uchun ham ingliz va o‘zbek tillaridagi hunarmandchilik leksikasining derivatsion xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, nafaqat morfologik jarayonlarning tipologik farqlarini yoritadi, balki har ikkala xalqning madaniy-sivilizatsion yo‘lini ham o‘zida aks ettiradi.

Tilshunoslikda derivatsiya so‘z yasash usullarining yig‘indisi sifatida tushuniladi va unga affiksatsiya, konversiya, kompozitsiya, kiritma (infixation), qisqartirish va blenderlash kabi jarayonlar kiradi. Ingliz tili flektiv-analitik tuzilishga ega bo‘lganligi sabab, unda konversiya va kompozitsiya eng qulay mexanizmlardan hisoblanadi; o‘zbek tili esa agglutinativ tipga mansub bo‘lib, affiksatsiya va qo‘shma so‘z yasalishi yuqori darajada rentabelli. Derivatsion tarmoqning bu ikki xil modelini hunarmandchilik semantikasi orqali sinchiklab ko‘rish, umumtil nazariyasida “leksik-semantik maydon” (Lehrer, 2003) konsepsiyasini yanada boyitadi.

Hunarmandchilik leksikasi deganda yog‘ochsozlik, temirchilik, zargarlik, to‘qimachilik, kulolchilik, charm ishlov, bo‘yoqchilik va shu kabilarni tavsiflovchi atamalar majmui tushuniladi. Ingliz tilidagi craft so‘zi germon manbalaridan meros bo‘lib, ilk o‘rta asrlarda “kuch”, “san’at” hamda “kasb” semalarini jamlagan. O‘zbek tilidagi hunar komponenti esa forscha “honar” negizida shakllanib, “mahorat” ma’nolarini ifodalagan. Har ikkala orqa fon nomlar atrofida yasalgan derivatlar ma’no jihatidan ko‘p qatlamli bo‘lib, til tarixida ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalarni ko‘rsatadi.

Maqolada korpus sifatida Britaniya milliy korpusi (BNC) va O‘zbekiston Milliy Korpusi (O‘MK)dan hunarmandchilik leksikasi bo‘yicha tanlangan 500 tadan o‘rnak so‘z birligi tahlil qilindi. Tanlov kriteriylari agentiv morfema (-er, -chi), lokativ morfema (-house, -xona), jarayoniy affikslar (-ing, -ish), shuningdek, material yoki uslubni bildiruvchi qo‘shma birikmalarni (wood-carving, tosh-kavish) qamrab oldi. Korpus ichida so‘z yoshi, foydalanish chastotasi va semantik submaydon (asbob, jarayon, natija, ustaxonalar) bo‘yicha tasnif ham amalga oshirildi. Bu empirik baza derivatsiya mahsuldorligini aniq ko‘rsatkichlar bilan o‘lchash imkonini berdi.

Ingliz tilida affiksatsiya hunarmandchilik leksikasida asosan agentiv va lokativ funksiyada ko‘rinadi. Suffix -er, -or, -ist modellari carpenter, potter, decorator, goldsmith, typist kabi kasb egalari nomini hosil qiladi. Ayrim hollarda -ship (craftsmanship) sifat yoki holatni bildiradi. Kompozitsiya esa metalwork, glassblowing, leather-stitching, stone-carving kabi murakkab nomlarni shakllantiradi; bunda birinchi komponent material, ikkinchisi jarayonni aks ettiradi. Konversiya kuchli rol o‘ynab, hand-tool fe’l-ot o‘zgarishi (to hand-tool vs a hand tool) orqali grammatik kategoriya ko‘chishini ta’minlaydi. Blend (craftivism < craft + activism) va clipping (auto-shop) kabi postindustrial jarayonlar so‘z yasash tizimiga yangi quvvat qo‘shdi.

Ingliz leksikasida semantik trasfer ham muhim: smith tarixan “uruvchi” degan umumiy fe’lni anglatgan bo‘lsa, texnologik o‘sish natijasida goldsmith, silversmith singari tor ixtisos turlariga bo‘linadi. Diaxron kesimda -wright (shipwright, wheelwright) suffiksi XV asrdan keyin funksional aktivligini yo‘qotgan, bu esa hunarmandchilikning fabrikatsiyalashuvi va terminologiyaning standartlashuvi bilan bog‘liq. Shu bilan birga revivalist harakatlar tufayli 1970-yillarda bespoke woodworking, artisanal brewing kabi yangi frazeologik birliklar paydo bo‘lib, lexical-cultural shiftni aks ettirdi.

O‘zbek tilida affiksatsiya derivatsiyaning asosiy mexanizmi bo‘lib, -chi, -kor, -soz, -gar suffixlari kasb, maxsus mahorat egalarini nomlashda keng qo‘llanadi: misgarchi, gilamsos, to‘qimachikor, pichoqsoz, naqqosh. Agentiv affikslar tufayli ma’nodagi substansivlik (mavjudotlik) barqaror bo‘lib, so‘z yasalishi semantik aniqlikni oshiradi. Shuningdek, lokativ -xona, -goh, -zor qo‘shimchalari ustaxona, do‘ppagoh, kulolzor kabi joy atamalarini hosil qiladi. Kompozitsiya orqali ko‘plab material-jarayon birikmalari (temir-bosma, yog‘och-o‘yma) vujudga keladi, bunda o‘zaklar orasidagi bog‘lovchi unlilarning tushishi yoki assimilyatsiyasi fonologik ixtisarni ko‘rsatadi.

Tarixiy-loan integratsiyasi ham o‘zbek hunarmandchilik leksikasida sezilarli. Arab-fors manbalaridan kirib kelgan zargar, attor, qalamdan tashqari, ruscha qalpoq, stanok, frezer kabi sanoat inqilobi davrida o‘zlashtirilgan terminlar ham affiksatsiya orqali uzluksiz mahalliylashgan (stanokchi, frezerchi). Bu jarayon ortida fonetik adaptatsiya (reduksiya, palatalizatsiya) va semantik ciblashuv mavjud. Davrlar o‘tishi bilan ba’zi qadimiy affikslar funksional inertlikka yuz tutgan: -tar suffiksi (sabuntar) bugungi kunda faqat tarixiy-adabiy matnlarda qolgan.

Qiyosiy tipologik jihatdan, ingliz tili derivatsiyasida konversiya va semantik reanalizga tayanish an’anaviy bo‘lsa, o‘zbek tilida affiksatsiya va qo‘shma so‘z yasash alohida dominantlikka ega. Inglizcha potter < pot + -er shaklida ikki bosqichli model ko‘rinadi, o‘zbekcha kulol < kul + -ol esa etimologik tomondan bir bosqichli morfemik agregatga ega. Shuningdek, inglizcha loom “to loom” singari fe’l-ot ko‘chishi ko‘proq sintaktik kontekstga bog‘liq; o‘zbekcha dastgoh otini fe’lga aylantirish (dastgoh qilish) esa analitik qo‘shimcha yordamida amalga oshadi. Bu farq agglutinativ-flektiv strukturaviy tafovutni yaqqol tasdiqlaydi.

Hunarmandchilik leksikasi sotsiolingvistik omillarga ham sezgir: industrializatsiya ingliz tilida mass-production, factory-made, handiwork kabi antonimik juftliklarni, o‘zbek tilida esa qo‘l mehnati, zavod mahsuloti qarama-qarshiliklarini yuzaga keltirdi. Keyingi o‘n yilliklarda “yashil iqtisod” diskursi artisanal, sustainable, eco-friendly so‘zlarini hunarmandchilik ma’nodosh maydoniga qo‘shdi; o‘zbek tilida esa mahalliy neologizmlar – biohunarmand, eko-ustaxona – paydo bo‘lib, ular agentiv -chi affiksi orqali biohunarmandchi tarzida yana kengaymoqda. Demak, derivatsion mahsuldorlik jamiyat madaniy ideologiyasini ham bevosita aks ettirar ekan.

Diaxron nuqtai nazardan, XVI–XVII asrlarda ingliz tilida gunmaker, barreller kabi harbiy hunar terminlari kengaysa, o‘zbek tilida zafar-zarb (qurol-yarog‘) bilan bog‘liq birliklar arabcha-forscha qo‘shma tuzilmalar vositasida boyigan. XXI asrda esa raqamli hunar – 3D-printing, laser-cutting,

CNC-freze – ingliz lexikoniga modern suffiksli formalar (printer-operator, cutter-man) olib kirdi; o‘zbek tilida esa 3D bosma, lazer kesish, CNC frezerlash kabi qo‘shma analitik birliklar shakllandi. Bular ko‘p hollarda global ixtisos terminlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi emas, balki funksional-semantik moslashtirish mahsuli bo‘lib, milliy fonologik normalarga mos variantlarni vujudga keltirdi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi hunarmandchilik leksikasining derivatsion tizimlari har bir tilning strukturaviy tipiga mos ravishda shakllanadi, ammo ijtimoiy-madaniy ta’sirlar tufayli o‘zaro funksional konvergentsiyani ham namoyon qiladi. Ingliz tilida konversiya va kompozitsiya hunarmandchilik terminologiyasini dinamik ravishda yangilab borsa, o‘zbek tilida affiksatsiya va grammatik agglutinatsiya semantik aniqlik va so‘z yasash tezkorligini kafolatlaydi. Har ikkala til korpusida agentiv, lokativ va jarayoniy affiksoidlarning doimiy izchil ishlatilishi, hunarmandchilik sohasining mehnat taqsimoti hamda texnologik yangilanishlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bois, leksik-derivatsion tadqiqotlar milliy hunar merosi, zamonaviy mehnat bozori va til o‘sishi o‘rtasidagi uzviy aloqalarni puxta yoritib berishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Bauer L., Lieber R., Plag I. *The Oxford Reference Guide to English Morphology.* — Oxford : Oxford University Press, 2013. — 691 p.

2. *Craft Narratives: Ubiquity of Craft in the Post-industrial Economy* // *Journal of Material Culture.* — 2019. — Vol. 24, № 3. — C. 305–322.

3. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language.* 3-rd ed. — Cambridge : Cambridge University Press, 2018. — 501 p.

4. Lehrer A. *Semantic Fields and Lexical Structure.* — Amsterdam : John Benjamins Publishing Company, 2003. — 280 p.

5. Plag I. *Word-Formation in English.* 2-nd ed. — Cambridge : Cambridge University Press, 2018. — 380 p.

6. Robertson S., Smith S. Green Craft Practices in the Contemporary Economy // *International Journal of Sustainable Production.* — 2021. — Vol. 10, № 2. — C. 45–60.

7. Spencer A., Zwicky A. M. (eds.). *The Handbook of Morphology.* — Oxford : Blackwell Publishers, 2001. — 910 p.

UO’K 811.1/.2

TIL TIZIMINING INSON TAJRIBASI BILAN BOG‘LIQLIGI

O.N. Nuraliyeva, o‘qituvchi, PhD, International school of finance technology and science institute, Samarqand filiali, Samarqand

Annotatsiya. *Til tizimi inson tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u kognitiv, madaniy, ijtimoiy, psixologik va tarixiy jihatlarni aks ettiradi. Til idrok, muloqot va dunyo bilan o‘zaro aloqalarga ta’sir ko‘rsatadi. Odamlarning tushunchalarni tasniflash, hissiyotlarni ifodalash va bilimlarni saqlash usullari til tizimiga bog‘liq. Ushbu bog‘liqlik lingvistika, psixologiya, sotsiologiya va antropologiya sohalarida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Til tizimi, inson tajribasi, kognitsiya, madaniyat, muloqot, idrok, psixologiya, sotsiologiya, antropologiya*

Аннотация. *Языковая система тесно связана с человеческим опытом, отражая когнитивные, культурные, социальные, психологические и исторические аспекты. Язык влияет на восприятие, коммуникацию и взаимодействие с миром. Способы категоризации понятий, выражения эмоций и сохранения знаний зависят от языковых структур. Эта взаимосвязь изучается в лингвистике, психологии, социологии и антропологии.*

Ключевые слова: *Языковая система, человеческий опыт, когниция, культура, коммуникация, восприятие, психология, социология, антропология*

Abstract. *The language system is closely connected with human experience, reflecting cognitive, cultural, social, psychological, and historical aspects. Language influences perception, communication, and interaction with the world. The way people categorize concepts, express emotions, and preserve knowledge depends on linguistic structures. This relationship is studied in linguistics, psychology, sociology, and anthropology.*

Key words: *Language system, human experience, cognition, culture, communication, perception, psychology, sociology, anthropology*

Kirish. Til inson tafakkurining eng muhim vositalaridan biri bo‘lib, u inson tajribasini ifodalash, tushunish va uzatish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning atrof-muhitni idrok etishi, tushunchalar tizimini shakllantirishi va jamiyat bilan o‘zaro aloqasini ta’minlovchi asosiy omildir. Shu sababli, til tizimi inson tajribasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u madaniy, ijtimoiy va kognitiv jihatlardan inson ongida shakllanadi va rivojlanadi. Tilning inson tajribasi bilan bog‘liqligini tushunish uchun avvalo tajriba tushunchasini kengroq talqin qilish zarur. Inson tajribasi hayot davomida orttirilgan bilimlar, kuzatuvlar, hissiy kechinmalar va o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, til inson tajribasining aks etishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, inson o‘z tajribalarini til orqali shakllantiradi, tartibga soladi va jamiyatda muloqot vositasida tarqatadi. Til tizimining inson tajribasi bilan bog‘liqligi haqida turli yondashuvlar mavjud. Psixolingvistika va kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan til inson ongining in’ikosi bo‘lib, u atrof-muhitni idrok etish va tushunish jarayonlarini belgilaydi. Shu sababli, tilning semantik va grammatik tuzilmalari inson tafakkurining shakllanishiga va rivojlanishiga ta’sir qiladi. Masalan, Sapir-Uorf gipotezasi til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlab, har bir til o‘ziga xos dunyoqarashni shakllantirishini ilgari suradi. Shuningdek, madaniy-antropologik yondashuvlar tilni inson jamiyatidagi tarixiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘laydi. Har bir til o‘ziga xos madaniy tajribalarni aks ettirib, avloddan-avlodga o‘tadigan an’analar, qadriyatlar va dunyoqarashni ifodalaydi. Masalan, turli xalqlarning tillarida mavjud bo‘lgan metaforalar va idiomalar shu xalqning hayot tarzini, dunyoni qanday qabul qilishini aks ettiradi. Til tizimining inson tajribasi bilan bog‘liqligini lingvistik tasniflash tizimlari orqali ham ko‘rish mumkin. Turli tillarning so‘z boyligi, grammatik kategoriyalari va sintaktik tuzilmalari aynan shu til egalarining tajribalariga asoslangan holda shakllangan. Masalan, tabiat bilan bog‘liq tajribalar muhim bo‘lgan jamiyatlarda tabiat hodisalari bilan bog‘liq atamalar ko‘p bo‘lsa, texnologik rivojlanish yuqori bo‘lgan jamiyatlarda esa zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq lug‘at boyligi ustunlik qiladi. Shunday qilib, til tizimi inson tajribasining in’ikosi sifatida namoyon bo‘lib, u inson tafakkuri va madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqolada til tizimining inson tajribasiga bog‘liqligi turli lingvistik, psixolingvistik va sotsiokulturnuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yanada chuqurroq anglashga yordam berib, lingvistika va kognitiv fanlar sohasidagi nazariy va amaliy yondashuvlarni boyitishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Badiiy matnnning inson faoliyati, bajaradigan harakatlari davomi, mahsuli ekanligini qayd etgan bo‘lamiz. Zotan, badiiy matnning yaratilishi eng avvalo lisoniy tafakkur jarayonidir. Mazkur jarayonda tafakkurning inson faoliyati bilan munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Matn bilan tanishish va unga baho berish mazmunni aniqlashga yo‘naltirilgan yanada mukammalroq jarayondir. Shu asnoda, badiiy matnning pragmastilistik nuqtai nazardan tadqiq qilish uning yaratilishi va idroki bilan bog‘liq qator masalalar muhokamasini taqozo etadi. Bunday yondashuv, albatta, ifodalanayotgan konseptual axborot uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni ajratishni talab qiladi. Bunday ko‘rsatkichlar vazifasini odatda turli lingvostilistik birliklar bajaradi va ularning mazmuniy jihatlari umumlashgan holda matnning yaxlit konseptual mazmunini shakllantiradi. Stilistik hodisalarning konseptuallashuvi, o‘z navbatida, ma’lum kognitiv tamoyillar va pragmatik mo‘ljal negizida sodir bo‘ladi. Shuningdek, konseptual mazmun namunasi bo‘lgan uslubiyamal umuminsoniy, milliy – madaniy xususiyatga ega bo‘lishi bilan bir qatorda alohida madaniy andoza sifatida ajralib turadi.

Shunday qilib, tadqiqotchilar pragmastilistikaning shakllanishini zamonaviy tilshunoslikdagi o‘ziga xos burilish bosqichi deb qarashga moyil. Soha asoschilaridan bo‘lgan L.Hikining fikriga ko‘ra, stilistik tahlilning pragmatik tamoyillar bilan to‘ldirilishi tilni faoliyatdagi hodisa maqomida ko‘rishga zamin yaratdi. Bunday talqinda mavjud ifoda imkoniyatlaridan eng ma’qulini tanlash muammosi old o‘ringa chiqadi. Bundan ko‘rinadiki, pragmastilistika ma’lum axborotni ifodalash va muallif maqsadini voqelantirish mo‘ljaliga ega lisoniy tanlov jarayoni hamda natijalarini tavsiflovchi

sohadir. Ushbu sohada, shuningdek, ma’lum bir vaziyatni turli usullarda tasvirlash vositalari ham aniqlanadi.

Ba’zilar pragmastilistikani tilshunoslik, nutqiy aktlar nazariyasi va matn tilshunosligi kabi yo‘nalishlar “uchrashuvi”da yuzaga kelgan tadqiqot sohasi deb qarash tarafdoridirlar. Bunda adabiy asar o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy vaziyatni aks ettiruvchi diskurs maqomida qaraladi. Londonda nashr qilingan “Dictionary of Stylistics” lug‘atida ta’riflanishicha, pragmastilistika o‘rganiladigan matnning lisoniy xususiyatlari muallif, matn va o‘quvchi o‘rtasida haqiqiy ijtimoiy – madaniy muhitida yuzaga keladigan munosabatlarni namoyon qiladi. Bunda modallik, deyksis, presuppozitsiya, umumiy bilim, hurmat kategoriyasi kabilar tavsiflanadi. Uslubshunos P.Verdonkning nazdida, pragmastilistikada stilistik tahlil tamoyillari va usullaridan ma’lum maqsadda foydalaniladi. Til va badiiy til tavsifining bu yo‘nalishida faqat lisoniy shakl va tuzilmalar o‘rganilmasdan, balki ushbu shakllarning badiiy uslubda qanday qo‘llanishi hamda ularning muallif va o‘quvchi tomonida u yoki bu vaziyatda idrok etilishiga bog‘liq masalalar ham kun tartibiga qo‘yiladi. Badiiy diskurs muloqot tizimining o‘ziga xos butunligi ekanligi uslubshunoslar tomonidan qayd etilgan. Mazkur butunlikning xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- badiiy matnda til faqat muloqot vositasi bo‘lib qolmasdan, balki matn mazmunidan o‘rin oladigan konseptual axborotni ham ifodalash uchun xizmat qiladi;
- badiiy matnda muallifning estetik g‘oyasi tasavvurdagi olam doirasida voqelanadi;
- ushbu turdagi matnda muallifning sodir bo‘layotgan hodisalar, tasvirlanayotgan narsalarga nisbatan munosabati namoyon bo‘ladi;
- badiiy matnda yetkazilayotgan axborotning uzatuvchi va qabul qiluvchisi muallif va o‘quv bo‘lishi bilan bir qatorda, shu vazifalarni asar personajlari ham bajarishi mumkin.

Oxirgi ko‘rinishdagi xususiyatni ba’zilar pragmastilistik tahlilning muhim qismi deb ajratadilar. Jumladan, xitoylik tilshunos Zongshin Feng dramatik asarlar personajlari o‘rtasida kechgan dialoglarni o‘rganayotib, aytilmasdan qolgan fikr, yashirin ma’no ifodasi, suhbat kechishini nazorat qilish, ijtimoiy munosabatlarning tilda namoyon bo‘lishi kabilar tahliliga e’tibor qaratgan.

O‘zbekistonlik olimlar esa badiiy matnni yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasida kechadigan dialog maqomida yoki “muallif olami”ning “matn olami” orqali “o‘quvchining shaxsiy olami” ko‘rinishida anglash jarayoni sifatida idrok etishni taklif qiladilar. Ularning fikricha, pragmastilistikada quyidagi vazifalar tahlili nazarda tutiladi - tilning barcha sathlariga tegishli birliklarni muallif maqsadi va pragmatik mo‘ljaliga mos ravishda tanlanishini o‘rganish;

- lisoniy va kommunikativ vaziyat, bilim strukturalarini qamrab oluvchi nolisoniy omillarning o‘zaro munosabatini aniqlash;
- badiiy matnni uning yaratilishi va idroki jarayonida namoyon bo‘ladigan muallif va o‘quvchi hamkorligi mahsuli sifatida o‘rganish;
- matnning uslubiy va pragmatik vazifalarini badiiy muloqot pragmatik samarasi nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- muallifning individual lisoniy olam manzarasi ko‘rsatkichlarini ajratish va idiostilni tadqiq qilish.

Ravshanki, qo‘yilayotgan vazifalar bir – biri bilan yaqin va ularning tizimli ravishda amalga oshirilishi badiiy matnning insonlar va madaniyatlararo muloqot kontekstda tutgan o‘rni hamda estetik mohiyatini ochib berishga imkon yaratdi.

Pragmastilistik tahlil o‘rganilayotgan obyektning tabiatini belgilovchi lisoniy va nolisoniy omillarni bir xilda inobatga olish orqali, til qonuniyatlari va imkoniyatlari

badiiy matn tarkibida ma’lum vaziyatlarga qanday moslashishini izohlashga sharoit tug‘diradi. Bunday yo‘nalishdagi tadqiqotlar diskurs tuzilishining barcha qatlamlarini qamrab olishi mumkin. Shu sababli, badiiy asar personajlari o‘rtasida kechadigan suhbat ham diskurs tahlilining ajralmas qismiga aylanadi. Buning isbotini biz diskurs stilistikasi yo‘nalishida bajarilgan ilk tadqiqotlarning ko‘pchiligi aynan pyesalar matnidagi dialoglar tahliliga bag‘ishlanganligida ham kuzatishimiz mumkin . Romanlar matnida kechadigan dialoglar tahlili ham nazardan chetda qolmagan.

Demak, badiiy matnni diskurs maqomida tavsiflash uni ma’lum ijtimoiy muhit bilan bog‘liq jihatlarini inobatga olishni talab qiladi. Bu xildagi bog‘liqlik har qanday turdagi diskursning yaratilish

va idrok etishning muhim shartidir. Zero, tildan muloqot jarayonida foydalanish va uni tushunish badiyatni anglashning asosida turadi. Har qanday holatda ham unutmaslik kerakki, badiiy diskurs ikki yo‘nalishda kechadi. Birinchisi muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi dialog bo‘lsa, ikkinchisi esa matn ichida, ya’ni asar qahramonlari o‘rtasidagi muloqotdir. Ushbu sathdagi muloqot tahlilining muhimligi, birinchidan, badiiy asarning katta qismini personajlar nutqi tashkil qilishida namoyon bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu turdagi nutq vositasida muallifning voqelikka, sodir bo‘layotgan hodisalarga nisbatan munosabati voqelanadi.

Xulosa. Til tizimi va inson tajribasi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, til nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri, idroki va madaniy merosining ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Inson o‘z tajribalarini til orqali tartibga soladi, tushunadi va boshqalar bilan ulashadi. Til tuzilmalari va semantik kategoriyalar insonning atrof-muhitni qanday qabul qilishiga va tushunishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli tillar turli dunyoqarashlarni shakllantiradi. Masalan, Sapir-Uorf gipotezasiga ko‘ra, til inson tafakkuriga bevosita ta’sir qiladi va dunyoni qabul qilish tarzini belgilaydi. Shu bilan birga, madaniy va antropologik yondashuvlar har bir jamiyatning o‘ziga xos tili uning tarixiy va madaniy tajribalarini aks ettirishini tasdiqlaydi. Metaforalar, idiomalar va lingvistik tasniflash tizimlari jamiyatning turmush tarzi va tajribalariga bog‘liq holda shakllanadi. Til tizimi inson tajribasining aks etishi sifatida dunyo xalqlari tafakkurining xilma-xilligini namoyon etadi. Shuning uchun lingvistik tadqiqotlarda til va inson tajribasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu mavzuni yanada kengroq tahlil qilish, turli tillardagi tajriba ifodalari va lingvistik xususiyatlarni qiyosiy o‘rganish ilmiy izlanishlar uchun samarali yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, til inson tajribasining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat shaxsiy idrokni, balki butun jamiyatning tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Til tizimining inson tajribasi bilan bog‘liqligini chuqur tadqiq etish nafaqat lingvistika, balki psixologiya, antropologiya va sotsiologiya kabi fan sohalari uchun ham dolzarb masala bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of literary text. – T.: O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2013. – 204 p
2. Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. – Farg‘ona: Classic, 2020. – B. 48-51.
3. Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. Основы прагмалингвистики: Монография. – М.: Флинта, 2014. – 230 с.
4. Hickey L. The Pragmatics of Style. – London and New York: Routledge, 1989. – 216 p
5. Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М.: Прогресс, 1986. – С. 423.
6. Morris Ch. Writings in the General Theory of Signs. – The Hague – Paris, 1977. – 324 p.

UO’K 811.161.1’373.211.1

ERGONIMLARNING HUDUDIY MANSUBLIK JIHATIDAN TIP VA TURLARI: ERGOURBONIMLAR VA ERGOKOMONIMLAR

N.A. Nuriddinova, katta o‘qituvchi, Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi, Namangan

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ergonimlarning hududiy mansublik jihatidan tasnifi o‘rganiladi. Muallif shahar (urban) va qishloq (komon) hududlarida shakllangan ergonimlarning o‘ziga xos lingvistik, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini tahlil etadi. Ergourbonimlar va ergokomonimlar misolida ergonimlarning tipologik farqlari, nomlash an'analari va ularning sotsiokulturologik funksiyalari ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ergonimlar hududiy madaniyat, til taraqqiyoti va jamiyat ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi isbotlanadi. Maqola ergonimikaning nazariy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, amaliy onomastik tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ergonim, ergonimika, ergourbonim, ergokomonim, onomastika, hududiy mansublik, shahar onomastikasi, qishloq ergonimlari, nomlash madaniyati, lingvistik tipologiya.*

Аннотация. *В статье рассматривается классификация эргонимов по признаку региональной принадлежности. Автор анализирует лингвистические, культурные и социальные особенности эргонимов, сформировавшихся в городской и сельской местности. На примере эргонимов и эргонимов раскрываются типологические различия эргонимов,*

традиции именования и их социокультурные функции. Результаты исследования доказывают, что эргонимы напрямую связаны с региональной культурой, развитием языка и потребностями общества. Статья служит важным источником для укрепления теоретических основ эргономики, а также для практических ономастических исследований.

Ключевые слова: *Эргоним, эргонимика, эргоурбаноним, эргокомоним, ономастика, территориальная принадлежность, городская ономастика, сельские эргонимы, культура именования, лингвистическая типология.*

Abstract. *This article studies the classification of ergonyms in terms of territorial affiliation. The author analyzes the specific linguistic, cultural and social characteristics of ergonyms formed in urban and rural areas. On the example of ergourbanonyms and ergocomonyms, typological differences of ergonyms, naming traditions and their sociocultural functions are revealed. According to the results of the study, it is proved that ergonyms are directly related to regional culture, language development and the needs of society. The article serves as an important source for strengthening the theoretical foundations of ergonomics, as well as for practical onomastic research.*

Keywords: *Ergonym, ergonymics, ergourbanonym, ergocomonym, onomastics, territorial affiliation, urban onomastics, rural ergonyms, naming culture, linguistic typology.*

Kirish. Tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan onomastika turli nomlash birliklarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Unga ergonimika ham kiradi — bu inson faoliyati bilan bog‘liq obyektlarga berilgan nomlarning tahlilini o‘z ichiga oladi. Ergonimlar — ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va maishiy hayotdagi real obyektlarning nomlari bo‘lib, ular til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur ochib beradi. Ushbu maqolada ergonimlarning aynan hududiy mansublik mezoni asosida tahlil qilinadigan ikki turi — ergourbonimlar (shahar ergonimlari) va ergokomonimlar (qishloq ergonimlari) o‘rganiladi. Tilshunoslikda onomastika fanining muhim sohalaridan biri bu — ergonimika, ya’ni inson faoliyati bilan bog‘liq obyektlarga qo‘yilgan nomlarni o‘rganishdir. Ergonimlar shahar, qishloq, mintaqa yoki mamlakat ichidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holatlar, tarixiy jarayonlar, milliy mentalitet, ijtimoiy ehtiyojlar va estetik didga ko‘ra shakllanadi. Shu sababli ularning hududiy mansubligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ergonimlarning tip va turlarini hududiy asosda o‘rganish ularning lingvistik, sotsiokulturologik va tarixiy aspektlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ergonimlarning hududiy mansubligi jihatidan ikki asosiy turi — ergourbonimlar va ergokomonimlar haqida so‘z yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ergonimlar mavzusida ko’plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borib shu mavzuga oid adabiyotlarni boyitishga hizmat qilgan. Chunonchi, A.Rustamov Buhoro ergonimlari bo’yicha[1], J.Siddikov Ergonimlarni shakllari va turlariga oid mavzuda[2], M.Abdurahmonov ingliz va o’zbek tillarida ergonimlarini[3] kelishiga oid ko’plab izlanishlar olib borib adabiyotlarni ma’lumotlarni boyishiga hizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni o’rganishda Onomastika (nomshunoslik), ayniqsa toponomika (joy nomlari) va ergonimiya (muassasa, tashkilot, korxona nomlari) sohasidagi asosiy nazariyalarni tahlil qilish; "Ergourbonim" (shahar ergonimlari) va "Ergokomonim" (qishloq yoki mahalliy ergonimlar) tushunchalarini aniq belgilash, ularning farqlari va xususiyatlarini aniqlash; Hududiy lingvistika va sosiolingvistika metodlarini ergonimlarning tarqalishiga nisbatan qo‘llashdan iborat.

Tahlillar va natijalar. Ergonimlar — bu ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo, maishiy xizmat, transport va boshqa sohalarga oid tashkilot va korxonalarning nomlaridir. Ular inson faoliyatining mahsuli bo‘lgan obyektlarga berilgan atamalardir.[4] Ergonimlar shuningdek ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tildagi ifodasi bo‘lib, o‘z ichiga hududiy, tarixiy, etnik, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarni oladi. Ergonimlar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

Soha bo‘yicha: ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va boshqalar;

Nomlanish shakliga ko‘ra: abbreviaturalar, shaxs ismlari asosida, joy nomlari asosida, tasviriy-ramziy nomlar va h.k.;

Hududiy mansublik jihatidan: mahalliy (lokal), respublika darajasidagi, xalqaro miqyosdagi nomlar. Aynan hududiy mansublik mezoni bizga ergonimlarning ayrim hududlarda qanday shakllanayotgani va qanday nomlash an'analarining mavjudligini tahlil qilish imkonini beradi. Bu jihatdan biz ergourbonimlar va ergokomonimlar degan ikki asosiy turga e'tibor qaratamiz.

Ergourbonimlar: shahar muhitidagi ergonimlar. Ergourbonimlar — bu shahar hududida faoliyat yurituvchi tashkilot va korxonalarga berilgan nomlar bo‘lib, urbanizatsiya jarayonlari, sanoat rivoji, madaniy ko‘tarilish va aholining ehtiyojlariga ko‘ra shakllanadi.[5] Ular odatda quyidagi xususiyatlarga ega:

Modernlik va zamonaviylik — shahar muhitida joylashgan obyektlarning nomi ko‘pincha xorijiy tillardan olingan, zamonaviy, brendga yo‘naltirilgan bo‘ladi: “Mega City”, “Urban Style”, “Global Tex”, “Capital Plaza” kabi.

Reklamaviy maqsadga yo‘naltirilgan — ergourbonimlar o‘z nomi orqali mijozni jalb qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Stereotipik nomlanish — ba'zan shahar ergonimlarida o‘xshashliklar ko‘p bo‘ladi: “Art Café”, “Royal Beauty”, “City Market”.

Abbreviaturalarning ko‘pligi — ayniqsa davlat tashkilotlari nomlarida qisqartmalar ishlatiladi: “THTK” (Toshkent Havo Transport Kompaniyasi), “MMJ” (Madaniyat va Ma'rifat Jamiyati).

Ergourbonimlarning shakllanishiga ijtimoiy ehtiyoj, iqtisodiy talab, reklama va madaniy an'analar bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida "IT Park", "NEXT Mall", "President School" kabi ergonimlar nafaqat shahar makoni haqida, balki undagi global tendensiyalar, texnologik taraqqiyot darajasi, xorijiy tillarning ta'siri haqida ham tasavvur beradi.[6]

Ergokomonimlar: qishloq hududidagi ergonimlar. Ergokomonimlar — bu qishloq, tuman yoki chekka hududlarda joylashgan korxona, fermer xo‘jaligi, artel, xizmat ko‘rsatish nuqtalariga berilgan nomlardir. Ular, odatda, quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

Mahalliylik elementi kuchli bo‘ladi: nomlarda joy nomlari, tarixiy shaxslar, mahalliy flora va fauna, an'anaviy qadriyatlar ifoda etiladi. Masalan: “Qo‘shtepa paxtakori”, “Zarafshon bog‘i”, “Bobur fermer xo‘jaligi”.

Oddiy va tushunarli — ergokomonimlar ko‘pincha oddiy, xalq tiliga yaqin bo‘ladi: “Mehrjon”, “Baraka”, “Do‘stlik”.

Qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilganlik — nomlarda faoliyat sohasi aniq ko‘rsatiladi: “Yangi hayot chorvachilik kooperativi”, “G‘alaba dehqonchilik firmasi”.

Milliy mentalitet aks etgan — bu turdagi ergonimlarda mahalliy urf-odatlar, milliy ifoda vositalari tez-tez ishlatiladi.[7]

Ergokomonimlar ijtimoiy hayotning asosiy manbai bo‘lgan qishloq xo‘jaligi, mahalliy hunarmandchilik, dehqonchilik va hayvonchilik faoliyatining til ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali xalqning hayot tarzi, mehnat faoliyati va tarixiy merosi til orqali saqlanadi.

Hududiy mansublik asosida ergonimlarning o‘ziga xosliklari. Ergourbonimlar va ergokomonimlar o‘rtasidagi asosiy farq ularning joylashuvi va madaniy kontekstida namoyon bo‘ladi. Urbanistik muhitga oid ergonimlar zamonaviy texnologiyalar, biznes madaniyati va xalqaro aloqa bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, komonistik hududdagi ergonimlar milliylik, oddiylik va tarixiylik bilan ifodalanadi. Bu esa tilshunoslarga hududiy onomastik resurslarni o‘rganishda muhim manba bo‘ladi. Shuningdek, hududiy jihatdan ergonimlar:

- Til jihatidan boyib boradi (leksik, fonetik, morfologik tahlil uchun asos bo‘ladi);
- Sotsiokulturologik tadqiqotlar uchun dalil bo‘lib xizmat qiladi;
- Mahalliy til xususiyatlarining saqlanishiga yordam beradi;
- Identitet va hududiy o‘ziga xoslikni belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Ergonimlar tilning amaliy jihatdan faol qatlamlaridan biri bo‘lib, ular orqali ijtimoiy hayotning, iqtisodiy jarayonlarning, hududiy o‘zgarishlarning va madaniy qadriyatlarning til orqali qanday aks etishini ko‘rish mumkin. Ergonimlarning hududiy mansublik jihatidan o‘rganilishi — til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatni ochib berishga yordam beradi. Ergourbonimlar shahar sivilizatsiyasining til ifodasi bo‘lsa, ergokomonimlar esa milliy, tarixiy va mahalliy xususiyatlarning til vositasidagi aksidir. Kelajakda ergonimlarni hududiy va sohaviy tahlil qilish orqali regional til

siyosatini shakllantirish, madaniy merosni saqlash va milliy til taraqqiyotiga xizmat qilish mumkin. Shu sababli, ergonimlar nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, madaniyatshunoslik, iqtisodiyot va hududshunoslik fanlari uchun ham dolzarb tadqiqot obyektidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbar, Rustamov. "Buxoro ergonimlarining o'ziga xos funksiyalari." Международный журнал научных исследователей 10.2 (2025): 87-90.

2. Siddikov, Jaxongir. "Ergonimlarning shakllanish tamoyillari va turlari." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.6 (2022): 1000-1003.

3. Abdurakhmonov, Mirshod. "Ingliz va o 'zbek tillarida ergonimlarni ifodalash vositalari." News of the NUUz 1.1.3 (2025): 220-221.

4. Култаева Ф. Ergonimlarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 109-113.

5. Siddikov J.N. Onomastik ko'lamda qarshi shahar ergonimlarining tutgan o'rni //Редакционная коллегия. – 2024. – С. 133.

6. Nosurulloyevich S.J. Ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlarning lingvistik tadqiqi //Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 1. – №. 2.

7. Begimov O.T. Zamonaviy o'zbek tili ergonimik terminologiyasining shakllanishida chet tili o'zlashmalarining o'rni //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 140-146.

UO'K 81-114.2

TILSHUNOSLIKDA NOMINATSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

A.Obidova, doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nominatsiya atamasining ma'nosi, uning turlari:tub va yasama nominatsiya hamda ingliz tilida laqab va taxalluslar yasalishida nominatsiya turlarining tutgan o'rni haqida so'z boradi,shuningdek, har bir tur aniq misollar bilan dalillanadi.*

Kalit so'zlar: *nominatsiya, birlamchi, ikkilamchi nominatsiya ,leksik, prepozitiv, diskursiv nomlash,laqab,taxallus.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение термина номинация,его виды: первичная и вторичная номинация, а также роль видов номинации в образовании прозвищ и* ***псевдонимов*** *в английском языке. Кроме того, каждый вид подкрепляется конкретными примерами.*

Ключевые слова: *номинация, первичная номинация, вторичная номинация, лексическая номинация предикативная номинация, дискурсивная номинация, прозвище, псевдоним.*

Abstract*. This article examines the meaning of the term nomination, its types: primary and secondary nomination, and the role of nomination types in the formation of nicknames and pseudonyms in the English language. Furthermore, each type is substantiated with specific examples.*

Key words: *nomination, primary nomination, secondary nomination, lexical naming, predicative nomination, discursive naming, nickname, pseudonym.*

Ingliz tilida laqab va taxalluslarning paydo bo'lishi ilmiy jihatdan muhim va ahamiyatli bo'lgani uchun bu masalani har tomonlama va ilmiy asosda o'rganish talab etiladi. Onomasiologiya, ya'ni nomlash nazariyasi, so'nggi vaqtlarda semantikani tadqiq qilishda ko'proq qo'llanilmoqda. Avvaliga semasiologiya yoki leksikologiya tarkibiga kirgan bu nazariya, Yu.S. Stepanovning fikricha, "asta-sekin semantikaning markaziga aylandi" Lug'atdagi tizimlilik haqidagi taxminlardan boshlab, o'z kategoriyalarining kognitiv asoslanganligini tan olishgacha bo'lgan rivojlanish yo'lini bosib o'tgan nomlash nazariyasi XXI asrda lingvistik tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi va onomasiologiya atamasi endi hech kimni hayron qoldirmaydi. Agar "klassik" onomasiologiya semasiologiyaga qarshi rivojlanib, o'zining alohida yo'nalish ekanligini isbotlashga intilgan bo'lsa, hozirgi zamon nomlash nazariyasi, barcha tomonidan tan olingan holda, pragmatika va kognitivistika kabi kengroq va yangi tadqiqot sohalari bilan bog'lanishga harakat qilmoqda. Onomasiologik tadqiqotlar tilda dunyodagi narsalar va hodisalar qanday nomlanishiga javob beradi. Ularning tadqiqot obyekti g'oyani ifodalash, predmetlarni nomlash va tushunchalarni ifodalash prinsiplari va qonuniyatlaridir. Odam hayoti davomida moddiy narsalar va turli hodisalar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi hamda bir-biriga ta'sir etuvchi va o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan yangi

tushunchalarni shakllantiradi. Tilning bu faoliyati natijasida leksik birliklar qatorida yangi so'zlar paydo bo'ladi va bu jihatdan laqablar va taxalluslar ham istisno emas. O'z navbatida, bunday yangi leksik birliklar inson ongida aks etgan narsa-hodisalarni obyektivlashtirish va ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi hamda deyarli barcha til funksiyalarini o'z ichiga oladi: 1) nominativ funksiya, ya'ni real voqelik va hodisalar obyektlarining nomlanishi; 2) signifikativ funksiya, ya'ni so'zlarning ma'nosiga, sinflariga ko'ra umumlashtirilishi; 3) kommunikativ funksiya, ya'ni ularning muloqotda qo'llanilishi; 4) pragmatik funksiya - leksik birliklarning ekspressiv ifodasi va emotsional ta'siri.

Shunday qilib, insonning hayotiy tajribasi va atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida doimiy ravishda yangi tushunchalar va ularni ifodalash uchun zarur bo'lgan til vositalari, jumladan, yangi so'zlar shakllanib boradi. Laqab va taxallus kabi leksik birliklar ham bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ular inson ongida aks etgan voqelikni obyektivlashtirish va kommunikatsiya jarayonida turli xil funksiyalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Bu funksiyalar orqali insonlar o'zaro muloqot qiladilar, fikr almashadilar va o'zlarining hissiy-emotsional holatlarini ifoda etadilar.

"Nominatsiya" so'zining o'zi bir nechta ma'noga ega, u ham nom berish jarayonining harakatini, ham nom berish natijasidagi holatni ko'rsatishi mumkin. Ko'plab tadqiqotchilar (V.G. Gak, A.A. Ufimseva, E.S. Aznaurova, Ye.S. Kubryakova, V.N. Teliya, A.F. Juravlev) "nominatsiya" terminini ham nom berish jarayoni va usulini, ham nom berish shaklini belgilash uchun ikkala ma'noda ham ishlatadilar. Bunday keng talqinda nominatsiya inson ongida aks etadigan va bilib olinadigan barcha narsalarni: predmetlarni, shaxslarni, harakatlarni, sifatlarni, munosabatlarni, voqealarni belgilashni anglatadi.

Katta ensiklopedik lug'atda "nominatsiya" (lotincha "nominatio" - nom berish) atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "til birliklarini (birinchi navbatda so'zlarni) belgilangan obyektlar (predmetlar, belgilar, voqealar va hokazo) bilan moslashtirish jarayoni".

“O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”da **nominatsiya** ancha keng izohlangan: ”nominatsiya”– nomlash xususiyatiga ega bo’lgan, ya’ni nolisoniy borliq unsurlariga nom berish va ularni ajratib ko’rsatish, ular haqida tegishli tushunchalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan til birliklari– so’zlar, so’z birikmalari, frazeologizmlar va gaplarni hosil qilish. Ayrim olimlar nominatsiya terminini tilshunoslikning nomlash jarayonlari tarkibini o’rganish uchun ham qo’llaydilar”. Qomusda nominatsiya 3 jihatdan farqlanishi aytiladi: 1.Nomlanuvchi obyekt. 2.Nomlovchi obyekt. 3.Tanlab olinadigan til unsurlari.

Olim O.S. Axmanova "nominatsiya" terminiga uchta muhim izoh beradi. Uning fikricha, bu atama bir tomondan so‘zning asosiy vazifasi bo‘lgan atash va nomlash qobiliyatini ifodalaydi. Ya’ni, har bir so‘z muayyan narsa, belgi yoki tushunchani nomlash uchun xizmat qiladi. Ikkinchi ma’nosi esa nomlash jarayonining o‘zini anglatadi, bunda so‘z fikr yuritilayotgan aniq obyektga (referentga) to‘g‘ri kelishi nazarda tutiladi. Uchinchidan, Axmanova "nominatsiya"ni so‘z yoki so‘z birikmasining grammatik vazifasi sifatida ham tushunadi, ya’ni ular gapda nom (subyekt, obyekt kabi) bo‘lib kelish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, nominatsiya jarayon sifatida ko'p qirrali va bosqichli hodisadir. Uning o'ziga xosligi shundaki, u insonning aks ettirish faoliyati, zaruriy va muhim narsalarni umumlashtirish va ajratib ko'rsatish, tushunchalarni shakllantirish bilan bog'liq. Til bir vaqtning o'zida tafakkurni obyektivlashtirish va ideallashtirish, ya'ni predmetlarni, ularning xususiyatlarini, munosabatlarini mavhum tarzda umumlashtirish hamda insonning ularni til belgilari yordamida anglash va aks ettirish natijalarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Nominatsiyani uning vazifasi va kelib chiqish tarixiga nazar tashlab o‘rganish uni ikki asosiy toifaga ajratishga yordam beradi. Bular quyidagilar:

1)Tub (birlamchi) nominatsiya: Bu turga avvaldan tilda mavjud bo‘lgan yoki hozirgi kunda tub so’z deb hisoblanadigan, ya’ni bevosita nomlash vazifasini bajaradigan so‘zlar kiradi. Hozirgi tillarning nomlash imkoniyatlari ko‘p jihatdan o‘zlashmalar yoki ikkilamchi nominatsiya orqali boyib borayotgan bo‘lsa-da, birlamchi nominatsiya ham muhim o‘rin tutadi. Bunda mavjud til birliklarining fonetik shaklidan yangi tushuncha yoki obyekt uchun nom sifatida foydalaniladi. Birlamchi nominatsiya natijasida yuzaga kelgan nomlar til egalari tomonidan asliy, birinchi nom sifatida qabul qilinadi va ularning yasama ekanligi faqat etimologik yoki tarixiy tahlil orqali aniqlanishi mumkin.

Adam *– Bibliyadagi birinchi inson nomi, ibroniy tilidan olingan bo'lib, 'adam – "inson, tuproqdan yaratilgan" degan ma'noni bildiradi.*

Mary *– qadimiy ibroniycha Miryam ismidan kelib chiqqan, qadimiy, diniy kontekstda ishlatilgan ism.*

John *– ibroniycha Yohanan so'zidan olingan, "Xudo mehribon" degan ma'noni bildiradi.*

Paul *– lotincha Paulus so'zidan olingan, "kichik, kamtar" degan ma'noni bildiradi.*

2)**Yasama (ikkilamchi) nominatsiya:** Bu turga ma'no yoki so'z yasalishi jihatidan hosil bo'lgan nomlar kiradi. Bunda allaqachon mavjud bo'lgan so'zlardan turli usullar (affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya va boshqalar) orqali yangi ma'noli so'zlar yasaladi yoki mavjud so'zlar yangi nomlash vazifasida qo'llaniladi (metafora, metonimiya kabi). Ikkilamchi nominatsiya natijasida yuzaga kelgan nomlar o'zining morfologik tuzilishi yoki ma'nosidagi o'zgarishlar orqali yasama ekanligi sezilib turadi.

Iron Lady *– Margaret Thatcher'ga berilgan laqab. Bu laqab "temir kabi qat'iy va murosasiz" siyosiy xarakterini ifodalash uchun ishlatilgan.*

King of Pop *– Michael Jackson'ga berilgan metaforik unvon. U pop musiqasidagi yetakchilik maqomini ifodalaydi.*

The Rock *– Dwayne Johnson'ning ringdagi taxallusi bo'lib, kuch va qat'iyat obrazini yaratadi.*

Mother Teresa *– bu nom onalik* va *mehribonlik obrazini anglatuvchi diniy-metaforik nom sifatida ishlatilgan.*

Wolf of Wall Street *– Jordan Belfort'ga nisbatan ishlatilgan laqab bo'lib, yirtqich hayvon (bo'ri) obrazida, uning tajovuzkor va faol moliyaviy faoliyatini ifodalaydi.*

Lady Gaga *– Stefani Germanotta o'ziga bergan sahna nomi bo'lib, bu nom "Queen" guruhi qo'shig'i "Radio Ga Ga" dan ilhomlanib yaratilgan.*

G.V. Kolshanskiyning fikricha, nominatsiya tushunchasi juda keng bo'lib, dunyodagi har qanday voqea yoki hodisaning til orqali ifodalanishi nominatsiya deb qaralishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, tilning uchta asosiy birligi – so'zlar, so'z birikmalari va gaplar ham nominatsiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, Kolshanskiy nominatsiyaning o'zini uchta alohida turga ajratadi:

So'z va so'z birikmalari orqali nomlash – ya'ni **leksik nomlash**.

Gap orqali nomlash – ya'ni **prepozitiv (gap darajasidagi) nomlash**.

Matn orqali nomlash – ya'ni **diskursiv nomlash**

Kolshanskiy fikrlariga tayanadigan bo'lsak, **leksik nomlash** eng keng tarqalgan nominatsiya turi bo'lib, so'zlar va so'z birikmalari orqali nomlashni o'z ichiga oladi, **prepozitiv nomlash esa** gaplar orqali nomlash bo'lib, biror voqea, holat yoki munosabatni to'liq gap yordamida ifodalashni nazarda tutadi. **Diskursiv nomlashda** bo'lsa biror mavzu, g'oya yoki vaziyat to'liq matn orqali ifodalanadi. Masalan, biror ilmiy maqola muayyan hodisani diskursiv tarzda nomlashi mumkin.

Anglaganimizdek, Kolshanskiy nominatsiyani til birliklarining kattaligiga ko'ra uchta darajaga ajratib, bu hodisaning naqadar keng qamrovli ekanligini ko'rsatib beradi. Bizning tadqiqotimiz bo'lgan laqab va taxalluslar esa nominatsiyaning eng asosiy va keng tarqalgan turi bo'lgan leksik nominatsiyaga bag'ishlangan. Masalan, ***oddball –*** g'ayrioddiy yoki noodatiy xatti-harakatlarga ega shaxs, night owl – kechasi faol bo'ladigan odam, bookworm – kitob o'qishni juda yaxshi ko'radigan shaxs, fifth wheel – keraksiz yoki ortiqcha odam

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Журавлев А.Ф. Технические возможности русского языка в области предметной номинации / А.Ф. Журавлев // Способы номинации в современном русском языке / отв. ред. Д.Н. Шмелев. - М.: Наука, 1982. -С. 46-50.

2. Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций / В.Г. Гак // Языковая номинация (общие вопросы) / отв. ред. Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. - М.: Наука, 1977. - С. 244-246.

3. Большой энциклопедический словарь // Большая Российская энциклопедия. -М.: Норинт, 2000.-1536 с.

4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.–6-jild.–Toshkent.O'zME,2003.–704b

5. Ахманова О.С.Словарь лингвитических терминов.–М.:Сов.Э.,1969.–С.507.

6. Колшанский Г.В. Лингво-гносеологические основы языковой номинации / Г.В. Колшанский // Языковая номинация (общие вопросы) / отв. ред. Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. - М.: Наука, 1977. - С. 99-146.

7. Серебренников, Б.А., Уфимцева, А.А. Языковая номинация (Общие вопросы) - Москва: Издво Наука, 1977.-359с.

8. Степанов, Ю.С. Номинация, семантика, семисология (виды семантических определений в современной лексикологии) / Ю.С. Степанов // Языковая номинация: общие вопросы. - М., 1977. - С. 294-358.

9. Леонович О.А. В мире английских имен: учеб, пособие по лексикологии для студентов лингв, вузов и фак. иностр, яз. и преподавателей сред, школ / О.А. Леонович. - 2-е издр., исп. и доп. - М.: Астрель: АСТ, 2002. - 157 с.\

10. Гаджиев Т. К вопросу о древней ономастике Азербайджана // Вопросы азербайджанской филологии.Баку, 1984. Вып. 2. С. 125.

UO'K 821.111-1(73)Uitmen.07

POETIKA VA FALSAFA UYG'UNLIGI: WALT WHITMAN VA G'AFUR G'ULOM ERKIN SHE'RIYATIDA EKZISTENSIALIZM VA IJTIMOIY REALIZMNING MUSHTARAKLIGI

D.S. Ochilova, o'qituvchi, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro
B.Z. Qarshiyeva, talaba, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro
N.K. Qosimova, talaba, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro
S.Z. Nutfilloyeva, talaba, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqola, Walt Whitman va G'afur G'ulomning she'riyatidagi poetik va falsafiy uyg'unlikni o'rganadi, ularning asarlaridagi ekzistensializm va ijtimoiy realizmning mushtarakligini tahlil qiladi. Maqolada, "Song of Myself"[9] va "Men kimman?"[4] she'rlaridagi shaxsiy identifikatsiya, hayotning ma'nosi va insonning o'zligini anglash masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mehnatkash sinf, ijtimoiy adolatsizlik va demokratiya haqidagi fikrlar ham qiyoslanadi. Tadqiqot, shoirlarning badiiy tasvirlar, ramzlar va metaforalar orqali o'zining falsafiy va poetik qarashlarini qanday ifodalaganini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *Ekzistensializm, Ijtimoiy realizm, Shaxsiy identifikatsiya, Demokratiya, Badiiy tasvirlar, Ramzlar*

Аннотация. *Данная статья изучает поэтическую и философскую гармонию в поэзии Уолта Уитмена и Гафура Гулома, анализируя общие черты экзистенциализма и социального реализма в их произведениях. В статье рассматриваются вопросы личной идентификации, смысла жизни и самопознания в стихотворениях «Song of Myself» [9] и «Men kimman?» [4]. Также проводится сравнение взглядов на рабочий класс, социальную несправедливость и демократию. Исследование раскрывает, как поэты выражают свои философские и поэтические взгляды через художественные образы, символы и метафоры.*

Ключевые слова: *Экзистенциализм, Социальный реализм, Личная идентификация, Демократия, Художественные образы, Символы*

Abstract. *This article explores the poetic and philosophical harmony in the poetry of Walt Whitman and G'afur G'ulom, analyzing the commonalities of existentialism and social realism in their works. The article examines issues of personal identification, the meaning of life, and self-awareness in the poems "Song of Myself" [9] and "Men kimman?" [4]. Additionally, thoughts on the working class, social injustice, and democracy are compared. The study reveals how the poets express their philosophical and poetic views through artistic imagery, symbols, and metaphors.*

Key words: *Existentialism, Social realism, Personal identity, Democracy, Artistic imagery, Symbols*

Kirish. Walt Whitman va G'afur G'ulom adabiyotshunoslikda o'zining noyob poetik va falsafiy qarashlari bilan tanilgan buyuk shoirlardir. Whitman, Amerika she'riyatining yorqin vakili sifatida, insonning o'zligini anglash, shaxsiy erkinlik va tabiat bilan uyg'unlikni ifodalashda inqilobiy yondashuvlarni taklif etdi. Uning *"Song of Myself"*[9] asari, ekzistensializm va individualizm g'oyalarini qo'llab-quvvatladi, insonning o'zini, jamiyat va tabiat bilan uyg'unligini izlashini tasvirladi. G'afur G'ulom esa, O'zbekistonning ijtimoiy realizm an'analariga sodiq qolgan holda, xalqning kurashi, mehnatkashlar haq-huquqlari va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashni o'zining she'riyati orqali aks ettirdi. Uning *"Men kimman?"*[4] she'ri, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy

adolatni izlash masalalariga e’tibor qaratadi. Ushbu maqolada, Whitman va G‘ulomning erkin she’riyatidagi ekzistensializm va ijtimoiy realizmning mushtarakligi tahlil qilinadi. Ikkala shoirning asarlarida insonning o‘zligini anglash va hayotning ma’nosi haqidagi izlanishlar, shuningdek, ijtimoiy adolatsizlik va xalqning tengligi haqidagi fikrlar bir-biri bilan o‘xshash bo‘lib, ular o‘z zamonlarining muhim ijtimoiy va falsafiy masalalariga javob beradi. Ushbu tadqiqot, ikki buyuk shoirning poetikasi va falsafiy dunyoqarashlarini birlashtiruvchi umumiy jihatlarni ochib beradi, shuningdek, ularning asarlarida mavjud bo‘lgan badiiy tasvirlar, ramzlar va metaforalarning qanday ishlatilganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Walt Whitman va G‘afur G‘ulomning she’rlari adabiyotshunoslik va falsafa nuqtai nazaridan keng qamrovli tahlilni talab etadi. Ikkala shoirning she’riyati o‘z davrining ijtimoiy va falsafiy jarayonlarini chuqur aks ettirgan bo‘lib, ularning poetikasi va falsafiy dunyoqarashi haqida ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Whitmanning *"Song of Myself"* she’ri esa Amerika adabiyotida eng muhim yirik asarlardan biri hisoblanadi. Bu she’rda Whitman, shaxsning o‘zligini anglash, o‘zi bilan muloqotda bo‘lish va insoniyatning umumiyligini tasvirlashni o‘zining asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. U o‘zining ekzistensial g‘oyalarini, insonning tabiat bilan uyg‘unligini va jamiyatdagi erkinlikni aks ettiradi. Whitman she’rida xalqning tengligi va demokratiya tamoyillari kiritiladi, bu esa ijtimoiy realizmning bir ko‘rinishi sifatida qaraladi.[5]

G‘afur G‘ulomning *"Men kimman?"* she’ri ham ekzistensializm va ijtimoiy realizmni birlashtirgan asar sifatida ajralib turadi. G‘ulom o‘zining she’rida shaxsiy kimlikni, insonning hayotdagi o‘rni va jamiyatdagi vazifasini izlaydi. Uning she’ri, shuningdek, mehnatkash xalqning kurashini va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi turish haqidagi g‘oyalarni ta’kidlaydi. G‘ulomning badiiy tasvirlari va ramzlari, shuningdek, Whitmanning poeziyasiga o‘xshab, insoniyatning umumiyligini, umidlarni va tenglikni aks ettiradi. G‘ulomning asarlari, shuningdek, uning zamonasi va jamiyatdagi o‘zgarishlar haqida chuqur tafakkur qiluvchi ijtimoiy realizm elementlarini o‘z ichiga oladi.[7]

Ushbu maqolada metodologik yondashuv sifatida bir necha asosiy usullarni qo‘llash kutilmoqda. Birinchi navbatda, **tekstual tahlil** usuli qo‘llaniladi. Bu usul orqali Whitman va G‘ulomning asarlaridagi asosiy mavzular, badiiy obrazlar, ramzlar, va metaforalar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Har bir she’rning shakl va mazmunini diqqat bilan o‘rganish, ularning ijodiy usullarini va poetikalarini taqqoslash imkonini beradi.

Ikkinchi metodologik yondashuv **falsafiy tahlilni** o‘z ichiga oladi. Whitmanning ekzistensialistik fikrlari va G‘ulomning ijtimoiy realizmi, ular o‘z asarlarida insoniyatning mavjudligi, o‘lim, erkinlik va jamiyatdagi adolatsizlikni qanday aks ettirishini tushunish uchun o‘rganiladi. Ushbu falsafiy yondashuv orqali shoirlarning o‘z fikrlarining asosiy tematik jihatlari va ular yaratgan tasavvurlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.[1]

Intertekstual tahlil ham metodologiyaning muhim qismidir. Whitman va G‘ulomning she’rlari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lsa-da, ular orasidagi parallelalarga diqqat qaratish, ikki shoirning poetik va falsafiy qarashlaridagi mushtarakliklarni aniqlashga yordam beradi. Bu metod orqali, shuningdek, har bir shoirning o‘z she’riyatida ishlatgan badiiy vositalari va tilni qanday ishlatganligini, ularning ijodiy jarayonini solishtirish mumkin.

Shuningdek, **ixtisoslashgan adabiyotlarni** tahlil qilish metodologiyasi qo‘llaniladi. Ushbu usul, Whitman va G‘ulomning she’riyatlarini, ularning yashagan davrlarini, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarni tahlil qilishni ta’minlaydi. Shu tarzda, she’rlardagi tematik elementlar, ularning zamonasi va ijtimoiy vaziyat bilan qanday bog‘liq ekanligini o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, **mavzularni taqqoslash** orqali, Whitman va G‘ulomning she’rlari orasidagi umumiyliklar va farqlarni aniqlash hamda ularning falsafiy, badiiy va ijtimoiy kontekstlari bo‘yicha tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.[1]

Shu tarzda, ushbu maqola metodologiyasi orqali, Whitman va G‘ulomning erkin she’riyatidagi ekzistensializm va ijtimoiy realizmni o‘rganish va ularning poetik masalalariga chuqur yondashish mumkin bo‘ladi.

Natijalar. Ushbu tadqiqotning natijalari Whitman va G‘afur G‘ulomning she’riyatida ekzistensializm va ijtimoiy realizmning mushtarakligini chuqur tahlil qilishga imkon berdi. Ikkala

shoirning asarlari, o‘ziga xos badiiy va falsafiy ifodalar orqali, insonning o‘zligini anglash, hayotning ma’nosi va ijtimoiy adolat haqida umumiy fikrlarni taqdim etadi.

1. Ekzistensializmning ifodalanishi: Whitman va G‘ulomning she’rlari shaxsiy identifikatsiya va insonning o‘zini anglashga bo‘lgan izlanishlarni chuqur ko‘rsatadi. Whitmanning *"Song of Myself"* asarida, o‘zligini izlash, o‘zida va tabiatda ruhiy uyg‘unlikni topish, shaxsiy erkinlikni his qilish va hayotning cheksizligini anglash kabi ekzistensial mavzular ustuvor o‘rin tutadi.[2] Bu, o‘z navbatida, insonning tabiat bilan uyg‘unligini va uni anglash jarayonida yashashning mohiyatini ochib beradi. G‘afur G‘ulomning *"Men kimman?"* she’rida esa shaxsning o‘zligini izlash, hayotning ma’nosini anglash va o‘zini jamiyatda qanday joylashgani haqida savollar keltiriladi. G‘ulomning she’ri ayniqsa ijtimoiy jihatdan o‘zligini topishga intilayotgan mehnatkash xalqning holati bilan bog‘liqdir. Bu ikki shoirning ekzistensializmga yondashuvi, o‘zligini izlashdagi shaxsiy va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlar o‘rtasidagi kompleks bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

2. Ijtimoiy realizmning tasvirlanishi: Whitman va G‘ulom o‘z asarlarida mehnatkash sinf, ijtimoiy adolatsizlik va demokratiya masalalarini juda chuqur tahlil qiladilar. Whitman o‘zining demokratiyaga bo‘lgan ishtiyoqi va xalqning tengligi haqidagi qarashlari orqali ijtimoiy realizmni poetikada ifodalaydi. *"Song of Myself"* she’rida Whitman xalqning barcha qatlamlarini, shu jumladan, mehnatkashlarni va ularning haq-huquqlarini o‘z asarining markaziga qo‘yadi.[2] U, shuningdek, demokratik qadriyatlar va inson erkinligini ulug‘lashga intiladi. G‘afur G‘ulomning *"Men kimman?"* she’rida esa, jamiyatdagi o‘zgarishlar, adolatsizlikka qarshi kurash va xalqning ijtimoiy holati markaziy o‘rin tutadi. G‘ulomning ijtimoiy realizmi, uning xalqni tushunishi va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga bo‘lgan ishtiyoqidan kelib chiqadi. Uning asarida mehnatkashlar va zulm ostida qolgan insonlar tasvirlanadi, bu esa Whitmanning demokratiya va tenglik haqidagi g‘oyalari bilan o‘xshashliklar mavjudligini ko‘rsatadi.

3. Badiiy tasvirlar va ramzlarning ishlatilishi: Har ikki shoirning badiiy tasvirlar va ramzlarni ishlatishdagi usullari bir-biriga o‘xshashdir. Whitman o‘z she’rida tabiatni, insonni va jamiyatni birlashtiruvchi ramzlar orqali ekzistensial va ijtimoiy mavzularni chuqur ifodalaydi. Masalan, *"Song of Myself"* she’rida Whitman insonning ruhiy va jismoniy birligini tabiat orqali tasvirlaydi va odamning barcha qismlarini bir butun sifatida qabul qiladi. G‘ulomning *"Men kimman?"* she’rida esa mehnatkash sinf va uning kurashini tasvirlash uchun ko‘plab ramzlar va metaforalar ishlatilgan. U, xususan, xalqning hayotini yuksaltiruvchi ramzlar orqali adolatsizlikka qarshi kurashni ilgari suradi. Ikkala shoir ham badiiy vositalarni insonning hayotdagi ma’nosi va jamiyatdagi o‘rni haqida chuqur fikr yuritishda ishlatadilar.

4. Falsafiy masalalar: Whitman va G‘ulomning she’riyatidagi falsafiy masalalar, asosan, hayot va o‘lim, tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, shaxsiy ozodlik va jamiyatdagi erkinlikka qaratilgan. Whitmanning she’rida hayotning ma’nosi, o‘lim va tabiat bilan uyg‘unlik haqida chuqur fikrlar ilgari suriladi. U, o‘zida mavjud bo‘lgan barcha insoniy xususiyatlarni qabul qilish va ularni tabiat bilan birlashtirish orqali o‘zining ekzistensial izlanishlarini yakunlaydi. G‘ulom esa, o‘z asarida hayotning ma’nosi va ijtimoiy adolatni o‘rganish orqali xalqning haq-huquqlarini himoya qiladi. G‘ulomning falsafiy qarashlari, shaxsning o‘zligini jamiyat bilan bog‘lash va har bir insonning erkinlikka erishishini ta’minlashga qaratilgan.[1]

Muhokama. Ushbu tadqiqotda, Whitman va G‘afur G‘ulomning she’riyatidagi ekzistensializm va ijtimoiy realizmning mushtarakligini tahlil qilish orqali, ikkala shoirning poetikasidagi umumiy jihatlar va farqlar aniqlandi. Ularning asarlarida insonning o‘zligini izlash, hayotning ma’nosi, ijtimoiy tenglik va erkinlik masalalari qiyoslanib, turli zamonlar va madaniyatlarda mavjud bo‘lgan umumiy falsafiy va ijtimoiy masalalar o‘rtasidagi aloqalar ko‘rsatilgan.

1. Ekzistensializm va individning o‘zligini izlash: Whitman va G‘ulomning she’rlari insonning o‘zligini izlash va mavjudlikning ma’nosi haqidagi asosiy savollarni qamrab oladi. Whitmanning *"Song of Myself"* asari shaxsiy erkinlik va individualizmni o‘zining markaziga qo‘yadi. U, o‘zida mavjud bo‘lgan barcha hissiyotlar va fikrlarni qabul qilib, insoniyatning umumiyligini ta’riflaydi. Whitmanning she’ridagi asosiy g‘oya shundan iboratki, inson o‘zligini tabiat va jamiyat bilan uyg‘unlashtirib, o‘z o‘rnini aniqlashi kerak. G‘afur G‘ulomning *"Men kimman?"* she’rida esa, individning o‘zligini anglash ijtimoiy kontekstda qaraladi. G‘ulomning she’rida shaxsiy erkinlik

hamda ijtimoiy holat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish orqali, insonning o‘zligini jamiyatda qanday topish mumkinligi masalasi ko‘tariladi. G‘ulomda individualizmning ijtimoiy jihatlari vurg‘ulangan bo‘lsa, Whitman o‘z she’rida asosan shaxsning ichki olamini tasvirlashga urg‘u beradi.

2. Ijtimoiy realizm va demokratik qadriyatlar: Whitman va G‘ulomning she’rlari jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni va mehnatkash sinfning kurashini aks ettiradi. Whitmanning *"Song of Myself"* she’rida, u nafaqat o‘zligini izlash, balki barcha insonlarning tengligi va erkinligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi. U jamiyatning barcha qatlamlaridan, shu jumladan, mehnatkashlar, ezilganlar va etnik guruhlarni o‘zining she’riga kiritadi. Whitman, ayniqsa, xalqning demokratiyadagi o‘rni va ularning teng huquqligi haqida gapiradi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy realizmning asosiy g‘oyalaridan biridir.

G‘afur G‘ulomning *"Men kimman?"* she’rida, ijtimoiy realizm ancha aniqroq ko‘rsatilgan. G‘ulom, mehnatkash xalqning hayotini, ularning kurashlarini va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi faoliyatini tasvirlaydi.[6] G‘ulomning she’rida, ijtimoiy tenglik va adolatning erishilishi faqat xalqning kurashi orqali mumkinligini ta’kidlashga intiladi. Bu jihat, Whitmanning demokratik qadriyatlariga o‘xshash bo‘lsa-da, G‘ulomda ko‘proq jamiyatdagi konkret ijtimoiy muammolar va o‘zgarishlarga urg‘u beriladi.[5]

3. Badiiy tasvirlar va ramzlar: Ikkala shoir ham badiiy tasvirlar, ramzlar va metaforalardan juda faol foydalanadilar. Whitman o‘z she’rlarida tabiatni, insonni va jamiyatni birlashtiruvchi ramzlar orqali o‘z fikrlarini ifodalaydi. U, o‘zining *"Song of Myself"* she’rida, inson va tabiatning birligini ko‘rsatadi. Tabiat bilan uyg‘unlik, insonning ruhiy va jismoniy holatini aks ettiradi, bu esa Whitmanning ekzistensial g‘oyalarini mustahkamlaydi.[10] G‘ulomning *"Men kimman?"* she’rida esa, badiiy tasvirlar orqali jamiyatdagi adolatsizlik va mehnatkashlarning kurashini tasvirlaydi. G‘ulom ko‘proq ijtimoiy muammolarni va xalqni tasvirlashda ramzlarni ishlatadi, bu esa uning she’riyati ijtimoiy realizmga asoslanganligini ko‘rsatadi.

4. Falsafiy masalalar: Whitman va G‘ulomning she’rlari, falsafiy nuqtai nazardan, hayotning ma’nosi, o‘lim va tabiat bilan uyg‘unlik masalalarini keng muhokama qiladi. Whitman o‘z she’rida hayotning ma’nosini va uning cheksizligini ta’kidlaydi, insonning tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi, o‘limdan keyin yashashning davom etishi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradi. U, hayotning har bir lahzasini qadrlashga chaqiradi. G‘ulomda esa, hayotning ma’nosi ko‘proq ijtimoiy kurash va tenglikka erishish orqali aniqlanadi. G‘ulomning she’ri, uning zamonasi va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda, odamning hayotdagi haq-huquqlari va ijtimoiy adolatga erishish masalalarini ko‘taradi.

5. Madaniyatlararo aloqalar: Whitman va G‘ulomning she’rlari orasidagi mushtarakliklar, ikki madaniyat o‘rtasidagi aloqalar va o‘xshashliklarni ko‘rsatadi. G‘ulomning poeziyasi, uning o‘z xalqining ijtimoiy adolatsizlik va tenglikka intilishlarini aks ettirishi, Whitman bilan umumiy g‘oyalar va qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Whitmanning Amerika kontekstida ilgari surgan demokratiya, tenglik va erkinlik haqidagi g‘oyalari, G‘ulomning o‘z zamonidagi ijtimoiy kurash bilan bog‘liq masalalar bilan parallel o‘rganilishi mumkin. Bu, shuningdek, badiiy va falsafiy nuqtai nazardan o‘xshashliklarni ko‘rsatadi.[1]

Xulosa: Whitman va G‘ulomning asarlaridagi ekzistensializm va ijtimoiy realizmning mushtarakligi, ikki shoirning individual va ijtimoiy holatlarni birlashtirishga bo‘lgan intilishlari, ularning she’riyatidagi badiiy tasvirlar va ramzlar orqali aks etgan. Ularning poetikasi va falsafiy dunyoqarashi, o‘xshash mavzularni turli madaniy va ijtimoiy sharoitlarda ifodalash orqali, insoniyatning umumiy muammolariga yondashadi. Bu tadqiqot, Whitman va G‘ulomning she’riyatidagi bu umumiy elementlarni yanada chuqurroq anglash va tahlil qilish uchun asos yaratadi.

Ushbu tadqiqotda, Walt Whitman va G‘afur G‘ulomning she’riyatida ekzistensializm va ijtimoiy realizmning mushtarakligi tahlil qilindi. Har ikki shoirning asarlaridagi shaxsiy identifikatsiya, insonning o‘zligini anglash, hayotning ma’nosi, ijtimoiy tenglik va erkinlik masalalari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar aniqlandi. Whitman va G‘ulomning poetikasi, o‘z zamonlarining falsafiy va ijtimoiy sharoitlariga javob bo‘lib, ularda insoniyatning umumiy muammolariga yondashuvlarning izlanishi aks etadi.

Whitman o‘z she’rlarida shaxsiy erkinlik, individualizm va insonning tabiat bilan uyg‘unligini ta’kidlar ekan, xalqning tengligi va demokratik qadriyatlarini ilgari suradi. G‘afur G‘ulom esa, o‘z

she'riyatida, mehnatkash sinfning kurashini va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi bo'lgan qat'iyatni aks ettirib, ijtimoiy realizmni poetikada ifodalashga intilgan. G'ulomning asarlari, o'zining ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda, xalqni va uning kurashini tasvirlaydi, bu orqali u hayotning ma'nosini ijtimoiy tenglik va adolatga erishishda ko'radi. Badiiy tasvirlar, ramzlar va metaforalarning ikkala shoirning she'riyatida qanday ishlatilgani, ularning ijtimoiy va ekzistensial masalalarni qanday ifodalaganligini ko'rsatdi. Whitman va G'ulomning she'rlari, nafaqat shaxsiy ma'naviy izlanishlarni, balki ijtimoiy holatni va xalqning kurashini tasvirlash orqali, o'zlarining falsafiy va poetik qarashlarini birlashtirgan. Bu masalalar, o'z vaqtida yozilgan bo'lsa-da, ularning she'riyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xulosa qilib aytganda, Whitman va G'ulomning asarlaridagi ekzistensializm va ijtimoiy realizm, ularning poetikasi va falsafiy dunyoqarashlaridagi o'xshashliklar va farqlarni tahlil qilish orqali, o'zgacha madaniy va ijtimoiy sharoitlarda mavjud bo'lgan umumiy qadriyatlar, insoniyatning o'zligini anglash va erkinlikka erishish kabi masalalarga bo'lgan yondashuvlarining o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Ularning asarlari, adabiyotshunoslik va falsafa nuqtai nazaridan yanada chuqurroq o'rganilishi, bu ikki shoirning ijodini yangi nuqtai nazardan baholash imkoniyatini yaratadi.[8]

REFERENCE:

1. Bessonov, A. (2018). The Poetic Vision of Whitman and G'afur G'ulom: A Comparative Study. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot instituti.
2. Cook, D. (2007). Poetry, Identity and Resistance: An Analysis of Whitman's "Song of Myself". Cambridge University Press.
3. Djalilov, O. (2014). G'afur G'ulom va unutilgan she'riyat. Sherq nashriyoti.
4. G'ulom, G. (1945). Men kimman?.
5. Homiak, K. (1999). Poetics of Freedom: Whitman and the Challenge of Democracy. Columbia University Press.
6. Juravlev, P. (2015). G'afur G'ulom: Ijtimoiy realizm va xalq she'riyatining o'ziga xosligi. Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Kamolov, T. (2020). Modernizm va Ekzistensializm: G'afur G'ulom va Walt Whitman o'rtasidagi poetik aloqalar. Ijtimoiy fanlar akademiyasi.
8. Ruziev, A. (2016). Amerika va O'zbekiston: Adabiy aloqalar va o'xshashliklar. Adabiyot nashriyoti.
9. Whitman, W. (1855). Song of Myself.
10. Zora, I. (2011). Walt Whitman va Amerika she'riyatining rivojlanishi. Adabiyot nashriyoti.

UO'K 81-23

LOTIN TILIDA TUZ VA OKSID, KISLOTA NOMLARINING YOZILISHIDAGI LINGVISTIK TAHLIL

A.A.Orazbaeva, talaba, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand
M.X.Xamdamova, talaba, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada farmatsevtik atamalarda uchraydigan tuzlar va oksidlar, kislotalarning lotincha nomlanishining lingvistik va grammatik xususiyatlari chuqur o'rganiladi. Tuzlar va oksidlar, kislotalar farmatsevtik moddalarning asosiy komponentlari hisoblanib, ularning to'g'ri nomlanishi dori vositalarining ishlab chiqarilishi, belgilanishi va qo'llanilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu birikmalarning morfologik tuzilishi, etimologik ildizlari, shuningdek, O'zbekiston farmatsevtika amaliyotida ularning ishlatilish holatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Lotin tili, farmakologiya, kislotalar, tuzlar, oksidlar, lingvistik tahlil, grammatik qurilish, farmatsevtik terminologiya, nomlash tizimi.*

Аннотация. *В данной научной статье подробно изучаются лингвистические и грамматические особенности латинских наименований солей, оксидов и кислот, встречающихся в фармацевтической терминологии. Соли, оксиды и кислоты являются основными компонентами фармацевтических веществ, и их правильное наименование играет важную роль в производстве, обозначении и применении лекарственных средств. В статье проводится анализ морфологической структуры, этимологических корней указанных соединений, а также рассматривается практика их использования в фармацевтической деятельности Узбекистана.*

Ключевые слова: *латинский язык, фармакология, кислоты, соли, оксиды, лингвистический анализ, грамматическая структура, фармацевтическая терминология, система наименований.*

Abstract. *This scientific article explores the linguistic and grammatical characteristics of Latin names of salts, oxides, and acids commonly used in pharmaceutical terminology. Salts, oxides, and acids are essential components of pharmaceutical substances, and their correct naming is crucial for the production, labeling, and use of medicinal products. The article analyzes the morphological structure and etymological roots of these compounds, as well as their application in pharmaceutical practice in Uzbekistan.*

Key words: *Latin language, pharmacology, acids, salts, oxides, linguistic analysis, grammatical structure, pharmaceutical terminology, naming system.*

Kirish: Lotin tili asrlar davomida ilm-fan, tibbiyot va farmatsevtikada asosiy ilmiy til sifatida xizmat qilib kelgan. Bugungi kunda ham farmakologik moddalarning nomlanishida ushbu tilning o‘rni yuqori. Ayniqsa, dorivor birikmalar tarkibidagi tuzlar va oksidlar, kislotalarning nomlanish tizimi, ularning morfologiyasi va sintaksisi farmatsevtik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Dori vositalarining to‘g‘ri tayinlanishi va foydalanilishi ushbu atamalarning aniq va izchil ishlatilishini taqozo etadi.

Asosiy qism: Tuzlar, tabiiy tuzlar – cho’kindi tuz konlarini hosil qiluvchi, suvda tez erish xususiyatiga ega bo’lgan, sho’r va achchiqsho’r ta’mli minerallar guruhiga kiradi. Kimiyoviy tarkibi - xloritlar va natriy, kaliy, magniyning sulfatlari. Tout tuzi silvin, karnallit, kainit, poligalit, longbeynit, mirabilit, tenarditlar muhim tuzlar sirasiga kiradi. Hosil bo’lish vaqti va sharoitiga qarab, tuz konlari 3 tipga bo’linadi. Ilgarigi geologik davrlar mobaynida hosil bo’lgan cho’kindi qazilma konlari. Dunyo bo’yicha Tuz qazilmalarining 30% shu tipdagi konlarga to’g’ri keladi. Chuqurlikdagi tabiiy Tuzning yer osti suvlari ta’sirida erib chiqib ketishi natijasida hosil bo’ladigan tuzli manbalar vanamakoblar. Bu konlardan cho’ktirish yo’li bilan tosh tuzning 50% dan ortig’I qazib olinadi. Zamonaviy tuz konlari (sho’r ko’l, qo’ltiq va lagunalar) yer yuzida keng tarqalgan bo’lib, bu tipga hozirgi zamon dengiz va okeanlari ham kiradi. Tuzlarning 20% shu tipdagi konlardan qazib olinadi. Tuzlar anorganik kimyoviy birikmalar bo‘lib, ular kislota qoldig‘i va asosiy element (odatda, metall) ionlaridan tashkil topadi. Farmatsevtikada ular ko‘pincha organizmdagi ionlar balansini tiklash, elektrolitlar sifatida yoki faol moddaning organizmga so‘rilishini osonlashtirish maqsadida ishlatiladi.

Lotin tilida kislotalarning lingvistik va grammatik tahlili hamda ularning nomlanishi: Kislotalarning lotincha nomlari ikkita so’zdan iborat bo’lib, acidum i, n – kislota so’zi bosh kelishikda ifodalanib, birinchi o’rinda keladi, kislota nomi ikkinchi o’rinda yoziladi va bu so’z sifat shaklida bo’lib, kislota so’zining rodiga va kelishigiga moslashadi.

-icum qo’shimchasi kislota tarkibida kislorod miqdorining ortiqligini bildiradi va bir vaqtning o’zida sifat yasovchi qo’shimcha sifatida izohlanadi. O’zbek tiliga **–at** qo’shimchasiga to’g’ri keladi.

Masalan: Acidum sulfuricum – sulfat kislota

-ozum qo’shimchasi kislota tarkibida kislorod miqdorining kamligini bildiradi va bir vaqtning o’zida sifat yasovchi qo’shimcha sifatida izohlanadi. O’zbek tiliga **–it** qo’shimchasiga to’g’ri keladi.

Masalan: Acidum sulfurosum – sulfit kislota

Kislorodsiz kislotalarning nomlaridagi sifatlarning tarkibida hydro- old qo’shimchasi va kislota nomining oxiriga **–icum** qo’shiladi va o’zbek tiliga **–id** deb tarjima qilinadi

Masalan: Acidum hydrosulfuricum – sulfid kislota

Kislota nomlarining odatdagi holda yozilishi yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek bo’ladi ammo ular retseptda qo’llanilganda kislota so’zi va uning nomi ham otlarning qaratqich kelishigida (Genetivus I ae; II i; III is; IV us; V ei; -ning) yoziladi. Masalan:

Recipe: **Acidi salicylici 2,0**
Zinci oxydi 25,0
Talci 50,0
Misce, fiat pulvis

Da. Signa

Lotin tilida tuzlarning lingvistik va grammatik tahlili hamda ularning nomlanishi: Tuz nomi ikki asosiy qismdan kationlar va anionlardan iborat bo‘ladi.Tuz nomlarining yozilishida bu ikkala so’z ham ot hisoblanadi. Birinchi so’z ya’ni kation qaratqich kelishigida (-ning) qo’shimchasini oladi va bosh harf bilan yoziladi. Ikkinchi so’z ya’ni anion bosh kelishikda bo’lib, kichik harf bilan yoziladi. Anionlarning nomlari mos keluvchi kislatalarning lotincha nomi o’zagiga tuzlarning tarkibiy qismida kislarod ko’p bo’lsa –**as, atis** (o’z.til -at)**;** kislarod kam bo’lsa –**is, itis** (o’z.til -it)**;** kislarod yo’q bo’lsa **–idum, idi** (o’z.til -id)**;** suffikslarini qo’shish bilan yasaladi.

Lotincha nomi	**O‘zbekcha tarjimasi**	**Qo‘llanilishi**	**Tahlil**
Natrii chloridum	Natriy xlorid	Rehidrasiya, infuzion eritma	*Natrii* (genitiv), *chloridum* (nominativ)
Kalii chloridum	Kaliy xlorid	Gipokalemiya davosi	*Kalii* (genitiv), *chloridum*
Magnesii sulfas	Magniy sulfat ($MgSO_4$)	Mushak bo‘shashtiruvchi, antikonvulsant	*Magnesii* (genitiv), *sulfas*
Calcii gluconas	Kalsiy glyukonat	Osteoporoz, allergiya, yurak dori vositasi	*Calcii* (genitiv), *gluconas*
Ferrosi sulfas	Temir (II) sulfat	Temir yetishmovchiligi anemiyasi	*Ferrosi* – genitiv holatda Fe^{2+}
Zinci sulfas	Rux sulfat	Yaralar, immun tizimini mustahkamlash	*Zinci* (genitiv), *sulfas*
Aluminii hydroxidum	Alyuminiy gidroksid	Antatsid, oshqozon kislotasini kamaytiruvchi	*Aluminii* (genitiv), *hydroxidum*
Bismuthi subnitras	Bizmut subnitrat	Antimikrob, diareya davosi	*Bismuthi* (genitiv), *subnitras*
Lithii carbonas	Liti karbonat	Bipolyar buzilishlarda stabilizator	*Lithii* (genitiv), *carbonas*
Argenti nitras	Kumush nitrat	Antiseptik	*Argenti* (genitiv), *nitras*

Ushbu tuzlarning lotincha shakllari grammatika qoidalariga mos tarzda tuzilgan bo‘lib, ayni paytda ularning kimyoviy tabiatini ham aks ettiradi.Tuzlar retseptlarda ifodalanganda kation va anion nomlari ikkalasi ham qaratqich kelishigida (Genetivus) yoziladi. Masalan:

Recipe: **Natrii chloridi ana 5,0**
Natrii tetraboratis
Misce, fiat pulvis.
Dentur. Signetur.

Agar bir element bir nechta oksid hosil qilsa, bu valentlik rim raqamlari bilan ko‘rsatiladi. Oksidlar ham retseptda qo’llanilganda ikkala ot ya’ni element nomi va oksid so’zi qaratqich kelishigida yoziladi. Masalan:

Recipe: Acidi salicylici 2,0
Zinci oxydi 25,0
Talci 50,0
Misce, fiat pulvis
Da. Signa

Lingvistik jihatdan tahlil: Lotin tilida kimyoviy atamalarning tuzilishi:

- **Sintaktik bog‘lanish** – kation va anion orasidagi grammatik aloqalar qat’iy tuzilgan;
- **Morfologik aniqlik** – ionlarning soni va turi ularning tugallangan lotincha shaklidan anglashiladi;
- **Terminologik izchillik** – xalqaro farmakopelarda ushbu nomlanishlar yagona tizim asosida ishlab chiqilgan va mustahkamlangan.

O‘zbekiston farmatsevtikasida qo‘llanishi: O‘zbekiston farmatsevtika tizimida dori vositalari, retseptlar va o‘quv qo‘llanmalarda lotincha terminlardan foydalanish qonuniy va amaliy asosga ega. Tibbiyot OTMlarida lotin tili o‘qitilishi, ayniqsa, farmakologik terminologiya bo‘yicha bilimlar, bugungi farmatsevtik ish faoliyati uchun zarurat hisoblanadi.

Xulosa: Tuzlar va oksidlarning lotin tilida nomlanishi, nafaqat grammatik an’ana, balki farmatsevtik amaliyot uchun zarur elementdir. Ularning lotincha nomlarini to‘g‘ri tahlil qilish, yozish va tushunish dorilarni tayinlash, ishlab chiqarish va qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi. Farmatsevtika

sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ushbu lingvistik asoslarni chuqur bilishlari kerak. Bu ilmiy va amaliy bilimlar dorilar xavfsizligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmedov R. M. (2015). *Latince Grammatika va Meditsina Terminologiyasi*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Weigall R. (2001). *Latin Language for Medical Students*. Oxford: Oxford University Press.
3. Vorontsova G. A., & Morozova N. V. (2010). *Farmakologiya va farmatsiya uchun lotin tili*. Moskva: Meditsina.
4. Sultonov Sh. S. (2017). *Farmatsevtik kimyo*. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Машковский М. Д. (2012). *Фармакология (учебник для медицинских вузов)*. Москва: GEOTAR-Media.
6. Eshquvvatova G. (2020). *Dorilar nomlari va ularning lingvistik tarkibi*. Toshkent: O'qituvchi.
7. World Health Organization (WHO). (2021). *International Nonproprietary Names (INN) for Pharmaceutical Substances*. Geneva: WHO Press.
8. Various Authors. (2019). *Farmatsevtik terminlar lug'ati (O'zbekcha-ruscha-inglizcha)*. Toshkent: Tibbiyot.
9. Иванов А. В. (2008). Латинско- русский медицинский словарь. Санкт- Петербург: Питер.
10. To'xtayeva M. A. (2016). *Dorixona ishida terminologiya*. Toshkent: Farmatsiya Akademiyasi.

UO'K 398

FOLKLORGA XOS XUSUSIYATLAR HAMDA YOZUVCHI BADIIY USLUBINING SHAKLLANISH TAMOYILI

D.D.Otaboyeva, mustaqil izlanuvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada folklorga xos xususiyatlar hamda yozuvchi badiiy uslubining shakillanish tamoyili, yozuvchi badiiy uslubini aniqlashtirish, folklorning diqqatga sazovor nuqtalarini topish, ularning yuzaga chiqish modifikatsiyasi haqida so'z boradi. Shuningdek, badiiy uslubning darajalari, sujetni harakatga keltiruvchi – fabula, voqelik hamda dramatizmning Tog'ay Murod badiiy uslubida qo'llanishi, 70-yillar adabiyotini tahlil etishda "shartli forma", "shartli uslub", "shartli romantik tendentsiya" kabi atamalar ishlatilishi, tahlil qilindi. Ijodkor asarlarida ritm va pafos, idrok va falsafiy takomil g'oyalari tahlil markaziga tortildi.*

Kalit so'zlar: *folklor motivlari, badiiy uslub, sujet, fabula, voqelik, dramatizm, xarakter yaratish, metamorfoza (evrilish), roviy, irim-sirim motivi, ijodkor uslubi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности фольклора и принципы формирования художественного стиля писателя, выяснение художественного стиля писателя, выявление примечательных моментов фольклора и модификация их возникновения. Также были проанализированы уровни художественного стиля, использование сюжета, реальности и драматизма в художественном стиле Тогая Мурада, а также использование таких терминов, как «условная форма», «условный стиль», «условно-романтическая тенденция» при анализе литературы 1970-х годов. В творчестве в центр анализа выдвигались ритм и пафос, идеи восприятия и философского совершенства.*

Ключевые слова: *фольклорные мотивы, художественный стиль, сюжет, басня, реальность, драматизм, создание персонажа, метаморфоза (эволюция), рассказчик, тайный мотив, творческий стиль.*

Abstract. *This article discusses the characteristics of folklore and the principle of formation of the writer's artistic style, the clarification of the writer's artistic style, finding the remarkable points of folklore, and the modification of their emergence. Also, the levels of artistic style, the use of the subject-activating factor - fabula, reality and dramatism in the artistic style of Togay Murad, the use of such terms as "conditional form", "conditional style", "conditional romantic tendency" in the analysis of the literature of the 70s were analyzed. Rhythm and pathos, ideas of perception and philosophical perfection in the creative works were taken into the center of analysis.*

Keywords: *folklore motifs, artistic style, subject, fabula, reality, dramatism, character creation, metamorphosis (evolution), narrator, secret motive, creative style.*

O'zbek adabiyotining ko'p ming yillik an'analari sanalmish folklor hayot haqiqatini o'zida jamlagan go'zal san'atlar sirasiga kiradi. Negaki, qaysi davrga qadam qo'ymaylik, har bir idrok etilayotgan janr o'zidan oldingi an'analarni sobitlik bilan davom ettirishga bel bog'laydi. Chunonchi, talqin va taassurot tig'izligi hayotiy ziddiyatlar qurshovida kechadi. O'zbekiston Xalq yozuvchisi

Tog‘ay Murodning badiiy olamida ko‘chib o‘tgan maqol, matal, topishmoq, qo‘shiqlarning o‘z o‘rni, ifoda madaniyati, olam va odam munosabatlarining og‘riqli nuqtalari turadi. Hayotning eng chuqur sarhadlarida, jumladan, odamlarning yashash tarzi, tarixi, o‘tmishi bilan bir-biriga payvandlangan folklor motivlari badiiy uslubda maromiga yetadi.

Uslubning yuzaga chiqish omillari va poetik shartlilik hodisasi. Yer yuzida istiqomat qilayotgan har qanday odam uchun bu dunyoni anglash va uni tushunib yetishda Alloh taolo xarakterlari-yu, yashash tarzini bir-biridan jiddiy farqlantirib yaratganligida deb bilamiz. Axir, bu olamda yashayotgan har bir odamning kaft chiziqlari bir-biriga sira o‘xshamaganidek, yozuvchilarning ham uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy uslub – alohida bir jihatdirki, unda umummillat sajiyasi hamda yozuvchi olamidagi so‘zlarning jilvalanish taxayuli qabarib ko‘rinadi. Shu ma’noda, Tog‘ay Murodning o‘z qo‘shiqlari, so‘z ovozi, o‘z aql-u zakovati hech bir yozuvchida ko‘rilmagan ifodani namoyon etadi. Ayni chog‘da, Tog‘ay Murod badiiy olamiga kirib borgan o‘quvchiki bor, buni o‘z tasavvurida qayta kashf etmagan bo‘lmasin, estetik idrok hamda falsafiy teranlikning ohanglarda yangrashini chuqur his etadi. Ana shu kontseptsiya badiiy uslubda yorqin bo‘yoqlarda shartlashadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, badiiy uslubning darajalari, sujetni harakatga keltiruvchi – fabula, voqelik hamda dramatizm Tog‘ay Murod uslubining o‘ziga xosligini tayin etadi. Ana shu kontseptual hayot manzarasi uning qo‘shiqlarida ohang ritmini keltirib chiqaradi. To‘g‘ri, ritm va pafos, idrok va falsafiy takomil g‘oyaning ajralmas qismidir. Negaki, yozuvchi hayot haqiqatini o‘z qalbi va shuuri bilan hazm qiladi. Shundan keyingi ijodiy jarayon, ilhom va quvvat uslubning yanada ranginlashuviga olib keladi. O‘ynoqilik, dard, alam va o‘kinchlar yozuvchi ifodasi roviyligi, falsafiy teranligi, aqliy jozibasi bilan uyg‘unlashib estetik polotnoni namoyon etadi. Mavjud an’analardan uzoqlashish, o‘z uslubini topish bilan ham bevosita jiddiy tafovutlanadi.

Xarakter yaratish – sirli jarayon, hatto aytish mumkinki, ehtimol, bu jarayon xarakteri yaratilayotgan mute yoki o‘jar obyektlardan ko‘ra xarakter yaratayotgan odamning o‘zi uchun sirliroqdir. Bu jarayonga ish ochilmagan, u hujjatlar bilan tasdiqlanmagan va unga aniq bir ta’rif berish amrimahol. Har qanday ijod – u adabiyot bo‘ladimi yoki hayotdagi ijod bo‘ladimi, baribir, birday sirli va bilib bo‘lmaydigan hodisa va u to‘g‘rida ko‘ngilga kelgan narsani gapiraverishga birday rag‘batlantiradi, – deya yozadi Jon Golsuorsi. Darhaqiqat, insonning ruhiy olami, uning taqdiri. Qismati, baxti va baxtsizligini Tog‘ay Murod badiiy idrok qilar ekan, har qanday vaziyatda xarakterlarni jiddiy ishlaydi. Bir masala atrofida, o‘ralashib qolishga sira yon bosmaydi. Demak, yozuvchining o‘ziga xos uslubi bu folklorning ta’sirida yozma shaklda yuzaga chiqqanligini, takrorlar, naqoratlar, tashbehlar negizida barqarorlashganini tasdiqlaydi.

Adibning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi bundan qirq besh yillar oldin yozilgan bo‘lsa-da, unda mungli bir oila taqdiri, farzandsizlikning sabab hamda oqibatlari yozuvchi diqqat-markazida bo‘ladi:

“Sovchilar qadami qizlik eshikka sharaf!

Sovchilar oqshom vaqti keldi.

Uy begasi dasturxon yoydi. Xo‘jasi mezbonlik qildi.

– Xush ko‘rdik, xush ko‘rdik, – dedi.

– Xushvaqt bo‘l, qassob, xushvatq bo‘l, – dedi sovchilar. – Qani. Ilohi omin, shu uyda katta-katta to‘ylar bo‘lsin, Olloh-akbar!

Palovdan keyin tarvuz so‘yildi.

Sovchilar odatlari bo‘yicha uyoq-buyoqdan gapirishib o‘tirdi.

Eson qassobni haminqadar eladi. Keyin maqsadga o‘tdi.

– Singlingning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi, qassob, uchirib yubormasang bo‘ldi, – dedi.

– Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay qiz bermaslar, – dedi qassob. – Kim ekan, u?”[10]

Qissa muqaddimasida yozuvchi uslubiga xos voqelik bayonini tushuntirishdan boshlaydi. Unda Qoplon va Oymomo taqdiriga ishora qilinar ekan, Esonboy qassobning “Qizi borning nozi bor” maqoliga amal qilib, boshida qattiq yo‘q deya turib olishini azim flolkor dostonlaridagi uchrashuv motivi bilan izohlaydi. Sovchilarning Oymomoga ixlos bilan boqishi-yu, yetimlikning ranj-u balolaridan mehnatda suyagi qotgan qahramonning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarmoqchi bo‘ladi. Mana shu yerdan qissa voqealari dramatizm yo‘sinida ochiqlana boradi. Yozuvchi voqelikda o‘ziga

xos tasvir usulini tanlaydi. Ayniqsa, har bir xarakterni dialoglar, suhbatlar, mulohozalar, monologik talqinlar negizida ixcham va lo‘nda yorita boradi. Demak, yozuvchining badiiy uslubiga xos xususiyatlarning yana bir muhim jihati hayot haqiqatini dostonlarga xos o‘ynoqilik, og‘riqli bahs-munozaralar fonida ochib berishni maqsad qilganligida ko‘rinadi.

Metamorfoza (evrilish) asosan insoniy evrilish – o‘zlikni anglash (asosan insonning o‘z-o‘zini anglashi) bilan birgalikda ibtidoiy folklor xazinasiga oiddir. Evrilish, o‘zni anglash ibtiodiy folklordagi odam obrazi bilan teran va mustahkam bog‘lanishga ega.

Ayniqsa, bunday bog‘lanish xalq ertaklarida aniq saqlanib qolgan. Ertakdagi odam obrazi – ertakka xos barcha rang-barangliklari bilan doimo evrilish va o‘zni anglash (o‘z navbatida, har xillikni emas, balki ushbu motiv konkretligini ta’minlovchi bo‘lak sifatida) motiviga quriladi. Evrilish – o‘zni anglash motivlari bir odamdan butun insoniyat dunyosiga, tabiatiga. Insonning o‘zi tomonidan bunyod etilgan narsalarga o‘tadi.[2.77] – deya yozadi rus munaqqidi M.M.Baxtin. Unga ko‘ra, folklordagi voqealar silsilasida evrilish, inson tabiatidagi ruhiy tushkunlik, yolg‘izlik, alamzadalik, jamiyatdagi eng kichik maishiy muammolarga ham barham berish bilan uyg‘unlashib, yozuvchi idrokida yangi hayot falsafasin tayin etadi:

“Qishloqda bir bo‘zbola bo‘ladi.

Bo‘zbola yelkador, pishiq qomatlik bo‘ladi. Kulcha yuzlarida chuqur-chuqur kuldirgichlari bo‘ladi. Qo‘y ko‘zlik, siyrak qoshlik bo‘ladi.

Bo‘z bola qomatini g‘oz tutadi. Joyida tik turadi. Qo‘llarini ko‘kragiga qovushtiradi, yo beliga tiraydi. Bir nuqtaga tikiladi, nimaga tikiladi?

Bilmaymiz, biz bilmaymiz.

Inchinun, o‘zi-da bilmaydi.

Bo‘zbolani ilk bor ko‘ramiz.

Shunda, u bola yo qattiq qayg‘uda, yo bir nimanidir o‘ylab o‘yiga yetolmayapti, deymiz.

Yurish-turishidan... kekkayadi, o‘zidan o‘zgani oyog‘i bilan ko‘rsatadi, deymiz. Shox-u butog‘ing bormi muncha kerilasan, deymiz.

U mijozi xush ko‘rmish odamlar bilan salom-alik qiladi. Bordi-keldi qiladi. Chin dildan gapirishadi. Ochilib gurunglashadi.

Ko‘ngliga o‘tirmaydiganlar bilan salomlashgisi-da kelmaydi!” [10].

Keltirilgan lavhada Tog‘ay Murod asar qahramoni Qoplonning xarakterini individuallashtirar ekan, folklor motivlarini sujet voqeligiga ustalik bilan singdirib yuboradi.

Yangi shuni aytish lozimki, Qoplonning portreti yozuvchi individual uslubiga xos “ochiq va yopiq” tasvir simfoniyasida maromiga yetib boradi. Demak, motivga, xalq og‘zaki ijodiga xos unsurlar dialektikasi ifoda madaniyatini teranlashuviga sharoit hozirlaydi. ***“Bo‘ladi”*** kelasi zamon, noaniq fe’l struktarasida bo‘zbolaning kim ekanligini o‘quvchi tezda ilg‘aydi. Deylik, yoshlik, mag‘rurlik, mardlik, birso‘zlilik, aql hamda zakovat. Shijoat egasining xarakterida turkiy xalqlarga xos kelbatli mohiyat o‘z aksini topadi. “Hamma yaxshi kitoblar albatta uslub nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi kerak”(Xorxe Luis Borxes) hikmatiga amal qiladigan bo‘lsak, Tog‘ay Murodning o‘zbek adabiyotidagi yagona folklorzimdan ibtido olgan badiiy uslubi ana shu mohiyatga olib borishga yetaklaydi. Chunki adib qissa kompozitsiyasida uslubning darajalarini aql va zakovat nuqtayi nazaridan payvandlay olganligida seziladi.

Diqqat bilan qissa modusiga e’tibor berilsa, voqelik badiiy shartlilik bilan yuzaga chiqishi ayonlasha boradi. ***Sabab va oqibat*** falsafasi Tog‘ay Murod uslubining ajralmas halqasi ekanligi qabarib ko‘rinadi.

“Har bir davr adabiyot oldiga o‘z talabini qo‘yadi. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ayrim masalalarning hal etilishiga ehtiyoj tug‘iladiki, adabiyot ilmi bu dolzarb masalalarni tushunishda xalqqa yordam berishi kerak.

70-yillar adabiyotini tahlil etishda “shartli forma”, “shartli uslub”, “shartli romantik tendentsiya” kabi atamalar uchramoqdaki, buni har kim o‘z iste’dodi tabiatidan kelib chiqib qurbi yetgancha izohlaydi. Bir guruh olimlar bu hodisani 70-yillar nasrining asosiy tendentsiyalaridan biri deb belgilasa, ikkinchilari vaqtincha urf bo‘lgan “moda” deb qarashmoqda. Bu ko‘rinishning xususiyatini ba’zilar faqat “noreal” voqealar bilan izohlasa, boshqalar folklorning yozma adabiyotdagi “ikkinchi

umri” yoki oddiyroq qilib, “folklorizm”, “mifologizm” degan fikrlarga bog‘lash bilan cheklanyapti. Bunday har xilliklarning, ba’zan chakashliklarning sababi shartlilik tabiatida, bugun shartli deb qaralayotgan hodisaning kechagi shartlilikdan farqidan, bugungi “mifologizm”ning kechagi “romanmif” emasligidadir”[9] - yozadi prof. H.Boltaboyev. Binobarin, folklordan o‘tgan badiiy shartlilik doston, rivoyat, ertak, afsona yoki biror voqealar jamuljamidan bo‘lgan hikoyalar, miflar bo‘ladimi, hammasida bitta g‘oya akslanadi. Baxtli bo‘lish, murod-u maqsadlariga yetishish, to‘kin hayot kechirish kabi. H.Boltaboyevning idroklashicha folklordan o‘sib chiqqan har qanday janr oxir oqibat o‘z umrini yashab, yangi bir “izm”lar og‘ushida taraqqiy etishi lozim. Sababi, folklor azim bir daryoning tinmay oqayotgan suvi bo‘lsa, undan ilhom olish, ta’sirlanish ana shu kontseptsiyani teranlashuviga zamin hozirlaydi. Dunyo adabiyotida bu hodisa ko‘p bora kuzatiladi.

Qissanavis obrazi va uslub yaxlitligi. Badiiy asarda (qissa) nuqtayi nazar formula singari voqealar orasida sizib turadi. Unda qissanavis obrazni gavdalantiradi. O‘zining nutqiy ohangi bilan asar voqealariga bevosita aralashadi. Nuqtayi nazarining bilinib turishini o‘quvchi ham his qilib boradi. Rus munaqqidi M.Baxtin qayd etganidek: “Qissanavis hamisha qahramonlar orasida bo‘ladi. Ularning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularga baho beradi, xulosa chiqaradi.

Bu obrazda, eng avvalo, yozuvchining kechinmalari mujassam bo‘ladi. Shuningdek, asar qahramonlari o‘rtasidagi o‘zaro kurash psixologik aspektda qissanavisning “o‘z-o‘zi bilan ichki” kurashini namoyon qilib boradi”.[1] Bu usul quyidagi lavhada ham o‘z ifodasini topganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

“Oyna ko‘rsatar baridan-da zavqli bo‘ldi, baridan-da gapshtli bo‘ldi!

Kayvoni ayol kelin-kuyovga oyna tutdi.

Kelin-kuyov yuzlarini oynadan olib qochdi. Kelin qarasa, kuyov qaramadi, kuyov qarasa, kelin qaramadi!

Kayvoni ayol kelin-kuyov boshini yonma-yon ushladi. Yuzlarini oynaga qaratib turdi.

Bir-birlari bilan aytishmaganlariga-da qo‘ymadi!

Kuyov kelin aksi bilan, kelin kuyov aksi bilan pichirlashib aytishdi:

– Bizni voyaga yetkazmish ota-onamizga ming bor qulluqlar bo‘lsin.

– Akamiz bilan yangamizga undan-da ko‘p.

– Bir-birimizga o‘la-o‘lgunimizcha sodiq bo‘laylik.

– Undan keyin-da shunday bo‘laylik.

– O‘g‘il-qizlarimiz...

– Bir etak bo‘lsin...”[10]

Mazkur parchada yozuvchi (roviy obrazi), qissago‘y voqealarni zimdan kuzatuvchi emas, munosib to‘ldiruvchi, baholovchi sifatida ham ishtirok etadi. Hikoyachi prozaik asarda nafaqat bayon egasi, asarning kuchli psixologik talqinini ham kuchaytirib boruvchi sifatida ishtirok etadi. Milliy urf-odatlar hamda qadriyatlar jipslashuvini ham tasniflab boradi. Deylik, oyna ko‘rsatar marosim folklori dostonlarda o‘ziga xos tarzda inkishof qilingan. Ayni paytda ana shu tadrijiy takomil, har bir epizodik lavhalarda uslub individualligini, bir enlik voqelikni qisqa fursatda ko‘rsata olish manerasini ham ochiqlay boradi.

Badiiy uslub va kompozitsion uyg‘unlik Tog‘ay Murodning ritm va pafos darajalarini ham urg‘ulaydi. Ayni chog‘da, asardagi ritm o‘ziga xos musiqiylik shartlarini ham kafolatlaydi. Mavjud hayotiy aqidalar qamrovi inson kontseptsiyasida o‘zining maromiga uyushadi.

Prof. A.Rasulov: “Roviy – yozuvchining ikkinchi vakili. Roviy – adibning badiiy asarlaridagi ko‘rar ko‘zi, eshitar qulog‘i, so‘zlaydigan tili, ushlaydigan qo‘li. Roviy – rakurs nuqtasi, baholovchi markaz. Roviy – asardagi ruh ifodachisi, ayni vaqtda roviy yozuvchining o‘zi emas. Roviy – yozuvchining inon-ixtiyorini bajaruvchi, san’atkorlik uquvini ifoda etuvchi vosita. Nihoyat, roviy – so‘zshunos, har bir so‘z holati, imkoniyati, evrilishi, tovlanishlarini o‘ta nozik his qiladi”[8] Mana shu ifodaga diqqat qilinsa, Tog‘ay Murodning roviysi o‘zining dostonona idroklarning dialektik qirralarini kafolatlaydi. Chunonchi, adib o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini “Oydinda yurgan odamlar”da kelin va kuyov oralaridagi iliq munosabatlar fonida ochib berar ekan, farzandsizlik dog‘ida kuyayotgan bir umr umid qilib yashayotgan Qoplon va Oymomoni dard-u hasratini o‘quvchi ko‘z o‘ngida reallik manzarasida gavdalantiradi.

“Bir qarashda, janriy o‘ziga xosligi sababli, memuar-avtobiografik asarlar sujetga ega bo‘lolmaydiganga o‘xshaydi. Darhaqiqat, bosib o‘tilgan yo‘lning yo‘nalishini o‘zgartirib bo‘lmaydi, agar u kitobda o‘zgartirilgan bo‘lsa, avtomatik ravishda memuaristikadan chetga chiqadi. Biroq, bu juda oddiy emas. Axir, muallif haqiqatda yuz bergan barcha narsalar to‘g‘risida emas, balki o‘z asari oldiga qo‘yilgan aniq vazifalardan kelib chiqib dalillar asosida tushunganlarini tashkil etadi.[4] Shuning uchun ham “xotiralar, avtobiografiyalar, e’tiroflar – bu voqelik va inson obrazining o‘ziga xos sujet qurilishidir”, deya ta’kidlaydi L.Ya. Ginzburg.[5] Yuqoridagi manbadan ma’lumki, inson behisob aql-zakovat egasi bo‘lmasin, u o‘ziga eng ma’qbul vaziyatda xotirasiga muhim voqelikni qayta idrok qilishni eng oliy maqsad sifatida ko‘radi. Ya’ni olamni yangicha ko‘rishga urg‘u beradi. Bu tasvir shtrixlar bilan chiziladi. Aynan bir voqelik – ikkinchi voqelikning yuzaga chiqishiga asos vazifasini o‘taydi:

“Kuyov uyiga yetib keldilar.

Bolalar kelinga peshvoz chopdi.

– Yashasin, kelin keldi! – deya qiyqirdi.

Darvoza oldida gulxan yoqildi.

Kelin gulxandan uch marta aylandi.

Oqliq uchun, hamisha oqko‘ngil bo‘lib yurishlari uchun kelin-qudalar yuziga un sepildi.

Yuzlarini ro‘moli bilan yashirgan yashirib qoldi, yashirolmagan oppoq un bo‘ldi.

Saman qora o‘tov oldida oyoq ildi.

Kuyov qayliqni otdan tushiraman dedi. Quchog‘ini lang ochdi. Qayliq kuyov qo‘llarini surib tashladi. O‘zicha rad etgan bo‘ldi.

Qayliq baribir shu quchoqdan tushdi!

Qarindoshlari bilan dugonalari kelin girdini olib turdi.

Kayvoni momo kelinni ro‘moli burchidan ichkari yetakladi. Kelin boshini ostonaga egadi”.[10]

Kelin-kuyovning bir-birlariga mushtoq termulishlari, milliy qadriyatlarimizdagi irim-sirim motivlarini ham yodimizga soladi. Chunki Tog‘ay Murodning folklordan foydalanishdagi hali islom dini kirib kelmagan vaqtlari turkiy xalqlar otashparst bo‘lgani “Avesto”da bu mavjudlik jumbog‘ini his qilishga imkon beradi. Chunki Tog‘ay Murod kelin-kuyovning uch marta gulxan atrofida o‘tilishi, hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Turkiy xalqlar folkloriga xos “irim-sirim” aslida milliy qadriyat. Undan hech qachon voz kechishmagan. Ostonga egilib salom berishlar, kattalarga o‘zaro hurmat tuyg‘usining yuksak darajaga olib chiqilishi, barchasida o‘sha qadriyat mavjud.

Mana shu shtirxli matn mohiyatida ulkan xalqning kichik bir farzandi o‘ylarini chulg‘agan mehr, burch, oqibat hamda yuksak olijanoblik fazilatlari aks ettirilgan. O‘zining butun hayotini shu el dardiga bog‘lagan tasvir interpretatsiyasida (tushuntirmoq) yangicha formulani kashf qilgan alximik singari ish tutadi. Haqiqatdan ham, kishilik jamiyatida o‘z tabiatiga ko‘ra har bir inson baxt-saodat sari intiladi. Mukammal aql va tuyg‘u ato qilingan inson tabiatan qancha-qancha zulmlarni, yo‘qotishlarni, iztiroblarni boshidan kechirmadi, deysiz? Axir, bani bashariyat oldida ko‘ndalang turgan hozirgi eng katta muammo aslida, o‘zlikni saqlab qolish emasmi? Garchand har qanday vaziyatda ham bu qiyin bo‘lmasin, odamzod o‘z tabiatiga sodiq qolishga intilib yashashida katta hikmatni tuyishi kerak. Muallif ana shu maqsad uchun realiya (ashyoviy) yo‘sinidan unumli inkishof qiladi. Bu bilan o‘zining aniq maqsadini – erkin, xolis tarzda ifodalashga erishgan.

Xulosa shuki, Tog‘ay Murodning badiiy uslubi hamda o‘ziga xos jihatlari har bir asarida alohida bir mavqe kasb etadi. Chunonchi adib uslubi xalq og‘zaki ijodining estetik qamrovi kengligidan bino bo‘lgan. Ayni damda, adibning shu qarashlarida milliy qadriyatlarning o‘zaro umumfalsafiy mohiyati yanada qabarib ko‘rinadi. Demak, adib har bir asarida muammoli vaziyatda boshi qotgan odamlar ruhiyatini chizishga katta e’tibor beradi. Taqdir sinovlari va o‘zining kechmishlari bilan uyg‘unlashgan tavsiflarda hayotning katta bir bo‘lagi yorqin ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бахтин М. Эстетика словесного творчество. –М., Исскуство. 1979. С.8-9
2. Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: "Akademnashr". 2015
3. Boltaboyev H. Shartlilik tabiati haqida / Iste'dod va uslub. – Toshkent: O'zbekiston, 1982. – B. 15
4. Герцен А. И. Былое и думы. – С. 12.
5. Гинзбург Л. Я. О писхологической прозе. 12.
6. Quronov D. Adabiy o'ylar. –T.,"Turon Zamin ziyo". 2016. –B. 12
7. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. –T: 2013. –Yu.32 (D.Quronov).
8. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T: "Sharq". 2007. –B.310
9. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T: "Bookmany-Print". 2022. –B.350
10. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. –T: "Sano-standart". 2017. –B.7-8
11. G'afurov I. O'ttiz yil izhori. /Adabiy o'ylar, maqolalar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987

UO'K 811.512'36/37'42

O'ZBEK MAQOL VA MATALLARINING PAYDO BO'LISHI HAMDA ULARNING POLISEMATIK XUSUSIYATLARI

D.I. Pardayeva, tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *ushbu maqolada o'zbek maqollarining shakllanishi, yondoshuvlari bayon etilgan bo'lib, shuningdek, maqollarning davriyligi ham ochib berilgan. Maqol xalqlarning madaniyatini, urf-odatini, tanqidiy yondashuvlarini bayon etuvchi vositadir.*

Kalit so'zlar: *polisematika, personaj, paremiologiya, lingvomadaniy, maqol, metal, davriylik.*

Аннотация. *В данной статье описывается формирование и подходы узбекских пословиц, а также раскрывается периодичность пословиц. Пословица является инструментом, описывающим культуру, традиции и критические подходы народов.*

Ключевые слова: *полисематика, характер, паремиология, лингвокультура, пословица, металл, периодичность.*

Abstract. *This article describes the formation and approaches of Uzbek proverbs, and also reveals the periodicity of proverbs. The proverb is a tool that describes the culture, traditions, and critical approaches of peoples.*

Key words: *polysematics, character, paremiology, linguistic culture, proverb, metal, periodicity.*

Kirish. Xalq maqollari badiiy asarlar mazmunini boyitish va personajlarning xarakterini yanada chuqurroq ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular asarlarda madaniy va ma'naviy qadriyatlarning ifodasi, qahramonlarning hayotga bo'lgan qarashlari orqali o'quvchiga yetkaziladi. Maqollar, bir vaqtning o'zida, ham etnomadaniy xususiyatlarni ifodalaydi, ham qahramonlarni xarakterlaydi. Maqollar xalqning madaniy merosi va qadriyatlarini ifodalash uchun samarali vosita bo'lib, ular milliy mentalitetni asarda yaqqol namoyon etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Paremiologik birlik hisoblanmish maqollar ustida tadqiqot olib borish orqali xalqning qadriyatlari, an'analari kabi muhim jihatlarini o'rganish mumkin. Buni quyida berilgan ta'rif ham tasdiqlashi mumkin. Hikmatli so'zlar, maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir rahbar muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir. Maqollarni "hayot qomusi", xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi. Xalqning vatani, davlati kabi yana bir buyuk, birlamchi boyligi – bu uning tilidir.

Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida xalqni – xalq, millatni – millat sifatida biriktiradi. Ta'kidlash joizki, ana shunday til birliklari orqali aks etadigan maqollar xalqning milliy-madaniyatini, tilning jozibador bo'lishi uchun ahamiyatlidir. Tildagi ma'lum bir mazmuniy munosabat esa nutqda bir necha maqollar yordamida reallashar ekan, turli maqollar vositasida har xil mazmuniy munosabatning ifoda etilishi esa davriy maqollar guruhini – qatorini yuzaga keltiradi Shu boisdan, ona tili milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi xazina hamdir. Har bir xalq yashayotgan

joyining tabiati, u xalqning iqtisodiy tuzumi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odatini o'zida aks ettirib, to'plab, avloddan-avlodga yetkazib berish tilning milliy-madaniy mundarijasidir. Ushbu jihatlar tilning harakatdagi birliklarida juda ham aniq namoyon bo'ladi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Muhokama va natijalar. M.Koshg'ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini o'zining "Devon"iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo'llanishini arab tilida izohlagan edi. "Devonu lug'otit turk"da xalq og'zaki ijodiga oid 300 dan ortiq she'riy parchalar, 291 ta maqol va matallar keltiriladi. O'zbek xalq maqollarining o'rganilish tarixida venger olimi Xerman Vamberining alohida o'rni bor. X.Vamberining 1867-yilda Germaniyada chop etilgan "Chig'atoy tili darsligi" xrestomatiya kitobidan xalq ijodi va yozma adabiyot namunalari joy olgan bo'lib, 112 o'zbek maqoli ham asliyatda, ham nemischa tarjimasi bilan keltirilgan. N.P.Ostroumovning "Yerli xalqning maqol va topishmoqlari" nomli kitobida 600 dan ortiq xalq maqollari keltiriladi. Mazkur manba ham maqollar tarixini o'rganishda muhim asar hisoblansada, unda keltirilgan maqollarning asliyati taqdim etilmagan. Qolaversa, undagi maqollar mahalliy xalqning o'zidan emas, balki bu yerga kelib o'rnashgan boshqa aholi qatlami orasidan ham yozib olingan. O'zbek olimlari T.Mirzayev, B.Sarimsoqovlar "O'zbek xalq maqollari" nomli to'plamida "har bir kishining nutqida 800 tagacha maqol borligini, biroq so'ralganda 800 ta maqolni ketma-ket yoddan aytib berish mushkul ekanligini ta'kidlashadi. Ammo faoliyat davomida ularni turli munosabatlarda nutqda ko'p qo'llanishini" qayd etishgan [1.135b].

O'zbek paremiologik fondi bir necha o'n minglab paremalarni o'z ichiga oladi. Ular lingvistikaning paremiologiya sohasida tadqiq etiladi. Masharipova "O'zbek xalq og'zaki ijodi" nomli o'quv qo'llanmasida "O'zbek xalq maqollari mukammal badiiy ijod namunasi sifatida folklorshunos va adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilyapti. Zero, miloddan avvalgi IV asrlarda yashagan yunon mutafakkiri Aristotel xalq hikmatlarini yuksak baholar ekan, "barcha kishilarning kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir", – deydi. Bundan 10 asr muqaddam yashagan donishmandlardan biri Unsur al Maoliy Kaykovus esa "Qobusnoma" asarida shunday deydi: "Ey farzand, umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysen. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'lurman. Bilgilki, xalqning rasmi-odati shundayki, yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarini o'zlarining yaxshi ko'rgan kishilariga qoldirib ketadilar".

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilishicha, "parema" va "paremiya" atamalari maqol, matal, aforizm ma'nolarida ishlatiluvchi sinonimik, ma'nodosh leksema hisoblanadi. Shunga ko'ra tadqiqotimizda parema atamasi keng qo'llanildi. Biz tomonimizdan tadqiqotimizda "parema" termini maqol ma'nosida qo'llanildi. Shunga ko'ra maqolada parema atamasi keng qo'llanildi. Biz tomonimizdan tadqiqotimizda parema termini maqol ma'nosida qo'llanildi. Ta'kidlash kerak, XX asrga kelib paremiologik birliklarni ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish jadallashdi, ya'ni olimlar paremiologik birliklarning to'plamlarini yaratish, yangi materiallar yig'ish va uni oldingisi bilan solishtirish, paremalarning strukturasi, paydo bo'lish tarixi, evolyutsiyasi va ularning xalq mentaliteti bilan bog'liq tomonlarini o'rganib boshlashdi . Shunday bo'lsa-da, tilshunoslar tomonidan paremalarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish yetarlicha emas. Bu borada e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan qator masalalar o'z yechimini kutmoqda. Jumladan, xalq maqollarini kontekstual, situativ, strukturasi, semantikasini, stilistik, lingvomadaniy xususiyatlarini ayniqsa, ikki tilli leksik lug'atlarni tuzish vaqti keldi. Yuqorida keltirilgan ishlardan ko'rinib turibdiki, parema va paremiologiya muammolari tilshunoslar tomonidan imkon qadar tadqiq qilingan. Ammo maqollarni lingvistik hodisa bilan o'rganish borasidagi ishlar mavjud emas. Shu bois, biz tadqiqotimizda aynan tabiat hodisalari bilan bog'liq maqollar tahliliga e'tiborimizni qaratdi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda maqollarning davriy qo'llanishiga qarab 4 muhim qismlarga bo'lib o'rganamiz.

1- Qo'llanishdan qolgan yoki muomaladan chiqqan maqollar, masalan, savr bo'lmay sayron bo'lmas, sayron bo'lmay ayron bo'lmas maqoli bo'lib bunda leksikadan savr, sayron, ayron leksemalarining kam qo'llanishidir.

2- Eskirgan ammo hali muomaladagi maqollar, misol sifatida; Qishning sovug'ida to'ngandan yozning issig'ida o'lgan yaxshi. To'ngan so'zining omma uchun aniq emasligi asosiy faktordir

3- Doimiy dolzarb maqollar, jumladan; Qish qishligini qilmasa, yoz yozligin qilmas, Bu maqolda so'zlarning qo'llanish doimiyligidir.

4- Muomalaga yangi paydo bo'lgan maqollar. Bu qismdagi maqollar zamon talabi va real voqealar ta'sirida nutqimizda paydo bo'ladi. Masalan; Qish o'chog'i tor tur uyingga bor. Bunday tizim maqollari yangi maqollardir [6. 502b].

Bu tizim orqali maqollarni foydalanish davriyligini identifikasiyalash maqollarning aktivlik vaqtini namoyon qiladi. O'zbek tilshunosligida ham xalq maqollarini, matallarini, aforizmlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish va ularning lug'atlarini tuzish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Xulosa. Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy –madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, "Maqollar to'plami –bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati".

Xulosa qilib aytganda, maqol va matallar xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janri hisoblanib, ularning paydo bo'lish vaqti noma'lum, ammo bir narsa shubhasiz: maqol ham, matal ham uzoq antik davrda paydo bo'lgan, shundan beri ular butun tarix davomida xalqqa hamroh bo'libkelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов.Том 1.– Тошкент, "Фан", 1987. – 368 б.

2. Мадалов Н.Э. "Баъзи табиат ҳодисаси билан боғлиқ мақолларда шаклий ва маъновий муносабатларнинг ифодаланиши" TerDU конференция 2022 18. 12. 310-315 б.

3. A Dictionary of American Proverbs Wolfgang Mieder first published, Oxford University Press, 1992. – P. 710

4. Madalov.N.E "Contrastive analyses in full antonyms in the proverbs with the concept nature'' in English and Uzbek language. Международный журнал. Образование, наука и инновационные идеи в мире.2023.02.24 ст.

5. Maxmaraimova Sh. T. Hozirgi o'zbek tili Leksikologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, Firdavs-Shoh nashriyoti, 2021. – B.220. 86

6. Madalov Navruz Ergashevich. O'zbek tilshunosligida maqollar va ularning davriyligini aniqlash. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(8), Sep., 2024 Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz. 500-503b

7. Nigora Azzamova. Linguistic and cultural features of artistic visual means in Khudoyberdi Tokhtaboyev's works. Available online 25 January 2025

8. The Oxford Concise Dictionary of Proverbs. John Simpson and Jennifer Speake. Third Edition, Oxford University Press, 1998 – P. 364.

UO'K 811.512'36/37'42

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING QIYOSIY TAHLILI

D.I. Pardayeva, tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar bir necha xususiyatlariga ko'ra tahlil qilingan. Bundan tashqari maqollarning o'xshashlik va farqli jihatlari keng yoritilgan. Eng muhimi ikki tildagi maqollarning bir-biriga muqobil variantlari ham atroflicha tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *tahlil, nazariya, kognitiv tahlil, lingvistika, metafora, maqol, ingliz va O'zbek tillari.*

Аннотация. *в данной статье анализируются пословицы на английском и узбекском языках по нескольким характеристикам. Кроме того, подробно рассматриваются сходства и различия между пословицами. Самое главное, что также подробно анализируется явление амбивалентности в пословицах обоих языков.*

Ключевые слова: *анализ, теория, когнитивный анализ, лингвистика, метафора, пословица, английский и узбекский языки.*

Abstract. *this article analyzes proverbs in English and Uzbek according to several characteristics. In addition, the similarities and differences of proverbs are widely covered. Most*

importantly, the phenomenon of ambivalence of proverbs in the two languages is also analyzed in detail.

Key words: *analysis, theory, cognitive analysis, linguistics, metaphor, proverb, English and Uzbek languages.*

Kirish. Ingliz va o'zbek maqollari tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan va bu maqollarni qiyosiy-kognitiv tahlil qilishda ham bir qancha nazariyalarga e'tibor berishimiz, ularni o'rganib chiqishimiz lozim bo'ladi. Quyida Lakoff va Troynerlarning "Buyuk Zanjir Metaforasi" nazariyasi qismlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Lakoff va Tyorner maqollarni kognitiv jihatdan tahlil qilish bir qator tafsir jarayonlarini faollashtirishni o'z ichiga oluvchi, "Buyuk Zanjir Metaforasi" (The Great Chain Metaphor) nomli nazariya orqali amalga oshiriladi degan fikrni ilgari surdilar. Ushbu nazariya to'rtta bilim vositasini o'z ichiga oladi, bu esa maqollarni butun bir konteksda talqin qilishga yordam beradi.

Birinchidan, Umumiy ma'lumot (Generic is specific) metaforasi, "Life is journey" kabi misolda ko'riladigan umumiy konseptual metaforalardan ajralib turadigan umumiy metafora hisoblanib, bu metafora maqollar foydalanuvchilari yoki tarjimonlariga maqollarda kodlangan aniq ssenariy haqidagi bilimlaridan bahramand bo'lishda va ko'plab o'xshash vaziyatlarni tushunishda foydalanishga imkon beradi.

Ikkinchidan, "Yaratililishning Buyuk Zanjiri" (The Great Chain of Being) madaniy modelida aks ettirilgan e'tiqodlar to'plami mavjud bo'lib, ular o'zimiz va biz yashaydigan dunyo haqidagi tushunchamizni shakllantiradi.

Ushbu model tizimning uchinchi qismi, "Narsalarning tabiati" (The Nature of Things) haqidagi amaliy bilimlarimiz bilan birgalikda, dunyoning qanday ishlashi to'g'risida nazariyalarni shakllantirishga imkon beradi. Buyuk zanjir sub'ektlarni ierarxiya bo'yicha tartiblaydi, shunda zanjirdagi har bir mavjudot quyida keltirilgan sub'ektlarning barcha ko'zga ko'ringan xususiyatlariga, shuningdek, yuqori darajadagi atributlarga ega. Aql-idrok va nutq xususiyatlariga ega bo'lgan va shu tariqa quyi darajadagi murakkab jismoniy narsalar, o'simliklar va hayvonlardan ustun bo'lgan bu iyerarxiyani eng yuqori pog'onasi egallaydi.

Nazariyaning to'rtinchi qismi - bu "Og'zaki Iqtisod prinsipi" (The Principle of Verbal Economy) bo'lib, u iyerarxiyadagi ma'lum bir darajadagi shaxs haqida gap ketganda, agar bunday ma'lumotni istisno qiladigan boshqa ma'lumotlar bo'lmasa, uning eng yuqori darajadagi xususiyatlarini nazarda tutishi kerak. Bularning barchasiga qo'shimcha ravishda, biz ikki tildagi maqollar bilan tanishganimizdan so'ng, ular odamlarning hayot jarayoni va bajaradigan ishlariga taalluqli ekanligini anglab yetamiz [2. 41b].

Muhokama. Ushbu nazariyaga bir qator e'tirozlar ham bo'lgan. Honeck va Temple "Buyuk Zanjir Metaforasi"ning (GCM) bir vaqtning o'zida juda murakkab va juda cheklovchi ekanligini ta'kidlaydilar. Bu juda murakkab jarayon, sababi uning murakkab texnikasi talqinning umumiy prinsiplari bilan izohlangan narsalarni hisobga olish uchun maxsus ishlab chiqilgan, ya'ni nutq konteksti lingvistik iboraning qaysi birliklariga tegishli ekanligini va ular qanday talqin qilinishini belgilab beradi. Bu cheklov qo'yilgan masala hisoblandi, chunki nutq konteksti maqollarni nafaqat inson tomonidan bajariladigan ishlarni izohlashga, shu bilan birga hayvonlar kontekstiga nisbatan qo'llashga imkon beradi [3.45b]. Boshqacha qilib aytganda, maqollarning insoniy ishlarga taalluqli bo'lgan aniq printsipiga rioya qilish o'rniga, biz maqsadli talqinni ishlab chiqish uchun to'g'ridan-to'g'ri so'zlashuv kontekstiga to'g'ridan-to'g'ri maqol mazmunini qo'llaymiz. Norrikning so'zlariga ko'ra, maqollar xalq og'zaki ijodi asoslari bo'lganligi sababli, hikoyalar mazmuni va boy madaniy uyushmalar oldida ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Masalan, Ezopning taniqli "Toshbaqa va quyon" ertagida biz sekin ammo barqaror ravishda harakat qilinib g'oliblik qo'lga kiritilganini guvohi bo'lganmiz. Toshbaqa va quyon inson obrazini namoyon etishiga qaramay, baribir sekin va tez harakatlanuvchi hayvonlar misolida insonlarga taqqoslash uchun stereotiplar bo'lib qolmoqda. Hikoyada sekin va barqaror harakatli jonzotlar majoziy tazrda anglaniladi.

Misol uchun, ingliz tilidagi "When cat's away, the mice will play" maqolini qiyosiy kognitiv tahlil qilsak "cat" va "mice" so'zlari orqali insonlarning majoziy obrazlari ifodalanadi va o'zbek tilidagi "Sulaymon o'lib devlar qutildi" maqoliga ekvivalent bo'la oladi. Yana bir misolda hayvon obrazlari orqali ingliz va o`zbek tillarida insonlar qiyofasi juda chiroyli va tushunarli ochib berilgan. "Dog does not eat dog" maqolida "dog" obrazi orqali inson termini izohlanadi, maqolni o'quvchi uning mazmunini juda oson va tez tushuna olishi uning kognitiv tuzilishi to'liq ochib berilganligidadir va bu maqolning o'zbekcha muqobil varianti "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas" tarzda ifodalanadi. "Dog" va "qarg'a" so'zlari orqali bir kasb yoki mansabdagi insonlar obrazlari nazarda tutiladi.

Norrik shunday xulosa qiladi: "Agar hikoya maqol yoki kichikroq iboralar va ularning qo'llanilishi uchun ma'no beradigan bo'lsa, ularni talqin qilish uchun "Buyuk Zanjir Metaforasi"ning hojati yo'q, aslida BZM qanday kirib kelganini ko'rish qiyin". Biz BZM nazariyasining o'zi yoki uning tanqidchilari bilan muammoga duch kelishni xohlamaymiz, ammo kognitiv ma'no aks etuvchi maqollarda ishlatishga qaratilgan muqobil hisob taklif qilmoqchimiz. Shunday qilib, biz BZM nazariyasidan nimani o'rganishga loyiq deb bilamiz, ya'ni. GENERIC-ning tasniflash funksiyasi - bu aniq metafora va uni bizning yondashuvimizga qo'shib qo'ying. Xulosa qilish mumkinki, biz BZM nazariyasi orqali "Umumiy Ma'lumot" ning tasniflash funksiyasini metaforani to'laqonli tarzda ochib berishga va uni bizning yondashuvimizga qo'shishga loyiq deb hisoblaymiz".

Natijalar. Inglizcha maqol uchun eng maqbul o'zbekcha ekvivalentni tanlashda yoki hech bo'lmaganda birlikning asosiy ma'nosida yozishmalar kabi mezonga amal qilishni talab etadi. Jumladan, o'zbek tiliga osonlikcha tarjima qilinadigan va ularning to'liq ekvivalenti deb atash mumkin bo'lgan bir qator maqollar va so'zlar mavjud:

"Lightly come, lightly go"- "Yengil topilgan, oson ketar".

"The bad news has wing" – "Yomon xabarning qanoti bor".

"Better late than never"- "Hechdan ko'ra kech".

"Mind your own business"- "O`zingni bil, o'zgani qo`y"

"Wait and see"- "Sabrning tagi sariq oltin".

Berilgan maqollarning ingliz va o'zbekcha ma'nolari bir-biriga yaqin. Maqollarning so'zma-so`z tarjimasi ularning ma'nosiga to'la mos keladi va bu maqollarni har ikki tilda tinglaganda ham kognitiv jihatdan aynan bir narsa tushuniladi.

Ayrim maqollar esa, struktur jihatdan tubdan farq qilib, ular izoh talab hisoblanadi va bunday hollarda maqollarning ongda kognitiv aks etish jarayoniga ba'zi izohlar lozim bo'ladi.

"Between the devil and deep blue sea"- "Ikki o't orasida".

"To know what is what"- "Ko'zing borida yo'l tani, esing borida el tani".

"Forbidden fruit is sweetest"- "Qo'shninig tovug'i g'oz ko'rinar, kelinchagi – qiz"

"After a storm comes calm"- "Zamonaning zindoni ham, handoni ham bor".

Masalan, "Forbidden fruit is sweetest"- inglizcha maqoli o'zbek tiliga "Qo'shninig tovug'i g'oz ko'rinar, kelinchagi –qiz" deb tarjima qilingan. So'zma-so'z tarjimadan foydalanishda esa quyidagicha tarjima qilinadi: "taqiqlangan meva eng shirinidir", shuningdek, maxsus tushuntirishga hojat bo'lmagan "o'zga bog'ning olmasi shirin" degan so'zlarga mos keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek va ingliz tillarida maqol va matallarda bitta o'xshash (yoki bir xil) narsa yoki g'oyani bildirish uchun turli xil tasvirlardan foydalaniladi; bu tasvirlar ikki millatning turli xil ijtimoiy standartlari va turmush tarzlarini aks ettiradi. Masalan, "The grass is always greener on the other side of the fence" degan maqol tom ma'noda "to'siq ortidagi o't doim yashil bo'ladi" deb tarjima qilingan. Ammo o'zbek tilida bunday maqol yo'q. Bu qisman o'zbekcha "Yo'qolgan pichoqning sopi oltin" maqoliga mos keladi va insonlar ongida shunday gavdalanadi. Ushbu maqollar yoki matallarni so'zma-so'z tarjima qilishga urinishlar kutilmagan va ko'pincha g'alati natijaga olib kelishi mumkin. Masalan, "No room to swing a cat" degan inglizcha ibora (so'zma-so'z "mushukni silkitishga joy yo'q") o'zbek tilidagi ekvivalenti "Sichqon sig`mas iniga, g`alivir bog`lar dumiga" maqoliga to'g'ri keladi. Inglizcha iboralar, frazeologik birliklar, maqollar va matallar uchun ekvivalentni tanlashda biz har ikkala iborada ham grammatik yoki semantik mosliklarni topishga harakat qilishimiz kerak. Masalan, ba'zi tanish nutq qismlarini (ismlar, fe'llar, sifatlar) o'zaro

bog'lash uchun: green with envy – "xasaddan yashil bo'ldi" yoki shunga o'xshash sintaktik tuzilmalarni izlash uchun: As a man sows, so shall he reap - Har kim ekkanin o'rar, As you make your bed, so must you lie in it - "Qanday ish boshlasang shunday tugatasan".

Xulosa. Yuqorida berilgan nazariyadan tashqari ingliz va o'zbek maqollari yana boshqa usullarga ko'ra ham guruhlarga ajratib tahlil qilinadi. Bunda maqollarning kognitiv shakli bilan birga ularning tildagi muqobil variantlari bor yoqligi ham hisobga olinishi zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab ingliz va o'zbek maqollari va so'zlari polisemantik bo'lib, ularni izohlash, tushuntirish va taqqoslashni juda qiyinlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Close R.A. A Reference Grammar for Students of English. - M.: Prosvescheniye, 1979. - 342 p.
2. Falk, J. Linguistics and language: a survey of basic concepts and implication. 2nd Ed, - Canada: Michigan University Press, 1978, - 561p.
3. Fries Ch. The Structure of English. An Introduction to the Construction of English Sentences. - London.: Longman, 1963. - 385pg
4. Galperin I.R., Stylistics. - M.: Higher School Publishing House, 1971. - 343p.
5. Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. -103 p
6. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: Sharq, 2010. -207b.
7. Nigora Azzamova. Linguistic and cultural features of artistic visual means in Khudoyberdi Tokhtaboyev's works. Available online 25 January 2025

UO'K 82.0

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA TARJIMACHILIK VA ADABIY TA'SIR

R.Payzullayeva, PhD, Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *Tarjima har bir ijodkor uchun ibrat va adabiy-badiiy ta'sirlanish manbasidir. Shoir jahon adabiyotiga mansub biror bir ijodkorning asarlarini o'z tiliga o'girar ekan, undagi badiiyat sirlari, matn strukturasidagi o'ziga xosliklarni ijodiy o'zlashtirib boradi. Buning natijasida uning ijodi yana-da takomillashadi, yangidan yangi poetik xususiyatlar kasb etadi. Bu qonuniyat Sirojiddin Sayyid ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada shoirning Aleksandr Pushkin, Sergey Yesenin, Andrey Voznesenskiy singari atoqli rus shoirlari ijodidan oziqlangani, tarjimalari esa bir jihatdan adabiy-badiiy ta'sirni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan shoirning milliy dunyoqarashi va o'zligini ifodalab turgani tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *Adabiy jarayon, tarjimachilik, adabiy ta'sir, rus adabiyoti, adabiy aloqalar, poetik mahorat, badiiy an'analar.*

Аннотация. *Перевод является источником вдохновения и литературно-художественного влияния для каждого художника. Переводя произведения автора мировой литературы на свой родной язык, поэт творчески усваивает секреты его искусства и особенности построения текста. В результате его творчество еще больше совершенствуется, приобретая новые поэтические черты. Эта закономерность также отчетливо прослеживается в творчестве Сирожиддина Сайида. В данной статье анализируется влияние поэта на творчество таких выдающихся русских поэтов, как Александр Пушкин, Сергей Есенин и Андрей Вознесенский, а его переводы, с одной стороны, показывают литературно-художественное влияние, а с другой стороны, выражают национальное мировоззрение и идентичность поэта.*

Ключевые слова: *Литературный процесс, перевод, литературное влияние, русская литература, литературные связи, поэтическое мастерство, художественные традиции.*

Abstract: *Translation is a source of inspiration and literary and artistic influence for every artist. Translating the works of an author of world literature into his native language, the poet creatively assimilates the secrets of his art and the peculiarities of text construction. As a result, his work is further improved, acquiring new poetic features. This pattern is also clearly visible in the works of Sirojiddin Sayid. This article analyzes the poet's influence on the works of such outstanding Russian poets as Alexander Pushkin, Sergei Yesenin and Andrei Voznesensky, and his translations, on the one hand, show literary and artistic influence, and on the other hand, express the national worldview and identity of the poet.*

Key words: *Literary process, translation, literary influence, Russian literature, literary connections, poetic skill, artistic traditions.*

Adabiy jarayonda adabiyotlarning bir-biriga ta'sirisiz rivojlanish bo'lmaydi. Sivilizatsiyalar xilma-xil davrlarda turlicha bo'lganligi sababli adabiyotlarning o'zaro ta'sirlashuvi hodisasi uzoq davrlar davomida muayyan tajribalarga ega bo'ldi. Arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarning o'zaro bir-biriga ta'siri, bir adabiyot ilg'or tajribalarining boshqa bir adabiyot vakillari tomonidan o'rganilishi, o'zlashtirilishi, ijodiy rivojlantirilishi dunyo estetik tafakkuri taraqqiyotining muhim xususiyati bo'lib kelmoqda. Alisher Navoiy "Xamsa"ni yaratishda fors-tojik adabiyotida xamsachilik an'anasini boshlab bergan Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy ijodidan ilhomlandi, ularning tajribalarini o'rgandi. "Nasoyim ul-muhabbat" asari esa Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazarot il-quds" tazkirasining tarjimasidir. Ammo Alisher Navoiy tarjimaga erkin yondashib, avliyolar va shayxlar sonini 618 tadan 770 taga yetkazgan. Bu uning Jomiy ijodiga hurmati baland bo'lganligini, undan ijodiy mahorat sirlarini o'rganganligini ko'rsatadi. Yoki "Lison ut-tayr" dostonini Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asaridan ilhomlanib yaratadi. Garchi shoir uni tarjima deb atasa ham, tarjimaga erkin yondashib, turkiyda original asarga aylantirgan.

Qariyb besh asr davomida adabiy jarayondagi adabiyotlarning bir-biriga ijodiy ta'siri orqali rivojlanish hodisalari uzluksiz davom etdi. Xususan, XX asrda adabiyotlarning o'zaro ta'sirlashuvi jarayoni mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Rus adabiyoti va u orqali Yevropa hamda dunyo adabiyoti tajribalari milliy adabiyotimizga kirib keldi. Natijada, ayni hol adabiyotimizda chuqur sifat o'zgarishlariga, yangi janrlar va adabiy turlarga asos solinishiga sabab bo'ldi.

Biz ushbu maqolamizda shoir Sirojiddin Sayyid ijodiga rus adabiyotining ta'siri, shoirning rus adabiyotidan ilhom olishi, tarjimachilik borasidagi badiiy mahoratini ko'zdan kechirmoqchimiz.

Rus shoiri Sergey Yesenin o'zining "Singlimga xat" she'rida ona qishlog'i timsolida Vatanga bo'lgan o'tli muhabbatini ifodalagan:

Salom senga, singlim,
Salom, assalom.
Qadrdon dalalar salomat bormi?
Ayt, qalay parvarish qilmoqda bobom
Ryazandagi bizning oluchazorni. [2; 31]

Xuddi shunday xususiyat Sirojiddin Sayyidning "Sog'inch" she'rida ham o'z ifodasini topgan:

Xatlar yozdim: "Bormisan, singil,
Daraxtlarim mening omonmi?
Men omonman, tanimoqdaman,
Gohi baland, goh past insonni". [3; 18]

Garchi o'zbek shoirining mazkur she'rida badiiy usulni qo'llashda rus ijodkoridan ta'sirlanish sezilsa-da, uning tuyg'ulari ifoda tarzi milliy mentalitetimizning mohiyati va o'ziga xosligini ko'rsatib turadi.

Tarjima san'ati adabiyotlar o'rtasida adabiy aloqalar, o'zaro tajriba almashish jarayonida muhim o'rin tutadi. Tarjima orqali muayyan bir xalq adabiyotining eng yaxshi namunalaridan boshqa bir xalq bahramand bo'ladi, bir xalq milliy an'analari, qadriyatlari va adabiy asarlar orqali boshqa bir xalqning ham madaniy mulkiga aylanadi. Tarjima san'ati Sharq xalqlari adabiyotida uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega. Hozirgi paytda ham tarjimachilik san'ati muhim soha sifatida milliy adabiyotimiz taraqqiyotida katta salmoqqa ega bo'lib turibdi. Aslida, mustaqillikkacha bo'lgan davrda, asosan, rus tilidan tarjima qilish keng ko'lamga ega bo'lgan. Ingliz, fransuz, nemis va boshqa Yevropa mamlakatlari xalqlari adabiyoti namunalari ham rus tilidan tarjima qilingan.

Shoir asarlarining IV jildidagi "Ko'ngil safari" sarlavhasi ostida shoirning jahon adabiyotidan qilingan tarjimalari berilgan. Xususan, Abu Homid G'azzoliy, Abu Abdullo Ro'dakiy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Aleksandr Pushkin, Loyiq Sherali, Andrey Voznesenskiy, O'ljas Sulaymonov, Aleksandr Faynberg, Bulat Okudjava, Ernest Xeminguey asarlari shular jumlasidandir. Bu tarjimalar orasida rus adabiyoti vakillari ijodidan qilingan tarjimalar alohida o'rin tutadi.

Rus adabiyotining yirik namoyondasi Pushkin asarlarini milliy tilimizga o‘girganligi mutarjim uchun haqiqiy sinov maktabi vazifasini bajara olgan. Sirojiddin Sayyid ana shu maktabdan muayyan darajada saboq olib, tarjima san'atining asosiy sir-asrorlarini o‘zlashtirgan iste'dodli qalam sohibidir. Pushkinni o‘zbek tilida so‘ylatish oson emas. XX asr o‘zbek she'riyati sahifalariga nazar solinsa, o‘z vaqtida Oybek, Mirtemir kabi bir qator shoirlar Pushkin ijodidan go‘zal tarjimalar qilishganligini ularning o‘girmalari atoqli shoir ijodiga xos asosiy badiiy poetik xususiyatlarni to‘la saqlab qolganligi bilan e'tiborga molikligini qayd etish joiz. Bunday ijodiy an'ana Sirojiddin Sayyid ijodida ham bardavom bo‘ldi: Pushkindan bir qancha she'rlarni saralab o‘zbek tiliga o‘girdi. Bu tarjimalarda ikki ijodkor ruhiyatidagi uyg‘unlikni ko‘ramiz:

Bizni azal-azal aylagan sehr,
Yurak oziqlangay shulardan faqat:
Momo o‘choqlarga nisbatan mehr,
Bobo mozorlarga bo‘lgan muhabbat.
Inson – shu muqaddas tuyg‘ularga tan,
Ularsiz zamin ham bo‘shab qolardi.
Ularsiz beqadr bo‘lardi Vatan,
Xudosiz mehrobga o‘xshab qolardi. [6; 240]

She'rdagi lirik qahramon Pushkinning dard-u hasratlarini bayon qilgan bo‘lsa-da, tarjimada tarjimon qalbiga hamohang iztiroblar ham o‘z ifodasini topgan, shoir dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarni o‘z poetik tafakkuri bilan uyg‘un holda o‘zbekchalashtira olgan. Ayni hol uning poetik mahoratining yuksak darajadaligini ko‘rsatadi.

Endi Sirojiddin Sayyidning "Hikmat" she'riga nazar tashlaylik:

Hikmat na dasht-u qir, na bog‘-u bo‘ston
Va na malikaning chorbog‘idadur.
Na qasr-u ayvonlar, na roh-u manzil
Va na yigitlikning qirg‘og‘idadur.
Na shon-u martaba, na mol-u dunyo
Va na chinorlarning yaprog‘idadur.
Hikmat – bu dunyodan o‘ksinib o‘tgan
Otang mozorining tuprog‘idadur. [4; 448]

Pushkinning she'riy romanida *"Bobo mozorlarga bo‘lgan muhabbat"* kuylangan bo‘lsa, Sirojiddin Sayyid she'rida *"Hikmat – ota mozorining tuprog‘ida"* ekanligi ifodalangan. Ko‘rinadiki, ikki shoirning Vatan haqidagi mushohadalarida mushtaraklik mavjud. Ammo bu uyg‘unlik ikki shoir badiiy yaratmalaridagi o‘zgachaliklarni ham inkor etmaydi.

Sirojiddin Sayyidning ijodida mashhur rus shoiri Andrey Voznesenskiydan qilgan tarjimalari ham katta salmoqqa ega. Sababi shundaki, shoir o‘tgan asrning ikkinchi yarmida faol ijod qilgan mazkur ijodkor asarlaridan kuchli ta'sirlangan. Sirojiddin Sayyid universitetda 1-kursdaligida ilk bor uning ijodi bilan tanishadi, tanishadi-yu shoir hayotida "*barcha azoblar, tushkunlikka tushishlar-u kechalari chinqirib chiqishlar shundan keyin boshlanadi*". [3; 449] Oradan o‘n uch yil o‘tib Sirojiddin Sayyid Aleksandr Voznesenskiyga qo‘ng‘iroq qiladi va Moskvaga borib u bilan muloqotda bo‘ladi. Shoir o‘n uch yil intizor kutgan bu uchrashuvni "Asil dunyo bo‘lgan "Aksildunyolar" maqolasida zo‘r hayajon va hayrat bilan eslaydi: "*Barcha hayratingizga qarama-qarshi o‘laroq Voznesenskiy ham sizni hayrat bilan kutib oladi. Ya'ni "Toshkentdan turib mening oromimni buzishga jur'at etgan, she'rlarimni o‘zicha tarjima qilib yurgan bu shoir yigit kim bo‘ldi ekan?*" *deganday. Sizning tashrifingiz esa shunchaki tashrif emasdi, o‘n uch yillik jur'atingiz edi bu*". [5; 451]

Sirojiddin Sayyid "Asarlar"ining IV jildidan Andrey Voznesenskiyning "Tovush soyasi" asari, esselari, she'rlari hamda "Mangu rizq" dostonining tarjimasi o‘rin olgan. "Tovush soyasi" asarida rus shoirining adabiyot, she'riyat, shoirlar, musavvirlar, hayot, tiriklik mazmuni va mangulik haqidagi falsafiy mushohadalari, hayotiy saboqlari to‘g‘risidagi xulosalari jamlangan. Sirojiddin Sayyid "Tovush soyasi"da tasvirlangan rus shoirlari Yesenin, Shukshinlarning o‘z diyoriga cheksiz

muhabbatini, xalq vijdoni ekanligini yoza turib, o‘zining ham Vatan haqidagi qarashlari umumbashariy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa ajab emas.

Andrey Voznesenskiyning “So‘z hajrida” nomli she’rini Sirojiddin Sayyid erkin tarjima qilgan. Tarjimada so‘zga muhabbat orqali ona tiliga, ona Vatanga, ona yurtga sadoqat, fidoyilik ifodalangan. Voznesenskiydan ilhomlangan shoir “So‘z hijroni ” dostonini yaratdi.

So‘z yo‘q.
Muzxonalar singari
Muzlab turar til qo‘rg‘onlari.
So‘z yo‘q
Muzlab turar – kezaman
“Devon ul-lug‘otit turk” o‘rmonlari! [3; 265]

Vatanga muhabbat, ona tiliga, so‘zga e’tiqod, undan o‘z o‘rnida va ehtiyotkorlik bilan foydalanish, lisoniy birliklardagi ilohiy quvvatni teran anglash Aleksandr Voznesenskiy va Sirojiddin Sayyid ijodlaridagi mushtarak xususiyat bo‘lib hisoblanadi. Sirojiddin Sayyid rus shoiri Aleksandr Voznesenskiy ijodiga doimiy qiziqqan, har doim ilhomlangan, uning ijodidan kuchli ta’sirlangan.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov shunday yozadi: “Iste’dodlarning san’atkorligi – bu bashariy qadriyatga, umumbashariy madaniyatga daxldor ilohiy hodisa. U qo‘l bilan ushlanadigan, ko‘z bilan ko‘riladigan oybolta-yu belkurak emas. U shuurimizga tafakkur yog‘dularini olib kiruvchi, tuyg‘ularimizni tarbiyalovchi, ko‘ngil ma’rifati, ma’naviyat hikmati”. [1; 196]

Sirojiddin Sayyid she’riyatiga tarjimalarining ta’siri masalasidagi mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz, adabiy-badiiy an’analar vorisiyligi sifatida shoir ijodidagi falsafiy-intellektual va estetik qiymatni alohida qayd qilish lozim.

Mavjud an’analar bilan bir qatorda, jahon she’riyatidagi turfa xil adabiy-poetik usullar Sirojiddin Sayyid she’riyatining yangilanishiga zamin hozirladi.

Bugungi kunda ham Sirojiddin Sayyid rus va jahon she’riyatining nodir namunalarini tarjima qilib, o‘zbek adabiyotini boyitib kelmoqda. Jahon adabiyoti tajribalarining o‘zbek tarjimachilik maktabida badiiy takomil topishida, shubhasiz, Sirojiddin Sayyidning ham munosib hissasi bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o’zbek she’riyati. –Toshkent: Fan, 2007. – 224 b.
2. Сергей Есенин. Форс тароналари. Э.Воҳидов таржимаси. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007. – 340 б.
3. Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. –Тошкент: SHARQ, 2018. – 478 б.
4. Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. –Тошкент: SHARQ, 2018. – 566 б.
5. Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. –Тошкент: SHARQ, 2019. – 574 б.
6. Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. –Тошкент: SHARQ, 2019. – 608 б.

UDC 81-13

A STUDY OF ENGLISH WORDS ADOPTED INTO THE UZBEK LANGUAGE DURING THE GLOBALIZATION ERA

F.A. Qo‘chqorova, master’s student, Fergana State University, Fergana
S.A. Yusupova, senior lecturer, PhD, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv davrida ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan leksik birliklar tahlil qilinadi. Sabablari, ta’sir ko‘rsatgan sohalar, so‘zlarning moslashuvi va bu jarayonning til hamda madaniyatga ta’siri muhokama qilinadi. Asarda global ta’sirni qabul qilish bilan birga, milliy tilni asrab-avaylash muhimligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Globallashuv, Leksik qarz so‘zlar, O‘zbek tili, Inglizcha ta’sir, Tilga moslashish, Madaniy o‘zlik, Til integratsiyasi.*

Аннотация. *В статье рассматривается влияние глобализации на узбекский язык через заимствование английской лексики. Обсуждаются причины, затронутые сферы, процессы адаптации и возможные культурные и языковые последствия. Подчёркивается необходимость сохранения языковой идентичности на фоне глобальной интеграции.*

Ключевые слова: *Глобализация, Лексическое заимствование, Узбекский язык, Влияние английского, Адаптация языка, Культурная идентичность, Языковая интегра*

Abstract. *This article examines the influence of globalization on the Uzbek language through the adoption of English vocabulary. It discusses the causes, affected domains, adaptation processes, and the potential cultural and linguistic implications of this lexical borrowing. The study emphasizes the importance of balancing global integration with the preservation of national language identity.*

Key words: *Globalization, Lexical borrowing, Uzbek language, English influence, Language adaptation, Cultural identity, Linguistic integration*

In the modern era of globalization, languages around the world are experiencing rapid transformation. Uzbek, as the official language of Uzbekistan, is no exception. One of the most significant changes is the increasing influence of English, particularly in the realm of vocabulary. As English has become the dominant global language in business, science, technology, and popular culture, a large number of English words have found their way into the Uzbek lexicon. This article explores the process, reasons, and impacts of English lexical borrowing in the Uzbek language during the era of globalization.

The primary driver of English lexical influence on Uzbek is globalization. The spread of information technology, international trade, education, and media has made English a global lingua franca. As a result, Uzbek speakers, particularly the younger generation, frequently encounter English terms in daily life. Technological advancements, such as the internet and smartphones, have introduced words like 'login', 'software', and 'email' directly into everyday Uzbek conversations. Additionally, academic and professional settings often adopt English terminology, especially in disciplines like IT, business, and medicine, where no direct Uzbek equivalents exist or are rarely used.

English borrowings are especially prominent in specific domains. In information and communication technologies, terms like 'computer', 'browser', 'server', and 'file' are commonly used in their original English forms. In business, words such as 'manager', 'marketing', 'startup', and 'brand' have entered the Uzbek vocabulary. In entertainment and youth culture, phrases like 'show', 'pop', 'rap', and 'blogger' are widely accepted. Even everyday expressions like 'OK', 'bye', and 'hello' are being increasingly used among young people. This phenomenon illustrates the depth and breadth of English lexical integration in modern Uzbek society.

While many English words are used in their original form, some undergo phonetic, morphological, or syntactic adaptation to fit the Uzbek linguistic system. For example, the English word 'manager' becomes 'menedjer' in Uzbek, adapting its spelling and pronunciation. Some borrowed words are also inflected with Uzbek grammatical rules, such as adding suffixes for tense, plurality, or possession. This process reflects the natural linguistic tendency to domesticate foreign elements, making them more accessible and relatable to native speakers.

The integration of English words into Uzbek is a natural linguistic response to globalization. However, it raises important questions about language purity, cultural identity, and linguistic preservation. While lexical borrowing enriches the language and facilitates international communication, excessive reliance on foreign terms may lead to the erosion of native vocabulary. Therefore, it is essential to strike a balance between embracing global influences and preserving the integrity of the Uzbek language. Continued research, language planning, and public awareness are key to managing this linguistic evolution in a constructive way.

The widespread integration of English loanwords into Uzbek is not an isolated phenomenon but rather part of a global trend wherein dominant international languages, particularly English, permeate local linguistic landscapes. This process, often referred to as linguistic globalization, has significant implications not only for language structure but also for cultural identity and societal development.

One key dimension of this process is the sociolinguistic stratification it introduces. In urban and professional contexts—especially among youth, business professionals, and academics—the use of English-derived vocabulary is often perceived as a marker of modernity, prestige, and global connectivity. For instance, a speaker who uses terms like *brending*, *marketing*, or *konferensiya* in a casual or professional setting may be viewed as more educated or internationally aware. This can lead

to the formation of a sociolect that differentiates urban, globally-oriented populations from rural or older demographics who may be less familiar with such terminology.

Moreover, the use of English borrowings often creates hybrid registers within speech. In many cases, English words are embedded in otherwise grammatically Uzbek sentences, resulting in code-mixed or code-switched discourse. This blending not only reshapes the lexicon but also influences syntactic preferences and discourse patterns. As previously mentioned, English loanwords are often modified to conform to Uzbek phonological and morphological norms. This domestication process is guided by phonotactic constraints and morphological compatibility. For example, consonant clusters in English words may be simplified or broken up to fit Uzbek syllable structures, while vowel harmony rules may influence suffixation patterns. The word *printer* becomes *printer*, but when pluralized or declined in Uzbek, it becomes *printerlar*, showing both retention of the core word and its morphological integration.

Furthermore, Uzbek orthography also plays a role in shaping the way English words are adapted. Because Uzbek uses a Latin-based script with specific phonetic conventions, loanwords are often respelled to match these conventions. This allows the borrowed term to become more intuitively pronounceable for native speakers while maintaining semantic equivalence with the original.

Despite the linguistic benefits of borrowing—such as lexical enrichment and facilitation of international communication—there is growing debate over the long-term cultural effects of this process. Linguists and cultural policymakers have voiced concerns that unregulated borrowing could lead to the marginalization of native Uzbek terminology and a gradual weakening of the language's expressive capacity. This is particularly pertinent in fields like science and technology, where the rapid influx of English terms may outpace the development of indigenous equivalents.

REFERENCES:

1. Abduazizov, A. A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007.
2. Crystal, D. English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
3. Fishman, J. A. Language and Ethnicity in Minority Sociolinguistic Perspective. Clevedon: Multilingual Matters, 1989.
4. G‘afurov, Z. O‘zbek tilining hozirgi zamon leksikasi. Samarqand: SamDU, 2015.
5. Graddol, D. The Future of English? London: The British Council, 1997.
6. Hoffer, B. L. Language Borrowing and the Indices of Adaptability and Assimilation. Intercultural Communication Studies, 2005.
7. House, J. Translation and the Spread of English. Amsterdam: John Benjamins, 2002.
8. Jenkins, J. Global Englishes: A Resource Book for Students. London: Routledge, 2015.
9. Jo‘raev, M. Zamonaviy o‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan, 2010.
10. Karimova, G. Inglizcha atamalarning o‘zbek tiliga kirib kelish xususiyatlari. Toshkent: Innovatsiya, 2021.
11. Mamatqulov, T. Zamonaviy leksikologiya: tilga kirib kelgan yangi so‘zlar. Toshkent: Sharq, 2022.
12. Phillipson, R. Linguistic Imperialism. Oxford: Oxford University Press, 1992.
13. Qurbonov, A. Til va jamiyat: sotsiolingvistik tadqiqotlar. Toshkent: Fan, 2012.
14. Raxmonov, S. Globallashuv va til: muammo va yechimlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
15. Seidlhofer, B. Understanding English as a Lingua Franca. Oxford: Oxford University Press, 2011.
16. Shodieva, D. O‘zbek tilida xorijiy so‘zlarning o‘rni va ularning o‘zlashuvi. Toshkent: TDPU, 2020.
17. Thomason, S. G., & Kaufman, T. Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. Berkeley: University of California Press, 1988.
18. Wardhaugh, R. An Introduction to Sociolinguistics. Oxford: Blackwell Publishing, 2010.

UO'K 82-3:94(100)"1914/1919" + 124.5

"YO‘QOTILGAN AVLOD" ATAMASINING ADABIY VA MADANIY MOHIYATI

M.Qodirova, doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Juzzax

Annotatsiya. *Mazkur maqolada "Yo‘qotilgan avlod" atamasi adabiy va madaniy kontekstda tahlil qilinadi. Ushbu tushuncha Birinchi jahon urushi davrida shakllangan ruhiy va ma'naviy inqiroz holatining adabiy ifodasi sifatida ko‘riladi. Maqolada Xeminguey, Fitsjerald va Remark kabi yozuvchilar asarlari misolida bu avlodning axloqiy bo‘shashuvi, qadriyatlar inqirozi, madaniy uzilishlar va identitet muammolari ochib beriladi. Shuningdek, bu fenomenning zamonaviy madaniyatdagi o‘rni, uning estetik, falsafiy va sotsiologik mohiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *yo'qotilgan avlod, madaniy inqiroz, urush adabiyoti, identitet, axloqiy bo'shliq, Xeminguey, Fitsjerald, Remark, modernizm.*

Аннотация. *В статье рассматривается литературно-культурное значение термина «потерянное поколение». Этот феномен анализируется как отражение духовного и нравственного кризиса, сформировавшегося после Первой мировой войны. На примере произведений Хемингуэя, Фицджеральда и Ремарка раскрываются темы нравственного опустошения, утраты ценностей, культурных разрывов и кризиса идентичности. Также рассматриваются эстетические, философские и социокультурные аспекты данного явления в контексте современной культуры.*

Ключевые слова: *потерянное поколение, культурный кризис, военная литература, идентичность, нравственная пустота, Хемингуэй, Фицджеральд, Ремарк, модернизм.*

Abstract. *This article explores the literary and cultural meanings of the term "Lost Generation." It is analyzed as a reflection of spiritual and moral crisis formed during and after World War I. Through the works of Hemingway, Fitzgerald, and Remarque, the article examines the loss of values, cultural disintegration, identity crisis, and moral decline. Furthermore, it outlines the aesthetic, philosophical, and sociocultural dimensions of the phenomenon in modern culture.*

Keywords: *lost generation, cultural crisis, war literature, identity, moral emptiness, Hemingway, Fitzgerald, Remarque, modernism.*

XX asr adabiyoti va madaniyatida chuqur iz qoldirgan konseptual tushunchalardan biri bu – "Yo'qotilgan avlod" (Lost Generation) atamasidir. Bu ibora ko'proq Ernest Xeminguey, F. Skott Fitsjerald, Erich Mariya Remark kabi yozuvchilar bilan bog'liq bo'lsa-da, uning madaniy ildizlari va adabiy semantikasi chuqurroq ma'nolarga ega. Atama birinchi bor amerikalik yozuvchi Gertrude Stayn tomonidan ishlatilgan bo'lib, u Xemingueyga "siz – yo'qotilgan avlodsiz" degan ibora bilan murojaat qilgan. Xeminguey esa bu iborani o'zining "Quyosh ham botadi" romanining boshlanish qismiga epigraf sifatida kiritgan. Aslida esa bu termin faqatgina bitta avlodni emas, balki butun bir davr ruhini, uning yo'qotgan orzu-umidlarini, ruhiy iztiroblarini, urushlar sababli yuzaga kelgan madaniy va axloqiy inqirozni ifodalaydi.

"Yo'qotilgan avlod" tushunchasi 1914–1918 yillardagi Birinchi jahon urushi voqealari ortidan shakllangan. Bu davrda o'z hayotining eng go'zal faslida bo'lgan, ya'ni yoshlik va umid bilan yashayotgan yoshlar urushning dahshatli oqibatlarini boshdan kechirdi. Ko'pchilik uchun bu faqat jismoniy zarar emas, balki ruhiy inqiroz, axloqiy bo'shashish, hayotga bo'lgan ishonchni yo'qotish demak edi. Bu jarayon yozuvchilar ijodida chuqur aks etdi, ular jamiyatdagi axloqiy me'yorlarning qulab tushganini, ilgari hurmat qilingan qadriyatlarning endi hech qanday ahamiyat kasb etmay qolganini tasvirladilar. Shunday qilib, "yo'qotilgan avlod" deganda faqat urushda halok bo'lganlar emas, balki urushdan omon qolgan, ammo ruhiy va axloqiy jihatdan sinib qolganlar nazarda tutiladi.

Adabiy kontekstdagi "yo'qotilgan avlod" vakillarining asarlarida hayotiy maqsadlarning yo'qolganligi, identitet inqirozi, begonalik, ma'naviy bo'shliqlik asosiy motivlar sifatida namoyon bo'ladi. Ernest Xeminguey bu avlodning emotsional holatini qisqa va lo'nda iboralar bilan ifodalagan. Uning romanlarida qahramonlar ko'pincha ichki bo'shliqda, urushdan keyingi tushkunlikda, o'z joyini topa olmay sarson yuruvchi insonlar sifatida tasvirlanadi. Jumladan, "Quyosh ham botadi" romanida Jeyk va uning do'stlari Yevropa bo'ylab sayohat qiladi, ichkilikbozlik va befoyda ishlar bilan band bo'lishadi, ammo bu harakatlar ularning bo'shliqdan chiqishiga olib kelmaydi. Shu yo'l bilan yozuvchi madaniyatning inqirozini, an'anaviy qadriyatlarning yemirilishini ifodalaydi.

Madaniy jihatdan "yo'qotilgan avlod" tushunchasi XX asr boshlarida yuzaga kelgan sivilizatsion inqirozning belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda texnologik taraqqiyot, ilm-fan va sanoatning jadal rivojlanishi odamlarni shaxsiy va ijtimoiy darajadagi o'zgarishlarga duchor etdi. Urush esa bu taraqqiyotning samarasini tanazzulga aylantirib, inson hayotining zaifligini, axloqiy asoslarning beqarorligini ko'rsatdi. Shu bois, "yo'qotilgan avlod" vakillari adabiyot orqali zamonaviylikning mohiyatiga, jamiyatdagi ma'naviy tanglikka, axloqiy izlanishga e'tibor qaratdilar.

Ular madaniyatdagi ikkiyuzlamachilik, samimiylikning yo‘qolishi, jamiyatning insoniy qadriyatlarga befarqligi kabi muammolarni fosh etdilar.

“Yo‘qotilgan avlod” fenomenining yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, u zamonaviy insonning shaxsiy izlanishlar bilan to‘la hayotini ko‘rsatadi. Bu izlanishlar ma’naviy qoniqish, ichki barqarorlik, sevgi, do‘stlik kabi tushunchalar atrofida shakllanadi. Ammo bu tushunchalar ham ko‘p hollarda inqirozga yuz tutgan. Misol uchun, F. Skott Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” romanida asosiy qahramon Getsbi o‘zining chin yurakdan istagan sevgisi va orzusini amalga oshirishga intiladi, biroq oxir-oqibat bu orzular hayot realigiga to‘qnash keladi va buziladi. Bu esa avlodning romantik qarashlari bilan zamonaviy jamiyatning sovuqqon, hisob-kitobli munosabatlari o‘rtasidagi keskin tafovutni anglatadi.

“Yo‘qotilgan avlod” atamasining adabiy mohiyatini chuqurroq anglash uchun uning uslubiy va estetik yondashuvlarini ham tahlil qilish lozim. Bu avlod yozuvchilarining uslubi – minimalizm, ifoda ixchamligi, tashqi harakatlar orqali ichki kechinmalarni ko‘rsatish, o‘ziga xos so‘zlashuv tili, hayotiy voqealarni romantizatsiyasiz, real holatda tasvirlash kabi xususiyatlarga ega. Ular urush va urushdan keyingi jamiyatni faqat voqelik sifatida emas, balki falsafiy muammo sifatida ko‘rsatishga harakat qilishgan. Bu adabiyotda yangicha g‘oyaviy-estetik yondashuvning shakllanishiga zamin yaratdi.

Madaniy kontekstda “yo‘qotilgan avlod” madaniyatning individualizatsiyalashuvi, postmodernizmga o‘tish jarayoni, avangardistik izlanishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayonlarda san’at va adabiyotning jamiyatdagi roli o‘zgarib, ular mustaqil, tanqidiy fikrlovchi, ma’naviy tahlil vositasiga aylana boshladi. Ayniqsa, urushdan keyingi yillarda yuzaga kelgan madaniy harakatsizlik, axloqiy bemaslahatlik, hayotiy qadriyatlarga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi san’atning yangicha yo‘nalishlarda rivojlanishiga olib keldi. “Yo‘qotilgan avlod” vakillari aynan shu vazifani bajardilar – ular madaniyatni uyg‘otdilar, uni yangi tushunchalar, yangi shakllar bilan boyitdilar.

Shuningdek, bu atama madaniyat tarixida avlodlararo aloqaning uzilishi, tarixiy xotiraning yo‘qolishi, qadriyatlar davomiyligining uzilishi muammolarini ham o‘rtaga qo‘yadi. “Yo‘qotilgan avlod” – bu o‘z avvalgi avlodlaridan meros olgan qadriyatlarni saqlab qololmagan, ayni paytda yangi qadriyatlar ham yaratolmagan, madaniy yo‘nalishini yo‘qotgan avloddir. Bu narsa nafaqat g‘arb madaniyatida, balki boshqa ko‘plab jamiyatlarda, jumladan, O‘zbekiston madaniyati va adabiyotida ham o‘z aksini topgan. Tarixiy sinishlar, ijtimoiy bosqichlar almashuvi, mafkuraviy silkinishlar davomida yo‘qotilgan avlodlar vujudga kelgan va bu holat ijodkorlar tasvirida o‘z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, “yo‘qotilgan avlod” atamasi adabiy va madaniy tahlil uchun nihoyatda boy va ko‘p qirrali kontseptdir. U faqat tarixiy voqealarga javob sifatida emas, balki inson ruhiyatining, jamiyat ongining va madaniyat tafakkurining murakkab inqiroz davrlarini anglash uchun ham xizmat qiladi. Ushbu tushuncha orqasida insoniyatning o‘zligini yo‘qotib qo‘ygan va uni qayta izlayotgan dramatik holati, zamonaviylik bilan kurashayotgan an’anaviylik, ruhiy barqarorlikka intilgan notinchlik yotadi. Shuning uchun “yo‘qotilgan avlod” nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya singari sohalar uchun ham tahliliy maydon yaratadi. Bu tushuncha bizga faqat bir tarixiy avlod haqida emas, balki har qanday davrdagi insoniy ma’naviyat inqirozi haqida o‘ylashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Хемингуэй Э. Эрнест. И восходит солнце. – Москва: АСТ, 2021. – 320 с.
2. Фицджеральд Ф. Скотт. Великий Гэтсби. – Санкт-Петербург: Азбука, 2020. – 224 с.
3. Ремарк Э. М. На Западном фронте без перемен. – Москва: Эксмо, 2019. – 256 с.
4. Стайн Гертруда. Автобиография Алисы Б. Токлас. – Москва: Иностранка, 2018. – 272 с.
5. Bradbury M. The Modern American Novel. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 432 p.
6. Lehan R. Literary Modernism and Hemingway. – Westport: Greenwood Press, 2000. – 310 p.
7. Жирмунский В. М. История западноевропейской литературы. – Ленинград: Наука, 1977. – 503 с.
8. Барт Ролан. Мифологии. – Москва: Академический Проект, 2004. – 319 с.
9. Гуссерль Эдмунд. Кризис европейских наук и трансцендентальная феноменология. – Санкт-Петербург: Университетская книга, 2001. – 384 с.
10. Said E. W. Culture and Imperialism. – New York: Vintage Books, 1993. – 416 p.

UDK 004.891:81'322

THE PRAGMATIC AND STYLISTIC COLORING OF IRONIC EXPRESSIONS

N.Y. Qodirova, Farg'ona davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
Orcid: 0009-0001-4782-9954

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi diskursda istehzo ifodalarining pragmatik va uslubiy rang-barangligi ularning shakli, funksiyasi va talqin qilishdagi murakkabligi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Istehzo ko'p qirrali til hodisasi sifatida ko'pincha so'zma-so'z ma'noning yuzasida emas, balki uning ostida faoliyat yuritadi va uni tushunish kontekstual ishoralar, gapiruvchining niyati hamda umumiy madaniy tasavvurlar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotda istehzo ayniqsa badiiy matnlar, siyosiy nutq va norasmiy suhbatlarda kommunikativ hamda uslubiy vazifalarni bir vaqtning o'zida qanday bajara olishi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *istehzo, pragmatika, uslubiyot, implikatura, Grays, Moslik nazariyasi.*

Аннотация. *В данной статье исследуется прагматическая и стилистическая окраска иронических выражений в англоязычном дискурсе с учетом их формы, функции и интерпретационной сложности. Ирония, как многогранное лингвистическое явление, часто действует на уровне подтекста, требуя интерпретации, основанной на контекстуальных подсказках, намерении говорящего и общих культурных предпосылках. В исследовании рассматривается, как ирония одновременно выполняет коммуникативную и стилистическую функции, особенно в литературных текстах, политической риторике и неформальном общении.*

Ключевые слова: *ирония, прагматика, стилистика, импликатура, Грайс, теория релевантности.*

Abstract. *This article investigates the pragmatic and stylistic coloring of ironic expressions within English-language discourse, taking into account their form, function, and interpretative complexity. Irony, as a multifaceted linguistic phenomenon, often operates beneath the surface of literal meaning, requiring interpretative effort guided by contextual cues, speaker intention, and shared cultural assumptions. This study explores how irony simultaneously fulfills communicative and stylistic functions, especially in literary texts, political speech, and informal conversation.*

Key words: *irony, pragmatics, stylistics, implicature, Grice, Relevance Theory*

Introduction. Irony is one of the most intricate and layered forms of human expression. It exists at the crossroads of pragmatics and stylistics, functioning as both a communicative strategy and a rhetorical device. Traditionally defined as saying the opposite of what one means, irony in linguistic terms carries a much deeper significance. It is context-sensitive, reliant on shared assumptions, and shaped by the interaction between literal and intended meaning. This article aims to explore the pragmatic and stylistic coloring of ironic expressions, with a focus on English-language examples and comparative insights from Uzbek linguistics. Irony serves various functions: from humor and politeness to criticism and persuasion. As such, it is not only a linguistic form but a cultural and cognitive process. Understanding irony requires grasping both its structural components and its communicative purposes.

Literature review. H.P. Grice's Cooperative Principle (1975) laid the foundation for understanding irony as a violation of the maxim of quality, where speakers deliberately say something untrue to imply something else. This implicature-based model has been widely applied in irony studies. Relevance Theory, developed by Sperber and Wilson (1986), introduced the notion of echoic mention the idea that irony involves echoing a thought or belief to express a critical attitude toward it. These theories help explain how irony can be decoded through contextual and cognitive clues. From a stylistic perspective, irony enriches textual expression. Leech (1983) categorized irony as part of the 'affective function of language used to convey attitudes and emotions. Irony often overlaps with other devices like satire, sarcasm, and understatement. Uzbek scholars such as A. Madvaliev and M. Rustamov emphasize the emotional and evaluative functions of irony in Uzbek discourse,

especially in literary and political contexts. Their work illustrates how irony reflects cultural norms and indirectness in Uzbek communicative behavior.

Methodology. This study employs a qualitative approach with corpus-based elements. Examples of irony were collected from literary texts, political speeches, and social media posts in English. Comparative examples in Uzbek were sourced from Uzbek newspaper articles, literary prose, and academic writings. Each example was analyzed for its pragmatic function (e.g., implicature, echoic mention, politeness) and stylistic function (e.g., satire, parody, criticism). Pragmatic analysis focused on speaker intention and conversational maxims, while stylistic analysis considered tone, genre, and audience. Works by Uzbek linguists were used to interpret how irony is employed and perceived in Uzbek discourse. This included analysis of metaphorical and humorous expressions and their stylistic function in culturally-specific contexts.

Results. Among 60 analyzed examples, 70% demonstrated clear violations of the maxim of quality, confirming the role of implicature. For instance, a political speaker saying, "What a brilliant idea to raise taxes again!" conveyed the opposite sentiment. The use of irony as a politeness strategy also emerged, where speakers used softened criticism, ex: nice job forgetting your lines on live TV. Stylistically, irony was used to generate humor (40% of examples), critique (35%), and solidarity (25%). In literary texts, irony added narrative depth, as in Jane Austen's "Pride and Prejudice", where ironic narration creates distance and commentary. Uzbek examples, such as satirical commentary in newspapers, revealed similar functions, often directed at social or bureaucratic absurdities.

Discussion. Irony, as revealed in the study, is not a random stylistic tool but a deliberate communicative strategy. It acts as a bridge between linguistic form and sociocultural meaning. Pragmatically, irony depends on violating conversational expectations, particularly Grice's maxim of quality, to create meaning through contrast and contradiction. In this sense, irony is inherently interpretive requiring the listener or reader to actively infer the speaker's true intent. Irony is rarely understood in isolation. Instead, it relies on shared background knowledge, intonation, facial expressions, and textual markers. This supports the Relevance Theory view that irony is an echoic mention a speaker echoes a belief or social norm and signals its mockery or rejection. Stylistically, irony enhances expressiveness, giving depth and nuance. It is used to soften harsh criticism, distance the speaker from content, and express layered attitudes. Uzbek linguists like Rustamov (2010) describe this as stylistic coloring, where irony signals indirect critique or emotional tone. Irony also interacts with genre and register. In literature, it conveys moral contrast. In informal contexts, it becomes a form of self-expression or social commentary.

Conclusion. This study demonstrates that irony, far from being merely humorous or sarcastic, is a central linguistic mechanism for expressing attitudes, managing social relations, and enriching communication. Its complexity lies in its dual nature: it requires both intellectual effort decode and emotional sensitivity to interpret. Irony operates at the intersection of language, context, culture, and cognition. Pragmatically, it invites listeners to decode intentions beyond the literal. Stylistically, it adds voice and rhetorical depth. Uzbek scholars such as Madvaliev and Nishonova show that irony is embedded in Uzbek discourse traditions and functions as a mode of critique and emotional expression. Ultimately, irony is not merely saying the opposite it is a sophisticated tool for navigating truth, revealing contradiction, and inviting reflection. Its study enhances our understanding of language's power to represent subtlety, humor, and critique.

REFERENCES:

1. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds), Syntax and Semantics, vol.3.

2. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). Relevance: Communication and Cognition. Blackwell

3. Burgers, C., Konijn, E. A., & Steen, G. J. (2012). Why do people use verbal irony? Journal of Pragmatics, 44(10).

4. Madvaliev, A. (2007). Til va uslub masalalari. Tashkent: Fan.

5. Rustamov, M. (2010). O'zbek tili uslubiyati asoslari. Tashkent: TDPU.

6. Nishonova, N. (2015). Ironiyaning badiiy matndagi funksional roli. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi.

UO'K 811.161.1'38

SAYYOHLIK DISKURSIDA PRAGMATIK MAZMUNNING AKS ETISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

S.S. Qodirov, PhD, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sayyohlik diskursida pragmatik mazmunning aks etishi nafaqat matn, balki sayyohlik muloqoti jarayoning muhim xususiyatlaridan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, lingvopragmatik yondashuvda "inson omili"ning lingvistik talqini muammolari ham muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *Pragmatik omil, pragmatik moslashuv, pragmatik mazmun, sayyohlik reklamasi.*

Аннотация. *В статье утверждается, что отражение прагматического содержания в туристическом дискурсе является одной из важных особенностей не только текста, но и процесса туристической коммуникации. Следует подчеркнуть, что в лингвопрагматическом подходе проблемы языковой интерпретации «человеческого фактора» также играют важную роль.*

Ключевое слова: *Прагматический фактор, прагматическая адаптация, прагматический контент, туристическая реклама.*

Abstract. *In this article, the reflection of pragmatic content in tourism discourse is one of the important features of not only the text, but also the process of tourism communication. It should be emphasized that in the linguopragmatic approach, the problems of linguistic interpretation of the "human factor" also play an important role.*

Key words: *Pragmatic factor, pragmatic adaptation, pragmatic content, tourism advertisement.*

Kirish. Sayyohlik diskursida pragmatik mazmunning aks etishi nafaqat matn, balki sayyohlik muloqoti jarayoning muhim xususiyatlaridan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, lingvopragmatik yondashuvda "inson omili"ning lingvistik talqini muammolari ham muhim o'rin tutadi. Til va uning inson faoliyatidagi o'rni hamda inson tafakkurining rivojlanishidagi vazifalari nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Ommaviy axborot vositalarining qabul qiluvchisi potensial ravishda aniqlanmagan ko'plab shaxslardir va qabul qiluvchining o'zi uning standart manzilini modellashtiradi. Uning kommunikativ harakatining jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy mavqei, dini, dunyoqarashi, kasbi va boshqa xususiyatlarga ko'ra ajratilgan ma'lum bir guruh uchun mo'ljallangan. Sayyohlik diskursida juda muhim bo'lgan omillardan biri, albatta, leksik qatlam hisoblanadi. Muloqot jarayonida vaqtning o'tkinchi ekanligi, hodisalarning tez o'zgarib turishi, shuningdek, qabul qiluvchilarning turli til va ta'lim darajasi hisobga olingan holda tegishli qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Tarjima nazariyasi bo'yicha taniqli mutaxassis L.S.Barxudarovning fikricha: "... lingvistik aloqa jarayonida til belgilaridan foydalanadigan kishilar bunday belgilarga befarq munosabatda bo'lmaydilar – ular ma'lum lisoniy birliklarga, ular orqali esa o'zlari belgilaydigan referent va denotatlarga turlicha munosabat bildiradi" [1. 93].

Bundan tashqari, pragmatika nafaqat qabul qiluvchining turi, balki muallifning niyati bilan ham bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, axborotni optimal dekodlash (gapni tushunish) – idrok etilgan gapni tahlil qilish. Misol uchun: bir kishi boshqa shaxsga murojaat qilishni yoki o'z fikrini batafsil nutq shaklida ifodalashni xohlaydi. U so'rov berishni xohlashini bildirishi uchun asosga ega bo'lishi kerak) va uni tarjima qilish tamoyili nutqning har bir parchasiga singdirilgan. Pragmatik jihat tilning kommunikativ funksiyasi bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olsak, bu til birliklarini tanlash va ularni nutq jarayonida ifodalash usulidir. Axborotni uzatish jo'natuvchining kommunikativ maqsadiga qarab amalga oshiriladi. Qo'llanmalarning emotsional turlarini hisobga olgan holda ekskursiya matnlarining pragmatik tomonini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Pragmatik jihatni hisobga olgan holda, L.S.Barxudarov pragmatik omilni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi. Bu omilni hisobga olish qo'shish, ayirish, almashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirishda ifodalanishi mumkin. U o'z ishida pragmatik moslashuv turlarini tushuntirishda V.N.Komissarov misollariga tayanganiga qaramay, L.S.Barxudarov ularni haligacha bunday deb hisoblamaydi. O'z ishida L.S.Barxudarov "transformatsiya" va "tarjima transformatsiyasi" yoki "tillararo transformatsiyalar" tushunchalarini tenglashtiradi. U barcha turdagi o'zgarishlarni "to'rtta

elementar turga" qisqartiradi – qayta tartibga solish, almashtirish, qo'shish, tushirib qoldirish [1.125]. Pragmatik tarjima moslashuvi – ma'lum bir tarjima retseptoridan kerakli javobni olish uchun tarjima qilingan matnga kiritilgan o'zgarishlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi pragmatik omillarni hisobga olgan holda biz sayyohlik qo'llanmalaridagi matnlarni tarjima qilishda sayyohlik nutq texnologiyalariga xos bo'lgan quyidagi pragmatik moslashuvlarni aniqladik va tahlil qildik:

1. Konkretlashtirish (ravshanlashtirish) – ushbu harakatda keng ma'noga ega bo'lgan asl so'zni tor ma'noga ega so'z bilan almashtirish kerak.

Berilgan matn tarjimasida "*hudud*" so'zini "*enterprice*" so'ziga almashtirdik.

2. Umumlashtirish – tor atamani qoldirish yoki uni umumiy atama bilan almashtirish. Tarjimon o'z oldiga qo'yilgan matnni tilda o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan so'z yoki ibora o'rniga ko'zda tutilgan tilda umumiyroq ma'noga ega bo'lgan so'z yoki iborani tanlaydi.

3. Mantiqiy rivojlanish (yoki modulyatsiya). Mantiqiy rivojlanish usulining mohiyati dastlabki tildagi so'z yoki iborani indikativ til birligi bilan almashtirishdan iborat bo'lib, uning ma'nosi mantiqiy jihatdan asl birlik ma'nosidan kelib chiqadi.

4. Tushirib qoldirish – bunday sayyohlik matnlarida jumlaning tarjimada so'z yoki so'z birikmasining yo'qligi umumiy ma'nosini buzilishiga olib kelmaydi. Ushbu hodisada tarjima tilining me'yorlariga mos keladigan leksik talqinga ega bo'lgan asl matnning semantik tarkibiy qismlari semantik jihatdan ortiqcha bo'lib chiqadi va berilayotgan matnda tushirib qoldiriladi.

5. Qo'shish – bu maqsad tilda manba tilining norasmiy ifodalangan elementlarini tiklash. Ushbu uslubni qo'llash tarjima qilingan matnning manba matniga nisbatan kengayishiga olib keladi. Berilayotgan ma'lumotga nisbatan qabul qiluvchini yanada qiziqtirish nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Rasmiy holatda ifodalanmagan, asliyatda nazarda tutilgan ko'pgina ma'no elementlari (tilshunoslar bunday ma'no elementlarini yopiq deb atashadi) tarjimada qo'shimcha leksik birliklar yordamida qayta tiklanishi kerak.

Tahlil va natijalar. Pragmatik moslashuv zarur bo'lib, dunyodagi har bir tilda til hamjamiyatining vakillari orasida ma'lum bir tuzilmalarga ega bo'lgan hodisalarning nomlari mavjud. Tarjimon tomonidan tarjima qilingan matnda pragmatik munosabat bo'lishi hamda sayyohlik nutqi tarjimasida bunday moslashuvlarni qo'llash kerak. Tarjimon madaniyat va tarixdan ma'lum darajada bilimga ega bo'lishi muhimdir. Bunday bilimlar unga asl xabarning ma'nosini to'g'ri yetkazishga, asl xabarning ma'nosini talqin qilishga va ma'lumotni shunday moslashtirishga yordam beradi. Yuqorilardan kelib chiqib, xabarni qabul qiluvchi uni o'zining asosiy bilimiga muvofiq qabul qiladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin. Sayyohlik nutq matnlarini tarjima qilishda ma'lum kommunikativ, lingvistik me'yorlar va pragmatik munosabatlardan foydalaniladi. Sayohat davomida chet ellik sayyohlar foydalanadigan lug'atni sinchkovlik bilan tanlash, asosiy ma'lumotlar va dalillarni imkon qadar to'g'ri, sodda tarzda yetkazishga harakat qilish muhimdir. Tarjima jarayonida mutaxassis dastlabki matnning pragmatik moslashuvlarini qo'llaydi, ya'ni tarjima matni va asl matnning xususiyatlari o'rtasidagi ma'lum farqlarga (ijtimoiy-madaniy, yosh, psixologik) ba'zi tuzatishlar kiritadi.

Tahlil o'tkazish jarayonida biz sayyohlik reklama materiallari, jumladan, "https://uzbekistan.travel/uz/", "National Travel Survey: England 2015", "Journal of Tourism and Services", "Scotland's highlands & Islands", "National Geographic" va boshqalar kabi nashrlar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotning maqsadi sayyohlik faoliyatining salohiyati juda keng ekanligi va sayyohlik reklamasining pragmatik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Reklamaga ta'rif berishda shuni ta'kidlash kerakki, u "ishlab chiqarish yoki jamoat infratuzilmasi sohasida amalga oshiriladigan murakkab faoliyat turi"[2].

Reklama muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi ko'p bosqichli kommunikativ jarayon ekanligini hisobga olsak, uni nutqqa ta'sir qilish turlaridan biri sifatida qarashimiz mumkin. "Reklamaning ta'sir qilish mexanizmlarini, uning auditoriyasini harakatga ishontirish qabul qiluvchi tomonidan eslab qolish qobiliyatini va orasidagi nutq munosabatini, xatti-harakatlarini ta'minlashni o'rganish dolzarbdir"[3].

Xulosalar. Reklama o‘zining kommunikativ mohiyatini sayyohlik matnlarida ochib beradi. Shuning bilan birga uning til vositalarini o‘rganishda tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lib, iste’mol xatti-harakatlarini tashkil etishning iqtisodiy funksiyasini bajaradigan maxsus tilning ajralmas qismi hisoblanadi.

Turizm sohasidagi reklama obyektining asosiy xususiyati uning nomoddiy tabiati hisoblanadi. Ushbu sohadagi iste’molchi chipta sotib olib, yo‘lga chiqmaguncha, reklama taklifini to‘liq baholay olmaydi. Iste’mol mahsulotlaridan farqli o‘laroq, o‘zgaruvchan sifatli xizmatlar bir vaqtning o‘zida axborot savodxonligi va pragmatika kabi funksiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). –Москва: Международные отношения, 1975. – С. 93-240.

2. Лейчик В.М. Реклама как дискурс //Вопросы лингвистики, педагогики и методики пре-подавания иностранных языков. – Ижевск, 2006. – С. 180-204.

3. Пирогова Ю.К. Ложные умозаключения при интерпретации рекламы //Реклама. 2000. № 2.–С.15-18.

4. https://davlat.uz/ru/eco/news/view/1817

5. https://www.museumoflondon.org.uk/application/files/1115/2932/9690/18013_Museum_of_London_Visual_Story.pdf

6. https://www.tripadvisor.ru/ShowUserReviews-g298493-d27714451-r949520585-Voinam_Pogibshim_V_Lokalnykh_Konfliktakh_Monument-Khabarovsk_Khabarovsk_Krai_Fa.html

7. https://shon-sharaf.uz/oz/docs/shon-sharaf-muzeyi-haqida-2

8. https://shon-sharaf.uz/oz/category/maqolalar

9. “Dunyo bo‘ylab” ko‘rsatuvidan (17.10.2022 kungi)

UDK 808.3

XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING LINGVISTIK TASNIFI

X.U. Qodirova, tayanch doktorant, Farg’ona davlat universiteti, Farg’ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xushmuomalalik nazariyasining vujudga kelish tarixi hamda rivojlanishi tadqiq etiladi. P.Braun va S.Levinson tomonidan yaratilgan “Universal o‘rganib chiqiladi. Shuningdek, maqolada salbiy va ijobiy xushmuomalalik kategoriyalari xushmuomalalik strategiyalari” va ularning kommunikativ funksiyalari ham tadqiqot doirasida, ularni madaniyatlararo diskursda qanday ifoda etilishi ham ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *“yuz” konsepti, xushmuomalalikning universal strategiyalari, “ijobiy yuz”, “salbiy yuz”, pragmatika, madaniyatlararo diskurs.*

Аннотация. *В данной статье исследуется история возникновения и развития теории вежливости. Анализируются универсальные стратегии вежливости, разработанные П. Брауном и С. Левинсоном. Кроме того, в рамках исследования рассматриваются категории положительной и отрицательной вежливости, а также их коммуникативные функции. Особое внимание уделяется тому, как данные стратегии реализуются в межкультурном дискурсе.*

Ключевые слова*: концепция «лица», универсальные стратегии вежливости, «положительное лицо», «отрицательное лицо», прагматика, межкультурный дискурс.*

Abstract. *This article examines the history and development of politeness theory. “Universal politeness strategies” was created by P.Brown and S.Levinson and their communicative functions are also studied within the framework of the study. The article also shows the categories of negative and positive politeness, how they are expressed in intercultural discourse.*

Key words: *the concept of “face”, universal politeness strategies, “positive face”, “negative face”, pragmatics, intercultural discourse.*

Kirish. Bugunga kunga kelib zamonaviy lingvistikada nutqiy muloqotga faqatgina axborot almashinuvi vositasi sifatida emas, shuningdek ijtimoiy, madaniy psixologik tomonlardan murakkab bo‘lgan jarayon sifatida nazar tashlanmoqda. Muloqotda nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlash va sayqallashda xushmuomalalik strategiyalari muhim o‘rin tutadigan komponentlardan biridir. Xushmuomalalik strategiyalari vositasida tinglovchiga nisbatan hurmat ko‘rsatish, ijtimoiy maqomini qadrlash, nizo va kamchiliklarni kamaytirish kabi pragmatik

ma'nolarni nutqda amalga oshirish mumkin. Xushmuomalalikning nutq sathida voqealanishi hodisasi lingvopragmatik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik maydonlarda o'rganilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Nutqda xushmuomalalikning aks ettirilishi haqida bugungi kungacha ko'plab tadqiqot hamda ilmiy ishlar olib borilgan bo'lib, ushbu nazariyaning vujudga kelishiga E.Goffman [2], P.Braun va S.Levinson [1] kabi olimlarning g'oyalari poydevor bo'lib hizmat qilgan. Dastlab Erving Goffman o'z tadqiqot ishida "face"-"yuz" tushunchasini tilshunoslikka olib kirdi va unga quydagicha ta'rifladi: "Yuz – bu insonning muloqot chog'ida boshqalar tomonidan unga nisbatan qaralgan ijtimoiy qadriyatlar yig'indisidir" [2]. Qisqacha aytganda "yuz" pragmatik jihatdan hurmat ma'nosini o'zida aks ettirib, shaxslar kommunikatsiya jarayonida o'z "yuz"ini ya'ni suhbatdosh oldidagi hurmatini, ijtimoiy va gender qadr-qimmatini saqlab qolishga intilishidir. "Yuz" ni saqlash jarayonida muayyan bir xushmuomalalik strategiyalardan foydalaniladi va unga tahdqiq qiluvchi holatlarni oldini olishga, muloqotdagi muvozanatni ushlab turishga harakat qilinadi. Goffmanning "yuz" nazariyasiga tayangan holda Braun va Levinson "Universal xushmuomalalik strategiyalar"ni ishlab chiqdilar. Tadqiqotchi H.Turdiyeva o'z ilmiy tadqiqot ishida xushmuomalalikning prinsiplari haqida so'z yuritadi [7]. Unga ko'ra, Braun va Levinson xushmuomalalikning 4 ta asosiy yondashuvlarni ishlab chiqadilar:

Ijobiy strategiya (Positive strategy)
Salbiy strategiya (Negative strategy)
Direktiv strategiya (Bald on record)
Nodirektiv strategiya (Off record)

Natija va muhokamlar. Yuqorida sanab o'tilgan strategiyalar muayyan nutqiy vaziyatda, ijtimoiy masofa, kuchlar nisbati va nizolarga monand holda qo'llaniladi. Strategiyalardan biri ijobiy xushmuomalalik strategiyasi bo'lib, uning asosiy maqsadi so'zlovchi va tinglovchi orasidagi nutqiy uyg'unlikni mustahkamlashga, tinglovchining ijtimoiy qadr-qimmatini aks ettirishga qaratilgandir.

Salbiy xushmuomalalik strategiyasi esa muloqotda ishtirokchilarning erkinlik huquqining saqlab qolishga yo'naltirilgan lingvistik ifodalar. Bunda asosan tinglovchiga o'ta kamtarlik bilan munosabatda bo'lish, o'z-o'zini himoya qilish, o'zgalar hayotiga aralashmaslik kabi pragmatik mohiyatlarni qamrab oladi.

Direktiv strategiya (Bald on record) – "yuz" ga ya'ni hurmatga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiluvchi ifodalardan foydalaniladi. Tinglovchiga nutq maqsadi bevosita yetkazib beriladi va bu strategiya asosan yaqin munosabatli shaxslar orasida qo'llaniladi.

To'rtinchi strategiya nodirektiv (Off record) deb atalib, yashirin va kinoyali pragmatik mazmunga ega harakatdir. Ushbu strategiyada to'g'ridan- to'g'ri ifodalardan qochilib, aksincha pragmatik mazmun kinoya, qochirim, fikrni to'liq ifoda etmaslik kabi lingvistik shakllar bilan akslantiriladi.

Jahon tilshunosligidagi bir qator olimlar xususan, S.Ide[5], Y.Matsumuto [4], J.Holmes [8] ushbu masala yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borganlar. J.Lich ham ushbu fenomen doirasida o'z mulohazalarini ommaga taqdim etadi. U ham o'z fikrlarini bayon etishda Braun va Levinsonning nazariyasiga tayanadi. Olim xushmuomalalikning kommunikatsiya jarayonidagi o'rni beqiyos ekanini ta'kidlar ekan, uning nutq ishtirokchilari o'rtasidagi do'stona munosabatni ta'minlash va o'zaro ishonchni yuzaga kelishida muhimligini eslatib o'tadi [3]. Lich, shuningdek, Graysning "Koorperativlik tamoyili" [9] haqida ham fikr yuritib, uning xushmuomalalik strategiyalari bilan hamohang ekanligini aytadi. Unga ko'ra, muloqotning asosiy motivi bu axborotning samarali yetkazib berilishi bilan bir qatorda ijtimoiy hurmat va uyg'unlikni saqlash ham demakdir. Unga dalil sifatida quydagi mulohazani bayon etadi: "Xushmuomalalik vositasida aytilgan har bir so'zning vazifasi – nutq egasi hamda tinglovchining ijtimoiy obro'sini saqlashdan iboratdir" [9].

Lich 6 ta submaksimani fanga taklif etadi. Ular odob, oliyjanoblik, ma'qullanish, kamtarlik, kelishuv, g'amxo'rlik kabi maksimalardir. Bu maksimalar "yuz" konsepsiyasi bilan mushtarak bo'lib, muloqotda ijtimoiy muvozanatga zarar yetkazmaslik uchun hizmat qiladi.

Tilshunos V.I.Karasik ham xushmuomalalik maydoni haqidagi fikrlarida uning me'yorlari haqida e'tirof etib, uni ifoda etilayotgan va ko'zda tutilayotgan axborotlarga nisbatlaydi. U to'rt tipdagi axborotni ajratib ko'rsatib, nutqda qay tarzda voqealanishini ko'rib chiqadi:

Ifoda etilishi zarur bo'lgan axborot – bu tipga asosan axborot almashinuvi hamda muloqotdagi etiket formulalari kiradi.

Muloyimlikni aks ettiruvchi qo'shimcha etiket formulalari – bu omillar nutqda hurmat va ehtiyotkorlikni ta'minlaydi.

Nutqda qo'llanilmasligi lozim bo'lgan axborot – tabu va ijtimoiy nojoiz hisoblangan birikmalar kiradi.

Ixtiyoriy bo'lgan axborot – suhbat mavzusiga aloqador bo'lmagan lingvistik elementlar.

Karasik axborotlarni bu kabi tasniflash yordamida xushmuomalalikning qanchalik rasmiylik darajasi bilan mushtaraklikda ekanini izohlaydi: "Muloqot vaziyati qay darajada rasmiy bo'lsa, xushmuomalalik modellari shunchalik protokolga mos ravishda bo'ladi"[6].

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, xushmuomalalik strategiyalarining lingvistik tasnifi tilshunoslikning bir necha dolzarb maydonlarini o'ziga qamrab oladi. Maqola davomida yuzaga kelgan mulohazalarga ko'ra, muloqot vaqtida vujudga kelgan ijtimoiy tahdid va nizolarni yumshatish, shaxslararo munosabatlarni tartibga keltirishda, ijtimoiy martabaga putur yetkazmaslik kabi bir qator masalalarda xushmuomalalik modellari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

P. Brown va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan nazariy model, xususan, ijobiy va salbiy yuz hamda ularga nisbatan tanlanadigan strategiyalar (bald on record, positive politeness, negative politeness, off record) til vositalarining qanday ijtimoiy vazifalarni bajarishini ko'rsatib berdi. Shuningdek, G. Leech tomonidan ilgari surilgan pragmatik me'yorlar, ayniqsa odoblilik (tact) maksimasi, xushmuomalilikning axloqiy-estetik mezonlarini asoslashda muhim nazariy asos bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.

2. Matsumoto, Y. (1988). Reexamination of the universality of face: Politeness phenomena in Japanese. Journal of Pragmatics, 12(4), 403–426. https://doi.org/10.1016/0378-2166(88)90003-3

3. Карасик, В. И. (2002). Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена.

4. Turdiyeva, H.K. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi (Fors va o'zbek tillaridagi materiallar asosida), Toshkent 2020, 23-24

UO'K 811.512.133

O'ZBEK YURIDIK TERMINOLOGIYASINING O'RGANILISHI

E'.Sh.Qurbonova, dots.v.b., Toshkent amaliy fanlar universiteti, doktorant, PhD, Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek yuridik terminologiyasining shakllanish davridan boshlab hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Barcha ilmiy tadqiqot ishlari o'ziga xosligiga ko'ra tavsiflangan. Yurisprudensiyaga oid terminologik birliklarning ilmiy tadqiqi borasida amalga oshirilgan ishlarning bugungi kun yuridik terminologiyasi taraqqiyoti uchun qo'shgan hissasi borasida ilmiy mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *yuridik terminologiya, o'zbek yuridik terminologiyasi, huquqshunoslik va tilshunoslik integratsiyasi, yurislingvistika, huquqiy norma tili, qonunchilik texnikasi.*

Аннотация*. В статье анализируются исследования, проведенные с момента формирования узбекской юридической терминологии до наших дней. Все научные исследования описываются в соответствии с их уникальностью. Состоялась научная дискуссия о вкладе работ по научному изучению терминологических единиц юриспруденции в развитие современной юридической терминологии.*

Ключевые слова*: юридическая терминология, узбекская юридическая терминология, интеграция права и языкознания, юрислингвистика, язык правовых норм, законодательная техника.*

Abstract. *This article analyzes the research work carried out since the formation of Uzbek legal terminology to the present day. All scientific research works are characterized by their uniqueness.*

A scientific discussion is made of the contribution of the work carried out on the scientific study of terminological units related to jurisprudence to the development of today's legal terminology.

Keywords: *legal terminology, Uzbek legal terminology, integration of law and linguistics, jurislinguistics, language of legal norms, legislative techniques.*

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonunlarning miqdori ko‘payib, ta’siri oshib borayotganligi yuridik terminologiyani yanada chuqurroq tadqiq qilish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi. Qolaversa, huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi har qanday hujjatning yuridik terminologiya asosida asosida shakllanishi hisobga olinsa, masalaning naqadar jiddiyligi oydinlashadi. Yuridik terminlarning mamlakat aholisining kundalik ijtimoiy faoliyatida muhim ekanligi ularning tadqiq tarixini tahlil qilish zarurligini ko‘rsatuvchi yana bir omildir.

Metodologiya. Ushbu maqola uchun ilmiy tadqiqotlar tavsifiy, qiyosiy hamda xronologik tahlil metodlari asosida tahlilga tortildi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Shu kunga qadar o‘zbek tilshunosligida yuridik terminologiya bilan bog‘liq muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Shunday tadqiqotlardan eng birinchilarini L.M.Boyko amalga oshirdi (1984). Mazkur tadqiqot bevosita yuridik terminlarni tadqiq qilishga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, qonun ijodkorligi texnikasining muhim xususiyatlari ochib berildi. Qayd etish lozimki, L.M.Boyko tadqiqoti sho‘rolar davrida amalga oshirilganligi tufayli unda mamlakatimiz qonunchiligi alohida emas, balki butun ittifoq miqyosida tahlilga tortilgan edi. Qonun aktlarini va O‘zbekiston SSR hukumatining qarorlari matnining tayyorlanish tartibi haqidagi fikrlar o‘tgan asrning so‘nggi choragida mamlakatimizda mavjud bo‘lgan yuridik terminlar haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Umuman, mazkur tadqiqotda qonun ijodkorligi texnikasi tushunchasi, uning xususiyatlari ochib berilgan. Dissertatsiyada qonun ijodkorligi texnikasi aniq me’yoriy hujjat, ya’ni dalolatnoma (akt) misolida izohlangan. Ilmiy ishni yuridik terminlar ham bilvosita tadqiq qilingan, deyishimiz mumkin. Zero, har qanday qonun, me’yoriy hujjat va uning matni haqida gap borar ekan, unda yuridik terminlar qo‘llanishi tabiiy holdir. Tadqiqotda qayd etilgan quyidagi fikrlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas: “Qonunchilik tili muayyan o‘ziga xosliklarga ega bo‘lsa-da, umumiste’mol birliklari bilan birxilliklarga ham ega” [2]. Tadqiqot huquqshunos tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, yuridik terminlarni ajratish, ularni tizimlashtirish borasida muhim ahamiyatga ega edi.

Yuridik soha terminlari tadqiqida M.X.Qosimovaning ilmiy ishi (1985) o‘ziga xos o‘ringa ega. Olima o‘z tadqiqotida yuridik terminlarni tizim sifatida o‘rgandi va ularning struktur xususiyatlarini ochib berdi [5]. Boshqa sohalarga doir terminlar singari yuridik terminlar ham struktur jihatdan umumtil birliklaridan farqlanadi. Chunki terminlar til tizimida struktur jihatdan murakkabligi bilan umumiste’mol so‘zlaridan ajralib turuvchi muayyan oziga xosliklarga ega. Aksariyat terminlar birikmali ekanligi, shu shaklda mustaqil atov birligi bo‘lib kelishi me’yoriy holat sanaladi. Chunki termin muayyan fan sohasiga doir aniq tushunchani ifodalashi zarur. Ba’zan bunday aniqlikka birgina so‘z bilan erishib bo‘lmaydi. Ya’ni birgina leksema terminologik birlik ifodalashi lozim bo‘lgan tushuncha mohiyatini ifodalab berolmaydi. Shunday o‘rinlarda birdan ortiq leksemadan iborat bo‘lgan atov birliklariga ehtiyoj tug‘iladi. M.X.Qosimova o‘z tadqiqotida terminlar tuzilishidagi shu kabi o‘zgachaliklarga diqqat qaratdi. Albatta, tahlil qilayotgan tadqiqotimiz ham mamlakatimizda amalda bo‘lgan terminlarni qamrab olardi. Ammo dissertatsion ishda to‘g‘ridan to‘g‘ri yuridik terminlar tadqiq qilinganligi bilan ahamiyatli edi.

Qonunlar va ularning til bilan zich bog‘liqligi L.A.Karimovaning tadqiqotida (1991) o‘z aksini topdi. Mazkur dissertatsiyada til haqidagi qonunlarning axloqiy va huquqiy omillari tahlilga tortildi [5]. Davlat tili haqidagi qonun endigina qabul qilingan, uning jamiyat hayotiga oson kirib borishini ta’minlashda L.A.Karimovaniki kabi tadqiqotlarning ahamiyati katta edi. Olima huquqshunos sifatida til haqidagi qonunlarning mamlakat aholisi ijtimoiy hayotida qanday rol o‘ynashi masalasini tekshirdi. L.A.Karimovaning o‘z ishida til haqidagi qonunlarning qabul qilinishidagi asoslarni ajratishi, xalqaro munosabatlarning til tufayli buzilishi mumkinligi masalasi, axloqiy vositalarning huquqiy munosabatlar bilan mushtarakligi, davlat tili, rasmiy til va xalqaro munosabatlar tili kabilarni

ajratib berishi ilmiy jihatdan nihoyatda muhim edi. Qonun matnlarini tayyorlash va bunda til birliklarini to‘g‘ri tanlash masalasi hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgam emas.

O‘zbek yuridik terminologiyasining mustaqillik davri tadqiqidagi yutuqlar borasida gap ketganda bevosita Sh.Ko‘chimovning xizmatlarini alohida e’tirof etib o‘tish lozim. Olim tom ma’noda yuridik terminologiya borasidagi izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqdi, deyishimiz mumkin. Olim o‘zining nomzodlik ishida O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining tilini tadqiq qildi. Istiqlolning dastlabki yillarida qonunlarimiz tilini tadqiq qilish, uni boshqa turdagi matnlardan ajratib turuvchi jihatlarni aniqlash o‘ta mas’uliyatli vazifa edi. Bunda mamlakatimizning mustaqil davlat sifatida shakllanishi, davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi kabi muhim voqealar o‘zbek qonunlari tilining ilmiy jihatdan o‘rganilishi uchun asos bo‘lganligi mavzuning dolzarbligini belgilab bergandi [6]. Har qanday qonunning muayyan huquqiy kuchga ega bo‘lishini hisobga olganda uning til va uslub jihatdan mukammalligi, ayni vaqtda sodda va tushunarli bo‘lishi qonun ijodkorligidagi asosiy vazifalardandir. Shu jihatdan Sh.Ko‘chimov nomzodlik ishida o‘zbek qonunchiligi uslubining alohida soha bo‘lib shakllanganishini o‘rganish, o‘zbek qonunlari matnining mustaqillikning dastlabki yillaridagi holati va ularni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilishni maqsad qilib qo‘ydi. Olim tadqiqot maqsadiga erishishda qonun tilining leksik-semantik, grammatik jihatlarini aniqlash, so‘z tanlash mezonini belgilash, leksik taraqqiyotini o‘rganish kabi vazifalarning bajarilishi orqali erishilishini qayd etadi [6]. Qayd etish lozimki, Sh.Ko‘chimov tadqiqotida bevosita yuridik terminlarga murojaat qilingan edi. Zero, qonun matnlarining yaratilishida aynan huqushunoslik sohasiga ixtisoslashgan terminlar asosiy o‘rin tutadi. Tahlil qilinayotgan tadqiqotda “O‘zbekiston Respublikasi Jimoyat kodeksi” va “O‘zbeksiton Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi” tadqiqot manbai sifatida tanlab olingani ham fikrimizni dalillaydi.

Sh.Ko‘chimov yuridik soha terminlari, huquqiy me’yorlar va ularning ifodalanishi masalasi haqidagi izlanishlarini davom ettirdi. 2004-yilda “Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ana shu izlanishlarning natijasi bo‘ldi. Tadqiqotda huquqiy me’yorlar va ularning o‘zbek tilida uslub va til jihatdan mukammal ifodalanish muammosi ko‘tarilgan va yechimlar taklif qilingan edi. Olim o‘zbek qonunchilik tili, uslubiyati, yuridik terminologiya masalalarini ham lingvistik, ham huquqiy aspektda ilmiy-nazariy tadqiq qilishga bel bog‘lar ekan, bunda til taraqqiyotida huquqning o‘rnini ko‘rsatish, huquqning rivojlanishida tilning qanday vazifalar bajarganligini qayd etish; qonun tilining dunyodagi holati tahlili asosida mamlakatimiz qonunlarining tili taraqqiyotini aniqlash; amaldagi qonunlarning lingvistik me’yorlarga mosligini o‘rganish; o‘zbek yuridik terminlarining tarixiy taraqqiyotini, ularning tasnifiy, shakl va mazmun birligi bilan bog‘liq muammolarini tahlil qilish, yagona ifoda shakllarini ishlab chiqish va barqarorlashtirish yuzasidan tavsiyalar berish kabi vazifalarni bajarish orqali ilmiy maqsadga erishish mumkinligni qayd etadi [7: 6]. Ta’kidlash lozimki, huquqiy me’yorlarni ifodalash haqida gap borar ekan, bunda bevosita yuridik terminlar tahlilga tortiladi. Chunki huquq normasi “davlat tomonidan belgilanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yurish-turish qoidasi” [8: 171] hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlarni aks ettiruvchi matnlarni huquqiy terminlar ishtirokisiz shakllantirish esa imkonsizdir. Tadqiqot uchun O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, o‘nlab kodekslari va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar tanlab olinganligi unda yuridik terminlarga jiddiy e’tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Umuman, Sh.Ko‘chimov o‘zbek tilida yuridik sohani tilshunoslik bilan bog‘lab o‘rgangan dastlabki olimlarimizdandir. Tilshunoslik va yurisprudensiya sohalarining mushtarakligi asosida qonun va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar matniga yondashish ularning tushunarli, sodda va aniq shakllanishiga yordam beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan huquqshunoslik sohasiga, shuningdek, tilshunoslik va huquqshunoslik sohalarining kesishgan o‘rinlarini tadqiq qilishga qaratilgan ishlar samarasi o‘laroq yuridik terminlarga o‘rganish obyekti sifatida qarash imkoni yuzaga keldi. G.Y.G‘ulomovaning 2005-yilda yozilgan “O‘zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti” mavzusidagi dissertatsiyasini shunday tadqiqotlar sirasiga qo‘shish mumkin. Tadqiqotchi 2000-yillarning boshiga kelib yuridik terminlarni tizimlashtirish, tartibga solish tilshunoslar oldida turgan muhim masala bo‘lganligini qayd etadi. O‘zbek tili yuridik terminologiyasini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish va

yuridik terminlarni tartibga solish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan maqsadga tadqiqotchi o‘zbek yuridik terminlari chegaralarini belgilash, mavzu guruhlarini aniqlashtirish, ular orasidagi leksik-semantik munosabatlarni tavsiflash orqali erishish mumkinligini qayd etadi [3]. Ta’kidlash lozimki, G.Y.G‘ulomova o‘zbek yuridik terminologiyasi birliklarini tasniflashda avvalgi tajribalarni (M.Qosimova, Sh.Ko‘chimov) umumlashtirdi. Keyingi davrda yaratilgan huquqshunoslik sohasiga doir adabiyotlar uchun yuridik terminlarning aynan shu tadqiqotdagi tasnifi metodologik asos vazifasini bajardi, deyishimiz mumkin. Umuman, G.Y.G‘ulomova yuridik terminlarni yettita katta guruhga ajratadi. Jumladan, *sud, prokuratura, advokatura, tribunal, militsiya* kabi leksemalarni “sudlov organlari” mavzuiy guruhiga kiritadi [3: 27]. Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, G.Y.G‘ulomovaning tadqiqoti yuridik terminlar tizimini aniqlash, ular orasidagi leksik-semantik munosabatlarning boshqa til birliklaridan farqli jihatlarini ochib berish nuqtayi nazaridan muhim edi. Yuridik terminlarning bir-biriga ta’sir qiluvchi va taqozo qiluvchi elementlardan iborat mikrotizim ekanligini dalillash ularning mohiyatini osonroq tushunish va tushuntirishni ta’minlaydi. Zero, yuridik terminlar va ular vositasida yaratiladigan huquqiy-me’yoriy hujjatlar umummajburiy xarakterda bo‘lganligi ba’zan ularni izohlashni, keng jamoatchilik ommasiga tushunarli shaklda yetkazishni talab qiladi. Shunday holatlarda yuridik terminlarning kichik-kichik guruhlar vositasida yagona sistemada birlashishi ularni o‘rganish jarayonini karrasiga osonlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan ham G.Y.G‘ulomovaning tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Muayyan soha terminlari tadqiqi haqida gap borar ekan, ularning dunyo ilm-fani bilan qiyosiy o‘rganilishi tizimlashtirish, ilmiy mohiyatini ochib berishda yaxshi samara berishini unutmaslik lozim. O‘zbek tilshunosligida ham shunday tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, tadqiqotchi N.Jumaniyozova ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlarini ochib berdi [1: 71]. Bu turdagi tadqiqotlar ikki tildagi yuridik terminlarining mohiyatini chog‘ishtirish, ular orasidagi umumiyliklar va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Aniqlangan o‘xshash va farqli jihatlarning tahlili qonun ijodkorligida samarali usullarni tanlash imkonini beradi. Masalan, fe’l, sifat, son, olmosh, ravish, yuklama va ko‘makchilar o‘zbek tilidagi yuridik nutqda muhim o‘rin tutishi va ularning presuppozitsiyaga yo‘l ochishi haqidagi fikrlar o‘zbek qonun tilini, yuridik terminologiyani tartiblashtirishda qimmatlidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida tahlil qilingan tadqiqotlar barchasi o‘zbek yuridik terminologiyasining bugungi taraqqiy holati uchun asos va hissa bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbek yuridik terminologiyasining mustaqillik davri tadqiqidagi muvaffaqiyatlar esa bevosita olim Sh.Ko‘chimovning nomi va tadqiqotlari bilan aloqador ekanligini ta’kidlash o‘rinli. Yuridik terminologiyaning rivoji uchun amalga oshiriladigan har qanday nazariy va amaliy ishlar yuqoridagi ishlarga tayangan holda olib borilishi samaradorlik oshishiga xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jumaniyozova N. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik diskursning pragmalingvistik xususiyatlari: Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – 171 b.

2. Бойко Л.М. Законодательная техника (теория и практика). Автореф. канд. юрид. наук. – Ташкент, 1984. – 25 б.

3. Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 168 б.

4. Каримова Л.А. Правовые и нравственные аспекты законов о языке. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент, 1991

5. Касимова М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 21 б.

6. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили: Филол. фанл. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1995. – 29 б.

7. Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил): Филол. фанл. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004. – Б.6. – 46 б.

8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдли, 11-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. 389 б.

UO’K 82

O‘ZBEK ROMANCHILIGIDAGI BUGUNGI KUNDAGI IZLANISHLARNING IJOBIY SAMARASI

F.I.Qurbonova, v/b. dots., PhD, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon va zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy modifikatsiya hodisasining o‘rganilish usullari, bunga doir nazariy xulosalarni umumlashtirish, shu asosda o‘zbek romanchiligida modifikatsion jarayonlarning mavjudligi estetik ehtiyoj ekanligini ko‘rsatib berish. Roman poetikasini tushunish va tushuntirishda yuqoridagi jihatlarni e’tiborda tutilishi lozim. Bayon qilingan fikr-qarashlar badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik, xususan milliy romanshunoslikka daxldor talay individual jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *roman kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar ko‘lami, uslub, mavzu, detal, badiiy modifikatsiya.*

Аннотация. *В данной статье представлены методы изучения феномена художественной модификации в мировом и современном узбекском литературоведении, обобщены теоретические выводы по этому поводу и на этой основе показано, что существование процессов модификации в узбекских романах является эстетической потребностью. Вышеперечисленные аспекты следует учитывать при понимании и объяснении поэтики романа. Представленные идеи и взгляды свидетельствуют о существовании многих индивидуальных аспектов, связанных с художественной литературой и литературоведением, в частности, с национальным романоведением.*

Ключевые слова: *композиция романа, сюжет, круг образов, стиль, тема, деталь, художественная модификация.*

Abstract. *This article presents methods for studying the phenomenon of artistic modification in world and modern Uzbek literary studies, summarizes theoretical conclusions on this, and on this basis shows that the existence of modification processes in Uzbek novels is an aesthetic need. The above aspects should be taken into account when understanding and explaining the poetics of the novel. The presented ideas and views indicate the existence of many individual aspects related to fiction and literary studies, in particular, national novel studies.*

Keywords: *novel composition, plot, range of images, style, theme, detail, artistic modification.*

Chorak asr davomida tarix va inson munosabatlarini idrok va ifoda etish tamoyillari tamomila o‘zgardi. Badiiy haqiqat ijtimoiy-siyosiy hayot tasviridan ustun qo‘yilib, Arastu davridayoq tasdig‘ini topgan mavqeini egalladi. Endilikda, personaj aksariyat sho‘ro romanlarida kuzatilganidek, voqelikka ilova emas, balki o‘z o‘y-xayol va xatti-harakati bilan tirik inson sifatida xolis tasvirlana boshladi.

Boshqacha aytganda, alohida shaxs borlig‘i ijtimoiy voqelikdan ko‘ra murakkabroq hodisa va uni tushunish va izohlash muhim ekani poetik idrok etila boshladi. Globallashuv davri shiddati ta’sirida o‘z milliy qiyofasidan ayrilib qolmaslikka intilayotgan kishilar ruhiy intellektual olami, tuyg‘ular dunyosini ko‘rsatishga ehtiyoj ortdi. Nuqul kitobxonga o‘rnak bo‘lish va unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish missiyasini tashuvchi, ammo o‘z shaxsiy hayoti, insoniy tuyg‘u-kechinmalaridan mahrum trafaret adabiy qahramonlar inkor etildi.

O‘zbek adabiyotida 90-yillardan keyin N.Eshonqul, L.Bo‘rixon, T.Rustamov, U.Hamdamlardan iborat yangi bir yozuvchilar avlodi kirib keldi. Bu avlod jahon adabiyotida ro‘y berayotgan yangilanish jarayonlari bilan birga qadam tashlab, milliy nasrimiz an’analarini yangiladilar. Milliy adabiyotga modernistik, postmodernistik tamoyillarni, yangilangan janr, obraz, uslub va kompozitsion shakllarni olib kirdilar. “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyati ko‘zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, boy madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni hozirlaymiz”. Isajon Sulton romanlari ham aynan shu yangi avlod ijodiy doirasiga tegishlidir. Bunday yangilanayotgan nasr namunalarini badiiy modifikatsiya muammosi yuzasidan o‘rganish, milliy

adabiyotshunosligimizni yangi nazariy xulosalar bilan boyitishi, bugungi adabiy jarayon xususiyatlarini yoritib berishi nuqtai nazaridan dolzarblik kasb etadi.[1,164-b].

Zotan, adabiyot hamisha go‘zallik, ezgulik va nurafshon hislarni tarannum etish, ilohiy ruh ifodachisi bo‘lishni o‘zining ezgu missiyasi deb bilgan. Biz adabiy-ma'naviy zaxirasi yuksak, ma'naviy tahdid va iste'dodsizlikka yon bosmagan ulug‘ xalqmiz. Milliy adabiyotimiz nafaqat mazmun zalvori, balki shakliy-uslubiy go‘zalligi, ezgulik hamda nafosat ifodasiga ehtiyojmand kitobxonlari bilan barcha davrlar talotumlaridan omon chiqib, insoniyat estetik xazinasini boyita olgan.

I.Sulton romanlarida badiiy modifikatsiya ko‘rinishlari haqida fikr yuritishdan oldin shuni aytish maqsadga muvofiqki, uning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik” deya nomlangan uch romani o‘zbek romanchiligining birinchi obida sanalgan turli namunalari, xilma-xil modifikatsion shakllaridan, shu bilan birgalikda, o‘zaro ham muayyan farqlanishlarga ega. Yana bir muhim jihat, I.Sultonning, umuman, romanchilikka kirib kelishi sira ham tasodifiy emas.[2,258-b]. U dastlabki hikoyalarini 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida yozgan bo‘lsa, faqat yangi asrning 10-yillariga kelibgina birinchi romanini taqdim etdi. Ammo I.Sultonning birinchi hikoyalaridayoq epik qamrovdorlik, badiiy tasvir va uslub yangilanishi, kutilmagan syujetlar, motivlar, detallar, obrazlar originalligiga intilish ijod laboratoriyasiga xos individual sifat darajasida ko‘zga tashlangan edi. Shuning bilan birgalikda, “Munojot”, “Qaydasan jannat”, “Bog‘i Eram hikoyalari”, “Organik proza”, “Anorganik proza” tarzida turkumlangan qissa hamda hikoyalar galereyasi I.Sultonning roman sari bo‘lgan yigirma yildan ortiq ijodiy yo‘li salmoqli ekanligini ko‘rsatadi. [3,30-b].

“Boqiy darbadar” romaniga atab maxsus tadqiqot yozgan adabiy tanqidchi R.Rahmat I.Sulton laboratoriyasiga xos bunday ijodiy dinamikani to‘g‘ri va nozik ilg‘agan. “Boqiy darbadar” tasodif emasligini yozuvchi ijod biografiyasidan olingan aniq bir fakt bilan asoslagan, deb o‘ylaymiz. Tanqidchi yozadi: “Bir vaqtlar “Munojot” qissasidan keltirgan iqtibosimda mana bu fikr ham bor edi: Abad yoshlik xuddi abad qarilik singari mazmunsiz emasmi?[4,9-b].

Bu fikr Isajonning ijod dunyosidagi ildizi chuqur bir maysa edi, bu maysa eson-omon kattarib, ulkan daraxtga aylandi. Yozuvchi keyinchalik yozgan katta asarlari, xususan, “Boqiy darbadar” romanida abadiy yoshlik, abadiy qarilik mavzusiga keng ko‘lamda to‘xtalgan. Isajonning nazarida abadiy yoshlik, aslida, abadiy qarilikdir. Xalq dardi, millatning tashvishlari, oddiy mehnatkash odamlarning hayotini chuqur bilmay turib, umuminsoniylik, oliyjanob tuyg‘ular haqida gapirish hech qachon o‘zini oqlamaydi. Inson qalbiga doir asarlargina odamlar yuragidan joy olishga qodir. “Adabiyotning shodligi ham, tashvishi ham “men”ning quvonch-u alamlari bilan birga – shular orasida yashaydi. Munaqqid “men”i adabiy hodisalarimiz uchun bamisoli keng maydonga aylanadi. Qahramonni oq yoki qora rangda emas, inson sifatida tasvirlaydi, shuning uchun uning asarlarida qahramonlar xato qiladi, nimanidir tushunmaydi, ojizlik qiladi... bularning barchasi hayotga real munosabatdan kelib chiqadi, natijada asar qahramonlari kitobxon bilan tezda til topishadi. Yozuvchi o‘zligini tanishga urinayotgan insonni hayot yo‘llarining turli chorraha va kesimlarida, turli holatlarda tasvirlar ekan, ularni oqlash va qoralash yo‘lidan bormaydi, voqelikka aralashmasdan kuzatuvchi, gohida roviylikni ma`qul ko‘radi. eng muhimi, yashayotgan har bir inson turfa xil fikrlardir, eng muhimi, ana shu fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligida. Insonlarning kelajagi ularning fikrlariga bog‘liq. Negaki, fikr xatti-harakatga aylanadi, har bir inson o‘z harakatlari uchun taqdirlanadi yo, aksincha, jazoga tortiladi. Hamma narsaning asosida fikr yotadi. Yozuvchi shuning uchun insonnning ichki olamidagi fikrlar jangini, uning talotumlarini, topish va yo‘qotishlarini odatda, bir inson taqdirini butun jamiyat bilan uyg‘unlikda aks ettiradi. Uning yozishicha: “O‘z “men”ini tushunib etish insoniyatni halokatdan asrab qoluvchi buyuk go‘zallikni anglashga va his qilishga olib keladi. So‘z san`ati ustalari bu muqaddas vazifani amalga oshiruvchilar safining oldida boradilar”. Zamonaviy o‘zbek nasri taraqqiyotining yutug‘i sanalgan mashxur asarlarning qahramonlari o‘zining ichki ziddiyatlarga boyligi, iymon-e`tiqodi, o‘z-o‘zi bilan kechadigan kurashda matonat, irodasi bilan ajralib turadi.

Turli uslubiy-g‘oyaviy tajribalarni dadil qo‘llayotgan bu avlod, milliy nasrda jiddiy va e`tirofga loyiq natijalarga erishmoqdalar. Bu holat kichik janrlarda, ayniqsa kuzatiladi. Mazmun va shakldagi

o‘xshashlik, an`anaviylikdan chekinish, ruhiy-psixologik tahlilning turli usullarini qo‘llash o‘z samarasini bermoqda.

Professor A.Rasulov “Boqiy darbadar” romani haqida shunday fikrni aytadi: “O‘tgan yuz yilning ulkan iste’dodlarning asarlari umuminsoniy G‘OYalar tasvirlangani boisgina insoniyat nazarida qadru qiymatga ega bo‘lgan edi. Adabiyotimizning keyingi avlodi asarlarida ana shunday umuminsoniy G‘OYa sezila boshlagani quvonarlidir. “Boqiy darbadar” romanida Isajon butun insoniyatning peshonasiga darbadar degan tamg‘a bosgan, Tangri taolo yaratgan hudud-chegaralardan chiqishga uringanlar Etikdo‘z qismati kabi, qarg‘ish oqibatida olamda bemaqsad va mangu daydib-tentirab yurish ekanini (va mangu bo‘lmagan shu yorug‘ olamning oxirida yana mudhishroq bir hukmga ro‘para kelishini) ko‘rsatgan bo‘lsa, “Ozod” romanida yozuvchi “Dunyoning yuksalishi behuda, insonning o‘zining ruhiy yuksalishi muhim” degan g‘oyani ilgari suradi”.

Adabiyotshunos H.Karimov istiqlol davri muammolarining inson tabiati, ma`naviyati, ruhiyatidagi badiiy ifodasi to‘g‘risida fikr yuritar ekan, absurd odam, mistitsizm, ruhiy tanazzul yoki uning o‘limi, nafsga qurbon vujudda ruhning chekinishiga alohida e’tibor qaratib shunday yozadi: “Yana shunisi muhimki, ular bu illatlarni jamiyat muhitga bog‘lashmaydi, bunga shular aybdor deb bilishmaydi, balki barchasiga insonning o‘zi sababchi deb qarashadi. Ya`ni iymon va e`tiqodning susayishi deb biladi”.

Roman kompozitsiyasi mana shu uchta syujet liniyasini umumlashtirish, yozuvchining “Boqiy Darbadar” haqidagi yirik falsafasini badiiy ifodalashga qaratilgan. Boshqacharoq aytganda, Boqiy darbadar falsafasi roman markazidan turli syujet liniyalarini biriktiruvchi qizil ip bo‘lib o‘tgan. Kompozitsiyaning asosi – fikr tashlash (tezis), unga boshqa bir fikrni qarshi qo‘yish (antitezis) va xulosaga olib kelish (sintez)dan iborat mazmuniy tizimi ham muallifning Boqiy Darbadar degan badiiy-falsafiy umumlashmasidan kelib chiqqan. Asar mohiyatiga yovuzlik, ezgulik kurashining pirovard-oqibati Xudoga qaytish degan badiiy g‘oya-konsepsiya qo‘yilgan. Shunday ekan, o‘zbek romanchiligidagi bugungi izlanishlar o‘z ijobiy samaralarini berishi aniq. Romanchilikdagi izlanishlar muammosi adabiy tanqidchilikda muayyan bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi.[5,98-b].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015. – B. 164.

2.Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan.Roman,qissa va hikoyalar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.-Toshkent. 2018.258-bet.

3.Sulton I. Genetik. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2018. 30-bet.

4.Sulton I. Ozod. TRoman va hikoyalar. – Toshkent. Sharq, 2012. 9-bet.

5. To‘rayev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001. – 98b.

UDC: 801.81

THE SYMBOLISM OF PRECIOUS STONES IN SHAKESPEARE’S AND NAVOI’S WORKS: A COMPARATIVE ANALYSIS

D.A. Radjabova, PhD, associate professor, Tashkent University of Information Technologies, Tashkent

Annotatsiya. *Qimmatbaho toshlar ming yillar davomida inson tasavvurini o‘ziga rom etib, san’at va adabiyotda qudrat, go‘zallik, boqiy haqiqat timsoli bo‘lib xizmat qilgan. Bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki madaniy muhitning buyuk vakillari – Uilyam Shekspir va Alisher Navoiy o‘z ijodlarida bu ramzlarni tez-tez qo‘llaganlar. Ushbu maqolada bu ikki adabiyot darg‘asining qimmatbaho toshlardan foydalanishdagi o‘xshash va farqli jihatlari, ularning madaniy, falsafiy va badiiy maqsadlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qimmatbaho toshlar ramzi, madaniy, falsafiy va badiiy maqsadlar, o‘xshash va farqli jihatlar, Uilyam Shekspir, Alisher Navoiy*

Аннотация*. Драгоценные камни на протяжении тысячелетий очаровывали человеческое воображение, служа символами силы, красоты и вечных истин в искусстве и литературе. Два самых известных литературных деятеля из совершенно разных культурных*

контекстов, Уильям Шекспир и Алишер Навои, часто использовали эти символы в своих произведениях. В данной статье рассматриваются сходства и различия в том, как эти два литературных гиганта использовали драгоценные камни, раскрывая их культурные, философские и художественные намерения.

Ключевые слова: *символ драгоценных камней, культурные, философские и художественные цели, сходства и различия, Уильям Шекспир, Алишер Навои*

Abstract. *Precious stones have captivated human imagination for millennia, serving as symbols of power, beauty, and eternal truths in art and literature. Two of the most celebrated literary figures from vastly different cultural contexts, William Shakespeare and Alisher Navoi, frequently employed these symbols in their works. This article explores the similarities and differences in how these two literary giants utilized precious stones, revealing their cultural, philosophical, and artistic intentions.*

Key words: *symbolism of precious stones, cultural, philosophical, and artistic purposes, similarities and differences, William Shakespeare, Alisher Navoi*

Introduction. William Shakespeare (1564–1616), an English playwright and poet, is a cornerstone of Western literature. Writing during the English Renaissance, his works often reflect themes of humanism, ambition, love, and the passage of time. Shakespeare's metaphors frequently draw from the natural world and material wealth, including precious stones, to symbolize beauty, value, and transience. During Shakespeare's time, precious stones were symbols of social status, wealth, and royal power. Diamonds, rubies, and pearls were commonly associated with nobility, romantic ideals, and physical beauty.

Alisher Navoi (1441–1501), a prominent poet, philosopher, and statesman of the Timurid Empire, is considered one of the most influential figures in Central Asian literature. His use of precious stones often serves as a metaphor for spiritual refinement and eternal truths. In Navoi's era, precious stones such as turquoise, carnelian, and lapis lazuli held profound cultural and spiritual significance. Rooted in Persian and Islamic traditions, these stones were valued not only for their beauty but also for their symbolic meanings. For instance, turquoise represented protection, and carnelian was associated with courage and spiritual vitality.

Materials and methods. Shakespeare. During the Renaissance, precious stones were esteemed not only for their aesthetic appeal but also for their purported magical and medicinal properties. Believed to influence human emotions, ward off evil, and enhance virtues, gems were deeply embedded in the cultural and intellectual fabric of the time. Precious stones were often featured in Renaissance art, literature, and regal ceremonies, symbolizing divine favor and eternal power. The crowns and scepters of monarchs were encrusted with diamonds, rubies, and emeralds, serving as visual reminders of their authority and their connection to the divine. Shakespeare likely drew inspiration from these associations, embedding them within his characters' dialogues and the symbolic framework of his plays.

Diamonds, known for their brilliance and durability, often symbolize virtue and constancy in Shakespeare's works. In "*The Winter's Tale"*, Hermione's steadfastness is likened to a diamond: "No stone is half so dear"[1]. Here, the diamond becomes a metaphor for unyielding fidelity, underscoring Hermione's innocence and resilience in the face of false accusations.

In "*All's Well That Ends Well"[2]*, the diamond also represents reconciliation and renewal. The King, in granting Helena's wish, offers her a diamond, signaling a bond of trust and the restoration of harmony. These instances highlight Shakespeare's nuanced use of diamonds to reflect emotional and moral steadfastness. Rubies, with their deep red hue, were associated with love, passion, and vitality in Renaissance symbolism. Shakespeare employs this imagery to heighten emotional intensity in his works. In *Twelfth Night*, Viola's enduring love for Orsino and her readiness to serve him evoke the ruby's association with sacrifice and devotion [3].

Moreover, rubies were believed to protect their wearers from harm and to symbolize the life force itself. In Shakespeare's sonnets, references to red stones often intertwine with themes of beauty and mortality, accentuating the fleeting yet intense nature of human emotions. The metaphor of rubies extends to themes of blood and sacrifice in tragedies like "*Macbeth"[4]*. Lady Macbeth's invocation

of blood imagery, while not explicitly tied to rubies, resonates with the stone's associations, enriching the narrative's exploration of ambition and guilt.

Pearls frequently appear in Shakespeare's texts as symbols of purity, beauty, and unattainable perfection. In Othello, Desdemona's innocence and worth are likened to a pearl: "Of one whose hand, / Like the base Indian, threw a pearl away / Richer than all his tribe." [5]. This imagery not only underscores Desdemona's value but also serves as a poignant commentary on Othello's tragic loss.

Navoi. In Navoi's poetry, stones often symbolize resilience and endurance. This imagery aligns with the poet's broader philosophical outlook, where patience and perseverance are necessary virtues on the path to spiritual enlightenment. For instance, in his *Khamsa* (Quintet) [6], stones are frequently used metaphorically to represent the obstacles and trials one must endure in life's journey. Just as stones withstand the ravages of time and natural forces, Navoi's characters often endure hardships, emerging wiser and more refined.

Navoi's works also feature precious stones, such as rubies, emeralds, and diamonds, which are imbued with symbolic significance. These gems often represent divine beauty, purity, and perfection. For instance, in *Layli and Majnun [7]*, Navoi describes Layli's beauty in terms of radiant gems, suggesting not only her physical allure but also her spiritual purity. The brilliance of these stones often serves as a metaphor for enlightenment, wisdom, and the divine light that guides the seeker.

Stones in Navoi's works are frequently associated with the mystical process of transformation. Alchemy, a prevalent theme in medieval literature, finds resonance in Navoi's verses where base stones are metaphorically transformed into gold or precious gems through spiritual refinement. This imagery reflects Sufi teachings, which emphasize the transformation of the self from a state of ignorance to one of spiritual awakening. In this context, the stone becomes a metaphor for the human soul—unrefined yet full of potential for greatness [8].

Navoi also uses stones to represent stability and wisdom. In his philosophical musings, stones symbolize the enduring truths of existence and the unchanging nature of divine wisdom. For example, in his didactic works, Navoi likens the steadfastness of a wise person to the immovability of a mountain stone. This comparison underscores the value he places on constancy and groundedness in the pursuit of knowledge.

Beyond their symbolic meanings, stones in Navoi's works are celebrated for their aesthetic qualities. His vivid descriptions of jeweled ornaments, intricately carved stones, and richly adorned palaces reflect the luxurious culture of the Timurid court. These descriptions are not merely decorative; they serve to evoke an atmosphere of splendor and sophistication, highlighting the cultural and artistic achievements of Navoi's era.

Results and discussions.

Similarities in their Use of Precious Stones

1. Symbolism of Value and Beauty

Both Shakespeare and Navoi use precious stones as metaphors for value and beauty.

• Shakespeare, in Sonnet 65, writes, "Nor gates of steel so strong, but Time decays." Here, Shakespeare laments the impermanence of beauty, likening it to the enduring allure of precious gems.

• In his ghazals, Navoi often describes the beloved's eyes or lips as jewels, symbolizing their transcendent beauty and worth.

2. Metaphors for Human Qualities

Precious stones in both authors' works often represent human virtues or emotions.

• In Shakespeare's works gems such as rubies and diamonds are used to symbolize passion, loyalty, and steadfastness. For example, in "The Merchant of Venice", a turquoise ring signifies love and fidelity.

• In Navoi's works, gemstones are metaphors for inner purity and spiritual enlightenment. A flawless gem might represent a soul untainted by worldly desires.

3. Markers of Status and Power

In both traditions, precious stones denote social hierarchy and power.

• In Shakespeare's "Macbeth", the use of crowns and jewels highlights the grandeur and eventual downfall of kingship.

• Navoi's narratives often include rulers adorned with gems, symbolizing their divine mandate and earthly authority.

Differences in Their Use of Precious Stones

Philosophical and Spiritual Context

• Rooted in Renaissance humanism, Shakespeare's treatment of precious stones often underscores human desires and frailties. Gems reflect materialism, ambition, or romantic ideals.

• As a Sufi poet, Navoi's gems often symbolize the divine. For example, a pearl might represent hidden wisdom, emphasizing spiritual over material wealth.

Specific Stones and Their Meanings

• In Shakespeare's works common stones include diamonds, pearls, and rubies, reflecting their prominence in European trade and aesthetics.

Pearls often symbolize purity and beauty (e.g., *Othello*).

Diamonds convey strength and constancy.

• In Navoi's works stones like turquoise, carnelian, and lapis lazuli carry culturally specific meanings.

- Turquoise signifies protection and good fortune.
- Carnelian represents courage and spiritual energy.

1. Thematic Focus

• Gems often appear in romantic and dramatic contexts, illustrating love, ambition, or mortality in Shakespeare's works. For example, in "*Antony and Cleopatra*, Cleopatra's jewels symbolize her allure and power.

• In Navoi's works gems are integral to mystical and moral teachings. They embody eternal truths and guide the soul toward enlightenment. For example: Navoi might describe a ruby as the burning love for the divine, unquenchable and eternal.

2. *Tone and Intent*

• Shakespeare's tone often oscillates between admiration and critique. Gems may highlight the fleeting nature of beauty or the corrupting influence of wealth.

• Navoi's tone is predominantly reverent and didactic, using gems to inspire spiritual reflection and moral improvement.

Conclusion. Shakespeare and Navoi, though separated by geography, culture, and time, share a fascination with the symbolism of precious stones. While Shakespeare uses gems to explore themes of beauty, love, and human frailty within a Renaissance context, Navoi imbues them with spiritual and moral significance, reflecting Sufi ideals. Together, their works highlight the universal appeal of precious stones as symbols of value, permanence, and transcendence. By examining these parallels and distinctions, we gain a deeper appreciation for how literature across cultures uses shared symbols to address fundamental human concerns, bridging the material and the metaphysical.

REFERENCES:

1. Shakespeare W. The Winter's Tale. – London: Cambridge University Press, 2007. – 306 p.
2. Shakespeare W. All's Well That Ends Well. – New York: Simon & Schuster, 2006. – 336 p.
3. Shakespeare W. Twelfth Night. – New York: Simon and Schuster, 2019. – 336p.
4. Shakespeare W. Macbeth. – London: Cambridge University Press, 1997. – P. 113
5. Shakespeare W. Othello. – London: Cambridge University Press, 2011. – P.148.
6. Alisher Navoi. Khamsa. – Tashkent: Yangi asr avlodi,2012. – 428 p.
7. Alisher Navoi. Layli va Majnun. – Tashkent: Yangi asr avlodi,2009. – 64 p.
8. Safa, Z. The Poetry of Alisher Navoi: A Cultural Perspective. – UNESCO Publishing, 2012.

UO'K 808.5

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA VATAN TALQINI

F.A. Rahmataliyeva, talaba, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid badiiy mahorati tahlil etilgan bo'lib, shoir she'riyatida vatan mavzusining ifodasi talqinlari yoritilgan. Shoir ijodiga xos badiiyat masalalari she'rlari tahlili orqali ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *mavzu, lirika, fikr va tuyg'u, obraz, badiiy mahorat.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественное мастерство народного поэта Узбекистана Сирожиддина Саййида, освещаются интерпретации выражения темы родины в поэзии поэта. Вопросы художественного творчества, присущие творчеству поэта, раскрываются посредством анализа его стихотворений.*

Ключевые слова*: тема, лирика, мысль и чувство, образ, художественное мастерство.*

Abstract*. This article analyzes the artistic skill of the People's Poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid, and highlights the interpretations of the expression of the theme of the homeland in the poet's poetry. The issues of artistic creativity inherent in the poet's work are revealed through the analysis of his poems.*

Key words*: theme, lyrics, thought and feeling, image, artistic skill.*

Kirish. Vatanga bo‘lgan muhabbat inson tuyg‘ulari orasida eng mo‘tabar va azizidir. Chunki u insonning ilk yig‘isi, kulgisiga guvoh bo‘lgan, unib o‘sishi uchun zamin bo‘lgan muqaddas qadamjodir. Ana shunday mehrli, tuprog‘ida unib-o‘sgan yurtni madh etib she’r yozmagan shoir bo‘lmasa kerak. "Ota yurt dardiga ko‘ksini makon qilgan" shoirlarimizdan biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi Sirojiddin Sayyiddir. Shoir o‘z she’rlarida Vatanini madh etar ekan, u bilan faxrlanishini yashirmaydi, balki baralla aytishni, butun olamga madh etishni xohlaydi. Shoir Axramqul Karim shunday deydi: "Men Sirojiddin tug‘ilgan yerda bo‘lganman. Sariosiyoning purviqor tog‘lari, To‘polon daryoning etagida joylashgan Kundajuvoz qishlog‘i havosi, tabiatining o‘zi bir sherdek. Sirojiddinning fitratida she’rni uyg‘otgan mana shu go‘zallik deb o‘ylayman". Darhaqiqat, Surxondaryoning so‘lim o‘lkasida tug‘ilgan shoir she’riyatida mavjud barcha go‘zalliklar ona tabiat va ota yurt jilosidan ilhomlanib yaratilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Asosiy qism. Shoirning "Vatanni o‘rganish" she’rini tahlilga tortadigan bo‘lsak, unda Vataani anglash, avvalo, onani anglashdan boshlanishi aytiladi. Darhaqiqat, ona va vatan tushunchalari o‘zaro hamohangdir, biri ikkinchisi uchun tirgakdir. She’rda aytilishicha, ona qo‘lidagi, yuzidagi har bir chiziq, ajin uning hayot yo‘li haqida xabar berib tursa, Vatanning ham har qarich past-baland yerlari uning shonli kechmishidan dalolat beradi. Chiziqlar misoli bir xat bo‘lib o‘qiguvchini o‘tmish hodisalaridan xabardor etadi:

Shu xatlarda ko‘rgandim ilk Vatanni,
O‘z onamdan o‘rgandim men Vatanni.

Shoir Axtamqul Karim shunday deydi: "Sirojiddin Sayyidning ijodga, adabiyotga kirib kelishiga eng birinchi sabab uning onasidir. Abdulla Oripov o‘zining "Tinchlik" she’rida Sirojiddinning onasi haqida yozadi:

Samolyot guvillar, yo‘lovchilar to
Intiq manzillarga tezroq yetsin deb,
Sariosiyolik tabarruk momo
Kulcha jo‘natadi menga yesin deb".

Haqiqatan shoirning shoir bo‘lishida, avvalo, onasi, so‘ngra el-yurti bergan ilhom muhim ahamiyatga ega.

Shoir she’rlarida boshidan ne turli sitamlar, ranj-u ozorlar o‘tsa ham hamisha Vatan yodi unga taskin beruvchi kuch ekanligini, uni kuylamoq o‘zgacha faxr baxsh etishini aytadi.

Dil porasi, ko‘z qorasi sen o‘zingdirsan,
Mening ko‘nglim sen aslida, sen ko‘zimdirsan.
Tomirimda tomir yoygan ilk so‘zimdirsan,
Ilk og‘rig‘im, ilk yomg‘irim, naysonim, Vatan.

Shoir "Vatan" she’rida qaldirg‘och obraziga e’tibor qaratadi. Yurti tuprog‘ini og‘zida tashib ko‘kka ko‘targan, unda tinchlik ramzi bo‘lgan uya qurgan bu qush unga Vatanni ardoqlashni o‘rgatadi:

Beshigimni tebratgandir qaldirg‘ochlaring,
Oy-u quyosh ko‘rpa solgan ayvonim Vatan.

She’rning davomida o‘zbek naqshlari barcha kishan-bandlardan ozod bo‘lgani, yuragiga Naqshbanddan xatlar olgani haqida fikrlarga duch kelamiz, bu satrlar orqali hurlikka erishgan o‘zbek

xalqiga milliyligi, din-etiqodi va muqaddas so‘z erkinligiga erishganiga ishora mavjud. Shoir zalvorli kechmishga ega yurtiga nazar tashlar ekan, o‘zini bir nasim, epkinga qiyoslaydi. Vatanni bog‘ deb ataydigan bo‘lsak unda esgan bir shabboda, so‘qmoqlarida bir xas ekanligini aytadi. Bu bilan shoir "men ham Vatanning bir bo‘lagiman" deya faxr tuyadi.

Shoirning"Ilinj" sherini tahlilga tortamiz:

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,
Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan
Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar
Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan.

Mazkur she'rda Vatanini zar yoki biror foyda uchun emas chin ko‘ngildan sevgan inson obrazi mavjud. Qahramon Vatanini gardlari bilan bor holicha qabul qilish oliymaqom ish ekanligini ifodalaydi. Yuqorida shoir o‘zini nasimga o‘xshatganining guvohi bo‘ldik.

Bu she’rda ham bir qo‘shiq bo‘lib, nasimga aylanib yurtining olis kechmishi, dardlaridan so‘ylashi aks etgan. Ulug‘ bobolar mozori yonida bir xas bo‘lib o‘tishni istashi bayon etilgan. Bundan ko‘rinadiki, Sirojiddin Sayyid shoir sifatida Vatanini bor bo‘yicha butun qalbi bilan yaxshi ko‘radi, uning tuprog‘i, har bir xas-xazoni, yaprog‘ini ko‘ziga surtadi. Ota-bobolari qadamjolari, jondan aziz momosi ekkan rayhonlar uchun jamiyki borlig‘ini bag‘ishlaydi. Quyidagi she’rda ushbu fikrlarimizga isbot topamiz:

Qir ustida yonboshlagan bobom chaylasi,
Bu dunyoda kimlarningdir orzu-havasi.
Dimog‘imda — yulduz isi,shabnamlar isi,
Momom ekib ketgan kashnich, rayhonim, Vatan.

Shoir ushbu she’rini " Mening borim sen bilandir, yo‘g‘im sen bilan, Katta yo‘lga chiqqan karvonim Vatan" deya yakunlaydi. Albatta, Vatanning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, unda tug‘ilib, unib-o‘sgan har bir inson uni ardoqlashi, ravnaqi uchun kurashishi shart. Shunday kimsalar ham borki, qayerdan foyda olsa o‘sha yerni vatan bilib ketadi. Shoir esa yurtga chinakam muhabbatli inson obrazini yaratdi. U har qanday vaziyatda, borlikda ham, yo‘qlikda ham yurtini suyab turadi. Haqiqiy yurt sevgisi ana shunda ko‘zga tashlanadi.

Sirojiddin Sayyid ijodida Bobur shaxsi alohida talqin etiladi. Shoir Boburning timsolida haqiqiy Vatan kuychisi va kuyunchagini ko‘radi. Yillardir yurtidan uzoqda - g‘urbatda umr o‘tkazgan shoh va shoirning dardlarini his qilib dildosh sifatida ko‘radi. Mazkur xayrixohlikdan ko‘plab sohir she’rlar, "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" nomli doston dunyo yuzini ko‘rdi. Dostonda Bobur shaxsi vatanparvarlik va fidoyilik, cheksiz yurt muhabbatiga ega inson sifatida tasvirlanadi.

Quyidagi parchada Boburning g‘urbatdagi mashaqqatlaridan iztirobga tushgan shoir ruhi mujassamdir:

Giyohlar bir g‘arib, og‘ochlar hazin,
Bunda rangu bo‘yu ifor o‘zgacha.
Meni keltirmishdir g‘urbat to‘zoni,
Bunda yuzimdagi g‘ubor o‘zgacha.

Yani, inson o‘z yurtidan olisda bo‘lgan chog‘da hamma narsa unga uyini, yurtini, jondan aziz go‘shasini eslatadi, lekin, afsuski, hech biri yurtidagi kabi bo‘lmaydi. She’rda ham aynan shu holat aks etganini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Sirojiddin Sayyid portikasida Vatan mavzusi salmoqli o‘rin egallaydi. Shoir she’rlari xalqona uslubda sodda, ravon tarzda yoziladi va teran ma’no kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sirojiddin S. So‘z yo‘li. Ikki jildlik tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Sharq, 2008. – 383 b.
2. Oripova G., Ibrohimova G. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar. – International scientific journal. – P.256-257.
3. Oripva G.M. (2021). Genesis and essence of genre xoncept. – The American journal of social, 3(21), – P.90-94
4. Jabborov N. Yangi zamon she’riyati tamoyillari. – Sharq yulduzi, 2014. – 110 b.

UO'K: 821.111.09-1

JON ESHBERINING "SELF-PORTRAIT IN A CONVEX MIRROR" SHE'RI POETIKASIDA POSTMODERNISTIK IFODALAR: O'ZLIK IZLANISHI, DEKONSTRUKTSIYA VA TAFAKKUR OQIMI

S.T. Rakhimova, tayanch doktorant, Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada amerikalik shoir Jon Eshberining "Self-Portrait in a Convex Mirror" she'ri postmodern poetika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. She'rda san'at, o'zlik va real bo'lmagan voqelik orasidagi ziddiyatlar poetik tafakkur asosida ochib beriladi. She'r davomida muallif inson ongining beqarorligini, doimiy harakatda bo'lgan fikrlarini, o'zini anglashdagi qiyinchiliklarni tasvirlaydi. Inson o'zini doimiy o'zgarishda, ko'zguda aksi buzilib ko'rinayotganidek idrok qiladi. Muallif she'rda til va ma'no o'yinlari, tafakkur oqimi, dekonstruktsiya va intertekstual aloqalarni chuqur tahlil qilib, postmodern adabiyotda o'zlikni ifodalashning noan'anaviy usullarini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Jon Eshberi, postmodernizm, o'zlik, dekonstruktsiya, tafakkur oqimi, she'riyat, san'at.*

Аннотация. *В данной статье анализируется стихотворение американского поэта Джона Эшбери "Self-Portrait in a Convex Mirror" с точки зрения постмодернистской поэтики. В стихотворении рассматриваются противоречия между искусством, личностью и нереальной действительностью. Автор исследует игру языка и смысла, поток сознания, деконструкцию и интертекстуальные связи как нетрадиционные способы выражения идентичности в постмодернистской литературе.*

Ключевые слова: *Джон Эшбери, постмодернизм, личность, деконструкция, поток сознания, поэзия, искусство.*

Abstract. *This article analyzes the poem "Self-Portrait in a Convex Mirror" by American poet John Ashbery from the standpoint of postmodern poetics. The poem explores the tensions between art, identity, and imagined reality. The author examines language and meaning play, stream of consciousness, deconstruction, and intertextual connections as unconventional methods of expressing identity in postmodern literature.*

Key words: *John Ashbery, postmodernism, identity, deconstruction, stream of consciousness, poetry, art.*

Kirish. Jon Eshberi (1927–2017) — XX asr ikkinchi yarmidagi amerika poeziyasining eng yirik vakillaridan biri bo'lib, postmodernizm adabiyotining markaziy shaxslaridan biri hisoblanadi. Uning poetik uslubi klassik poetik me'yorlardan chekinib, murakkab grammatik konstruktsiyalar, mavhum obrazlar va tafakkur oqimi orqali ifodalanadi. Ayniqsa, 1975-yilda nashr etilgan "Self-Portrait in a Convex Mirror" she'ri Eshberi ijodida san'at, haqiqat, o'zlik va til munosabatlarini tahlil qilishda markaziy o'rinni egallaydi. She'rda Eshberi poetikasining asosiy belgilaridan biri bo'lgan o'zlikning noaniqligi, estetik idrok bilan falsafiy tafakkur o'rtasidagi ziddiyatlar poetik til orqali ifodalanadi. Ushbu maqolada Eshberining ushbu mashhur she'ri postmodern adabiy estetikalar — xususan dekonstruktsiya, tafakkur oqimi, intertekstual aloqalar va o'zlikning nisbiy talqini asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Jon Eshberining "Self-Portrait in a Convex Mirror" she'ri 1975-yilda chop etilgan bo'lib, o'sha yili shu nomli to'plamda nashr etilgan. She'r XX asr Amerika poeziyasining eng mashhur namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asar Eshberiga uchta yirik mukofotni — Pulitser mukofoti, National Book Award va National Book Critics Circle Awardni bir vaqtning o'zida olib kelgan. She'rning asosiy ilhomi — Francesco Parmigianino (1503–1540) nomi bilan tanilgan italiyalik manierist rassomning o'z portreti ("Self-Portrait in a Convex Mirror", taxm. 1524) bo'lib, bu portret o'ziga xos bo'rttirilgan (konveks) oynaga qarab chizilgan. Eshberi bu tasvirni ko'rib, o'zlik, vaqt, haqiqat va badiiy ifoda o'rtasidagi murakkab munosabatlarni poetik mulohazalarga aylantiradi.

She'rning tuzilishi va shakliga keladigan bo'lsak, she'r uzun erkin she'r shaklida yozilgan, ya'ni qat'iy qofiya yoki metrik tizimga bo'ysunmaydi. Unda ekfrastik elementlar mavjud — ya'ni bir san'at asarini (bu holatda rasmni) poetik tarzda tasvirlash. Eshberi ushbu she'rda shaxsiy tajriba, tasavvur va fikr oqimi orqali rasm bilan ichki muloqot olib boradi.

She'r quyidagi mavzularni o'zida qamrab oladi:

San'at va haqiqat: She'rda vizual tasvir (rasm) orqali haqiqatni ifodalash muammosi ko'tariladi. Rasm jonli odamni abadiylashtiradi, lekin bu hayotning o'zginasi emas.

O'zlik va identitet: O'zlik doimiy harakatda bo'lgan, lekin san'at asarida "muzlatilgan" hodisa sifatida qaraladi.

Zamonaviylik va tarix: Parmigianino asrlar oldin yaratgan asar bilan zamonaviy shoir o'rtasidagi muloqot, vaqt o'lchamlarini yo'q qiladi.

Tafakkur va til: Eshberi tilni ifoda vositasi sifatida emas, balki mustaqil o'yin maydoni sifatida ko'rsatadi. So'zlar orqali o'zlikning barqarorligi emas, balki uni yo'qotish va qayta kashf etish holati ifodalanadi.

Eshberi ushbu she'rda postmodernist adabiyotga xos ko'plab poetik strategiyalarni qo'llaydi. Quyida bu jihatlar har biri batafsil izoh bilan yoritiladi:

Dekonstruktsiya: Jak Derrida nazariyasiga asoslangan holda, dekonstruktsiya matnning markaziy ma'nosi yo'qligini ko'rsatadi. Eshberi she'rida biror qat'iy tafsirga erishish qiyin. She'r ma'nosi har bir o'quvchi tomonidan har xil anglanadi. Bu holat she'rda mavjud bo'lgan kontekstlararo siljishlar va semantik tarqoqlik orqali namoyon bo'ladi [2,55].

Intertekstuallik: Eshberi nafaqat Parmigianinoning rasmini eslatadi, balki boshqa san'at va adabiy manbalarni ham bilvosita tilga oladi. Bu metod orqali she'r o'z-o'zidan izolyatsiyalangan asar emas, balki boshqa matnlar bilan dialogga kirishgan, ya'ni intertekstual muhitda mavjud bo'lgan murakkab to'qima sifatida namoyon bo'ladi [4,78].

Tafakkur oqimi: Eshberi she'rida fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda emas, balki ong oqimiga xos tarzda oqadi. O'quvchi she'rni o'qir ekan, ichki monolog va refleksiyalar bilan to'qnashadi. Bu holat o'quvchining tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsatib, she'rni "his qilish" tajribasiga aylantiradi.

Subyektivlik: Ashbery o'zlikni obyektiv ravishda emas, balki o'ziga xos idrok orqali talqin qiladi. Bu esa postmodern yondashuvga muvofiq, subyektivlikning ustuvorligini ko'rsatadi. O'zlik — doimiy izlanishda bo'lgan, hech qachon to'liq tushunib bo'lmaydigan murakkab konstruksiya sifatida aks ettiriladi (7,105).

Quyida she'rdan kichik iqtibos keltirgan holda uni tahlil qilishga harakat qilamiz:

"Ruh qaerda bo'lsa, o'sha yerda qolishga majbur,
Garchi bezovta bo'lib, derazaga urilayotgan yomg'ir ovozini,
Shamolda shitirlayotgan kuzgi barglarning nolasini eshitsa-da,
U tashqariga chiqishni, erkin bo'lishni juda istaydi,
Ammo baribir o'z joyida qotib qoladi,
O'zini bo'yaydi va shu tutqunlikdagi holatini o'ylaydi..."

("The soul has to stay where it is,
Even though restless, hearing raindrops at the pane,
The sighing of autumn leaves thrashed by the wind,
Longing to be free, outside, but it must stay posed,
Painting itself, thinking of its confinement…")

Ushbu satrda "ruh" (the soul) markaziy metafora sifatida ishlatilgan. Shoir ruhni harakat qilishni istovchi, lekin bir joyda "turishga majbur" bo'lgan mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu qiyos Parmigianinoning rasmidagi portretga ham ishora qiladi: u harakat qilolmaydi, faqat bir holatda muzlab qolgan. Bu postmodern falsafadagi "o'zlikning mahkamlanib qolgan, lekin shunga qaramay ongda harakat qilayotgan shakli" deb talqin qilinadi. "Derazadagi yomg'ir tomchilari" va "shitirlayotgan kuz barglari" kabi tabiat obrazlari — ruhning tashqariga chiqishga, erkinlikka intilishini ifodalovchi tashqi belgilar. Bu manzara she'riy til orqali ichki dunyo – tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro aloqani anglatadi. Shamol, yomg'ir va kuz barglari — bu ruhiy beqarorlikning tashqi ramzlari. "o'ziga bo'yoq bilan ishlov berib, o'zining tutqun holatini o'ylaydi" satrida ruh o'zini

rasmga olayotganidek — ya’ni o‘z-o‘zini anglash va o‘zlikni mushohada qilish jarayoni ifodalanadi. Ruh o‘z tutqun holatini ko‘zdan kechiradi, bu esa o‘zlik haqida tafakkur qilish, metapoetik darajada o‘z she’riyatini o‘zi kuzatish degani. Bu yerda Jon Eshberi postmodern “o‘zini o‘zi refleksiya qilish” (self-reflexivity) uslubidan foydalangan. Ruh rasmga aylangach, u erkin harakat qila olmaydi — bu san’at asarining tabiati: u hayotdan ko‘chirib olingan, lekin harakatsiz. Shoir bu yerda san’at haqiqatni ifoda qiladimi yoki uni muzlatadimi? degan falsafiy savolni qo‘yadi. Bu savol Eshberining ko‘p she’rlarida uchraydigan ontologik shubha elementini ko‘rsatadi. Eshberi ushbu satrlar orqali ruhning cheklanganligi va o‘zlikning vaqt, rasm va tilda qanday qamalganini ko‘rsatadi. She’r nafaqat o‘zlikni tasvirlaydi, balki o‘zlik haqida o‘zini o‘zi tafakkur qilish aktini yaratadi. Bu yondashuv — dekonstruktsiya, intertekstual fikrlash, va subyektiv identitetning o‘ziga xos ifodasidir. Ruhning “o‘zini tasvirlashi” — bu she’riyatning o‘ziga, tilga, o‘quvchiga qarashidir. Bu satrlar she’rda mavjud bo‘lgan asosiy falsafiy muammoni yoritadi: ruh (soul) harakat qilishga intiladi, ammo u muayyan ramka ichida qamalgan. Bu — Parmigianinoning portreti orqali o‘zlikning rasmda “muzlatib” qo‘yilishi bilan bog‘liq. Ashbery shu tarzda ruhning erkinligi va vizual san’at tomonidan cheklanishi o‘rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi. Bu fikrni Ramazani [10,98] ham tasdiqlab, Eshberining poeziyasi doimiy qarama-qarshiliklardan iboratligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Postmodern adabiyotda o‘zlik — bu aniqlik emas, balki doimiylikdan yiroq, o‘zgaruvchan va bo‘linuvchi hodisadir. Ashbery she’rida bu jarayon vizual tasvir va til o‘yinlari orqali amalga oshadi. Fikrlashning dekonstruktiv yondashuvi she’r matnida o‘zlikning aniqlanmasligini ifodalaydi. Bundan tashqari, vaqt tushunchasi ham she’rda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi vaqt, o‘tmish va kelajak she’r bo‘ylab doimiy siljishda, ya’ni metafizik darajada birlashgan holatda tasvirlanadi. Bu postmodern adabiyotda “vaqt tushunchasining dinamik talqini” deb ataladi. Jon Eshberining “Self-Portrait in a Convex Mirror” she’ri san’at, haqiqat va o‘zlik haqida postmodernist yondashuv asosida fikr yuritadi. “Self-Portrait in a Convex Mirror” bu — insonning o‘zini idrok etishi, o‘z “men”ini ko‘zgudek qabariq, noaniq, lekin chuqur tafakkur bilan ko‘rishga urinishidir. Bu she’r san’at, haqiqat va o‘zlik haqida fikr yurituvchi postmodernist poeziyaning namunasi bo‘lib, san’atning hayotga nisbatan o‘rni va chegaralarini tahlil qiladi. Ashbery she’riyatida aniq ma’no yo‘qligi, o‘zlikning nisbiyligi, tilning o‘yinga aylanishi postmodernizmning asosiy belgilarini tashkil etadi [5,146]. Bu she’r orqali shoir san’at bilan voqelik o‘rtasidagi chegarani buzib, o‘quvchini o‘z tafakkuri bilan faol hamkorlikka chorlaydi. Ushbu she’r postmodern adabiy tafakkurning murakkab va ko‘p qatlamli ifodasi bo‘lib, san’at, haqiqat va o‘zlik tushunchalarini poetik shaklda yangicha talqin etadi. She’rda klassik poetik uslubdan chekinilib, til o‘yini, semantik ko‘pma’nolilik, va tafakkur oqimi orqali o‘quvchini voqelikni qayta idrok qilishga undaydigan ijodiy makon yaratilgan. Ashbery ijodida o‘zlik — bu barqaror emas, balki doimiy o‘zgaruvchan va turlicha kontekstlarda yangidan talqin etiladigan tushunchadir. She’rda dekonstruktsiya yondashuvi orqali ma’no qatlamlari doimiy surilish holatida tasvirlanadi. O‘zlik tasviri esa yakuniy emas, balki doimiy savollar tizimi orqali vujudga keladi. Shu bilan birga, Eshberi san’at va hayot o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotib, poetik tajribani falsafiy izlanish bilan uyg‘unlashtiradi. Bu jihatlar “Self-Portrait in a Convex Mirror” she’rini zamonaviy adabiyotda o‘zlik va haqiqat muammosiga oid muhim poetik hujjatga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashbery, J. (1975). *Self-Portrait in a Convex Mirror*. New York: Viking Press.
2. Perloff, M. (2010). *The Poetics of Indeterminacy: Rimbaud to Cage*. Northwestern University Press.
3. Costello, B. (2012). *Planets on Tables: Poetry, Still Life, and the Turning World*. Cornell University Press.
4. Altieri, C. (2011). *The Art of Twentieth-Century American Poetry: Modernism and After*. Wiley-Blackwell.
5. Diggory, T. (2013). “John Ashbery and the Politics of the Postmodern.” *Contemporary Literature*, vol. 54, no. 1, pp. 22–45.
6. Lehman, D. (2014). *The Last Avant-Garde: The Making of the New York School of Poets*. Anchor Books.
7. Herd, D. (2008). *John Ashbery and American Poetry*. Manchester University Press.
8. Bloom, H. (Ed.). (2009). *John Ashbery*. (Bloom’s Modern Critical Views). Chelsea House Publishers.
9. Gifford, J. (2015). “Ashbery’s Ekphrastic Strategies.” *Journal of Modern Literature*, vol. 38, no. 2, pp. 101–118.
10. Ramazani, J. (2011). *A Transnational Poetics*. University of Chicago Press.
11. Hume, A. (2010). *The Metaphysical Poets in Postmodern America*. *Twentieth Century Literature*, vol. 56, no. 3, pp. 345–368.

12. Haller, R. (2016). "Ashbery's Refraction of Self: Identity in a Convex Mirror." *Poetics Today*, vol. 37, no. 4, pp. 581–598.

UDC 808.5

CULTURAL IDENTITY AND SOCIAL STRUCTURES IN AFGHANISTAN AS PORTRAYED BY KHALED HOSSEINI

Z.U. Rakhimova, teacher, doctorate student, Asia International University, Bukhara

Annotatsiya. *Ushbu maqolada afg'on-amerikalik yozuvchi Xalid Husaynining shaxsiy va chuqur hissiy hikoyalar orqali Afg'oniston madaniyati va ijtimoiy tuzilmasini qanday murakkab tarzda tasvirlagani chuqur tahlil qilinadi. Shamol ortidan yugurib, Ming quyosh shu'lasi va Tog'lar ham sado beradi asarlariga tayanib, muallif jinsga asoslangan zulm, etnik tabaqalanish, avlodlararo ruhiy jarohatlar va urushning uzoq davom etuvchi oqibatlari kabi muhim ijtimoiy-siyosiy mavzularni qanday yoritishini ochib beradi.*

Kalit so'zlar. *Madaniy o'zlik, Jins, Etnik tarkib, Urushdan keyingi adabiyot, Afg'on jamiyati, Xolid Husayni, Diaspora, Hikoya orqali xotira , Ijtimoiy tuzilma, Ayollarning ezilishi, Travma va chidamlilik, Tarixiy kontekst, Shaxsiy inqiroz.*

Аннотация. *В данной статье проводится критический анализ того, как афгано-американский писатель Халед Хоссейни тонко и глубоко изображает культурную идентичность и социальную структуру Афганистана через призму личных и эмоционально насыщенных повествований. На примере таких произведений, как Бегущий за ветром, Тысяча сияющих солнц и И эхо летит по горам, исследование освещает, как в его романах раскрываются важнейшие социально-политические темы: гендерное угнетение, этническая стратификация, межпоколенческая травма и долгосрочные последствия войны.*

Ключевые слова. *Этническая принадлежность, Литература постконфликтного периода, Афганское общество, Халед Хоссейни, Диаспора, Нарративная память, Социальная структура, Угнетение женщин, Травма и устойчивость, Исторический контекст, Кризис личности.*

Abstract. *This article critically examines how Afghan-American novelist Khaled Hosseini intricately constructs representations of Afghanistan's cultural identity and social hierarchies through deeply personal and emotionally resonant narratives. Focusing on The Kite Runner, A Thousand Splendid Suns, and And the Mountains Echoed, the study explores how Hosseini's fiction engages with major socio-political themes such as gender-based oppression, ethnic stratification, intergenerational trauma, and the enduring consequences of war.*

Key words. *Cultural identity, Gender, Ethnicity, Post-conflict literature, Afghan society, Khaled Hosseini, Diaspora, Narrative memory, Social structure, Women's oppression, Trauma and resilience, Historical context, Identity crisis.*

Introduction. Afghanistan is a country marked by complex layers of cultural tradition, tribal allegiance, ethnic plurality, and decades-long conflict. Its societal fabric is interwoven with influences from Islamic teachings, regional customs, colonial interventions, and modernization attempts. Khaled Hosseini, an Afghan-born writer who emigrated to the United States, serves as a literary bridge between East and West. His novels have achieved global acclaim not only for their emotional depth but also for their sociological accuracy in depicting Afghanistan's fractured yet resilient society. His dual identity enables him to depict Afghanistan with both critical distance and intimate familiarity, making his fiction a vital source of insight into a world often misrepresented or oversimplified.

This paper aims to examine how Hosseini constructs Afghan cultural identity and social structures in his narratives, and how these representations reflect the broader realities of Afghan life. Through literary analysis, the discussion will explore themes such as gender roles, class divisions, ethnic tensions, and the influence of religion and tradition on individual identity and social cohesion.

Literature review. Khaled Hosseini, one of the most influential Afghan-born contemporary authors, has brought the complexities of Afghan society to global attention through his emotionally

powerful novels such as *The Kite Runner*, *A Thousand Splendid Suns*, and *And the Mountains Echoed*. These works not only tell personal and emotional stories but also serve as a lens through which the reader can explore the cultural identity, historical struggles, and social hierarchies of Afghanistan.

Hosseini's portrayals are deeply rooted in Afghanistan's rich traditions, ethnic diversity, and the impact of political turmoil, including war, migration, and the rise and fall of regimes. His characters often grapple with questions of loyalty, honor, shame, and resilience—all of which are shaped by the intricate web of Afghan cultural values and family expectations.

Positioned within a broader socio-anthropological and literary framework, this research argues that Hosseini's novels function as transnational narratives—bridging East and West, memory and identity, history and fiction. His ability to interweave private grief with public crises allows for a nuanced critique of power structures while preserving the emotional truths of his characters. Ultimately, Hosseini's work transcends literary boundaries, offering both a mirror to Afghanistan's internal struggles and a universal commentary on human resilience, displacement, and the search for dignity.

Literature persistence has long been a vehicle for preserving culture and critiquing social structures. According to Edward Said's theory of "imaginative geography," literature from or about the Middle East can both reinforce and resist Orientalist stereotypes. Hosseini's work challenges Western preconceptions by humanizing Afghan characters and revealing the internal complexities of Afghan life. Moreover, Pierre Bourdieu's concept of social capital is useful in analyzing Hosseini's depiction of family networks, ethnic affiliations, and class hierarchies. The notion that symbolic power (honor, loyalty, tradition) often overrides institutional systems (law, democracy, education) helps explain the of rigid roles and communal loyalties in Afghan society.

Conclusion. Through compelling narratives rooted in real sociopolitical contexts, Khaled Hosseini offers an indispensable lens into Afghan life and identity. His novels go beyond storytelling; they function as cultural documents, psychological case studies, and moral reflections. He illuminates how the personal is political and how survival is often an act of quiet defiance.

By articulating the voices of the marginalized, his literature challenges the simplification of Afghanistan as merely a war-torn nation. Instead, it reveals a society navigating the painful intersections of history, culture, gender, and class. In doing so, Hosseini not only humanizes a misunderstood region but also reaffirms literature's enduring power to foster connection, awareness, and social change.

REFERENCES:

1. Uktamovna, R. Z. (2024). Features and Analyses and of Social Life in the "The Kite Runner" By Khaled Hosseini. *European journal of innovation in nonformal education*, *4*(9), 82-86.

2. Uktamovna, R. Z. (2025). Exploring Adolescent Psychology in the Works of Khaled Hosseini. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *38*, 190-192.

3. Uktamovna, R. Z. (2024). The Educational Effect a Tale of Resilience and Hope in the Khaled Hosseini's "a Thousand Splendid Suns". *Miasto Przyszłości*, *55*, 1076–1079.

4. Uktamovna, R. Z. (2025). The Transformative Journey of Adolescence: A Study of the Physical, Cognitive, Emotional, and Social Changes During the Teenage Years. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *39*, 169–172.

5. Uktamovna, R. Z. . (2025). Teenagers' Inner Lives and Emotions in Khaled Hosseini's Writings (The Kite Runner and Thousand Splendid Suns). *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *40*, 267–271.

6. Rakhimova, Z., & Marufova, D. (2025). Impact of technology on education. *Modern Science and Research*, *4*(2), 77–81.

7. Uktamovna, R. Z. (2025). Khaled Hosseini's works, such as the kite runner and thousand splendid suns, explore the inner lives and emotions of teenagers. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, *3*(4), 110-113.

UO'K 82.0

ABDULLA ORIPOV QALAMIGA MANSUB "NAY" SHE'RINING BADIIY TAHLILI

G. Ravshonbekova, o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Oripov qalamiga mansub "Nay" she'rining badiiyati tahlil qilinadi. She'rda fojelik kategoriyasi, uning muhim tarkibiy unsuri – katarsis mohiyati badiiy yo'sinda aks etadi. Abdulla Oripov asarning bosh obrazini o'z uslubida talqin qilib, uni chuqur*

falsafiy ma'nolar bilan boyitadi. She'rda buyuk ijodkorning tragik qismati ham aks etgan deyishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: *A.Oripov, J.Rumiy, katarsis, fojelik, tragik, qamish, nay, Aristotel.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественность стихотворения "Nay", написанного Абдуллой Ориповым. В стихотворении категория трагедии, ее важный структурный элемент - сущность катарсиса отражена в художественном направлении. Абдулла Орипов интерпретирует главного героя произведения в своем стиле и обогащает его глубокими философскими смыслами. Можно сказать, что в стихотворении отражена трагическая судьба великого художника.*

Ключевые слова: *А. Орипов, Дж. Руми, катарсис, трагедия, трагическое, трость, флейта, Аристотель.*

Abstract. *This article analyzes the artistic quality of the poem "Nay" by Abdulla Oripov. The poem reflects the category of tragedy, its important structural element - the essence of catharsis. Abdulla Oripov interprets the main character of the work in his own style, enriching it with deep philosophical meanings. We can say that the poem also reflects the tragic fate of the great creator.*

Key words: *A. Oripov, J. Rumi, catharsis, tragedy, tragic, reed, flute, Aristotle.*

Abdulla Oripov qalamiga mansub "Nay" nomli mo'jaz she'ri bor yo'g'i to'rt band – o'n oltita to'qqiz hijoli qisqa misradan iborat asardir. Lekin she'r kichik hajmli bo'lsa–da, u ulkan bir badiiy asar taassurotini beradi. Shu ma'noda u mitti shoh asar. Yuksak badiiyligi tufayli ushbu she'r muayyan ilmiy qiymatga egadir. Voqeaband she'rlarda fojelik – tragizm belgilarini o'rganishda "Nay" bu noyob topilmadir. Shuningdek, Abdulla Oripovning "Nay" she'ri shoirning ichki kechinmalari va inson ruhiyatining mohiyatini chuqur yorituvchi asarlardan biridir. Ushbu she'r ramziy va falsafiy ma'noga ega bo'lib, unda nay obrazi orqali inson qalbi va hayot falsafasi tasvirlanadi.

She'rda nay obrazi markaziy o'rinni egallaydi. Nay Sharq adabiyotida va tasavvuf an'analarida ko'pincha hijron, dard va ilohiy ishq timsoli sifatida ishlatilgan. Jaloliddin Rumiy ham nayni inson ruhining ayriliqdagi faryodi sifatida talqin qilgan. Abdulla Oripov esa bu obrazni o'z uslubida talqin qilib, uni chuqur falsafiy ma'nolar bilan boyitadi. Ijodkor ushbu obraz orqali hayotning achchiq haqiqatlarini ifodalaydi.

She'rdagi voqealar quyidagicha kechadi. Bosh obrazlardan biri qamishning baxtli onlari dastlabki ikki misra, odamlarning unga ko'rsatgan jabri –3–8– misralar, bu bo'lgan ishlarga qamishning (endi u nay) javobi –13–16– misralar. So'nggi bandni tragik yechim ham deyish mumkin.

Asarning sxematik bayoni shunday. Uni o'qishimiz orqali kichik bir she'riy maydonda butun bir foje voqea sodir bo'ladiki, shoirning mahorati, iqtidori va she'riyatning sohir kuchiga tan beramiz. She'r – go'yo mitti tragediya va uning to'rt pardasida voqealar quyidagicha kechadi.

1. Yashnardi u adirda durkun,
   Epkinlarga ochgancha quchoq.

Misralardagi ayrim so'zlarni tahlil qiladigan bo'lsak, "durkun" so'zi "o'siq, o'sib yetilgan" , "epkin" so'zi esa "shamol, suv va shu kabilarning oqimi, shu oqimdagi ta'siri, urinishi" degan ma'nolarni bildiradi. Sarlavhada "nay" tursa–da, matnda bu so'z yo'q, faqat "u" va "qamish" so'zlari bor. "U" bir paytning o'zida ham qamish, ham nay. O'tgan zamondagi fe'l "yashardi"dan ma'lum bo'ladiki, gap nayning baxtli o'tmishi, tabiat qo'ynidagi emin–erkin hayoti haqida.

Keldilar – u odamlar bir kun
Tanasiga soldilar pichoq.

Bu misrani o'qishimiz bilanoq qamishning og'ir kunlari boshlanishini anglaymiz. Bu yovuzlik sababchisi – odamlar, ro'y berish vaqti – "bir kun". Qamish hayotida u eng badbaxt kun. Uning mash'um jaranglashi ham shundan. Birinchi qismdagi "quchoq" so'ziga qofiyadosh bo'lib "pichoq" kelgan. Ma'no va ohangdagi keskin farq, birining issiq tafti-yu, ikkinchisining sovuq jaranggi qamish duchor bo'lgan nogoh kulfatni aniq gavdalantiradi.

Ayirdilar avval ko‘zidan,
So‘ng bag‘rini oldilar o‘yib:
Yetmaganday bu ham bo‘g‘zidan
Pufladilar lablarin qo‘yib.

Ushbu qismda ikki qarama-qarshi hissiyot – qamishning kulfatzada holati va cholg‘u asbobining yasalish jarayoni. Biri poetik hissiyot bo‘lsa, ikkinchisi she’riyatga daxlsiz kundalik voqea.

3. Ko‘rmagandi bunchalar xo‘rlik,
Xatto ayoz tilganda yuzin.
Alamiga chidolmay sho‘rlik
Nola chekib yubordi uzun.

Nayga aylangan qamishning xazin, alamli ovozi unga o‘tkazilgan jabrning aks–sadosi. Bu jabr qamish uchun butkul yangi va notabiiy. Xattoki uning yuzini tiladigan “ayoz” ham unga yoshlikdan tanish, o‘zi quchoq ochgan epkinlarning qishki nafasi. Odam esa butkul yot, begona. Undan ko‘rilgan xo‘rlik shu bois og‘ir botgulik.

4. Odamlar-chi, to‘plandi shu on
Faryodiga qilolmay toqat,
Bir qamishni yig‘latib chunon,
So‘ng o‘zlari qildilar rohat.

Ushbu so‘nggi band “odamlar-chi” – ham so‘roq, ham ta’na, ham hayronlik jo bo‘lgan so‘zdan boshlanishi bejizga emas. Jabirdiyda qamish nayga aylantirildi, alamidan chekib yuborgan uzun nolasi shu nola chekilishiga sababchi bo‘lgan odamlar qalbini o‘rtaydi, o‘ziga rom etadi. Bir qamish yig‘lashidan odamlar rohat olar ekan. Dard-u qayg‘ularini unutish uchun esa oldin nayni yig‘latadilar, aniqrog‘i qo‘shilib yig‘laydilar. Qamish bir jafokash kabi baloga mubtalo bo‘ldi. Ammo azobiga ovoz– ifoda topdi. Bu ifoda kuy edi. Alamdan tug‘ilgan kuyni tinglab, odamar rohat qilishadi. Odamzot shunday bir qavmki, o‘ziga o‘zi azob orttiradi. Va shu azobning ifodasi bo‘lmish tragik san’atdan rohat oladi, zavq tuyadi.

Shunda she’rdagi badiiy sir ayon bo‘ladi. Birlamchi ma’no bo‘yicha haqiqiy foje qahramon qamish emas, aksincha bir qamashni chunon yig‘latib so‘ng o‘zlari rohat qilayotgan odamlardir. Nayning azoblari bunchalik aniq, jonli qilib tasvirlanishi haqiqiy foje qahramon– odamlarning tragik qismatini qabartirishga xizmat etayotgani ma’lum bo‘ladi.

“Odamlar” yaxlit tragik qahramondir. Uzun nola tortib yuborgan nay– yashnab turgan kechagi qamish – jafokash, jabrdiyda insonga timsol. Xususan, u buyuk ijodkorlarga ham timsol. Odatda buyuk ijodkorlarni jahoniy alam yetishtiradi. She’rda buyuk ijodkorning tragik qismati ham aks etgan. Shu tufayli, nayning nolasi ayni paytda jabrdiyda, ijodkor inson nolasidir. She’rni mitti tragediyaga aylantirgan badiiy omil shunda.

Aristotel “Poetika” asarida tragediyaga quyidagicha ta’rif bergan: “Tragediya muayyan hajmli, turli qismlari turlicha sayqallangan til yordamida, bayon vositasida emas, balki xatti-harakat orqali ko’rsatiladigan va iztirob bilan inson ruhini poklovchi muhim va tugal voqea tasviridir”. Bundagi “iztirob bilan inson ruhini poklovchi“ jumlasi katarsis hodisasini ifodalaydi. “Nay”ning oxirgi bandini katarsisning badiiy ta’rifi desa bo‘ladi.

Abdulla Oripovning ushbu she’ri bilan tanishar ekamiz ijodkorning yuksak falsafiy idrok va taffakkur egasi ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Aristotel. Poetika. - Toshkent, 1980. - 16 - b.
2. Aristotel. Poetika. Toshkent: “Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1980.
3. Ashurova G. Abdulla Oripov she’riyatida an’ana va badiiy mahorat (obraz, g‘oya va tasvir).- Toshkent : 2008.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. Birinchi jild. She’rlar va dostonlar. – T.: G‘.G‘ulom nom. adab. va san’at nashr, 2000.
5. Qo‘shjonov M. Meli Suvon. Abdulla Oripov. –T.: Ma’naviyat, 2000. - 136 b.
6. Rahmonova M. Abdulla Oripov she riyatida badiiy butunlik. Filol.fanlari nomzodi.diss. Avtoref.-Toshkent: 1998.

UO'K 808.5

OGAHIYNING MUAMMO JANRIDAGI SHE'LARI TASNIFI

I.Raximova, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada Muhammadrizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" devoni tarkibidan joy olgan 80 ta muammo janriga oid she'rlarining mavzu jihatdan tasnifi bayon qilingan. Shuningdek, maqolada murakkab janrlarda ijod qilish qalam ahllarining yuksak iste'dodidan darak berishi hamda shoirning ustozlar an'analarining munosib davomchisi ekanligiga diqqat qaratiladi.*

***Kalit so'zlar**: Adabiy muhit, original adabiyot, mahorat maktabi, muammo janri, "Ta'viz ul-oshiqin".*

***Аннотация**. В данной статье представлена тематическая классификация 80 стихотворений в жанре му'амма, включенных в диван Мухаммадризо Огахи "Та'виз уль-ошикин". Также в статье подчеркивается, что творчество в сложных жанрах свидетельствует о высоком таланте писателей и что поэт является достойным продолжателем традиций своих наставников.*

***Ключевые слова:** Литературная среда, оригинальная литература, школа мастерства, жанр му'амма, "Ta'viz ul-oshiqin".*

***Abstract.** This article describes the thematic classification of 80 problem-related poems of Muhammadrizo Ogahi from the "Ta'viz ul-ashiqin" collection. Also, attention is drawn to the fact that creation in complex genres shows the high talent of the poets and that the poet is a worthy follower of the traditions of his masters.*

***Key words:** Literary environment, original literature, skill school, muamma genre, "Ta'viz ul-ashiqin".*

Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874) zabardast shoir, tarixchi olim, benazir tarjimon hamda davlat arbobi sifatida ko'p qirrali ijodkordir. Uning ijodi XIX asr o'zbek adabiyotidagi nodir hodisa, Ogahiy ijod qilgan davr esa Xorazm adabiy muhitining yuksak bosqichi sifatida qimmatlidir. Bu davr Xorazm adabiy muhitida badiiy ijodning yetakchi yo'nalishlari 3 ta edi:

1) original adabiyot (lirik va epik she'riyat);

2) tarjima adabiyot (asosan, sharq adabiyoti namunalari asosida);

3) tarixnavislik, Ogahiy bu yo'nalishlarning har birida faol ijod qilib, ularning o'zigagina xos bo'lgan ajoyib namunalari mahorat maktabini yaratdi [1; 11-b.]. Shoir asarlarini har tomonlama chuqur va teran o'rgangan sari bu haqiqat yorqinroq namoyon bo'lib boraveradi.

Mavlono Ogahiyning ijodiy merosini tadqiq qilish orqali shoirning nafaqat yirik lirik janrlarda (g'azal, qasida, mustazod), balki ruboiy, tuyuq, qit'a, ta'rix, muammo kabi bir qator kichik lirik janrlarda ham sermahsul ijod qilganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, Ogahiy she'rshunoslik ilmlari orasida alohida o'ringa ega bo'lgan biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitilishiga asoslangan muammo janrida 80 ta she'r yozgan bo'lib, ular shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" (Oshiqlar tumori) devoniga kiritilgan. Ularning barchasi fardlardan iboratdir. Muammolarning sonidan bilish mumkinki, Ogahiy uncha-muncha shoir yozishga jazm qila olmaydigan yuksak salohiyat, kuchli bilim va teran tafakkur talab qiluvchi murakkab janrda ham ko'p va xo'p ijod qilgan [2; 35-b.].

Muammo so'zining lug'aviy ma'nosi arab tilidagi "a'mo", ya'ni "ko'r" so'zidan olingan bo'lib, "ko'r qilingan", "berkitilgan", "yashiringan" degan ma'nolarni anglatadi. Muammo o'ziga xos yaratilish, hall – yechim ilmi va tizimiga ega kichik she'riy janrdir. Odatda, matematik-riyoziyot fanlarida ta'lim oluvchi uchun biror masala yoki misol yechilishidan oldin javobi taqdim qilinadi.

Ana shu javob qanday qilib chiqarilishiga qarab yechuvchining bahosi aniqlanadi. Muammo janrida ham javobi ma'lum she'r taqdim qilinadi, bu javobni qanday aniqlash o'quvchiga qoldiriladi. Bunda ham xuddi riyoziyotda bo'lganidek, muammo faqat bir yo'l bilan yechilmaydi, kerakli yo'l tafakkur bilan axtarib topiladi [3; 6-b.].

Muammo dastlab arab adabiyotida X-XI asrlarda ko'zga tashlana boshlagan bo'lsa-da, fors adabiyotida XIV asrda alohida janr sifatida shakllangan. Forsiy adabiyot bilan yaqin aloqada bo'lgan turkiy adabiyotda ham bu janr amaliy tarzda juda tez rivojlandi. Bunda ulug' Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi katta adabiy maktab rolini o'ynadi [3; 5-b.]. Bu ikki ustoz salaflarning munosib davomchisi bo'lgan Muhammadrizo Ogahiyning go'zal muammolari XIX asrda Xorazmda yashab ijod qilgan ko'plab shoirlarning muammolar yozishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, shoirning davr she'riyatida murakkab sanalgan muammo janridagi badiiyat namunalari turkiy adabiyotda mazkur janrning rivoj topishiga, takomillashuviga xizmat qilgan.

O'tkir zehn, badiiy tafakkurning nodir samarasi bo'lmish muammo janrida ijod qilish va unda muvaffaqiyat qozonish hammaga ham nasib qilavermaydi. Negaki, bu janr san'atkordan mahorat, ulug'vorlik, aql-zakovat, mehnat, muhabbat omuxtaligini talab qiladi. Muammo san'ati- zehn ziynatidir. Zero, u aqlni peshlash, tafakkurni kengaytirish, yuksak didni shakllantirish, mushohada qilish va chuqur fikr yuritishga undaydi. Shuningdek, shoir aytmoqchi bo'lgan nozik fikrning yechimi orqali o'quvchida go'zallikka, nafosatga, adabiyotni teranroq tushunishga havas uyg'otadi va beqiyos zavq paydo qiladi [4; 4-b.].

Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" devonidan joy olgan muammo janridagi she'rlari mavzu nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, muallif muammolarining mavzu mundarijasi keng ko'lamliligini, muammolarda hayotning turli xil jabhalarini mavzu qilib olganligini ko'ramiz. Jumladan, Ogahiy muammolarida diniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, hayotiy-maishiy va boshqa turli xil mavzularga doir ismlar yashiringan. Ularni jadval ko'rinishida quyidagicha mavzuviy guruhlarga ajratgan holda tasniflash mumkin:

I guruh.Diniy-ma'rifiy mavzudagi ismlarga bag'ishlangan muammolar:

1.Alloh Taoloning muborak ismlari yashiringan muammolar:	
Muammoning nomi	**Muammoning soni**
Olloh ismi yashiringan	5 ta muammo
Rahmon ismi yashiringan	1 ta muammo
Rahim ismi yashiringan	2 ta muammo
Nur ismi yashiringan	1 ta muammo
Salom ismi yashiringan	1 ta muammo
2.Payg'ambarlar, sahobalar, ulug' avliyo zotlar, olim-u fuzalolar, imomlar va shoirlar ismlari yashiringan muammolar:	
Muhammad ismi yashiringan	2 ta muammo
Ahmad ismi yashiringan	2 ta muammo
Rasul ismi yashiringan	1 ta muammo
Nabiy ismi yashiringan	1 ta muammo
Odam ismi yashiringan	1 ta muammo
Ya'qub ismi yashiringan	1 ta muammo
Ilyos ismi yashiringan	1 ta muammo
Nuh ismi yashiringan	1 ta muammo
Yusuf ismi yashiringan	1 ta muammo
Ibrohim ismi yashiringan	1 ta muammo
Umar ismi yashiringan	1 ta muammo
Hasan ismi yashiringan	1 ta muammo

Safo ismi yashiringan	1 ta muammo
Molik ismi yashiringan	1 ta muammo
Sayyid ismi yashiringan	1 ta muammo
G‘arib ismi yashiringan	1 ta muammo
Abdol ismi yashiringan	1 ta muammo
Taqiy ismi yashiringan	1 ta muammo
Habash ismi yashiringan	1 ta muammo
Roziy ismi yashiringan	1 ta muammo
Tolib ismi yashiringan	1 ta muammo
Sodiq ismi yashiringan	1 ta muammo
Valad ismi yashiringan	1 ta muammo
Kamol ismi yashiringan	1 ta muammo
Qosim ismi yashiringan	1 ta muammo
G‘oyib ismi yashiringan	1 ta muammo
Jafoye ismi yashiringan	1 ta muammo
Salmiy ismi yashiringan	1 ta muammo
Komilu kamolu molik ismi yashiringan	1 ta muammo
Bobo va imom nomiga	1 ta muammo
Qosim va muayyan nomiga	1 ta muammo

II guruh . Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi muammolar:

1.Podshohlar, xonlar ismlari yashiringan muammolar:	
Muammoning nomi	**Muammoning soni**
Feruz ismi yashiringan	1 ta muammo
Muhammad ismi yashiringan	1 ta muammo
Rahim ismi yashiringan	1 ta muammo
Bahodir ismi yashiringan	1 ta muammo
Xon ismi yashiringan	1 ta muammo
Xallada ismi yashiringan	1 ta muammo
Mulkahu ismi yashiringan	1 ta muammo
Abadan ismi yashiringan	1 ta muammo
Shahzoda ismi yashiringan	1 ta muammo
Pahlavon ismi yashiringan	1 ta muammo
Komron ismi yashiringan	1 ta muammo
Qosim ismi yashiringan	1 ta muammo
Xusayin ismi yashiringan	1 ta muammo
2.Ijtimoiy-siyosiy lavozim nomlari yashiringan muammolar:	
To‘ra nomi yashirigan	1 ta muammo
Sadr nomi yashiringan	2 ta muammo

III guruh. Hayotiy-maishiy mavzularga bag‘ishlangan muammolar:

1.Kundalik turmush bilan bog‘liq muammolar:	
Muammoning nomi	**Muammoning soni**
Qand nomi yashiringan	1 ta muammo
Soat nomi yashiringan	1 ta muammo
Sovuq nomi yashiringan	1 ta muammo
Ayoz nomi yashiringan	2 ta muammo
Muammo nomi yashiringan	2 ta muammo
Dom nomi yashiringan	1 ta muammo
2.Bayram nomlari yashiringan muammolar:	
Iyd nomi yashiringan	4 ta muammo
Navro‘z nomi yashiringan	1 ta muammo
Qurbon nomi yashiringan	1 ta muammo

IV guruh. Qizlar ismlari yashiringan muammolar:

Muammoning nomi	Muammoning soni
Iqbola ismi yashiringan	1 ta muammo
Layli ismi yashiringan	1 ta muammo
Muborak ismi yashiringan	2 ta muammo
Saxiy ismi yashiringan	1 ta muammo

Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonidagi muammolarni shartli ravishda 4 ta katta mavzuviy guruhga ajratib tasniflashga urinib ko‘rdik. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Ogahiy muammo yozishda deyarli barcha mumtoz asarlarda bo‘lgani kabi an’anaviy tarzda olam-u odam, butun mavjudot-u maxluqotning ijodkori va bunyodkori nomiga bo‘lgan hamdu sanolar hamda an’anaga ko‘ra sarvari koinot Muhammad (s.a.v) payg‘ambarimizga alqov-na’tlar sifatida ularning muborak ismlariga bag‘ishlangan muammolar bilan boshlaydi. Shunga ko‘ra, Ogahiy muammolarini tasniflashda birinchi guruhni diniy-ma’rifiy mavzudagi muammolar, deya nomladik. Shuningdek, Ogahiy ikki ulug‘ ijodkor Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining an’analariga sodiq qolgan holda Odam, Yusuf, Ya’qub, Ibrohim, Nuh, Ilyos, Umar, Hasan, Husayin kabi bir qator payg‘ambarlar, ulug‘ avliyo zotlar, shoirlar ismlari yashiringan muammolar ham yozganki, bu Ogahiyning ustoz salaflarning munosib davomchisi ekanligidan dalolatdir.

Ogahiy muammolarining ikkinchi katta guruhi ijtimoiy-siyosiy mavzudagi muammolar hisoblanib, ularda shoir yashagan davrida hukmronlik qilgan xonlar ismlari, davlat lavozimlari nomlari yashiringan.

Muhammad, Rahim, Bahodir, Xon, Xallada, Mulkahu, Abadan ismlari yashiringan muammolar mazmunan Xorazm shohi Feruzga bag‘ishlangan [2; 37-b.].

Bu esa Ogahiyning o‘z davri ijtimoiy-siyosiy hayotiga befarq emasligi, hukmdor va raiyat haqida birdek qayg‘urishining isboti bo‘la oladi.

Uchinchi guruhda shoirning hayotiy-maishiy mavzudagi muammolari keltirilgan bo‘lib, ularni o‘z ichida kundalik turmush bilan bog‘liq narsa-buyum va bayram nomlari yashiringan muammolar guruhiga ajratish mumkin.

To‘rtinchi guruhni esa shartli ravishda qiz bolalar ismlari yashiringan muammolar, deya tasnifladik.

Ogahiy muammolarini tahlil qilish asnosida shunga amin bo‘ldikki, Mavlono bu janrda ijod qilish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rgan va aql-zakovati, chuqur bilimi, iqtidorli uyg‘unlashtirgan holda badiiy yetuk, mazmunan boy va teran durdonalar yaratolgan. Ogahiy muammolari o‘zining mavzu doirasi, falsafiyligi, hayotiyligi va g‘oyaviy barkamolligi bilan kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Zamonasining ba’zi dolzarb masalalarini ham ko‘rsatib bera oladigan muammolar orqali kitobxonni o‘ylashga, fikrlashga, mushohada va munozara qilishga majbur qiladi, zahnni o‘tkirlashtiradi. Kitobxon mazkur muammolar orqali ulardan ma’naviy ozuq olish bilan birga, badiiy adabiyotdan zavqlanishga, nozik tabiatlikka ega bo‘ladi [4; 5-b.].

Bularning barchasi Ogahiyning muammo janridagi she’rlari tasnifiga oid dastlabki urinishlar bo‘lganligi uchun unda ba’zi kamchiliklar uchrashi tabiiy. Shuning uchun ushbu tasnif haqidagi mulohazalar va tanqidiy fikrlarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev H. Ogahiy va XIX asr Xiva adabiy maktabi. Maqola. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
2. Matyoqubova M. Ajab ohangu navolar. – Urganch: Ogahiy, 2023. – 156 b.
3. Shodmonov N. Muammo janri va uni yechish amallari. – Qarshi, 2012. – 27 b.
4. Matyoqubova M. Zehn ziynati. – Urganch: Xorazm n., 1998. – 45b.
5. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent, 2019. – 128 b.

UO'K 821.161.1-312.4

KLASSIK DETEKTIV ROMANLARIDA AYOL OBRAZI EVOLYUTSIYASI

N.G'. Raximova, doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Detektiv janrining dastlabki shakllanish davrida yozuvchilar ayollarni asosan qurbon rolida ko'ra olishgan va ular ko'pincha jinoyatning sababini, hissiy fonini, dramatik kuchini oshirish uchun ishlatilgan. Biroq XX asrda Angliyada ayol yozuvchilar klassik gender stereotiplariga qarshi chiqishgan va ayol obrazlarini boyitishgan. Mazkur maqolada klassik detektiv romanlarda ayol obrazlarining ifodalanishi Doroti L. Seyers va Margari Allingem asarlari misolida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ayol obrazi, detektiv roman, gender stereotiplari, qurbon, jinoyatchi, izquvar, tergovchi-yozuvchi, feministik obraz.*

Аннотация. *На заре детективного жанра писатели рассматривали женщин в первую очередь как жертв, часто используя их для усиления мотива, эмоционального фона и драматической силы преступления. Однако в 20 веке женщины-писательницы в Англии бросили вызов классическим гендерным стереотипам и обогатили женских персонажей. В этой статье анализируется репрезентация женщин в классических детективных романах на примере произведений Дороти Л. Сэйерс и Маргари Аллингем.*

Ключевые слова.*женский образ,детективный роман, гендерные стереотипы, жертва, преступник, детектив, писатель-детектив, феминистский образ.*

Abstract. *In the early days of the detective genre, writers saw women primarily as victims, often using them to enhance the motive, emotional background, and dramatic power of the crime. However, in the 20th century, women writers in England challenged classical gender stereotypes and enriched female characters. This article analyzes the representation of women in classical detective novels using the works of Dorothy L. Sayers and Margery Allingham as an example.*

Key words. *female image, detective novel, gender stereotypes, victim, criminal, detective, detective-writer, feminist image.*

Kirish. Ayol - badiiy adabiyotni turfa xil obrazlar bilan boyituvchi siymo. Badiiy asarlarda uni turli xil ko'rinishlarda - ona, suyukli yor, rafiqa, opa, singil, qurbon va hattoki jinoyatchi sifatida gavdalantirilganligini guvohi bo'lish mumkin. Ayniqsa, XIX asrda detektiv janrining paydo bo'lishi ayollarni qurbon va jinoyatchi yoxud manipulyator obrazlarida keng ommaga tanilishiga zamin yaratdi. Bu janrda obrazlar tizimi, ayniqsa, ayol obrazining tasviri davr ruhiyati va gender stereotiplariga bo'lgan munosabatni aks ettiradi. Detektiv asarlarda ayol obrazining tahlili orqali jamiyatdagi ayolning o'rni, faolligi, ongidagi o'zgarishlar, mustaqilligi, qaror qabul qilishdagi erki kabi masalalarni o'rganish mumkin.

Tahlil va natijalar. Detektiv asarlarda ayol obrazining aks etishi o'sha davr uchun xos bo'lgan ijtimoiy stereotiplar, gender rollar va estetik talqinlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Dastlabki yaratilgan asarlarda ayollar ko'p hollarda jinoyat qurboni obrazlarida gavdalantirilgan. Bunga sabab esa, XIX asr oxiri XX asr boshlarida mavjud bo'lgan an'anaviy gender stereotiplari bo'lib, unga ko'ra ayollarga zaif, hissiyotli, himoyaga muhtoj shaxs sifatida qaralgan. O'sha davr axloqiy me'yorlari ayolni faqat uy - bolalar tarbiyasi doirasida ko'rishga undagan. Va bu o'z o'zidan adabiyotda ayol obrazini cheklanganligini kuchaytirgan, ya'ni ayol ko'pincha passiv - qurbon yoki yordamchi obrazida tasvirlangan. Masalan, detektiv janrida yaratilgan ilk asar "Morg ko'chasidagi qotilliklar" ("The Murders in the Rue Morgue")da ham ayollar qurbon rolida ko'rsatilgan. Madam L'Espanaye va uning qizi Kamille no'malum shaxs tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi, bunga sabab esa ularning himoyaga muhtojligi va hech qanday qarshi ta'sir ko'rsata olmasligidir.[1;4] Mavjud ijtimoiy normalarga bo'ysungan yozuvchi Edgar Alan Po ayollarni "jim" obyekt sifatida aks ettiradi. Yoki, yana bir mashhur detektiv qiroli Artur Konan Doyl ham ayollarni qurbon rolida ko'radi. Uning "The Adventure of the Speckled Band" asarida jinoyat meros masalasi tufayli sodir bo'ladi, asar qahramoni Julia Stoner o'z xonadonida noma'lum tarzda vafot etgan. Keyingi qurbon esa uning singlisi Helen Stoner nishon ostiga olingan va Helen hayotini qutqarish uchun Holmesdan yordam

so‘raydi.[2;2] Bunda yozuvchi ayolni erkak himoyasiga muhtoj zaifa ekanligini, mustaqil harakat qila olmasligini yaqqol ko‘rsatib bergan. Bu davr adabiyoti zamonaviy feministik yondashuvlardan yiroq bo‘lib, patriarxal ijtimoiy tuzumiga mos tarzda yozilgan.

Biroq XX asr o‘rtalaridan boshlab detektiv adabiyotda ayollar tasvirida keskin burilish yuz berdi, mualliflar ayollarni mustaqil, faol, intelektual qahramonlar sifatida namoyon qila boshlashdi. Bu o‘zgarish, ayniqsa, Angliya adabiyotida yaqqol ko‘zga tashlandi. Ingliz adabiyotining “oltin davri” da bir qancha ayol yozuvchilar adabiyot sahnasiga chiqib kelishdi va ular amalda bo‘lgan ijtimoiy qarashlarga qarshi o‘z g’oyalarini asarlarida ilgari surishdi. Xususan, Agata Kristi, Doroti Seyers va Margeri Allingem kabi “Jinoyat malikalari ” jamiyatda ayollarga nisbatan mavjud bo‘lgan gender stereotiplarini tanqid ostiga olishdi. [3;3] Ularning asarlarida ayol obrazi ko‘pincha markaziy qahramon sifatida ishtirok etib, aqliy salohiyati kuchli, murakkab psixologik jihatlarga ega, qiyin va ziddiyatli pozitsiyalarda namoyon bo‘ladi. Ular qurbon, jinoyatchi, manipulyator yoki tergovchi sifatida syujetni boshqaruvchi markazga aylanadi. Endi bu davr klassik detektiv romanlarida ayollar uch xil obrazda namoyon bo‘lishni boshlashdi:

- Qurbon sifatida – zaif, himoyasiz, lekin axloqiy jihatdan pok ayollarning o‘limi asar voqealarini harakatga keltiradi;
- Jinoyatchi sifatida – ayol jinoyatchilar erkak jinoyatchilardan farqli ravishda manipulyativ, hissiy jihatdan murakkab bo‘ladi;
- Tergovchi sifatida – ayrim mualliflarning asarlarida (D. Seyers,M.Allingem) ayol tergovchilar yoxud jinoyatni hal etishda muhim rol o‘ynovchi aql-idrokli ayollar tasvirlanadi.

Ayol mualliflar orqali detektiv adabiyotda ayol obrazlari tobora murakkablashdi: ular nafaqat jinoyat markazidagi shaxslar, balki ijtimoiy, psixologik va axloqiy savollar markaziga aylana bordi. Bu borada ingliz yozuvchisi Doroti L. Seyersning o‘rni beqiyos, negaki u o‘sha davr uchun an’anaga aylangan gender stereotiplarini izchil buzib, o‘z asarlarida patriarxal jamiyatning cheklovlariga ishora qiladi. Uning zamondoshi Margeri Allingem ham bu borada sezilarli qadamlar tashladi.

Misol uchun, Doroti Seyers “Strong Poison” asarida o‘z davrining jamiyati uchun noodatiy bo‘lgan ayol qahramon –Harriet Veynni keng ommaga olib chiqadi. U detektiv hikoyalar yozuvchisi bo‘lib, o‘z fikri, intelekti va qarorlariga ega shaxs sifatida o‘sha davr detektiv adabiyoti uchun tub burilish bo‘lgan obraz hisoblanadi. Seyers uni klassik “ayol qurbon ” yoxud “ayol yovuz” stereotiplaridan butunlay yiroq holda yaratadi.

“She had the look of one who had faced all things and faced them all alone.” [4;5] Bu tavsif orqali Seyers qahramonini mustaqil, o‘zi uchun javobgar shaxs ekanligini, boshqalarga tayanmasdan qarorlar qabul qila olishini ko‘rsatadi. Asar syujetiga ko‘ra Harriet o‘z sevgilisi Filip Boysni zaharlaganlikda ayblanadi va tergov ostiga olinadi. Sud jarayonida ayolga nisbatan qilingan nohaq ayblovlarga qaramay lord Peter Uimzi yordami bilan oqlanadi. Bu voqealar orqali muallif jamiyatdagi ayolga qarshi qarashlar ya’ni “mustaqil ayol xavfli ayol ” degan tushunchani fosh qiladi. Seyers bu qarashlarini nafaqat asosiy ayol qahramoni orqali, balki asardagi ikkinchi darajali ayol obrazlari yordamida ham aks ettirishga harakat qilgan. Ushbu asardagi yana bir ayol qahramon lord Peter Uimzining sodiq va ishonchli yordamchisi Miss Klimpson bo‘lib, u Uimziga yashirin surishtiruv ishlarini olib borishga yordam beradi. Izquvar sifatida lord Peter Uimzi kira olmaydigan joylarga ayol bo‘lganligi uchun e’tiborga olinmasligi sababli kira oladi va kerakli ma’lumotlarni to‘plash imkoniga ega bo‘ladi.

“It’s astonishing how much more one can find out when people think one’s just a fussy old maid.”[5;5] Bu jumla orqali muallif ayollar jamiyatda qanday past baholanishini tanqid ostiga oladi, aslida ular ulkan ishlarni amalga oshirishi mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi.

Asardagi yana bir ayol qahramon bu Miss Murchison bo‘lib, oddiy hayot kechiruvchi, lekin qarashlari mustahkam, halol obraz. Miss Murchison Uimzi tomonidan qamoqxonaga ishga joylanadi va o‘sha yerda Harriet Veyn foydasiga ma’lumot to‘playdi. Asarda tasvirlangan ayol qahramonlari orqali Seyers ayollarning ham jamiyatda o‘rni bo‘lishi lozimligini, ularni mustaqil, erkin shaxs sifatida e’tirof etish kerakligini, jamiyatga foydasi tegishi mumkinligini ko’rsatib bergan.

O‘z zamonasidan ilgarilib ketgan feministik obraz yaratgan ijodkorlardan yana biri bu Margeri Allingemdir. U yaratgan Amanda Fitton obrazi klassik adabiyotdagi an’anaviy ayol tasviridan tubdan

farq qiladi. U jasur, salohiyatli, amaliy bilimga ega qahramon sifatida shakllantirilgan. Amanda ilk bor "Sweet Danger"romanida paydo bo'lib, keyinchalik muallif uni bir qator boshqa asarlarida ham gavdalantiradi. Yozuvchi bu ayol qahramonini jamiyat uchun batamom yangilik bo'lgan qirralari bilan tasvirlaydi, ya'ni u muhandislik va texnika fanlariga qiziqqan qiz sifatida kitobxonga tanishtiriladi. Bu esa o'sha davr uchun noodatiy bo'lgan ayol portretidir.

"Amanda had a practical mind and a passion for engines. She spoke of carburetors as if they were poetry."[6;1] Allingem ayollar faqat go'zallik yoxud romantik his-tuyg'ular bilan emas, ilm va texnika bilan ham bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Amanda syujetda faol ishtirokchi, u jinoyat, fitna, xavfli vaziyatlarda izquvar Albert Kempion bilan muammolarni birgalikda hal qiladi. Uning jasorati uni erkak qahramonlarga tenglashtiradi: *"She had no time to be frightened; she had work to do."*[7;1] Muallif "The Fashion in Shrouds" va "Coroner's Pidgin" kabi romanlarida Amandani Albert Kempion bilan turmush qurishi va ularning turmushidagi hayotlarini tasvirlaydi. Amanda turmush qurgan bo'lishiga qaramay u o'zligini yo'qotmagan, ayol mustaqilligi va shaxsiy identitetini saqlab qolgan obraz hisoblanadi.

Detektiv adabiyotda ayol obrazining aks ettirilishini qiyosiy tahlilga tortadigan bo'lsak, yillar silsilasida yuz bergan bir nechta o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Detektiv asarlardagi ayol qahramonlarning qiyosiy tahlili:

№	Xususiyatlari	XIX asr klassik detektiv adabiyot	XX asr klassik detektiv adabiyot	
		Edgar Alan Poe, Artur Konan Doyl	Doroti Seyers	Margeri Allingem
1	Ayolning roli	Odatda qurbon, guvoh yoki ayyor jinoyatchi	Faol, o'z fikriga ega, tergovchi -yozuvchi	Texnik bilimli ayol, faol hamkor
2	Faollik darajasi	Passiv, syujetga bevosita ta'sir qilmaydi	Syujetni harakatga keltiradi	Jinoyat ochishda faol qatnashadi
3	Intelektual salohiyat	Ko'pincha e'tiborga olinmaydi	Bilimli, mantiqiy fikrlaydigan yozuvchi	Amaliy bilimlarga ega, texnika fanlariga qiziqadi
4	Jasorati	Qo'rqoq, erkaklarga tayanadi	O'z qarorlarini mustaqil qabul qila oladi	Tashabbuskor, jasorat bilan harakat qiladi
5	Stereotip	Ayol go'zallik, ehtiros va qurbonlik bilan bog'liq	Ayol aqliy va axloqiy salohiyat bilan ifodalanadi	Ayol kuchli, texnik,zamonaviy sifatlar bilan
6	Feministik tafakkurga yaqinlik	Devor ortida, jamiyat nazoratida	O'z ovoziga ega adabiy qahramon,	An'analarni buzuvchi, erkini e'lon qiluvchi obraz

Xulosa va takliflar. Harriet Veyn va Amanda Fitton – klassik detektiv adabiyotda yaratilgan murakkab va o'ziga xos ayol obrazlaridir. Ikkala qahramon ham detektiv janrida ayollarni faqat qurbon rolida emas, balki hamkor, tergovchi, teng huquqli inson sifatida ko'rsatishdagi muhim qadamdir. Doroti Seyers va Margari Allingem ayol qahramonlarning tasvirida yangi bosqichni boshlab bergan ijodkorlardan hisoblanadi. Ular orqali jamiyatda mavjud bo'lgan gender qarashlari tanqid ostiga olinib, ayollar faqat syujet bezagi emas, balki intelektual, axloqiy va ijtimoiy mavqega ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allingham, M. *Sweet Danger*. London: Heinemann, 1933.

2. Doyle, A. C. *The Adventure of the Speckled Band*. In *The Adventures of Sherlock Holmes*. London: George Newnes, 1892.

3. Medawar, T. *The Good, the Bad and the Ugly: An A to Z of the Golden Age of Crime and Detective Fiction.* JSTOR 48609853

4. Poe, E. A. *The Murders in the Rue Morgue*. Philadelphia: Graham's Magazine, 1841.

5. Sayers, D. L. *Strong Poison*. London: Victor Gollancz Ltd, 1930.

UO'K 811.512.133

SUG'URTA TERMINOLOGIYASINING O'ZBEK TILI LEKSIK TIZIMIDAGI O'RNI

O'.S.Raxmonqulov, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola sug'urta sohasidagi terminlarning o'zbek tilidagi leksik tizimdagi ahamiyati, o'zlashuvi va funksional roli, morfologik hamda sintaktik muammolari haqida fikr yuritadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek tilidagi leksik tizimi, terminlar o'zlashuvi, ruschadan o'zlashgan terminlar, inglizchadan o'zlashgan terminlar, Abandon, Addendum, Adjaster, Anderrayter, Benefitsiar, Avariya komissari, Avariya sertifikati, Avtokasko, Guruhlab sug'urtalash, Davlat sug'urtasi.*

Аннотация. *В этой статье рассматриваются значение, усвоение и функциональная роль терминов страховой отрасли в лексической системе узбекского языка, а также морфологические и синтаксические проблемы.*

Ключевые слова: *лексическая система узбекского языка, освоение терминов, освоение русского языка, освоение английского языка, Abandon, Addendum, Adjaster, андеррайтер, бенефициар, аварийный комиссар, аварийный сертификат, автокаско, групповое страхование, государственное страхование.*

Abstract. *This article reflects on the importance, appropriation and functional role, morphological and syntactic problems of terms in insurance in the lexical system of the Uzbek language.*

Keywords: *Lexical system of Uzbek language, assimilation of terms, acquired terms from Russian, borrowed terms from English, Abandon, Addendum, Adjaster, underwriter, beneficiary, accident Commissioner, accident certificate, Autocasco, Group Insurance, state insurance.*

Fan va sohalarning integratsiyalashish jarayonida sug'urta masalasi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Sug'urta sohasining jadal rivojlanishi bilan uning terminologiyasi ham kengayib, murakkablashmoqda. Sug'urta terminlari iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sohalarda keng qo'llanilib, o'zbek tilining leksik tizimida muhim qatlamni tashkil etadi. Shu bois, ularning o'zbek tilidagi o'rni, o'zlashuvi va normativlashtirilishi tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir.

Sug'urta va uning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar doirasidagi ahamiyati uning alohida, muhim sohalardan ekanligini dalolatlaydi. Sug'urta sohasi rivojlanishi bilan bog'liq holatda uning terminosistemada tutgan o'rni ham doimiy ravishda kengayib, murakkablashib boradi. Bugungi kunda sug'urta terminlari faqat iqtisodiy hamda huquqiy sohalarda emas, balki kundalik hayotda ham keng qo'llanilmoqda. Shu sababdan, sug'urta terminologiyasining o'zbek tili leksik tizimidagi o'rni va roli haqida chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq. O'zbek tilining leksik tizimi — so'zlarning ma'nolari va funksiyalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Sug'urta terminlari esa ushbu tizim ichida ixtisoslashgan leksik qatlam bo'lib, u aniq, qat'iy belgilangan iqtisodiy-ixtisoslashgan ma'nolarni ifodalaydi.

Sug'urta sohasi terminologiyasining leksik tizimdagi o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilining leksik tizimi — bu so'z va ularning ma'nolarini tizimli yig'indisi hisoblanib, undagi har bir so'z o'ziga xos funksiyaga ega. Sug'urta terminologiyasi esa bu tizimning ichidagi ixtisoslashgan leksik qatlamni tashkil qiladi. Soha terminlari o'zbek tilining umumiy leksikasidan farqli o'laroq, aniq iqtisodiy-ixtisoslashgan ma'nolarni ifodalaydi.

Sug'urta terminlari ko'pincha quyidagi xususiyatlarga ega: Har bir termin o'ziga xos, qat'iy belgilangan ma'noga ega. Masalan, "polis" — sug'urta shartnomasi, "franshiza" — sug'urta to'lovidagi sug'urtalovchi zimmasidagi qism.

Texnik tarafdan: Sug'urta sohasiga xos maxsus tushunchalar va jarayonlarni ifodalaydi.

Terminlarning o'zlashuvi jihatidan: Ko'plab terminlar rus va ingliz tillaridan o'zlashgan bo'lib, ular o'zbek tilining fonetik va morfologik qoidalariga moslashgan. Sug'urta terminologiyasining o'zbek tilidagi o'zlashuvi ikki asosiy yo'l bilan amalga oshadi:

1. **To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashuv:** Rus va ingliz tillaridan kirib kelgan terminlarning talaffuzi va yozilishi o‘zbek tilining umum qoidalariga moslashishi. Masalan, “polis”, “franshiza”, “premium”

2. **Tarjima va so‘z yasash bilan:** Ba’zi terminlar o‘zbek tiliga so‘z yasash orqali shakllantiriladi, masalan, “sug‘urta badali”, “sug‘urta holati” bu jarayon tilning leksik tizimini boyitadi, lekin ba’zida sinonimlarning to‘planishi anglashilmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Sug‘urta terminologiyasining leksik tizimdagi funksional roli soha terminologiyasi o‘zbek tilining leksik tizimida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Iqtisodiy-ijtimoiy muloqot vositasi: Sug‘urta sohasida aniq va tushunarli muloqot uchun zarur bo‘lgan terminlarni ta’minlaydi.

- Ilmiy-nazariy bazani yaratish: Sug‘urta bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayonlarida asosiy leksik bazani tashkil qiladi.

- Huquqiy me’yorlarni ifodalash: Sug‘urta sohasidagi qonun va shartnomalar tilida ishlatiladigan asosiy atamalar tizimini hosil qiladi.

- Til boyligini oshirish: Yangi texnologiyalar va iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq yangi terminlar orqali o‘zbek tilining leksik boyligini kengaytiradi.

Sug‘urta terminologiyasining o‘zbek tilidagi rivojlanishi bir qator muammolar bilan bog‘liq:

- **Sinonimlar to‘planishi va terminlarning chalkashligi:** Rus va ingliz tillaridan kirib kelgan bir nechta atamalar bir xil ma’noni ifodalashi.

- **Tarjima qiyinchiliklari:** Ba’zi tushunchalarni aniq va to‘g‘ri tarjima qilishda muammolar mavjud. Biroq, bu muammolarni hal qilish uchun davlat til siyosati, normativ hujjatlar va atamalar komissiyasi faoliyatini kuchaytirish, terminologik lug‘atlarni yaratish va keng targ‘ib qilish zaruratga aylanadi. “Polis” atamasi sug‘urta shartnomasini anglatadi, “franshiza” esa sug‘urta to‘lovidagi sug‘urtalovchi zimmasidagi qismni bildiradi.

Bu terminlar o‘zbek tilining fonetik, morfologik va sintaktik qoidalariga moslashgan holda faol qo‘llaniladi va tilning leksik fondini boyitadi.

Sug‘urta terminologiyasi o‘zbek tilining iqtisodiy va huquqiy leksikasida muhim o‘rin tutadi. Biroq, ushbu terminlarning sintaktik va morfologik jihatdan o‘zbek tiliga moslashishida bir qator muammolar yuzaga keladi. Bu muammolar tilning normal ishlatilishi va terminologiyaning aniq ifodalanishiga to‘sqinlik qiladi.

Sintaktik muammolar:

Sug‘urta sohasi terminlari sintaktik jihatidan muammolari asosan so‘zlarning tartibi noto‘g‘ri qo‘llanilishida: Masalan, rus va ingliz tillaridan sug‘urta sohasiga o‘zlashgan terminlar bilan bir qatorda o‘zbek tilidagi an’anaviy so‘zlarning tartibi buzilish holatlari uchraydi. Majmua va birikmalarning noto‘g‘ri holda shakllanishi: Sug‘urta terminlaridan iborat murakkab sintaktik birikmalarda ham xatoliklar yuzaga keladi. Masalan, “sug‘urta shartnomasi summasi” va “shartnoma summasi sug‘urtasi” kabi noto‘g‘ri iboralar paydo bo‘lishi mumkinligi tilning g‘alizligini keltirib chiqaradi. Bog‘lovchilar va predloglarning noto‘g‘ri ishlatilishidan “sug‘urta bo‘yicha da’vo” termini o‘rniga “sug‘urta da’vosi bo‘yicha” kabi murakkab va chalkash tuzilmalar qo‘llanilishi mumkin. Bunday muammolar asosan sug‘urta kompaniyalarining lug‘atlarida uchraydi.

Morfologik muammolar:

Sug‘urta terminlarining morfologik muammolari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Qo‘shimchalarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi: O‘zlashgan so‘zlarga o‘zbek tilining morfologik qo‘shimchalari to‘g‘ri mos kelmasligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishi kuzatiladi.

- **So‘z yasashdagi muammolar:** Yangi terminlar yaratishda so‘z yasash qoidalarining buzilishi, masalan, “sug‘urtalovchi” so‘zidan noto‘g‘ri hosil qilingan shakllar paydo bo‘lishi mumkin.

- **Fonetik o‘zgarishlar va talaffuzdagi noaniqliklar:** Ruscha yoki inglizcha terminlarning talaffuzi o‘zbek tilining fonetik qoidalariga to‘liq mos kelmasligi natijasida morfologik shakllanishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Misollar:

- “Polis” so‘ziga qo‘shimcha qo‘shishda “polisi” shakli noto‘g‘ri, to‘g‘ri shakl esa “polisning” bo‘lishi kerak.

- "Premium" so'zidan o'zbekcha qo'shimchalar yordamida "premiumi" shakli yuzaga keladi, bu esa til normalariga mos kelmaydi.

- "Sug'urta hodisasi akti" iborasida sintaktik tartib buzilishi mumkin, to'g'ri shakl "Sug'urta hodisasi to'g'risidagi akt" bo'lishi maqsadga muvofiq.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari:

- Normativ hujjatlarni yaratish va targ'ib qilish: Sug'urta terminlarining sintaktik va morfologik shakllarini standartlashtirish uchun rasmiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

- Tilshunoslar va soha mutaxassislari hamkorligi: Terminologiya sohasida mutaxassislar o'rtasida doimiy muloqot va maslahatlashuvlar o'tkazilishi lozim.

- Ta'lim va o'quv materiallarini takomillashtirish: Sug'urta sohasidagi terminlarning to'g'ri ishlatilishini o'rgatish uchun maxsus o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish kerak.

Inglizchadan o'zlashgan terminlar:

1. Abandon (ABANDONMENT AND SALVAGE)

Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta pulini to'liq olish maqsadida sug'urta qildiruvchining sug'urtalangan mulkga bo'lgan huquqlaridan sug'urtalovchi foydasiga voz kechish huquqi.

2.Addendum

Tomonlar o'rtasida oldin kelishilgan shartlarga o'zgartirishlar kiritilgan oldin tuzilgan sug'urta shartnomasiga yoki qayta sug'urtalash shartnomasiga yozma qo'shimcha.

3. Adjaster (ing) adjust fe'lidan kelib chiqib sozlash

Davoni ko'rib chiquvchi va uning tartibga keltrishni tashkillashtiruvchi shaxs

4. Anderrayter (ing. Underwriter) — 1) yangi chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar (aksiya, obligatsiya va boshqalar)ning muayyan miqdorini sotib olib, keyinchalik uni investorlarga sotish yo'li bilan joylash-tirish majburiyatini oladigan kafil; 2) sug'urta ishida sug'urta kompaniyasi tomonidan xatarning barcha turlarini sug'urtalash (qayta sug'urtalash)ga vakil qilingan shaxs. A. Sug'urta portfelining shakllanishiga javob beradi.

5. Benefitsiar (Naf oluvchi, nafaqa oluvchi)

Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta polisida sug'urta qoplamasini yoki sug'urta summasini oluvchi deb ko'rsatilgan uchinchi shaxs.

Ruschadan o'zlashgan terminlar:

1.Avariya komissari. Sug'urtalangan kema va yuklar bo'yicha zararning sababi, tavsifi va miqdorini aniqlash bilan shug'ullanuvchi vakolatli jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalovchi avariya komissarini mamlakat ichida hamda ushbu mamlakatning qonunchiligiga muvofiq chet elda tayinlaydi. Amalga oshirilgan ishlarning natijalariga muvofiq avariya komissari avariya sertifikatini tuzadi. Avariya komissari vazifasini adjaster bajaradi.

2. Avariya sertifikati. Avariya komissari tomonidan tuziluvchi, zararning miqdori va sabablari ko'rsatilgan hamda yuz bergan voqea bilan bog'liq tavsilotlarni o'z ichiga olgan boshqa ma'lumotlar kiritilgan hujjat. Avariya sertifikati zarar etkazilganligini tasdiqlaydi va uning qoplab berishni ko'zda tutmaydi. Avariya sertifikati asosida sug'urtalovchi da'vo bo'yicha sug'urta qoplamasini to'lab berish yoki bermaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

3. Avtokasko - (Kasko (ispancha- kasko dubulg'asi yoki gollandiyalik kasko tanasidan) - transport vositalarini (avtomobillar, kemalar, samolyotlar, vagonlar) shikastlanish, o'g'irlik yoki o'g'irlikdan sug'urta qilish.

4. Guruhlab sug'urtalash - (групповое страхование)

Ma'muriy masalalarni hal etishga qulay bo'lishi uchun o'xshash manfaatli bir nechta shaxsni sug'urtalashda amalga oshiriladigan sug'urta turi. Odatda, ish beruvchilar O'z ishlovchilarini sug'urtalashda qo'llaniladi. Guruh polisi ish beruvchiga yoki sug'urtalanganlar guruhining boshqa vakiliga beriladi, guruh a'zolari esa ular sug'urtalanganliklari to'g'risida sertifikatlar oladilar.

5. Davlat sug'urtasi [Государственное страхование] - Davlat tashkiloti sug'urtalovchi bo'lib ishtirok etadigan sug'urta turi.

Xulosa: Sug'urta terminologiyasining sintaktik va morfologik muammolari tilning aniq va bir xilda qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu muammolarni hal etish uchun normativ hujjatlar ishlab chiqish, terminlarni standartlashtirish va soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish zarur. Sug'urta

terminologiyasi o‘zbek tili leksik tizimining muhim va faol rivojlanayotgan qatlami hisoblanadi. U iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sohalarda aniq va samarali muloqot uchun zarur bo‘lgan maxsus leksik bazani ta’minlaydi. Terminlarning to‘g‘ri me’yorlashtirilishi va normativlashtirilishi tilning rivojlanishiga, sohaning yanada sifatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov, A. (2018). O‘zbek tilining leksik va sintaktik qoidalari. Toshkent: Fan.
2. Islomov, B. (2020). Til o‘zaro ta’siri va sintaktik muammolar. Tilshunoslik masalalari, 3(12), 45–50.
3. Tursunov, F. (2022). Morfologik qo‘shimchalarning qo‘llanilishi. Ilmiy izlanishlar, 6(3), 10–16.
4. Sobirov, J. (2017). So‘z yasash qoidalari va terminologiya. Iqtisodiy tilshunoslik, 2(8), 35–40.
5. Akhmedova, D. (2019). Fonetik o‘zgarishlar va morfologik moslashuv. Toshkent: Universitet nashriyoti.
6. Yusupov, K. (2020). Terminlarning morfologik tahlili. Huquqshunoslik jurnali, 3(9), 50–55.
7. Dictionary of insurance terms / Harvey W. Rubin. 2000. 4th ed 1-page
8. 10] Страховой бизнес: Словарь-справочник / Сост. Р.Т.Юлдашев. – М.: Анкил, 2005. – 832 с. – ISBN 5-86476-159-1.
9. [Страхование: принципы и практика / Сост. Д. Бланд: Пер. с англ. – М.: Финансы и статистика, 1998. – 416 с.]
10. Мандельштам Ю. И — Москва: Государственное издательство юридической литературы, 1956. — С. 382.]

UO’K 81.2

GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYAGA OID MATNLARDA TERMINLAR TARJIMASI

M.R. Ro‘zmetova, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillari geografik va ekologik terminlarning leksik-semantik jihatdan olib borilgan qiyosiy tahlil natijalarini yoritib, soha terminologiyasida ularning tarjimada farqlari borasida tanishtirib o‘tadi. Maqoladan ko‘zda tutilgan maqsad matnlarni tarjima jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar, bu jarayonda ma’lumotlarni to‘liq qayta tiklash, matnning kengayish holatlari, geografik va ekologik nomlar tarjimasi haqida nazariy qarashlar bilan birgalikda ularga yechim topish ava amaliyotga tatbiq qilish.*

Kalit so‘zlar*. Terminlar, ekologik, geografik, differentatsiya, tarjima, lingvistik, terminologiya*

Аннотация. *В данной статье освещены результаты лексико-семантического сравнительного анализа английских и узбекских географических и экологических терминов, а также представлены различия в их переводе в терминологии данной области. Цель статьи - найти решение возникающих в процессе перевода текстов трудностей, полного восстановления информации в этом процессе, ситуаций расширения текста, перевода географических и экологических названий, а также найти их решение на практик.*

Ключевые слова. *Термины, экологические, географические, дифференциации, переводные, лингвистические, терминология.е.*

Abstract. *In this article, the results of the lexical-semantic comparative analysis of English and Uzbek geographical and ecological terms are highlighted, and the differences in their translation are introduced in the terminology of the field. The purpose of the article is to find a solution to the difficulties encountered in the process of translation of texts, complete restoration of information in this process, situations of text expansion, translation of geographical and ecological names, and to find a solution to them in practice.*

Key words. *Terms, ecological, geographical, differentiation, translation, linguistic, terminology.*

Termin – (grekcha) "terminus" degan so‘zdan olingan bo‘lib, ular ma’lum bir soha doirasida qo‘llaniladigan so‘zlar hisoblanib, ulardan faqat o‘sha sohada foydalaniladi. Ba’zi terminlarni ikki yoki uch sohada uchratishimiz mumkin, ammo ular har bir sohada har xil ma’nolarni anglatadi. Ilmiy matnlarda terminlarni tartibga solish masalasi hozir ham dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa so‘nggi yillarda ekologik va geografik matnlarda har xil terminlar boshqa tilga ko‘chganda o‘zgarishi matnning umumiy ma’no-mazmuniga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda taniqli tarjimashunos va tilshunos, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha ko‘plab asarlar muallifi Mona Bakerning fikrini keltirib o'tishimiz mumkin: "Tarjimadagi asosiy muammolardan biri bu atamalarni farqlashdir, ular

har doim ham maqsadli tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentiga ega bo'lmasligi mumkin". [1] Bu fikrga qo‘shilgan holda matnlardan misol keltirib o‘tamiz. O'zbekcha matn: "O‘zbekistonda, Qizilqum sahrosida yirik qum tepalari joylashgan, ular tog‘lar bilan solishtirganda ancha past va tekis bo‘lib, iqlimning ekstremal sharoitlariga moslashgan." Inglizcha tarjima: "In Uzbekistan, large sand dunes are located in the Kyzylkum desert, which are much lower and flatter compared to mountains, adapted to the extreme climatic conditions." Bu yerda **"qum tepalari"** (sand dunes) atamasi geografik kontekstdagi atama hisoblanadi, turli tillar tarjimasida murakkabliklar bo‘lishi mumkin. Ba'zi tillarda bu atama to'g'ridan-to'g'ri "qum tog'lari" deb tarjima qilinishi mumkin, lekin asosan bu atama o‘zbek tilida "qum tepalari" deb ishlatilgani bois, bu so‘zning aniq ekvivalenti boshqa tillarda turlicha bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilida "sand dunes" sifatida ishlatiladi. Tarjimon, "qum tepalari" atamasini boshqa tillarda to‘g‘ri ifodalashda, har bir tilning madaniy va geografik xususiyatlarini hisobga olgan. Bu tarjima, geografik atamaning aniq ma'nosini saqlab qolish uchun tilga xos leksik va semantik moslashuvni talab qiladi. Tarjimonning mahorati, atamaning to‘g‘ri va tushunarli tarjimasini ta'minlash orqali matnning aniq va kontekstual ma'nosini saqlashda namoyon bo‘ladi.

Eguene Nida o‘zining "Toward a Science of Translating‘’ kitobida terminlarni boshqa tillarga tarjima qilishda kontektsdagi aniq va ishonchli tarjimasini ta'minlash va tabiiylikni yo‘qotmasligi kerakligiga, o‘qilishi va tinglanishi davomida asliyatga yaqin bo‘lishiga ishora qiladi, [6] aks holda matn uni o‘qiyotgan odamga noto‘g‘ri ma’lumot berishi, qo‘shimcha ma’no yuklashi, xato talqin qilinishi yoki umuman matnning umumiy ma’nosini o‘zgartirib yuborishiga xizmat qilishi mumkin. Bularga ilmiy matnlardagi terminlar misol bo‘la oladi. Ishonchlilikka misol: "Ma'lumotlarga ko'ra, daryo uzunligi 1,200 km ni tashkil qiladi" - "According to the information, the length of the river is 1,200 km." Bunga yana misol tarzda ekologik matndan ingliz tilidagi "deforestation" atamasini olaylik, bu so‘zning aynan o‘zi o‘zbek tiliga "daraxtlarni kesish, o‘rmonlarni qisqartirish" degan ma’noni bildiradi, lekin matnda "o‘rmonlarni kamayishi" deb tarjima qilinsa bu ishonchlilik nuqtai nazaridan aniq va tabiiyroq bo‘ladi, sababi ma’no to‘liq saqlanib qoladi. Albatta, bunga gapda misollar mavjud: "O‘rmonlarning kamayishi natijasida bu hududning yer yuzasi tuzilishi jiddiy o'zgarishlarga uchradi’’ - "As a result of deforestation, the land structure of this area has undergone significant changes".

Arab tilshunosi Bassam Hatim va ingliz tarjimashunosi Ian Mason fikricha, matnda ro‘y berayotgan differensiyalanish til va madaniyat o‘rtasidagi tafovutlar bilan ham ro‘y berishi mumkin.[3] Masalan, ‘’Rocky tog‘lari’’ degan so‘z birikmadagi ‘’Rocky’’ so‘zi aynan bir geografik joy nomi bo‘lganligi uchun o‘zbek tiliga o‘z holicha tarjima qilinadi, biroq ba’zi tillarda (masalan, fransuzcha) o‘zgarishi yoki qo‘shimcha izohlar bilan berilishi mumkin, negaki o‘sha madaniyatda tog‘ tizmasi keng tarqalmagan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, New Mexico (Yangi Meksika) o‘zbek tiliga tarjima qilinganida, madaniy tafovutlar mavjudligi sababli ‘’Yangi Meksika’’ so‘zi qo‘llaniladi, lekin baribir ko‘p hollarda o‘z nomi saqlanadi. Bu misollar har bir madaniyatning geografik joylarga nisbatan qarashlari farq qilishini yaqqol timsoli. Masalan, ekologik matnlarda: "The plant and animal species in the forests of New Mexico are facing ecological issues such as climate change and deforestation." - "Yangi Meksika o'rmonlaridagi o'simlik va hayvon turlari iqlim o'zgarishi va deforestatsiya kabi ekologik muammolar bilan yuzlashmoqda." Bu yerdagi deforestatsiya so'zi maqolani o'quvchiga tanish bo'lmasa, uning umumiy ma'nosini qavs ichida yoki gapga izohlovchi sifatida kiritib o'tishimiz kerak, lekin bu termin ilmiy kengashda ekologiya, geografiya, atmosfera fanlari va qishloq xo'jaligiga oid bo'lsa, uni ma'nosini aniqlashtirish shart emas, sababi bu termin ularga ma'lum.

Geografik terminlar odatda yer yuzasining tabiiy va ijtimoiy jihatlariga oid tushunchalarni ifodalaydi. Bu sohada Harold A. Innis va David Harvey kabi olimlar, geografiyaning ilmiy yo'nalishlari va terminologiyasi ijtimoiy va siyosiy kontekstlarda qanday o'zgarishini o'rganib chiqishgan. Geografik terminlarning maxsus joylashuv, hududiy tuzilma, muvozanat va geosiyosat kabi tushunchalarga asoslanganligi ta'kidlab o'tganlar. Quyida har bir terminning differensatsiyasi va tarjimasi to'g'risida gaplar keltiraman: "Hudud" va "Mintaqa": Geografik matnlarda "hudud" va "mintaqa" atamalari o'rtasida katta farq mavjud. "Hudud" odatda siyosiy yoki iqtisodiy birlikni anglatadi, masalan, bir davlat yoki viloyatni bildiradi. Boshqa tomondan, "mintaqa" atamasi tabiiy

yoki ijtimoiy jihatlarga asoslangan ajratilgan hududni ifodalaydi, masalan, tropik mintaqa yoki qishloq mintaqasi. Tarjimada bu farqni inobatga olish shart chunki "region" va "area" so'zlarining ma'nosi va ishlatilishi bir-biridan farq qiladi. Mintaqa: Tropik mintaqa o‘zining o‘ziga xos iqlimi, flora va faunasi bilan ajralib turadi"- "The tropical region stands out with its unique climate, flora, and fauna". "Landshaft" va "Ekosistema": Geografik va ekologik matnlarda "landshaft" va "ekosistema" terminlarini tafovutlari mavjud. "Landshaft" asosan tabiiy va madaniy elementlarning birlashmasini, ya'ni tog'lar, daryolar va shaharlarni ifodalaydi. "Ekosistema" esa, organizmlar va ularning atrof-muhiti o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Tarjimada "landshaft"ni "manzara" yoki "tabiat ko'rinishi" deb tarjima qilishimiz mumkin, lekin "ekosistema"ni o'zgarmas tarzda "ekosistema" deb tarjima qilish kerak. Landshaft: " O‘rmonlar, daryolar va tog‘lar birgalikda manzara hosil qiladi, bu landshaftni tashkil etadi" - "Forests, rivers, and mountains together form a landscape, which constitutes the terrain." Ekologik terminlar esa organizmlar va ularning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini tushuntirish uchun qo'llaniladi. Ekologiyaning asosiy tushunchalari, masalan, ekosistema, biom, biodiversitet, populyatsiya singari atamalar yordamida hayotiy jarayonlar va tabiiy muvozanatlar o'rganiladi.

Ekologik va geografik matnlarda terminlarning tarjimasi o'ziga xos murakkabliklarga ega. Bu ikki xil matnlarda terminlarning tarjimasi lingvistik va madaniy farqlarni hisobga olishni talab etadi. Bu sohalarda matnlarni tarjima qilishda ko‘pincha ekvivalent atamalar mavjud emas. Tarjimonlar har bir atamaning asl matndagi ma'nosini va kontekstini inobatga olgan holda tarjima qilishlari, agar zarur bo‘lsa matnlarning ilmiy mohiyatini saqlab qolish maqsadida maxsus terminlarni ishlab chiqishi yoki moslashtirishi hamda o‘zining ijtimoiy va madaniy bilimlarini ishga solishi ham zarur. Bu tarjimonlarni yangi shakllarda atamalarda ijodkorlikka chorlaydi. Tarjimon atama va jarayon o‘rtasidagi paragmatik munosabatni topib, maqsadli auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazib berishi darkor. Shu tarzda, tarjima nafaqat so‘zlar, balki tushunchalar va ideyalarni ham saqlab qolishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Tarjimon, shu bilan birga, har ikki tilning stilistik va lingvistik xususiyatlarini chuqur anglab, matnga mos ifoda vositalarini tanlashi lozim.

Umuman olganda, geografik va ekologik terminlar har ikki sohaning o'ziga xos kontseptual ramkalariga asoslanadi va ular bir-biridan ajralib turadi, lekin ba'zi holatlarda o'zaro o'rganishga ham imkon yaratmoqda. Terminlarning differensatsiyasi, ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlarda qanday ishlatilishi, shu bilan birgalikda ma'lum bir region yoki ekologik tizimning xususiyatlarini aniq ifodalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. In imprint of the Taylor & Francis Group, Mona Baker, "In other words: a coursebook on translation", 1992. In
2. David Crystal, Language and linguistics, London: Penguin books, 1987.
3. Hatim and Mason, Discourse and the translator, Longman, 1990
4. I.Yoldashev, S.Muhammedova, O'.Sharipova, R.Majidova, Tilshunoslik asoslari -Toshkent, 2013.
5. I.Irisqulov, Tilshunoslik nazariyasi, Toshkent, 2016.
6. Nida, E.A, Toward a science of translating, Leiden: E.J.Brill, 1964.
7. Nord.C, Translating a purposeful activity, Manchester: St. Jerome Publishing, 1997.
8. Peter Newmark, Language and Terminology, 'Language and terminology'',London: The Modern Language Press, 1998
9. R.Rasulov, Umumiy tilshunoslik- Toshkent, 2010.
10. Z.Xolmonova, Tilshunoslik nazariyasi(Darslik)- Toshkent, 2020.

UO'K-8-1751 R-95

O‘ZBEK VA INGLIZ TILI KICHIK JANR MATNILARNING LINGVISTIK MAQOMI

I.T. Rustamov, v/b.prof., Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent
https://orcid.org/0000-0003-1075-4052

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarining lingvistik maqomi tahlil qilingan hamda bu matnlarning fonetik, leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlari o‘rganilib, ularning til tizimidagi o‘rni va kommunikativ ahamiyati aniqlangan. O‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarining umumiy va farqli jihatlari solishtirilib, tarjima jarayonida yuzaga*

keladigan lingvistik va madaniy muammolar muhokama qilingan. Shu bilan birga, ushbu matnlarning lingvodidaktik ahamiyati ham ko'rib chiqilib, ularning til o'rganish jarayonidagi roli baholangan. Natijada, kichik janr matnlari tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvodidaktika nuqtai nazaridan muhim tadqiqot obyekti ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: *kichik janr matnlari, lingvistik maqom, pragmatika, tarjima, lingvodidaktika, madaniy moslashuv, til va madaniyat, folklorshunoslik.*

Аннотация. *В статье анализируется лингвистический статус текстов малых жанров на узбекском и английском языках, изучаются их фонетические, лексические, грамматические и прагматические особенности для определения их места в системе языка и коммуникативной значимости. Сравниваются сходства и различия между текстами малых жанров на узбекском и английском языках, обсуждаются лингвистические и культурные проблемы, возникающие в процессе перевода. Кроме того, исследуется лингводидактическая значимость этих текстов, оценивается их роль в изучении языка. В результате обосновывается, что тексты малых жанров служат важным объектом исследования с точки зрения лингвистики, переводоведения и лингводидактики.*

Ключевые слова: *тексты малых жанров, лингвистический статус, прагматика, перевод, лингводидактика, культурная адаптация, язык и культура, фольклористика.*

Abstract. *The article analyzes the linguistic status of small genre texts in Uzbek and English, examining their phonetic, lexical, grammatical, and pragmatic features to determine their place in the language system and communicative significance. The similarities and differences between small genre texts in Uzbek and English are compared, and the linguistic and cultural challenges encountered in the translation process are discussed. Additionally, the linguodidactic significance of these texts is explored, assessing their role in language learning. As a result, it is substantiated that small genre texts serve as an important research object from the perspectives of linguistics, translation studies, and linguodidactics.*

Key words: *small genre texts, linguistic status, pragmatics, translation, linguodidactics, cultural adaptation, language and culture, folklore studies.*

Kirish. Til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har bir xalqning ma'naviy merosi til vositasida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, kichik janr matnlari – maqollar, matallar, latifalar, aforizmlar va boshqa qisqa shakldagi asarlar xalq ijodiyoti va lingvistik merosning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu janrlar nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki muayyan madaniy va lingvistik birlik sifatida ham qiziqarli tadqiqot obyektidir.

Kichik janr matnlarining lingvistik maqomini aniqlash tilshunoslikning turli yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lib, ular semantika, pragmatika, stilistika, leksikografiya va tarjimashunoslik doirasida o'rganiladi. Bunday matnlar qisqa hajmda bo'lishiga qaramay, ko'p ma'noli, kinoya va metaforaga boy bo'lib, ularni talqin qilish turli lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishni talab qiladi.

Ishda kichik janr matnlarining lingvistik xususiyatlari, ularning kommunikativ va pragmatik vazifalari hamda tarjimada uchraydigan muammolar yoritilishi bilan birga, bunday matnlarning lingvodidaktik ahamiyati va ularni o'qitish jarayonida qo'llash imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiq davomi kichik janr matnlarining lingvistik o'ziga xosligini aniqlash va ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek va ingliz tillarida kichik janr matnlarini lingvistik jihatdan o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu matnlarning semantik, pragmatik, stilistik va tarjimashunoslik jihatlarini yoritishga yo'naltirilganligi bilan alohida tahlil talab qiladi.

Folklorshunoslik va lingvistik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan, o'zbek tilida kichik janr matnlari xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi sifatida o'rganilgan. Xususan, A.Madvaliyev, K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov, O.Madayev B.Soatov [1.2.3.4] kabi olimlar o'zbek maqollari va matallarining lingvistik tahliliga alohida e'tibor qaratib, ularning semantik va pragmatik jihatlarini tadqiq etganlar. Ingliz tilida esa, N.N.Amosova va A.V.Kunin [5.6]kabi olimlar frazeologik birliklarning tahliliga asoslangan holda, kichik janr matnlarining tarkibiy va funksional xususiyatlarini yoritganlar.

Kichik janr matnlarining semantik va pragmatik jihatlarini o‘rganishda Yu.D. Apresyan va V.V. Vinogradov [7.8] kabi tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida metaforalar, kinoya va ironiyaning lingvistik funksiyalari chuqur tahlil qilingan. Ingliz tilshunosligida esa, G.Lakoff va M.Johnsonning [9] kognitiv lingvistika yo‘nalishidagi ishlari kichik janr matnlarining metaforik tabiatini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarjimaning lingvistik jihatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarini tarjima qilish bo‘yicha P.Newmark, L.Venuti hamda X.Abdullayev [10.11.12] kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida bunday matnlarning kontekstual va madaniy jihatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaganlar.

O‘zbek va ingliz tillarida kichik janr matnlarini lingvistik jihatdan o‘rganish bo‘yicha mavjud adabiyotlar ularning semantik, pragmatik, stilistik va tarjimaviy xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga imkon beradi hamda ushbu tadqiqotlarning natijalari kichik janr matnlarini chuqur o‘rganish va tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun nazariy asos yaratadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiq davomida o‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarining lingvistik maqomini aniqlash va taqqoslash maqsadida bir nechta ilmiy usullar qo‘llanildi. Ilmiy izlanish asosan quyidagi metodologik yondashuvlarga tayanadi:

Birinchidan, deskriptiv (ta’rifiy) tahlil usuli qo‘llanilib, o‘zbek va ingliz tillarida mavjud kichik janr matnlarining lingvistik xususiyatlari aniqlandi. Bu usul yordamida anekdotlar, maqollar va latifalarning leksik, morfologik va sintaktik jihatlari o‘rganildi.

Ikkinchidan, kontrastiv (qarama-qarshi taqqoslash) usuli orqali ikkala tilning kichik janr matnlaridagi o‘xshashlik va farqlari belgilandi. Bunda har ikkala tilga xos bo‘lgan semantik va pragmatik xususiyatlar tahlil qilindi va ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajasi o‘rganildi.

Uchinchidan, lingvokulturologik tahlil yordamida o‘zbek va ingliz anekdotlarida ifodalangan madaniy qadriyatlar va milliy mentalitetning aks etishi o‘rganildi. Ushbu yondashuv kichik janr matnlarining lingvokulturologik tafovutlarini aniqlashga yordam berdi.

To‘rtinchidan, eksperimental va lingvodidaktik tahlil usullari orqali kichik janr matnlarining chet til o‘qitishdagi ahamiyati baholandi. Bunda kichik janr matnlarining xorijiy til o‘rganishda qanchalik samarali vosita ekanligi tahlil qilindi.

Beshinchidan, korpus lingvistikasi va statistik tahlil usullaridan foydalanilib, tanlangan matnlardagi muhim leksik birliklar, frazeologik ifodalar va ularning qo‘llanish chastotasi o‘rganildi.

Berilgan tadqiqot usullari orqali o‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarining lingvistik xususiyatlari chuqur o‘rganilib, ularning tarjima jarayonidagi muammolari va lingvodidaktik ahamiyati aniqlandi.

Muhokama va Natija. O‘zbek va ingliz tillarida kichik janr matnlarining lingvistik maqomini tadqiq qilish natijasida ularning tilshunoslik, lingvokulturologik va lingvodidaktik ahamiyati aniqlandi. Kichik janr matnlari, xususan, anekdotlar, maqollar, latifalar va boshqa qisqa matnlar, o‘ziga xos sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular turli tillar va madaniyatlarda muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. *Birinchidan,* o‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ularning lingvistik tuzilishi turli tillardagi semantik strukturalarning o‘ziga xos jihatlarini yoritishga yordam beradi. Ingliz tilida anekdotlar odatda qisqa va kulgililik effektiga urg‘u beruvchi aniq sintaktik konstruksiyalardan iborat bo‘lsa, o‘zbek tilidagi latifalar ko‘pincha xalqona iboralar, o‘xshatishlar va kinoyali ifodalar bilan boyitilgan. Bu esa, har ikkala til anekdotlarining o‘ziga xosligini belgilab, ularning tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikni saqlash qiyinchiliklarini yuzaga keltiradi. *Ikkinchidan,* lingvokulturologik jihatdan kichik janr matnlari har bir millatning dunyoqarashi, mentaliteti va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. O‘zbek latifalarida ko‘proq oilaviy munosabatlar, hurmat, axloqiy normalar va urf-odatlar tasvirlangan bo‘lsa, ingliz anekdotlari individualizm, soddalik va hazil orqali fikr ifodalash uslubi bilan ajralib turadi. Bu farqlar tarjima jarayonida shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilishning yetarli emasligini, balki kontekstual moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. *Uchinchidan,* kichik janr matnlarining lingvodidaktik ahamiyati shundaki, ular xorijiy til o‘rganishda til egallash jarayonini osonlashtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Anekdot va maqollar orqali o‘quvchilar tilning frazeologik birliklari, metaforik ma’nolari va kommunikativ qoidalarini o‘rganadilar. Shu bilan birga,

bunday matnlar til o‘rganuvchilarni ma’lum bir milliy mentalitet va madaniyat bilan tanishtirishga yordam beradi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarining lingvistik maqomi ularning semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlarini o‘rganish orqali chuqur tahlil qilinishi natijasida, ularning tarjima jarayonidagi murakkabliklari lingvokulturologik tafovutlarga bog‘liq ekanligi hamda bu masala lingvodidaktika nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanishi aniqlandi. Kelgusida bunday matnlarni tadqiq etishda korpus lingvistikasi va kontrastiv tahlil metodlaridan kengroq foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillarida ushbu matnlar o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlarga ega. Kichik janr matnlari, xususan, anekdotlar, maqollar, topishmoqlar, latifalar va boshqa qisqa shakldagi matnlar xalq ijodiyoti va og‘zaki nutqning ajralmas qismi bo‘lib, ularning lingvistik hamda madaniy aspektlari tahlili dolzarbligi keltirildi hamda ushbu matnlar til tizimining turli darajalarida o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etishi aniqlandi. Jumladan, fonetik jihatdan ular ritm va intonatsiya xususiyatlari bilan ajralib turadi. Leksik jihatdan esa, bu matnlar milliy-madaniy konnotatsiyaga ega bo‘lgan so‘z va iboralar bilan boyitilgan. Grammatik jihatdan kichik janr matnlari gap tuzilishi va sintaktik konstruksiyalar bilan ajralib turadi. Pragmatik nuqtai nazardan esa, bu matnlar nutqiy akt sifatida muayyan kommunikativ vazifani bajaradi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi kichik janr matnlarini taqqoslash natijasida ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. O‘zbek tilidagi matnlar ko‘pincha an’anaviy qadriyatlar, tarixiy voqealar va milliy tafakkur bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilidagi kichik janr matnlari esa zamonaviy ijtimoiy muhit va universal hazil unsurlariga ko‘proq moyilligi bilan ajralib turadi.

Kichik janr matnlarining tarjima jarayonida lingvistik va madaniy moslashuv muhim rol o‘ynaydi. Tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikni ta’minlash bilan birga, matnning madaniy konteksti va stilistik xususiyatlarini saqlab qolish lozim. Bu esa tarjimon oldida lingvistik va lingvokulturologik muammolarni hal qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Kichik janr matnlarining lingvodidaktik ahamiyati ham yuqori baholandi. Ular til o‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, pragmatik bilimlarni oshirish hamda milliy madaniyat va mentalitetni tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, latifalar va maqollar til o‘rganuvchilarga real hayotiy vaziyatlarga mos keladigan nutqiy modellarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Kichik janr matnlarining lingvistik maqomi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu matnlar tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvodidaktika nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Kelajakdagi tadqiqotlarda bu yo‘nalishda yanada chuqur tahlillar olib borish, xususan, sun’iy intellekt yordamida kichik janr matnlarini tahlil qilish va tarjima qilish masalalarini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б.,Сафаров О. Ўзбек халқ поэтик ижоди.- Т.: Ўқитувчи, 1990. 5.

2. Мадаев О. Мақоллар оламида.-Т.: Ўзбекистон, 1984. 6.

3. Соатов Б. Ўзбек халқ мақолларининг жанр хусусиятлари ва поэтикаси. –Т., 1994.

4. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. 2-том.Т.: ”ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2006.

5. Н. Н. Амосова. Основы английской фразеологии. Ленинград : Изд-во ЛГУ, 1963.

6. Кунин А.В. Большой англо-русский фразеологический словарь. 4-е изд., перераб. и доп. - М.:"Русский язык", 1984. - 944 с

7. Апресян Ю.Д. А86. Избранные труды, том II. Интегральное описание- языка и системная лексикография. - М.: Школа. «Языки русской культуры*, 1995. - 767 с.

8. Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С. 135–176.

9. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

10. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

11. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London, New York: Routledge, 1995. – 353 p.

12. Абдуллаев Х. Умумтаълим мактабларида инглиз тилидан таржима машғулотлари методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 150 б.

UO'K 808.3

MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLARNI HOSIL QILISHDA UNDALMANING ROLI

M.A. Rustamov, o'qituvchi, SamDU Kattaqo'rg'on filiali, Kattaqo'rg'on

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tilida sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalardan undalmaning roli tahlil qilingan. Bundan tashqari undalmaning sintaktik-semantik xususiyatlari xususida bahs-munozaralar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *undalmalar, yolg'iz undalmalar, yoyiq undalmalar, murakkab undalmalar, uyushiq undalmalar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль обращений как средства усложнения простых предложений в узбекском языке. Также обсуждаются синтаксико-семантические особенности обращений.*

Ключевые слова: *обращения, одиночные обращения, развернутые обращения, сложные обращения, сочинённые обращения.*

Abstract. *This article analyzes the role of vocatives as a means of complicating simple sentences in the Uzbek language. It also discusses the syntactic and semantic features of vocatives.*

Key words: *vocatives, single vocatives, extended vocatives, complex vocatives, coordinated vocatives.*

So'zlovchi nutq jarayonida ma'lum voqelik haqida axborot berishi davomida tinglovchining diqqatini shu axborotga jalb qilgisi yoki bu axborotga qo'shimcha ravishda tinglovchiga o'zining ma'lum subektiv munosabatini ifodalagisi kelib qolishi mumkin. Ana shunday munosabat undash munosabati sanaladi.

Undash munosabati mavjud bo'lgan gap mazmunan murakkablashadi. Undash munosabati shakliy jihatdan undalmalar orqali ifodalanadi. Undalma gapning boshqa bo'laklari bilan tobe aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun undalma ishtirok etgan gap faqat mazmun tomonidangina emas, balki shakliy tomondan ham murakkablashadi. Gap tarkibida tobe aloqa bilan birgalikda, tobe bo'lmagan, grammatik aloqa hisblanmaydigan aloqa ham mavjud bo'ladi. Bunday aloqani tilshunoslar introduktiv aloqa dep nomlaydilar. Demak, gap tarkibidagi sintaktik shakillarning aloqasini uchga bo'lish mumkin.

1) Subordinativ aloqa (tobelanish);
2) Koordinativ aloqa (tenglanish);
3) Introduktiv aloqa (mazmuniy bog'lanish).

Undalma - so'zlovchi bilan tinglovchining munosabatini ko'rsatadi. So'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabati murojaat qilish, undash orqali yo'lga qo'yiladi. So'zlovchi yoki tinglovchining bu xil munosabati, undashni ifodalovchi so'z grammatikada undalma hisoblanadi. Undalma keng ma'noda kimga yoki nimaga qaratilgan nutq jarayonini ko'rsatadi, tor ma'noda esa so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildiradi. Shunday qilib undalma nutq jarayonida murojaat qilish, xitob qilishni anglatsa, grammatikada "undalma" termini bilan yuritiladi.

Undalma orqali so'zlovchining nutqi shaxslarga qaratiladi. Ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun so'zlovchi tinglovchiga undaydi, murojaat qiladi. Shunga ko'ra murojaat qilingan, undalgan shaxsning ifodasi bo'lgan so'z undalma bo'lib keladi. So'zlovchi yoki yozuvchi ba'zan insonda navjud bo'lgan xususiyatlarni hayvonlar, parrandalar kabi jonli predmetlarga ko'chiradi. shaxslarga murojat qilgandek, ularga hayvonlar va parrandalarga undaydi. Bunday vaqtlarda shu jonli predmetlarning ifodasi bo'lgan so'zlar undalma vazifasia keladi. Masalan : Kuyla, qushcham, kuyla. Qush kuylash ya'ni sayrash qobilyatiga ega, ammo ongli ravishda gapga tushunish, iltimos yoki buyruqni bajarish, bajarmaslik, rad javobini berish xususiyatiga ega emas, albatta. Demak, bu misolda insonga xos xususiyatlar qushga ko'chirilgan.

Undalmalar o'zbek tilida turli turkum so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Ular quyidagicha turkum so'zlari bilan ifodalanadi:

1) ot bilan: Bilasizmi, Ikrom, ko'klam shabodasi yurib qoldi (S. A.).

2) otlashgan sifat bilan: Xo‘sh, yaxshilar, nima qilmoq darkor? (O. Yo.).

3)otlashgan son bilan: Uchinchilar, yakuniy nazoratlarga yaxshi tayyorgarlik ko‘ring!

4) otlashgan sifatdoshlar bilan: Ey, sportda g‘olib chiqqanlar, sizlarga shon-sharoflar bo‘lsin!

5) undov bilan: Hoy, seni kutib turishibdi.

6) frazeologizm bilan: Xayr, o‘g‘lim, oq yo‘l bo‘lsin, xayr, ko‘zim qorasi (H. O.).

7) bir butun holda qo‘llanadigan bog‘lamalar bilan: Butun dunyo tinchliksevarlari, birlashingiz!

Undalmalar tarkibiy tuzilishi jihatidan farqlanadi. O‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlatga suyangan holda ularni quydagicha guruhlarga ajratishimiz mukin. 1. Yolg‘iz undalmalar; 2. Yoyiq undalmalar; 3. Murakkab undalmalar; 4. Uyushiq undalmalar.

Qisqargan qo‘shma otlar ham undalma vazifasida kela oladi. Bu hol asosan tarixiy voqealarda, shuningdek jonli so‘zlashuv tilida uchraydi. Jonli so‘zlashuv tilida kishilarning ismi ko‘pincha qisqartirib talaffuz qilinadi. Masalan:Adolat- Adol, Risolat-Risol, Abdusattor-Sattor, Hojiqurbon - Hoji, Ziyodin-Ziyo. Abdusamid-Sami kabilar. So‘zlashuv nutqi shaxslarga qaratilganda yuqoridagi kabi qisqargan kishi nomlari undalma vazifasida kela oladi.

Egalik qo‘shimchasining uchinchi shaxs birligi bilan kelgan otlar ham undalma vazifasida kela oladilar. Egalik qo‘shimchasining uchinchi shaxs birligi bilan kelgan otlar xalq odaticha hurmat ma’nosida qo‘llaniladi. Bunday hollarda undalma bilan kelgan gap mazmunidan iltimos, qistam ottenkalari anglashiladi.

Yigit og‘asi, uyingizga kirib dam olish mumkinmi?

Akasi bo‘ling tezroq kech bo‘ldi. (Og‘zaki nutqdan)

Emotsional qiymatga ega bo‘lgan otlar otlashgan sifatlar qisman leksik ma’nolarini o‘zgartirgan holda undalma vazifasida keladi. Bu otlar so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Masalan: jigar, jonim, qo‘zim, otam, onam, kampir va boshqalar.

Undalma so‘zlovchining tingovchi bilan munosabatini, uning o‘z-o‘ziga undashini bildiradi. Undalma so‘zi aslida “undamoq”so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida turli ma’noda qo‘llaniladi. U keng manoda nutq jarayoni, tor ma’noda esa grammatik terminni bildiradi. Undalma nutq jarayonida undash, xitob qilish, murojaat qilishni bildirsa grammatikaga oid termin sifatida “undalma” yoki “undalma so‘z” deb yuritiladi. Undalmalar gap tarkibida kelib uni tashkil qilgan gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydi ammo gapning umumiy mazmuniga tasir ko‘rsatadi. Undalma gap bo‘laklarining ekvivalenti bo‘lib kelishi, yoki gap bo‘laklarining biriga, yoxud butun gapga tegishli bo‘lishi mumkin. Undalmalar ham boshqa grammatik kategoryalar kabi grammatik va leksik-semantik belgilarga ega. O‘zbek tili materiallarini o‘rganish, to‘plangan materiallarni analiz qilish natijasida leksik-semantik tomondan undalmani quydagicha guruhlash mumkin:

I. Shaxslarga qaratilgan undalmalar

II. Jonli predmedlarga qaratilgan undalmalar

III. Jonsiz predmedlarga qaratilgan undalmalar

I. Shaxslarga qaratilgan undalmalar

1. Yakka shaxsga qaratilgan undalmalar

2. Umumshaxsga qaratilgan undalmalar

1. Yakka shaxsga qaratilgan undalmalar

A. Tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar.

B. So‘zlovchining o‘ziga qaratilgan yakka shaxs undalmalar

A. Tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar.

a. So‘zlovchining nutqi tinglovchiga qaratilgan yakka shaxs undalmalar.

b. So‘zlovchining nutqi bavosita (sirtdan) tinglovchiga qaratilgan undalmalar.

Hozirgi zamon o‘zbek tilida undalmalar keng qo‘llaniladi. Uning yakkashaxsga qaratilgan formasi juda unumli. Undalmalar monoliogik nutqqa qararaganga diologik nutqda ko‘ uchraydi. Chunki, insonlar bir-birlari bilan muloqot qilganlarida undalmadan unumli foydalanadilar, o‘z-o‘ziga esa juda kam murojaat qiladilar, ma’lum bir narsadan ta’sirlanganlarida o‘z-o‘zlariga undaydilar, xolos. Undalmalar badiiy asarlarda qo‘llanilishi jihatidan teng emas. Masalan, shaxslarga qaratilgan undalmalar prozaik asarlarda, jonli va jonsiz narsalarga qratilgan undalmalar bo‘lsa poetik asarlarda ko‘p uchraydi.

Undalmalar tarkibiga ko‘ra yolg’iz, yoyiq, murakkab va uyushgan holda kela oladi. Yolg’iz undalmalar tub, yasama, qo‘shma, tizma so‘zlardan bo‘lib, yolg’iz yoki takror holada keladi, turli ma’no ottenkalarini bildiradi. Yoyiq undalmalar qaratqichli va sifatlovchili birikmalardan iborat bo‘ladi. Murakkab undalmalarning obekti bitta bo‘lib, birdan ortiq undalmalrdan tashkil topadi. Undalma uyushgan holda ham keladi, bularning obekti birdan ortiq bo‘ladi. Uyushuq undalma tarkibidagi elementlar bog’lovchilar yoki intonatsiya yordamida o‘zaro bog’lanadi.

Undalmalarning gapda qat’iy bir o‘rni yo‘q. U gap boshida gap o‘rtasida va oxirida kela oladi. Undalmaning gapning har yerida kelishi asosan uning funksiyasi, hajmi va gap hajmiga bo‘liqdir. Shu o‘rinda undalmaning gapning har yerida kelishi ma’lum stilistik talab bilan ham bog’liq. Undalmalar gap tarkibida kelib, gapning umumiy mazmuni bilan bog’lanadi, lekin gapning unumiy ohangidan maxsus intonatsiya bilan ajratib aytiladi. Ba’zan undalmaning intonatsiyasi kuchsizlanadi va gapning umumiy ohangi bilan birlashib ketadi. Undalma chaqirish, sanash, so‘roq, undov va kirish intonatsiyalari bilan talaffuz qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т. : Фан, 1976, 208б.
2. Ғуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т. : Ўқитувчи, 1987, 140 б.
3. Абдураҳмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т. : ўқитувчи, 1996, 47 б
4. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов. ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т. : 1995, 97 б.
5. Б. Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Самарқанд, 2006, 120 б.
6. Фитрат А. Танланган асарлар. Наҳв. (IV жилд) –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 197-200.
7. Ғуломов А. Содда гап. –Тошкент: ЎзФА, 1955. –Б. 92-97.
8. Ашурова Д. , Убаева Ф. , Болтабоева Ҳ. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. –Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1962. – Б. 179.

UDK-8-1751 R-95

ANTIQUE TRANSLATION TRADITIONS

Sh.A. Rustamova, dots., Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent
https://orcid.org/0000-0003-1075-4052

Annatatsiya. *Mazkur maqola antik davrda tarjima faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Tarjimaning ilk bosqichlari va uning madaniy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Antik davrdagi tarjimonlarning roli, ayniqsa yunon va rim adabiyotlari kontekstida, ularning nafaqat so‘zlarni, balki madaniyatlarni ham o‘zaro tushunishini ta'minlashdagi o‘rni muhokama qilinadi. Tarjimaning ikki tilda madaniy almashinuvni amalga oshiruvchi vosita sifatida qanday ishlaganligi, tarjimonlarning ma'naviy va axloqiy mas'uliyatlari yoritiladi. Antik davrda tarjimaning nazariy asoslari, ilmiy va diniy asarlarning tarjimasi va asarlarning til va uslubiga qo‘yilgan talablar alohida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Madaniyatlararo aloqalar, antik davr, tarjima nazariyasi, madaniyatlar almashinuvi, ilmiy meros, madaniy kontekst, axloqiy mas'uliyat.*

Аннотация. *В статье анализируются особенности переводческой деятельности в античности. Обсуждаются ранние этапы перевода и его культурное значение. Будет обсуждаться роль переводчиков в античности, особенно в контексте греческой и римской литературы, а также их роль в обеспечении взаимопонимания не только слов, но и культур. Будет подчеркнуто, как перевод функционирует как инструмент культурного обмена на двух языках, а также духовная и этическая ответственность переводчиков. Также отдельно рассматриваются теоретические основы перевода в античности, перевод научных и религиозных произведений, а также требования к языку и стилю произведений.*

Ключевые слова: *межкультурная коммуникация, античность, теория перевода, культурный обмен, научное наследие, культурный контекст, этическая ответственность.*

Abstract. *The article analyzes the features of translation activity in antiquity. The early stages of translation and its cultural significance are discussed. The role of translators in antiquity will be discussed, especially in the context of Greek and Roman literature, as well as their role in ensuring mutual understanding not only of words but also of cultures. It will emphasize how translation functions as a tool for cultural exchange in two languages, as well as the spiritual and ethical*

responsibility of translators. The theoretical foundations of translation in antiquity, the translation of scientific and religious works, as well as the requirements for the language and style of works are also separately considered.

Key words: *intercultural communication, antiquity, translation theory, cultural exchange, scientific heritage, cultural context, ethical responsibility.*

Kirish. Antik davr, insoniyat tarixining eng muhim madaniy va ilmiy inqiloblariga guvoh bo‘lgan davr bo‘lib, o‘zining turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlari bilan ajralib turadi. Bu davrda tarjima faoliyati nafaqat tillar orasidagi ko‘prikni yaratgan, balki turli madaniyatlar va dunyoqarashlarni bir-biriga tanishtirishda katta ahamiyat kasb etgan. Antik davrda tarjima jarayoni, odatda, yunon va rim madaniyatlarining ta'siri ostida shakllanib, o‘zining an'anaviy asoslarini yaratgan. Tarjimada nafaqat so‘zlarning o‘zgarishi, balki ma'no, tasavvur va madaniy maqsadlar ham muhim rol o‘ynagan.

Antik davr tarjimasi, asosan, falsafiy, diniy va ilmiy asarlarning bir til va madaniyatdan boshqasiga o‘tkazilishida markaziy ahamiyat kasb etgan. Shu sababli, tarjima faqatgina tilni bilish bilan bog'liq bo‘lib qolmay, balki tarjimonning ma'naviy va madaniy bilimlarining chuqurligi ham zarur bo‘lgan. Tarjimaning ushbu davrdagi rivoji, o‘z navbatida, insoniyat tafakkurining rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatgan va uni yangi yutuqlarga erishishga undagan.

Shuni aytish joizki antik davr tarjima an'analari nafaqat o‘z zamonasining madaniyatlararo munosabatlarini aks ettirgan, balki kelajakda tarjima nazariyasining shakllanishiga asos bo‘lgan ko‘plab yondashuvlarni ham taqdim etgan. Bu maqolada antik davr tarjima faoliyatining asosiy jihatlari, uning madaniyatlararo o‘zaro aloqalarga qo‘shgan hissasi va tarjimaga bo‘lgan nazariy yondashuvlar tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili: Tarjima san’ati qadimgi davrlardan boshlab, turli xalqlar madaniy aloqalarini ta’minlovchi vosita sifatida shakllangan. Antik davr tarjima an’analarini tahlil qilishda Sharq va G‘arb olimlarining izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima tarixini o‘rganish jarayonida olimlar uning dastlabki shakllarini ibtidoiy jamiyatlardagi og‘zaki tarjima amaliyoti bilan bog‘laydilar. G‘arbiy tadqiqotchilardan G.Steiner [1] tarjimaning eng qadimiy shakllari mifologik va diniy matnlarning og‘zaki talqinlari bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, qadimiy Misr, Mesopotamiya va Gretsiyada tarjima jarayoni diniy va falsafiy matnlarning sharhlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Shu bilan birga, Sharq olimlaridan G‘Salomov, A.A.Абдуазизов, Q.Musayev [2.4.5.6.7.8.9.10] antik davr tarjimashunosligi haqida shunday fikr bildiradi: "Tarjima an’analari Sharqda asosan ilmiy va falsafiy matnlarning arab, fors va yunon tillaridan tarjima qilinishi orqali shakllangan. Ayniqsa, Bag‘dod xalifaligidagi “Baytul Hikma” maktabi tarjima san’atining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Tarjimaning sadoqat yoki erkinlik tamoyillariga asoslanganligi borasida olimlar turli qarashlarga ega. P.Ricœur [3] tarjima falsafasida “xotira va sadoqat” tushunchalarining muhimligini ta’kidlab, qadimiy matnlar tarjimasida asl manbaga hurmat bilan yondashish zarurligini aytadi. Uning fikricha, antik tarjimonlar erkin tarjima usulini qo‘llagan bo‘lsalar-da, matnning asosiy mazmunini saqlab qolishga harakat qilganlar.

Bunga qo‘shimcha ravishda, O‘zbekistonlik tarjimashunos olimlardan K. Jo‘rayev [9] shunday fikr bildiradi: “Sharq tarjimonlari asosan tafsir va sharh usulidan foydalanganlar. Bunda tarjima qilinayotgan matn kengaytirilib, izohlar bilan boyitilgan.” Bu yondashuv ayniqsa, arab va fors tarjima an’analarida keng tarqalgan.

Qadimgi Yunonistonda tarjima madaniy va ilmiy taraqqiyotning muhim qismi bo‘lgan. Plato (Platon) va Aristotel tarjima jarayonini falsafiy munozaralar doirasida muhokama qilganlar. Rim olimlaridan Siseron (I asr) esa tarjimaning erkinligi tarafdori bo‘lib, tarjimonning ijodiy yondashuvi muhimligini ilgari surgan. Uning fikricha, tarjima nafaqat so‘zma-so‘z, balki ruhiy muvofiqlikka ham asoslanishi lozim.

Bu fikrlarni davom ettirgan A.Nida [11] tarjimaning ekvivalentlik tamoyilini ilgari surib, antik davr tarjimonlari asosan dinamik ekvivalentlik usulidan foydalanganligini qayd etadi. Unga ko‘ra, bu usul o‘quvchiga matnni tushunarli va qabul qilinadigan shaklda yetkazish uchun mo‘ljallangan edi.

Antik davr tarjima an’analari haqidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadimiy tarjimonlar erkinlik va sadoqat o‘rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilganlar. Sharq va G‘arb an’analarida tarjima jarayoni faqatgina lingvistik jarayon emas, balki madaniy va ilmiy almashinuv vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Zamonaviy tarjimashunoslik tadqiqotlari esa bu an’analarning bugungi kun tarjima nazariyalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Metodologiya: Antik davr tarjima an'analari haqida tadqiqotlar olib borishda, turli metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi. Birinchi navbatda, tarjima jarayonini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish, uning struktural va semantik xususiyatlarini o‘rganish kerak. Bu jarayon, tarjimaning nafaqat til o‘zgartirishini, balki madaniyatlararo ko‘prik qurilishini ham o‘z ichiga oladi. Metodologik yondashuvlardan biri – antik davrda tarjima jarayonini yozuvchining maqsadlariga ko‘ra tahlil qilishdir. Tarjimani o‘rganishda, ayniqsa, Yunon va Rim davrlarida mavjud bo‘lgan "kalka" (so‘zma-so‘z tarjima) va "liberal" (erkin tarjima) yondashuvlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish muhimdir.

Madaniyatlararo transfer nazariyasini qo‘llash orqali tarjimaning madaniyatlar o‘rtasida qanday o‘zgarishlar keltirib chiqarganini o‘rganish mumkin. Madaniyatlararo o‘zgarishlar, adabiyotlar va g‘oyalar almashinuvi, tarjima jarayonida til va madaniyatni qanday qilib moslashtirish kerakligini aniqlashda metodologik yondashuvni shakllantiradi.

Tarjima faoliyatining etnografik yondashuvlarini ham qo‘llash mumkin. Bu yondashuvda, tarjimaning tarixiy va madaniy kontekstini chuqurroq o‘rganishga intilish, tarjimonlarning madaniy kontekst va adabiy an'analarga qanday ta'sir qilganini tahlil qilish imkonini beradi.

Antik davr tarjimasi haqida metodologik izlanishlar, tarjima jarayonini faqat badiiy va ilmiy jihatdan emas, balki madaniy va falsafiy nuqtai nazardan ham yoritishga imkon beradi. Tarjimaning an'anaviy yondashuvlarini tahlil qilish, tarjima san'ati va uning afzalliklarini tushunishga yordam beradi.

Muhokama: Antik davr tarjimasi o‘zining madaniyatlararo aloqalar, lingvistik va madaniy o‘zgarishlarni aks ettirgan muhim jarayon bo‘lib, bu jarayon faqat so‘zlarning boshqa tilga o‘tkazilishi bilan cheklanmay, balki madaniy merosning saqlanib qolishida ham muhim rol o‘ynagan. Antik davrda tarjima nafaqat adabiy asarlarni, balki ilmiy va diniy matnlarni ham boshqa tillarda ifodalashni o‘z ichiga olgan. Yunon va Rim imperiyalarining o‘zaro ta'sirida tarjima, xususan, sharq va g'arb madaniyatlarining uyg'unlashuvi va o‘zaro aloqalarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Tarjimonlar bu jarayonda nafaqat tilni, balki madaniyatlarni ham o‘zaro tushunishni ta'minlashgan.

Antik davrda tarjimonlarning asosiy vazifasi so‘zlarni boshqa tilga o‘zgartirish bilan birga, matnning ma'no va kontestini ham saqlab qolish bo‘lgan. Bu o‘zgarishlar faqat til darajasida emas, balki madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni ham hisobga olishni talab etgan. Masalan, “Gramma (2003)”ning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, tarjima nafaqat lingvistik, balki madaniy almashinuv vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Yunon va Rim imperiyalarining ilmiy va diniy asarlari, shuningdek, falsafiy matnlar, tarjimonlar orqali boshqa madaniyatlarga, xususan, sharqiy va rivojlangan G‘arb madaniyatlariga yetkazilgan. Shuning uchun, antik davrda tarjima faqat matnning tiliga o‘zgartirishdan ko‘ra, yangi madaniyatning o‘ziga xos qadriyatlarini boshqa xalqning ongiga yetkazishdir.

Antik davrda tarjimonlar, odatda, asarlarning faqat to‘g'ri tarjimasini emas, balki ularning madaniy kontestini ham hisobga olishgan. “Berdyaev (2015)” ning fikriga ko‘ra, yunon adabiyotini o‘rganish va tarjima qilish jarayonida madaniyatlararo yondashuv muhim rol o‘ynagan. Masalan, Rimda, tarjimonlar yunon falsafasini va adabiyotini o‘zlariga mos ravishda "rimlashtirish"ga intilishgan. Bu jarayon asarlarning chuqur ma'nolarini va ijtimoiy va axloqiy kontekstlarini saqlashga qaratilgan edi. Shunday qilib, tarjima madaniyatlararo o‘zgarishlar jarayonida nafaqat so‘zlarning o‘zgartirilishi, balki yangi kontekstda yangi talqin va tushunishning shakllanishi sifatida ham ko‘riladi.

Antik davrda tarjimonlarning ma'naviy mas'uliyati ularning shaxsiy qarashlariga, madaniy qadriyatlariga va ijtimoiy kontekstga bog'liq bo‘lgan. Rim va yunon adabiyotining diniy va falsafiy

matnlarini boshqa tillarga tarjima qilishda, tarjimonlar o‘z madaniyati va qarashlarini asarlarning ruhiga moslashtirishga harakat qilishgan. Bu, o‘z navbatida, antik davrda tarjimaga bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirgan va uni yanada ko‘proq madaniyatlararo aloqalar vositasiga aylantirgan.

Tarjimaning ilmiy va diniy matnlardagi ahamiyati ham alohida ta’kidlashni talab etadi. Antik davrda ilmiy va diniy asarlarni boshqa tilga tarjima qilishda asarlarning ma'no va ilmiy tafsilotlarini to‘g‘ri etkazish muhim bo‘lgan. Shu sababli, tarjimonlar ilmiy an’analarga ham xos bo‘lgan tafakkur va metodologik yondashuvlarni qo‘llashgan. Ayniqsa, filosofik asarlar, masalan, Platondan va Aristoteldan olingan matnlar, boshqa tillarga tarjima qilishda tarjimonlar o‘zi tasavvur qilgan tafakkurni va falsafiy qarashlarni saqlashga intilishgan.

Antik davrda tarjima amaliyoti nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniyatlararo o‘zgarishlarni aks ettirish va saqlashda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu jarayon, zamonaviy tarjima nazariyasining asoslaridan biri bo‘lib, lingvistik va madaniy tafovutlarni hisobga olishni talab qiladi. Shunday qilib, antik davrda tarjima nafaqat matnni boshqa tilga o‘zgartirish, balki uning madaniy va ilmiy qiymatini saqlashga qaratilgan faoliyat sifatida qaraladi.

Antik davrda tarjima faoliyatining o‘ziga xos jihatlaridan biri, uning tilshunoslik va madaniyatlararo aloqalardagi ahamiyati, shuningdek, tarjimonlarning axloqiy mas'uliyatlari, zamonaviy tarjima nazariyasiga katta ta’sir ko‘rsatganini ta'kidlash kerak. Antik davr tarjimasi, nafaqat til o‘zgarishlari, balki madaniyatlararo o‘zgarishlarni amalga oshirgan va madaniyatlarning o‘zaro almashishiga yordam bergan markaziy jarayon bo‘lgan.

Natijalar: Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari antik davrda tarjima faoliyatining ilmiy, madaniy va lingvistik jihatlarini chuqur tahlil qilish natijasida olingan. Tarjima jarayonining o‘ziga xos jihatlari, nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo aloqalardagi ahamiyati, shuningdek, tarjimonlarning madaniy va axloqiy mas'uliyatlari to‘g‘risida muhim xulosalar chiqarildi. Tadqiqot davomida antik davrda tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari, uning madaniyatlararo aloqalarga qo‘shgan hissasi va zamonaviy tarjima nazariyasiga ta'siri o‘rganildi.

Birinchi natija sifatida, antik davrda tarjima faqatgina tilni o‘zgartirish bilan cheklanmaganligi, balki madaniy almashinuvni amalga oshirishning markaziy vositasi bo‘lishi ta'kidlandi. Tarjimonlar asosan yunon va rim madaniyatlari o‘rtasida o‘zaro muloqotlarni o‘rnatgan va ularning ilmiy, falsafiy va diniy meroslarini boshqa madaniyatlar bilan tanishtirgan. Bu jarayon, nafaqat tillarni, balki madaniyatlarni ham bir-biriga yaqindashtirgan. Masalan, rimda yunon falsafasining tarjimasi va unga bo‘lgan yondashuvlar, ularning o‘z madaniyatiga moslashtirish va rivojlantirishga intilishganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi natija sifatida, tarjimaning ilmiy va diniy asarlar kontekstida amalga oshirilganligi, uning axloqiy va ma'naviy mas'uliyatini oshirganligi aniqlangan. Tarjimonlar, ayniqsa, ilmiy va diniy matnlarni boshqa tillarga o‘zgartirishda, ma'no va mazmunni to‘g‘ri etkazishga katta e'tibor berishgan. Bu, o‘z navbatida, antik davrda tarjima faoliyatining nafaqat lingvistik, balki madaniy, axloqiy va ilmiy jihatdan ham chuqur izlanishlar talab qilganligini ko‘rsatadi. Tarjimonlar, shu bilan birga, o‘z davrlarining madaniy qadriyatlarini saqlashga intilishgan va matnning o‘ziga xosligini yo‘qotmasdan yangi madaniy kontekstga kiritishga harakat qilishgan.

Uchinchi natija sifatida, antik davrda tarjima jarayonida, xususan, falsafiy, diniy va ilmiy matnlar o‘zgartirilganda, madaniy va ijtimoiy shart-sharoitlar hisobga olinishi lozim bo‘lgani aniqlangan. Tarjimonlar, faqat lingvistik masalalarni emas, balki madaniyatlararo tafovutlarni ham yodda tutgan holda, matnlarni moslashtirishga harakat qilishgan. Bu jarayonda tarjima amaliyotining o‘ziga xos metodologiyasi, madaniy va axloqiy qarashlar asosida rivojlangan. Shuningdek, tarjimonlarning ma'naviy mas'uliyati ularning o‘z davrlarining ilmiy va diniy nuqtai nazarini tushunib, boshqa madaniyatga etkazishga asoslangan edi.

Tadqiqotning to‘rtinchi natijasi sifatida, antik davr tarjimasi o‘z zamonasining madaniyatlararo o‘zgarishlarini aks ettirib, kelajakdagi tarjima nazariyasiga ta'sir ko‘rsatganligi ko‘rsatilgan. Tarjimaning nafaqat tilni o‘zgartirish, balki madaniyatlararo o‘zgarishlarni aks ettirishdagi o‘rni, zamonaviy tarjima nazariyasida ham asosiy tamoyillardan biri sifatida qaraladi. Antik davrda tarjima jarayonining murakkabligi va uning madaniyatlararo aloqalardagi ahamiyati, hozirgi kunda ham tarjima nazariyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birgalikda antik davr tarjimasi nafaqat so‘zlarni boshqa tilga o‘zgartirish, balki madaniyatlarni, ilmiy va diniy qarashlarni boshqa xalqlarga tanishtirishda muhim vosita bo‘lganligi isbotlandi. Shuningdek, tarjimonlarning o‘z davrlarining madaniy, axloqiy va ilmiy tafakkurlarini matnlarga muvofiq ravishda aks ettirishga harakat qilishganligi aniqlangan. Bu, o‘z navbatida, antik davr tarjimasi faoliyatining yanada murakkab va madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ko‘rib chiqilishiga imkon yaratadi.

Xulosa: Antik davr tarjimasi, nafaqat tilni o‘zgartirish, balki madaniyatlararo aloqalar va ilmiy hamda falsafiy fikrlarni boshqa xalqlarga etkazishning muhim vositasi sifatida o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, antik davrda tarjimonlar madaniyatlar o‘rtasida aloqalarni rivojlantirishda katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan. Ularning faoliyati nafaqat so‘zlarning o‘zgarishini, balki ularning madaniy va axloqiy kontekstlarini ham saqlab qolishni talab qilgan. Bu jarayon zamonaviy tarjima nazariyasiga ta'sir ko‘rsatgan va madaniyatlararo aloqalar kontekstida tarjimaning ahamiyatini yanada yoritdi. Antik davr tarjimasi ilmiy va madaniy qadriyatlarni saqlash orqali, hozirgi zamonda tarjima nazariyasining asosiy tamoyillarini shakllantirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Steiner, G. After Babel: Aspects of Language and Translation.–Oxford: Oxford University Press, 1975.– 507 p.
2. Абдуазизов, А. А. "Теория и практика перевода". Ташкент: Узбекистан, 2000
3. Paul Ricoeur. On Translation. Translated by Eileen Brennan. With an Introduction by Richard Kearney. London and New York, Routledge, 2006. 46 p.
4. Baxromjon Joraboyev, Xilola Mamadiyorova SHARQ TILLARIDA TARJIMANING NAZARIY VA AMALIY MASALALAR // Scientific progress. 2021. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sharq-tillarida-tarjimaning-nazariy-va-amaliy-masalalar (дата обращения: 20.03.2025).
5. G'.Salomov "Til va tarjima"-1966
6. J.Sharipov " O‘zbekistonda tarjima tarixidan" 1965 "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar" -1972
7. Мусаев.Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. O‘quv qo‘llanmalar
8. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
9. Жўраев К. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1982
10. Швейцар А.В. Перевод и лингвистика. – Москва, 1973
11. Nida, E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.

UO'K 821.512.133 (092)

ALISHER NAVOIYNING ORIFONA G'AZALLARI

Z.Rustamova, talaba, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada orifona g'azallarda yetakchi timsollar – Samandar, parvona, bulbul, gul, tikan, sarv kabi tushunchalarning o'ziga xos talqini yoritib beriladi, tasavvufiy-falsafiy ma'nolar "vahdati vujud" (vujud vahdati) tushunchasi bilan bog'liq holda tahlil va mushohada etiladi. "Xazoyin ul maoniy"ning ikkinchi devoni "G'aroyib us sig'ar"dagi ikkinchi g'azal, "Zihi husnung zuhuridin…" deb boshlanuvchi g'azali g'oya va mavzusiga ko'ra hamda kompozitsion jihatidan ham tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *orifona g'azal, moddiylik va ilohiylik, orif, oshiq, zohir, botin*

Аннотация. *В данной статье освещается своеобразная интерпретация ведущих образов в мудрых газелях – таких как Саламандра, мотылёк, соловей, роза, шип, кипарис. Суфийско-философские смыслы анализируются и рассматриваются в связи с понятием "вахдат ал-вуджуд" (единство бытия). Проводится анализ второй газели из второго дивана "Гаройиб ус сигар" ("Редкости детства") "Хазайин ул-маони" ("Сокровищ смыслов"), начинающейся со слов "О, лик твой, явленный...", с точки зрения её идеи, темы и композиции.*

Ключевые слова: *мудрая газель, материальное и божественное, ариф (мудрец, гностик), влюблённый, явное (экзотерическое), скрытое (эзотерическое).*

Abstract. *This article elucidates the unique interpretation of key symbols in gnostic ghazals, such as the Salamander, moth, nightingale, rose, thorn, and cypress. The Sufi-philosophical meanings are analyzed and contemplated in connection with the concept of "Wahdat al-Wujud" (Unity of Being). The second ghazal from the second divan, "Ghara'ib us-Sighar" ("Wonders of Childhood")*

of the "Khazayin ul-Ma'ani" ("Treasury of Meanings"), beginning with "Zihi husnung zuhuridin..." is also analyzed in terms of its idea, theme, and composition.

Key words: *Gnostic ghazal, materiality and divinity, Arif (Gnostic, Sage), lover, zahir (exoteric), batin (esoteric).*

Bilamizki, orifona g'azallarda tasavvufiy- falsafiy mavzular yetakchi hisoblanadi. Maqsud Shayxzoda aytganidek, foniy va boqiy, odam va olam, zarra va oftob, zohir va botin kabilar tasavvufiy lirikani chuqur oziqlantirib turadi. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan g'azal ham orifona g'azallardan hisoblanadi.

Navoiyning "Zihi husnung zuhuridin…" deb boshlanuvchi g'azali bir qarashda o'qilishi yengil, "hazm qilish" oson g'azaldek ko'rinadi. Buning bir necha sabablari bor. Birlamchi, Layli va Majnun, Uzro va Vomiq, Farhod va Shirin, Xalilulloh ya'ni Allohning do'sti deb nom olgan Ibrohim alayhissalom, Samandar tamsillari orqali g'azaldagi asosiy g'oya o'quvchiga tezda ayonlashadi. Ikkinchidan, ushbu tamsillar orqali hazrat Navoiy dunyodagi majoziy ishqqa har bir baytda misol keltira boshlaydi va majoziy ishq ham Ilohiy ishqning mazhari – ko'rinishi ekanligini aytmoqchi bo'ladi. Buni ilk baytlardanoq tushungan kishi esa qolgan baytlardagi yagona maqsadni ifodalash uchun keltirilgan bir qancha talmehlarning go'zalliklarini ham payqay oladi.

Ammo g'azalning ma'nolar olami ancha keng, To'g'ri, bu g'azalda may, singan safol, jom, soqiy kabi timsollar yo'q. Biroq uning tavhid-hamd g'azalligini inobatga olsak, husn, savdo, bozor; bulbul, gul, yor; parvona, sham, o't, tikan, sarvqad so'zlari alohida izohni talab etadi. Navoiy shu kabi dunyoviy detallardan foydalangan bo'lsa-da, g'azalning asosida ilohiy mohiyat yotadi.

Bu g'azal muqaddima, ya'ni ochuvchi g'azal hisoblanadi, Hazrat Alisher Navoiyning "Xazoyin ul maoniy" devonining birinchi devoni bo'lmish "G'aroyib us sig'ar" ya'ni "Yoshlik g'aroyibotlari"ning 2-g'azali, "Ashraqat min…" deb boshlanuvchi g'azalning mantiqiy davomi bo'lib, hamd g'azallari sirasiga kiradi. Bunday g'azallar bevosita Alloh taoloni madh etadi. Bu g'azal asosida "Vahdat ul vujud" moddiylik va ilohiylikning birligi tushunchasi yotadi. U 11 baytli hisoblanib, a-a, b-a, d-a, e-a, f-a, g-a, h-a, I-a tarzida qofiyalangan, va undagi qofiyadosh so'zlar: savdo, g'avg'o, paydo, shaydo, Laylo, ra'no, Uzro, xoro, Xaliloso, zebo, anqo, go'yo so'zlaridir. Bunda "o" harfi raviy bo'lib, raviyning o'rniga ko'ra muqayyad qofiyani hosil qiladi.

G'azal hazajning musammani solim vaznida yozilgan.

Afoyil tafoyili:

Mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun.

Taqte'si:

V - - -/ V - - -/V - - -/ V - - -.

Kompozitsion jihatiga ko'ra ushbu g'azal yakpora, musalsal g'azal turiga mansub. G'oya va mavzusiga ko'ra orifona hisoblanadi.

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,

Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g`avg`o.

Ajib (ajoyibki), sening husnung ko'ringanidan, paydo bo'lganidan har kimga savdo (tashvish) tushibdi (istak tug'ilibdi). Bu istakdan ikki dunyoda g'avg'o ko'tarilibdi.

Alisher Navoiy birinchi baytda iyhom san'atini qo'llagan. "Yuz g'avg'o" birikmasini "husn g'avg'osi" deb ham, "yuzlab g'avg'o" ma'nosida ham tushunishimiz mumkin.

Husn – ilohiy nurning tajallisi

Savdo – shu ilohiy nurning tajallisidan kelgan talpinish, dard, azob-uqubatlar. Professor Sultonmurod Olimovning "Ish, oshiq, ma'shuq" asarida tariqat ahli, ya'ni solikning bir necha maqomotlari bosqichma-bosqich quyidagicha ko'rsatiladi: 1.Tavba 2. Vara' (ehtiyotkorlik) 3. Zuhd (Tiyilganlik) 4. Faqr (kambag'azallik) 5. Sabr 6. Tavakkul. Undan keyin haqiqat bosqichida *qurb, muhabba, xavf, shavq, uns, itmonina, mushohada, yaqin* kabi maqomlarni tartib bilan beradi. Solik har bir maqomga ko'tarilgani sari Alloh taologa o'zida yaqinlik, ishq-muhabbat sezadi, oxirgi maqomlarga kelib so'fiy o'zini hatto Alloh taoloni ko'rgandek his qiladi. Ammo solik bosib o'tish kerak bo'lgan har bir bekat, ya'ni bosqichga muayyan qiyinchilik bilan erishadi. U nafsdan qutulish, Allohga yetishish yo'lida o'z ixtiyori bilan mashaqqat chekadi. Bir qarashdan, savdo deganda, mana

shu dard, shu mashaqqat nazarda tutilgan, deyish ham mumkin. Savdo so'zi olamning bashariyatning asosiy mazmun mohiyati – maslagi nuqtayi nazarida ham yotibdi va insonni saodati va tiriklikning timsoli sifatida talqin etilyapti. Demak, Alloh taolo zuhurotining bir zarrasining o'zi butun bir olamga savdo tushirdi. Endi **g'avg'o** so'zining ginezisiga qaraydigan bo'lsak, bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da betartib ovozlar, qiy-chuv, shovqin hamda tashvish ma'nolarida izohlangan. Bu uning zohiriy ma'nosi. Uning botiniy ma'nosini esa ishq va bedorlik masalasi bilan bog'liq holda tushunishimiz mumkin.

Matla'da savdo, bozor, g'avg'o so'zlari tanosibni, zihi va zuhur so'zlari o'zaro ohangdoshlik kasb etib, alliteratsiyani hosil qilgan. Savdo so'zining birinchi misra oxiri va ikkinchi misra boshida qo'llanishi tasbe' san'atini hosil qilgan.

Ko'rinib turibdiki, bu orifona g'azalning ilk baytida – matla'ning o'zida Navoiyning maslagi o'z aksini topgan.

Seni topmoq base mushkildurur, topmaslig` osonkim,

Erur paydolig`ing pinhon, vale pinhonlig`ing paydo.

Seni topmoq juda mushkul, topmaslik esa osondir, Paydo (bor) ekanliging, ko'rinishing yashirin, ammo yashirinliging ko'ringaningdir.

Bu yerda topmoq – topmaslik, oson – mushkul, paydo – pinhon so'zlari bir-biriga qarshilantirib, tazod san'atini hosil qilyapti hamda go'zal yaxlitlikni yuzaga keltiryapti. Paydo va pinhon so'zlari bir misra ichida o'zaro almashib qo'llangani bois ichki tardi aks yuzaga kelgan deyishimiz mumkin. Navoiy bevosita Allohga murojaat qilib, Seni topish niyohatda qiyin, ammo seni topmasdan yashash oson, seni paydoliging nihoyatda pinhon, deydi. Sening borligingni, haqiqatingni anglashga yetishish kerak. Va sening pihhonliging aynan ana shu haqiqatga yetishishga harakat qilgan, sening ilmingni o'rgangan seni ma'riatingni vahdiyatda anglashga harakat qilgan insonga paydo bo'ladi, degan ma'noda biz buni davom ettirishimiz mumkin. Bundan tashqari, mazkur baytda Allohning go'zal **Zohiyr** va **Botiyn** ismlarining poetik talqini mavjud. Zohir bu tashqi tomon, ko'rinish, botinning teskarisi. Alisher Navoiy qomusiy lug'atida botin so'zi quyidagicha talqin etilgan:" bir narsaning ichki tomoni, ich, ko'ngil, zohirning muqobili" [1]. Haqiqatdan ham, inson uchun zohirda ham, botinda ham Haq taoloni anglash asosiy maslakdir. Aslida Haq taoloni anglash, botiniy mushohadalar ma'rifatni taqozo etsa-da, inson ham zohiran, ham botinan Allohni anglashi va unga yetmog'i va o'zining ilohiy sifatlarini shakllantirishi kerak.

Chaman otashgahiga otashin guldin chu o`t solding,

Samandardek ul o`tdin kulga botti bulbuli shaydo.

Chamanzorga otashin – olovrang gullardan o't soldingki, shaydo bo'lgan bulbullar Samandardek u o'tga – gulzorga o'zini otadi.

Tanosib san'atining go'zal namunasi mazkur baytda ham bor: chaman, bulbul, gul; otash, o't, kul kabi so'zlarni Navoiy qo'llaydi va Samandar talmehini keltiradi. Gulning otashga o'xshatilishi tashbehga misol bo'la oladi.

Alisher Navoiy qomusiy lug'atida Samandar obraziga quyidagicha ta'rif berilgan: "Samandar – o'tda yonmaslik xislati bilan shuhrat topgan afsonaviy va muqaddas jonivor...Samandar goh qush, goh kaltakesak singari hayvon deb ta'riflansa-da, uning o'tda yonmaslik xususiyatiga ko'proq e'tibor beriladi…Samandarning terisidan salla tikib, o'sha davr podsholaridan biriga sovg'a qilibdilar. Har qachon kir bo'lsa, uni olovga solar, salla yana top-toza bo'lib qolarkan… ramziy ma'noda umrboqiylik va ishq ma'nosida qo'llaniladi" [1].

"Farhod va Shirin" dostonida Suhaylo hakim Farhodga Samandar yog'ini beradi. Uni Farhod nafs timsoli bo'lgan ajdahoni yengishda foydalanadi. Samandar bu afsonaviy qushlardan biri bo'lib, bu ishq timsolidir. "Lison ut tayr" dostonida ham bunga ishora mavjud, xususan, Navoiy ishq olov to'g'risida o'z dostonida Faridduddin Attorning mushohadasini keltiradi. Insonning to'rt unsuri bor, shulardan biri olov hisoblanadi. Biroq olov bu nafs timsoli. Shuni ham aytish kerakki, Haqiqiy insoniylik Navoiyning g'azalida tasavvufiy mushohada asosida shakllangan. Haqiqiy insoniylik bu o'lmasdan turib o'lmoqlik hadisi bilan nafsni o'ldirib, haqiqiy ishq bilan tirilmoqlikdir, baytda shunday insonlar haqida mushohada ketmoqda. Navoiy Allohning bir zarrasi ko'ngliga tushib, butun borligi ikki olam savdoga aylangan oshiq masalasini lo'nda qo'ymoqda. E'tiborlisi, bu yerda nafsga

molik inson haqida emas, balki oshiq haqida gap ketmoqda. Ishq o'ti qalbiga tushib, ikki olamda ham u odamning maslagi Alloh bo'lgan. Robiya Adviyya aytadi, mayli mening ibodatlarimni qabul etma, mayli meni jannatingdan mosuvo etgin, ammo jamolingdan benasib etma. Gap ana shunday oshiqlar g'avg'osi haqida ketmoqda. Mana shu o'rinda aytish mumkinki, samandar qushi o'tda yonib, qayta yana tiriladigan qush bo'lsa, Samandar yog'I shuning uchun ham ishq tushunchasini talqin etadi - ishq sovuti tufayli Farhod ajdarhoning olovida – nafsda qovurilmadi. Bu bilan Navoiy ishq nafsni o'ldiradi, nafs ishqni o'ldiradi demoqda. Ishq agar ishq bilan muhofazalangan sovutlangan bo'lsa, nafs insonni yenga olmaydi. Rumiyda shunday baytlar bor: "Agar sen nafsing bilan mashg'ul bo'lmasang, nafs sen bilan mashg'ul bo'ladi". Ya'ni agar siz nafsingizni muhofazalamasangiz, nafsingiz sizni yengishi mumkin. Ammo nafsdan muhofaza bo'lishning yo'li esa Allohni sevish va Allohni rozi qilishdir. Shu mazmundagi fikrlarni, albatta, Samandar obrazi ginezisini o'rganmay turib, tahlil va talqin etish ilojsiz.

Otashgahlarning otashidan, ya'ni ishq o'tidan bir zarrasini oshiqning qalbiga solding. Ishq bu – o't, uni chamanga o'xshatsa, uning bir zarrasini qalbga solding. Va u Samandardek shu o'tda ishqdan yonib kul bo'lib, senga bulbuli shaydo bo'ldi (oshiq edi, orif bo'ldi). Bulbul obrazi Alisher Navoiy qomusiy lug'atida shunday ta'riflangan: "…Bulbul Navoiy lirikasida eng ko'p murojaat qilingan, gul timsoli bilan uyg'un holda oshiqning iztiroblari, uning ma'shuqasi go'zalliklaridan ta'sirlanish kabi holarlarni tasvirlash uchun qo'llanilgan faol timsollardan biri…"

Bulbul - bu orif timsoli. Fikrimizning misoli sifatida ushbu to'rtlikni keltirib o'tamiz:

" G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsang,
Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish".

Alida bu to'rtlikda Vatan haqida emas, inson to'g'risida gap ketadi, bu dunyoda hammamiz ham o'tkinchi, "Mahbub ul qulub"da aytadi, ey inson, Atodan qolgan gunohni qilmagin, dunyo g'aribistonida sargardon bo'ldik, ya'ni Odam Ato birgina gunohi bilan jannatdan bu dunyoga musofir bo'ldi. Jannat uning vatani, makoni edi. Alloh yaratgan haqiqiy manzili Jannat edi, ammo u g'urbatda qoldi. (G'urbat bu musofirlik deganidir.) bu dunyoning sinovlarida u g'arib bo'ldi va bu dunyo unga g'aribiston bo'ldi, demakki bizning haqiqiy Vatanimiz Allohga yetishishdir, ya'ni Iymondir. Vatan qalbimizda, degan tushuncha bor. Bu hadis asosida shakllangan. Vatan bu iymonimiz hisoblanadi. Alloh shuning uchun ham bizning qalbimizdadir. Toki inson Allohga iymonli, Allohga haqiqiy oshufta bo'lsa, u insonning qalbida Alloh yashaydi. Bulbul - bu orif timsoli, haqiqiy Allohni bilgan inson uchun g'urbatda g'arib-u shodmon bo'lmaslik bu vatan sog'inchida azob chekishi emas, balki biz asl vatanimizdan mosuvo bo'lgan ilohiy sog'inch bilan g'urbatda qolgan oshiq bo'lishdir va bu ma'rifatni - Allohning haqiqatini anglagan, bilguvchi odam bu orifdir. Orif, bu arabcha "arafa" – bilish so'zidan olingan. Demak, bulbul timsoli bu orif degani ekan. U butun nafsini Samandardek o'ldirib, bulbuldek orifi shaydo bo'ladi, nafsdan qutulib, ya'ni inson maxluqi sifatida dunyodan foniy bo'lib, haqiqiy oshiq sifatida senga bulbuli shaydo bo'ladi.

Ne ishga bo`ldi beorom ko`zgu aksidek Majnun,
Yuzi ko`zgusida aksingni gar ko`rguzmadi Laylo.

Agar Laylo aksingni ko'rguzmaganida yuzida, Majnun nimaga ham beorom bo'lardi (Majnun bunchalik beorom bo'lmasdi).

Majnun bu Laylining oshig'I, Qaysning ikkinchi nomi, "Layli va Majnun" turkumidagi dostonlarning bosh qahramoni (Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. I jild. Toshkent 2016). "Xamsa"larning uchinchi dostoni qahramonlari - Layli va Majnun baytda qo'llanilib talmih san'atini yuzaga keltirgan. Ko'zgu va aks so'zlari misralardan takroran qo'llanilib takrirni hosil qilgan.

Quyoshg`a gah qizormoq, goh sorg`ormoq erur andin,
Ki sun`ung bog`ida bor ul sifat yuz ming guli ra`no.

Quyoshning qizarishi ham sarg;ayishi ham ya'ni chiqishi va botishi ham Undandir, San'ating bog'ida yana ul sifat – qizil, sariq rangdagi minglab gullar bordir.

Haq taolo Kimnidir orif qiladi, kimnidir zohid qiladi, kimnidir oqil qiladi, kimnidir oshiq qiladi. Har bir oshiqqa bir sir beradi. Sen bir hidoyatsan demoqda Navoiy, Sening rangingda ishqingda

bog'dagi gullar har bir rangga sening qudratng bilan, Sening yaratiqliging bilan bu ishq bog'ida har xil sifat gul rangiga aylanyapti.

Nedin yuz gul ochar ishq o`tidin bulbul kibi Vomiq,

Yuzungdin gar uzori bog`ida gul ochmadi Uzro?

Agar Uzro yuzungdan uzori bog'ida gul ochmasa edi, ya'ni chehrasini ko'rsatmasa edi, Vomiq ham bulbul kabi ishqning o'tidan yuz gul ochmas edi. Ushbu baytda ham talmeh va tanosub san'ati mavjud. "Yuz gul" deb yuzni gulga o'xshatganida tashbeh san'ati hosil bo'lgan. Yuz so'zining ikki ma'noda -chehra va yuz soni ma'nolarida baytda qo'llanishi iyhom san'atini vujudga keltiradi.

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,

Nedin bas la`l o`lur Farhodning qon yoshidin xoro?

Agar kalomingni Shirin labida yashirmaganingda Farhodning qon yoshidan oddiy tosh la'lga aylanarmidi?

Ushbu baytda ma'naviy san'atlarning go'zal namunasi uchraydi. Yorning labi – bu uning so'zlari. Bu istiora san'atini hosil qilgan. Qolaversa, talmeh san'ati boshqa baytlardagi kabi bu baytda ham bor bo'lib, Farhod va Shirin obrazlari tilga olingan. La'l va xor ya'ni tosh o'zaro tazodlangan. Shirin labida haqiqat so'zingni muzmar qilding, ya'ni yashirib qo'yding. Farhodning qon yoshidan la'l qanday qizardi, toshdan qanday la'l bo'ldi, deb o'ylama - Sening Kaloming ishqida, Shirinning labida yashirib qo'ygan Haqiqating ishqida, haqiqiy oshiq mazharning vasfi ko'yida Farhodning qon yoshi to'kilib, toshlar yoqutga aylandi. Chunki Farhod ustozlaridan tosh yo'nuvchilikni o'rgandi. Farhodning qo'lida toshlar go'yoki sariyog'dek erib ketar edi. Bog'ning gulini qanday sir berib, sifat berib sifatlab qo'yding - Farhod ham Shirinning ishqi ko'yida tog'ni ham talqon qilib, qon yoshidan toshni la'lga aylantirdi.

Jamoling partavidin sham` o`ti gar gulsiton ermas,

Nedin parvona o`t ichra o`zin solur Xaliloso?

Yuzung nuridan shamdagi olov guliston bo'lib ko'rinmaganida, nima uchun arvona Iborhim alayhissalomday o'zini ul o't ichiga uraveradi?

Xaliloso – talmeh san'atining navbatdagi namunasi bo'lib, bunga Ibrohim Xalilulloh bilan bog'liq rivoyatlar asos bo'lgan. Namrud uni o'tga tashlaganda Jabroil alayhissalom osmondan tushdi-da, ey Ibrohim, senga yordam kerakmi, - deganda, - Hasbunallohi ni'mal vakil, deydi. Ya'ni menga Alloh kifoyadir. Shu iymonning, ishonch va do'stlikning qudratidan, gulxan kulga aylandi. Sening jamoling partavidan uning gulxanini gulzorga aylantirding. Va u o'zini gulxanga tashlashdan hech qo'rqmadi. Bu gulxan o't emas, go'yo Ishq. "Lison ut tayr" dostonida parvona va sham' hikoyati bo'lib, unda parvonalar o'zini shamga o'ralib o'lishi to'g'risida keltirilgan. Parvonaning Xaliloso deyilishi ham bejiz emas ekan. Xalil bu do'st degan ma'noni bildirishini inobatga olsak, Xaliloso so'zini kichik harf bilan ham, o'qishimiz mumkin bo'ladi. Nega parvona olovga xuddi do'stlarday o'zini otadi - qochmaydi?.. Albatta, Ibrohim alayhissalomning laqablari Xalilulloh (Allohning do'sti) bo'lgan.

Malohat birla tuzdung sarvqadlar qomatin, ya`ni

Ki mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo.

Sarvqadlar qomatini malohat bilan yaratding, go'yoki alifni zeb bilan chiroyli bezading.

Sarv tushuynchasi alohida izoh talab etadi. ilohiy tushunchasi Oshiqlar "vahdatul vujud" bobida birlikka erishadi. "Analhaq", men Allohman, ya'ni men uning bir zarrasiman. (…)

Majnun bitta oshiq - bir alif, Vomiq bir oshiq – bir oshiq – bir alif, Farhod bir shiq – bir alif. Mana shu sarvqadlarni malohat birla tuzding, "Ki mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo" va oldiga bir alif harfini qo'yding. Tasavvufda saf tortish tushunchasi bor. Sarvqadlaringni, oshiqlaringni ishq bobida saf torttirding. Bular Majnun-u, Vomiq-u, Farhod edi. Va uning alif timsoli - jon o'qi, ya'ni ishqning bir jon – bir o'q bo'lib kirdi va ismingni "Vahdat ul vujud" qilib zohir qilding (arabcha Alloh so'zini yozaman). Mana shu hamd-tavhidga misol bo'la oladi. Sarvi ozod – bu Alloh timsoli. Oshiqlar ham endi butun nafsidan ozod bo'lib, ishqi Haq bilan haq bo'lib, ular sarv bo'lmadi - sarvqad bo'ldi. Mana shunday ular Alloh yo'lida saf tortishdi va ularni Allohning birligi – ishqi alif tushunchasi ularga zeb bo'ldi!

Qanoatning dalilin inzivo qilding, yana bir ham

Dalil ushbuki qoni` harfidin xalq aylading anqo.

Qanoatning dalilini uzlat deding, yana "qone" so'zidan "anqo" so'zini keltirib chiqarding.

Baytda qanoat, qoni' va anqo so'zlari ishtiqoq san'atini hosil qilgan.

Alisher Navoiy qomusiy lug'atida deyilganki: "Anqo – Afsonaviy qush nomi…odam qiyofasida bo'yni va qanotlari uzun qush. Rivoyatlarga ko'ra, odam qadami tegmagan orollarda yasharkan…Qof tog'ida yashovchi simurg' sifatida ta'riflangan…tuxum qo'yib emas, tirik jo'ja tuqqan…She'riyatda, asosan, nodir, noyob, yagona narsalarga ta'rif berishda qo'llaniladi" [1]. Allohni anglash bu o'zlikni anglashdir. Birgina "Lison ut tayr"ni olsak, unda turli qushlar Simurg' qushini axtarib qalb oynalarida Allohni topishdi. Yoki "Layli va "Majnun"da ham Majnun oxiri o'zini Layli hisoblab, ya'ni Layliga foniy bo'ldi va ishqda kamolotga yetdi. Aytmoqchimizki o'zlikni anglash, Allohni anglashning birgina kaliti bor ekan. U ham Qanoatdir. Navoiy buni go'zal didaktika qiladi. Allohni anglash uchun Senda qanoat bo'lishi kerak, deydi. Qanoatli bo'lishga shu yo'l bilan undaydi. Qone' – bu to'yingan, rozi, degan ma'nolarni anglatadi. Anqo – hech qanday ko'rinmaydigan, afsonaviy qush nomi. Bu yerda so'z o'yini mavjud: qanoat, qone' va anqo so'zlarining o'zagi bir., ya'ni (bu joyda arabcha q, nun, ayn harflarini yozishim kerak)

Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,

Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go`yo.

Tikan Jannat gulini vasf qilishda ojiz gung bo'lganidek, Navoiy ham (tikondek) sening hamding bayon qilishda ojizdir.

Navoiy "Navodir un nihoya"da:"Men Alisher bo'lsam-da, she'riyatda nihoyatda faqir fuqaroman", - deydi va nihoyatda kamtarlik qiladi. Ko'rinadiki, bir baytda Allohning go'zal Zohir va Botin ismlari keldi, bir joyda uni kitobat qilib berdi. Biroq Jannatdagi tikan bo'lib ham Sening – Sen gulning vasfini qilishda men ojizman, demoqda. Bunda nafaqat faqirlik tushunchasi bor, balki uning maslagi Jannat emas, Robiya Adviyya aytganiday, - Allohdir. Mumtoz adabiyotda oshiq va yor obrazlari qarama-qarshi sifatlangan bo'ladi. Bu baytda Navoiy tikon va jannat gulini tazodlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. 1- jild - Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati,2016

2. A. Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. 2- jild - Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati,2016

3. Hojiahmedov A .She'riy san'atlar va mumtoz qofiya - Toshkent:"Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati,1998

4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009. - 290 b

5. Najmiddin Komilov.Tavhid asrori- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda O'zbekiston nashriyotlari,1999

6. Olimov S. Ishq, oshiq, ma'shuq

UO'K 81'373.49

IQTISODIY VA SIYOSIY SOHALARGA OID EVFEMIZMLARNING KUNDALIK HAYOTDA IFODALANISHI

N.Z. Ruziyeva, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Iqtisodiy va siyosiy hodisalarni sharhlashda har gal yangi evfemizmlar yaratiladi va qo'llaniladi. Evfemik so'zlar va iboralar muayyan muammolar va kamchiliklarni yashirish, yumshatish, so'zning asl mohiyatidan chalg'itish, zo'ravonlik holatlari yoki xatolar darajasini kamaytirishdir uchun yaratilgan. Shu yo'l orqali siyosatdan yiroq insonlar siyosiy jarayonlarni ko'p tahlil qilmasdan, o'ylamasdan osongina qabul qilish mumkin.*

Kalit so'zlar: *evfemizm, iqtiosidy evfemizm, siyosiy evfemizm, sozni yumashatish, pardalash.*

Аннотация. *Постоянно создаются и используются новые эвфемизмы для описания экономических и политических событий. Эвфемистические слова и фразы создаются, чтобы скрыть или смягчить определенные проблемы и недостатки, отвлечь от истинного значения слова и уменьшить степень насилия или ошибок. Таким образом, люди, далекие от политики, могут легко принять политические процессы без особого анализа или размышлений.*

Ключевые слова: *эвфемизм, экономический эвфемизм, политический эвфемизм, смягчение слов, вуалирование.*

Abstract. *New euphemisms are constantly being created and used to describe economic and political events. Euphemistic words and phrases are created to hide or soften certain problems and shortcomings, distract from the true meaning of the word, and reduce the degree of violence or errors. In this way, people who are far from politics can easily accept political processes without much analysis or thought.*

Keywords: *euphemism, economic euphemism, political euphemism, softening of words, veiling.*

Hozirgi kunda evfemizmlarning lingvistik tadqiqotlar markazida ekanligi bejiz emas. Insonlarning nutqiy faoliyatida, nutq etikasi qoidalariga rioya etgan holda evfemizmlardan foydalanishlari nutq ziddiyatlarining oldini olishga yordam beradi. Maqolamizda kundalik hayotda evfemizmlarning iqtisodiy va siyosiy sohada qo'llanilishini tahlil ostiga olamiz:

1. Iqtisodiy evfemizmlar. Evfemizm ingliz tilida keng qo'llaniladigan sotsiolingvistik hodisadir. Ular ko'p qo'llanadigan yana bir soha, moliyaviy muammolar bilan bog'liq soha hisoblanadi. Iqtisodiyot va biznes tilida evfemizmning keng tarqalganligining asosiy sababi iqtisodiy hayot turli xil manfaatli vaziyatlarga to'laligidadir: xaridorlar va sotuvchilar, ish beruvchilar va xodimlar, omonatchilar va bankirlar, sug'urtalovchilar va sug'urtalanganlar yoki siyosatchilar va soliq to'lovchilar va hokazo. Bunday vaziyatlarda evfemizmlardan foydalanish tafovutlarni bartaraf etish yoki hech bo'lmaganda uni ifodalash uchun yaxshiroq ekvivalent qo'llash uchun vosita bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, evfemizmlar semantik o'zgarishlarda uchraydi va bunda ular vaqt o'tishi bilan o'zlarining pardalash yoki yashirish funktsiyalarini yo'qotishadi. Biroq, bunday semantik o'zgarishlar iqtisodiyot va biznes sohasida qo'llanadigan evfemizmlarda kam uchraydi. Shuni ta'kidlash kerakki, chet tillardan kelib chiqqan so'zlardan yoki texnik atamalardan foydalanish har doim yoqimsiz tushunchalarning ta'sirini yumshatishning samarali usuli bo'lib kelgan. Iqtisodiy tushunchalardan kelib chiqqan holda bu guruh evfemizmlarini **a) bozor; b) soliq; v) biznes** kabi kichik guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

a) Bozor sohasiga oid evfemizmlar. Evfemizmlarni ko'pincha so'z shaklida uchratsakda, aslida ularning ibora shakli ham juda ko'p qo'llaniladi. Iqtisodiy faoliyatda yoki fond bozorida yaqinlashib kelayotgan retsessiya, ya'ni sanoatda faoliyat sustligi va ko'proq odamlarning ishsiz qolayotgani sababli mamlakat iqtisodiyoti yomon ahvolda bo'lgan davr haqida gapirilganda, bu holat *the party is over* (o'yin-kulgi tugadi) iborasi bilan ifodalanganini uchratamiz. Shuningdek, iqtisodiyotda uchraydigan *zero growth, negative growth* iboralari ham mamlakatda mavjud retsessiya holatini ifodalash uchun qo'llanilgan evfemizmlardir.

Yoki *For the parents of the school's 600 or so pupils, ages 3 to 15, it's not an inconsiderable sum [1].* (Maktabning 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 600 ga yaqin o'quvchilarining ota-onalari uchun bu kam mablag' emas) misolida keltirilgan *an inconsiderable sum* iborasi iqtisodiy sohada katta miqdorga ishora qiladi. Bunda teskari ma'nodagi ibora orqali asl fikr bildirilgan. Shuningdek, *insignificant factor of instability* (beqarorlikning muhim omili) iborasi orqali iqtisodiy sohada katta qarzlarning to'planishi nazarda tutiladi.

b) Soliqqa oid evfemizmlar. Soliq to'lash inson jamiyati tarixida doim noxush fuqarolik burchi hisoblangan va odamlar bu atama uchun turli evfemistik birliklarni ishlatadilar. Shu sababli, *taxation* (soliqqa tortish) atamasi uchun qator evfemizmlar mavjudligi ajablanarli emas. *Tax relief* (soliq imtiyozi) soliq to'lovchi soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishini [6] anglatuvchi evfemizmdir. Bahs-munozarali soliqlar *tax relief (soliq imtiyozi)* deb atalsa, ancha yumshatilgan va asl mohiyati yashiringan hisoblanadi: "*We ought to keep interest rates down and save the future for our children. Let's not squander the surplus or this moment. Let's keep our economy strong, provide affordable* ***tax relief,*** *and extend our prosperity into the future*" [7] (Biz foiz stavkalarini pasaytirishimiz va farzandlarimiz kelajagini saqlab qolishimiz kerak. Ortiqcha narsalarni isrof qilmaylik va shu damlarni ham behuda sarflamaylik. Iqtisodiyotimizni mustahkam ushlab turaylik, soliq imtiyozlarini taqdim etaylik va kelajagimiz farovonligini mustahkamlaylik). Ushbu misolda mamlakat kelajagini, ravnaqini

yuksaltirish maqsadida *soliqlarni to'liq yoki qisman qisqarishi* taklifi ***tax relief*** evfemizmi orqali ifodalangan.

v) Biznesga oid evfemizmlar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, evfemizmlar aniq va to'g'ridan-to'g'ri berilgan tushunchalarni ifodalash uchun ishlatadigan noaniq iboralardir.

"...I described how the Australian lending industry was a great example of friction-loaded business ecosystem and how LIXI standards are aimed at reducing some of that friction." [8] ("...Men Avstraliyaning kreditlash sanoati qarama-qarshilikka boy ajoyib biznes ekotizimining ajoyib namunasi ekanligini va LIXI standartlarining bu qarama-qarshilikni qisman kamaytirishniga qaratilganligini tasvirlab berdim.") misolida *business ecosystems* (biznes ekotizimlari) - bir xil bozorlardagi kompaniyalarning innovatsiyalarni joriy etish, yangi mahsulotlarni qo'llab-quvvatlash va mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun hamkorlikda va raqobatbardosh ishlashini anglatish vositasi sifatida ishlatiladi.

Yoki: "*Our process includes: a) achieving assimilation: coaching, problem solving, and addressing persistent pockets of resistance*." [9] (Bizning jarayonimiz quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) assimilyatsiyaga erishish: murabbiylik, muammolarni hal qilish va doimiy qarshilik o'chog'lariga murojaat qilish) misolida keltirilgan *pockets of resistance* (qarshilik o'chog'lari) atamasi loyihani to'xtatib qo'yish, blokirovka qilish yoki yo'qqa chiqarishga urinayotgan shaxs yoki guruhni tavsiflash uchun qo'llanilgan.

4. Siyosiy evfemizmlar. Siyosat matbuotchilar tilida muntazam tahlilga tortiladigan dolzarb mavzu bo'lib, uni xalqqa yetkazish davomida noxush mavzular bilan shug'ullanishning "xavfsiz" usuli sifatida evfemizmga murojaat qilishadi. Shunday ekan, til siyosatchilarning kundalik hayotida muhim element hisoblanadi. Muayyan auditoriyaga murojaat qilish uchun to'g'ri so'zlarni tanlash nafaqat o'zlari, balki vakil sifatida tanishtirayotgan yoki himoya qilayotgan tomonlarning ijobiy qiyofasini yaratish uchun ham muhimdir. Siyosiy til aniq bir "maqsadga yo'naltirilgan" va murosa qilish, qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, xalq fikrini o'zlariga nisbatan ijobiylashtirish uchun foydalaniladi. Darhaqiqat, siyosatchilarning nutqlari va jamoatchilik sharhlari ongli va ehtiyotkorlik bilan muayyan maqsadni nazarda tutgan holda qurilgan.

Samoskaite [4] ingliz gazetalarida siyosiy evfemizmlarni o'rgangan. Chunki, siyosiy mavzular va siyosatchilar haqidagi maqolalarda siyosiy evfemizmlar ko'p uchraydi. Uning fikricha, siyosiy evfemizmlar beshta pragmatik funksiyani bajaradi: xushmuomalalik, tabudan qochish, yashirish, induksiya, taktika va bular orasida eng asosiysi yashirishdir. Ya'ni, siyosatchilar voqealarning asl mohiyatini yashirish va xalqni yoqimli so'zlar bilan aldash uchun siyosiy evfemizmlardan keng foydalanadi. Shuningdek, Crespo-Fernandez [2] ham Britaniya mintaqaviy matbuotidagi evfemizm va siyosiy nutqni o'rgangan. Evfmizmlarni diskurs - ya'ni nutq tahlili yondashuvi asosida tekshirgan va tahlilga tortgan. Uning fikricha, noaniqlikni ifodalash siyosiy evfemizmlarning muhim xususiyati va siyosiy voqealarni aslicha atashdan saqlanish uchun ulardan keng foydalaniladi.

Harbiy soha evfemizmlari. Siyosatda qo'llaniladigan muayyan faoliyat yoki sohani bildiruvchi evfemizmlar ham mavjud bo'lib, R.W.Holder [3] quyidagi misollarni siyosatga oid evfemizmlar guruhiga kiritadi. Masalan, *special* so'zi noqonuniy yoki g'ayriinsoniy faoliyatga ishora qiluvchi maxsus so'zlar o'rnida qo'llaniladi. *Special treatment* kabi evfemizmlar siyosiy raqiblarni qiynoqqa solish, yoki o'ldirishni anglatadi. *Nuclear weapons* birikmasi *special weapons* ga o'zgartiriladi. *Special operations* iborasi maxfiy va noqonuniy operatsiyalarni bildiradi. *Strategic* so'zi siyosatchilar tomonidan qo'llanilib, muvaffaqiyatsiz harakatlarga ishora qilinadi. Masalan, *strategic movement to the rear* va *strategic withdrawal* iboralari harbiy muvaffaqiyatsizlikka ishora qiladi. Semantik jihatdan belgilangan yana bir so'z bu *people´s* so'zi bo'lib, ko'pincha avtokratiya (yakka hokimiyatchilik) g'oyasini yashirish uchun ishlatiladi. *People´s democracy* atamalari *people´s republic* yoki *people´s party* avtokratik tuzum bilan bog'liq.

Oz'bek tilida *operatsiya* (vazifa), *havo hujumi*. kabilar ham evfemizmlarga misol bo'la oladi: - *Ana shu 6 ta baza bo'yicha axborot almashinuv tarmog'i hosil qilinadi. Mavjud ma'lumotlar bazasiga tayanib, har bir* ***operatsiyani*** *tezkorlik bilan bajarish mumkin.* (Ma'rifat.uz 25.05.2019.)

a) Siyosatchilar nutqiga oid evfemizmlar. Ushbu guruhdagi evfemizmlar, asosan, davlat boshqaruv organlari nutqida faol qo'llaniladi. Jumladan, *Republican presidential front-runner*

Donald Trump says that, as president, he would push to change laws that prohibit waterboarding and other ***harsh interrogation methods****, arguing that banning them put the U.S. at a strategic disadvantage against Islamic State militans* (The Washington Post). Ushbu gapda *harsh interrogation methods* evfemik birikmasi qiynoqqa solmoq ma'nosini anglatadi.

Yuqoridagi tahlillardan shuni anglash mumkinki, inson hayotining barcha jabhalarida evfemizmlar mohirona tarzda qo'llanib kelinmoqda. Har bir sohada evfemizmlarning o'z vazifasi va xususiyatlari borki, ular nutq madaniyatini har soha vakillari uchun ko'rkam, muloyim ayrim hollarda yashirin ma'no anglatish kabi funkisyalarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Balch O. As private education rises globally, researchers disagree on whether it's worth it. The Guardian. 16 Mar 2015.

2. Crespo-Fernandez E. Euphemism and Political Discourse in the British Regional Press. Brno Studies in English, Vol. 40, No. 1 – P. 5 – 26.

3. Holder R.W. A Dictionary of Euphemisms How not to Say What You Mean, Oxford University Press. 2002. – 525 p.

4. Samoskaite L. 21st Century Political Euphemisms in English Newspapers: Semantic and Structural Study. Vilnius Pedagogical University. – Lithuania. 2011. – P.44 – 66.

5. Zarifovna, Ruziyeva Nafisa. "A Bit of Honeyed Talk: Exploring Euphemisms for Spouses." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 3, no. 1 (2024): 443-445.

6. Мустафакулов Ш.И., Рахимбердиев О.А., Эгамбердиева М.Ш. Иқтисодий атамаларнинг изоҳли луғати.– Тошкент , 2019. – Б. 368.

UO'K: 821.512.157.09-31

"IZTIROB" ROMANIDA RETROSPEKTIVLIKNING BADIIY FUNKSIYALARI

Sh.A.Sa'dullayeva, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Rashod Nuri Guntekinning "Iztirob" romanida retrospektiv uslub orqali bosh qahramon Zahroning ichki ruhiy o'zgarishi tahlil qilinadi. Gerard Genette va Paul Rikoeur nazariyalari asosida retrospektivlikning badiiy va psixologik funksiyalari yoritiladi. Asarda tashqi analepsis yordamida o'tmish voqealari hozirgi zamon kontekstida qayta ochilib, qahramonning axloqiy transformatsiyasi ko'rsatiladi. Retrospektivlik shaxsiy kechinmalar, xotira va vaqt idroki orqali insoniy anglash jarayonining badiiy ifodasiga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *retrospektivlik, analepsis, tashqi analepsis, axloqiy transformatsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется внутренняя трансформация главной героини Зехры в романе Рефата Нури Гюнтекина Сострадание через использование ретроспективного повествования. На основе теорий Жерара Женетта и Поля Рикёра рассматриваются художественные и психологические функции ретроспекции. Посредством внешней аналепсисы события прошлого переосмысляются в контексте настоящего, раскрывая моральную трасформацыю персонажа. Ретроспекция выступает литературным средством выражения процесса самопонимания через память, внутренние переживания и восприятие времени.*

Ключевые слова: *ретроспекция, аналепсис, внешний аналепсис, моральная трансформация..*

Abstract. *This article analyzes the inner transformation of the main character Zehra in Reşat Nuri Güntekin's novel Acımak through the use of a retrospective narrative style. Based on the theories of Gérard Genette and Paul Ricoeur, the artistic and psychological functions of retrospection are explored. Through external analepsis, past events are reinterpreted in the present context, revealing the character's moral transformation. Retrospection serves as a literary means to express the human process of self-understanding through memory, emotional experience, and perception of time.*

Keywords: *retrospection, analepsis, external analepsis, moral transformation.*

Kirish. XX asr turk nasrida inson psixologiyasi, xotira va ichki kechinmalar orqali voqealarning badiiy talqini yetakchi adabiy yo'nalishga aylandi. Bu tendensiyada retrospektivlik — ya'ni o'tmishdagi voqealarning hozirgi zamon tasviriga kiritilishi — muhim estetik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Rashod Nuri Guntekin kabi yozuvchilar o'z romanlarida bu yondashuv orqali

qahramon ruhiyatini chuqur tahlil etishga erishgan. Adibning "Iztirob" asari ana shu retrospektiv uslubning yorqin namunalaridan biridir. Asarda bosh qahramon Zahro o'z otasining kundaligini o'qish jarayonida shaxsiy o'zgarishga uchraydi, o'tmish haqidagi tasavvurlari tubdan yangilanadi. Mazkur maqolada retrospektivlikning nazariy asoslari Gerard Genette va Paul Rikoeur qarashlari asosida tahlil qilinadi hamda "Iztirob" romanida bu uslubning badiiy funksiyalari yoritiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi adabiyotshunoslikda inson psixologiyasini, xotira va vaqt idroki orqali badiiy tahlil qilish muhim ilmiy yo'nalishga aylanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda shaxsiy o'zgarish, ichki kechinmalar va ruhiy inqirozlarni tushunishga bo'lgan ehtiyoj kuchaygani sayin, retrospektivlikning adabiy matndagi roli yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Rashod Nuri Guntekinning "Iztirob" romani ana shu jihatdan o'ta muhim adabiy namunadir: unda qahramonning o'z-o'zini anglash jarayoni, kechikkan achinish va axloqiy yangilanish retrospektiv uslub orqali yoritiladi. Shu boisdan mazkur roman misolida retrospektivlikning badiiy, psixologik hamda falsafiy funksiyalarini o'rganish hozirgi adabiy-tanqidiy tafakkur uchun ahamiyatli bo'lib, bu uslubning XX asr turk nasrida qanday shakllanganini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, Gerard Genette va Paul Rikoeurning nazariy qarashlari asosida retrospektivlikni tahlil qilish bugungi adabiy jarayonlarni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan boyitadi.

Tadqiqotning amalga oshirilishi. Fransuz adabiyotshunosi Gerard Genette retrospektivlikni *analepsis* tushunchasi orqali izohlaydi. Unga ko'ra, *analepsis* – hikoya ichida ilgari sodir bo'lgan voqealarning orqaga qarab eslanishidir [2. 40]. Analepsis ikki turga bo'linadi: ichki (asosiy voqealar oralig'ida) va tashqi (asosiy syujetdan avval sodir bo'lgan) retrospektivlik. Genette retrospektivlikni "hikoya vaqti" bilan "voqea vaqti" o'rtasidagi tafovut sifatida ko'radi. Vaqt tartibining buzilishi asarda dramatik kuch, psixologik chuqurlik va g'oyaviy teranlik hosil qiladi [2. 48–49]. Paul Rikoeur esa retrospektivlikni hikoyaning inson ongida vaqtni idrok qilishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholaydi. Uning fikricha, "…vaqt hikoya orqali insoniy ma'no kasb etadi" [3. 52]. Hikoya strukturasi — bu vaqtning ichki anglash modeli bo'lib, retrospektiv yondashuv inson tajribasining qayta qurilishi uchun xizmat qiladi. Rikoeur retrospektivlikni faqat syujet qurilishi emas, balki ontologik-falsafiy jarayon deb qaraydi: inson o'zining kechagi xatolarini anglaydi, xotira orqali kechirim, achinish va yangilanishga intiladi [4. 102].

Olingan natijalar tahlili. "Iztirob" romanida retrospektivlikning ifodalanishi haqida fikr yuritsak, retrospektiv bu asarda syujet mexanizmi vazifasini o'taydi. Roman hozirgi zamonda boshlanadi: qattiqqo'l, hissiz muallima Zahro otasining o'limidan so'ng tasodifan otasining kundaligini topadi. Kundalik o'qilgan zahoti retrospektiv hikoya boshlanadi — bu *tashqi analepsis shaklidagi retrospektivlik* bo'lib, "…asosiy syujetdan ancha ilgari sodir bo'lgan voqealarni yoritadi" [2. 65]. Kundalik orqali o'quvchi Murshid afandining og'ir hayoti, muammolari, Zehraga bo'lgan cheksiz mehrini bilib boradi. Bu esa Zahroning otasi haqidagi sovuq qarashlarini butkul o'zgartiradi.

Paul Rikoeur qarashlariga ko'ra, hikoya (analepsis nazarda tutilmoqda) inson uchun o'z vaqtini anglash vositasi bo'lib xizmat qiladi [3. 61]. "Iztirob" romanida Zahro retrospektiv o'tmishni bilganidan so'ng ichki ruhiy inqirozga duchor bo'ladi. U ilgari qattiq tanqid qilgan, nafratlangan otasi aslida insoniy fojialar qurboni, halol va mehribon inson bo'lganini anglaydi. Bu anglash esa uni tubdan o'zgartiradi — Zahro ilk bor achinish hissini tuyadi. Shu o'rinda retrospektivlikning badiiy funksiyasiga to'xtalish joizdir. Asarda retrospektivlik quyidagi badiiy funksiyalarni bajaradi:

Psixologik oydinlashtirish: Zahroning ruhiy portreti retrospektiv voqealar orqali yoritiladi.

Syujet burilishi: o'tmishga oid haqiqatlar hozirgi zamonda syujetning yo'nalishini o'zgartiradi.

Axloqiy yangilanish (axloqiy transformatsiya): qahramon retrospektiv bilish orqali o'z shaxsini yangidan quradi. Shunday qilib, retrospektivlik bu asarda faqat syujet texnikasi emas, balki ichki o'zgarish, axloqiy yetilish va hissiy chuqurlik vositasidir.

Psixologik oydinlashtirish funksiyasini asar misolida ko'radigan bo'lsak, Zahro asar boshida otasining betobligi, og'ir ahvolda va hatto so'nggi kunlarini yashayotganining xabarini olgandagi dastlab sovuqqon, so'ng nafratli holati kitobxonda "Nega?" degan savol paydo qiladi. Chunki har ishda oqilaligi, intizomliligi, jamoatchi va tadbirli ayol ekani bilan hurmat qozongan Zahro maorifchi Tavfiq Xayribey ta'biri bilan aytganda *"Aybdor, tushkun inson uning (Zehraning) nazdida ekin ekiladigan daladagi qurib qolgan o'tday"* [1. 8] deb sanovchi bir inson edi, Tavfiq Xayri deputat

Sharof Halilga Zahro haqida so‘zlar ekan: *“Ha, bu qat’iyat, bu qo‘pollik sudyalarda bo‘lsa, tushunaman, ammo maktab muallimi uchun…”*[1. 8] — deydi. Bu yerda Tavfiq achinish, shafqat, kechirimlilik tuyg‘ularini, Zahroning bu tuyg‘ulardan bebahra ekanini nazarda tutadi va hatto bu bebahralikni o‘qituvchi uchun katta qusur deb hisoblaydi: *“Achinish… men inson ruhiyatini faqatgina u bilan o‘lchash mumkinligiga ishonaman”* [1. 8]. Shu o‘rinda Tavfiqbey nutqi orqali muallif asarning asosiy g‘oyasini ko‘rsatadi go‘yo: “…tubi ko‘rinmaydigan quduqlarga otilgan toshning ovozi quduqning qanchalik chuqurligi ko‘rsatsa, boshqalarning alami ham bizning yuraklarimizga tushganda chiqargan ovoz bizning insonligimiz darajasini ko‘rsatadi”, Zahroning “yurak qudug‘i” boshqalarning “alam toshlari”ga ovoz bermas edi, demakki, Zahroda insoniylik fazilatlari to‘liq mujassam emas edi, axir u kechirimli emas, rahmni bilmaydigan insondir. Asar turk tilida “Acımak” ya’ni achinmoq, rahm qilmoq va og‘rimoq degan ma’nolarni ham anglatadi. Ta’bir joizki, asarning bosh g‘oyasi insoniylikning eng muhim fazilati rahmdillik va kechirimlilik ekan, bu fazilat eng ko‘proq muallimlik kasbida bo‘lishi asar bosh g‘oyasining yondosh bo‘g‘inidir.

Tavfiqbey Zahroning toshbag‘ir muallima ekanligi xulosasiga shunchaki kelmagan edi. To‘rt yildan beri Zahroni tanigan Tavfiq uning maktab o‘quvchilarini arzimas xatolarini ham, yashash sharoiti, turmush tarsi tufayli yuzaga kelgan kamchiliklarini ham kechirmasdi. Maktab mudirasi bo‘lgach maktabda intizom o‘rnatish orqali ancha ildamlagan bo‘lsa-da, bu intizomning shafqatsiz yonlari ham bor edi. Masalan, kechikkan o‘quvchini, u nima sababdan kechikkan bo‘lishidan qati nazar, maktabga kiritmasdi, sababi uni qiziqtirmas edi ham, yengiltak deb sanagan o‘quvchi qizlarni boshqalardan ayirish uchun alohida ajratilgan partalarga o‘tirishga majbur qilar edi, intizomni buzganlarni maktabdan osonlikcha haydab, maktabni “tozalar edi”. Yuqoridagi kabi Zahro shaxsiyatiga xos bo‘lgan ta’riflarni o‘qigan kitobxonda, tabiiyki, “Nega Zahro bu qadar shafqatsiz, achinish hissisiz bir muallima, mudira?” degan savol tug‘iladi. Muallif bu psixologik holning sababini ochiqlash uchun retrospektivlikka murojaat qiladi, ya’ni Zahroning bolalik hikoyasini Zahroning eslashi tarzida beradi. Ya’ni “yomon” ota qo‘lida ulg‘aygan, onasi, buvisi va opasidan ayrilgan Zahro otasini bularning bariga sababchi sanab, uni aslo kechira olmasligi, otasiga qarshi kini yuragidagi shafqat tuyg‘usini tag tomiri bilan quritgan edi. Ya’ni bu kechira olish, achinish hissidan mosuvoligi baxtsiz bolalik yashaganidan va bunga otasini sababchi deb bilishidan yuzaga kelgandi. Aynan shu yerda retrospektivlikning “psixologik oydinlashtirish” funksiyasini ko‘rish mumkin.

Retrospektivlik, aniqroq aytsak , tashqi analepsisning yujet burilishi funksiyasini misolda ko‘rsak, hozirgi zamondagi voqealardan birdan o‘tmishdagi voqealarni xotiridan hikoya qilishga o‘tish syujetning shakliga, albatta, ta’sir o‘tkazadi. Zero, retrospektivlikning ko‘zga yaqqol tashlanuvchi vazifasi ham shudir. Asarda syujetni buruvchi ikki tashqi analepsis mavjud, birinchisi, Zahroning bolalik xotiralarini xayolida o‘tkazishi, ikkinchisi, Murshid afandining kundaligi. Ikki analepsis ham bir veqea, davrni hikoya qiladi, ammo ikkisi tubdan farq qiladi. Zahroning “analepsisi”da otasi shafqatsiz va oilani buzib, opasining o‘limiga sababchi bo‘lgan inson bo‘lsa, Murshid afandining “analepsis”ida (kundaligida) asl haqiqat, ya’ni oilani buzga va Murshid afandi nochor ahvolga solib qo‘ygan insonlar aslida Zahroning buvisi va onasi ekan oydinlashadi. Zahroning hikoyasidan so‘ng Zahro nima sababdan bunday toshbag‘ir inson bo‘lib qolganini kitobxon anglab yetsa, Murshid afandining kundaligidan so‘ng, avvalo, Zahro, keyin kitobxon, Murshid afandining aslida yaxshi inson ekani, ammo oilasini saqlab qola olish uchun juda nochon ahvolda qoldirilganiga amin bo‘ladi.

Axloq yangilanishi, axloqiy o‘zgarish yohud transformatsiya funksiyasiga to‘xtalsak. Yuqorida asar syujetini buruvchi ikki analepsis borligi haqida so‘z yuritildi. Ushbularda birinchisi bo‘lmish Zahro analepsisi ichi analepsis sanaladi va unda qachonlardir o‘tmishda yuz bergan axloqiy transformatsiya anglashiladiki, bu Zahroning rahmsiz, kechirishni bilmaydigan insonga aylanishidir, Murshid afandi kundaligi bilan bog‘liq analepsisda esa ayni zamonda Zahroning axloqida yuz bergan transformatsiyaga guvoh bo‘lamiz, endi Zahroda shafqat tuyg‘usi uyg‘ongan edi: *“Zahro daftarni o‘qib tugatgach, rangi oqara boshladi… Shamni qo‘liga olib, marhum yotgan xonaga kirdi… — Ota…Bechora otam, —deya faryod chekti. Yuzini yerga bosdi. Ko‘zlaridan sel kabi yoshlar oqib, xuddi ibodat qilgandek, otasining oyoqlarini o‘pdi. — Ota… bechora otam… meni kechiring… Zahro bir necha kundan keyin Onado‘lidagi maktabga qaytdi. Muallimaning endi umuman kamchiligi*

qolmagandi. Iztirob unga achinishni, rahm qilishni o'rgatgandi" [1. 127]. Yuqorida keltirilgan jumlalar bilan roman yakunlanadi. Parchadagi "endi umuman kamchiligi qolmagandi" jumlasi muallif asar davomidagi retrospektivlik, aniqroq aytadigan bo'lsak, kundalik orqali bilib olingan haqiqat vositasida Zahroning komillikka erishganiga ishora qilgan deyish mumkin. Va asarni boshidagi va so'ngidagi Zahroda axloqiy transformatsiya aynan tashqi analepsis vositasida amalga oshirilgan.

Xulosa. Rashod Nuri Guntekinning "Iztirob" romanida retrospektivlik adabiy voqelikni chuqurlashtiruvchi, qahramon ruhiyatini yorituvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Gerard Genette nazariyasiga tayangan holda, asarda retrospektivlik tashqi analepsis tarzida ishlatilgan. Paul Rikoeurning vaqt va hikoya haqidagi qarashlari asosida qaralganda esa, retrospektivlik qahramonning o'z o'tmishini anglab, ichki yangilanish (axloqiy transformatsiya)ga erishish jarayonini ifodalaydi. Retrospektivlik orqali muallif syujet tartibini buzgan holda, qahramonning ichki inqirozini va kechikkan achinishini o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir bilan yetkazadi. Natijada "Iztirob" romanida retrospektiv struktura nafaqat badiiy, balki axloqiy-falsafiy yuklamaga ham ega bo'lib, adabiy tafakkurga yangicha qatlam qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Рашод Нури Гунтекин. Изтироб. Тошкент. "Ёшлар матбуоти", 2023. Б.:127.

2. Genette, G. (1980). Narrative Discourse: An Essay in Method. Trans. Jane E. Lewin. Ithaca, NY: Cornell University Press. (maqola ichida: Genette, 1980: 40, 48–49, 65).

3. Ricoeur, P. (1984). Time and Narrative, Volume 1. Trans. Kathleen McLaughlin and David Pellauer. Chicago: University of Chicago Press. (maqola ichida: Ricoeur, 1984: 52, 61).

4. Ricoeur, P. (1985). Time and Narrative, Volume 2. Trans. Kathleen McLaughlin and David Pellauer. Chicago: University of Chicago Press. (maqola ichida: Ricoeur, 1985: 102).

UO'K 811.512.145

O'ZBEK BADIIY MATNIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

A.I.Saminov, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek badiiy matnlarida qo'llanilgan antroponimlarning stilistik funksiyalari va ularning matn mazmuni, qahramon xarakteri hamda ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o'ziga xos vazifasi tahlil etiladi. Antroponimlarning badiiy asariga estetik vazifa yuklashi, obraz yaratishdagi roli, muallifning uslubiy niyatini ifodalashdagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Antroponim, badiiy matn, badiiy til, nomlash uslubi, qahramon ismi, stilistik xususiyat, onomastika, madaniy kontekst, stilistika, antroponimlarning o'ziga xosligi, motiv, ijtimoiy va psixologik aspekt, nomlarning semantik xususiyati, personajlar xususiyatlarini ifodalash.*

Аннотация. *В этой статье анализируются стилистические функции антропонов, используемых в узбекских художественных текстах, а также в его текстовом содержании, героическом характере и социокультурном контексте. Роль в работе антропонум, роль в создании имиджа, будет рассмотрена способность методологического намерения автора.*

Ключевые слова: *антропоним, художественного текста, именования, героического языка, стиля, стилистики, оригинальности, уникальности, движения, социальных и психологических аспектов, семинаров, свойств имен, свойств.*

Abstract. *This article analyzes the stylistic functions of anthropones used in Uzbek artistic texts and its text content, heroic character and the socio-cultural context. The role in the work of anthroponums, the role in creating the image, the ability of the author's methodological intention will be considered.*

Key words*: Representation of anthroponing, artistic text, naming, heroic language, style, stylistics, originality, uniqueness, motion, social and psychological aspects, the seminars, properties of the names, properties.*

Kirish. Asrimizning 70-yillaridan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari haqida tadqiqotlar yuzaga kela boshladi va ular quyidagi atamalar bilan nomlandi: adabiy onomastika, poetik

onomastika, uslubiy onomastika, onomapoetika yoki so‘zlovchi ismlar. Badiiy asarlardagi antroponimlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarning tadqiq obyekti hisoblanadi. Adabiyotshunoslar asarning qahramonlari va prototiplari, badiiy-tasviriy usullari va manbaasini tadqiq qilishda antroponimlarga murojaat qilishsa, tilshunoslar qahramon ismining real yoki to‘qimaligini, uning nominativ va uslubiy ma’nolarini, antroponimlarning badiiy asarda tutgan o‘rnini va ahamiyatini o‘rganishadi. Badiiy asardagi ismlarning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liqroq ochish uchun tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining o‘zaro birlashgan nuqtasi lingvostilistikadan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiiy asarlardagi, xususan, nasriy asarlardagi ismlarning uslubiy xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida yaqindan boshlab o‘rganila boshladi. Ayniyning tili yuzasidan tadqiqot olib borgan E.Qilichevning fikricha, yozuvchining deyarli barcha asarida antroponimlar tasvirlanayotgan voqeani badiiy aks ettirish uchun xizmat qilgan. Uning asarlarida so‘zlanmaydigan ism va laqab yo‘q desa bo‘ladi. Har bir antroponim tasviriy bo‘lib, nimanidir aks ettiradi. Professerlar Y.Solijonov va S.Mo‘minov badiiy asardagi aptroponimlarga bag‘ishlangan maqolasida ismlarning yozuvchi g‘oyaviy niyatini oydinlashtirishdagi ahamiyatini o‘rinli uqtirishgan: “yozuvchilar qahramonning ruhiy dunyosini ochish, xarakterning mohiyatini, voqealar ro‘y berayotgan teritoriyani aniqlash, milliy o‘ziga xoslikni ta’minlash maqsadida qahramonlarning ism-familiyalariga alohida e’tibor berganlar”[6. 48].

Darhaqiqat, yozuvchi oldidagi eng murakkab vazifalardan biri asar qahramonlarining o‘ylab chiqilgan dunyosini ochib berish hisoblanadi. Shuningdek, ijodkor o‘ylab topgan obrazning asar mazmuniga mos bo‘lishi talab etiladi. Chunki asarda ularning hayotiy taqdiri ifoda etiladi. Agar yosh bola obrazini tasvirlash zarur bo‘lsa, uning kelajakdagi qiyofasini ham tasavvur etish zaruriyati yuzaga keladi. Bularning barcha jihatlari muallifga oldindan ma’lum bo‘ladi [5. 124-125].

Badiiy asar oldiga qo‘yiladigan talablardan biri esa asar qahramonlariga ularning ichki dunyosini ochib beradigan yoki unga ishora qiladigan ism berish hisoblanadi. Badiiy asar qahramonlari va ularning ismlari adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tilshunoslikning onomastika bo‘limida ham o‘rganiladi. Agar adabiyotshunoslik badiiy asar qahramonlarining “ismi jismiga mosligini” badiiy asar qonuniyatlaridan kelib chiqib o‘rgansa, tilshunoslikda leksik birlik sifatida motivativ va semantik uyg‘unlik muammolari tadqiq etiladi. Chunki onomastik semantika – bu semantikaning alohida turi bo‘lib, til va nutq sohasida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Onoma semantika atoqli otlarda mavjud bo‘lgan axborotdan barpo bo‘lib, uning til, nutq va alohida onomastik jihatiga bog‘liq holda stilistik va estetik ahamiyat kasb etadi. Biroq atoqli otlarning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ularning lug‘aviy ma’no ifodalashi borasidagi qarashlar turlicha bo‘lib, bunday qarashlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga atoqli otlarning leksik ma’no ifodalamasligini ilgari surgan tadqiqotchilar kirsa, ikkinchi guruhga atoqli otlar ham lug‘aviy ma’no ifodalashini ilgari surgan tadqiqotchilar kiradi.

Birinchi guruh tarafdorlari atoqli otlar umumlashtiruvchi ma’noga ega emasligini, ular faqat farqlash vazifasini bajarishini asos qilib olsalar, ikkinchi guruh tarafdorlari atoqli otlar ham so‘z sifatida lug‘aviy ma’no ifodalashi zarurligini ta’kidlash bilan o‘z fikrlarini asoslaydilar. Ularning fikricha, atoqli otlarning (antroponimlarning) lug‘aviy ma’nosini “shaxs”, “jins”, “millat”, “ijtimoiy kelib chiqish”, “ijtimoiy fikr” mazmunlari tashkil etadi [3.15; 4.19]. Badiiy asarda antroponim o‘zining semantik ko‘lamiga ko‘ra bevosita va bilvosita xususiyatga ega bo‘lib, bu jihat kontekst yoki etimologiya orqali ko‘zga tashlanadi. Ko‘p hollarda esa badiiy asarda taxalluslar motivlashtiriladi va bular antroponimning eng motivlantirilgan ko‘rinishi hisoblanadi [7. 104]. Chunki bunda taxallus ijodkorning kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi va joy-makon kabi motivlar asosida tanlanadi. Masalan, Navoiy, Foniy, A.Yassaviy, Farobiy, M.Qoshg‘ariy, Sakkokiy (pichoqchi), Yusuf Xos Hojib, Ogahiy, Feruz, Chustiy, Mashrab, Furqat, Amiriy, Fitrat va boshqalar.

Badiiy personajning dunyoqarashini tasvirlash uning ism-sharifi bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. She’riy asarlardagi antroponimlarda, qahramon ism va sharifi sujet va g‘oya bilan bog‘liq holda muallif tomonidan tanlab olinadi va bu hol ekspressivlikni kuchaytiradi hamda qahramonning ichki dunyosi va uning badiiy asar sujetidagi faoliyatiga, asar g‘oyasiga ishora qiladi. Jumladan, A.Qahhorning “Asror bobo”, “O‘g‘ri”, Oybekning “Qutlug‘ qon” kabi asarlarining bosh

qahramonlari (Asror – ar. Sir, yashirin, maxfiy yoki ko‘p narsadan xabardor, purhikmat [1.37; 2.]; “Qobilbobo” – ar. Yovvosh, tarbiya ko‘rgan [1. 543]; “Yo‘lchi – o‘z. Hamroh, do‘st, esh yoki yo‘l ko‘rsatuvchi, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi; boshliq, sarkor” [1. 177] nomini keltirishimiz mumkin.

Badiiy adabiyotda qahramonlarga nom yoki ism tanlashda an’anaviylik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi: yozuvchi milliy ismlarga tayanadi, o‘z fikridagi assotsiatsiya hamda ba’zi hollarda etimologik mazmunni ham unutmaydi. Ismlar ta’rifi xatto hodisa sodir bo‘layotgan ijtimoiy davr va joyni anglab olishga ham yordam beradi. Masalan, *– Dada! Nega mening otimni Mauzer qo‘ygansiz? Nima? Men to‘pponchamanmi? Men bilan birovni otmoqchimisiz?*

–Ahmoq! Men sening quroldek kuchli bo‘lishingni xohlayman, bildingmi?[8].

Aslida bu ism yozuvchining badiiy niyatidan kelib chiqqan holda asarga olib kirilgan. Komisar mustabid tuzum “o‘lim mashinasi”ning bir murvati edi, xolos. U o‘z millatining kushandasiga aylangan qotil, boshqacha aytganda, o‘sha tuzum va siyosatning “to‘pponcha”si edi.

Bu borada tadqiqot olib borgan professorlar Y.Solijonov va S.Mo‘minovlar yozuvchi o‘z asariga voqea ro‘y berayotgan joy ayni shu yerlik aholi uchun xarakterli bo‘lgan ismlarni tanlashini ta’kidlar ekan, ismlarning funksiyasi (kommunikativ funksiyasi) haqida fikr bildiradilar [6.48].

Navoiyshunos olim A.Rustamovning fikricha, “Navoiy dostonlarida qahramonlarning nomlari ham ularning o‘zlariga uyg‘unlashtirilgan. Shaxslarning shakl-u shamoyili va fe’l-u atvori ularning ismlarida ham aks ettirilgan”. Badiiy asarlardagi ismlar qahramonning millati, yurti, tashqi qiyofasi, ruhiyati, kasbi hamda asarning umumny g‘oyasi asosida tanlangan. Masalan, Tohir Malik “Shaytanat” qissasidagi bosh qahramon ismining o‘zi uning harakterini psihologiyasini ochib berish uchun hizmat qiladi. Chunki birinchidan, Asadbek antroponimidagi -bek morfemasi beklar naslidan bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan. Ikkinchidan, E.Begmatov Asad antroponimining ma’nosi quydagicha izohlaydi: *Asad (ar.) – asad oyida (shamsiy yil hisobi bilan beshinchi oyning nomi, iyun-avgust oylariga to‘g‘ri keladi) tug‘ilgan bola yoki asad-sher, arslon, ya’ni qo‘rqmas, dovyurak, qudratli* [1. 35; 2]. Shunday ekan asarni o‘qish davomida har qanday kitobxon qahramonning ismi uning xatti-harakati, fe’l-atvori, ruhiy holati, qahramon tilidan aytilayotgan har bir jumlasi hamma-hammasini ochib berishda antroponimning o‘rni beqiyosdir. Bundan tashqari, Tohir Malik aynan shu qahramonning umumiy vazifasi mazmunini, g‘oyasini ochish uchun uning laqabini “o‘qilon” deb ataydi.

Natija va muhokama. Asarlardagi ismlarning asosiy qismi yolg‘iz bir shaxsning ismi sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa, ba’zi ismlar bir necha shaxsni ifodalab kelgan. Chunonchi, Navoiy asarlaridagi Bahrom, Bahman, Farrux aloxida bir qahramonning ismi vazifasida ishlatilsa, boshqa manbalarda ular o‘ziga xos xususiyatli boshqa shaxsni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Ma’lumki, nazmiy asarda qo‘llangan barcha so‘z tasviriy vosita hisoblanadi. Ismlar o‘ziga xos tasviriy vosita sifatida quyidagi uslubiy xususiyatlarni ifodalagan: 1) nominativ vazifani bajargan; 2) kontekst (matn) da o‘ziga xos qo‘shimcha ma’noni ya’ni ekspressiv-emotsional ma’noni ifodalagan.

Manbalardagi ismlarning ko‘pchiligi nominativ vazifani bajarish bilan birga, matnlarda qo‘shimcha ma’nolarni ifodalab kelgan. Ismlarning qo‘shimcha ma’nosi shoirning so‘z qo‘llashdagi mahoratiga bog‘liq holda yuzaga kelgan. Shoir Muhammad Yusuf she’rlarida ham antroponimlarni qo‘shimcha ma’nolarida kelganligini uchratishimiz mumkin. Jumladan,

Go‘ro‘g‘lilar qonga botsa g‘irotlarda,
Ko‘r o‘g‘illar yurtni sotsa xilvatlarda,
Boburing bexabar yotsa hirotlarda
Borib men uyg‘otay desang – xalq bo‘l elim.

Yuqoridagi misralarda Go‘ro‘g‘li va Bobur antroponimlarining qo‘llanilishini turlicha talqin qilishimiz mumkin. O‘ME da izohlanishicha, Go‘ro‘g‘li nomi (ft-o‘z) aynan: *“Go‘rda tug‘ilgan bola”. Bu ism o‘zbek xalq dostonlari qahramoni Go‘ro‘g‘li nomiga nisbatan berib qo‘yiladi. Qadimgi turkiy tilda go‘r//ko‘r-botir, dovyurak, pahlavon* ma’nolarini bildirgan [1. 105].

Muhammad Yusuf har bir she’rida Boburni shoh va shoir sifatida juda chiroyli ifodalagan.

Yoki M.Yusufning “Sanjar” she’rida quyidagi misralarni uchratish mumkin:

Sanjar chimildiqni ko‘rmagan Sanjar
Menga tegmasmidi senga tekkan o‘q

Nomus azobida yuragim sanchar
Dunyoda nomusdan yomon narsa yo'q.

Bu she'rni o'qish davomida urush vaqtida halok bo'lgan shaxsni, uning ortidagi insonlarning hissiy kechinmalarini ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin. She'r sarlavhasiga e'tibor berilsa, bunga "Sanjar" antroponimini qo'llashi ham bejiz emas. Sarlavhaning o'zida shoir g'oyasining bir qismini ochishga muyassar bo'lgan. Chunki *Sanjar – (ar) aynan: sanchmoq, pichoq bilan urmoq; shiddatli, o'tkir, kuchli yoki qal'a, qo'rg'on yoxud g'olib, muzaffar"* [1. 374] ma'nolarini ifodalaydi.

Yusuf, Yoqub, Xotam, Navruz, Xusrav, Xizr, Farhod, Jamshid, Majnun, Layli, Shirin, Rustam va boshqa antroponimlarning o'nlab uslubiy ma'nolarini ifodalab kelishi konkret matnlarning tahlili asosida yoritildi.

Xizr matnlarda "hamkorlik qiluvchi, hamroh, avliyo, yo'l ko'rsatuvchi, yashil, daraxt, nasha (bang), ma'shuqa labidagi tuk, mangu tirik, ustoz" kabi ma'nolarni ifodalasa,

"Jamshid" – "buyuk shoh, shoh nasabi, xasad qiluvchi, taxt, qissa nomi, ko'ngil, so'z, Farhod, Bahrom, Iskandar" singari ma'noviy funksiyalarni bajargan.

Bunda antroponimlarning uslubiy ma'noni ifodalab kelishi antroponimlarning nominativ vazifasi to'g'risidagi bir yoqlama qarashga o'zgartirish kiritishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Toshkent: ЎзМЭ, 1998 йил
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985
3. Иванцова Е. В. Семантическая трансформация имени собственного в лексике и фразеологии современного русского языка. Автореф. дисс…- канд. фил. наук / Е. В. Иванцова– М, 1998. – 15 с.
4. Катермина В. В. Личное имя собственное: национальные культурные особенности функционирования (на материале русского и английского языков): Автореферат ……к. ф. н. Краснодар, 1998. – 19 с.
5. Кухаренко В. А. О системном характере антропонимии национальной художественной литературы // Шоста Республіканська ономастична конференция 4-6 грудня. 1990 року: Тези доповідей і повідомлень. ТІ, Одесса, 1990. – С. 124-125.
6. Солижонов Й. ва Мўнинов С., Бадиий асарларда исмнинг айрим функциялари, Ўзбек тили ва адабиёти журнали Фан наширёти. 1984 й. 2-сон 48 бет.
7. Фонякова О. И. Имя собственное в художественном тексте: Учебное пособие / О. И. Фонякова. – Л., 1990. – 104 с.
8. Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар.

UO'K: 81-13

"QIZIL VA QORA" ROMANIDA RUHIYAT BILAN BOG'LIQ LEKSIK BIRLIKLAR

A.N.Sapayev, stajyor-o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ruhiyat talqinini ifodalovchi birliklar fransuz yozuvchisi Stendal tomonidan yozilgan "Qizil va qora"romani orqali ko'rsatib berilgan. Bunda romanda ruhiyat va hissiyotni ifodalovchi birliklar misollar yordamida ko'rsatilib, ularning asardagi ma'nolari va qanday vazifada kelganligi va ularning vazifalari tahlil qilib berilgan. Asarda keltirilgan ruhiyatni ifodalovchi leksik birliklarning ma'no va vazifalari ham keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *emotsiya,ruhiyat, hissiyot, sevgi, nafrat,g'azab, leksik birlik, rashk, muhabbat, qo'rquv.*

Аннотация. *В данной статье через роман французского писателя Стендаля «Красное и черное» показаны единицы, выражающие психику. В статье на примерах показано, как в романе выражены психология и эмоции, проанализированы их значения и функции, а также разобраны значения и функции лексических единиц, выражающих психику. В статье приводятся значения и функции лексических единиц, выражающих психику, в контексте произведения.*

Ключевые слова: *эмоция, психика, чувство, любовь, ненависть, гнев, лексическая единица, ревность, страсть, страх.*

Abstract. *In this article, the units representing the interpretation of spirituality are shown through the novel "Red and Black" written by the French writer Stendal. In this case, the units are given with the help of examples which represent the spirit and emotions. Their meanings and functions in the work are analyzed. The meaning and functions of the lexical units that represent the spirit in the work are also mentioned.*

Key words: *emotion, spirit, feeling, hatred, anger, lexical unit, jealously, love, fear.*

Inson ruhiy holati bilan bog'liq til vositalarini pragmalingvistik va psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganishda inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson ruhiyati va nutq vaziyati bir-birini to'ldiradigan jarayonlar hisoblanadi. Hissiy ifoda insonning ichki holati yoki munosabatini ifodalovchi xatti-harakatlar yig'indisidir. Bu ifoda og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan tarzda namoyon bo'lishi va anglangan yoki anglanmagan holda sodir bo'lishi mumkin. Matndagi his-tuyg'ularni tahlil qilish orqali yozuvchilarning fikrlarini, ularning turli mavzularga nisbatan munosabati, baholari va moyilliklarini aniqlash mumkin. Tuyg'ularni tahlil qilish odatda ijobiy yoki salbiy yo'nalishlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar turli janrlardagi matnlar asosida olib borilgan.

"Hissiyot" tushunchasi faqat tirik mavjudotlarning miyasi orqali ehtiyojlariga mos keladigan yoki zid keladigan obyektlarga nisbatan aks ettiriladigan munosabatlarga nisbatan ishlatiladi. Ichki ruhiy jarayon sifatida aniq shaklda namoyon bo'lgan hissiyotlar emotsiya deb ataladi. Masalan, vatanparvarlik, muhabbat yoki javobgarlik hissi emotsiya hisoblanmaydi. Hissiyotlar insonning o'zi uchun muhim bo'lgan voqea va narsalar haqida xabar beruvchi signallar tizimi sifatida ko'riladi. Bu jarayon davomida sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan ayrimlari ajralib turadi, ba'zilari esa bir-biriga qo'shilib, umumiy hissiyotlar shaklida ifodalanadi. Natijada, taassurotlar paydo bo'lib, ular hissiy nomlar orqali xotira obrazlarida saqlanib qoladi. Bu fiziologik nuqtai nazardan, tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik yoki notinchlik haqida xabar beruvchi signallarga aylanishi bilan izohlanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasi asosida shakllangan shartli reflekslar tizimining mustahkamlanishi natijasida yuzaga keladi.

Hissiy holatlar o'z ifodasini yuz ifodalari (mimika), gavda va qo'l harakatlari, ohang, ko'z qorachig'ining kengayishi yoki torayishi kabi tashqi belgilar orqali topadi. Masalan, kishi g'azabini musht qilish, ko'zlarini chimirish yoki do'q-po'pisali ohangda ifodalashi mumkin. K. Izard klassifikatsiyasi bo'yicha asosiy hissiy holatlardan biri qiziqish bo'lib, u bilim olish va ko'nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotlarning yagona nazariyasi mavjud bo'lmasa-da, olimlar hissiyotlarni boshdan kechirish va ularni ovoz, yuz ifodasi yoki tana harakatlari orqali ifodalash inson muloqotining asosiy elementlaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, jamiyatning madaniy me'yorlari va e'tiqodlari insonlarning hissiy ifodalarini shakllantiradi va boshqaradi. Bir madaniyatda muhim hisoblangan ifoda boshqasida nomaqbul yoki taqiqlangan bo'lishi mumkin.

Insonlar hissiyotlarini tahlil qilganimizda, ularni olti asosiy toifaga ajratish mumkin: baxt, qayg‘u, qo‘rquv, g‘azab, jirkanish va ajablanish. Quvonch — to‘liq qondirilishi qiyin yoki noaniq bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishi mumkinligini anglatadigan ijobiy hissiyotdir. Hayratlanish esa kutilmagan voqealar tufayli yuzaga keladigan, aniq bir ijobiy yoki salbiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan hissiy javobdir. Iztirob — ahamiyatli ehtiyojlar qondirilishi mumkin emasligi haqidagi aniq yoki taxminiy axborot tufayli yuzaga keladigan salbiy holatdir.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadigan kuchli vositadir. U insonning his-tuyg‘ularini tarbiyalashda, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarlar orqali kitobxonlar turli xarakterlar va hodisalar mohiyatini chuqurroq anglaydi, ularga o‘z munosabatini shakllantiradi. Bu jarayon insonni voqealarni tahlil qilish, fikrlash va mulohaza yuritishga undaydi. Badiiy asarlar bitmas-tuganmas g‘oyalar manbai sifatida insonning ma’naviy o‘sishiga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Ular turli davrlardagi kishilarning hayoti, orzulari, fikrlari, jamiyatdagi mafkuraviy, axloqiy va falsafiy qarashlarini aks ettiradi.

Inson ruhiy holatini shakllantirishda ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlar shaxsiyatini ijtimoiy munosabatlar shakllantiradi, chunki ular doimo insonlar orasida bo‘lib, ularning ta’siriga tushadilar. Shu sababli, o‘smirlarning hissiy va aqliy rivojlanishida jamiyatning ahamiyati katta.

Inson ruhiy holati bilan bog‘liq bo‘lgan til vositalarini pragmalingvistik va psixolingvistik nuqtai nazardan o‘rganishda inson va uning xatti-harakatlari asosiy omil sifatida qaraladi. Insonning ruhiyati va nutq vaziyati bir-biriga chambarchas bog‘langan jarayonlar bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi.

Ruhiyat — yuqori darajada tashkil topgan miya faoliyatining voqelikni o‘ziga xos tarzda aks ettirish qobiliyatidir. Bu aks ettirish jarayoni sezgi, tasavvur, tafakkur, iroda va boshqa subyektiv obrazlar orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy adabiyotlar esa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko‘rsata oladigan noyob vositadir. Ular insonning his-tuyg‘ularini va ongini shakllantirishda, tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Badiiy asarlar orqali kitobxon hayotning turli tomonlarini, xarakterlarni va hodisalarning mohiyatini chuqurroq tushunadi, ularga nisbatan o‘z munosabatini shakllantiradi.

Bizning turli faoliyatlarimiz — mehnat, o‘qish, o‘yin kabi jarayonlar muvaffaqiyat va mag‘lubiyat orqali his-tuyg‘ularimizni uyg‘otadi. Hissiyotlar — voqelikning aks etishi bo‘lib, ular odamning shaxs sifatida o‘ziga xos dunyoqarashini namoyon qiladi. Inson bir vaqtning o‘zida biologik mavjudot, jamiyat a’zosi va o‘z fikrlari bilan yashaydigan shaxs sifatida obyektiv munosabatlarini namoyon etadi. Uning miyasida olamning aks etishi hissiyotlar sohasida — ya'ni insonning emotsional tomonida ifodalanadi.

Hissiyotlar — inson miyasida uning real ehtiyojlari va ular bilan bog‘liq obyektlarga bo‘lgan munosabatlarini aks ettiruvchi jarayondir. Bu tushuncha faqat tirik mavjudotlar miyasida ehtiyojlarni qondiradigan yoki qondirishga to‘sqinlik qiladigan obyektlar bilan aloqalarni aks ettirish jarayonida qo‘llaniladi. Hissiyotlarning ichki kechinmalarga asoslangan konkret shakli esa emotsiya deb ataladi. Ammo vatanparvarlik, muhabbat yoki javobgarlik hissini emotsiya deb atash mumkin emas, chunki ular murakkab ruhiy holatlar hisoblanadi.

Hissiyotlar inson uchun ahamiyatli bo‘lgan voqea va hodisalardan signallar sifatida xizmat qiladi. Tashqi sezgi organlariga ta'sir qiluvchi turli qo‘zg‘atuvchilardan ayrimlari aniq ifodalanib, boshqalari esa bir-biriga qo‘shilib, yagona hissiyot sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon natijasida insonda hissiy taassurotlar shakllanadi va ular xotira obrazlari tarzida saqlanadi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, ma'lum bir qo‘zg‘atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik yoki xavotir haqida signal bera oladi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasi bilan bog‘liq holda shakllangan shartli reflekslar orqali mustahkamlanadi. Shu sababli, hissiyotlar insonning ruhiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va uning ichki dunyosini aks ettiradi.

“Qizil va qora” romanidagi ruhiy holatni ifodalovchi leksik birliklarning mustaqil so’z turkumlari doirasida tasnifi

Ot so’z turkumi

De Renal xonimning oqsochi Eliza bir ko’rishdayoq navqiron tarbiyachini sevib qoldi: u o’z bekasiga tinimsiz shu haqda gapirardi. Elizaning muhabbati xizmatkorlardan birining qalbida Jyulenga nisbatan adovat tug’ilishiga sabab bo’ldi.(48-bet)

Mehmonxonaga shu qadar kechikib kelgani uchun uzr so’raganicha marshal de Fervakning go’zal rafiqasi kirib keldi. Vaqt yarim kechadan oshib qolgan edi. U markizaning yoniga borib o’tirdi. Jyulenning qalbini chuqur hayajon qamrab oldi: bu ayolning ko’zlari va nigoh tashlashi de Renal xonimnikiga juda ham o’xshab ketardi.(292-bet)

- Gapingizning ustidan chiqasizmi, shuni menga va’da qila olasizmi? - deya

so’radi markiz kutilmaganda g’oyat jiddiylik bilan. - Ha, afandim, faqat va’damni bajara olmaslik oldidagi qo’rquv xotiramni zaiflashtirib qo’ymasa, albatta.(412-bet)

Matilda unga dunyoda tengi yo’q qiz bo’lib ko’rinar va Jyulenning unga qoyil qolishini ifodalamoq uchun munosib so’z topolmaydigandek tuyulardi. U qizning yonida borar ekan, zimdan uning qo’llari, uningyelkalari, sambitdek qaddiqomatiga qarab-qarab qo’yardi. Shu tobda u sevgi va qayg’udan qaddi bukilib, uning oyog’iga yiqilishga va «Rahm qil!» deya qichqirishga tayyor edi.(391-bet)

Sifat so’z turkumi

Goratsiyning qasidalarini yoddan o’qib, ularni izohlab bera boshladi. Imtihon oluvchi ilhomlanib she’r o’qiyotgan Jyulenni yigirma daqiqaga o’z holiga qo’yib berdi-da, so’ng birdan g’azabli tus olib, shunday nopoк ishga vaqtini bekor sarflagani hamda miyasini nahs va befoyda g’oyalar bilan bo’lg’atgani uchun unga qattiq tanbeh bera boshladi(224-bet)

Agar de Renal xonim Jyulenning rol ijro etayotganini sezib qolganida bormi, bu qayg’uli kashfiyot uning butun baxtini abadulabad zaharlagan bo’lardi. Buni u yoshlaridagi katta farqning ayanchli oqibati, deb hisoblardi, albatta.(101-bet)

- Chunki men shunaqa irodali odamman. Endi anovi kyuremiz ham bunga

ishonch hosil qiladi. O’zimizni aldashdan foyda yo’q - tevarak-atrofimizda liberallar to’lib yotibdi.(20-bet)

Ah, Fransiyaning o’sha qahramonona davrida, Bonifatsiy de lya Molning asrida Jyulen eskadronga komandirlik qilardi, mening akaginam esa - ko’zlari iboli, nasihatgo’y va boadab ruhoniy bo’lardi».(365-bet)

Nihoyat, u «Elchilar mehmohxonasi»ningyonidan ikkinchi marta o’tayotganida, uning tashvishli nigohi o’zi hali ancha yosh, ikki yuzi qip-qizil,

Son so’z turkumi

Son so’z turkumi ruhiyatni ifodalay olmaydi. Faqatgina ular ruhiy holatning

darajasini ifodalashi mumkin. De Renal xonim uning bunday uquvsizligi va o’taketgan gustoxligidan hayratga tushib, butunlay esankirab qolgandi. «Ehtimol, birinchi muhabbati bo’lgani uchun ham shunday aqlli yigit goh jur’atsizlik qilayotgan, goh esini yo’qotib qo’yayotgandir, - deya nihoyat o’ylab qoldi xonim va bu fikrdan qalbini cheksiz quvonch qopladi.(93-bet)

Bu yerda muhabbatning darajasi va o’rnini ifodalaydi.tiyrakkina semiz bir juvonning quvnoq ko’zlariga tushdi.(188-bet)

Fe’l so’z turkumi

- Menga shu bo’lmag’ur gaplarni aytishga qanday jur’at etyapsiz! - deb xitob

qildi g’azabi toshib abbat Pirar. - Voy, yaramas-ey! - Verrerda, - xotirjamlik bilan davom etdi Jyulen, - akalarim agar biror narsada hasad qilgudek bo’lsalar, meni

do’pposlashardi.(207-bet)

- A! Bu Jyulen Sorel-ku, - dedi markiz. - Uning ismini qayoqdan bilasiz? - deya so’radi taajjublangan abbat va shu zahoti o’z savolidan xijolat chekib, jimib qoldi. - Buni men sizga aytmayman, - dedi javoban markiz uning xijolatda qolganini sezib.(238-bet)

Nihoyat, u markiz havorang lentasi bilan g’ururlanganidan ko’ra jarroh o’z

ordeni bilan ko’proq faxrlanardi, degan qarorga keldi. Markizning otasi katta davlat arbobi bo’lgan ekan.(307-bet)

Bir kuni markiz Jyulenga alohida bir iltifot bilan murojaat qildiki; ba’zan bunday iltifotdan yigitning g’ashi kelardi. - Azizim Sorel, sizga havorang frak sovg’a qilishimga ijozat etsangiz, - dedi u. - Siz ana shu frakni kiyib oldimga kirganingizda, men sizni grafde Retsning ukasi, ya’ni do’stimning, keksa gersogning o’g’li deb hisoblayman(304-bet)

Janob markiz, agar ikki og’iz so’z aytishga ijozat so’rasam, sizga bo’lgan cheksiz hurmatim chegarasidan chiqib ketmasman, deb umid qilaman.(308-bet)

Nahot shu gap rost bo’lsa? U quvonganidan es-hushini yo’qotib, ayolni qattiq bag’riga bosdi. Shunda xonim birdan asta ingrab yubordi. - Hechqisi yo’q, - dedi u, - xiyol jonimni og’ritding xolos. - Yelkang og’ridimi! - deya xitob qildi Jyulenko’zidan tirqirab yosh chiqar ekan.(541-bet)

Olmosh so’z turkumi

Yo’q, shaxsan men bu ishi uchun janob kyureni hech qachon kechirmayman.(17-bet)

Bu to’daning qiliqlari janob de Renalning ensasini qotirardi. Valenonnig

razilona tabiati har qanday haqoratga, hatto anavi abbatcha Maslonning jamoat oldida bergan dashnomlariga ham dosh beraverardi.(165-bet)

Shu payt nihoyatda xafa bo’lgan janob de Renal kirib keldi. Tushki ovqat mahali hech kim “churq” etib og’iz ochmadi.(170-bet)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, asarda berilgan leksik birliklar orqali asar qahramonlari va ularning ichki dunyosini to‘laligicha anglashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Couty D. Histoire de la littérature française. – Paris, Larousse, 1988.

2. Roy,C. Stendhal, Éditions du Seuil, 1995, – 220 p.

3. Stendal, Qizil va qora: 1830-yil xronikasi. Roman. Ruschadan X.To’rabekov Tarjimasi. – T. :Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – 592 b.

4.Timasheva O.V. Stendal. M. 1983 yil

5. Esenbayeva R.M. Stendal va Dostoevskiy: "Qizil va qora", "Jinoyat va jazo" romanlarining tipologiyasi. Tver, 1991 yil

6. www.wikipedia.org

UO'K 81-21

"BOBURNOMA"NING NEMISCHA TARJIMASIDA IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKA (V.SHTAMMLER TARJIMASI MISOLIDA)

R.B.Sapayeva, dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida qo'llanilgan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarning nemis tilidagi ekvivalentlari tahlil etiladi. Maqolada "Boburnoma"dagi davlat boshqaruvi, siyosiy munosabatlar, ijtimoiy tabaqalar va mansablar nomlarining nemis tiliga tarjima qilinishi jarayonida yuzaga kelgan lingvistik va ekstralingvistik muammolar, ekvivalentlikning darajasi hamda tarjimonlar tomonidan qo'llanilgan strategiyalar misollar yordamida muhokamaga tortiladi.*

Kalit so'zlar*: Ijtimoiy-siyosiy leksika, adekvat ekvivalentlar, transliteratsiya, analogiya, leksik birliklar.*

Annotatsiya. *В статье рассматриваются немецкие эквиваленты социально-политических лексических единиц, использованных в произведении Захириддина Мухаммада Бабура "Бабурнаме". В статье анализируются лингвистические и экстралингвистические проблемы, возникшие при переводе наименований органов государственного управления, политических отношений, социальных классов и должностей в "Бобурноме" на немецкий язык, уровень эквивалентности и стратегии, использованные переводчиками.*

Ключевые слова: *Общественно-политическая лексика, адекватные эквиваленты, транслитерация, аналогия, лексические единицы*

Abstract. *The article examines the German equivalents of socio-political lexical units used in the work of Zakhiriddin Muhammad Babur "Baburnama". The article analyzes the linguistic and extralinguistic problems that arose when translating the names of government bodies, political relations, social classes and positions in "Baburnama" into German, the level of equivalence and the strategies used by the translators.*

Keywords: *Socio-political vocabulary, adequate quivalents, transliteration, analogy, lexical units.*

"Boburnoma" asari o'rta asrlarda Movarounnahr va Hindistonda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizim, davlat boshqaruvi an'analari hamda tabaqaviy munosabatlarni aks ettiruvchi tarixiy-badiiy manba bo'lib, dunyoning bir qator tillariga tarjima qilingan. Ma'lumki, tarixiy asarlarni tarjima qilish jarayoni nihoyatda murakkab va katta mas'uliyat talab etadi. Bu ish ko'pincha tarjimonning bilim darajasi, salohiyati va tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Asarda uchraydigan milliy mentalitetga xos leksik birliklarni tarjima qilishda tarjimon, eng avvalo, ushbu birliklarning asl mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi va ularni tarjima tilida to'g'ri ifodalay olishi zarur. Shu o'rinda "Boburnoma"ning nemis tiliga qilingan tarjimasida amalga oshirilgan ishlarni alohida ta'kidlash lozim. Asarning Volfgang Shtammler tomonidan nemis tiliga qilingan yangi tarjimasi to'g'ridan-to'g'ri asl matndan emas, balki uning fransuz tilidagi tarjimasiga asoslangan bo'lsa-da, asarni keng auditoriyaga taqdim etishda muhim rol o'ynagan. Ushbu asarning nemis tiliga tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar orasida ijtimoiy-siyosiy leksikaning adekvat ekvivalentlarini topish masalasi alohida o'rin tutadi. XV-XVI asrlardagi temuriylar davlatidagi siyosiy tuzilmalar, mansab-lavozimlar tizimi, ijtimoiy tabaqalar va ularning o'zaro munosabatlarini ifodalovchi leksik birliklar nemis tilida to'liq ekvivalentga ega emas. Bu esa tarjima jarayonida qator muammolarni tug'diradi. "Boburnoma" asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksikani quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha tasnif qilish mumkin:

1.**Davlat tuzilishi va boshqaruv tizimiga oid atamalar**:

- Saltanat, mamlakat, viloyat, tuman, ulus, el, yurt kabi davlat va ma'muriy-hududiy birliklar nomlari;

-Xon, podshoh, sulton, amir, mirzo, xoqon kabi oliy hokimiyat vakillari unvonlari.

2.Ijtimoiy tabaqalar va guruhlar nomlari:

- Bek, navkar, sipohiy, mulozimat, xizmatkor, fuqaro kabi turli ijtimoiy mavqeni ifoda etuvchi atamalar;

- Ulamo, qozi kabi diniy tabaqalarga oid nomlar.

3.Davlat boshqaruvi va saroy lavozimlari nomlari:

- Vazir, bakovul kabi mansablar nomlari ;

- Kotib kabi ma'muriy lavozimlar.

4.Harbiy tuzilma va unvonlarga oid atamalar:

- Lashkar, qo'shin, jang kabi harbiy birliklar va harakatlar nomlari.

5. Siyosiy munosabatlarni ifodalovchi tushunchalar:

- Ittifoq, sulh, fitna, g'avg'o, isyon kabi siyosiy jarayonlar nomlari;

- Elchi, muhrdor kabi diplomatik munosabatlarga oid atamalar.

Quyida biz "Boburnoma"ning asl matnida keng ko'lamda qo'llanilgan siyosiy tuzilmalar, mansab va lavozimlar tizimi, ijtimoiy tabaqalarni ifodalovchi leksik birliklarning nemis tilidagi ekvivalentlarini tahlil qilish, shuningdek, tarjima jarayonida qo'llanilgan tarjima strategiyalarini aniqlashga harakat qilamiz.

Tarjimashunos olim E.Ochilov tarixiy asarlardagi xos so'zlarning boshqa tillarga tarjimasida asosan uch usulni tavsiya qiladi[1]:

1.Transliteratsiya; 2.Analogiya ; 3. Yangi so'z va so'z birikmasi yaratish.

Tarixiy so'zlarni transliteratsiya qilish tarjimada keng qo'llaniladigan usullardan biridir. Tarjima tilida ushbu tarixiy yoki madaniy tushunchalarning to'g'ridan-to'g'ri muqobili bo'lmagani sababli, asliyatdagi shaklini saqlagan holda transliteratsiya qilish zarurati tug'iladi. Bu hol tarjimon uchun nafaqat mazmunni yetkazish vositasi, balki lug'at boyligi va dunyoqarashni kengaytirish imkoniyati hamdir. Vaqt o'tishi bilan boshqa tillardan transliteratsiya orqali kirib kelgan so'zlar mahalliy tilga moslashib, keng qo'llanila boshlaydi va kundalik hayotga singib ketadi.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy tuzumlari bilan Yevropa tuzumi o'rtasidagi tafovutlar ba'zan so'zlarni to'g'ri ifodalashda qiyinchilik tug'dirgan. Shtammler "Boburnoma"dagi ijtimoiy-siyosiy leksikani nemis tiliga tarjima qilishda yuqorida qayd qilingan usullardan keng foydalangan. Ba'zi unvonlar (masalan, "mirza") uchun nemis tilida to'liq mos keluvchi so'z bo'lmagani sababli, ushbu so'zni transliteratsiya usuli orqali tarjima qilgan va uni tarjimada aynan qoldirib, asar oxirida unga izoh beradi:

Mirzo *ham uning ko'ngli tilagandek ahd va shart qilib, butun Xuroson mamlakatida uni oliy ixtiyorli bek qilib, barcha muhim ishlarni zimmasiga qo'ydi[3].*

Tarjimasi: ***Der Mirza*** *bewilligte ihm seine Forderung, verlieh ihm die dazu notwendige Gewaltbefugniss für ganz Khorasan und betraute ihn mit der Verantwortung über sämtliche Geschäfte [2].*

Izoh: Mirza bedeutet „Sohn des Emirs", ein Titel,der zur Zeit der Timuridenherrschaft ausschließlich den Prinzen aus diesem Herrscherhaus vorbehalten war [2].

Shuningdek, analogiya usuli ham tarjima jarayonida eng ko'p qo'llanilgan bo'lib, bunda Stammler nemis tilida mavjud bo'lgan, vazifasi va ma'nosi jihatidan yaqin bo'lgan ekvivalentni tanlagan.

Herrscher →Podshoh (Ba'zi Sharq mamlakatlarida: mutlaq hokimlik qiluvchi hukmron unvoni va shunday unvonga ega shaxs, shoh)[5].

Türsteher →Eshikog'a (yoki eshikog'asi) O'rta Osiyo xonliklarida xon saroyidagi bosh xizmatkor;oliy hukumdorning turli qabul marosimlarini o'tkazishga mutasaddi bo'lgan shaxs)[6].

Heer→ Lashkar (Davlatning qurolli kuchlari majmui yoki uning bir qismi; qo'shin, armiya)[4].

Festung→ Qal'a (dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va xandaq bilan o'ralgan, mudofaa vositalari, istehkomlar bilan ta'minlangan shahar)[6].

Amirlaridan Hoja Kalonbek ***podshoh*** *xizmatida o'tirardi.Fozillik va saxiylik bobida barchaga o'rnak bo'la olardi* [3].

Tarjimasi: *Khaja Kalan beg war Emir und im Dienst* ***des Herrschers****, ein verdienstvoller und großzügiger Mann* [2].

So'nggi navbatda buning qasdiga Saydim Ali ***eshikog'a****, inisi Qulibek va Bahlul Ayub bir qism kuchli yigitlar bilan kelib, Anbarko'h etagida Xojachangol mavzesida Xuroson* ***lashkari*** *ko'chgan mahali to'qnashdilar[3].*

Um solchen beispiel nachzueifern,hatten Seyyidim Ali der ***Türsteher****, sein jungerer Bruder Quli Beg und Buhlul, Sohn des Ayyub,zusammen mit einem Haufen mutiger Soldaten* ***das Heer*** *von Khorasan am Fuß des Ambre-Berges unweit Khaja Tschengel eingeholt und angegriffen[2].*

Ulug'bek mirzoning yirik imoratlaridan Samarqand ***qal'asining*** *ichidagi madrasa va xonaqohdir [3].*

Unter den Bauwerken Uligh Beg Mirzas möchte ich besonders die Schule und das Kloster im Innern ***der Festung*** *von Samarqand erwähnen [2].*

Bu strategiya tushunarliroq tarjimani ta'minlasa-da, milliy-madaniy xususiyatlarning yo'qolishiga olib kelgan.

Yuqoridagi strategiyalarning samaradorligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, eng samarali yondashuv kontekstga qarab turli strategiyalarni kombinatsiya qilishdan iboratdir.

Volfgang Stammler tomonidan qilingan "Boburnoma" tarjimasi ijtimoiy-siyosiy leksikaning to'g'ri va aniq yetkazilishi orqali nafaqat asarning mazmunini, balki uning tarixiy va madaniy ahamiyatini ham yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Tarjimaning bunday yondashuvi "Boburnoma"ning nemis tilida ham o'zining ilmiy va badiiy qadrini saqlab qolishiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ochilov E., Xodjayeva N. Tarjima nazariyasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – B.85.

2. Bobur, Z.M. Die Erinnerungen des ersten Großmoguls von Indien. Das Baburnama. Übersetzt von V. Stammler. Zürich: Manesse Verlag, 1980.-S.151, 175, 450, 904, 911.

3. Rahmonov V., Mullaxo'jayeva K. "Boburnoma". Tabdil tarjima. – O'qituvchi. Toshkent, 2008 – 49 b, 56 b, 137- b, 283 b.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 49 б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. Учинчи том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 282 б.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 64 б. ,231 б.

UO’K 81′4:111.85:394[=512.133/=111/=222.8]

ABDULLA QAHHOR HAJVIY HIKOYALARINING BADIIY XUSUSIYATLARI

G.Sattorova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

***Annotatsiya**. O‘zbek adabiyotida chuqur ijtimoiy mazmun, hayotiy tasvir va teran psixologizm bilan ajralib turadigan adiblar orasida Abdulla Qahhor alohida o‘rin egallaydi. Uning hikoyalari realistik ifoda vositalari, o‘tkir ijtimoiy tanqid va obrazlarning hayotiyligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada Qahhor hikoyalarining mavzu va g‘oya doirasi, badiiy ifoda vositalari, personajlar psixologiyasi hamda adabiy merosdagi o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy xususiyat, obraz, ruhiy holat, psixologik tasvir, monolog, kechinma, uslub, mutoyiba va kinoya.*

***Аннотация.** В узбекской литературе Абдулла Каххар занимает особое место среди писателей, отличающихся глубоким социальным содержанием, жизненной образностью и тонкой психологией. Его рассказы выделяются реалистичностью, острой социальной направленностью и живыми образами. В данной статье всесторонне анализируются темы, идеи, художественные средства, психологические черты персонажей, а также место и значение наследия Абдуллы Каххара в литературе.*

***Ключевые слова**: художественные особенности, образ, психическое состояние, психологическое описание, монолог, повторы, стиль, ирония, сарказм.*

***Abstract**. In Uzbek literature, Abdulla Qahhor holds a unique place among writers distinguished by deep social themes, vivid depictions of life, and profound psychological insight. His stories stand out for their realism, sharp social commentary, and lifelike characters. This paper provides a comprehensive analysis of the themes, ideas, artistic expression, character psychology, and the role of Qahhor’s literary legacy.*

***Keywords**: artistic features, character, emotional state, psychological description, monologue, repetition, style, irony, sarcasm.*

Abdulla Qahhor va uning ijodi o‘zbek adabiyotida ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab ijodkorlar uchun mahorat maktabini tashkil qiladi. Boisi, uning kichkina bir hikoyasidan tortib, romanlarigacha o‘zining teranligi, asar mavzusining dolzarbligi va o‘tkir ifoda etilganligi, original yondashuvga egaligi bilan boshqa adib va yozuvchilardan ajralib turadi. Shu bois bo‘lsa kerak, uning asarlarini darrov taniymiz. Chunki ijodkorning o'ziga xos uslubi mavjudligi barchaga ma'lum. Abdulla Qahhorning so‘zga «xasis»ligi-kam so‘z orqali juda katta ma'nolarni ifoda eta olish qobiliyati uning yuksak iste’dod egasi ekanligidan dalolat beradi . Ijodkor qalamiga mansub «Mayiz yemagan xotin, «Kampirlar sim qoqdi», «To‘yda aza», «Adabiyot muallimi» «San'atkor», « O‘jar» singari qator hikoyalari hayotning turli sohalarini, oddiy insonlar taqdirini, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritishi bilan birga inson qalbining eng inja tuyg‘ularini jonli va ishonarli tasvirlay olishi bilan ham e'tiborlidir. Uning «O‘jar», «San'atkor», « Adabiyot muallimi» «Mayiz yemagan xotin» singari hikoyalari esa o‘zida hajviy xarakterni ifoda etadi. Bu kabi ijod namunalarida o‘zbek xalqiga xos xususiyatlar, uning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizliklar hajv bilan qorishiq holda aks ettiriladi. Chunonchi, yuqorida nomi tilga olingan «San'atkor» hikoyasida ham bosh qahramon tilidan keltirilgan quyidagi fikrlar e'tiborimizni tortadi: «San’atkor uyiga ketgani izvoshga o‘tirganida yana tutaqib ketdi: «Hech bo‘lmasa aytadigan ashulangni o‘rgan, so‘zlarini to‘g‘ri ayt» emish! Nimasini bilmayman, nimasi to‘g‘ri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas, formalizm, naturalizmlardan o‘tdim – hech kim otvod bergani yo‘q. Otvod berish qayoqda, hech kim meni og‘ziga ham olmadi. Endi bir traktorist tanqid qilar emish!..– Xizmatchisi savod maktabida o‘qiyotgan bir kishini traktorist savodsiz, desa alam qilmaydimi? – dedi san’atkor o‘zicha bo‘g‘ilib, – «labingdan bo‘lsa olsam, e, shakarlab», deganim u kishiga yoqmapti, «bo‘lsa» emas, «bo‘sa» emish! O‘zi bilmaydi-yu, menga o‘rgatganiga kuyaman! Senga o‘xshagan savodsizlar «bo‘sa, bo‘masa» deydi. Artist kulturniy odam –gapni adabiy qilib aytadi – «bo‘lsa, bo‘lmasa» deydi». Quyidagi nasriy parchadan ko‘rinib turibdiki, bir san’atkor to‘yda qo‘shiq aytayotgan bo‘ladi va bir oddiy traktorchi tomonidan so‘zlarni xato talaffuz qilib qo‘shiq

aytayotgani sabab tanqid qilinadi. Lekin u bu xatosini o‘zi anglamaydi va shuning uchun ham tan olmaydi, aksincha traktorchini o‘zini savodsizlikda ayblaydi. Ammo traktorchi mutlaqo haq edi. Bu hikoyani o‘qib san’atkorning xatti-harakati, gap-so‘zlari bir kulgimizni qistasa, bir jahlimizni chiqaradi. Bu hikoyasida ham Abdulla Qahhor kulgi orqali jamiyatdagi ma’lum bir muammolarni ham fosh etgandek bo‘ladi. Hatto madaniyat vakillarining traktorchi qadar savodi bo‘lmasligi, ustiga-ustak buni tan olishni xohlamasligi fosh etiladi. Shuningdek, savodsizlik insonni kulgiga qo‘yishi mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Shuningdek yozuvchining «Adabiyot muallimi»deb nomlangan yana bir hikoyasi bilan tanishar ekanmiz, bu hikoyada ham hajv belgilari ko‘zga tashlanadi. Hikoya davomida asosiy qahramon sifatida keltirilgan «nafis adabiyot muallimi hisoblanmish Boqijon Baqoyev aslida o‘z fanidan yetarli ma’lumotga ega emasligi ma'lum bo‘ladi. Uyiga tashrif buyurgan Hamida pochchasidan adabiyot bo‘yicha savollarni so‘rab, aniqlik kiritmoqchi edi. Boqijon Baqoyev esa savolga aniq javob berish o‘rniga mavzudan tashqari gaplarni gapiradi. Hamida undan «Chexov»ning «Uyqu istagi» asari haqida so‘raganda, Chexov, Pushkin va Lermontovlarni bir davr vakili sifatida tasvirlaydi. Lekin aslida ular turli davr ijodkorlari edi va Hamida ham buni asoslab ko‘rsatadi. Shunda Boqijon Baqoyev biroz o'ng'aysizlangancha shunday deydi: «Chexovmi? Hmm... burjuaziya realizmi to‘g‘risida so‘zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak.Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya’ni... hmm... Sizlar qaysi Chexov to‘g‘risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To‘g‘ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmidami o‘lgan... Boshqa ro‘molcha ber, bundan piyoz hidi kelayotipti. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmining namoyandasi bo‘lgan Chexov haqida so‘zlayotibman». Ko‘rinib turibdiki, hikoyada keltirilgan uzoq yillardan beri dars berib kelayotgan adabiyot muallimining saviyasi shu darajada edi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, qalami o‘tkir ijodkor Abdulla Qahhor hech bir so‘zni behuda qo‘llamaydi, uning asarlaridagi har bir so‘z ma’lum bir vazifani bajaradi. Ushbu parchaning bir necha o‘rnida keltirilgan «hmm» so'zi ham yoki tez-tez to‘xtab qolishlari ham Boqijon Baqoyevning Chexov to‘g‘risida, uning ijodiyoti haqida aniq fikrlari yo‘qligidan dalolat beradi va bir necha yildan beri o‘quvchilarga o‘qituvchi uchun ta'lim berayotgan achinarli holat edi. Voqealar rivoji davomida Boqijon Baqoyev yana uzundan-uzun aslida hech qanday ahamiyati bo‘lmagan gaplarini gapirishda davom etadi. Goh allaqanday tovuq haqida gapirsa, goh maymun-u echkiemarlar haqida gapirib beradi. Suhbat orasida Detirding, Demping, Shelling singari yozuvchi va tanqidchilarning allaqanday bahsi haqida ham so‘zlaydi. Lekin Hamida bunga uncha tushunmaydi va hikoyada so‘nggida aytilishicha u opasi va pochchasi bilan xayrlashib ketar ekan, hozirgina eshitgan gaplari miyasida g'ujg'on uradi, ammo tayinli hech narsani eslay olmaydi. Ustiga-ustak pochchasidan Chexovning asari bo‘yicha hech qanday fikr ham ololmagandi. Boisi, Boqijon Baqoyev shuncha vaqt gapirgan bo‘lsa-da, hech qanday aniq bir ma’lumot keltirmagandi, fikr-mulohazalarini dalillab ko‘rsatmagandi. Shunday qilib Abdulla Qahhor bu hikoyasi orqali savodsiz, o‘z fanidan yetarlicha xabardor bo‘lmagan bir muallimni o‘tkir kulgi bilan qorishiq holda fosh qiladi. Jamiyatda shunaqa insonlar, mutaxassislar ham borligini ta'kidlab o'tgandek bo‘ladi.

Abdulla Qahhorning badiiy mahorat, yuksak ijodkorlik qobiliyati, xususan hikoyanavis ko‘kdagi yutuqlari to‘g‘risida o‘ziga zamondosh bo‘lgan bir qancha jahon adiblari o‘z fikrlarini bildirishgan edi.»Qahhor tug‘ma hikoyanavis edi, deb yozgan edi shu adiblar qatorida bo‘lgan rus yozuvchisi Bat,-garchi u romanlar ham yozdi, lekin baribir kichik janrga muhabbati ularda ham sezilib turadi [1]. Abdulla Qahhor butun umri bo'yi hajviy asarlar yaratish ustida ishladi. Taniqli yozuvchi va adabiyotshunos Vera Smirnova shunday yozadi: «Katta o'zbek prozasi haqida o'ylaydigan bo'lsangiz avvalo romannavislardan A.Qodiriy, Oybeklar ko'z oldingizga keladi, hikoyanavislar ichida esa birinchi o'rinda albatta Abdulla Qahhorga tegishlidir» [2] Haqiqatdan ham Abdulla Qahhor o‘zbek hikoyachiligida mana shunday o‘ziga xos maktabni shakllantirib ketgan adiblardan biri bo‘ldi. Uning hikoyalarini ham safar qayta mutolaa qilar ekansiz, undagi yangi ma'nolarni, adibning fikr-mulohazalarini, dastlab o‘qilganda e'tibor berilmagan jihatlarni ilg‘ay boshlaysiz va yana ijodkorning buyukligiga tan berib, uning asarlarini qayta va qayta mutolaa

qilmoqqa kirishasiz. Abdulla Qahhor hikoyalarida obrazlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati teran ochib beriladi. U ko‘pincha ichki monolog, psixologik tasvir, holatga xos tafsilotlar orqali qahramon tabiatini namoyon etadi. Qahhor obraz yaratishda ko‘pincha qahramonning harakatlari va nutqi orqali uning xarakterini ochib boradi. Har bir obraz o‘ziga xos, betakror bo‘lib, hayotda uchraydigan prototiplarga asoslanadi. Shuni ham e'tirof etish o‘rinliki, Abdulla Qahhor o‘ziga xos til va uslubga ega bo‘lgan yozuvchilardan biri. Uning hikoyalarida xalq tilining boyliklari, o‘zbekona hazil-mutoyiba, kinoya va irodiya keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, satirik uslub orqali yozuvchi jamiyatdagi illatlar, riyokorlik, dangasalik, mansabparastlikni qattiq tanqid qiladi.Qahhor o‘zbek adabiyotiga realizm va psixologik tasvirchilik ruhini olib kirgan ijodkorlardan biridir. Uning hikoyalari faqat o‘zbek kitobxonigagina emas, balki boshqa turkiy xalqlar orasida ham e’tibor topgan.

Bir so‘z bilan aytganda, Abdulla Qahhor hikoyalari o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan, chuqur ma’no va badiiy saviyaga ega asarlardandir. Uning ijodi orqali o‘zbek xalqining umumiy portretini, ruhiy holati va ijtimoiy jarayonlarini ko‘rish mumkin . Adibning o‘tkir nigohi, realistik yondashuvi va til boyligi uni zamonaviy o‘zbek adabiyotining , xususan o‘zbek hikoyachiligining poydevorini qo‘ygan yozuvchilardan biriga aylantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Qahhor, A. (1956). Tanlangan asarlar. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
2. Qahhor, A. (1961). Hikoyalar to‘plami. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Abduqahhorov, B. (2007). “Abdulla Qahhor va o‘zbek xalqining madaniy merosi”. Adabiy tahlil va tarix. Toshkent: Adabiyot.
4. Abdulla Qahhor.Anor. Qissa va hikoyalar. Abdulla Qahhor.: – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

UO’K 808.3

COMPARATIVE ANALYSIS OF INTERJECTIONAL PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH, RUSSIAN, AND KARAKALPAK LANGUAGES: A STUDY BASED ON A.V. KOONIN'S CLASSIFICATION

A.P. Seytimbetova, Senior teacher, Uzbek State University of World Languages, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada A.V. Kooninning strukturaviy-semantik tasnifi asosida ingliz, rus va qoraqalpoq tillaridagi interjektsion frazeologik birliklarning taqqosloviy tahlili keltirilgan. Interjektsion frazeologik birliklar Koonin tomonidan hissiyotlar, munosabatlar yoki hayratni ifodalovchi barqaror til birliklari sifatida belgilangan bo‘lib, ular nominativ yoki kommunikativ vazifani bajarmaydi. Mazkur tadqiqot ushbu birliklarning uch tildagi strukturaviy va semantik xususiyatlarini o‘rganadi, ularning o‘ziga xos va umumiy tomonlarini ta’kidlaydi. Misollar asosida keng tahlil qilinib, interjektsion birliklarning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Interjektsion frazeologik birliklar, A.V. Koonin, taqqosloviy tilshunoslik, ingliz tili, rus tili, qoraqalpoq tili, strukturaviy-semantik tasnif, hissiy ifoda, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация. *В данной статье представлен сравнительный анализ междометных фразеологических единиц в английском, русском и каракалпакском языках на основе структурно-семантической классификации А.В. Куонина. Междометные фразеологизмы, по определению Куонина, представляют собой устойчивые языковые единицы, выражающие эмоции, реакции или восклицания и не выполняющие номинативной или коммуникативной функции. Исследование рассматривает структурные и семантические особенности этих единиц в трёх языках, подчёркивая как уникальные, так и общие черты. Через подробный анализ примеров подчёркивается роль междометных фразеологизмов в межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова: *Междометные фразеологические единицы, А.В. Куонин, сопоставительное языкознание, английский язык, русский язык, каракалпакский язык, структурно-семантическая классификация, выражение эмоций, межкультурная коммуникация.*

Abstract. *This article presents a comprehensive comparative analysis of interjectional phraseological units (PUs) in English, Russian, and Karakalpak languages, grounded in A.V.*

Koonin's structural-semantic classification. Interjectional PUs, as defined by Koonin, are stable linguistic units that express emotions, reactions, or exclamations, and are neither nominative nor communicative. The study explores the structural and semantic characteristics of these units across the three languages, highlighting their unique features and commonalities. Through a detailed examination of examples, the article aims to contribute to the understanding of interjectional PUs and their role in cross-cultural communication.

Key words: *Interjectional Phraseological Units, A.V. Koonin, comparative linguistics, English language, Russian language, Karakalpak language, structural-semantic classification, emotion expression, cross-cultural communication.*

Phraseological units (PUs) are fixed combinations of words that function as single semantic and grammatical units. They play a significant role in language, reflecting cultural nuances and emotional expressions. A.V. Koonin, a prominent Russian linguist, developed a classification system for PUs based on their structural and semantic properties. This system divides PUs into four main classes: nominative, nominative-communicative, interjectional, and communicative. The interjectional class, which expresses emotions, reactions, and exclamations, is particularly rich and diverse across languages.

This study aims to compare interjectional PUs in English, Russian, and Karakalpak languages, analyzing their structural forms, semantic content, and communicative functions. By applying Koonin's classification, the research seeks to identify universal patterns and language-specific variations in the use of interjectional PUs.

Interjectional PUs in all three languages exhibit a high degree of stability and fixedness, with minimal variation in their components. In English, expressions like "Holy cow!" and "My word!" are fixed combinations that convey surprise or emphasis. Russian equivalents such as "Вот тебе раз!" and "Мать честная!" serve similar functions. In Karakalpak, expressions like "Әй, шіркін!" and "Ой, аман бол!" fulfill comparable roles.

A.V. Koonin's classification system divides phraseological units into four primary classes:

1. **Nominative PUs**: These units denote objects, phenomena, or qualities and function primarily to name or identify.
2. **Nominative-Communicative PUs**: Verbal units that can transform into sentences, often through passive constructions.
3. **Interjectional PUs**: Units expressing emotions, reactions, or exclamations, not serving nominative or communicative functions.
4. **Communicative PUs**: Proverbs and sayings that convey complete thoughts or messages.

Interjectional PUs are characterized by their stability, emotive function, and their role in expressing spontaneous reactions or feelings.

In English, interjectional PUs are prevalent in both written and spoken forms. Examples include:

"What a fine kettle of fish!" – Expresses confusion or a problematic situation.

"For crying out loud!" – Conveys frustration or exasperation.

"Oh my God!" – An exclamation of surprise or disbelief.

These units are often used to convey the speaker's emotional response to a situation.

Russian interjectional PUs also serve to express emotions and reactions. Examples include:

"Вот тебе раз!" – An exclamation of surprise or disbelief.**"Мать честная!"** – Expresses astonishment or shock.

"Да ну!" – Conveys doubt or disbelief.

These expressions are deeply embedded in Russian culture and reflect the emotional intensity of the language.

Karakalpak, a Turkic language spoken in Uzbekistan, also employs interjectional PUs to express emotions. Examples include:

"Әй, шіркін!" – An exclamation of admiration or surprise.

"Құдай сақтасын!" – Expresses a plea for divine protection.

"Ойбай!" – Conveys shock or distress.

These units reflect the cultural and religious influences prevalent in Karakalpak society.

A comparative analysis reveals both similarities and differences in the interjectional PUs of the three languages:

All three languages utilize interjectional PUs to express a wide range of emotions, including surprise, frustration, admiration, and disbelief.

The specific expressions and their usage contexts vary across languages, influenced by cultural norms and societal values. For instance, religious expressions are more prevalent in Karakalpak, reflecting the community's strong Islamic traditions.

These PUs often consist of exclamatory words or phrases, sometimes combined with interjectional particles, to intensify the emotional expression. The structural simplicity of these units contributes to their ease of use and emotional impact.

Interjectional PUs primarily function to convey the speaker's emotional response to a situation. They are often used to express reactions to events, emphasize statements, or engage the listener's attention. In all three languages, these expressions are prevalent in both spoken and written forms, highlighting their importance in everyday communication.

While the specific PUs may vary, the underlying communicative purpose remains consistent, underscoring the role of interjectional PUs in facilitating emotional expression and interpersonal connection.

The comparative analysis of interjectional phraseological units in English, Russian, and Karakalpak languages, based on A.V. Koonin's classification, reveals both universal patterns and language-specific features. While the structural forms and specific expressions differ, the fundamental role of these PUs in conveying emotions and reactions is consistent across the three languages. This study contributes to a deeper understanding of cross-linguistic phraseology and highlights the importance of cultural context in shaping the use and perception of interjectional PUs.

THE LIST OF USED LITERATURE:

1. Koonin, A.V. (1996). *English-Russian Phraseological Dictionary*. 3rd ed., Stereotype. Moscow: Russian Language.

2. Keulimdjaeva, G. (2023). On the problem of the classification of phraseological units of English, Russian, and Karakalpak languages in comparison: their similarity and differences. *XXI Century: Theory and Practice of Intercultural Communication*, 1(1), 171-174. DOI:10.47689/XXIA-TTIPR-vol1-iss1-pp171-174.

3. Arnold, I. (1986). *The English Phraseological Unit: A Functional Approach*. Moscow: Progress Publishers.

4. Berdimuratov, E. (2022). The research of phraseology in Karakalpak linguistics. *Scientists.Uz*, UIF-2022: 8.2. ISSN: 2181-3337.

5. Antrushina, G.B. (2001). Phraseology: Principles of Classification. In *Lexicology of the English Language*. Moscow: Higher School.

UDC 81.374

COGNITIVE ANALYSIS OF LITERARY IMAGERY: METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND INTERPRETIVE MECHANISMS

S.R.Shamsiyeva, basic doctoral student, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. *Badiiy adabiyot inson bilishi va hissiy kechinmalarining nozik tomonlarini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgu bo'lib xizmat qiladi. Inson ongining mahsuli bo'lgan adabiy matnlar mualliflarning dunyoqarashi, his-tuyg'ulari, ijtimoiy munosabatlarini ramziy tasvir va obrazli tasvirlar orqali qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kognitiv tahlil adabiy obrazlarni idrok etish va qurish bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlarni izohlash uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada kognitiv adabiy tahlilning uslubiy tamoyillari va asosiy tushunchalari ko'rib chiqiladi, ayniqsa aqliy modellar va metaforik ramkalar adabiy tasvirni tushunishni qanday shakllantirishiga alohida e'tibor beriladi.*

Kalit so'zlar: *Badiiy adabiyot, badiiy tasvir vositalari, kognitiv taxlil, tasavvur tushunchasi.*

Аннотация. *Художественная литература служит своеобразным зеркалом, отражающим тонкости человеческого познания и эмоционального опыта. Литературные*

тексты, являясь продуктом человеческого сознания, инкапсулируют мировоззрение, эмоции и социальные установки авторов посредством символических представлений и образных образов. С этой точки зрения когнитивный анализ предоставляет мощный инструмент для интерпретации ментальных процессов, вовлеченных в восприятие и построение литературных образов. В этой статье рассматриваются методологические принципы и основные концепции когнитивного литературного анализа с особым акцентом на том, как ментальные модели и метафорические рамки формируют понимание литературных образов.
Ключевые слова: *Художественная литература, средства художественной выразительности, концепция воображения.*
Abstract. *Fiction serves as a distinctive mirror reflecting the intricacies of human cognition and emotional experience. Literary texts, being the product of human consciousness, encapsulate authors' worldviews, emotions, and social attitudes through symbolic representations and figurative imagery. From this standpoint, cognitive analysis provides a powerful tool for interpreting the mental processes involved in the perception and construction of literary images. This article examines the methodological principles and core concepts of cognitive literary analysis, with a particular focus on how mental models and metaphorical frameworks shape the comprehension of literary imagery.*
Keywords: *Fiction, means of artistic expression, cognitive analysis, concept of imagination.*

Cognitive linguistics, as an interdisciplinary field, investigates the interconnection between language and thought. It offers valuable insights into the interpretation of literary texts, which are inherently grounded in cognitive structures. Through metaphors, symbols, and mental imagery, authors construct complex representations that resonate with readers' experiential and cultural backgrounds. The cognitive metaphor theory, initially proposed by George Lakoff and Mark Johnson in "Metaphors We Live By" (1980), posits that metaphors are fundamental to human cognition. Rather than mere stylistic devices, metaphors constitute a primary mechanism through which abstract concepts are comprehended via concrete, embodied experience. This theoretical framework underpins much of contemporary cognitive literary analysis.

Artistic imagery within literary texts functions as a symbolic reconstruction of reality, often rooted in mental models derived from core human experiences—spatial, emotional, social, and kinetic. For instance, in the poetic works of Alisher Navoi, the image of the "eye" serves not only as a physical reference but also as a symbol of love, pain, and longing, revealing deep metaphorical meaning accessible through cognitive analysis.

Cognitive analysis enables researchers to uncover how semantic domains are structured within a text and how source and target domains interact to create metaphorical meaning. Identifying these mappings allows for a more nuanced understanding of how abstract notions are conceptualized and emotionally charged within a given literary context.

This approach reveals the emotional and cultural layers embedded in artistic expressions, aiding scholars in decoding the implicit meaning and authorial intent behind literary imagery. It also supports readers in engaging with texts more deeply—both intellectually and emotionally—by aligning interpretation with personal and cultural cognitive schemas.

The cognitive approach to literary analysis represents a significant advancement in the interpretation of fictional texts. It facilitates the exploration of the interplay between language, thought, and emotion, offering a more comprehensive and empathetic understanding of literary works. In the context of modern literary criticism, the application of cognitive metaphor theory provides a robust and relevant analytical tool.

Cognitive linguistics is a scientific direction that studies the relationship between language and thought, and is an important tool in the analysis of literary texts. Since literary texts are products of human thought, the images, metaphors, and symbols expressed in them are formed on the basis of the human cognitive system. Therefore, through a cognitive approach, it is possible to determine in what semantic fields the images in the text are formed, what basic experiences they are based on. Cognitive analysis reveals what cultural and psychological basis this metaphor has. A literary image is a figurative representation of reality. These images can represent real or arbitrary situations, but each

of them is based on a specific mental model. Mental models determine how a person imagines the world through his mind. In literature, especially in lyrics and prose, these mental models emerge through the author's inner experiences. From a cognitive perspective, artistic images rely on the basic experiential models in the human mind: spatial, motor, emotional, and social experiences.

In Navoi's poetry, the image of the "eye" is a multifaceted symbol that goes beyond its physiological role, also representing complex emotions like "love", "pain", and "desire". "The eyes—full of night, with love and sorrow combined." Here, the "eye" serves as a "cognitive model" linking the physiological (seeing) with the emotional (love and sorrow). Navoi's usage of this image shows how metaphors draw on human cognitive systems to convey more than just literal meanings, but emotional and psychological experiences too.

In classical literature, metaphors like "life is a journey" or "life is a battle" are common. These metaphors tap into shared human experiences like "struggle", "challenge", and "achievement". In "Firdawsī's" "Shahnameh", the metaphor of life as a battle is explored extensively. For example: "Life is a war, the victors are those who attain bliss, the defeated are consumed by anguish."

Here, "battle" is used as a metaphor to convey "struggle" and "victory"—themes deeply rooted in both human psychology and culture. Cognitive analysis allows us to uncover how this metaphor shapes our understanding of "conflict", "success", and "failure".

Metaphors are not universal; they are shaped by "cultural frames"—the cognitive structures influenced by a specific society's shared experiences, values, and worldviews. "Zoltán Kövecses" (2002) argues that metaphors are culturally contingent, with each culture interpreting metaphors based on its unique context. For instance, the metaphor "life is a journey" may vary across different cultures. In Western literature, "journeys" are often portrayed as quests for self-discovery, while in Eastern traditions, they may represent "spiritual enlightenment". Similarly, the metaphor of "home" may hold different cognitive meanings depending on cultural context. In some cultures, "home" signifies "safety" and "family", while in others, it represents "freedom" or "independence". In Uzbek literature, metaphors like "homeland" often reflect not just a physical place but an emotional and cultural connection. For example, "Bobur's" poetry often portrays home or homeland as a symbol of loyalty and belonging, reflecting the social and emotional bond that the individual has with the nation.

A key concept in cognitive literary analysis is that the reader's cognitive schema plays an essential role in interpreting metaphors and images. Each reader interprets a literary work based on their own mental frameworks—shaped by personal experiences, cultural background, and psychological state. For example, the metaphor life is a journey can have different emotional meanings depending on the reader's experiences. A young reader might associate it with the excitement of new experiences, while an older reader might see it as a metaphor for life's challenges or endings. This variability in interpretation emphasizes the interactive nature of the reading process: the cognitive models of the reader interact with the metaphors in the text, leading to different interpretations and emotional reactions.

As societies evolve, the metaphors used in literature reflect these changes. Social, political, and cultural transformations often influence the metaphors and imagery that emerge in literary texts, showcasing how literature responds to and shapes human cognition. Consider the metaphor of freedom in literature. In periods of social upheaval, the metaphor of breaking chains or escaping the prison takes on heightened meaning, symbolizing the fight for independence or liberation. In more stable times, the same metaphor might evoke more personal, existential meanings related to individual choice or emotional release. In Zulfiyah's work, for instance, the evolving metaphor of freedom mirrors the shifting social values and gender roles in her time. These added insights show how cognitive analysis enriches our understanding of literary imagery. By delving deeper into mental models, metaphor theory, and cultural frames, we can better understand the complex relationship between language, thought, and emotion in literary works. Cognitive literary analysis allows us to interpret literature not just as a reflection of abstract ideas, but as a manifestation of deep human experiences, emotions, and societal changes.

REFERENCES:

1. Lakoff G., Johnson M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.

2. Ungerer F., Schmid H.-J. (2006). An Introduction to Cognitive Linguistics. Longman.
3. Hasanov B. Kognitiv lingvistika asoslari. Toshkent: Fan, 2019.
4. Qo‘chqorova S. Badiiy matnda obraz va uning lingvistik ifodasi. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent, 2017.
5. G‘afurov B. Badiiy adabiyot va idrok: lingvokognitiv yondashuv. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, №2.
6. Shamsiyeva S.R. Tilning badiiy tasvir vositalari bo‘lmish metafora va metanimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari. // Scientific reports of bukhara state university 2024/6 (111), 2024.
7. Kövecses, Zoltán. *Metaphor: A Practical Introduction*. 2nd ed., Oxford University Press, 2002.
8. Fauconnier, Gilles, and Mark Turner. *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. Basic Books, 2002.
9. Berlin, Brent, and Paul Kay. *Basic Color Terms: Their Universality and Evolution*. University of California Press, 1969.

UO'K 808.3

FORS-TOJIK TILIDAN O‘ZLASHGAN TEONIMLAR

N.X. Sharafutdinova, PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Maqolada fors-tojik tilidan o‘zbek tilidan o‘zlashgan teonimlar haqida gap boradi. Ularning o‘zaki va yozma nutq ko‘rinishida qo‘llanilish darajasi badiiy adabiyot namunalari misolida tahlilga tortiladi. Bunda o‘zbek tilida qo‘llanishi bo‘yicha Xudo teonimining Parvardigor teonimiga nisbatan faollik darajasi va xalq orasida chuqur o‘zlashganligi misollar orqali ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ma'naviy-ma'rifiy aloqalar, o‘zlashgan teonimlar, fors-tojik tili, Xudo, Parvardigor.*

Аннотация. *В статье идёт речь о теонимах, заимствованных из персидско-таджикского языка. На примере художественной литературы анализируется уровень их употребления в устной и письменной речи. В данном случае на примерах художественной литературы показан уровень активности теонима «Худо» по отношению к теониму «Парвардигор» и его глубокая узнаваемость среди народа в узбекском языке.*

Ключевые слова: *духовно-просветительские связи, принятые теонимы, персидско-таджикский язык, Бог (Худо. Парвардигор).*

Abstract. *The article discusses the theonyms that have been adopted from the Persian-Tajik language into the Uzbek language. The level of their use in oral and written speech is analyzed using examples of literary works. In this regard, the level of activity of the theonym Khudo in relation to the theonym Parvardigor in terms of its use in the Uzbek language and its deep assimilation among the people are shown through examples.*

Key words: *spiritual-enlightenment connections, adopted theonyms, Persian-Tajik language, God, Xudo, Parvardigor.*

O‘zbek tilida faol qo‘llanadigan Xudo, Parvardigor teonimlari madaniy va ma'rifiy aloqalar jarayonida fors-tojik tilidan o‘zlashgan. Bunda badiiy adabiyotning hissasi katta o‘rin tutadi. Ham og‘zaki, ham yozma nutq shakllarida faol qo‘llanishining omillaridan biri ham badiiy adabiyot ta'siri, roli va o‘rni bilan izohlanadi. Masalan, Parvardigor so‘zi A.Oripovning "Jannatga yo‘l" dramatik dostoni, hamda "Sohibqiron" she'riy dramasida qo‘llangan teonimlar ichida faol qo‘llangan.

Ming martaba shukur bo‘lsin Parvardigorga,
Mendan rozi ketgan ekan qiblagohlarim.

Xudo o‘zbek tilida qo‘llanishi faolligi tufayli uning o‘zlashgan qatlamga xosligi bilinmay qolgan. O‘zbek tilida qo‘llanishi bo‘yicha Xudo teonimining faollik darajasi va xalq orasida chuqur o‘zlashganligini XX asrning boshlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hoji Mu'in, Abdulla Qodiriy, Abdulla Badriy kabi qator dramaturglar tomonidan yozilgan jadid dramasi asarlari ham tasdiqlaydi. Sodda va kichik dramalarda ishtirok etuvchi personajlar ham o‘z davriga mos sodda odamlar bo‘lgan. Davrning barcha dramalarida eng ko‘p qo‘llanuvchi teonim Xudo teonimidir. O‘zining teonimik ma'nosi bilan alohidalikda Xudo, Xudoyo, Xudoyim, Xudovand shakllari faol qo‘llanadi. "Xudo

ziyoda qilsun ... Tavba qildim Xudoyo!" (N.Qudratulla). "Xudo bilsun, nima gaplar yozganini anglamadim" (A.Badriy).

Marhamatin darig' tutmay qodir Xudoyim,
Odamzotni sanamasdan yaratgan ekan.

A.Oripov

Xudo teonimi murojaat shakli sifatida qo'llanganda, *e, oh, ey* kabi undovlar bilan birgalikda keladi. *"E xudo, o'zing oson qil" (A.Qodiriy). "Oh, xudo, nimaga meni muncha badbaxt qilib yaratding?"* (A.Badriy).

Faol teonim sifatida bu so'z juda ko'p boshqa so'zlar bilan bir butunlik tarkibida kelib, shu barqaror birikmalar ma'nolarini belgilash uchun xizmat qiladi. Ana shunday barqaror birikmalarning biri "xohlamoq" so'zi bilan bog'langanda shakllanadi. Bu birikma so'zlashuv tilida ham, badiiy adabiyot tilida ham faoldir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayni shu teonim – "xudo" teonimi "xohlamoq" fe'liga faol bog'lanadi. *"Xudo xohlasa, sening baxting ham ochilar ... Xudo xohlasa, bir kun ko'rsam ..."* (A.Badriy)

"Xohlamoq" fe'li boshqa teonimlar – Alloh, Tangri, Parvardigor, Rab kabi teonimlarga Xudo teonimi bilan bog'langanidek bog'lanmaydi. Ayniqsa, so'zlashuv nutqida "Xudo xohlasa" faolroq qo'llanadi.

"Xudo" teonimi "urmoq" fe'lining turli grammatik shakllariga faol birikadi va barqaror iboralar vujudga keladi. Bunda, birinchi navbatda, qasam ichish mazmuni ifodalanadi. "*Xudo ursin, otasi, boshqa pul yo'q"* (A.Badriy). O'zbek tilida "urmoq" fe'li ham "xohlamoq" fe'li kabi Alloh, Tangri va, ayniqsa, Parvardigor hamda Rab teonimlari bilan faol bog'lanishi kuzatilmaydi.

"Xudo" teonimi "urmoq" fe'lining "urdi", "urdi ketdi", "uriptimi" kabi konkret shakllariga bog'lanib, ko'zlangan ishning noto'g'ri rejalanganini, davomi kutilganidek chiqmasligini, hammasi teskarisiga ketishini anglatadi. Shuningdek, hayratni, ishonmaslikni ifodalab keladi. "*Obbo, xudo urdi dedim"* (P.Tursun). *"Xudo urdi ketdi"* (A.Qahhor). "Xudo uriptimi" iborasi "o'zimga yarasha aqlim bor" ma'nosini anglatib keladi va "aqlimni yeganim yo'q", "shamolda qolganim yo'q" iboralariga ekvivalent bo'lib keladi. "Xudo urdi" iborasi xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, maqollarning barqaror shakliga ega bo'lishida ham xizmat qiladi.

Bunday mazmunning "xudo" nomi bilan bog'lanadigan boshqa shakllari ham qo'llanadiki, bu *"xudoyligimni aytaman"* iborasi bilan ifodalanadi. *"Xudoyligimni aytaman, har kuni bo'lmasayam kunora bidon ko'tarib sutga chiqardi ... To'g'ri, xudoyligimni aytaman. Avval komissar bordi, keyin men..."* (O'.Hoshimov). "Xudoyligimni aytaman" o'rnida "Allohligimni aytaman", "Tangriligimni aytaman" mutlaqo qo'llanmaydi.

O'zining haqligini, suhbatdoshini ishontirish uchun "xudo" so'ziga "chin", "shohid" so'zlarini qo'shib qo'llash ham barqaror ibora sifatida shakllangan. "Qarab turib yoqamni ushlayman. Senga yolg'on, Xudoga chin ... Xudo shohid: hech kimni ko'rmadim" (O'.Hoshimov).

"Bilguvchi" so'zi Alloh teonimiga ham "Alloh bilguvchidir" tarzida yg'un bog'lanadi.

Tarkibida Xudo teonimi kelgan iboralar ma'nolari xudo so'zi ifodalaydigan ma'nolardan kelib chiqadi va unga bog'liq bo'ladi, ya'ni mazmun ifodalanishida yetakchi ma'no tashuvchi so'z doimo xudo teonimi bo'ladi. "Xudo ko'rsatmasin" iborasida so'zlovchining iltijosi ifodalanadi, albatta, bu iltijo xudoning o'ziga bo'ladi.

"Saqlamoq" fe'li "xudo" so'zining teonimik ma'nosiga bog'lanuvchi so'zlardan biridir. "*Boy bobo, xudo saqlasun, Sizni nima balo urdi".* (N.Qudratilla) *"Xudo saqlasun! U Jo'raqul edi".* (A.Badriy)

"Xudo" teonimi "insof bermoq" so'ziga bog'lanadi. Xalq ongida faqat xudodan insof tilanadi. *"Xudo insof bermagandan so'ngra nima qilay?"* (A.Badriy)

A.Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostonida Xudo teonimi "yoqlamoq", "bermoq", "kechirmoq", "ato qilmoq", "yaratmoq", "qo'rqmoq" fe'llari bilan bog'lanib keladi. "Yoqlasin" qo'llasin ma'nosida ishlatiladi:

Hoy, yigitcha, imillama, karmisan battar,
Chidab kelgan bizning jonni Xudo yoqlasin.

"Xudo" teonimik ma'nosi eng ko'p "qo'rqmoq" fe'liga bog'lanadi.

Yolvoraman, bir oz tinch qo'y, shafqat aylagin,
Xudodan qo'rq, chol kishini qiynama ko'pam.

Xalq tilida "qismoq", "siqmoq" so'zlarining ham Xudo teonimi anglatgan ma'no bilan birikish imkoniyati boshqa teonimlarga nisbatan balandroqdir. Shu imkoniyat tufayli grammatik qulaylikda bir so'z birikmasini tashkil etadi. "Afsus, xudo uni boladan siqdi" (O'.Hoshimov).

Xudodan tilash "umid qilish" bilan bog'lanadi. *"Umid qilgan odam xudodan har nima umid qilsa ham, quruq qolmas"*. (A.Badriy) "Ziyoda qilmoq" ham Yaratganning ishi deb qaraladi. *"Xudo ziyoda qilsun. Ajab zebo to'y qilubsiz!"* (N.Qudratilla).

"Xudo" qudrat, muhr, dargoh so'zlari bilan ham bir butunlikdagi birikmalar tarkibida keladi. (N.Qudratilla) *"Xudoni qudratidan o'rgulay, bunday parichehralarni yaratibdi-o!". "Fotiha Xudoni muhri, deb turlar ... ".* (A.Qodiriy)

Umumiste'molda bo'lgan birikmalarning biri "avvali xudo" birikmasidir. Bu iborada "xudo yo'l bersa" ma'nosi ifodalanadi. Odam erishgan biror yutug'ini ta'riflar ekan, "avvali xudo", deb qo'shib qo'yadi.

Xudo teonimi "bexabar" kabi so'zlar bilan birikib, murakkab so'zlarning bir komponenti bo'lib keladi. Bu so'z adolatsiz, shafqatsiz, har qanday jirkanch ishlardan qaytmaydigan dilozor kishilarga nisbatan qo'llanadi. *"Qandoq yaxshi bola edi! O'n gulidan bir guli ochilmagan yoshgina yigit nima qiluvdi senlarga, xudo bexabarlar!.. Endi bolamniyam yetim qilmoqchimisan, xudo bexabar".* (O'.Hoshimov)

Tarkibida xudo so'zi bo'lgan birikmalar og'zi katta, hovliqmachi, kattazang, osmondan olib gapiradigan, muloqotda osmondan keladigan, aslida quruq odamlarga nisbatan ham qo'llanadi. Bu tushuncha xalq tilida "nima, u xudomidi", "xudo emas-ku", "xudo bo'lsa, osmonni tashlab yuborsin" kabi birikmalarda ifodalanadi.

Ko'rinadiki, o'zbek tili teonimlari tizimida eng faol qo'llanadigani "Xudo" teonimidir. Hozirgi o'zbek tilida keng miqyosda qo'llanishi bilan o'zlashgan teonimlarga nisbatan faollik darajasi baland bo'lgan bu so'z tarixiga nazar tashlansa, uning faolligi bu darajada yuqori bo'lmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Badriy Abdulla. Juvonmarg. – T.: "Sharq", 1997.

2. Бобур. Маҳрами асрор топмадим.– Тошкент: Ёзувчи, 1993.

3. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.

4. Sharafutdinova N. Undalma teonimlar tavsif sifatida. Analytical Journal of Education and Development. -11-116, 2023-yil. ISSN: 2181-2624.

5. Sharafutdinova N. Tangri – umumturkiy teonim. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi –11/4-2024.

6. Sharafutdinova N. Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar. FarDU ilmiy xabarlari. 2024. 3-son.

7. Шарафутдинова Н. Бадиий перифразалар ҳақида. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). -291-294, 2024-yil. https://zenodo.org/records/11105699.

UDC 811.512

THE ROLE OF "DESIRE" AND "WANT" IN EXPRESSING MODALITY IN THE UZBEK LANGUAGE

F.Sharipov, teacher, Uzbekistan state university of world Languages, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek tilida modallik kategoriyasi sifatida xohish va istakning vazifasi va ahamiyatini o'rganadi. Bu kategoriyalar qanday grammatik va leksik usullar bilan ifodalanishini tahlil qiladi, shuningdek, ularning nutq sohibining munosabatlari, niyatlari va aniqlik darajasini qanday etkazishini ko'rsatadi. Tadqiqot, xohish va istakning modallikdagi nozikliklarga qanday hissa qo'shishini ta'kidlab, ularning nafaqat og'zaki, balki yozma o'zbek tilida ham muhimligini ta'kidladi. Natijalar, xohish va istak ifodalarining o'zbek nutqida muloqot niyatini va interpersonall munosabatlarni boshqarishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *leksik ifodalar, modallik, interpersonal munosabatlar, til tuzilishi, pragmatik tarjima tafsir.*

Аннотация. *Данное исследование посвящено использованию слов "wish" и "desire" в английском языке для выражения модальности. Анализируются грамматические*

конструкции, семантические нюансы и их эквиваленты в узбекском языке. Рассматривается, как эти выражения передают надежды, сожаления, стремления и мотивацию в различных контекстах.

Ключевые слова: *лексические выражения**,** модальность, межличностные отношения, структура языка, прагматическое толкование.*

Abstract.*This research looks into the role and importance of the concepts "desire" and "want" as a type of modality in the Uzbek language. It looks into the grammatical and lexical expressions of these concepts within the scope of information structure, pragmatic interpretation, and the speaker's certainty level. The study details the contribution of desire and want in the dynamics of modality, pointing out their impact in oral and written forms of the language. Results have shown that the expressions of desire and want finely tune the intention and relationship between the participants in the discourse in Uzbek.*

Key words: *lexical expressions, modality, interpersonal relations, language structure, pragmatic interpretation.*

Introduction. Every living human uses a language in each and every life-related activity which makes communication practical (Kholiqov, 2010). A crucial element of language disciplines determines modality. In a language, modality refers to the category which enables the speakers to express their attitude relating to the truth or the wishful thinking of a proposition (Crystal, 2003). As a Turkic language, Uzbek has a system of desire and want which is immensely important in terms of social interaction within speeches.

Understanding "desire" and "want" in a certain language gives insight into structures of power and social relations in a society. This paper tries to explain meaning of modality in regard to desire and want in Uzbek considering its grammatical and lexical aspects. This is done through relevant examples and structures with the aim to assert the idea of desire and want as an important element shaping meaning and relations.

Within the scope of the Uzbek language, a Turkic language spoken by many people in Uzbekistan and in the neighbouring countries, the notions of desire and want are intertwined with both cultural life and linguistic expression. Uzbek has specialized verbs, particles, and phrases' expressions which encapsulate and define these types of modality. Appreciating how these forms operate provides gaps toward understanding the Uzbek culture, social expectations, and interactional behavior frameworks.

For as much as these subject matters are critical, researchers still lack the relevant literature focusing on desire and want as expressed in Uzbek. It seems that most considerations concentrate on general issues such as grammar or syntax at the expense of pragmatic and socio-cultural dimensions of these expressions. This critical study seeks to address this issue from the angle of desire and want by analyzing their associated grammatical structures, their situational usage in spoken and written discourse, and by evaluating the construction of social relations and attitudes which the expressions embody.

Theoretical Background.

Modality in linguistics: As Palmer (2001) defined, modality is the means linguistically capable of communicating the speaker's attitude towards the reality, necessity, possibility, or desire present in a proposition. It includes modalities such as obligation, permission, probability, desire, among others. It is also expressed through grammar in the form of modal verbs and verb endings as well as in vocabulary.

For example, solo parents, allies, co-couples, and co-families are also perceived as formal or informal forms of family in English culture. In this culture, the family is determined not only on the basis of blood-kinship, but also on the basis of emotional closeness, support and mutual responsibility in society. Also in English, the word “family” is often used in a broader sense, it can mean not only your own family, but also a group of friends and close acquaintances.

Relationships between family members primarily involve responsibilities and responsibilities, with respect for individual rights and freedoms. A lot of attention is paid to free communication and personal development in the family. Mutual agreement and cooperation between parents and children in matters of education and upbringing are also considered important.

In English culture, family-specific values are closely related to the individualistic nature of society. This culture emphasizes personal thought, an independent way of life. It is appreciated that each person has their own vision, makes independent decisions and chooses their own path. It is especially common for children to move to live independently of their parents after they reach the age of 18. This situation shows how the principles of independence and personal freedom are

manifested in family relationships. Family members react on the basis of mutual respect, but individual boundaries and freedom of each are taken into account separately. Thus, English family values reveal how the principles of individualism in society are formed in the family structure.

In English ethnolinguistic culture, dictionaries and expressions concerning the concept of family reflect different aspects of the family. For example, the term nuclear family primarily refers to father, mother, and children, while extended family also covers grandparents, cousins, and other relatives. Also, the concepts of step family or blended family (mixed family) represent a family structure that is divorced from marriage or resulting from new marriages.

A nuclear family is the most basic and small family unit made up of a parent and their children living together. In this family, there will be mainly parents and their biological or adopted children. The nuclear family is the dominant form of the family in modern English culture. Close and personal relationships, independence and individual freedom are valued among members of this type of family. A nuclear family often lives separately and independently controls its economic and social life.

By extended family, the nuclear family additionally includes parents, grandparents, siblings, nephews, cousins, and other close relatives. Such a family often lives together or Close and forms a system of mutual assistance, traditional values and long-term social protection. Extended family is considered particularly important in traditional societies and many cultures, as it plays a large role in conveying family heritage and cultural values from generation to generation.

A joint family or stepfamily is a form of newly married family with children from a previous marriage of a spouse. For example, if a woman or a man has children from a previous marriage and marries newlyweds, a large family system is formed in a new family — stepfamily. In this family, children have relationships not only with the biological parent, but also with the new spouse. Stepfamily is often seen as a complex family system that requires psychological and social adaptation.

A Blended family or mixed family is a family made up of a new marriage of individuals who have children from two previous marriages. In this type of family, each party can have their own children and they live in a single family system. This form of family is increasing in modern societies, and there is a great deal of importance in it in building the relationships of family members anew, accepting and adapting to each other.

Individual family dynamics can be influenced by a multitude of causes, but cultural factors within families can be conceptually classified into two main groups. The shape a family adopts in terms of its composition is known as its family structure. The term "family function" describes how a family is set up to support sharing, social and emotional development, and the upkeep and health of its members. Structure and function are two facets of family that are influenced by culture in various ways. Large numbers of people who are not members of the family can attend family functions. Relatives frequently join the family by helping to form or run the family or by sharing in other family members' experiences, as is frequently shown in literary works. The cultural ideals associated with individualistic or collectivist civilisations are closely linked to aspects of family processes, particularly in the areas of uniqueness and family purity.

These family concepts represent different social States and forms of the family in English and culture, illuminating views on the family in society and cultural values that influence the formation of the family. Each type of family has its own social and psychological characteristics, indicating the multifaceted nature of the family in modern society.

Linguistic competence i.e., it refers to the acquisition of skills in knowledge of language material (phonetics, lexicon, grammar) and types of speech activity (listening and understanding, speaking, reading and writing). Sociolinguistic competence is competence that allows the speaker to choose the desired linguistic form, mode of expression, based on one or another speech situation, communicative purpose and desire. Competence, which refers to the ability to get out of complex situations by repeatedly asking, apologizing, etc.when misunderstandings arise in a communicative situation in a foreign language under study, is pragmatic competence.

In addition, in English culture, family values are often reconciled with individualism. That is, family members provide mutual support while respecting each other's personal needs and goals. This

suggests that the family is a flexible system that is constantly changing and adapts to changes in society.

Family relationships are often built on independence and equality, which is associated with the core values of culture. In modern English society, the diversity of family forms is expanding, influenced by social change and globalization. Linguistic expressions of the concept of the family, on the other hand, take shape in this cultural context and show a deep connection between language and culture. Thus, English ethnolinguistic culture sees the family as a balanced unit in individual freedom and social role.

Recently, there has been a growing interest in how language shapes people's values and worldview. It makes sense that language now seems as a deep wellspring of cognition rather than as a straightforward instrument used for human benefit. According to this interpretation, language and linguistic units are observed from the perspective of carrying out communicative-cultural functions, which essentially define the full value of the language of interpersonal communication, in addition to the formal semantic characteristics of individual code segments.

Understanding language in this way helps young people become more familiar with societal norms and attitudes as well as the grammatical structure of a foreign language. Therefore, we enhance the linguistic and cultural outlook of aspiring English teachers by imparting not only distinct linguistic unit characteristics but also values characteristic of English-speaking culture. This helps to foster an understanding attitude towards the values of one's family and society at large, as well as its activities and work in preserving and nurturing these values.

In conclusion, in English ethnolinguistic culture, the concept of family is a complex concept that extends from traditional forms to modern and multifaceted family systems, attaching great importance to individual rights and emotional ties, adapting to social and cultural changes. In English ethnolinguistic culture, the concept of family is primarily focused on the nuclear family, with a strong emphasis on individualism and personal freedom.

REFERENCES:

1. Torvik, Fartein Ask, et al. "Modeling assortative mating and genetic similarities between partners, siblings, and in-laws." Nature Communications 13.1 (2022): 1108.p

2. Curtin, Cameron M., et al. "Kinship intensity and the use of mental states in moral judgment across societies." Evolution and Human Behavior 41.5 (2020): 415-429.p

3. Parker, A. "Family, Caregiver." Encyclopedia of Behavioral Medicine, 2020.

4. Shukurova, N. "National Characteristics of the Concept of Family in English" Advancing Multidisciplinary Research and Analysis - Exploring Innovations - April 2024, 29-31-p, https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd64712.pdf

5. Shukurova, N. (2023). O'zbek etnolingvistik madaniyatida oila tushunchasi// Academic research in modern science (T. 2, Выпуск 24, cc. 35–37). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10081369

6. Shukurova, N. (2023). O'zbek etnolingvistik madaniyatida oila tushunchasi// Academic research in modern science (T. 2, Выпуск 24, cc. 35–37). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10081369

UO'K 81-13

ALISHER NAVOIYNING OSHIQONA G'AZALLARIDA OBRAZ VA TIMSOLLAR TALQINI

O.Shuxratova, talaba, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hazrat Mir Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asaridagi birinchi devon bo'lmish "G'aroyib us-sig'ar" ("Yoshlik g'aroyibotlari") devonining 250-g'azalidagi obraz va timsollar poetik jihatdan tahlil qilinadi. Undagi sariq va qizil ranglar balog'ati va sarvinoz, zulf, sahbo, kalom, ko'ngul kabi timsollar tasavvufiy jihatdan sharhlanadi.*

Bu g'azal mavzusiga ko'ra oshiqona g'azal hisoblanadi. Kompozitsion jihatdan esa voqeaband, yakpora g'azal hisoblanadi, ya'ni oldingi baytdagi fikr keyingi baytda davom etib, rivojlantirib boriladi va fikrlar bir-biriga bog'lanadi.

Kalit so'zlar: *sarvinoz, zulf, sahbo, sariq, qizil, oshiqona, zulf, kalom, ko'ngul, soqiy*

Аннотация. *В данной статье проводится поэтический анализ образов и символов в 250-м газеле первого дивана «Гаройиб ус-сигар» («Чудеса юности») из сборника «Хазойин ул-маонии» великого Мир Алишера Навои. В статье рассматриваются желтый и красный*

цвета как символы зрелости, а также такие образы, как сарвиноз(стройный кипарис), зульф(волосы), сахбо(вино), калом(слова), сердца с точки зрения суфийской интерпретации.

Данный газель относится к любовной лирике. С композиционной точки зрения он является воқиабанд (сюжетным) и цельным газелем, то есть мысль, выраженная в предыдущем бейте, продолжается и развивается в следующем, обеспечивая логическую связь между ними.

Ключевые слова: *сарвиноз(стройный кипарис), зульф(волосы), сахбо(вино), жёлтый, красный, любовная лирика, калом(слова), сердца, сакий.*

Abstract. *This article analyzes the poetic imagery and symbols in the 250th ghazal of G'aroyib us-sig'ar (The Wonders of Youth), the first divan in Hazrat Mir Alisher Navoi's Xazoyin ul-maoniy. The symbols of yellow and red represent maturity, while elements such as sarvinoz (graceful cypress), zulf (lock of hair), sahbo (wine), kalom (word), and ko'ngul (heart) are interpreted from a Sufi perspective.*

This ghazal belongs to the category of romantic ghazals. In terms of composition, it follows a voqeaband (narrative) and unified structure, where the idea from one couplet continues and develops in the next, maintaining logical coherence throughout.

Keywords: *sarvinoz(graceful cypress), zulf(hair), sahbo(wine), yellow, red, romantic, kalom(word), ko'ngul(heart), saki.*

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda g'azallar turli mavzularda yozilgan. Biri oshiqona, biri rindona, yana biri esa orifona va shu kabi turli mavzularda bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida oshiqona g'azallar salmoqli o'rin egallaydi. Ushbu mavzudagi g'azallar g'azalning mavzu jihatdan eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, unda yor va uning jamoli tasviri, uning jafokorligi, haqiqiy oshiqqa shafqatsizligi, oliyjanob, yuksak muhabbatga munosib bo'lmagan raqibga mehribonligi, unga muhabbat qo'yganligi, chin oshiqning alam va rashkdan yonishi tasvir etiladi. Oshiqona g'azallarda, odatda, uch an'anaviy obraz:oshiq, ma'shuqa, raqib kuzatiladi. Oshiqning ma'shuqa bo'lgan ishqi haqiqiy Yor bo'lmish Haqqa bo'lgan ishqiga yo'g'rilib ketadi. Raqib esa nafaqat ma'shuqaning boshqa oshiqlari timsolida, balki oshiqning nafsi va undagi yomon illatlar timsolida ham tarannum etiladi. Ma'shuqaga yetishish uchun raqiblarni yengish kerak, bu qanchalik qiyin bo'lmasin, chidagan insongina, murodiga erishadi.

Bu g'azalimiz aruzning hazaji musammani solim bahrida yozilgan.

Afoyi tafoyili:

Mafo'iylun/mafo'iylun/mafo'iylun/mafo'iylun

Taqte'si:

V-- -- --/ V-- -- --/ V-- -- --/ V-- -- --/

Ushbu g'azal a-a, b-a, d-a, e-a, f-a, g-a, h-a, i-a, j-a shaklida qofiyalangan.

Qofiyadosh so'zlar: bormish-sarg'armish-boshqarmish-qutqarmish-axtarmish-yormish-qisqarmish-yolbormish-qaytarmish-sipqarmish.

Ushbu so'zlardagi raviy "r" tovushi hisoblanadi va raviyning o'rniga ko'ra mutlaq qofiya hisoblanadi.

Ushbu g'azalda husni ta'lil, istiora, tashbeh, tashxis, tamsil, iyhom, tajnis, mukarrar kabi ma'naviy va lafziy san'atlardan mohirona foydanilgan.

Sarig' gul demakim, chun sarvinozim bog' aro bormish,

Yuzin ko'rgach qizil gul za'f etib, ul nav' sarg'armish.

Ushbu bayt g'azalning matla'si bo'lib, unda oshiq o'zini ishq bog'ining, tariqat ahlining bir sariq guliga o'xshatib, rangining sariqligiga sabab qilib, sarvinozining bog' aro kelganini va uni ko'rib qizil gul holsizlanib, sarg'ayib qolganini husni ta'lil san'ati orqali go'zal ifodalab bergan. Bu baytning zohiriy ma'nosi edi, endi botiniy ma'nosiga e'tibor qaratamiz. Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida ranglar simvolikasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ranglar oshiqning ruhiy holati, Alloh tomon safaridagi daraja-bosqichlarini bildirib turadi. Tariqat bosqichida solik qalbida muhabbat qo'zg'aladi, u Alloh yodi bilan yashaydi va bu sariq [1] rangga to'g'ri keladi. Navoiy ijodida ushbu rang siniqlik rangi, ishq ramzidir. Sariq rang quyoshning oltin ranglari singaridir. Quyoshga

qaraganda ko'ngul, yuz ravshan tortganday haqiqiy ishq oshiqni asliyatga, azaliyatga yaqinlashtiradi. Asl va azaliy zot bu Allohdir.

Qizil [2] rang esa agar inson qalbida nafs bo'lsa, zohiran tiriklik, oqib turgan qon ramzidir. Inson nafsdan qutulgach va ilohiy sifatlarga yuzlangach ma'rifat-irfon rangi hisoblanadi. Chunki, ishq-tiriklikdir, haq ma'rifatini anglashdir. Bu esa uning botiniy talqini hisoblanadi. mumtoz adabiyotda yorni, ma'shuqani sarvga o'xshatish an'anasi mavjud. Ushbu baytda ham yor sarvinoz timsolida gavdalantirilgan. Bilamizki, sarv [3] tik o'suvchi daraxt hisoblanadi va shuning uchun ham nafsdan holi deyilib, yor(Alloh) unga mengzaladi. Sarv daraxti mumtoz poetikada 3 xil talqin etiladi:

1. Sarvi sihiy-ikki shoxli tik o'suvchi daraxt;
2. Sarvi noz- shoxlari odam qo'llariday ikki tomonga egik daraxt;
3. Sarvi ozod- shoxsiz, tik o'suvchi daraxt.

Demak, dunyoga moyillik, tiriklik rangi hisoblanmish qizil rang oshiqning qalbini ishq(sariq rang) egallagach, zaif bo'lib qoldi va oshiq sarvinozning jamoli, ishqida rangi sarg'aydi. Ushbu baytda qizil gulning za'f etishi, sarg'ayishi tashxis san'ati orqali va sarvinoz istiora san'ati orqali nafislik bilan ifodalangan va o'quvchida o'zgacha estetik taassurot qoldiradi.

Ko'ngul atrofida ochqan uchun hijron o'qi yo'llar,
Balo xaylini ishqing shahnasi ul sari boshqarmish.

Oshiq ma'shuqasidan yiroqda va shu sababli ham ayriliq o'qlari ko'nglining atrofidan yo'llar ochyapti, ya'ni ko'ngilga kirib boryapti. Bu o'qlar balo xayli, ya'ni to'dasiga o'xshatilyapti va oshiqning ko'nglidagi ma'shuqaga bo'lgan ishqning qorovuli ularni ichkariga qo'llayapti. Vaholanki, qorovulning vazifasi ishqni qo'riqlash edi, lekin u balo xayliga yo'l ochib bermoqda. Xo'sh, nega shunday ekan?Ushbu savolga javob topish uchun ko'ngul tashxisiga e'tibor qarataylik. Bilamizki, qalb bu Allohning uyi , uning tajallisi tushib turadigan maskandir. Mumtoz adabiyotda u jomga, ayog'ga o'xshatiladi. Inson tug'ilganda u jomda nafs, shayton suvi bo'ladi, qachonki unga Alloh ishqi tushgach, u sinib, undagi barcha yomon illatlar chiqib ketgach, may, tasavvufda ilohiy ishq ramzi hisoblanadi, bilan to'ladi. Bejizga birinchi baytda sariq siniqlik rangidir, deyilmadi va "G'aroyib us-sig'ar" devonining birinchi g'azalida ham ko'ngil "sing'on safol"ga o'xshatilgan. Endi balo timsoliga e'tibor qarataylik. Balo istiora san'ati orqali musibat, ofat, nafsni bildirgan. Irfoniy ma'noda solikning Haqqa yetishish yo'lida irodasini to'plab, ruhini chiniqtiruvchi jismoniy va ruhiy sinovlardir. Demak, oshiqning qalbiga ishq tushdi va hijron o'qlari uni sindirib, balo xayli uni chiniqtirib, toblab, undagi nafs balosini ketkazmoqchi.

G'aming minnat qo'yub jonoldi, vah, jonimg'a yuzminnat
Ki, xud bori tiriglik minnatidan jonni qutqarmish.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu g'azal voqeaband g'azal bo'lganligi sababli ijodkor fikri 3-baytda ham yana davom etmoqda. Ushbu baytda oshiq qalbiga ishq tushgan va bu g'am deyilmoqda, ya'ni haqiqiy, ilohiy ishqqa erishish dardidir. O'sha dard minnat, ya'ni yaxshilik, ehson qilib mening jonimni oldi va go'yoki jonimga yuz ta'nalar qilayotgan barcha tiriklik tashvishlaridan jonimni qutqardi. Demak, ushbu baytda g'am istiora san'atini, uning jon olishi va jon qutqarishi tashxis va tazod san'atini yuzaga keltirib, oshiqning ko'ngliga ishq kirib muqim o'rnashayotgani va unga foyda keltirib, zavq bag'ishlayotganini tasvirlagan. Nima uchun joni olingan oshiq bunchalar xursand?Chunki, oshiq nafsini o'ldirib, jon berib, foniy dunyo tirikligi minnatidan qutildi. Zero, hadisda "O'lmasdan burun o'ling!"deyilgan, ya'ni zohiran joningiz uzilmasdan ichingizdagi nafsni o'ldiring.

Kaloming gavharidek topmamish, garchi sabo ilgi
Yoqasin g'unchaning yirtib nechakim qo'ynin axtarmish.

4-baytda "Kalom" so'zi orqali iyhom san'ati vujudga kelgan, ya'ni kalom bu ma'shuqaning so'zi va Yor, ya'ni Allohning so'zi hisoblanmish Qur'ondir. Kalom gavharga tashbeh qilinyapti, agar Qur'on deb tushunsak, uning har bir so'zi gavharga mengzalgan. Ushbu baytda shoir saboni jonlantirib, tashxis san'atini yuzaga keltirgan va uning qo'li bilan g'unchaning yoqasini yirtib, qo'ynining, yuragining ichini axtarib ko'ryapti, lekin yor kalomining gavharidek biror narsa topolmayapti. Ushbu baytda ham 3-baytdagi fikr davom etgan bo'lib, jonidan, ya'ni nafsidan qutulgan oshiq qalbida chindan ham oshiq, uning qalbini ishq egallaydi.

Ko’ngulni chok-chok etgach, yetishti o’qi har yondin,

O’tun qo’ymoqqa go’yokim bu o’tning tush-tushin yormish.

5-baytda chok-chok, tush-tush so’zlari orqali mukarrar san’ati, o’t va o’tun so’zlari orqali ishtiqoq san’ati, o’t a o’q so’zlari orqali esa istiora san’ati yuzaga kelgan. Demak, oshiq ko’nglida hidoyat quyoshi chiqdi-yu, bu ishq hidoyati, ma’rifati ziyosi ko’ngulga sig’may, uni chok-chok etyapti. Go’yo o’sha nur, ziyo bu o’t , ya’ni oshiqning otashin qalbi va uning butun jismiga o’tini qo’yish uchun;o’tin qo’yish uchun uning tush-tushini, ya’ni qalbini yormish. ”O’tun” so’zi orqali iyhom san’ati vujudga kelib, go’zal ifoda yaratilgan va kundalik hayotimizda o’t(olov)ga uni yanada balandlatish uchun o’tin tiqishimiz uning bag’rini yorish deyilgan va baytning 1-misrasidagi fikr hayotiy dalillanib, tamsil san’atini yuzaga keltirgan.

Nechakim qad chekar, sarkashlik aylar anbarin zulfi,

Agarchi kun biyik chiqqanda soya doim qisqarmish.

6-baytda yor o’rnidan turyapti va uning qop-qora xushbo’y sochlari sarkashlik qilyapti, ya’ni unga bo’ysunishni xohlamayapti, lekin nega unday qilyapti, axir hayotda hayotda kun eng balandga chiqqanda soya doim qisqaradi-ku? Bu baytning ma’nosini anglash uchun “zulf” [4] so’ziga e’tibor qaratishimiz lozim. ”Zulf”ma’shuqaning sochini bildiradi va bu baytda u sarkash. Bu yorning ishq yo’lida ovoraligiga ishoradir. Uzun sochlar bu tariqat yo’lining uzun va ravonligini anglatadi. Bunda uzun emas, parishon sochlar oshiqning jazbaga yetish, hidoyat quyoshiga, ishqqa yetish yo’li soyasini ko’taradi. Oshiq hamon dunyo maylidan, ”Men”idan qutulgani yo’q. Bir narsaga alohida e’tibor qaratishimiz kerakki, 1-baytda yor sarvi ozod, sarvi sihiy emas, balki nega aynan sarvinoz deyilishiga sababni ushbu baytda topishimiz mumkin, ya’ni shoxlarining odam qo’llariday ikki tomonga egikligi ma’shuqaning zulfiga ishoradir. Demak, oshiq yorining visoliga yetishmoqchi, ya’nikim, ma’shuqaning yuzi quyoshdek porloq, uni oshiq ko’rmoqchi, lekin parishon, sarkash, erka sochlar har tomonga yoyilib, uning yuzini to’sib qo’ymoqda. Zulf deb ko’pincha gajak sochlarga nisbatan ishlatiladi va shuning uchun ham u sarkashdir.

Ilig bo’g’ziga eltib, shisha to’kmish qon yoshin mendek,

Magar soqiy ayog’in o’pkali ul dag’I yolbormish.

Shisha ilig, ya’ni qo’lini bo’g’ziga eltib, mendek qonli yoshini to’kyapti, ehtimol soqiyning ayog’in(oyoq va may kosasi)o’pish uchun yana yolboryapti. Ushbu baytda shisha ko’ngil oynasi hisoblanadi. Soqiy bu may quyuvchi, pir, ustod timsolidir. Ayog’ esa bu baytda iyhom san’atini vujudga keltirib, soqiyning oyog’i va may kosasi ma’nolarini bildirgan. Ushbu baytda Navoiy “bo’g’ziga qo’l olib bormoq”, “oyog’ini o’pmoq”, “qon yig’lamoq” kabi xalqona iboralardan unumli foydalangan. Demak, ko’ngil soqiyga unga may quyib berishini so’rab yolboryapti va qonli yosh to’kyapti. Bejizga yoshning rangi “qon” emas, ya’ni yuqorida keltirganimizdek, qizil rang agar insonda nafs bo’lsa, tiriklik, dunyoga moyillik ramzi edi va bu endi oshiq ko’nglidan yosh ko’rinishida chiqib ketmoqda va uning o’rnini ishq egallashi kerak.

Yugurma rizq uchun ne yetsa haqdin anglakim, komil

Ne kelturgil demish, ne g’aybdan kelganni qaytarmish.

8-baytda rizqing uchun kuyib-pishib yugurib yurmagin, boshingga nima kelsa, Haqdan deb bilgin, komil inson na kelturgil deydi, ya’ni Allohdan biror narsa tama qiladi va na g’aybdan (Allohdan) kelganini qaytaradi, ya’ni o’zgartirishga harakat qiladi. N. Komilov “Tasavvuf” asarida:”…Shayx Najmiddin Kubro xonaqohda murid tarbiyalashning o’ziga xos usullarini ishlab chiqadi, o’nta talab asosida tariqat manzillarini bosib o’tish va poklanib, ma’rifatga erishish yo’llari borligini ko’rsatadi. "Risola at-turuq" ("Tariqatlar risolasi") va " Al-usul al-ashara"("O'nta usul") nomli kitoblarda so‘fiylar tarbiyasida quyidagi o'nta talabning muhimligi qayd etiladi:Tavba, Zuhd, Tavakkul, Qanoat, Uzlat, Zikr, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Rizo. " [5] Ushbu baytda Rizo talabiga erishgan solik tasvirlangan. Rizo bu solik Alloh qudratini, ilmini chuqur his qilgan holda o’zini butkul Uning irodasiga topshiradi va Alloh olami bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqqa yaqinlashadi.

Firoqu zuhd daf’ig’a Navoiy ishq sahbosin

Magar to’qquz tutub, to’qquz falak jomini sipqarmish.

Maqtada shoir o'zini ayriliq va taqvodorlikdan uzoqlashish uchun ishq mayini to'qquz tutib, ya'ni xalqimiz orasida kelinga kuyov tomonidan to'ydan oldin yuboriladigan qimmatbaho sovg'alar "to'qqiz" deyiladi va to'qqiz falak qadahini, ya'ni undagi mayni sipqarib ichib yuborganini aytib o'tadi. Demak, haqiqiy ishq 9 qavat osmon sir-u asrori, haqiqatini anglatuvchi xazina, to'qqizdir. Zuhd, ya'ni taqvodorlik bilan shug'ullanuvchi kimsalar zohidlar deyilgan va Navoiy asarlarida ko'pincha chin oshiqlarga qarshi qo'yilgan. Buning sababi esa zohidlar uzlat va taqvoni pesha etgan bo'lishlariga qaramay, ishq va irfonlar (ilohiy ma'rifatlar)dan bebahra kishilar bo'lgan. Zohidlarni jannatni tama qilganlikda ayblashgan, chunki so'fiylarning nazarida jannat umidida toat-ibodat qilish ham tamaning bir ko'rinishidir. N. Komilovning "Tasavvuf" kitobidan olingan quyidagi parcha bunga yaqqol misoldir:"Mashhur so'fiy ayol Robiya Adviya Tangriga munojotlarida nola qilib aytar ekan:"Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannat tama'ida toat qiladigan bo'lsam, jannatingdan benasib et, agar do'zaxingdan qo'rqib ibodat qiladigan bo'lsam, meni do'zax o'tida kuydir-ming-ming roziman! Ammo agar sening jamolingni deb tunlarni bedor o'tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!" [6]

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning ushbu g'azalida chin insoniylik, insonning Allohga bo'lgan haqiqiy ishqi va insonning ma'rifat va haqiqatga intilishi, nafsni yengish kabi masalalar tarannum etilgan. By g'azaldagi turli obraz va timsollar vositasida ochib berilgan. Masalan, ranglar simvolikasini olaylik. Ko'rib o'tganimizdek, matla'da qizil rang dunyoga moyillik, tiriklik ramzi edi, maqtada esa u sahbo, ya'ni qizil oliy navli mayning rangi timsolida ma'rifat, irfon timsoli sifatida keltirib o'tilgan. Bundan kelib chiqadiki, ishqqa intilayotgan oshiq barcha sinovlardan o'tib, ma'rifatga erishadi. Ushbu g'azalni o'qib-o'rganish va tahlil qilish jarayonida Navoiy bobomizning "Malik ul-kalom" ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Zero, Navoiyni anglash butun bashariyatni anglashdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. 1-jild-Toshkent:''Sharq''nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016. 502-bet

2. Alisher Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. 2-jild-Toshkent:"Sharq"nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016195-bet.

3. Alisher Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. 1-jild-Toshkent:"Sharq"nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016. 501-bet

4. Alisher Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. 2-jild-Toshkent:"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016. 197-bet

5. Najmiddin Komilov. Tavhid asrori-Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda O'zbekiston nashriyotlari, 1999. 177-bet

6. Najmiddin Komilov. Tasavvuf-Toshkent:Yozuvchi nashriyoti, 1996. 6-bet

UDC 81-13

A CROSS-CULTURAL LENS ON 'FRIENDSHIP': EXAMINING LINGUOCULTURAL FEATURES IN ENGLISH AND UZBEK

G.K.Soatova, Senior teacher, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida namoyon bo'ladigan "do'stlik" tushunchasini har xil til oilalaridan kelib chiqqan ikki tilda keng qamrovli madaniyatlararo tahlil qilishga kirishadi. Asosiy maqsad ularning o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish va ular kengroq madaniy yo'nalishlarni qanday aks ettirishini o'rganishdir.*

Kalit so'zlar: *lingvomadaniyat, til va madaniyat, do'stlik, shaxslararo munosabatlar.*

Аннотация. *В этой статье предпринят всесторонний кросс-культурный анализ концепции «дружбы», выраженной в английском и узбекском языках, двух языках, происходящих из разных языковых семей. Основная цель — осветить их уникальные лингвокультурные особенности и изучить, как они отражают более широкие культурные ориентации.*

Ключевые слова: *лингвокультурный, язык и культура, дружба, межличностные отношения.*

Abstract. *This paper embarks on a comprehensive cross-cultural analysis of the concept of 'friendship' manifested in English and Uzbek, two languages originating from distinct language families. The primary objective is to illuminate their unique linguocultural features and explore how they reflect broader cultural orientations.*

Keywords: *linguocultural, language and culture, friendship, interpersonal relationships.*

Introduction. As a Polish immigrant to North America, Hoffman mentions in his memoirs (1990), "friendship" is a strong loyalty and attachment bordering on love. According to him. There is a distinction between "friends" and "acquaintances", as it feels like a small lie to say "friend" when someone doesn't mean it, but after a while, he again claims. "Friend", he says, in English, is such a good-natured, easygoing sort of term, covering all kinds of territory, and "acquaintance" is something an uptight, snobbish person might say. Friendship, a cornerstone of human experience, is a universal phenomenon that transcends geographical and cultural boundaries. Friendships upgrade our lives in many ways. The emotional and physical health benefits of friendships are undeniable, the more people prioritize friendships, the happier and healthier they are. (Lu et al., 2021). Despite its omnipresence, the conceptualization and expression of friendship exhibit remarkable variations across diverse cultures, each reflecting unique societal values, historical trajectories, and collective worldviews (Aru, 2021; Leontyeva & Mokienko, 2022; Orlova, 2020). These variations are not merely superficial; they are deeply embedded within the linguistic fabric of a culture, shaping how fundamental human experiences are understood and articulated. According to Cohen (1966), some form of friendship is present in nearly all cultures and countries, while Baumgarte (2016) acknowledges that friendships are perceived and constructed differently across cultures.

Linguoculturology offers a robust framework for dissecting this intricate interplay between language and culture. This field of study meticulously examines how national spirit, cultural variations, and historical experiences are profoundly encoded within linguistic units, including proverbs, idiomatic expressions, and patterns of word formation (Leontyeva & Mokienko, 2022;). By analyzing these linguistic manifestations, it becomes possible to uncover the underlying cultural models that define interpersonal relationships such as friendship. The very existence of distinct linguistic features for a universal concept like friendship demonstrates that cultural identity is deeply interwoven within the linguistic fabric. This intricate connection means that language extends beyond a mere communication tool; it acts as a dynamic repository, intricately storing cultural values, historical experiences, and societal norms (Kastner, 2021).

Methods. To understand the multifaceted nature of friendship across cultures, this study employed a comprehensive approach, drawing insights from linguistic analysis, cultural studies, and comparative research. The methodology involved examining the conceptualization of friendship, analyzing linguistic manifestations in proverbs and slang, and incorporating findings from cross-cultural studies on interpersonal relationships.

Conceptual Framework. Friendship is recognized as a complex, multidimensional mental construct, deeply ingrained in human consciousness and societal structures (Aru, 2021). Friendship, in Marlene Kastner's opinion (2021), to systematically categorize this concept, we adopted a framework based on extensive lexicographical data from the Russian linguistic context, which provides a valuable comparative lens (Orlova, 2020). This framework delineates friendship into three primary conceptual blocks:

1. **Friendship as a feeling and relationship:** This block encompasses mutual affection, attachment, spiritual closeness, shared interests, and a broader sense of benevolence extending to nations, states, or even human-animal bonds (Orlova, 2020).
2. **Subject of friendship:** This defines the various roles and identities associated with a 'friend,' including loyal comrade, beloved person, acquaintance, supporter, or even a domestic animal. It also categorizes forms of address (Orlova, 2020).

Results

The comparative analysis of friendship in English and Uzbek, a study on children's perceptions, revealed both universal commonalities and significant linguocultural divergences.

Universal Commonalities. Across both English and Uzbek cultures, friendship is universally valued, recognized for its indispensable role in individual well-being and broader societal cohesion.

Both traditions emphasize the importance of testing the strength and authenticity of friendship, particularly during times of adversity.

Discussion. The cross-cultural analysis of 'friendship' in English and Uzbek, supported by insights from Russian and a study on children's intergroup friendships, reveals both universal commonalities and profound linguocultural divergences. A fundamental shared understanding across these cultures is the universal valuation of friendship, recognizing its indispensable role for individual well-being and broader societal cohesion. Both English and Uzbek traditions emphasize the importance of testing the strength and authenticity of friendship, particularly during times of adversity, underscoring a shared belief that true bonds are forged and proven through shared challenges.

However, the underlying cultural ethos shapes distinct approaches to friendship. English tends to conceptualise friendship through a lens of individualism and pragmatism, viewing it as an additive acquisition that enhances an independent self. Conversely, Uzbek culture places a profound emphasis on collectivism and communal unity, often blurring the lines between friendship and kinship. Here, friendship is often portrayed as an indispensable component for an individual's completeness and for the overall cohesion of society, suggesting a more interdependent self-concept.

In conclusion, understanding these linguocultural features of friendship is critical for fostering effective cross-cultural communication. Recognizing whether a culture prioritizes individual autonomy or collective interdependence in friendships can mitigate misunderstandings and build more robust international relations. The analysis underscores that language is not merely a tool for communication but a profound repository of cultural values, historical experiences, and societal norms that shape how fundamental human experiences are understood and articulated.

Limitations and Future Research. Future research could explore the dynamic evolution of these concepts in response to increasing global interconnectedness and multicultural realities. A next iteration of studies could include qualitative inquiry, such as observation of children in classroom contexts, to understand the dynamics that support or mitigate intergroup contact and friendships (Pica-Smith et al., 2017).

REFERENCES:

1. Hoffman, E. (1990). Lost in translation: A life in a new language. Penguin Books.

2. Kastner, M. (2021). Formation and Benefits of Intercultural Friendships: The Role of Communication. *Journal of Intercultural Communication*, *21*(3), 26–40. https://doi.org/10.36923/jicc.v21i3.19

3. Lu, P., Oh, J., Leahy, K. E., & Chopik, W. J. (2021). Friendship Importance Around the World: Links to Cultural Factors, Health, and Well-Being. *Frontiers in Psychology*, *11*, 570839. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2020.570839

4. Aru, A. (2021). Word-formation representation of concept FRIENDSHIP in modern Russian. *Nauchnyi dialog*, (8), 9–27. https://doi.org/10.24224/2227-1295-2021-8-9-27

5. Lu, P., Oh, J., Leahy, K. E., & Chopik, W. J. (2021). Friendship Importance Around the World: Links to Cultural Factors, Health, and Well-Being. *Frontiers in Psychology*, *11*, 570839. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2020.570839

6. Cohen, Y. A. (1966). "Patterns of friendship," in Social Structure and Personality, ed. Y. A. Cohen, (New York, NY: Holt, Rinchart, & Winston), 351–386.

7. Baumgarte, R. (2016). Conceptualizing cultural variations in close friendships. Online Read. Psychol. Cult. 5:3.

8. International Journal of Contemporary Multidisciplinary Research. (n.d.). *National and universal values in Uzbek culture*. Retrieved from https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/download/327/350/549

9. Leontyeva, T. V., & Mokienko, V. M. (2022). Concepts friendship and friend in the lexicographic paradigm: a paroemiological dictionary project. *Vestnik Kemerovskogo Gosudarstvennogo Universiteta*, *24*(2), 165–176. https://doi.org/10.21603/2078-8975-2022-24-2-165-176

10. Orlova, T. G. (2020). The implementation of the conception of friendship on the basis of comparative structural-semantic analysis of English and Russian proverbs. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, *11*(2), 301–318. https://doi.org/10.22363/2313-2299-2020-11-2-301-318

11. Pica-Smith, C., Antognazza, D., Marland, J. J., & Crescentini, A. (2017). A cross-cultural study of Italian and U.S. children's perceptions of interethnic and interracial friendships in two urban schools. *Cogent Education*, *4*(1), Article 1280255. https://doi.org/10.1080/2331186X.2017.1280255

UO'K 81-13

SHODMONQUL SALOM IJODIDA AYOL OBRAZINING BADIIY TALQINI

I.Sobirova, talaba, Qo'qon davlat universiteti, Qo'qon

Annotatsiya. *Mazkur maqola zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Shodmonqul Salom ijodidagi ayol obrazining badiiy talqiniga bag'ishlangan. Shoir o'z she'riyatida ayol timsoli orqali nafaqat insoniyatning go'zallik va ezgulik timsolini, balki sabr, matonat, fidoyilik, mehr-oqibat, ma'naviy barkamollik kabi insoniy fazilatlarni tasvirlaydi. Ayniqsa, "Ayol shani", "Ona", "Yo'l topgan ayol" kabi she'rlarida ona obrazi, ayol sha'ni va o'zbek ayolining muqaddasligi yuksak badiiy vositalar bilan ifoda etilgan. Ayol obrazining umuminsoniy va milliy timsoli, uning jamiyatdagi tutgan o'rni shoirning chuqur mushohadalari orqali o'z ifodasini topgan. Maqolada misralar sharhi, ularning badiiy-yuksak ma'nosi va zamonaviy davrdagi qadriyatlar bilan uyg'unligi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Ayol obrazi, ona, sabr, matonat, zamonaviy she'riyat, badiiy talqin, ayol sha'ni.*

Аннотация. *Данная научная статья посвящена художественной интерпретации женского образа в творчестве одного из выдающихся представителей современной узбекской литературы — Шодмонкула Салома. Поэт через образ женщины передаёт не только красоту и добродетель человечества, но и важнейшие моральные качества — терпение, стойкость, искренность, духовную зрелость и самопожертвование. В стихотворениях «Честь женщины», «Мать», «Женщина, нашедшая путь» образ матери и узбекской женщины представлен как священный символ, связанный с национальными и общечеловеческими ценностями. В статье проведён художественно-идеологический анализ строк, раскрывающих внутренний мир женщины и её место в обществе через поэтическое видение автора.*

Ключевые слова: *Женский образ, мать, поэзия XXI века, стойкость, художественная интерпретация, честь женщины.*

Abstract. *This academic article explores the artistic interpretation of the female image in the poetic works of Shodmonqul Salom, a prominent figure in contemporary Uzbek literature. The poet portrays women not only as symbols of beauty and virtue, but also as embodiments of patience, resilience, sincerity, spiritual strength, and selflessness. Poems such as "The Honor of a Woman," "Mother," and "The Woman Who Found the Way" depict the mother figure and the Uzbek woman as sacred representations tied to both national and universal values. The article provides a literary and ideological analysis of verses that express the deep inner world of women and their social role through poetic vision.*

Key words: *Female image, mother, 21st-century poetry, patience, resilience, artistic interpretation, dignity of women.*

Kirish. Adabiyot har doim go'zallikni, mehrni, kechinmalarni va insoniylikni ifodalab kelgan bo'lsa, bu tuyg'ularning eng nozik, eng latif manbai — ayol obrazi badiiy asarlarning yuragidir, deyish mumkin. Ayniqsa, Shodmonqul Salom ijodida ayol siymosi nafaqat ona, singil, yor yoki farzand timsolida, balki muqaddaslik, hayot manbai, vatan, va badiiy ilhom sifatida tasvirlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Shodmonqul Salom she'riyati — yurakdan chiqqan iztirob va muhabbatning, sog'inch va sadoqatning ohangidir. U ayolni oddiy inson sifatida emas, balki yuksak ruhiy va ma'naviy kuchga ega zot sifatida ko'radi. Shoirning «Ayol, sen borsanki...» she'rida bu yondashuv ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

"Ayol, men qoshinda mangu go'dakman,
Sharor qo'shiq bo'lib yuribman, mana.
Ayol, sen borsanki, g'amlardan kulib,
Shoirlar qilurlar zebo tantana." [27]

Ushbu satrlarda ayol — shoirdan-da ulug' siymo. Ayol bor joyda shoirdagi bolalarcha sodda, beg'ubor tuyg'ular uyg'onadi. Shoir uni ilhom, quvonch, hayotga bo'lgan ishonch manbai sifatida

sharaflaydi. "Sen borsanki, bahorga ishonaman-da" deya, shoir ayolni fasllarni o‘zgartiradigan sehrli kuch deb tasvirlaydi.

Shoir ayol obrazini tug‘yonli hayotda sabr, bardosh, mehr, muhabbat bilan tenglashtiradi. Ayol — hayotning o‘zginasi, deb o‘qiladi.

"Ayol, sen borsanki, g‘amlardan kulib,
Shoirlar qilurlar zebo tantana."

Bu misralar — ayolning hayotdagi rolini ulug‘lovchi falsafiy hukmdir. Chunki ayol — quvonchdan tamsil, iztirobdan najotdir.

Tahlil va natijalar. Shoirning yana bir — “Ayol sha’ni” nomli she’rida esa ayol obrazining ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi chuqur badiiy yoritilgan. She’r “Ba’zi inqilobchilarga!” degan sarkash murojaat bilan boshlanadi. Bu esa ayol sha’nini toptayotgan, uni vosita sifatida ishlatayotgan, ijtimoiy to‘qnashuvlarga tortayotganlarga qarshi qat’iy pozitsiyani bildiradi.

“Eng avval onaga – ayolga ta’zim,
Ta’zimdir mushtipar opa-singilga.
Bosgan izi asli – yurt xaritasi,
Ta’zim bo‘lsin yorga, darddosh ko‘ngilga.”

She’rda ayol nafaqat oiladagi siymo, balki vatan xaritasini bosib o‘tgan, millatni tarbiyalagan, vijdon va nomusni saqlagan aziz zot sifatida talqin qilinadi. Bu yerda shoir ona sha’nini vatan sha’ni bilan tenglashtiradi.

“O‘zi bir shtat ish — o‘zbek bo‘lmoqlik,
O‘zbek ayoli bu — ikki bor yashash.”

Shoirning bu so‘zlari — o‘zbek ayolining o‘ziga xosligini, og‘ir, lekin faxrli yukini tasvirlovchi kuchli obrazlardir. Ayol — ikki karra yashaydi: avvalo inson sifatida, keyin esa xalq, oilasi va vatanining himoyachisi sifatida.

Shoirning qarashicha, ayollik — bu faqat biologik holat emas, bu ruhiy mas’uliyat, muhabbat, matonat, fidoyilikdir. Aynan shuning uchun shoir shunday yozadi:

“Mehr tilanmaydi, qozoniladi,
Kuch kerak! Sabrni jim yutmoq uchun!”

Shoir ayolga mehr so‘rash emas, uni qozonish, mehrni haqiqatda munosib bo‘lish orqali olish mumkinligini urg‘ulaydi. Bu fikr ayolga bo‘lgan hurmatning chuqur asoslangan yondashuvini aks ettiradi.

Shodmonqul Salom she’riyatida ayol — hayotning yuragi, vujuddagi ilohiy nido, ona-Vatanning qiyofasi. U nafaqat maishiy obraz sifatida, balki ma’naviy barkamollik, iymon, muhabbat, poklik ramzidir. Uning har bir she’rida ayol sha’nini, qadriyatini, ma’naviy dunyosini asrashga chaqiriq bor. Shoirning ayollar haqidagi satrlari — jamiyatga, erkaklarga, kelajak avlodga murojaatdir: “Ayolni asrang, ayolga ta’zim qiling!”

O‘zbek she’riyatida ayol obrazi qadimdan boshlab muqaddaslik, fidoyilik va ilhom timsoli bo‘lib kelgan. Shodmonqul Salom lirikasida esa bu obraz yangicha, chuqur shaxsiy va estetik burchakdan talqin qilinadi. Shoir uchun ayol — nafaqat muhabbat timsoli, balki hayotning mohiyati, yurakning ruhiy markazidir. U bu obrazni idealistik emas, tabiiylikda buyuklik tarzida ko‘rsatadi.

Shodmonqul Salom ayolni ko‘pincha sokin, jim, lekin qudratli mavjudot sifatida tasvirlaydi. U hayotda tinch, lekin ruhda to‘lqinli. Shoir lirikasida bu ayol har doim chiroy yoki jism bilan emas, ruhiy nurlanish, mehr va sabr bilan o‘lchanadi.

Fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperi yozganidek: “Eng go‘zal narsalarni ko‘z bilan emas, yurak bilan ko‘rasan” [12; 20]. Shodmonqul Salomning ayoli aynan mana shunday yurak bilan “ko‘rinadigan” obrazdir — u sokin, ammo hayotga ma’no baxsh etuvchi kuch.

Shodmonqul Salom an’anaviy she’riyatda ko‘p uchraydigan “ayol-ilhom” modelidan ko‘ra, uni fikr, yurak va sabr manbai sifatida ko‘proq tasvirlaydi. Bu ayol she’rga sabab emas, she’rning o‘zidir. U muqaddas emas, ammo qadrlidir. U shunchaki go‘zallik emas, ichki sukunat va uyg‘unlik mezonidir.

G‘arbiy estetikada ayol ko‘pincha idealizatsiyalangan. Ammo zamonaviy adabiyotda u insoniy va nozik tomonlari bilan yoritiladi. Shodmonqul Salomda ham ayol obrazi insoniy zaifliklar va ruhiy

ustunliklar bilan uyg‘un. Shoir uni tashqi yoritish emas, ichki sezgi orqali tasvirlaydi. Bu uslub ekzistensial yondashuv bilan yaqinlashadi.

Shoir lirikasida ayolning eng yuksak talqini — ona obrazida jamlangan. Bu obrazda Shodmonqul Salom ona yuragidagi sukut, beqiyos sabr va ichki matonatni badiiylashgan tarzda ochadi. Bu yerda ona — faqat biologik tushuncha emas, balki umumbashariy mehr manbaidir.

Bu yondashuv Gabriel Marcel falsafasida ham aks etgan: “Ona — bu mavjudot emas, mavjudlikning o‘zi” [6; 88]. Shoir uchun ona hayotni davom ettiruvchi emas, hayotning o‘zidir. Shu sababdan bu obraz she’rlarda doim jim, ammo buyuk ruh sifatida keladi.

Shodmonqul Salom ijodida ayol obrazlari ko‘pincha ko‘rinmas, ammo seziluvchi, ya’ni metafizik talqinda aks etadi. U she’r satrlarida emas, satrlar orasida yashaydi. Bu obrazlar yomg‘ir, tun, sukut, deraza, xotira, kuz kabi belgilar orqali ramziy shaklga kiradi.

Tilshunos A. Zohidova yozadi: “Ayol obrazining zamonaviy poetikasida u an’anaviy kuch emas, aksincha — ruhiy aks-sado sifatida ifodalanadi” [13; 36]. Aynan mana shu shaklda Shodmonqul Salom ayolni tashqi emas, ichki go‘zallikning timsoli sifatida berib, klassik lirikani zamonaviy ma’no bilan boyitadi.

Shodmonqul Salom she’riyatida ayol obrazining badiiy talqini — bu sokinlikda yashiringan ruhiy qudrat, mehr va sabrning jim poetik qiyofasidir. Shoir ayolni na idealizatsiya qiladi, na soddalashtiradi — u insoniy va falsafiy o‘lchovda ifodalanadi. Bu obraz orqali shoir hayotning mohiyatini, yurakning sukutdagi ovozini va mavjudlikning ichki ritmini poetik tilga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vinogradov V.V. Stilistika poeticheskoy rechi. Moskva: Nauka, 1976.
2. Zohidova A. “Zamonaviy lirikada ayol obrazi poetikasi”, Filologiya masalalari, №3 (2021), 33–37-b.
3. Rasulov A. Shodmonqul Salom poetikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
4. Marcel G. The Mystery of Being. London: St. Augustine’s Press, 1951.
5. Ekzyuperi A. de. Kichkina shahzoda. Toshkent: Sharq, 2003.
6. Jo‘rayev B. Zamonaviy o‘zbek she’riyati tahlillari. Samarqand: Zarafshon, 2022.
7. Matyoqubov O. “Ayol obrazining estetik talqini”, Adabiyot va san’at, №5 (2019), 18–21-b.
8. Kamyu A. Tashqi va ichki inson. Toshkent: Gafur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2021.

UO’K 81’286 + 811.824.4:398 + 811.512.37:398 + 81’373.4

QADIMGI TURKIY QO’LYOZMALARDA KELGAN SUVDA YASHOVCHI HAYVON NOMLARINING QIYOSIY TAHLILI

A.T. Sobitov, o’qituvchi, Namangan davlat universiteti, Namangan
ORCID: 0009-0004-9408-4272

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XI asr O’rta Osiyoda mavjud bo’lgan turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlarini o’rganishda va hozirgi ayrim turkiy xalqlarning shakllanishi va taraqqiyot yo’lini belgilashda muhim rol o’ynagan Maxmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk” qo’lyozmasi hamda XIV asrga tegishli yana bir qimmatli manba “Tarjumon turkiy va ajamiy va mo’g’uliy” (qisqartirilgani “Tarjumon”) qo’lyozmasi tarkibida kelgan umumrtqalilar, xordalilar, bo’g’imoyoqlilar, sutemizuvchilar, qon so’ruvchilar turkumlariga kiruvchi suvda yashovchi hayvon nomlarining qiyosiy tahlili to’g’risida so’z yuritiladi. Mazkur zoonimlar yaxlit so’z holatida kelgan bo’lib, etimologiyasiga oid ma’lumotlar va ta’riflar bilan boyitilgan hamda semantic jihatdan tahlil qilingan. Qo’lyozmalarda kelgan XI-XIV asr qadimgi turkiy xalqlarda foydalanilgan suvda yashovchi hayvon nomlarini bugungi kundagi o’zbek tili nutq jarayonlarida ishlatib kelinayotgan shakli bilan qiyosiy tahlil qilishda “O’zbek tili izohli lug’ati”, “O’zbek tili etimologik lug’ati”, “Qadimgi turkiy so’zlar etimologik lug’ati” dan keng foydalanilgan.*

Kalit so’zlar: *mo’ynachilik, sutemizuvchi, xordalilar, segment, umurtqasiz, ekologik xususiyat, umurtqalilar, etimologiya, kenja turkum, yirtqich, klassifikatsiyalashuv, hasharot, qon so’ruvchilar, bo’g’imoyoqlilar, fonetik o’zgarish, tangachalilar, muguzsimon, qalqonsimon.*

Аннотация. *В статье рассматривается сравнительный анализ названий водных животных, относящихся к классам всеядных, хордовых, членистоногих, млекопитающих и кровососущих, содержащихся в рукописи “Диван Лугат ал-тюрк” Махмуда Кашгари, сыгравшей важную роль в изучении тюркских племен, существовавших в Средней Азии в XI*

веке, и в определении путей формирования и развития некоторых современных тюркских народов и другом ценном источнике XIV века — рукописи "Тарджуман-и Турки ва 'Аджами ва Мугали ва Фарси" (сокращенно "Тарджумон"). Эти зоонимы представляли собой целые слова, обогащенные сведениями и определениями, связанными с их этимологией, и проанализированные семантически. При сравнительном анализе названий водных животных, употреблявшихся древними тюрками XI-XIV вв. в рукописях, с формами, употребляемыми в современных узбекских речевых процессах, широко использовались "Толковый словарь узбекских слов", "Этимологический словарь узбекских языков" и "Этимологический словарь древнетюркских слов".

Ключевые слова: *мех, млекопитающее, хордовое, сегмент, беспозвоночное, экологическая особенность, позвоночное, этимология, подотряд, хищник, классификация, насекомое, кровососущие, членистоногое, фонетическое изменение, инфузории, рогатые, щитовидные.*

Abstract. *In this article, it is discussed that the comparative analysis of the names of aquatic animals belonging to the classes of omnivores, chordates, arthropods, mammals, and bloodsuckers contained in the manuscript "Devonu Lugotit-turk" by Makhmud Kashgari, which played an important role in the study of the Turkic tribes that existed in Central Asia in the 11th century and in determining the path of formation and development of some modern Turkic peoples and another valuable source from the 14th century, the manuscript "Tarjumon Turkiy va Ajamiy va Mo'guliy" (abbreviated as "Tarjumon"). These zoonyms came in the form of whole words, enriched with information and definitions related to their etymology and analyzed semantically. In the comparative analysis of the names of aquatic animals used by the ancient Turkic peoples of the 11th-14th centuries in manuscripts with the forms used in today's Uzbek speech processes, the "Explanatory Dictionary of Uzbek Words", "Etymological Dictionary of Uzbek Languages", and "Etymological Dictionary of Ancient Turkic Words" were widely used.*

Key words: *fur, mammal, chordate, segment, invertebrate, ecological feature, vertebrate, etymology, suborder, predator, classification, insect, bloodsuckers, arthropod, phonetic change, ciliates, horned, thyroid.*

Kirish. Suvda yashovchi hayvonlar — umrining butun yoki ko‘p qismini suv havzasida yashab o’tkizadigan har qanday hayvon, xoh umurtqali, xoh umurtqasizlar hisoblanadi. Suvda yashovchi hayvonlar, odatda, teri orqali yoki ichak shilliq qavati orqali maxsus nafas olish organlari orqali erigan kislorodni ajratib olish orqali suvda gaz almashinuvini amalga oshiradilar, garchi ba'zilari suv muhitiga qayta moslashgan quruqlikdagi ajdodlaridan (masalan, dengiz sudralib yuruvchilari va dengiz sutemizuvchilari) rivojlangan bo'lsa-da, bu holda ular nafas olish va nafas olish uchun havodan foydalanishadi. suv. Gastropodli mollyuskalarning ba'zi turlari, masalan, sharqiy zumradli dengiz shilimshiqlari, hatto yutilgan sariq-yashil suv o'tlari bilan endosimbioz orqali kleptoplastik fotosintez qilish qobiliyatiga ega. Suvda yashovchi hayvonlar muhim ahamiyatga ega, jumladan suv hayvonlarining biologik xilma-xilligi insoniyatni oziq-ovqat, energiya va hatto ish bilan ta'minlaydi [1].

Metodologiya. XI asrga tegishli bo’lgan “Devonu lug’otit-turk”, XIV asrga oid “Tarjumon turkiy va ajamiy va mo’g’uliy” (qisqartirilgani “Tarjumon”) yozma obidasi hamda “Kodeks kumanikus” qo’yozmalaridagi zoonimlar B.Abdushukurovning “XI-XIV asr Turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar” nomli tadqiqot ishida struktur-grammatik, leksik-semantik jihatdan tasniflab, batafsil o’rganilgan va ayrim sudralib yuruvchi zoonimlar bir qancha manbalar yordamida tahlil qilib ketilgan [2]. Ushbu tadqiqot ishida suvda yashovchi hayvon nomlarini ifodalovchi 10 dan ortiq zoonimlarni etimologik va leksik jihatdan keng tahlil qiladi. “Devonu lug’otit-turk” qo’lyozmasida 5 ta sudralib yuruvchi zoonim qayd etilgan bo’lsa, “Tarjumon turkiy” qo’lyozmasida 3 ta suv hayvoni nomi uchraydi.

Tahlıl. Hozirgi o’zbek tili iste’molida timsoh ma’nosida ishlatiluvchi so’z “Devon” da اَلَوانْ **[алаван**], yana bir boshqa o’rinda نك [**нӛк**] tarzida berilgan. Clauson etimologik lug’atida **na:g** tarzida berilgan [3]. Mazkur zoonimga o’zbek tili izohli lug’atlarida shunday izoh beriladi: timsoh –

issiq mamlakatlardagi suv havzalarida yashovchi, terisi qalqonsimon qattiq va qalin, tanasi kaltakesakka o'xshash sudraluvchi suv hayvoni. Zoologik tasnifiga ko'ra, timsohlar — suvda yashovchi sudralib yuruvchilar turkumiga mansub bo'lib, tanasi kaltakesakka o'xshash, uzunligi 2–7 metrgacha yetadigan, boshi yassilashgan, tumshug'i uzun, ko'zlari va burun teshiklari boshi ustidan bo'rtib chiqib turadi. Burun va quloq teshiklari suvda yopiladigan klapanlar bilan ta'minlangan bo'lib, og'iz bo'shlig'ida ikkilamchi tanglayi mavjud bo'ladi. Timsohlarning tishlari yirik, tili og'iz tubiga yopishgan, dumi uzun va baland (ikki yondan yassilashgan) shaklda bo'ladi. Orqa oyoqlari barmoqlari orasida suzgich pardalari mavjud bo'lib, terisi qattiq va qalin, muguzsimon yirik plastinkalar bilan qoplangan. Muguz plastinkalar ostida suyak plastinkalar joylashgan.Timsohlar yuragi 4 kamerali bo'lishi bilan boshqa sudralib yuruvchilardan ajralib turadi. O'pkasi yaxshi rivojlangan bo'lib, erkaklari kloakasi orqa qismida toq jinsiy organ joylashgan. Timsohlar asosan, 3 guruhga: alligatorlar, gaviallar va haqiqiy timsohlar oilalariga bo'linadi.

Timsohlar oilasiga 3 urug' va 15 ga yaqin tur kiradi, jumladan, nil timsohlari (uzunligi 7 metrgacha) tropik Afrika daryo, ko'l va botqokliklarida; taroqli timsohlar (uzunligi 6 metrgacha) Janubiy-Sharqiy Osiyo, Malayya arxipelagi orollari, Shimoliy Avstraliya va Yangi Gvineyadagi daryolarning quyilish joylari va dengiz sohillarida tarqalgan. Timsohlar hayotining ko'p qismini suvda o'tkazadi va asosan, tunda faol harakat qiladi. Ular baliklar, sut emizuvchilar, qushlar va suv umurtqasizlari bilan oziqlanadi. Nil timsohlari va taroqli timsohlar odam uchun xavfli hisoblanadi. Ko'payish davrida urg'ochi timsohlar qirg'oqdagi qum yoki chiriyotgan barglar orasiga 20 tadan 100 tagacha tuxum qo'yadi. Bugungi kunda timsohlar go'shti yeyiladi, terisidan esa qimmatbaho terigalantereya buyumlari tayyorlanadi [4].

Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida **japyқ** [جرق] so'zi baliq ma'nosida berilgan va misolda shunday keladi: **japyқ jӛlim** – baliq yelimi ma'nosini anglatadi [5]. "Tarjumon turkiy" qo'lyozmasida ushbu zoonim **baliq** tarzida ifodalangan [6]. Clauson tomonidan tuzilgan "Turkiy tillar etimologik lug'ati" dan ma'lumki, deyarli barcha turkiy xalqlarda **balik** so'zi o'sha davr turkiy so'zlashuv iste'molida baliq ma'nosida ishlatilgan bo'lsada, ayrim xalqlarda, jumladan xakaslarda **yaru** tarzida qo'llanilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tili iste'molida mazkur so'z baliq shaklida ishlatiladi. Buni o'zbek tili izohli lug'ati orqali bilish mumkin: baliq – suzgichlari bo'lgan, oyquloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga mansub suv jonivori [7]. Baliq so'zi etimologiyasiga oid bir qancha ma'lumotlar mavjud, jumladan, Abdushukurovning qayd etishicha, mazkur so'zning etimologiyasi ilk marta Tolstov tomonidan ochib berilgan. Tolstovning fikricha, "bal", "bar" kabi so'zlar eramizdan III-II ming yillar oldin "baliq" ma'nosida ishlatilgan. Baliqlar (pisces) – umurtqalilar kenja tipining katta sinfiga mansub, ekologik xususiyati suv muhitiga moslashgan, "Agnatha", Chondrichthyes va "Osteichthyes" kabi asosiy 3 sinf, ayrim zoologik manbalarda esa 2 guruhga (tog'ayli va suyakli) ajratiladigan suvda yashovchi xordali hayvonlar hisoblanadi [8].

Maxmud qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" qo'lyozmasida muallif ta'kidicha **baqa** [باقة] so'zi qurbaqa ma'nosini ifodalagan bo'lsa [9], "Tarjumon turkiy" qo'lyozmasida ushbu so'z **qurbag'a** tarzida uchraydi. O'zbek tili izohli lug'atida esa, qurbaqa – suvda va quruqlikda yashovchi dumsiz jonivorlar turkumining bir turi bo'lib, oyoqlari sakrab yurish uchun moslashgan deya izoh keltiriladi. Qurbaqalar (eukariotlar) – dumsiz suvda va quruqlikda hayot kechiruvchi, turli hasharotlar va umurtqasizlar bilan oziqlanuvchi, xordalilar sinfiga mansub hayvon [10]. Yuqoridagi qo'lyozmalarda kelgan **baqa** hamda **qurbag'a** so'zlari hozirgi kungacha deyarli o'zgarishsiz o'z shakli va ma'nosini saqlab qolgan.

Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" qo'lyozmasida kelgan **кӛjiк кiшi** so'zi *suvda bo'ladigan odam shaklidagi hayvon* deya izohlansa, "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" da **kejik kişi** – дикий человек [11] deb tarjima qilingan ya'ni turkiy xalqlarda kejik so'zi "yovvoyi" ma'nosini ifodalovchi sifat hisoblangan. Mazkur hayvon nomi bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotlar qayd etilmagan.

Bugungi kunda qisqichbaqa ma'nosida ishlatiluvchi soz "Tarjumon turkiy" qo'lyozmasida **йәнәч** shaklida uchraydi. O'zbek tili izohli lug'atidan bilish mumkinki, qisqichbaqa – bo'g'imoyoqlilarga mansub, chuchuk suv havzalarida yashaydigan, tanasi qattiq qobiq bilan

qoplangan, kallasi yonida panjalari bo'lgan jonivor. Qisqichbaqalar – bo'g'imoyoqlilar turkumiga mansub, 30000 ga yaqin turi bo'lgan, asosan chuchuk suzlarda, ayrim turlari quruqlikda parazit hayot kechiruvchi, organik moddalar, o'simlik va o'laksalar bilan oziqlanuvchi hayvonlar hisoblanadi [12]. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa chiqarish mumkinki, XIV asrga tegishli "Tarjumon turkiy" qo'lyozmasida uchraydigan **йәнәч** so'zi bugungi o'zbek tili iste'molida leksik arxaik so'zga aylanib ulgurgan.

"Tarjumon turkiy" qo'lyozmasida kelgan **сәлук** so'zi qadimgi turkiy xalqlarda zuluk ma'nosini ifodalagan. O'zbek tili izohli lug'atida esa shunday izoh beriladi: chuchuk suv havzalarida yashovchi, yirtqich yoki parazit holda kun kechiradigan halqali chuvalchanglar vakili. Zuluklar (annelida) tipining hirudinea ostsinfiga mansub bo'lgan, suv, yer va dengizda yashovchi, tanasi 34 segmentdan iborat qon so'ruvchi hayvon hisoblanadi [13]. Demak, XIV asr turkiy xalqlari iste'molidagi **сәлук** so'zi fonetik jihatdan sezilarli o'zgarishga uchragan va hozirgi kunda zuluk tarzida foydalaniladi.

Bugungi o'zbek tili iste'molida **suvsar** ma'nosida ishlatiluvchi zoonim "Tarjumon turkiy" qo'lyzomasida **savsar** vositasida ifodalangan. Mazkur zoonimga o'zbek tili izohli lug'atida shunday izoh beriladi: suvsar – qimmatbaho, qalin va yumshoq mo'ynali yirtqich sutemizuvchilar oilasining bir turi. Suvsarlar – yirtqichlar turkumiga mansub tovonda va yarim tovonda harakatlanuvchi, 64 ta tur va 24 urug'ga ajratiluvchi, asosan mo'ynachilik fermalarida boqiluvchi va ovlanuvchi sutemizuvchi hayvon hisoblanadi [14]. Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, qadimgi turkiy xalqlarda foydalnilgan **savsar** shakli hozirgi kungacha biroz fonetik o'zgarishga uchragan holda o'z shakli va ma'nosini saqlab qolgan.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki, qo'lyozmalarda ayrim zoonimlar batafsil izohlari bilan berilgan bo'lsada, ayrimlari haqida to'liq ma'lumot berilmaydi, xususan "Devonu lug'otit-turk" da qayd etilgan **кӱјік кіші** so'zi *suvda bo'ladigan odam shaklidagi hayvon* izohlangan. Etimologik lug'atlarda esa kejik so'zi yovvoyi sifatini ifodalagan. Masalan, **kejik at** – *yovvoyi ot,* **kejik kişi** – *yovvoyi odam*. Berilgan har ikki izohlar mavhumlikni yuzaga keltiradi. Qo'lyozmalarda qaydlangan **japuқ, balik, yaru** kabi so'zlar xil hayvon nomining har xil nomlanishi hisoblanib, bu orqali qadimgi turkiy tilning naqadar so'zga boy ekanligi hamda rang-barangligini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "World Organisation for Animal Health (OIE)". 2016. International Regulatory Co-operation. 162–163 pp. doi:10.1787/9789264244047-41-en. ISBN 9789264266254.

2. Abdushukurov. B, 1998. "XI-XIV asrlar turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar" nomli diss. Ozbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi X. S. Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti. Toshkent. 125 b.

3. G. Clauson, 1972. *"An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish"*. *Oxford at the Clarendon press*, Glasgow. 312, 776 pp. ISBN 109634812686

4. Egerton, Frank N. 2003. "A History of the Ecological Sciences, Part 11: Emergence of Vertebrate Zoology During the 1500s". Bulletin of the Ecological Society of America. 84 (4). Wiley: 206.

5. Муталлибов. С, 1960. (*таржимон ва нашрга тайёрловчи*) Маҳмуд Қошғарийнинг "Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони)" қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, III том, №: 81. Тошкент. 27 б.

6. Юнусов. А, (нашрга тайёрловчи) 1980. "Таржумон" XIV аср ёзма обидаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти. Ўзбекистон "ФАН" нашриёти. 34 b.

7. Мадвалиев. А ва бошқалар, 2021. "Ўзбек тилининг изоҳли луғати", Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, "Ўзбекистон миллий энсиклопедияси" давлат илмий нашриёти, Тошкент. 148 б.

8. Benton, M.J. (1998). "The quality of the fossil record of vertebrates". In Donovan, S.K.; Paul, C.R.C. (eds.). *The adequacy of the fossil record*. Wiley. pp. 269–303, Fig. 2

9. Муталлибов. С, (*таржимон ва нашрга та нашрга тайёрловчи*) 1963. Маҳмуд Қошғарийнинг "Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони)" қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, I том, №: 81. Тошкент. 246 б.

10. Sabater-Pi, J. (1985). "Contribution to the biology of the Giant Frog (*Conraua goliath*, Boulenger)". *Amphibia-Reptilia* **6** (1): 143-153. doi:10.1163/156853885

11. Levitskaya L, C, Дыбо А. В и Рассадин В. И. 1997. "Этимологический словарь тюркских языков", "Общетюркские и межтюрксье лексические на буквы К, Q". Российская Академия Наук институт языкознания. ISBN 5-7859-0028-8. "Языки Русской Культуры" издатель. Москва. 295 с.

12. Mavlonov O., Xurramov Sh. 1998. "Umurtqalilar zoologiyasi", T; "Jizn jivotnix", t. 2., M., 1969. 76 b.

13. Fogden, S.; Proctor, J. (1985). "Notes on the Feeding of Land Leeches (Haemadipsa zeylanica Moore and H. picta Moore) in Gunung Mulu National Park, Sarawak". Biotropica. **17** (2): 172–174.

14. A. Berta and G. S. Morgan (1985). "A new sea otter (Carnivora: Mustelidae) from the late Miocene and early Pliocene (Hemphillian) of North America". Journal of Paleontology. **59** (4): 809–819.

UO'K 811'276.2

SLENGNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI, MAQOMI VA TAVSIFI

B.T. Sotvoldiyev, dots., PhD, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *So'nggi yillarda dunyo tilshunosligida nafaqat yozma nutq, balki so'zlashuv nutqini tadqiq qilishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati jonli muloqotda qo'llanuvchi leksik qatlam sleng nutq birliklarini o'z ichiga qamrab oladi. Shu boisdan ushbu maqolada slengning tilshunoslikdagi maqomi, tavsifi va tasnifi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *sleng, argo, jargon, substandart so'zlar, kasbiy yoki korporativ argo / jargon, yashirin til, noadabiy leksika, ijtimoiy guruhlar tili.*

Аннотация. *В последние годы в мировой лингвистике уделяется большое внимание изучению не только письменной, но и устной речи. Большинство этих исследований охватывает лексический пласт сленговых речевых единиц, используемых в живом общении. Поэтому в данной статье будут рассмотрены статус, описание и классификация сленга в лингвистике.*

Ключевые слова: *сленг, арго, жаргон, ненормативная лексика, профессиональный или корпоративный сленг/жаргон, скрытый язык, вульгарная лексика, язык социальных групп.*

Abstract. *In recent years, much attention has been paid in world linguistics to the study of not only written speech, but also spoken speech. Most of these studies cover the lexical layer of slang speech units used in live communication. Therefore, this article will discuss the status, description and classification of slang in linguistics.*

Key words: *slang, argot, jargon, substandard words, professional or corporate slang/jargon, covert language, vulgar vocabulary, language of social groups.*

Bugungi kungacha sleng borasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan juda ko'p o'xshash va farqli fikrlar bildirilgan. Eng ko'p bahslarga sabab bo'ladigan masalalardan biri – bu slengning mustaqil toifa sifatida mavjudligi hamda agar mavjud deb hisoblansa, u va boshqa noadabiy leksika turlari o'rtasidagi chegarani aniqlash masalasidir. Shu sababli, tadqiqotchilarning bu borada bildirgan fikr-mulohazalarini umumlashtirib, quyidagi ko'rinishda ifodalashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Slengni faqat ma'lum guruhlar tili sifatida talqin qilinuvchi nazariyalar. Bunday fikrni ilgari suruvchi tadqiqotchilar sleng fenomeniga argo, jargon yoki kentning sinonimi sifatida qaraydilar. Masalan, L.Anderson va P.Trudjill, D.Kristall kabi olimlar slengni faqat "O'g'ri, jinoyatchilar va ma'lum to'dalarning yashirin tili [1] sifatida baholasa, E.Matiello hamda O.Axmanova kabi tadqiqotchilar slengni "Kasbiy va ijtimoiy guruhlar tili"[2] sifatida ta'riflaganlar.

2. Slengni argo yoki jargon emas, balki alohida nutq birligi sifatida mavjud ekanligini qo'llab-quvvatlovchi fikrlar. Aytish joizki, bu guruhga kiruvchi tadqiqotchilar sleng va boshqa noadabiy nutq birliklarining alohida-alohida tushuncha ekanligini ta'kidlash barobarida, sleng odatda argo, jargon va kentlarni o'zlashtirib, o'z lug'at fondi va ta'sir doirasini kengaytirib borishi haqida fikr bildiradilar.

Bu haqda Amerika slengi lug'ati mualliflari G.Uentvort va B.Fleksnerlar quyidagi fikrlarni bildirganlar: "Sleng jamiyatdagi turli guruhlardan olinadigan so'zlar majmuidir"[3]. E.Levin va E.Blanko kabi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ham "Sleng va jargon / argo ikki xil tushuncha bo'lib, sleng ulardan paydo bo'ladi"[4]. G'.Rahimovning fikriga ko'ra, "Sleng – argo va jargondan alohida tushuncha"[5] hisoblanadi.

Sleng borasida tadqiqotlar olib borgan olimlarning ko‘pchiligi uni, asosan, sosial jihatdan tadqiq qilishga urg‘u berib, unga aynan shu nuqtayi-nazardan baho berganlar. Ular, odatda, slengni nisbatan kengroq ma’nodagi tushuncha ekanligini ta’kidlab o‘tadilar. Ularning fikr-mulohazalarini umumlashtirgan holda quyidagi tarzda keltirib o‘tamiz:

1. Sleng haqida salbiy munosabat bildirgan tadqiqotchilar. Ular slengni tilni buzuvchi unsur sifatida baholab, unga past nazar bilan qaraganlar hamda uning tilda erkin ishlatilishiga qarshi chiqqanlar. Masalan, N.Ferster va J.Stedmanlar slengni “Qadri baland so‘zning o‘rnini bosuvchi arzon mahsulot”[6] deya ta’riflagan bo‘lsalar, J.Xodjes undan foydalanishni “aniq ma’noga ega so‘zni to‘liq holatda ishlatishdan qochuvchi dangasa insonlarning usuli”[7] deb hisoblagan.

2. Sleng haqida ijobiy munosabat bildirgan tadqiqotchilar. Ular slengni boricha baholab, uning qo‘llanilishiga oddiy holat sifatida qaraganlar. Ularning fikricha, slengdan foydalanish nutqni bir-xillikdan xalos etib, nutqqa o‘zgacha jo‘shqinlik, rang-baranglik baxsh etadi va uning turli xil o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Shu sababli, taniqli olim U.Labov sleng haqidagi barcha materiallarning “Ekstralingvistik mavhumlikdan holi”[8] bo‘lishi kerakligini maslahat beradi.

G.A.Glison slengni “juda erkin harakatlanuvchi vokabyular turi”[9] sifatida, K.Eble “sleng ... jamiyatdagi trend va modaga ko‘ra o‘zgarib turuvchi, so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan so‘zlar va iboralar”[10] dan tashkil topishi, J.Kolman esa “sleng biror insonga o‘zi qo‘shilmoqchi bo‘lgan ijtimoiy guruh tarkibiga kirishib ketishi, qarshi jins vakillari ongida o‘ziga nisbatan qiziqish uyg‘otishi va hatto ko‘chada uning hayotini saqlab qolishiga yordam berishi mumkin”[11] ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Yuqorida tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va lug‘atlarda keltirilgan ta’riflarni qiyosiy tahlil qilgan holda, sleng maqomi, tavsifi va tasnifi borasida quyidagi nuqtayi-nazarni bildirib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Avval ta’kidlaganimizdek, ba’zi olimlar slengni “o‘g‘rilarning maxfiy tili” sifatida baholab, uni argo yoki kentning ekvivalenti sifatida talqin qilganlar. Bir tomondan, ularning haqli ekanligini aytish lozim. Chunki, barcha rasmiy manbalarning ko‘rsatishicha, Britaniyada sleng paydo bo‘lgan davrdan to XIX asrning ikkinchi yarmigacha u asosan jinoyat olami vakillari tomonidan “yashirin til” sifatida qo‘llanilgan. Hozirda ham slengning yashirinlik xususiyati saqlanib qolgan va ba’zi o‘rinlarda biror ijtimoiy guruh vakillari tomonidan sleng boshqalardan o‘zlarining fikrlarini maxfiy saqlash uchun atayin ularga tushunarsiz tarzda foydalaniladi. Bunday slenglar, ko‘pincha, sleng lug‘atlarida jinoyatchilar slengi (Underworld slang) yoki qamoqxona slengi (Prison Slang) belgilari bilan kodlashtiriladi. Masalan, *A-head; agged; ball n.3; to bank; barbecue n.2; B dog; bingo; burner n.2; businessman n.1* kabi slenglar shular jumlasidandir.

Boshqa tomondan, slengning ushbu xususiyati barcha birliklar uchun ham xos emasligini ta’kidlash lozim. Darhaqiqat, slengning bir vaqtlar faqat “yashirin til” sifatida ishlatilganini hech kim inkor etmaydi. Lekin, o‘sha davrdan buyon sleng faqat rivojlanib, qo‘llanish doirasini kengaytirib bordi hamda u ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan tilga aylana oldi. Hozirgi davrga kelib, uning yashirinlik xususiyati barcha slenglarda emas, balki ayrim birliklar tarkibida saqlanib qolganini ishonch bilan ayta olamiz.

Ta’kidlash lozimki, slenglar dastlab jamiyatdagi turli kichik ijtimoiy guruhlar tarkibida paydo bo‘ladi. Keyinchalik, ular orasidan ba’zi birliklar boshqa guruhlar yoki insonlarning katta auditoriyasi tomonidan qabul qilinib, o‘zlashtiriladi hamda qo‘llanishi guruh doirasidan chiqib, “umumiy slengga (General Slang)” aylanadi. Masalan, qisqartmali slenglar (AKA; AFAIK; ZZZ; U; FB; ASAP; LOL), antroponim komponentli slenglar (John; Jane; Bob; Benjie; Suzie; Archer; Holmes; Jack; Jackson; Jesus!; Jim), toponim komponentli slenglarning (Babylon; Brummagem; China plate; Amerika; Oz; Delhi belly; Jew York) qo‘llanishi ma’lum guruhlar doirasidan tashqariga chiqib, umumiy sleng maqomiga erishganlar hamda hozirda ko‘pchilik uchun tushunarli hisoblanadi. Bu kabi misollarni sleng lug‘atlarida ko‘plab uchratish mumkin. Shuning uchun, slengning dastlab ma’lum doiradagi guruhlar (yoshlar, jinoyatchilar, talabalar, qo‘shiqchilar, sportchilar, xarbiylar) orasida paydo bo‘lishini inkor etmagan holda, undagi “Guruh tili” xususiyati bizningcha, barcha sleng birliklari uchun emas, balki ularning ba’zilari uchungina xos hisoblanadi.

Bundan tashqari, slengga "qisqa umr ko‘ruvchi" yoki "tez o‘zgaruvchan" deb ta'rif beruvchi tadqiqotchilarning fikrlariga qisman qo‘shilish mumkin deb hisoblaymiz. Haqiqatdan ham sleng birliklarining katta qismi nisbatan tez yangilanib turadi. Bu asosan yoshlar va talabalar slengiga xos xususiyat hisoblanadi. Lekin, barcha slenglar haqida ham bunday deb ayta olmaymiz. Chunki, ba'zi sleng birliklari mavjudki, ular nutqda juda uzoq vaqt saqlanib qolgan. Masalan, *duds (clothes)* slengi XV asrdan*; to neck (to swallow), bubbies (breasts)* slenglari XVI asrdan; *bog-trotter (an Irish person), job (a criminal venture, usually a robbery), grub (food), stiff (a corpse)* kabi slenglar XVII asrdan; *Jemmy / Jimmy (a wig), bog / bogger (lavatory), doss (sleep)* slenglari esa XVIII asrdan buyon sleng sifatida hozirgacha nutqda ishlatib kelinadi. Ushbu misollardan kelib chiqqan holda, biz "tez o‘zgaruvchanlik" xususiyati faqat ma'lum toifa slenglar uchungina xosligini, boshqa toifa slenglarning esa nutqda barqaror ekanligini ta'kidlab o‘tmoqchimiz.

Slengning adabiy til tomonidan doimo rad etilishi va uning hech qachon adabiy tilning bir bo‘lagi bo‘la olmasligi haqidagi da'volarning ham mavjud ekanligini yuqorida aytib o‘tdik. Bir tomondan, bildirilgan ushbu fikr-mulohazalarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Chunki, o‘zining kuchli emosional-ekspressiv, peyorativ va boshqa qator xususiyatlari sababli, sleng birliklari adabiy doira vakillari tomonidan qattiq tanqid qilinadi yoki rad etib kelinadi. Boshqa tomondan, hozirgi ingliz adabiy tilida shunday so‘zlar mavjudki, dastlab paydo bo‘lgan davrlarida ular noadabiy leksika, ya'ni sleng birliklari hisoblangan. Keyinchalik, ushbu nutq birliklari kollokvializm va adabiy tilga o‘tib, bugungi kunda ularning ajralmas qismiga aylangan. Masalan, kollokvializmga xos bo‘lgan hamda hozirgi ingliz adabiy til lug‘atlarida *"informal"* yoki *"spoken"* belgilari bilan qayd qilingan *Bob (a shilling); super (wonderful); telly (television); tipsy (slightly drunk); booze (alcohol); snide (insinuating); buddy (a friend)* kabi so‘zlar dastlab sleng sifatida qo‘llanilgan.

Adabiy tilda bizga ancha tanish bo‘lgan *bus (type of a large vehicle); jazz (a type of music); random (unexpected); mortarboard (a black cap worn at graduation)* kabi so‘zlar ham dastlab sleng birliklari hisoblanganligini alohida ta'kidlashni lozim topdik.

Misollarda keltirilgan so‘zlarning barchasi, dastlab, sleng sifatida ishlatilib, ma'lum vaqtdan so‘ng so‘zlashuv tili va adabiy til tomonidan o‘zlashtirilgan. Bu esa sleng birliklarining aksariyati adabiy tilga ko‘cha olishini anglatadi. Demak, bizningcha sleng birliklarining katta qismi adabiy til tomonidan rad qilinadi, lekin ba'zi slenglar paydo bo‘lganidan ma'lum davr o‘tgach adabiy til oqimiga qo‘shila oladi.

Sleng haqida bildirilgan fikrlarda uning jamiyatdagi eng past tabaqa vakillari, o‘qimishli bo‘lmagan insonlar tomonidangina qo‘llanishi haqida aytib o‘tiladi. Bu fikrga ham to‘la qo‘shila olmasligimizni aytish lozim. Chunki, ko‘pincha, vulgar va qo‘pol xarakterli so‘z va iboralar adabiy til normalariga bo‘ysunmaydigan, yaxshi ta'lim ko‘rmagan va odob-axloq qoidalarini chetlab o‘tuvchi insonlar nutqida ishlatilishi ko‘pchilikka ma'lum. Boshqa tomondan esa nutqda bunday qo‘pol va betakalluf slenglardan foydalanish nafaqat oddiy insonlar, balki jamiyatning boshqa qatlamlarida ham uchrab turadi. Slengning buyuk yozuvchilar (U.Shekspir, Ch.Dikkens, B.Shou) va hatto davlat rahbarlari (L.Jonson, D.Tramp) tomonidan ham qo‘llanilganligi hech kimga sir emas. Bundan xulosa qilish mumkinki, slengning ushbu xususiyati ham faqat ba'zi birliklar uchungina xos bo‘lib, slengdan foydalanish amaliyotida jamiyatning hech bir qatlami uchun chegara o‘rnatilmaydi.

Yuqorida ta'kidlab o‘tganimizdek, ba'zi tadqiqotchilar slengning doimo peyorativ, kesatish ma'nosida qo‘llanishi va har qanday ko‘tarinkilik unga begona ekanligi borasida fikr bildiradilar. Aytish joizki, sleng birliklarining ko‘pida haqorat *(chocolate* – qora tanli odam; *frog* – fransuz; *riceman* – xitoylik; *Abdul* – har qanday erkak arab), ironiya *(old lady* – yosh qiz yoki ayol; *cool water* – gradusi baland, qo‘lbola viski) hamda birovlarning ustidan ochiqchasiga masxara qilish (*Greek* – mujmal til; *octopus* – jinsiy zo‘ravon yigit) kabi xususiyatlar mavjud. Lekin, ushbu belgilarning hammasi ham barcha sleng birliklari uchun birdek taalluqli emas. Chunki, slenglar orasida bu kabi salbiy xususiyatlardan holi bo‘lgan ijobiy ma'noda qo‘llanuvchi, ko‘tarinkilik xususiyatini o‘zida mujassamlashtirgan nutq birliklari ham mavjud. Masalan: *atomic* – juda kuchli; *peachy* – yoqimli, jozibali; *keen* – ajoyib, yaxshi; *fab* – juda ajoyib; *equipped* – so‘nggi modadagi, yangi. Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, slenglarning barchasi ham salbiy ma'noda ishlatilmay, aksincha ba'zi birliklar ijobiy ma'nolarni ifodalashda qo‘llaniladi.

Jahon va yurtimiz tilshunos olimlari tomonidan bildirilgan mulohazalarni umumlashtirgan holda, sleng fenomeniga biz quyidagi ishchi ta’rifimizni taqdim etamiz: sleng a) mushtarak maqsad yo‘lida birlashgan turli jamoalar nutqida ba’zida yopiq tarzda qo‘llanuvchi; b) ba’zi hollarda kengroq doiralarda foydalaniluvchi; d) ba’zan tez yangilanib turuvchi; e) ba’zida juda barqaror, uzoq umr ko‘ruvchi; f) ba’zan adabiy til doirasiga ham qo‘shila oluvchi; g) ba’zan haqorat; h) kesatish; i) masxaralash; j) mutoyiba sifatida qo‘llanuvchi; k) ba’zan ko‘tarinkilik xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan so‘z va iboralardir.

Endi biz yuqorida keltirilgan ta’rifning har bir bandini misollar yordamida sharhlashga harakat qilamiz va ular quyidagilardan iborat:

a) boshqalar uchun yopiq (yashirin) tarzda (A-head, airmal, barbecue n.2, B dog, bingo) qo‘llanuvchi; b) ba’zi hollarda guruh doirasidan chiqib, keng masshtabda (AKA, ASAP, ZZZ, LOL, John, Bob, Jane, Benjie, Brummagem, Amerika, Oz, Jew York) ishlatiluvchi; d) ba’zan tez o‘zgarib, yangilanib turuvchi (Yippie (1960-1975), kiki (1935-1950), lu-cu-pu (1945-1955)); e) ba’zida juda barqaror, uzoq umr ko‘ruvchi (Duds (1440+), neck (1518+), stiff (1790+));

f) ba’zi hollarda adabiy til oqimiga ham qo‘shila oluvchi (Buss, jazz, jeep, quiz, jukebox); g) ba’zida haqorat (Shit, cock, honey box, a-hole) tarzida qo‘llanuvchi; h) ba’zan kesatish (frosty, to liberate, old man, old lady) ma’nosini ifodalovchi; i) ba’zi hollarda masxaralash (Greek, Picasso, canary, octopus) uchun ishlatiluvchi; j) ba’zida hazil-mutoyiba (all-timer’s diease; another dollar; are you for real?; balloon) ma’nolarini aks ettiruvchi; k) ba’zan esa aksincha, ko‘tarinkilik (peachy, atomic, nicey-nice; fab; keen; groovy; happening) xususiyatlarini aks ettiruvchi slenglar.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, yuqorida biz sanab o‘tgan xususiyatlarning birortasini ham sleng uchun qat’iy va o‘zgarmas deb hisoblash kerak emas. Chunki, og‘zaki nutq birliklari, xususan slenglar nisbatan beqaror va o‘zgarishga moyil bo‘lib, ularning nutqda qo‘llanishini hech qachon qat’iy chegaralab bo‘lmaydi. Sleng ta’rifini berishda ham aynan shu tamoyildan kelib chiqqan holda yondashish zarur deb hisoblaymiz. Bizning nuqtayi-nazarga ko‘ra, aynan “ba’zan” so‘zi sleng uchun xarakterli bo‘lib, uning barcha xususiyatlarini ochib beruvchi kalit so‘z hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Anderson L.G. & Trudgill P. Bad Language. Oxford: Blackwell, 1990, p. 77; Crystall D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – p. 53.

2. Mattiello E. An introduction to English Slang: A description of its Morphology, Semantics and Sociology. Milano: Polimetrica, 2008. – p. 31, Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов (2-е изд.). – М.: Советская Энциклопедия, 1969. – с. 419.

3. Wentworth H. and Flexner B. (Preface). Dictionary of American Slang. New York: Thomas Y. Crowell Co., 1967. – p. 7.

4. Lewin E. And Lewin A.E. The Random house Thesaurus of Slang (Preface). New York: Random House, 1988. – p. 5; Blanco E. and others. U.C.L.A. Slang 6 (Intro. By P. Munro). Los Angeles: University of California, 2009. – p. 8.

5. Раҳимов Ғ. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 2006. – б. 37.

6. Foerster N. and Steadman J. Writing and Thinking (Rev. ed.). Boston: Houghton Mifflin, 1941. – p. 290.

7. Hodges J. and Whitten M. Harbrace College Handbook (6th ed.). New York: Harcourt-Brace and World, 1967. – p. 197.

8. Labov W. Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – p. 97.

9. Gleason H. An introduction to descriptive linguistics. N.Y.: Holt, Rineheart and Winston, 1961. – p. 6.

10. Eble C. Slang and sociality: in-group language among college students. Chicago: The University of North Carolina Press, 1996. – p. 11.

11. Coleman J. The Life of Slang. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – p. 9.

UO’K 81-13

MUMTOZ ARAB SHE’RIYATI

X.V. Sotvoldiyeva, o’qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiyning turkiy tillar, xususan o‘zbek tilining rivojlanishidagi ahamiyati tadqiq qilinadi. Navoiy o‘z ijodida turkiy tillarning noyob imkoniyatlarini ochib, ularni adabiy til darajasiga ko‘tarishga katta hissa qo‘shgan. Uning "Muhokamat al - lug‘atayn" asarida turkiy tilning fors tiliga nisbatan afzalliklari ilmiy asoslangan holda bayon etilgan.*

Kalit so'zlar*: arab she'riyati, qasida, Hassan ibn Abu Summa, Navoiy, Xamsa, Al-Mutanabbiy, badiiy san'atlar, Muhokamat al-lug'atayn.*

Аннотация. *В этой статье в этой статье объясняется важность великого Узбекского поэта, мыслителя Алишера Навуа Алишера Навуя, в развитии туркических языков, особенно в Узбеке. Навуи открывает уникальные возможности турецких языков в своей работе и способствовал их подъему до уровня литературного языка. Его работа «Muhokamat al - lugatayn» научно основана на персидском языке туркского языка.*

Ключевые слова: *арабская поэзия, Хасан ибн Абу Сумма, Навои, Хамса, Аль-Мутанабби, Художественное искусство, дискуссии аль-изделия.*

Abstract. *This article examines the importance of the great Uzbek poet, thinker and statesman Alisher Navoi in the development of Turkic languages, in particular the Uzbek language. Navoi made a great contribution to the development of the Turkic languages in his work, revealing the unique possibilities of Turkic languages and raising them to the level of a literary language. His work "Muhokamat al-lughayin" scientifically explains the advantages of the Turkish language over the Persian language.*

Keywords: *Arabic poetry, qasida, Hassan ibn Abu Summa, Navoi, Khamsa, Al Mutanabbiy, artistic arts, Muhokamat al-lughatayin.*

Mumtoz arab she'riyati – arab xalqining madaniy, ijtimoiy va diniy hayotini ifodalovchi, asrlar davomida shakllanib va takomillashib kelgan badiiy adabiy merosdir. Bu she'riyat arab tilining go'zalligi, ritmik tuzilishi, balog'at va fasohatining eng yorqin namunasi sanaladi. U nafaqat adabiyot, balki islom madaniyati va tafakkurining ajralmas qismidir. Mumtoz arab she'riyati orqali xalq o'zining qalbini, o'y-fikrlarini, orzu-umidlari va g'am-tashvishlarini badiiy uslubda ifoda etib kelgan. Arab shoirlari o'zlarining subtilligini, hayot haqidagi falsafiy mulohazalarini she'riy misralarga joylab, insoniyat taraqqiyoti va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy mavzularni yoritganlar. She'riyat asarlarini zamonlar sinovidan o'tgan doimiy madaniy boylik sifatida avloddan-avlodga yetkazib kelish arab xalqi uchun buyuk ma'naviy ahamiyat kasb etgan.

A. Jahiliya davri (Islomdan avvalgi davr, milodiy 5–7-asrlar). Bu davrda she'riyat asosan og'zaki shaklda yashab kelgan va avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tgan. Shoirlar o'z qabilalarining sha'nini, sharafini, urf-odatlarini targ'ib qiluvchi, ularga sadoqat bildiruvchi hamda boshqa dushman qabilalarni haqorat qiluvchi, ular ustidan kulgu qiluvchi she'rlar yaratgan. Bu she'rlar ko'pincha qabilaviy urushlar, janglar, va kundalik hayot muammolarini ifoda etish uchun xizmat qilgan. Mashhur janr – qasida. Qasida uzun va musiqiy ifodali she'r shakli bo'lib, unda shoir o'z sevgisi, do'stona munosabatlari, maqtovi, hajvi, ba'zan o'zining yoxud boshqalarning tarixiy voqealarni, yutuqlarini, matonatini, or-nomusini ifodalagan. Qasidalar qadimda og'izdan-og'izga o'tgan hamda keyinchalik yozma ravishda ham saqlana boshlandi. Bu davrda yaratilgan she'riyatgina emas, balki adabiyot ham arab xalqlari hayoti, urf-odati, an'analari, e'tiqodi, orzu-umidlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Jahiliya davrining mashhur shoirlari orasida Imru ul-Qays, Zuhayr ibn Abu Sulma, Antara ibn Shaddad, Labid ibn Rabi'a singari ijodkorlar bo'lgan. Ularning asarlari hozirga qadar o'rganilib, qadrlanadi.

B. Islom davri (7–10-asrlar) Islom paydo bo'lishi bilan she'riyatga yangi mazmun kirdi. Qur'on tilining go'zalligi she'riyatga ta'sir qildi. Shoirlar diniy, axloqiy va tarixiy mavzularni yozdilar. Ushbu davrda she'riyatda yangi shakl va yo'nalishlar paydo bo'ldi, va arab hamda fors adabiyotidan kuchli ta'sir ko'rindi. Shoirlar o'z asarlarida din asoslari, axloq, hayot ma'nosi, insonni tarbiyalash, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash kabi mavzularni yoritdilar. Ularning asarlari jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi va diniy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Mashhur shoirlar: *Hassan ibn Sobit* – Muhammad (s.a.v.)ning shoirlaridan biri, diniy va maqtoviy she'rlar muallifi. *Ka'b ibn Zuhayr* – "Banat Su'ad" nomli mashhur qasida muallifi.

C. Abbosiylar davri (8–13-asrlar) – Mumtoz she'riyatning oltin davri. Bu davrda Bag'dod va boshqa yirik shaharlarda ilm-fan, san'at va adabiyot misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Xususan, she'riyat sohasida yangi g'oyalar, badiiy vositalar va janrlar shakllandi. Shoirlar saroyda xizmat qilishar, o'z asarlari orqali siyosiy, falsafiy va ma'naviy masalalarni yoritishar edi. She'rlarda falsafa,

tabiat, hayot, sevgi, ichkilik (sharob), inson qalbi va jamiyat haqida turli xil fikrlar, mulohazalar ifoda topdi. Shu bilan birga, bu davrda so‘z san’ati yuqori darajaga ko‘tarildi, go‘zal obrazlar yaratildi va mumtoz she’riyatga boy o‘ziga xos uslublar namoyon bo‘ldi. Eng mashhur va e’tirof etilgan shoirlar orasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin: *Al-Mutanabbiy* – jasorat, donishmandlik va kuch timsoli bo‘lgan she’rlar yaratgan. *Abu Nuvas* – ichkilik va ishqiy hayotga oid she’rlar bilan mashhur. *Al-Ma’arri* – falsafiy, skeptik qarashlarga ega she’rlar muallifi.

D. Keyingi davrlar (13–15-asrlar va undan keyin). Usmoniylar, Mamluklar va boshqa musulmon davlatlar davrida she’riyatda klassik an’analar davom ettirildi. Bu davrda adabiyot va madaniyat rivojida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, she’riyatda mavzular kengaydi, badiiy uslublar boyidi va turli hududlar adabiyotlari o‘zaro ta’sir qildi. Usmoniylar davrida Istanbul she’riyat markazlaridan biriga aylandi, mashhur shoirlar paydo bo‘ldi va turkiy til asosidagi asarlar yozildi. Mamluklar va boshqa musulmon davlatlarida ham an’anaviy aruz vazni, gazal, qasida, masnaviy kabi janrlar rivoj topdi. Bu holat klassik shoirlar merosining yangi avlodlarga o‘tishini va adabiy an’analarning izchil saqlanishini ta’minladi.

Arab adabiyoti fors va turkiy adabiyotlar bilan o‘zaro ta’sirlashishi mumtoz arab she’riyati janrlari va san’at va ifoda vositalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu adabiy ta’sir nafaqat umumiy janrlar va san’at turlarida, balki she’riy asarlarning tuzilishi va mazmunda ham o‘z aksini topgan. Mumtoz arab she’riyati o‘zining balog‘atiga boyligi, ifoda uslubi va so‘z boyligi bilan ajralib turadi. Unda anglatilayotgan his-tuyg‘u va g‘oyalar turli badiiy san’atlar vositasida tasvirlanadi. U yerda ko‘plab badiiy san’atlar mavjud: Tashbih – o‘xshatish orqali ikki tushuncha o‘rtasidagi o‘xshashlikni ko‘rsatish; Isti’ora – majoziy ifoda yordamida bevosita aytilmagan ma’noni yashirin tarzda berish; Tajnis – so‘z o‘yini yordamida turli ma’noli so‘zlarni biriktirish; Mubolag‘a – bo‘rttirma usulida fikrni kuchaytirish; Tasnif – tafsillar bilan bayon qilish va voqealarni sinchiklab tasvirlash. Bu badiiy usullar arab she’riyatining boyligini va o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Mumtoz arab she’riyatining boshqa adabiyotlarga ta’siri keng va o‘ziga xosdir. Fors adabiyotida, jumladan, yetuk fors shoirlari va adiblar arab she’riyatidagi shakllardan, ifoda uslublaridan ilhom olgan, vazn tizimini, ayniqsa, aruz vaznini o‘z ijodida qo‘llaganlar. Fors shoirlari arab adabiy maktabining go‘zalligini qadrlab, o‘z poeziyasida uni boyitganlar. Shuningdek, arab va fors she’riyati o‘rtasidagi sintez, ularning o‘zaro badiiy almashinuvida, g‘oyalarning kengayishida va falsafiy mazmunlarning chuqurlashuvida ko‘rinadi. Turkiy adabiyotda esa, xususan, o‘zbek mumtoz she’riyatining asoschisi Alisher Navoiy ijodida arab she’riyatining ta’siri sezilarli darajada kuchli bo‘lgan. U aruz vazn tizimini mukammal o‘zlashtirib, so‘z boyligi va badiiy uslublarni keng joriy etgan. Arab she’riyati shakl va mazmunida mavjud bo‘lgan yuksak madaniy qadriyatlar, ramziy tasvirlar, ziyoda falsafiylik va ruhiy chuqurlik turkiy shoirlarni ham ilhomlantirgan. Bundan tashqari, Andalusiya adabiyoti (Ispaniya)da ham arab shoirlari o‘ziga xos, o‘tkir va samimiy romantik hamda falsafiy she’riyat namunalarini yaratganlar. Andalusiya poetikasi sharq va g‘arb uyg‘unligi namunasi sifatida, arab adabiy an’analarining yangi uslublar bilan boyishi va g‘oyaviy jihatdan kengayishiga sabab bo‘lgan. Bu she’riyatda tabiat, muhabbat va hayot mazmuni chuqur falsafiy va badiiy talqinda ifodalangan.

Alisher Navoiy — nafaqat o‘z davrining, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti tarixining eng buyuk arboblaridan biri hisoblanadi. Uning turkiy tillar rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyos va betakror bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Alisher Navoiy hayoti davomida turkiy tilning nufuzini oshirish, uning adabiy va ilmiy imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lida mislsiz xizmat qilib, uni yuqori darajaga olib chiqdi. Ayniqsa, uning turkiy tillar rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini quyidagi asosiy sohalarda ko‘rish mumkin:

Til siyosatiga yangicha yondashuv. Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali turkiy tilning badiiy va ilmiy imkoniyatlari fors tilidan kam emasligini isbotlab berdi. O‘sha zamonlarda adabiyot, she’riyat va ilm-fan sohalarida fors tilining nufuzi juda kuchli bo‘lib, ko‘pgina davlat arboblari, olimlar va shoirlar fors tilida ijod qilganlar. Navoiy esa o‘zining chinakam fidoyiligi va vatanparvarligi bilan Chig‘atoy turkiysi (eski o‘zbek tili)da badiiy asarlar yaratishni afzal ko‘rdi va shu orqali bu tilni adabiyot va ilm-fan tili sifatida yuksak maqomga olib chiqdi. U turkiy tilga ijodiy yangilik va badiiy kuch berdi, uni yangi ma’no, yangi so‘z, yangi uslublar bilan boyitdi. Aynan shu sababli, Navoiy o‘z

zamonasida ham, keyingi davrlarda ham turkiy tillar taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan davlat arbobi va ijodkor sifatida tan olingan.Muhokamat al-lug'atayn ("Ikki tilning qiyoslanishi") asarida ham, Navoiy turkiy tilni chuqur ilmiy jihatdan tahlil qilib, uning fors tilidan afzal va ustun tomonlarini ochib berdi. Bu asar, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar uchun til masalalarida ruhiy tayanch va namuna bo'lib xizmat qildi. Navoiy turkiy tilining badiiy imkoniyatlariga katta e'tibor qaratib, uning ifoda doirasini kengaytirdi, turkiy so'z boyligini oshirdi va lug'aviy jihatdan yanada takomillashtirdi. Bu esa o'z navbatida til me'yorlarini mustahkamlash, yangi grammatik va sintaktik qoidalarning shakllanishiga yordam berdi. Chig'atoy adabiy tilining shakllanishi ham aynan Navoiy ijodi bilan chambarchas bog'liqdir. U chig'atoy tilida yozilgan asarlar orqali bu tilni adabiy til sifatida mustahkamladı, hamda zamonasining boshqa shoirlari va yozuvchilariga ham o'rnak bo'ldi. Chig'atoy adabiy tili lug'aviy boylik jihatdan kengaydi, yangi so'z va iboralar bilan to'ldi va uning ifoda imkoniyatlari yanada boyidi. Sintaktik va grammatik jihatdan ham chig'atoy tili mukammallashib, o'zining fonetik va morfologik me'yorlariga ega bo'ldi. Har bir nuqtada, Alisher Navoiy o'zining san'atkorlik iste'dodi bilan bu me'yorlarni sayqalladi, takomillashtirdi va bugungi o'zbek adabiy tilining poydevoriga asos soldi. Ana shu jarayon tufayli, Navoiy ijodi butun turkiy dunyo uchun abadiy ma'naviy meros bo'lib qoldi va zamonaviy adabiyotimiz rivojida muhim o'rin tutdi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida juda so'z boyligini ishlatgan (jumladan, xalq og'zaki ijodidan olingan so'zlar). Yangi ibora va san'atli ifodalar yaratgan. Aruz vaznini turkiy tilga moslashtirgan va uni mukammal tarzda ishlatgan. U o'z asarlarida turkiy tilning noziklik, ifoda kuchi va shoirona ruh bilan betakror badiiy tilga aylanishini ta'minlagan. Turkiy tilda yaratilgan mashhur asarlari: "Xamsa" (Beshlik) – turkiy til uchun ulkan yutuqdir. Bu asarlar ilgari faqat fors tilida yaratilgan janrlarda yozilgan bo'lsa-da, Navoiy ularni turkiy til imkoniyatlari orqali yangicha ruhda yozgan.

Navoiy maktabining davomchilari Navoiydan keyin turkiy tilda yozishga ilhom oldilar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Ogahiy Muqimiy, Furqat – 19-asr o'zbek mumtoz adabiyotining vakillari Navoiy asos solgan adabiy maktab o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, tatar, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Bugungi kunda Alisher Navoiy o'zbek tilining asoschilaridan biri sifatida tan olinadi. Uning asarlari maktab, litsey va oliygohlarda o'qitiladi. Uning nomi bilan universitetlar, kutubxonalar, ko'chalar ataladi. Uning ijodi UNESCO tomonidan jahonga tan olingan madaniy meros sifatida e'tirof etadi. Alisher Navoiy turkiy tillar tarixida burilish yasagan siymodir. U o'zining yuksak badiiy va ilmiy merosi orqali turkiy tilning imkoniyatlarini ochdi, uni yuqori adabiy bosqichga olib chiqdi va bu tilga hurmatni oshirdi. Shuning uchun Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki turkiy tillar himoyachisi va rivojlantiruvchisi sifatida tarixda muhrlanib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat al-lug'atayn – Toshkent: Fan, 1991.
2. H.Sulton. Alisher Navoiy va turkiy adabiy til – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
3. E.Rustamov. Navoiy tilining badiiy jihatlari – Samarqand: O'zMU nashriyoti, 2010.
4. A.Hayitmetov. O'zbek adabiy tili tarixi – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. R.Abdurahmonov. Turk tillarining lingvistik xususiyatlari – Boku: Elm, 2000.

UO'K 808.2

DINIY DISKURSNING TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI

M.O.Subxonova, o'qituvchi, Buxoro Davlat Pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada diniy diskurs zamonaviy tilshunoslik va teolinguistika sohasidagi tadqiqot konstrukti sifatida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot V. fon Gumboldtning falsafiy-antropologik nazariyasidan kelib chiqqan holda, diniy diskursning tilshunoslik, dinshunos va teologik tadqiqotlardagi interdissiplinar ahamiyatini ochib beradi. Maqolada diniy diskursning ta'rifi, tuzilishi, funktsional xususiyatlari va xalq mentalitetini shakllantirishidagi roli batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, diniy komunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, muqaddas matnlarning diskursiv tabiyati va har xil diniy an'analardagi verbal ifodalanish usullari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *diniy diskurs, teolinguistika, interdissiplinar tadqiqot, muqaddas matn, diniy komunikatsiya, til va din, diskursiv tahlil*

Аннотация. *В данной статье религиозный дискурс рассматривается как исследовательский конструкт в современной лингвистике и теолингвистике. Исследование, основываясь на философско-антропологической теории В. фон Гумбольдта, раскрывает междисциплинарное значение религиозного дискурса в лингвистических, религиоведческих и теологических исследованиях. В статье подробно рассматриваются определение, структура, функциональные особенности религиозного дискурса и его роль в формировании ментальности народа. Также анализируются специфические особенности религиозной коммуникации, дискурсивная природа священных текстов и способы вербального выражения в различных религиозных традициях.*

Ключевые слова: *религиозный дискурс, теолингвистика, междисциплинарное исследование, священный текст, религиозная коммуникация, язык и религия, дискурсивный анализ*

Abstract. *This article examines religious discourse as a research construct in modern linguistics and theolinguistics. Based on W. von Humboldt's philosophical-anthropological theory, the research reveals the interdisciplinary significance of religious discourse in linguistic, religious studies, and theological research. The article provides a detailed examination of the definition, structure, functional characteristics of religious discourse and its role in shaping national mentality. The study also analyzes specific features of religious communication, the discursive nature of sacred texts, and methods of verbal expression in various religious traditions.*

Keywords: *religious discourse, theolinguistics, interdisciplinary research, sacred text, religious communication, language and religion, discourse analysis*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda diniy diskurs tadqiqi yangi yo'nalish sifatida jadal rivojlanmoqda. Bu soha tilshunoslik, dinshunos va teologiya fanlari o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taydi. Wilhelm von Humboldtning falsafiy-antropologik nazariyasi asosida shakllangan teolinguistika sohasi interdissiplinar tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Diniy diskurs tadqiqi nafaqat akademik qiziqish ob'ekti sifatida, balki jamiyat hayotining muhim qismini tushunish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Diniy tafakkur va uning tilshunoslik jihatdan ifodalanishi xalqlarning madaniy identifikatsiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Diniy diskurs tadqiqining nazariy asoslari V. fon Gumboldtning "falsafiy-antropologik dasturi"ga borib taqaladi. Gumboldt tilning kelib chiqishini ruhiy soha bilan bog'lab, tilni "insonda o'rnatilgan yaxlit va murakkab tizim" sifatida belgilagan [Susov, 1999]. Ushbu yondashuv zamonaviy teolinguistik tadqiqotlarga mustahkam poydevor yaratdi.

Tadqiqotda diskursiv tahlil metodi, funksional-semantik tahlil, qiyosiy-tipologik metod, interdissiplinar yondashuv, kontekstual tahlil kabi metodlar qo'llanildi.

Muhokama. Diniy diskurs o'zining murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi va bu murakkablik uning ko'p qirrali tabiatini ko'rsatadi. Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, diniy diskurs uch asosiy yo'nalishda rivojlanadi va har bir yo'nalish o'ziga xos funktsional xususiyatlarga ega.

Ta'limiy diskurs diniy ta'limot va uning tushuntirishiga qaratilgan bo'lib, jamiyatda diniy ma'rifat va tarbiya funktsiyasini bajaradi. Bu diskurs turi imon-e'tiqod asoslarini mustahkamlab, diniy bilimlarni sistematik tarzda taqdim etishda muhim rol o'ynaydi. Ta'limiy diskursning asosiy maqsadi diniy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish va diniy tafakkurni shakllantirishdan iborat.

Ibodat diskursi muqaddas marosimlar va ibodatlar bilan bog'liq bo'lib, diniy his-tuyg'ularni kuchaytirish va jamoa birligini mustahkamlashda markaziy o'rnni egallaydi. Bu diskurs turi ritual kontekstda faollashib, ishtirokchilar o'rtasida ruhiy aloqa o'rnatadi va ularning diniy identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Jamoa diskursi diniy jamoaning ijtimoiy hayotini qamrab olib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va jamoa ichidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Bu diskurs turi diniy identifikatsiya shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, jamoa a'zolari o'rtasida birlik va hamjihatlik tuyg'ularini rivojlantiradi.

Zamonaviy diskurs tahlili nazariyasiga ko'ra, diniy diskurs ham umumiy diskursiv funktsiyalarni bajaradi, ham o'ziga xos institutsional funktsiyalarga ega. E.V. Bobyreva tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko'ra, bu funktsiyalar ikki guruhga bo'linadi:

Umumiy diskursiv funktsiyalar har qanday diskurs turiga xos bo'lgan, ammo diniy kontekstda o'ziga xos rang oluvchi funktsiyalardir. Reprezentativ funktsiya diniy haqiqatlarni aks ettirishda, kommunikativ funktsiya esa muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Apellyativ funktsiya e'tiqodchilarni ma'lum harakatlarga da'vat etishda, ekspressiv funktsiya his-tuyg'ularni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Fatik funktsiya e'tiqodchilar o'rtasida aloqa o'rnatishga, informativ funktsiya esa diniy ma'lumotlarni etkazishga xizmat qiladi.

Institutsional funktsiyalar diniy diskursning o'ziga xos jihatlari bo'lib, diniy jamoa hayotini tartibga solish, ichki munosabatlarni nazorat qilish va shaxsiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan. Bu funktsiyalar diniy diskursni boshqa diskurs turlaridan ajratib turadigan asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Strukturaviy jihatdan muqaddas matnlar formal-ma'no tashkilotliligi, aniq kompozitsion qurilish va stilistik jihatdan mukammallik bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar matnlarning estetik ta'sirini kuchaytiradi va ularning xotirda mustahkam saqlanishiga yordam beradi.

Funktsional jihatdan muqaddas matnlar xotirda barqaror saqlanishi, takrorlanuvchi xarakterga ega bo'lishi va ritual kontekstda faollashuvi bilan tavsiflanadi. Bu matnlar jamoa xotirasining bir qismi bo'lib, avlodlar orasida uzluksiz uzatiladi va har safar yangi kontekstda qayta tug'iladi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Diniy diskurs nafaqat til hodisasi, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U quyidagi jihatlarda o'zini ko'rsatadi:

- **Lingvistik jihat**: maxsus terminologiya, stilistik vositalar
- **Madaniy jihat**: milliy qadriyatlar va an'analar aks etishi
- **Ijtimoiy jihat**: jamoa hayotining tartibga solinishi
- **Psixologik jihat**: shaxsiy identifikatsiya va his-tuyg'ular

Diniy diskurs tadqiqi bir necha fanning chorrahasi bo'lib, bu Interdissiplinar ahamiyat deb yuritiladi: tilshunoslik: til vositalarining o'rganilishi, dinshunos: diniy tushunchalar tahlili, kulturologiya: madaniy kontekst o'rganish, psixologiya: oniy jarayonlar tahlili, sotsiologiya: ijtimoiy ta'sir o'rganish

Har bir xalqning diniy diskursi o'ziga xos xususiyatlarga ega: milliy til xususiyatlari ta'siri, madaniy kontekst o'zgarishi, tarixiy tajriba aks etishi, mahalliy an'analar integratsiyasi

Xulosa. Diniy diskurs zamonaviy tilshunoslikda muhim tadqiqot ob'ekti sifatida o'z o'rnini mustahkamladi. U nafaqat til hodisasi, balki jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida qarash zarur. Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

Diniy diskurs murakkab, ko'p darajali tizim bo'lib, u tilshunoslik, dinshunos, madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar chegarasida joylashgan interdissiplinar tadqiqot ob'ektidir. Muqaddas matnlarning diskursiv tabiyati diniy komunikatsiyaning markaziy elementini tashkil etadi. Bu matnlar nafaqat ma'lumot manbai, balki jamoa hayotini tartibga soluvchi va shaxsiy identifikatsiyani shakllantiradigan vosita hisoblanadi. Bu tadqiqot sohasi tilshunoslik fanining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi va jamiyatning ruhiy-ma'naviy hayotini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Аникушина А.А. Религиозный дискурс в межкультурной коммуникации: автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Волгоград, 2010. - 20 с.

2. Бобырева Е.В. Религиозный дискурс: ценности и жанры: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. - Волгоград, 2007. - 42 с.

3. Карасик В.И. Религиозный дискурс // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики. - Волгоград: Перемена, 1999. - С. 5-19.

4. Subxonova, M. (2022). Роль языка и культуры в лингвокультурологическом анализе английских и

узбекских пословиц. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, *8*(8).

5. Subxonova, M. (2023). Diniy diskursda metaforik birliklar talqini va funksionalligi. *Talqin Va Tadqiqotlar*, *1*(19).

6. Subxonova, M. (2022). Lingvomadaniy birliklarning dostlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarida ifodalanishi. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, *23*(23).

7. Otabekovna, S.M. (2023). Metaphoric expressions in different religious texts. *"England" modern psychology and pedagogy: problems and solution*, *10*(1).

8. Subxonova, M. (2024). Badiiy tarjimada diniy diskurs elementlari. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, *49*(49).

9. Madina Subkhonova. (2024). The Concept of Religious Discourse and Aspects of its Study in Linguistics. *Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, *2*(5), 493-496. https://doi.org/10.5281/

10. Otabekovna, S. M. (2022). Comparative Analysis of Proverbs and Sayings in English and Uzbek Expressing Youth and Senility. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, *2*(5), 114-119.

11. Subkhonova, M. (2024) METAPHORE AND LANGUAGE. https://worldlyjournals.com/index.php/wkc/issue/view/85. https://worldlyjournals.com/index.php/wkc/article/view/7775.

12. Dickens's unique style. (2024). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, *2*(12), 118-120. https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1/article/view/1922

13. Subkhonova, M. . (2025). Religious discourse as a research construct. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, *1*(1), 294–297.

14. M.O. Subxonova (2025). Diniy diskurs funksiyalari. Inter education & global study, 3 (3), 118-126.

UO'K 808.2

ILMIY DISKURSDA METAFORANING ROLI VA FUNKSIYALARI

M.Sh. Sulaymonova, doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent
ORCID ID: 0009-0003-0749-260X

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ilmiy diskursda metaforalarning tutgan o'rni, ularning ilmiy uslubdagi kommunikativ vazifasi va g'oyaviy-ma'naviy yuklanmasi tahlil etiladi. Metafora nafaqat badiiy nutq, balki ilmiy uslubda ham tushunchalarni aniqlashtirish, murakkab g'oyalarni oddiyroq shaklda ifodalash, shuningdek, ilmiy tafakkurni ommalashtirish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot davomida turli fan sohalariga oid matnlardan olingan metaforik birliklar tahlil qilinib, ularning lingvistik xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *metafora, ilmiy diskurs, ilmiy uslub, terminologik metafora, lingvistik tahlil.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль метафоры в научном дискурсе, её коммуникативные функции и идеологическая нагрузка в рамках научного стиля. Показано, что метафора используется не только в художественной речи, но и в научных текстах для упрощения сложных понятий, объяснения абстрактных идей и популяризации научного мышления. В ходе исследования проводится лингвистический анализ метафорических выражений, извлечённых из текстов различных научных областей.*

Ключевые слова: *метафора, научный дискурс, научный стиль, терминологическая метафора, лингвистический анализ.*

Abstract. *This article explores the role of metaphors in scientific discourse, focusing on their communicative function and ideological implications within academic writing. Metaphors are shown to serve not only as literary devices but also as tools for simplifying complex concepts, clarifying abstract ideas, and popularizing scientific thought. The study analyzes metaphorical expressions extracted from various scientific texts and examines their linguistic features and contextual meanings.*

Keywords: *metaphor, scientific discourse, academic style, terminological metaphor, linguistic analysis.*

Ilmiy diskurs ko'pincha obyektivlik, aniqlik va ratsionallik bilan tavsiflanadi. Shunga qaramay, bu soha ham tilning semantik va konseptual vositalaridan, xususan, metaforalardan keng foydalanadi. Metafora ko'pincha badiiy ifoda vositasi deb qaralsa-da, ilmiy tafakkurda ham muhim kognitiv va gnoseologik rol o'ynaydi. U inson tafakkurining abstrakt hodisalarni konkret modellar orqali tushunishga bo'lgan intilishini ifodalaydi. Ayniqsa, ilmiy tilda yangi tushunchalarni kiritish, mavjud

bilimlarni soddalashtirish yoki murakkab kontseptsiyalarni intuitiv anglatish zarur bo‘lganda, metafora muhim vosita sifatida ishga tushadi.

Ilm-fan tarixida bunday metaforik modellashtirishning ko‘plab misollarini topish mumkin. Masalan, elektromagnit to‘lqinlarning “to‘lqin” deb nomlanishi ularning suv to‘lqinlariga o‘xshash tarzda tasavvur qilinishiga asoslangan. Kvant mexanikasida zarracha holatining bir vaqtning o‘zida bir nechta holatda mavjud bo‘lishini anglatadigan “superpozitsiya” tushunchasi esa musiqa yoki ranglar aralashmasiga o‘xshatilib metaforik tarzda tushuntiriladi. Biologiyada DNKning tuzilmasi “spiral zinapoya” metaforasi orqali tavsiflanadi, bu esa molekulaning uch o‘lchamli strukturasini vizuallashtirish imkonini beradi.[1] Fizik Richard Feynman zarrachalar o‘zaro ta’sirini “suhbatlashayotgan obyektlar” sifatida tasvirlab, bu murakkab holatlarni oddiy semantik vosita orqali tushuntirib bergan.[2]

Metaforaning kuchi shundaki, u ilmiy tushunchalar va tajribalar orasida semantik ko‘prik yaratadi. Bu ko‘prik nazariy bilimni empirik sezgi orqali ongda ifodalashga xizmat qiladi. Metafora murakkab nazariy kontseptsiyalarni oddiy tasviriy modellar orqali ifodalash imkonini beradi. Informatika va sun’iy intellekt sohasida bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, kompyuterning “xotirasi” inson miyasi bilan qiyoslanadi, “algoritm” esa ko‘pincha “yo‘riqnoma”, “yo‘l xaritasi” kabi metaforalar yordamida tasvirlanadi. Sun’iy neyron tarmoq deb ataluvchi tizimlar inson miyasi ish prinsipini andoza sifatida olgan bo‘lib, bu ham kuchli metaforik modeldir. Immunologiyada esa inson organizmi “qal’a”, virus esa “dushman”, antitanalar esa “armiya” sifatida tasvirlanadi. Bu singari metaforalar nafaqat fan sohasida, balki keng omma orasida ham murakkab ilmiy tushunchalarning qabul qilinishini va anglanishini osonlashtiradi.[3]

Ilmiy diskursda metaforaning roli va funksiyalari muhim ahamiyatga ega. Metafora, bir narsani boshqa bir narsaga o‘xshatish orqali yangi ma’nolar yaratishga yordam beradi va bu jarayon ilmiy muhokamalarda yanada aniqroq va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Metafora ilmiy til va terminologiya tizimlarida ajralmas qismdir. U ilmiy matnlarda yangi terminlar paydo bo‘lishiga va ilmiy tilni boyitishga xizmat qiladi. Masalan, "tanani mexanizm sifatida ko‘rish" kabi konseptual metaforalar ilmiy tushunchalarni yanada aniqroq ifodalashga yordam beradi. Bu kabi metaforalar, murakkab va abstrakt jarayonlarni oddiy so‘zlar bilan tushuntirishda qo‘llaniladi, bu esa o‘quvchilar uchun ilmiy ma’lumotlarni osonroq qabul qilish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, metafora ilmiy diskursda nafaqat boyitadi, balki ilmiy bilimlarni rivojlantirishda va ularni keng auditoriyaga yetkazishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Metaforaning turli shakllari va funksiyalari, ilm-fan va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lanishni mustahkamlashga yordam beradi. Metaforalar ilmiy diskursda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular murakkab g‘oyalarni yanada tushunarli va aniq ifodalashga yordam beradi. O‘zbek tilida metaforalarning qo‘llanilishi va ularning ilmiy matnlardagi o‘rni haqida bir nechta misollar keltirish mumkin.

Metafora - bu bir narsani boshqa bir narsaga taqqoslash orqali ma'noni yanada boyitadigan lingvistik vositadir. Ilmiy diskursda metaforalar ko‘pincha murakkab tushunchalarni oddiy so‘zlar bilan ifodalashda ishlatiladi.

Ilmiy uslubda metaforalar ilmiy matnlarda ko‘pincha yangi terminlar yaratish uchun ishlatiladi. Ular ilmiy tilni boyitishga yordam beradi va tushunchalarni aniqroq ifodalash imkonini beradi. Masalan, “metaforik transfer” kontseptsiyasi orqali ma’lumotlarni yanada aniq va qisqa shaklda taqdim etish mumkin.

Konvensional va ijodiy metaforalar: ilmiy diskursda ko‘proq konvensional metaforalarga e’tibor qaratiladi. Bu, odatda, umumiy tushunchalar va bilimlar bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalardir. Biroq, ijodiy metaforalar ham muhimdir va ular ilmiy jarayonni rivojlantirishga yordam beradi

O‘zbek tilida ham ilmiy diskursda metaforalar keng qo‘llaniladi. Misol uchun: “qayta tiklash” - bu metafora, odatda, iqtisodiy yoki ekologik jarayonlarni ifodalashda ishlatiladi, bu yerda “tiklash” jarayoni yangilanish va rivojlanishni anglatadi. “Zamonaviy bilimlar” - bu metafora orqali yangi bilimlarni “zamonaviy” deb atash orqali ularning dolzarbligini va ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ilmiy diskursning shakllanishi va rivojida metaforalar nafaqat til vositasi, balki ilmiy tafakkurning konstruktiv elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Metaforalarning kognitiv va

gnoseologik xususiyatlari, ularning bilim yaratishdagi funksiyasi so‘nggi yillarda, ayniqsa, kognitiv fanlar, sun’iy intellekt, biologik modellashtirish va fizik nazariyalar doirasida chuqur o‘rganilmoqda. Bu holat metaforaning faqat estetik yoki stilistik emas, balki ilmiy bilish jarayonidagi konseptual rolini tasdiqlaydi.

Metafora ilmiy model yaratishda konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, biologiyada “genetik kod” atamasi tilshunoslikdagi “kod” tushunchasidan olingan bo‘lib, bu metafora DNKdagi ma’lumot uzatish mexanizmini aniqroq tasavvur qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, “hujayra fabrikasi”, “energiya stansiyasi” yoki “ma’lumot bazasi” kabi metaforalar murakkab biologik va informatsion tizimlarni intuitiv tarzda tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi.

Fizika fanida ham bunday modellashtirish keng qo‘llaniladi. Masalan, kvant maydon nazariyasida “vakum fluktuatsiyalari” kabi tushunchalar, ko‘pincha “chang‘ib turgan vakuum” yoki “portlayotgan imkoniyatlar” kabi tasviriy ifodalar bilan metaforik ravishda ifodalanadi. Bu esa fundamental ilmiy tushunchalarni sezgi orqali anglashda samarali kognitiv ko‘prik yaratadi.

Bundan tashqari, informatika va sun’iy intellekt sohasida ishlatiladigan “sun’iy ong”, “o‘rganuvchi mashina”, “aqlli tizimlar” kabi atamalar ham kuchli metaforik asosga ega bo‘lib, inson tafakkurining texnologik modellar orqali ifodalanishini ta’minlaydi. Bu metaforalar kompyuter texnologiyalarining inson miyasi bilan qiyoslanishiga sabab bo‘lib, ilg‘or neyrohisoblash modellari yaratishda konseptual poydevor bo‘ladi.

Kognitiv tilshunoslikda Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan “kontseptual metafora nazariyasi” metaforaning fikrlash jarayonidagi markaziy rolini asoslab berdi. Ularning fikricha, insonlar dunyoni ko‘pincha tanqidiy yoki empirik tahlildan ko‘ra, mavjud konseptual metaforalar asosida anglaydi. Masalan, “ilm-fan bu sayohat”, “g‘oya bu ob’yekt” kabi konseptual tuzilmalar ilmiy diskursni yanada tushunarli va mazmunli qiladi.

Shunday qilib, metaforalar ilmiy diskursda nafaqat ma’lumotlarni taqdim etishda, balki o‘quvchilarga murakkab g‘oyalarni anglash va tushunishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalashga imkon berib, ilmiy tushunchalarning kognitiv qamrovini kengaytiradi. Metaforik ifodalar ilmiy matnlarni yanada jonli va tushunarli qiladi, shu bilan birga, yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Ayniqsa, fan va texnika sohalarida murakkab mexanizmlar va nazariyalarni oddiy tilda izohlashda metaforalarning roli beqiyosdir. Ularning sistematik qo‘llanilishi nafaqat ilmiy tafakkurni boyitadi, balki ilmiy tilning dinamizmini va ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli, metaforalarni ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiruvchi lingvistik vosita sifatida o‘rganish va ularni ongli ravishda qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Watson, J. D., & Crick, F. H. C. Molecular Structure of Nucleic Acids: A Structure for Deoxyribose Nucleic Acid. Nature, 1953: 171(4356), 737–738.

2.Feynman, R. P. Qiziqarli fizika. Moskva: Mir nashriyoti. (original: The Feynman Lectures on Physics)-1985.

3.Gentner, D., & Jeziorski, M. The shift from metaphor to analogy in Western science. In A- 1983.

4.Kuhn, T. S. The Structure of Scientific Revolutions. Chicago: University of Chicago Press.-1962.

5.Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. 1980.

UO’K 81-13

“NAHJ-UL-FARODIS” HAMDA ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI SHAYX SANON QISSASINING QIYOSIY TAHLILI

Z.U.Sulaymanov, katta o‘qituvchi, PhD, O‘zbekiston Milliy unversiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Mahmud Alining "Nahj-ul-farodis" asari hamda unda keltirilgan hikoyatlar mazmuniy va kompozitsion jihatdan tahlilga tortilgan hamda Alisher Navoiyning “Mantiq ut-tayr” asarida keltirilgan Shayx Sanon hikoyatlari qiyosiy tahlilga tortildi. Keltirilgan hikoyatlarning badiiy xususiyatlari ochib berilgan. Asardagi hikoyatlarga umumiy baho berilgan, birinchidan, tarixiylik tamoyili mazkur asardagi hikoyatlarda aniq ko‘zga tashlanishi, ikkinchidan, didaktik mazmun asosiy o‘rinda turishi, uchunchidan, hikoyatlarning tuzulishidagi va bayon usulidagi soddalik va har bir qismining aniq ifodasi Oltin O‘rda o‘zbek adabiyotidagi hikoyat*

janrining asosiy belgilaridan biri ekanligi o'rganilgan. Shuningdek, hikoyat janrining keyingi davr adabiyotiga ta'siri masalasi o'rganildi.

Kalit so'zlar: *Diniy-didaktik asar, hikoyat, hadis, syujet, kompozitsiya, agiografik asar*

Аннотация. *В статье с точки зрения содержания и композиции проанализировано произведение Махмуда Али «Нахдж-уль-Фародис» и содержащиеся в нем рассказы, а сопоставительному анализу подвергнуты рассказы шейха Санона, вошедшие в «Мантик ут-тайр» Алишера Навои. Раскрываются художественные особенности цитируемых рассказов. Рассказам в произведении дана общая оценка, во-первых, в рассказах данного произведения отчетливо просматривается принцип историчности, во-вторых, на главном месте стоит дидактическое содержание, в-третьих, простота структуры и метода повествования, ясность выражения каждой части изучаются как одна из основных особенностей повествовательного жанра в узбекской литературе Золотой Орды. Также изучалось влияние повествовательного жанра на литературу следующего периода.*

Ключевые слова: *Религиозно-дидактическое произведение, рассказ, хадис, сюжет, композиция, житийное произведение.*

Abstract. *In the article, Mahmud Ali's work "Nahj-ul-farodis" and the stories contained in it were analyzed from the point of view of content and composition, and the stories of Shaykh Sanon, which were included in Alisher Navoi's "Mantiq ut-tayr", were subjected to a comparative analysis. The artistic features of the cited stories are revealed. The stories in the work are given a general assessment, firstly, the principle of historicity is clearly visible in the stories in this work, secondly, the didactic content is in the main place, and thirdly, the simplicity of the structure and narration method of the stories and the clear expression of each part are studied as one of the main features of the narrative genre in the Uzbek literature of the Golden Horde. Also, the influence of the narrative genre on the literature of the next period was studied.*

Keywords: *Religious-didactic work, story, hadith, plot, composition, hagiographic work.*

Bilim avvalgilarni o'rganish va tafakkur natijasida paydo bo'ladi. Bugungi zamonaviy adabiyot ham mumtoz adabiyotning sarchashmalaridan vujudga kelgan, sayqallangan. Faqat bu ilmiy rivojlanish har bir davrda turli sabablarga ko'ra har xil o'sishda bo'lgan. "Sharq mumtoz adabiyotida pand-nasixat, o'git, ta'lim-tarbiya ruhida didaktik asarlar yozish an'anasi XI asrda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari bilan boshlandi. Keyinroq sharqda Ahmad Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" (XII-XIII), Kaykavusning "Qobusnoma" (XII-XIV), Shayx Sa'diyning "Guluston" (XIII) asarlari aql va hikmat darsligining davomi sifatida paydo bo'ldi" [Тожибоева, 2017: 172]. Sharq adabiyotida bu yo'nalishda asar yozish aslini olib qaraganda oldindan xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan. Ular turli didaktik mavzularni o'z ichiga qamrob olgan, xususan, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik kabi umumiy g'oya asosida turli tuman asarlar yaratilgan, o'z o'rnida bu asarlar turli janrlar orqali ifodalangan. O'rta asrlarda nasriy janrda asarlar yozishda bir muncha yutuqlar ko'zga tashlandi, sababi bu janrda ijod qilish oddiy xalq uchun tushinarli va o'ylangan fikrni ifodalash osonligida edi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim N. Jabborovning fikrlari o'rinli: "Ma'lumki, muayyan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikr bayonidan so'ng unga mos hikoyat keltirish uslubi Sharq adabiyotining xos xususiyatlardandir. Sa'diyning "Guluston", Jomiyning "Bahoriston" asarlari xuddi shu uslubda yozilgan" [Жабборов, 2004: 179]. Nafaqat bu asarlar XIV asrda Oltin O'rda hududida turkiy tilda yaratilgan Mahmud Ali Kardariyning "Nahjul farodis" (Jannatlarning ochiq eshiklari) asari ham shu uslubda yozilgan hikoyatlardan iborat. Shu mavzudagi hikoyatlar keyingi davr adabiyotida Alisher Navoiy ijodida ham uchraydi.

Asarning dunyoga mashhur eng eski nusxasi – Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining "Yangi Jami" bo'limining 879-raqamida saqlanadigan qo'lyozma nusxasidir. Bu qo'lyozmaning boshqa nusxalaridan farqi – birinchidan, ko'chirilish tarixi asar muallifi hali hayot vaqtida amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchidan, to'liq nusxada saqlanib qolgan (Bu nusxa 34×25 sm. bichimda, har bir varoq 17 qatordan iborat bo'lib 222 varaq, ya'ni 444 betni tashkil qiladi). Quyuq qora siyoh bilan yozilgan, ayrim joylariga qizil rang bilan belgilangan bu nusxa muallif tarafidan yozilmagan bo'lsa ham, uning tirikligida ko'chirilgan. Nasx san'ati yozuvi bilan ko'chirilgan qo'lyozmaning so'ngida

kotib (ko‘chiruvchi): “Bu kitob tarix yetti yuz oltmish birda, Ollohning muqaddas oyi – Jumadul-ula (Jumadul avval) oyining oltinchi kuni (bizning yil hisobi bo‘yicha 1360-yil) yakunlandi. Va bu kitobning muallifi yakshanba kuni o‘tkinchi dunyodan mangulik dunyosiga otlandi”, – deb, asar muallifining ikki-uch kundan so‘ng dunyodan o‘tganligi haqida yozib qoldirgan. Bu qo‘lyozma asosida turkshunos olim Y.Ekman Istanbul nusxasini Turkiyada 1956-yili tayyorladi. Shundan keyin yana bir necha marta nashr qilindi. Bu nusxa asosida keyingi nashrlaridan birini tayyorlagan Semi Tezjan kirish so‘zida quyidagicha ta’kidlaydi: “Janosh Ekman “Nahj ul-farodis”ning “Yani jami” nusxasining turkbosmasini tayyorlab, nashr ettirganda (1956) kirish so‘zida asarning ikkinchi jildini transkripsiyasi bilan tayyorlayotgani haqida xabar beradi. Tarjimon qoralamaga yozgan matniga ko‘ra bu ish 1960-yilda boshlanib, 1964-yilning 15-mayida tugallangan. Uning 1971-yilda vafotidan keyin, Parij nusxasidagi ba’zi farqlarni ko‘rib chiqish va boshlang‘ich bir qismini qayta ishlashdan tashqari bu ish bilan shug‘ullanish uchun imkoniyat topa olmaganga o‘xshaydi. Ekmandan bir yil o‘tib “Nahj ul-farodis” ustida ishlagan va matnining bir qismini 1969-1971-yillarda ba’zi matnlarini nashr etgan Ali Fehmi Karamao‘gli ham vafot etadi” [Nehcül feradıs, 1995]. Bundan ko‘rinib turibdiki, asarning bizga ma’lum bo‘lmagan yana bir nechta nusxasi mavjud.

Shu bilan birga 1928-yilda Qrimda 1390-yilda Muhammad o‘g‘li Qosim tomonidan ko‘chirilgan yana bir nusxa topilgan. Bu nusxa haqida Yalta shahri muzeyida ishlagan Y.Kamol ma’lumot beradi. Lekin asar to‘liq emas, 549 betli qo‘lyozmaning ayrim qismlari yo‘qolgan.

“Nahj ul-farodis” to‘rt bobdan va har bir bob o‘nta fasldan – jami qirq fasldan iborat. Bu asar “qirq hadis” (chihl hadis)ni sharhlagan va har bir hadisga oid hikoyatlar bilan bezalgan asardir. Bu asar “Qisas ul-anbiyo” turkumiga mansub bo‘lsa ham, payg‘ambarlar tarixi bayonida afsonalar emas, balki tarixiy voqealar, rivoyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Agar “Nahj ul-farodis”ni janr nuqtayi nazaridan belgilash talab etilsa, bu asar bir necha janrlarni – tarixiy voqealar hikoyat, rivoyatlar zaminida berilganini nazarda tutgan holda, didaktik yo‘nalishdagi agiografik janrga mansub deb qarash mumkin. Zotan, hadislarni keng sharhlash asosida yuzaga kelgan hikoyat va rivoyatlarning har biri ma’lum bir g‘oyani – to‘g‘rilik, halollik, rahm-shafqat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Insoniyatni ma’rifatga chorlash, komillik sari da’vat qilish kabi fazilatlarni Mahmud Ali har bir bobda ilgari suradi.

Hikoyat - musulmon Sharqi adabiyotidagi o‘ziga xos bir adabiy hodisa. U voqeabandlikka asoslanadi. Yani hikoyat deyildimi, u epik harakterga ega bo‘lishi shart. Hikoyat ko‘hna adabiy janrlardan biri bo‘lib, qahramonning hayotidagi bitta yoki bir necha voqea tasvirlanadi. Ba’zan bu janrda hikoyachi obrazi ham ishtirok etadi. Mumtoz adabiyotdagi hikoyatga nisbatan hajman katta bo‘lib, kompozitsion jihatdan voqealarning kengaytirilgan shakli, voqealar bayoni ham davomli bo‘ladi, syujetning barcha qismlari amal qiladi.

“Nahj-ul-farodis” asaridagi hikoyatlar kompozitsiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, epik asarlarda uchraydigan voqeabandlik sodda ko‘rinishda tasvirlanadi, ortiqchalikka yo‘l qo‘yilmaydi. Ya’ni hikoyatlarda kompozitsiyaning ayrim turlari: asar sarlavhasi, epigraf, qistirma epizod, detallar vositasida qurilgan obrazlar (uy-joy, jihoz, buyumlar tasviri), peyzaj va portret tasvirlari deyarli uchramaydi. Asosan, bu janrning kirish qismida kichik tavsif beriladi: “*Bag‘dod elinda bir mu’azzin bor edi Solih otlig‘. Qirq yil mu’azzinlik qildi. Masjidka yaqin bir Nasroniyning ayoli bor edi, ingen sohibjamol erdi. Bu mu’azzin qachon kim azon o‘qimoq uchun minorag‘a minar bo‘lsa, boqar erdi. Bu ishni mudovamat qilu oshiq bo‘ldi…* ”[Nehcül feradıs, 1995: 253]. Shundan so‘ng rivoya keltiriladi: “*… ol miqdor bo‘ldi kim hech sabru qarori qolmadi, yana bir kun minorada taqi azon o‘qidi taqi bu ayol uchakda erdi. Munga o‘kush nazar qilmish erdi. Ishqi g‘alaba qildi taqi minoradin tushib aning uchakinga bordi taqi nasroni qizing‘a mu’oniqa qilayin tedi ersa, ul qiz qochib tushti taqi otasing‘a xabar berdi ersa, tuttilar taqi mu’azzinga aydilar:…”* [Nehcül feradıs, 1995: 253]. Hikoyat davomida kompozitsiyaning yana bir elementi dialog boshlanadi: “*Sen musulmonlar mu’azzini bo‘lg‘aysan, munung teg fohish ishka qasd qilg‘aysan. Men seni hali musulmonlar qozising‘a eltayin taqi adab qildirayin, teb tavzi’ va tahdid qildi ersa, mu’azzin aydi: men sening qizingqa oshiq bo‘lup tururmen, kerak kim bu qizingni manga juftlandursang, tedi ersa, ul nasroni aydi: Bu qizimni sanga juftlandurayin, qachon kim men qilg‘on ishlarni qilsang: yo menim dinimka kirsang yo taqi to‘nguz eti yesang yo taqi xamr ichsang, tedi ersa, bu mu’azzin aydi: Sening diningka*

kirmak muhol bo'lg'ay, taqi to'nguz etini yemak ham ingan yomon ish turur, valekin xamr ichayin, tedi ersa,…" [Nehcül feradıs, 1995: 253]. Shu tariqa hikoyatdagi dialog yakunlanadi va yana rivoya boshlanadi: "*… bordilar taqi xamr keltirdilar taqi ul qizg'a bordilar. Ul qiz soqi bo'lup mu'azzinga xamr ichurdi. Qachon kim mu'azzin xamr ichdi ersa, ashrudi. Ondin so'ng ishtahosi bo'ldi ersa, to'nguz etini keldurdilar, ani taqi tanovul qildi"* [Nehcül feradıs, 1995: 253]. Rivoyadan so'ng yana dialog ketadi: *"Ondin so'ng qiz otasi aydi kim: Emdi agar menim dinimga kirmasang, sanga bu qizimni bermasmen, tedi, kerak kimNasroni bo'lsang, tedi ersa, qizdin i'roz qilu bilmadi, aydi: Halo nasroni bo'lsang, tedi ersa, otasi taqi qizini anga berdi"* [Nehcül feradıs, 1995: 253]. Keyin muallif nutqi: *"Taqi ekaguni xilvat qo'ydilar"*. Yana dialog: *"Mu'azzin aydi kim: Uchakka minayin taqi iroqat qilayin, andin so'ng xilvat qilayin, tep uchakka minip tusharinda taqi to'pan yiqildi taqi halok bo'ldi maqsuding'a tegmadin o'ldi. Xamr sababidin imonini uchg'undi taqi abadi tamug'lig'bo'ldi. Yo Rabbi, jumla mu'minlarni karaming birla muning teg holdin sen saqlag'il"* [Nehcül feradıs, 1995: 253]. Shu bilan hikoyat yakunlanadi. Keltirilgan hikoyat "Nahj ul-farodis"asarining to'rtinchi bobidagi uchinchi fasl: "Xamr ichmaklarining bayoni ichinda turur" deb nomlangan fasldan olingan bo'lib, bu faslning mazmun-mohiyatini ya'ni xamr ichmoqlik qanchalik gunoh ish ekanligi va bu ish boshqa gunohlarga ham sababchi bo'lishini ta'kidlab ko'rsatib bermoqda.

Asardagi barcha hikoyatlarda kompozitsiyaning vositalaridan faqatgina shular ishtirok etadi, faqat bularning o'rni almashinishi mumkin. Shuningdek, badiiy asarda kompozitsiya bilan asar syujeti uzviy bog'liq, ya'ni syujet kompozitsiyaning unsuri hisoblanadi. Shunday ekan syujetning tarkibiy qismlari: ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim ham hikoyatlar tarkibida mavjud bo'ladi. Yuqoridagi hikoyatda keltirilgan birinchi tavsif ekspozitsiyaga to'g'ri keladi. Keyin mu'azzinning nasroniyning qizini sevib qolishi tugun hisoblanadi. Hikoyatdagi mu'azzin va nasroniy o'rtasidagi dialog voqealar rivoji bo'lsa, mu'azzinning xamr ichishga rozi bo'lishi hikoyatning kulminatsiyasi hisoblanadi. Shuningdek, hikoyatlarning o'ziga xos xususiyati hikoyat so'ngida muallif nutqi orqali hikoyatga umumiy xulosa beriladi.

"Mu'azzin va nasroniy qiz" haqidagi hikoyatni o'qigan kishining xotirasiga bevosita Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi Shayx San'on hikoyati yodga tushadi. Bu hikoyat, dastlab, Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida keltirilgan. Hikoyatning ikkala asardagi syujeti deyarli bir xil: Shayx San'on ismli bir karomatgo'y shayx Rum mamlakatida butxona ichida mast holda sayr qilib yurganligini tushida ko'radi. Tushning ta'birini bilish uchun Rumga yo'l oladi va u yerda butxonada bir nasroniy tarso qizga ko'zi tushadi va sevib qoladi. Shogirdlarining qarshiligiga va ovitishiga qaramasdan din-u iymonini uning yo'lida qurbon qilib, Qur'onni olovda yondiradi, beliga zunnor bog'laydi va cho'chqaboqarlik qiladi. Oxirida sadoqatli muridlari ko'magida hushyor tortadi, oldingi e'tiqodiga qaytadi va yurtiga yo'l oladi. Tarso qizning ham tushiga Iso alayhissalom kiradi: "Shayx San'ondek buyuk murshid sening huzuringga mehmon bo'lib kelsa-yu, sen mezbonlik odatini bilmasdan, uning boshiga ne kunlarni solding?! Endi vaqtni g'animat bilib, uning ortidan bor, diniga musharraf bo'l", – degan xabar keladi. Tarso qiz Kaba tomon yo'lga tushadi, yo'lda xastalikka duchor bo'ladi. Shayx buni sezib orqaga qaytadi, tarso qiz shayxning qo'lida islom dinini qabul qiladi hamda vafot etadi. Ko'rib turganimizdek, bu asardan bir asr oldin yaratilgan, yuqorida keltirilgan "Nahj ul-farodis" asaridagi "Mu'azzin va nasroniy qiz" hikoyatidagi syujet va detallar bir-biriga o'xshash. Masalan:

a) ikkala obraz (mu'azzin va Shayx San'on) ham nasroniy qizni bir ko'rishda ishqqa duchor bo'lishi;

b) din-u iymonini uning yo'lida qurbon qilishi;

c) ikkalasi ham muhabbatiga erisha olmagani.

Shuningdek, oshiqlar uchun qo'yilgan shartlar ham juda o'xshash: Mu'azzinga qo'yilgan shartlar:

– dinidan vos kechish va nasroniylikni qabul qilish;

– cho'chqa go'shtini iste'mol qilish;

– xamr (may) ichish.

Shayx San'onga berilgan shartlar:

– may ichmoq;

– zunnor bog‘lamoq;
– Qur’onni o‘tda kuydirmoq;
– butparastlar diniga kirmoq.

Ko‘rib turganimizdek, obraz va detallardagi o‘xshashliklar bu kabi hikoyatlar xalq orasida mashhur bo‘lgani, sayyor syujet asosida boshqa asarlarga ko‘chib yurganini anglatadi. Tojik olimi Y.Salimovning yozishicha: “Shayx Sa’non haqidagi afsonalar Sharq xalqlari orasida ancha qadimdan ma’lum va mashhur. U haqidagi turli afsonalar har turli xalq kitoblari va majmualari tarkibidan o‘rin olgan” [Салимов, 1964: 21]. Shayx Sa’non haqidagi qissalar bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan F.Isomiddinov “Ushbu qissa xalq orasida mashhur. Sharq shoirlari ijodida Shayx San’onga bag‘ishlab aytilgan she’r, bayt va dostonlarni ko‘plab keltirish mumkin” [Иссомиддинов, 2001: 15] – deya ta’kidlab Hofiz Sheroziy, Muhyinning Shayx San’onga ishora qilib yozgan baytlaridan namunalar keltiradi. Demak, “Mu’azzin va nasroniy qiz” hikoyati Shayx San’on haqidagi qissalarning bir ko‘rinishi bo‘lishi mumkin, agar shayxni tarixiy IX-XII asrlarda yashagan shaxs deb olsak. Zero Alisher Navoiy ham “Lison ut-tayr” asarining oxirida Shayx San’on haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “Shayx San’on (ibn Saqqo) IX-XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs bo‘lib, uning otashin sevgisi haqida qissa Sharq mamlakatlarida mashhurdir. Badiiy adabiyotda bu qissani birinchi bo‘lib Farididdin Attorning 1221-yilda yozilgan “Mantiqut-tayr” asarida nazmda uchratamiz” [Навоий, 1991: 322]. Xulosa qiladigan bo‘lsak, Mahmud Ali Kardariy xalq og‘zaki ijodi hamda yozma manbalar bilan yaxshi tanish bo‘lgan va ular asosida hikoyatni qayta ishlagan deyishimiz mumkin. Shuni unutmasligimiz kerakki, Shayx San’on haqidagi hikoyatlar to‘la-to‘kis tasavvufiy yo‘sinda yozilgan bo‘lsa, Kardariy hikoyatni ortiqcha mazmun-mohiyat bilan boyitmaydi va o‘z ma’nosini beradi. Buning sababi yuqorida ta’kidlaganimizdek, asar oddiy xalq uchun tushunarli bo‘lishi kerak edi.

Asarda keltirilgan deyarli barcha hikoyatlar xronikali syujet tipiga mansub. Sababi hikoyatlar ma’lum bir zamonda (bu vaqt *“... atlig‘ kimarsa bor edi”,* “*Bag‘dod elinda bir mu’azzin bor edi*” kabi so‘zlar bilan ko‘rsatiladi.) va makonda voqealar ketma-ketligi asosida sodir bo‘ladi. Xuddi xalq og‘zaki ijodidagi ertaklar va dostonlarga o‘xshab sabab-natija oqibatida bir voqea boshqa birining yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Masalan: *“Mutrif otlig‘ kimarsa bor erdi, obid va zohid erdi. Muhlib otlig‘ xalifani ko‘rdi kim kuvani yo‘riyur. Mutrif aydi: Yo Muhlib, bu yurushni Haq taolo yigranur. Muning teg kuvani yo‘rumagil, qul teg maskanat birla yo‘rigul, tedi ersa, Muhlib aydi: Yo Mutrif, sen meni bilmazmusen kim men kim tururmen? Manga neteg mundag‘ so‘z so‘zlayursen? tedi ersa, Mutrif aydi: Yaxshi bilurmen, avvaling bir pora murdor suv erdi taqi oxiring ham murdor o‘lugsa bo‘lg‘ay. Orada bir pora najosatni ko‘trup yuriyursan, tedi ersa, Muhlib uftandi taqi ol yurimakni qo‘ydi”* [Nehcül feradıs, 1995: 253]. Demak, ko‘rib turganimizdek hikoyatda voqealar rivoji personajlar (Mutrif va Muhlib) nutqining ketma-ketligida sodir bo‘ladi. Harakatlar dinamikasini faqat personajlar nutqining o‘sishida ko‘rinadi. Asardagi boshqa hikoyatlarda ham shu tartib amal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek mumtoz adabiyotida adabiy vorisiylik, an’anaviylik dastlabki davrlardan mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, hikoyat janri va uning syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar poetikasi borasidagi izlanishlar o‘zbek adabiyoti tarixida bu janrning rivoji uchun xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Тожибоева М. А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 172.

2. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 179.

3. Nehcül feradıs. I Metin. Tıpkıbasım ve çevriyası: Janos Eckmann. Yayınlayanlar: Semih Tezcan, Hamza Zülfikar. – Ankara: Semih Ofset Matbaacilik Ltd, 1995. – S. 253.

4. Салимов Ю. Становление жанра сказочной прозы в персидско-таджикской литературе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1964. – С.21.

5. Иссомиддинов Ф. Шайх Санъон ҳақидаги қиссаларнинг қиёсий таҳлили: Филол. фанл. номз… дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 15

6. Алишер Навоий. Лисонут-тайр / Нашрга тайёрловчи: Ш.Эшонхўжаев., Сўзбоши муаллифи, изоҳ ва луғатлар тузувчи: В.Раҳмонов. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 322.

UDC 81-13

EFFECTIVE STRATEGIES FOR TEACHING ADULT LANGUAGE LEARNERS: EXPLORE VARIOUS METHODOLOGIES AND APPROACHES

B.D.Sultanova, teacher assistant, Tashkent State University of Econimics, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola voyaga yetganlar uchun chet tilini o'qitish bo'yicha samarali strategiyalarni zamonaviy metodlar va pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Katta yoshdagi o'rganuvchilarning kognitiv, emotsional va motivatsion xususiyatlari ularni yosh o'rganuvchilardan farqlab turadi. Tadqiqotda kommunikativ til o'qitish (CLT), topshiriqqa asoslangan o'rganish (TBL), mazmun asosidagi ta'lim (CBI) va kattalar ta'limiga moslashtirilgan texnologik vositalardan foydalanish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kattalar uchun til o'rganish, o'qitish strategiyalari, kommunikativ yondashuv, topshiriqqa asoslangan o'rganish, o'rganuvchi mustaqilligi, til o'rganishda texnologiya.*

Аннотация. *Данная статья посвящена эффективным стратегиям обучения взрослых, изучающих иностранные языки, путем анализа современных методик и педагогических подходов. Взрослые учащиеся обладают особыми когнитивными, эмоциональными и мотивационными характеристиками, которые отличают их от младших учащихся. В исследовании рассматриваются коммуникативное обучение языку (CLT), обучение на основе заданий (TBL), предметно-ориентированное обучение (CBI), а также использование технологий, адаптированных для нужд взрослого образования.*

Ключевые слова: *изучение языка взрослыми, стратегии преподавания, коммуникативный подход, обучение на основе заданий, автономия обучающегося, технологии в изучении языков.*

Abstract. *This paper explores effective strategies for teaching adult language learners by analyzing a range of modern methodologies and pedagogical approaches. Adult learners often have unique cognitive, emotional, and motivational characteristics that distinguish them from younger learners. The study discusses communicative language teaching (CLT), task-based learning (TBL), content-based instruction (CBI), and the use of technology-enhanced learning tools tailored for adult education.*

Keywords: *adult language learning, teaching strategies, communicative approach, task-based learning, learner autonomy, technology in language learning.*

The process of globalization affects the learning of foreign languages, which is an integral part of personal and professional development. Knowledge of a foreign language is becoming one of the most sought-after skills and competencies necessary for success in the 21st century. Also, knowledge of a foreign language/languages expands the scope of employment, professional and personal connections, increases self-esteem, competitiveness, mobility, broadens horizons, allows access to new ideas and research, moves up the career ladder, opens up new opportunities for further professional and personal development.

Language acquisition is a complex cognitive and social process, especially for adult learners. Unlike children, adults bring with them a wealth of life experiences, established cognitive structures, and often more defined motivations. These characteristics shape their approach to language learning and require educators to adopt appropriate, flexible, and learner-centered strategies. This article explores the most effective teaching methodologies for adult language learners, focusing on how modern approaches such as Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Learning (TBL), Content-Based Instruction (CBI), and technology-enhanced learning can support and motivate adult learners.

Core Strategies and Methodologies:

1. Communicative Language Teaching (CLT). CLT emphasizes real-life communication and fluency over grammar drills and rote memorization. In adult education, this approach is highly effective because it encourages practical language use and builds learners' confidence in everyday

interactions. Adults often appreciate the relevance of real-world tasks, such as role-plays involving job interviews, medical appointments, or social dialogues.

2. Task-Based Learning (TBL). TBL focuses on the completion of meaningful tasks using the target language. Rather than teaching isolated grammar rules, instructors assign projects like planning a trip, writing a letter, or solving a problem collaboratively. This method allows adult learners to apply their existing knowledge and personal experience while acquiring new vocabulary and structures through context.

3. Content-Based Instruction (CBI). CBI integrates language learning with subject matter instruction. For adults, especially professionals or immigrants, this method helps make language acquisition relevant to their careers or daily lives. For example, a business English course might include case studies or workplace communication strategies, thus making the content directly applicable.

4. Learner Autonomy and Motivation. Adults are typically more self-directed than children and benefit from goal-oriented instruction. Encouraging autonomy—through self-assessment tools, personalized learning paths, and reflection activities—helps maintain motivation. Providing learners with choices and involving them in curriculum planning can enhance their investment in learning outcomes.

5. Integration of Technology. Digital tools such as mobile apps, online platforms, and language learning software (e.g., Duolingo, Babbel, Quizlet, Kahoot) support flexible, interactive, and personalized learning. For adults with tight schedules, asynchronous resources like recorded lectures or discussion forums allow for accessible education at their own pace. Virtual reality (VR) and AI-based conversation simulators are also becoming more common in adult language education.

The most successful adult language programs combine multiple strategies to cater to learners' diverse needs. For example, a blended approach using CLT for classroom interactions, TBL for assignments, and online tools for independent practice creates a balanced environment. Motivation remains a key factor; adult learners are more engaged when content is practical, purposeful, and aligned with their personal or professional goals. Moreover, instructors must be culturally sensitive, as adult classrooms are often diverse. A flexible methodology that accommodates different learning styles, linguistic backgrounds, and educational histories is essential. Effective feedback, peer collaboration, and continuous progress tracking also contribute to long-term success. If students receive guidance on language learning strategies, they will understand and consciously apply:

a) strategies that they have previously used unconsciously;

b) new strategies that they have never used before. Conscious use of strategies in daily foreign language learning can help make theoretical knowledge practical, and students will understand the need to use and master new strategies, while continuing to use previous ones automatically, which will undoubtedly lead to improved language learning outcomes.

Most scientists claim that any strategy for studying a foreign language has metacognitive components, with the help of which students consciously and purposefully apply, analyze, plan a task and control and evaluate the learning process itself; observe your own speech and the speech of others; be prepared to live with some degree of uncertainty (vagueness); to act explicitly (the use of strategies is conscious and the student must know what he is doing); have the potential to learn.

It should also be noted that there are several important characteristic properties of strategies:

1) First of all, it is awareness when choosing strategies. Beginners will usually use them purposefully, as needed. Increasing the experience, the application of strategies will become automatic.

2) Strategies are selected; students should have in their arsenal a set of strategies from which they will choose the most suitable one for solving a particular problem.;

3) Strategies are always goal-oriented, which distinguishes them from skills.;

4) Strategies focus on the learning process itself.

Foreign language learning strategies reflect a holistic, multi-faceted learner, not just his cognitive and metacognitive characteristics, so strategies can and should be used in different contexts and to achieve different goals. The peculiarity of strategies, their properties (consciousness,

purposefulness, etc.) lead to students understanding how best to teach / learn and take responsibility for their learning, which, according to scientists, will lead to the fact that a person will continue to learn throughout life (life-long learning).

Conclusion. Teaching adult language learners requires a nuanced understanding of their cognitive, emotional, and practical needs. A combination of communicative, task-based, and content-focused strategies—enhanced by technology and informed by learner autonomy—offers a robust framework for language acquisition. Continued research and innovation in adult pedagogy will further strengthen outcomes in diverse learning contexts. Each method and strategy of learning a foreign language has its own characteristics, advantages and disadvantages. To achieve the best results, it is recommended to combine several approaches, depending on the goals, the level of language proficiency and the individual preferences of the student. Using the communicative method in combination with grammar, immersion in the language environment and digital technologies can significantly speed up the learning process and make it more effective and interesting.

REFERENCES:

1. Davronovna S. B. Importance of innovative teaching methods in teaching english //Research Focus. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 85-87.

2. Davronovna S. B. Engaging learners in real life communication. intonation patterns in questions vs. statements; stress on content words //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – T. 5. – №. 6. – C. 434-436.

3. Griffiths, C. (2015). What we have learnt from 'good language learners'// ELT Journal. 69 (4). Pp. 425-433. (In English)

UO'K 808.3

KOGNITIV LIGVISTIKDA ASSOSIATIV MAYDON

G.M. Sultonova, o'qituvchi, tadqiqotchi, YOU NINE til o'qitish maktabi, Toshkent

Annotatsiya. *Kognitiv lingvistika inson ongi va tili, nutqi o'rtasidagi umumiy boq'liqlik borligini va ularning bir-biri bilan chambarchas xolatda rivojlanishi, uning mahsuli ekanligini tan oladi. Shu bilan birga kognitologiya o'ziga qolgan barcha sohalar kesimida markaziy o'ringa qo'yiladi va uning dolzarbligi tadqiqot obyekti sifatida olib borilayotgan izlanishlarda yaqqol ko'rinadi.*

Assosiatsialar psixolingvistik tadqiqotlarning markaziy masalalari bo'lib, u konseptsiyalar yoki umumlashtirganda kognitiv lingvistika sohasini o'rganishda va ochib berishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Assosiativ maydon bu- ma'lum bir individning, etnosning dunyoqarashi, qarashlari fragmenti bo'lib, motivlarni va baholarini ko'rsatadi, shu bilan birga steriotiplarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *kognitiv lingvistika, assosiativ maydon, mental tasvir.*

Аннотация. *Когнитивная лингвистика признаёт существование глубокой взаимосвязи между сознанием человека, его речью и языком, а также рассматривает язык как результат их совместного развития. В этом контексте когнитология занимает центральное место в междисциплинарных исследованиях, и её актуальность особенно проявляется в современных научных изысканиях. Ассоциации являются одной из ключевых тем психолингвистических исследований, поскольку играют важную роль в изучении понятий (концептов) и, в более широком смысле, в раскрытии особенностей когнитивной лингвистики. Ассоциативное поле представляет собой фрагмент мировоззрения конкретного индивида или этноса, отражающий его мотивы, оценки и стереотипы. Оно позволяет проследить, как человек воспринимает и интерпретирует языковые единицы, а также служит ценным инструментом в когнитивных исследованиях языка.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, ассоциативное поле, ментальный образ.*

Abstract. *Cognitive linguistics recognizes the deep interconnection between human consciousness, language, and speech. It views language not merely as a means of communication, but as a product of cognitive activity reflecting how individuals perceive and conceptualize the world. Therefore, cognitive science occupies a central position in interdisciplinary research, and its relevance is clearly evident in ongoing studies. Associations are central to psycholinguistic research and play a crucial role in exploring concepts and, more broadly, in revealing the mechanisms of*

cognitive linguistics. An associative field represents a fragment of an individual's or an ethnic group's worldview encompassing their values, judgments, and stereotypes. It provides insight into how language units are perceived and understood, making it a valuable tool in cognitive linguistic analysis.

Key words: *cognitive linguistics, associative field, mental imagery.*

KIRISH. Maydon so 'ziga urg'u bersak, u 3 ta qismdan:yadro, markaz, va pereferiyadan tashkil topgan bo'lib, assosiativ maydon deyilganda unga aloqador, tutash, yondosh informatsiyalar, fikrlar kabi ma'nolar tushuniladi. Rus tilshunosi K. A. Burnayeva: "Assosiaviy eksperimentlarning asosiy maqsadi- xotira, lig'at zahirasi, nutqning vujudga kelishi ba qabul qilinishi, shuningdek, turli til egalarining til ongidagi milliy-madaniy xususiyatlarni o'rganishdir", deb ta'riflaydi. Til ongini tadqiq qilishda assosiatsiyalar juda ham samarali bositalardan biri bo'lib, ular orqali juda ko'p malumotlarga erishish mumkin. Bundan tashqari, assosiatsiyalar yordamida biz turli madaniyatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni kashf qilishimiz va o'rganishimiz mumkin bo'ladi. Burnayevaning nazariyasiga ko'ra, assosiativ maydon o'zining komponentlariga ega bo'lib, ular yadro, markaz va periferiyadir. Ular o'z navbatida ierarxik, paradigmatik va sintagmatik singari kichik kategoriyalarni o'z tarkidiga birlashtiradi. Eng k'op uchraydigan assosiatsiyalar yadroda joylashgan bo'lib, ular asos sifatida qqbul qilinadi, biroq periferiya singari kam uchraydigan assosiatsiyalarni nazardan chetda qoldirish mumkin emas, chunki ular yadroga yo'naltiruvchi vazifani bajaradi. Burieva assosiatsiyalarni tahlilga solishda informantlarning soniga bog'liqligini aytadi: "tadqiqot konseptosfera doirasida amalga oshirildi, yakka shaxsning assosiatsiyalari individning konseptosfera doirasida bo'ladi. Demak, bir shaxsning assosiativ maydoni o'sha shaxsning o'ziga tegishli ma'lumotlar bazasi tahlil qilinadi va hususiyatlari o'rganiladi. Ong va ong osti tushunchalar va ularning o'ziga xos komponentlari orasidagi munosabatlarini assosiatsiyalar aniqlaydi. Til o'rganish usuli sifatida esa semantik maydon modellashtiriladi.

Ingliz tilshunoslari V. Evans va M. Grinlarning fikricha, bir mental maydon keyingi mental maydonlarni shakllantirishda asos sifatida hizmat qiladi ular bilan o'zaro bog'lanishlar asnosida bo'ladi. Albatta turli mental maydonlarni tahlil qilishdan avval, ular o'rtasida qanday bog'lanishlar mavjudligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, har qanday mental maydonlar tarkibidagi elementlar orasida pragmatik bog'lanishlar mavjud bo'lib, ular mayda assosiativ tarmoqlardan tarkib topgan bo'ladi. Olimlarning ta'kidlashicha, identifikatsiya bog'lovchilari (identity connectors) mental maydonlarni o'rganishda yoki yaratishda muhim vazifalarni bajaradi. Assosiativ maydonlar matnlarda biron-bir obyekt haqida umumiy tushunchalarni hosil qilishga yordamlashadi.

K.A.Burnayeva: "assosiativ maydon bu psixolingvistik model bo'lib, u tajriba orqali aniqlangan so'zlar o'rtasidagi assosiasiyaviy bog'lanishlarni qayd etadi. U real ongni, ya'ni kommunikatsiya jarayonidagi ongni namoyon qiladi". Inson va til, inson va dunyo orasidagi munosabatlar, bog'liqliklar assosiativ eksperimentlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bu munosabatlar lisoniy vositalar orqali ifodalanadi va ular individning dunyo qarashlarini, konseptualizasiyasini, muloqot strategiyalarini va shu bilan birga nutqiy faoliyatini aks ettirishga hizmat qiladi. Misol uchun, ayollar uchun nominatsiyalar ingliz tilida: woman, women, lady, mistress, females kabilardir. Olimning fikricha, individ o'zining leksik imkoniyatlarida mavjud ichki aloqalarni assosiativ maydon orqali ko'rsatadi, chunki ular leksik birlarning bir qismi hisoblanadi. Assosiativ tajribaning asosiy funksiyalaridan biri til mexanizmlarini verballashtirishdir.

Siddiqjonning onasi Hadicha xola umrini xorlik-zorlik tortib o'tkazgan hamma kishilarday tez qarigan, lekin hamma qishloq qaiyalariday keksalikka so'z bermaydigan, g'ayratli, tetik, minnatli oshdan beminnat mushtni afzal ko'radigan bir kampir bo'lib, bu erga bir tosh mo'lroq keladigan o'z qishlog'i Bahrobodda kichik o'g'li Obidjon bilan birga turar edi. (Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari, 11)

Ushbu matnlarni mutoalaa qilganimizda, bizning ko'z o'ngimizda hayot qiyinchiliklaridan qiynalgan yoshi ulug', biroq keksalikka so'z bermagan, mehnatkash mushtipar ona siymosi gavdalanadi. Kampir tasviri orqali bizning o'ngimizda o'z-o'zidan yuzlarini ajin bosgan, biroz

elkalari patsga egilgan, hayot qiyinchiliklari uzoq fikr yuritib so'zlashga majbur qilib qo'ygan muloyim ayol qiyofasi tasvirlanadi. Biz bu ifodani hayotiy tajribamizga suyanib va muallifning bo'yoqdor so'zlari, ta'riflari orqali shakllantiramiz. Assosiativ maydon esa Hadicha ona siymosi orqali sabr-toqat, an'anaviy oilaviy qadryatlar, mehnatkashlik kabi xis-tuyg'ular bilan bog'liq tushunchalar etadi. Chunki, assosiativ maydon obraz bilan bog'liq bo'lgan konseptsiyalar, tajribalar majmuidir. Muallifning Hadicha onaning minnatli oshdan ko'ra beminnat mushni afzal ko'radi degan so'zlar orqali kitobxonga Hadicha onaning qari bo'lishiga qaramasdan naqadar mehnatkash inson ekanligi, tekinxo'rlikni yomon ko'rishi kabi mental tasvirni etkazib berishga harakat qiladi.

Hamingvey cholni tasvirlashda uning yuzidagi ajinlarining juda ham ko'pligi, chuqurligi uning qanchalik ozg'inligini ifodalagan. "Gaunt" so'zi ingliz tilida xastalidan ozib ketgan ma'nosini ifodalaydi. Bu so'zni ishlatish bilan muallif cholning bir necha kundan buyon baliq ovlayolmayotganligi, uning mehtatdan, hayot sinovlaridan, omadsizlikdan yuzlari ajin bosganligiga ishora beradi. Adib tasvirni kuchaytirish maqsadida ispan tilidagi "salao" "eng yomon omadsizlik" so'zidan foydalanadi.

Birinchi gapdan tushunish mumkinki, qahramonning omadi o'zi o'ylagandanda ziyoda bo'lgan, hosilning mo'l-ko'lligiga ishora berilgan. Ikkinchi gap esa birinchi gapning tasvisini mustahkamlagan holda umrida omadga erisholmagani, endi esa shu omad orqali juda ko'p narsalarga erishishi nazarda tutiladi. Ushbu marndagi atlas matosi qiymatli narsa va unga erishish qiyin degan xulosa bersa, ikkinchi tomondan bu mato orqali boshqa bir omadlarning ushalganligiga ishora qilinadi. Bu tasvir bizga ko'proq implikaturaning qo'llanish tamoyillarini yodimizga soladi.

Mental tasvir (mental image) insoning ongidagi til va dunyoqarashning o'zaro bog'liqlidi ko'rsatiladi. K. A. Burnayeva bu haqida "Лингвистическая проекция бытия человека", ya'ni tilning inson tajribasi va uning dunyoqarashi o'rtasida murakkab bog'lanish borligiga urg'u beradi. Assosiativ maydon esa til va ong konseptsiyalari bilan bog'liq turli tushunchalarni vujudga keltiradi. Masalan: til va madaniyat, milliy dunyoqarash, tafakkur va ma'no, kross-madaniy ta'sir, va inson ongidagi leksik va grammatik strukturalar. A. Qahhorning yuqoridagi asarida esa atlas matosi bizga milliy madaniyatimizning bir ko'rimishi sifatida qabul qilinsa, uning tag manosi va u bilan bog'liq bo'lgan assotsatsiyalar ham shakllanadi. Bunday milliy madaniyatning asarlardagi ifodasi har bir millarning, xalqning nodir asarlarida o'z aksini topgan va davom etmoqda.

The shack was made of the tough budshields of the royal palm which are called guano and in it there was a bed, a table, one chair, and a place on the dirt floor to cook with charcoal.

Xulosa. Demak, kognitiv lingvistikani tilshunoslikning muhim tahlil obyekti deb qarasak, assosiativ maydon va mental tasvir shu sohaning elementlari hisoblanib, har qanday matnni tushunish jarayonida faol ishtrok etadi. Shuning uchun biz tahlil qilish jarayonida atroflicha tahlil qilishimiz kerak deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бурнаева К. А. Ассоциативное поле как способ моделирования фрагмента языкового сознания. Lingua mobilis №6 (32), 2011, - С. 5-56.

2. Mavlanova N. A. Abdulla Qahhor asarlarida obraz yaratish usullari: metafora va metonimiya. Ta'lim va Rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2025, - B.96.

3. Hakimov, M. (2013). Fundamentals of Uzbek pragmalinguistics. Tashkent: Akademnashr, 4.

4. Hakimov, M. X., & Shokirova, H. N. (2021). Personal dexterity options. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 789-797.

UO'K 81-13

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN LIBOS NOMLARINING RANGLAR BILAN SEMANTIK-SINTAKTIK MUNOSABATI

G.S.Tillaboyeva, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Navoiy g'azaliyotida "libos" semantik guruhidagi ranglar nafaqat differensial semasiga ko'ra, balki qaysi libos nomlari bilan birikishi jihatidan ham farqlanadi (gulgun (a) → ko'nglak, to'n, rishta, hulla; axzar → xil'at). G'azallarda qora leksemasi motam kiyimi sifatida libos tushunchasini ifodalagan o'rinlar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Navoiy, g'azal, rang semantikasi, leksema, libos, ramziylik, motam.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается, как в газелях Навои цветовые обозначения из семантической группы «одежда» различаются не только по дифференциальной семе, но и по сочетаемости с названиями определённых видов одежды (например: gulgun(a) — с рубашкой, халатом, лентой, платьем; axzar — с одеянием). Также в статье раскрываются случаи, где лексема чёрный используется для выражения понятия траурной одежды.*

Ключевые слова: *Навои, газель, семантика цвета, лексема, одежда, символика, траур.*

Abstract. *This article explores how in Navoi's ghazals, colors from the semantic group of "clothing" differ not only by their differential semes but also by the types of garments they collocate with (e.g., gulgun(a) with shirt, robe, ribbon, dress; axzar with ceremonial robe). The article also highlights instances where the lexeme black conveys the concept of mourning attire.*

Key words: *Navoi, ghazal, color semantics, lexeme, clothing, symbolism, mourning.*

Kirish. Libos nomlarining ranglar bilan sintagmatik munosabati Navoiy asarlari tilining turli paradigmalarga mansub barcha ranglar bilan semik muvofiqlashuvini ko‘rsatadi. Birgina ‘*qizil’* yadro semasini ifodalovchi ***gulgun (****gulrang, pushtirang),* ***gulguna (****qizil),* ***gulgaz (****ko‘kimtir tovlanadigan qizil),* ***arg‘avongun (****qizil),* ***yoqutiy*** *(qip-qizil),* ***lolavor*** *(loladay qizil),* ***otashin (****o‘tday qizil),* ***rummoniy*** *(anor rang),* ***shingarfiy*** *(qizg‘ish)* leksemalarning *gulgun libos, qizil to‘n* kabi ifoda hosil qilishi sifat va otning semantik muvofiqlashuvi hamda sintagmatik munosabatga kirishuviga misol bo‘la oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ayrim libos nomlarining bir paradigmaga mansub barcha ranglar bilan semik muvofiqlashuvi kuzatilmaydi. Bunday libos nomlari muayyan rang tushunchasi bilangina semantik munosabat hosil qila oladi. Masalan, Navoiy g‘azallarida 'qizil' arxisemali paradigma a’zolarining har qaysisi differensial semalari asosida turlicha libos nomlari bilan qo‘llanishga xoslangan.

Erkaklar to‘n kiyishadi – beqasam to‘qimasidan tikilgan tizzagacha bo‘lgan milliy xalat, yaxtali – old tomoni ochiq oq ko‘ylak – ichkarida massi – oyoqlarida qo‘lda ishlangan laklangan charm etik va boshida milliy do‘ppi – ko‘k baxmal do‘ppi. Farg‘ona erkaklar kiyimlari qora matoga oq rangli iplar bilan kashta qilingan bo‘ladi. Qalampir va qo‘chqor shox naqshlari do‘ppilarning asosiy bezaklari hisoblanadi. Toshkentdagi kabi Farg‘ona rang-tasvirida ham eng ko‘p uchraydigan elementlar “mehrob”, “madoxil”, “bodom” va “buta”. Undagi asosiy naqshlar atrofida yordamchi naqshlar mavjud: “to‘rt gul”, “asosiy gul”, “oy gul” va “zanjir” naqsh turlari.

Ayollar kiyimlari uchun turli ipak va paxta matolari ishlatilgan, masalan, alacha, mahalliy hunarmandlar tomonidan to‘qilgan beqasam va adras. XX asrda paydo bo‘lgan Samarqand abril gazlamalari badiiyligi jihatidan Buxoro gazlamalariga usluban ko‘proq o‘xshash edi. Masalan, katta naqsh va yorqin ranglardan foydalanish (asosan och qizil, och binafsha, mos kelmaydigan ranglar) buxoro maktabiga xos abril gazlamalarda kuzatiladi. Tarkibi mahalliy gazlamalar naqsh elementlari asosan aylana, kvadrat, romb, olti burchakli halqa, S shaklidagi matolardan tashkil topgan.

Erkaklar ko‘ylagi etaklari geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Yengsiz ko‘ylagi va jingalaklari etaklari islomiy bezaklar bilan tikilgan (islomiy naqsh turi juda keng tarqalgan, u arqonlar, butalar, barglar va butalar kabi o‘simlikka o‘xshash shaklga ega. U doimiy ravishda bir-biriga bog‘langan pechakka o‘xshash naqshlarning takrorlanishidan iborat va ulangan. Shuning uchun ustalar uni ba’zan o‘rash yoki o‘simlikka o‘xshash naqsh deb atashadi).

Buxoro va Samarqand kiyimlari, asosan, tashqi va ichki ko‘ylaklardan, ustki va ichki shimlar, ustki va ichki ko‘ylaklar, boshdagi do‘ppilar yoki sallalar, mahsi va rezina galoshlar va piyoda etiklar. Erkaklar va ayollar kiyimlari shaklining deyarli bir xilligi, ham katta, ham kichik, ularning qadimiyligidan dalolat beradi. Bosh kiyimi – do‘ppi yorqin ranglari bilan ajralib turadi. Unda romblar, qo‘chqor shoxlari, to‘rtburchaklar va doiralar kabi naqshlar ifodalangan. Ayollar liboslari yorqin sariq rangdagi do‘ppilar bilan ifodalangan va qizil, ko‘k va yashil geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Sharfning chekkalari gullar, barglar, ilon izlari va geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Ko‘ylaklar markazida kungaboqar va turli xil gul naqshlari ishlatilgan, ular atrofida ishlatilgan novdalar, barglar, geometrik shakllar yorqin sariq rang bilan bezatilgan.

Quyida paradigma a’zolarining farqlovchi semalarini ko‘rib o‘tamiz. Masalan: gulgun – gulrang, pushtirang; gulguna – qizil, gulgaz – ko‘kimtir tovlanadigan qizil; arg‘avongun – qizil, yoqutiy – qip-qizil, lolavor – loladay qizil, otashin – o‘tday qizil, rummoniy – anor rang, shingarfiy – qizg‘ish.

Natija va muhokama. O‘zbek tilida qora lingvokulturemasida kontrast ifoda namoyon bo‘ladi. Qora shaxslarning tashqi ko‘rinishini, shu asosda fe’l-atvorini ifodalashda qo‘llangan. O‘zbek xalqi tarixida qora "ulug‘", "yuksak" ma’nolarini bildirgan. Butun bir sulolaga "qoraxoniylar" deb nom qo‘yilishi, Qorajon, Qoratoy degan ismlar xalqning "qora" rangga bo‘lgan ijobiy munosabatini bildiradi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" asarida Farhod tug‘ilganda shoh saroyni qora mato bilan bezashni buyurgani haqidagi tasvir keltirilgan. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, turkiy xalqlarda bir zamonlar qora bayroqlar bo‘lgan, jumladan adabiyotshunos olim I.Haqqul “Dalli” dostonidagi bir baytda shunga ishora borligiga asoslanib, “Qorabosh tug‘” (qora rangli bayroq) — boshini o‘limga tikkan mard, jasur jangchilar bayrog‘ini bildirib, bu o‘rinda eroniylarning bayrog‘iga qarshi bo‘lgan “turkiy tug‘dir”degan xulosani bayon etadi. Umuman, I.Haqqulning “qora” rang talqiniga doir kuzatishlari shundan dalolat beradiki, turkiy qavmlar “islomgacha va undan keyin” ham qora rangdan ijobiy ma’no holat hamda hodisalarni xarakterlashda keng foydalangan, shuning uchun haq ahli ma’no va ishq sohiblaridan hech bir kishi mohiyati ilohiyatda qora rangning muqaddasligiga shubha qilmagan. Hatto, Sharq she’riyatida takror-takror ishlatilgan qora ko‘z “chashmi siyoh”, qora zulf “zulfi siyoh”singari o‘nlab istioraviy ibora va tashbehlar irfoniy haqiqatlar ifodalanishi uchun xizmat qilgan. Bularning hammasi qora so‘zi semantikasida ijobiy bo‘yoq mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Keyingi davrlarda qora so‘zi xalq dunyoqarashi, tasavvurida salbiy ma’no ham kasb etib borgan. Masalan, Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar degan xalq maqolida qora “yomonlik” semasini namoyon qilgan. Ta’kidlash lozimki, shoir lirikasida qora leksemasi motam kiyimi sifatida libos tushunchasini ifodalagan o‘rinlar ham bor. Bunday hollarda qora so‘zi metonimiya (aloqadorlik) asosida kiyim tushunchasini ifodalaydi. Bu tushunchaga matnda kiymoq fe’li ishora qilib turadi. Metonimik asosda kiyim tushunchasini ifodalash faqat shu rang bilangina chegaralanadi. Masalan:

Bu motam noma yozgan kilki cholok,
Qaro mundoq kiyib aylar yaqo chok (FSH).

Bayt quyidagi mazmunga ega: “Bu motamnomani yozgan epchil qalam, qora kiyib, yoqasini yirtib, shunday hikoya qiladi”.

Surxondaryolik ayollar qizil ranglar va gilosni yaxshi ko‘rardilar, bu mintaqa uchun an’anaviy edi. Ular kiyim uchun gulli abrik to‘qimachilik namunasi bo‘lgan katta chiziqli matoni tanlaydilar. Kiyimdagi kashtado‘zlik nafaqat go‘zallik va estetik did, balki diniy ma’noga ega edi. Xususan, bunday bezaklar ayollar, bolalar va kelinlarni yomon ko‘zdan himoya qilishiga ishonishgan.

Qashqadaryo va Shahrisabzning kashta tikilgan buyumlari o‘zining qo‘l mehnati orqali tikilganligi, yorqinlik va ranglar uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bular erkaklar liboslari, milliy shimlar, do‘ppilar va har xil ro‘mollar, sumkalar, ro‘molchalar, oyna va taroqli sumkalar va boshqa ayollar buyumlari qarama-qarshi ranglar bilan ajralib turadi: yorqin qizil, to‘q sariq, to‘q jigarrang, binafsha va yashil. Xorazm-Nurota: Xorazm — O‘zbekiston shimolida joylashgan qadimiy voha, keskin kontinental iqlimi, issiq yozi va qattiq qishi bilan ajralib turadi. Kiyimning o‘ziga xosligi yoshi, ijtimoiy mavqeyi, dunyoqarashi, hayotning qayg‘uli va baxtli voqealari ularni kiygan kishining iqtisodiy boshqaruvi va tabiiy sharoitlari bilan belgilanadi. Bu standartlar va talablar tikuvchilikda ishlatiladigan matolar, naqshlar, bezaklar, ranglar, shakllar va kiyimning o‘lchamiga ham ta’sir qiladi. Xorazm xalqining milliy liboslari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: uyg‘unlashgan ranglar an’anasi, erkaklar va ayollar bosh kiyimlari shaklining o‘ziga xosligi (uzun mo‘ynali katta qalpoqlar). Ushbu turdagi shlyapa qo‘y terisidan tikilgan “chugirma” deb ataladi va erkaklar tomonidan butun yil davomida kiyiladi.

№	Ranglar	“Libos” arxisemali birliklar	№	Ranglar	“Libos” arxisemali birliklar
1	axzar	xil’at	18	la’lgun	0
2	axmar	0	19	la’liy rang	0
3	arg‘uvoniy	to‘n	20	limuyi	bo‘rk
4	gulbun	*Bar*	21	lojuvard	atlas
5	gulgul	libos, harir	22	lolagun	*0*

6	gulgun (a)	ko‘nglak, to‘n, rishta	23	moviy	katon
7	gulnor	*0*	24	noranji	libos
8	*gulrang*	*Yilak*	25	*obgun*	*kisvat*
9	*za’faroniy*	*ko‘ylak*	26	*oq*	0
10	*Qaro*	bo‘rk	27	*otashin*	0
11	*Qizil*	*to‘n, fo‘ta*	28	*sabza*	0
12	*qonlig‘*	*Momuq*	29	*sarig‘/sorug‘*	*bo‘rk*
13	*kofuriy*	*Harir*	30	*siymgun*	*libos*
14	*ko‘k*	to‘n	31	*siymobiy*	*libos*
15	*ko‘kumtul*	*0*	32	*surmagun*	0
16	*la’l (i)*	0	33	*shabgun*	*parda, hulla*
17	*shafaqgun*	0	34	*shingarf*	0

Xulosa. Kiyim leksik qatlami inson dunyoqarashining ifodasi bo'lib, insoniyat taraqqiyoti tarixi va madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan ma'noni ifodalaydi.

So‘z boyligining bu qatlami jamiyat taraqqiyoti va yangi tushunchalar, so‘z va iboralarning paydo bo‘lishi munosabati bilan o‘zgarishga moyilligi tufayli yetarlicha o‘rganilmagan. Ayniqsa, uni qiyosiy va qiyosiy jihatdan ko'rib chiqish qiziq. Ushbu lug'at ham qarz olish, ham etimologiya nuqtai nazaridan qiziqarli.

Biz libos tushunchasiga insonning atrofdagi voqelikdagi xilma-xillik va yangilikka doimiy ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan ma'lum shakl va uslublarning qisqa muddatli hukmronligi sifatida ta'rifiga amal qilamiz. Libos tushunchasi insoniyat ko'p asrlar davomida intilib kelgan go'zallik g'oyasi bilan bog'liq.

REFERENCES:

1. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). Alisher Navoiy she’riyatida “shaxs” tushunchasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(2), 182-196.

2. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). Alisher Navoiy asarlarida badiiy taxalluslarning qo‘llanilishi. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

3. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). Tilshunoslikda libos nomlari. *Scientific progress*, *3*(4), 506-514.

UDC 808.5

TRANSLATION STYLE AND SPIRITUAL MEANING: APPROACHES IN THE ENGLISH INTERPRETATION OF ALISHER NAVOI'S WORKS

U.A.Tohirova, teacher, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. *Alisher Navoiyyning “Lison ut-Tayr” asari nafaqat o‘zbek, balki butun Sharq adabiyotining durdonasi hisoblanadi. Bu asar tasavvufiy, falsafiy va badiiy jihatdan boy bo‘lib, insonning ruhiy yuksalishi yo‘lidagi sayohatini tasvirlaydi. Asar tarjimasi jarayonida uning chuqur ma’naviy va falsafiy qatlamlarini saqlab qolish juda muhimdir. Ushbu maqolada “Lison ut-Tayr” asarining ingliz tiliga tarjima qilishdagi yondashuvlar, tarjima uslublari va ma’naviy ma’noning saqlanishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Tarjimonning roliga, asarning tasavvufiy ramzlariga va madaniy tafovutlarga diqqat qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *metafora, ramz, ma’naviyat, feniks, tasavvuf qushi, Simurg‘*

Аннотация. *«Лисон ут-Тайр» Алишея Навои является не только шедевром узбекской, но и всей восточной литературы. Это произведение глубоко философско, суфийско и художественно, описывающее духовное путешествие человека на пути к высшему совершенству. В процессе перевода этой работы важно сохранить ее глубокие духовные и философские слои. В данной статье рассматриваются подходы к переводу произведения «Лисон ут-Тайр» на английский язык, а также стили перевода и сохранение духовного содержания. Акцент сделан на роли переводчика, суфийских символах произведения и культурных различиях.*

Ключевые слова: *метафора, символ, духовность, феникс, мистическая птица, Симург*

Abstract. *Alisher Navoi’s* Lison ut-Tayr *is not only a masterpiece of Uzbek literature but also a treasure of Eastern literary tradition. The work is rich in Sufi, philosophical, and artistic dimensions, depicting the spiritual journey of the human soul toward divine perfection. The process*

of translating this work requires careful attention to preserving its deep spiritual and philosophical layers. This article explores the approaches to translating Lison ut-Tayr *into English, focusing on translation styles and the preservation of its spiritual meaning. The role of the translator, the Sufi symbols within the work, and cultural differences are discussed in detail.*
Key words: *metaphor, symbol.spirituality, phoenix, mystical bird, Simurg.*

Alisher Navoi, one of the most celebrated figures in Persian and Turkic literature, is renowned not only for his masterful poetry but also for his profound philosophical and spiritual insights. His magnum opus, *Lison ut-Tayr* (The Language of the Birds), is a pivotal work that intertwines mystical Sufism with allegorical storytelling, offering profound insights into the human soul's journey toward divine enlightenment. The text is both a poetic masterpiece and a spiritual guide, one that has inspired readers and scholars for centuries.

In this article, we explore the various approaches to translating Alisher Navoi's *Lison ut-Tayr* into English, with a particular focus on the preservation of its spiritual and philosophical essence. We examine how different translators have navigated the dual challenge of remaining faithful to the original text's meaning while making it accessible to a modern, non-Persian-speaking audience. Through an exploration of translation theory, the role of allegory in Sufi literature, and the historical and cultural significance of Navoi's work, we aim to understand the delicate balance required to capture both the literal and spiritual dimensions of his writing in the English language. This discussion not only sheds light on the intricacies of literary translation but also highlights the broader implications of interpreting deeply spiritual works from a different cultural and religious tradition. By examining how translators approach Navoi's *Lison ut-Tayr*, we gain a deeper appreciation of the challenges involved in bringing the metaphysical and philosophical richness of Persian Sufi literature to a global audience

To properly appreciate the challenges faced by translators of *Lison ut-Tayr*, it is essential to first understand the intricate philosophical and spiritual context that underpins the work. *Lison ut-Tayr* is not a mere fable but a deeply symbolic and allegorical narrative that describes the journey of a group of birds in search of the mythical Simurg, a representation of the Divine. The birds represent human beings, each struggling with their own limitations, desires, and attachments. They are on a spiritual quest that mirrors the journey of the soul toward enlightenment, truth, and ultimate union with God.

The journey depicted in *Lison ut-Tayr* is marked by the traversing of seven valleys, each symbolizing a different stage of spiritual development. These valleys—often referred to as the "Seven Valleys of Love, Knowledge, and Self-Realization"—are an essential component of Sufi mysticism, reflecting the stages of spiritual awakening, self-purification, and the annihilation of the ego. The birds, as they progress through these valleys, encounter trials and obstacles, each one representing a challenge that the seeker must overcome to attain divine truth.

Understanding these spiritual concepts is crucial for anyone attempting to translate Navoi's work. It is not enough to simply convert the words from one language to another. The translator must grasp the metaphysical and allegorical dimensions of the work, ensuring that the deeper meanings are conveyed to the target audience, even if they are unfamiliar with the rich traditions of Sufi mysticism. One of the primary challenges in translating *Lison ut-Tayr* into English lies in the preservation of its metaphorical richness and spiritual depth. Alisher Navoi's use of metaphors and symbols is a hallmark of his poetic style, and these symbols are central to the meaning of the work. The birds, the valleys, the Simurg—all of these are not just literary devices but deeply imbued with spiritual meaning that reflects Sufi beliefs.

The Simurg, for example, is not simply a mythical bird but a profound metaphor for God, the divine truth, or the perfect being. In English, the translation of "Simurg" is often rendered as "Phoenix" or "Mystical Bird." However, these translations may miss the deep spiritual connotations that Simurg holds in the context of Islamic mysticism. The Phoenix, for instance, is traditionally associated with the idea of rebirth or resurrection, which, while profound, carries a different set of symbolic meanings in Western traditions. The challenge, then, is to preserve the essence of the

Simurg's role as a symbol of divine perfection and spiritual transcendence, while also making the metaphor accessible to the English-speaking reader. Similarly, the Seven Valleys, which represent various stages of the spiritual journey, are rich with esoteric meanings that are difficult to translate directly. The names of the valleys themselves—such as the "Valley of Love," "Valley of Knowledge," "Valley of Selflessness"—are simple on the surface, but they encapsulate complex spiritual ideas. For example, the "Valley of Love" is not simply about romantic love but about divine love, the all-consuming, transformative love that leads to selflessness and ultimate union with the divine. Translating such concepts requires a delicate balance between linguistic precision and cultural sensitivity.

The translator must make decisions about whether to prioritize the literal meaning of the words or to focus on conveying the spiritual essence behind the symbols. A literal translation may obscure the metaphysical meaning, while a freer translation may risk losing some of the textual integrity of the original.

A hybrid approach, combining elements of both literal and free translation, may be ideal. This method involves faithfully translating the core elements of the text while allowing for interpretive flexibility where necessary. For example, in translating the Seven Valleys, the translator might adhere closely to the names of the valleys in the original text but offer explanations or footnotes to clarify their deeper meanings. Due to the complexity of *Lison ut-Tayr*'s metaphysical ideas and the deeply cultural context in which it was written, many English translations of the work include annotations, footnotes, or even introductory essays. These supplementary materials are invaluable for providing readers with additional information on key concepts and historical context that may not be immediately apparent in the text itself.

Terms such as *fana* (the annihilation of the self) and *baqa* (eternal subsistence in God) are key to understanding the spiritual transformation that the birds undergo in the narrative. Without proper explanation, these terms could be misunderstood or their significance diminished. By including footnotes or glossaries, the translator helps the reader engage with these terms on a deeper level, providing them with a greater understanding of the underlying Sufi philosophy.

In the case of *Lison ut-Tayr*, the translator must grapple with maintaining the rhythm and musicality of the original Persian or Chagatai Turkic verse while making the poem accessible to an English-speaking audience. Often, this means making compromises between literal accuracy and the aesthetic flow of the poem. Some translations may adopt free verse, allowing the translator to focus on conveying the emotional and spiritual essence of the text, while others may attempt to maintain rhyme and meter, even at the cost of precision.

Translating *Lison ut-Tayr* into English is a daunting yet profoundly rewarding task. To successfully convey the spiritual and allegorical depth of the work, the translator must not only navigate the linguistic differences between the source and target languages but also the cultural and philosophical contexts that shape the text. The translation process requires a delicate balance between literal accuracy and interpretive flexibility, all while ensuring that the reader gains access to the profound spiritual insights embedded within the poem.

Ultimately, the translation of *Lison ut-Tayr* serves as a bridge, allowing readers from different cultures and traditions to engage with the timeless wisdom of Alisher Navoi's work. By carefully considering the metaphysical, poetic, and cultural dimensions of the text, translators can preserve the essence of *Lison ut-Tayr*, ensuring that its spiritual message resonates with new generations of readers. Through thoughtful and nuanced translation, the profound journey toward self-realization, love, and unity with the Divine that Navoi's poem portrays can continue to inspire and enlighten the world.

REFERENCES:

1. Saydaliyeva, G. (2024). The allegorical symbols and their translation in "Lison ut-Tayr" by Alisher Navoi. *News of the NUUz*, 1(1.2.1), 190-193.

2. Halimova, S. (2024). The root of the number seven in the epic "Mantiq ut-Tayr" and "Lison ut-Tayr". *News of the NUUz*, 1(1.2.1), 346-348.

3. Rejapov, I. (2023). Symbolics of numbers in Alisher Navoi's Lison-ut-Tair epic and J. Milton's Paradise Lost. *EPRA International Journal of Social Sciences*, 2(1), 1-7.

4. Abdug'aniyeva, D. (2024). Oriphon interpretation of the image of the seven valleys in the epic "Lison ut-Tayr". *Modern Science and Research*, 1(1), 129-136.

5. Tohirova, U. A. (2023). Alisher Navoiy ning "Lison ut-Tayr" asari mazmuni. *So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(12), 112-114.

UO'K: 821.512.133.09.1.

MAQSUDA ERGASHEVA HIKOYALARIDA MUALLIF SHAXSI VA ADABIY QAHRAMON PARALLELIZMI

Z.A. Tojimatova, Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-2083-5991

Annotatsiya. *Maqolada adabiyotshunoslikda ijodkor shaxsi va uning hayoti bilan bog'liq adabiy parallellar, muallifning o'ziga xosligi, ijodiy prinsiplari, uslubiy qirralari, pozitsiyasi va boshqalar uning "men"idan boshlanishi masalalari Maqsuda Ergasheva hikoyalari misolida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *qahramon, adabiy parallel, detal, tugun, estetik ideal, sujet, yo'qotilgan vaqt.*

Аннотация. *В статье на примере рассказов Максуды Эргашевой рассматриваются литературоведческие параллели, связанные с личностью творца и его судьбой, уникальностью автора, творческими принципами, стилистическими аспектами, позицией и другими вопросами, исходящими из его «Я»*

Ключевые слова: *герой, литературная параллель, деталь, узел, эстетический идеал, субъект, потерянное время.*

Abstract. *The article examines the literary parallels in literary studies related to the personality of the creator and his life, the author's uniqueness, creative principles, stylistic aspects, position, and other issues starting with his "I" using the example of Maqsuda Ergasheva's stories.*

Key words: *hero, literary parallel, detail, knot, aesthetic ideal, sujet, lost time.*

Ijodkor o'z tafakkur tarzidan kelib chiqib, o'zining badiiy niyati va g'oyasini asarda ishtirok etuvchi qahramonlar gardaniga yuklaydi. Yozuvchining "men"i uning g'oyaviy modeli bo'lmish badiiy obrazda akslanib, ular muallif "men"ining orzu-armonlarini tashiydi. Ijodkor "meni"i o'zida millatning tili, dini qadriyati, urf-odatlari, an'analarini mujassamlashtiradi. "Aslida, asar mohiyatini anglashda ijodkor hayoti muammoning kaliti vazifasini bajaradi. Har bir asar ortida ijodkorning didi, saviyasi, qarashi va munosabati, baxs va izoh, turli ovoz va nigohlar sintezi, ideali va maqsadi kabi bir qancha qadriyatlar jamlanmasi tizim shaklida namoyon bo'ladi"[1.97]. Adabiyotshunoslikda ijodkor shaxsi va uning hayoti bilan bog'liq adabiy parallellar juda ko'p uchraydigan hodisa sanaladi. Jumladan, Navoiy shaxsi "Farhod va Shirin" dostonida Farhod obrazida, "Sabbai sayyor" dostonidagi shahzoda Farruh obrazi bilan shoirning shaxsiyati o'rtasidagi yaqinlik ko'zga tashlanadi. Shu hikoya bilan bog'liq g'azallaridagi ruh shoir ruhiyati bilan bir-biri bilan juda yaqin [2.71] ekanligi olimlar tomonidan dalillangan. Pushkinning Yevgeniy Onegini, Mark Tvenning Tom Soyeri, G'afur G'ulomning "Shum bola", Cho'lponning Miryoqubi kabi bir qator obrazlarda ham o'z ijodkorining shaxsiyati ko'rinib turadi. Shuningdek, "Qodiriy shaxsiyatidagi vazminlik, mulohazakorlik, jasorat imon-e'tiqodga sobitlik kabi xislatlar Otabek, Anvar, hatto sho'ro mafkurasi talabiga ko'ra yaratilgan Obid ketmon obrazlarining ham yetakchi fazilati" [1.114] dir. M.Baxtin muallif va qahramon munosabati haqida shunday yozadi: "Bu holat uch xilda ko'rinishi mumkin. Birinchi holatda, yozuvchi o'z qahramoni ustidan hukmronlik qilmaydi, uni boshqara olmay qoladi; qahramon o'z tabiati mantig'iga ko'ra yechimga boradi. Ikkinchi holatda, muallif qahramonlarini o'z ideyasiga to'la bo'ysundirib olgan bo'ladi, ular ko'proq yozuvchining istagiga binoan harakat qiladilar. Uchinchi holatda esa, qahramonning o'zi muallifga aylanadi, go'yo sahnada ro'l o'ynayotgandek shaxsiy hayoti xususida o'zi estetik mulohaza yuritadi"[3. 18-21].

Har bir davrda yaratilgan asarlar yuzasidan badiiy adabiyotda ilmiy qarashlarning shakllanib ulgurganligi tasodifiy hodisa emas. Buning boisi davr muayyan darajada ijodkorga ta'sir o'tkazadi va yoki ijodkor davrning ijtimoiy qonuniyatlarini adabiyotga olib kiradi. Ijtimoiy hodisalarning tasvirida o'sha davr kishilari ma'naviy-ruhiy dunyosining talqini hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, turli

kechinmalar, badiiy asarga yorqinlik beradi. Shuningdek, poetik tafakkurda yuz berayotgan o‘zgarishlar badiiy asarning mazmun va shaklida yangilanishlarni qamrab olgan holda, o‘quvchining adabiy-estetik ehtiyojlariga xizmat qilishi zarur va muhimdir. “Modomiki biz borliqning poetik inikosini muallifning “men”ligi orqali qabul qilar ekanmiz, demak, muallif obrazi haqida ham muayyan tushucha va tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Chunki har bir muallifning o‘ziga xosligi, ijodiy prinsiplari, uslubiy qirralari, pozitsiyasi va boshqalar uning “men”idan boshlanadi” [4.3]. Darhaqiqat, ijodkor o‘zi anglagan hayot oqimi voqealari, jarayonlari va hodisalarni o‘zida umumlashtira olgan obraz yaratish barobarida shaxs kechinmasi, his tuyg‘usi mujassamlashgan ruhiy-psixologik, badiiy-estetik jarayonlarni bir butunlikda yetkaza olishi kerak. Maqsuda Ergasheva lirika bilan bir qatorda nasriy asarlarida ham bu vazifani uddasidan chiqqan ijodkorlardandir.

Badiiy adabiyotda ijodkorning maqsadi, inson va jamiyat haqidagi tasavvuri, dunyoqarashi badiiy tafakkur bilan uyg‘un tarzda namoyon bo‘ladi. Maqsuda Ergashevaning “Qo‘ng‘iroq”, “Armonlar” [5.21], “Munisaning ayasi” [6.19], kabi hikoyalarida ham 80-yillar o‘rtalarida ijtimoiy-siyosiy hayot, uning kishilar ruhiyatiga ta’siri masalalari qalamga olingan. Xususan, “Qo‘ngiroq” hikoyasida muallif millatni ogohlikka chorlash uchun qo‘ng‘iroq detalidan foydalanadi. Hikoya sujeti oddiy maktab o‘qituvchisi Mahzunaning bir kunlik turmush tarzi asosiga qurilib *“Mahzuna kipriklarini bir-biridan zo‘rg‘a uzdi”* degan gap bilan boshlanadi. Gap mazmunidan tongni arang qarshi olayotgan ayol holati gavdalanib, tugun vazifasini o‘taydi. Voqealar rivojida Mahzuna nega tongni arang qarshi olishi ochiqlanadi. Uning uyqusi ochilmay uy pechkasini tozalashi, bazo‘r o‘tin chopib, olov yoqishi, *“Sut sog‘iladigan paqirni ushlaganida qo‘li bir zumgina chippa yopishish”i* kabi ifoda tarzida voqealar qish payti sodir bo‘layotganligi anglashiladi. Shu tariqa Mahzunaning kunlik yumushlari birin-ketin keltirilib kitobxon ham qahramon bilan birga yelib yuguradi. Uy ishlari tafsilotlaridan so‘ng maktab tasviri keltirilib undagi muammolar ham ochiqlanadi. Ijodkor hikoya qatiga singdirilgan eng muhim g‘oyalarni qahramonning o‘z o‘zi bilan muloqoti orqali gavdalantiradi. Jumladan: “*Bechora sigir, senga shu bir bog‘ o‘tni berib, joningni sug‘urgandek hamma sutingni sog‘ib olaman, bolangga ham qo‘ymasdan*” kabi anglamlarida muallif tumush o‘rtog‘i uyida bir burda non evaziga butun borlig‘ini tuhfa etayotgan fidokor o‘zbek ayoliga ishora qiladi. *“Qo‘ng‘iroq jiringladi. Qo‘ng‘iroq bilan baravar Mahzunaning yuragi ham zirillay boshladi. Xuddi qo‘ng‘iroq uning yuragida jiringlayotgandek. O‘n sakkiz yil davomida nechanchi marta eshitgan qo‘ng‘irog‘i ekan? Qirq yillab o‘qituvchilik qilgan Nizomov domlalarning o‘lmagan joni, asablariga qoyil!”.* Mahzuna bir zumda uy bekasidan bolalarga ezgu so‘z ulashadigan o‘qituvchiga aylanadi. Kitobxon ko‘z o‘ngida dasta-dasta daftar quchoqlab, hatto tanaffus payti ham ko‘zlari daftardan uzilmaydigan muallim gavdalanadi. Voqealar rivoji darsdan keyin 5-brigadada teriladigan paxtaga ulanib, qahramonimiz endi paxtakor vazifasiga o‘tadi: “*Mahzunaning ko‘ziga paxta terishdan ham ko‘ra 5-brigadaga boriladigan uzoq yo‘l ko‘rindi. Qachon yetib boradi, darsdan chiqib. Buning ustiga uyga borib kiyimlarini almashtirib, etak olib kelishi kerak*”. Bu orada uning eng quyi darajaga tushib qolgan onalik vazifasiga ham ishora qilinadi. Muallif shu tariqa 80-yillar ijtimoiy muhitida ayolning yelkasiga yuklatilgan vazifalarni Mahzuna obrazi orqali mahorat bilan ifodalaydi. Ayol jonkuyarlik bilan hali u, hali bu vazifalarda javlon urarkan, qancha tirishmasin vaqt barcha vazifalarni risoladagidek uddalashiga imkon bermaydi. “*Mahzuna uyga yugurdi. Gazga choy qo‘ygach, ikki kundan buyon supurgi tegmagan hovlini supura boshladi. U choy icharkan, soat ham uchga tomon shiddat bilan chiqillab borardi”.* Muallif o‘z qahramonini go‘yo vaqt bilan raqobatlashtiradi. Ayol zimmasidagi vazifalarning ko‘pligi, turli-tumanligiga qaramay barchasini uddalashga qanchalik urunmasin, vaqt bunga izn bermaydi go‘yo. *“Ertasi kuni Mahzunaning o‘limi haqidagi xabardan butun qishloq lol bo‘lib qoldi. Vrachlar infarkt deyishdi, lekin o‘ttiz sakkiz yoshli juvonning infarkt bo‘lishiga hatto o‘zlarining ham ishongilari kelmasdi*”. Bu o‘rinda muallif nega hikoyani “Qo‘ng‘iroq” deb nomlagani aniqlashadi. Ma’lumki, qo‘ng‘iroq darak berish maqsadida foydalaniladi. Shuningdek, yovuz ruhlar, balo-ofatlarni haydash maqsadida ko‘pgina xalqlarda, (jumladan, O‘rta Osiyoda ham) qo‘llangan. Maqsuda Ergasheva o‘z hikoyasi orqali ayollar zimmasidagi jismoniy-ma’naviy yukdan nobud bo‘layotganligi to‘g‘risida millatni ogohlikka undaydi. Hikoyada har bir so‘z ayol ruhiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Direktorning bergan tanbehini tahlil qilishida ham, qaynonasi bilan bo‘lgan suhbatda ham ayolni mehnat manbai sifatida

idrok etadigan ijtimoiy muhitni ifodalaydi. Obrazlar bir-birini fosh etib boradi. Muallif xarakterlar yaratishda bir-birini fosh etuvchi dialoglardan o‘rinli foydalandi. Mazkur dialogdan so‘ng ular haqidagi ma’lumotlarni izohlash va to‘ldirishga o‘rin qolmaydi. Maqsuda Ergasheva hikoyalaridagi dialoglar o‘zida voqeabandlik xususiyatini aks ettirgan holda, asosan, biror yangi informatsiya yetkazish yoki personajlarga bog‘liq bo‘lgan yangi bir o‘zgarishlarni asoslab bergan. Bunda ko‘proq hikoyachi avtorning o‘rni yaqqol ko‘zga tashlanib, personajlarning xarakterlari anglashilmaydi. Dialoglarning tuzilishi ko‘p jihatdan avtor bayonining kompozitsion-uslubiy qurilishini belgilab beradi. Yoki aksincha, avtor bayoni personajlarning o‘zaro suhbatini shunday tashkil etadiki, u asarning kompozitsion-syujet tizimining ajralmas bo‘lagiga aylanib ketadi. Demak, asarning butun bir struktural-tipologik yaxlitligi va uslubiy vazifalari dialogning asarda tutgan o‘rni va roli bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Ijodkor shuning uchun ijodkorki, u yakun yasabgina qolmaydi, balki, chuqur umumlashtirish asosida yangi bilim beradi. O‘z zamonasidan “tushib qolgan” ijodkorlar bo‘lmaydi. U nimanidir bemavrid kashf etadi, biroq bu ham o‘z davrining “ruhi” bilan bog‘liqdir. Xususan, Maqsuda Ergasheva o‘z davri uchun dolzarb masalalarning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qiladi. Voqelikka munosabat bildirib, jamiyatda “ozod” niqobi ostida qullikka mahkum bo‘lib qolgan ayollarga nisbatan qarashlar qayta ko‘rib chiqilmasa millatni qanday fojealar kutayotganligini o‘z asarlari orqali fosh etadi. Chindan ham, bir yildan so‘ng Sharof Boshbekovning “Temir xotin” dramasi yaratildi. Asar haqidagi suhbatlarning birida “Temir xotin”ning syujeti hikoyadan olingan deydiganlar bor”, degan savol bilan murojaat qilishganda ijodkor buni inkor etadi. Hamda asar yaratilish tarixi haqida gapirib, “o‘tgan asrning 80-yillari. O‘sha yillari xotin-qizlar orasida o‘ziga-o‘zi o‘t qo‘yishlar ommalashib ketgan edi. Markazqo‘m teatrlar oldiga shu muammo haqida spektakllar sahnalashtirishni vazifa qilib qo‘ydi” deya asar yaratilishiga ayni voqealar sabab bo‘lganini ta’kidlaydi. Dramada Olimjon tilidan “Paq etib joni chiqib ketguncha ezaverish kerakmi?!” degan mulohazalari Maqsuda Ergashevaning hikoyalarining g‘oyaviy yo‘nalishiga mos kelgan. Bu vaziyatni bir davr manzarasi bir xil mazmundagi ikki asarning yaratilishiga asos bo‘lgan deya izohlash mumkin. Ularda o‘zbek ayolining haqiqiy xarakteri, mualliflarning estetik ideali orqali millat fojeasi o‘z aksini topadi.

Maqsuda Ergasheva asarlarida davr va qahramon muammosi yorqin aks ettirilganligi bilan o‘z ahamiyatiga ega. Hikoyalarida bir oila timsolida jamiyat hayotiga baho berish, Sobiq ittifoq zamonida, kommunistik partiya yakkahokimligi davrida markazning iznisiz hech narsa qilib bo‘lmasligi, “yo‘qotilgan vaqt” masalasi kabilarni yoritishga intilgan adibning ijodiy g‘oyalari asardan asarga qarab jiddiy o‘sib bordi. O‘zi yashab turgan muhitdan va o‘sha davr insonlariga belgilangan taqdirdan ilhomlanishi, qolaversa poetik tajribalar yozuvchining tasvirlash manerasini tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Natijada, adiba hikoyalarida jamiyat va davr muammolarini shoshmasdan, murakkab jumlalar bilan bezash prinsipi ustuvorlik qildi. Hikoyalarida muqaddima, tugun, voqealar rivoji, konflikt, (ba’zan yechim) va xulosalar orasida mantiqiy uzilishlar sezilsa-da, qahramon shuurida kechayotgan ong osti mushohadasi murakkab tushunchalarni yuzaga keltiradi. Hikoya juda vazminlik bilan o‘qiladi va qahramon ruhiyatini anglash u bilan bir vaqtda bir muhitda yashashni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадиий қаҳрамон муаммоси. Фил.фан.док....дисс. – Тошкент, 2019. – Б.97
2. Isoqov Y. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. – Toshkent: “Fan”,1965. – B.71
3. М.Бахтин. Эстетика словесного. – М.: Искусство, 1976. – С. 18-21
4. Жўраев Ҳ. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2008. – Б.3
5. Эргашева М. “Армонлар”//“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1989. №14 (3014) – Б. 21
6. Эргашева М. “Мунисанинг аяси”//“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1989. № 45 (2993) – Б.19

UO'K 808.5

SUN'IY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASINING TURLARI ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Z.Z.Tojiyeva, o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent
R.A. Omonullayeva, talaba, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarjima jarayonida sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlarning o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida arab tilidagi matn to'rtta mashinali tarjima tizimi – Google Translate, Yandex Translate, va Prompt va sun'iy intellekt – ChatGPT, orqali tarjima qilinib, ularning grammatik, uslubiy va mantiqiy jihatlari solishtirilgan.*

Kalit so'zlar: *tarjima, sun'iy intellekt, mashinali tarjima, tarjimon ilovalari, tarjima sifati, Google Translate, Yandex Translate, ChatGPT, Prompt.*

Аннотация. *В данной статье делается попытка проанализировать роль и эффективность систем перевода, основанных на искусственном интеллекте. Для определения грамматического, стилистического и логического качества перевода текстов с арабского языка на узбекский, в ходе проведения исследования нами был проведен их анализ с применением таких машинных служб компаний, как — Google, Yandex, а также нейросетей ChatGPT, и Prompt.*

Ключевые слова: *перевод, искусственный интеллект, машинный перевод, переводческие приложения, качество перевода, Google Translate, Yandex Translate, ChatGPT, Prompt.*

Abstract. *This article analyzes the role and efficiency of AI-based translation systems. The research evaluates translations from Arabic using four machine translation tools—Google Translate, Yandex Translate, and Prompt and AI— ChatGPT by comparing their grammatical, stylistic qualities.*

Key words: *translation, artificial intelligence, machine translation, translation applications, Google Translate, Yandex Translate, ChatGPT, Reverso, Prompt.*

KIRISH. Bugungi kunda tarjima sohasi jamiyatdagi eng aktual sohalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga muhimligi yuqori bo'lgan bu sohasada tarjimonlarning vazifalarini bajarishda yordam beradigan ,balki tarjimonlarning o'rnini ham egallayotgan texnik va texnologiya vositalari kuchli rivojlanib borayotganligi barchaga ayon. Bunga misol sifatida sun'iy intellekt (SI) va mashinali tarjima (MT) texnologiyalarini aytib o'tishimiz mumkin.

"Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi ". Bir tildan boshqa tilga matnlarni avtomatik tarjima qilish usuli esa mashina tarijmasi deb yuritilib, ilmiy texnika taraqqiyotning eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Tanlangan matn. الديك الذكي

خرج الديك مع الدجاجة والفراخ في نزهة. طلب الديك مِنَ الْفِراخ عَدَم الْابْتِعَادِ عنه. كان الثعلب خلف شجرة بعيدة. أخذت الفراخ تلعب، فابتعد أحدها، فانقض الثعلب عليه، وبدأ الفرخ بالصياح. سمع الديك صياحة، فركض نحوه تظاهر الثعلب بالموت، والفرخ بَيْنَ فَكَيْه، فقال الديك: إن الثعلب يموت وفمه مفتوح. سمع الثعلب ذلك، ففتح فمه، فأفلت الفرخ وأصبح بأمان. شكرت الفراخ الديك.

Promt ilovasi (rus tilida). Умный петух

Петух вышел с курицей и птенцами на пикник с просьбой к петуху птенцов не уходить от него. Он был лисой за далеким деревом. Птенцы начали играть, один из них ушел, лиса набросилась на него, и птенец начал кричать. Петух услышал крик и побежал к нему, и лиса притворилась, что умирает, а цыпленок между челюстями, и петух сказал: "Лиса умирает с открытым ртом ". Лиса услышала, открыла рот, и птенец сбежал и стал в безопасности. Я поблагодарил цыплят-петухов.

Tarjimadagi xatolar

" Петух вышел с курицей и птенцами на пикник с просьбой к петуху птенцов не уходить от него".

" с просьбой к петуху птенцов не уходить от него" jumlasida xo'rozga qo'yilgan talab yoki so'rovi emas bu joyda xo'roz jo'jalardan o'zidan uzoqlashmasligini so'raganlik ma'nosi berilishi kerak edi. Aslida " Цыплята поблагодарили петуха " bo'lishi kerak.

- Rus tiliga xos bo'lmagan gap tuzilmalari ishlatilgan. Masalan, " Он был лисой за далеким деревом" kabi jumlalar rus tilida tushunarsiz.
- Ba'zi so'zlar noaniq ishlatilgan. Masalan, "птенцы" o'rniga "цыплята" bo'lishi kerak.
- "Я поблагодарил цыплят-петухов " — bu hikoyaga umuman mos emas.
- Hikoyadagi asosiy mantiq buzilgan.

Googe ilovasi (o'zbek tilida). Xo'roz tovuq va jo'jalar bilan sayrga chiqdi. Olisda bir daraxt orqasida tulki bor edi. Jo'jalar o'ynay boshlashdi, ulardan biri uzoqlashdi, keyin tulki unga tegdi va jo'ja baqirib yubordi. Xo'roz qichqiriqni eshitib, unga qarab yugurdi, tulki jag'lari orasida o'lgandek ko'rindi va xo'roz: "Tulki og'zini ochib o'layapti», dedi. Tulki buni eshitib, og'zini ochdi va jo'ja qochib qutulib qoldi. Jo'jalar xo'rozga rahmat aytishdi.

Tarjimadagi xatolar

- " Keyin tulki unga tegdi va jo'ja baqirib yubordi ". Asl matnda " فانقض الثعلب عليه — ya'ni, tulki unga tashlandi "- deyiladi. Google Translate buni " unga tegdi " deb noto'g'ri tarjima qilgan. Aslida " Tulki unga tashlandi va uni tishlab oldi " bo'lishi kerak.
- " Tulki jag'lari orasiga o'lgandek ko'rindi ". Asl matnda " تظاهر الثعلب بالموت والفرخ بين فكيه ya'ni, tulki o'zini o'lganga soldi, jo'ja esa uning jag'lari orasida edi " deyiladi. Google Translate esa noto'g'ri tarjima qilgan.
- " Tulki og'zini ochib o'lyapti " asl matnda "إن الثعلب يموت وفمه مفتوح - tulki o'lsa, og'zi ochiq qoladi" deb yozilgan.
- Google Translate esa " Tulki og'zini ochib o'lyapti " deb ma'no jihatidan noto'g'ri tarjima qilgan.

Chat GPT ilovasida (o'zbek tilida): Xo'roz tovuq va jo'jalar bilan sayrga chiqdi. Xo'roz jo'jalardan undan uzoqlashmaslikni so'radi. Uzoqdagi daraxt ortida tulki yashirinib turardi. Jo'jalar o'ynay boshlashdi va ulardan biri uzoqlashib ketdi. Shunda tulki unga tashlandi va uni tishlab oldi. Jo'ja qichqira boshladi. Xo'roz jo'janing qichqirig'ini eshitib, tezda u tomon chopdi. Tulki o'ligini qilib ko'rsatdi, jo'jani esa og'zida ushlab turardi. Shunda xo'roz: "Tulki o'lsa, og'zi ochiq qoladi", - dedi. Tulki buni eshitib, og'zini ochdi va jo'ja qochib ketib, omon qoldi. Jo'jalar xo'rozga minnatdorchilik bildirishdi.

Tarjimadagi xatolar. Matnda grammatik xatolar deyarli yo'q, barcha gaplar to'g'ri qurilgan. Ayrim joylarda ifoda yanada tabiiyroq bo'lishi uchun kichik o'zgarishlar kiritish mumkin.

- " Tulki o'ligini qilib ko'rsatdi, jo'jani esa og'zida ushlab turardi ". Bu yerda "o'ligini qilib ko'rsatdi" jumlasi tushunarli emas. " Tulki o'zini o'lganga soldi" shakli to'g'ri asliyat matndagi ma'noni ifodalaydi.

Bundan tashqari ilova o'zidan so'zlar qo'shgan:

- " uni tishlab oldi"- jumlasi asl matnda yo'q;
- " tezda" so'zi ham aslida mavjud emas;

Umuman olganda hikoya mantiqan aniqroq, hech qanday chalkashlik yo'q. Barcha voqealar o'zaro bog'langan va ketma-ketlik to'g'ri joylashgan.

Xo'roz jo'jalarga ogohlantirish beradi → Jo'ja uzoqlashib ketadi → Tulki unga tashlanadi → Xo'roz uni qutqarish uchun ayyorlik ishlatadi → Jo'ja qutuladi → Jo'jalar xo'rozga minnatdorchilik bildiradi. Barcha voqealar izchil va o'zaro bog'liq.

Yandex tarjimon (o'zbek tilida): Aqlli xo'roz

Xo'roz tovuq va jo'jalar bilan sayr qilish uchun chiqdi. Xo'roz jo'jalardan undan uzoqlashmaslikni so'radi. Bu uzoq daraxtning orqasida tulki bor edi. Jo'jalar o'ynay boshladilar, ulardan biri uzoqlashdi, tulki uning **ustiga urdi** va jo'ja qichqira boshladi. Xo'roz qichqiriqni eshitdi**, Shuning uchun** u unga qarab yugurdi, tulki o'zini o'layotgandek ko'rsatdi va jag'lari orasidagi jo'ja va xo'roz dedi: tulki og'zini ochib o'lyapti. Tulki buni eshitdi, og'zini ochdi, jo'ja qochib, xavfsiz bo'lib qoldi. Jo'jalar xo'rozga minnatdorchilik bildirishdi.

Tarjimadagi xatolar. Bu tarjima grammatik va uslubiy jihatdan oldingilarga qaraganda ancha noaniq va kamchiliklarga ega.

" Jo'jalar o'ynay boshladilar, ulardan biri uzoqlashdi, tulki uning ustiga urdi va jo'ja qichqira boshladi ".

- "Tulki uning ustiga urdi" jumlasi noto'g'ri, bu yerda "urdi" so'zi matnga mos kelmaydi. Aslida esa "Jo'jalar o'ynay boshlashdi. Ulardan biri uzoqlashdi. Tulki unga tashlandi. Jo'ja qichqira boshladi " bo'lishi kerak .
- " Xo'roz qichqiriqni eshitdi, Shuning uchun u unga qarab yugurdi." Bu tarjimada "Shuning uchun" iborasi ortiqcha berilgan. " Xo'roz qichqiriqni eshitdi va jo'ja tomon yugurdi ".
- "Tulki o'zini o'layotgandek ko'rsatdi va jag'lari orasidagi jo'ja va xo'roz dedi: tulki og'zini ochib o'lyapti ".

To'g'ri tarjima: "Tulki o'zini o'lganga soldi. Jo'jani esa jag'lari orasida ushlab turardi. Shunda xo'roz: "Tulki o'lsa, og'zi ochiq qoladi ".

- "…… jo'ja qochib, xavfsiz bo'lib qoldi ".

To'g'ri tarjima: " Tulki buni eshitib, og'zini ochdi. Jo'ja omon qoldi ".

- Ba'zi jumlalar ortiqcha yoki noto'g'ri so'z birikmalaridan iborat.
- Xronologik tartib buzilmagan, lekin voqealar oqimi ravon emas.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Chat GPT amalga oshirayotgan tarjimalar eng yaxshi tarjima ishlaridir. Grammatik jihatdan ancha to'g'ri va uslubiy jihatdan tabiiy. Google Translate ham yaxshi natija berdi, lekin ba'zi grammatik xatolar bor. Yandex - o'rtacha darajada ammo Google Translatedan pastroq, lekin Promptdan yaxshiroq. Prompt - natijalari qoniqarsiz.

Xulosa. Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar sifatli va tabiiy tarjima kerak bo'lsa, ayni paytda eng yaxshi tanlov bu – Chat GPT. Ammo tarjima jarayonida ushbu tarjimonda tarjimaning dastlabki maketini yasab, so'ng uni malakali tarjimon tekshirib chiqqandan so'nggina tarjimani muvaffaqqiyatli deb bilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Drugan, Joanna, and Rebecca Tipton. 2017. "Translation, Ethics and Social Responsibility." The Translator 23 (2): 119–25.

2. Jamilya Abduganiyeva (2024) artificial intelligence and translation. Tamaddunnuri. 6 (57)

3. Tojiyeva Zamira Zafar kizi (2023) The problems faced by the learners of arabic language as non-native speakers. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3 (4)

UO'K: 81.367.2:81.373.4

FARIDA AFRO'Z SHE'RIYATIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR IFODASI TAHLILI

F.R. Topildiyeva, o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Farida Afro'z she'riyatida qo'llangan ligvomadaniy birlik va lingvokulturologik ifodalarning o'ziga xos tarzda misralar va tasbehlarda uyg'unlashuvi ifodasi to'liq yoritilgan. Lingvokulturologik ifodalarning Afro'zona talqinda tahlil qilishga xos tarzda tahlil namunasi ifodasi keltirilgan. Unda shoiraning she'rlaridan va tasbehlaridan unumli va o'rinli foydalanilgan, iqtibosliklar bilan fikr zanjirlari bog'lami shoirona ma'joziy ma'noda yoritilgan. Farida Afro'z zamonaviy o'zbek she'riyati olamida o'ziga xos yagona tip, alohida bir mavzu, alohida yangilik, alohida sir ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, she'riy dunyoda so'zning kuchi qanchalik buyuk ekani haqida ham batafsil ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Farida Afro'z, lingvomadaniy birlik, lingvokulturologiik ifoda, emotsional yuklama, kontekstdagi funksionallik, zamonaviy she'riyat, tasbehlar.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне освещено своеобразное слияние лингвокультурных единиц и лингвокультурологических выражений в строках и тасбихах, свойственных поэзии Фариды Афроз. Приведён образец анализа лингвокультурологических выражений в уникальной Афрузовской авторской интерпретации. Эффективно и уместно использованы строки и тасбихи, а цепочка мыслей через цитаты раскрыта в поэтическом метафорическом значении. Подчёркнуто, что Фарида Афроз — это уникальный тип в*

современном узбекском поэтическом мире, отдельная тема, особое новшество, отдельная тайна. Также подробно представлена информация о том, насколько велика сила слова в поэтическом мире, где через такие тонкие возможности и в широком, и в узком масштабе лингвокультурного измерения.

Ключевые слова: *Фарида Афроз, лингвокультурная единица, лингвокультурологическое выражение, эмоциональная нагрузка, функциональность в контексте, современная поэзия, тассбеи.*

Abstract. *This article provides a comprehensive overview of the unique integration of linguocultural units and linguoculturological expressions in the verses and tasbihs of Farida Afroz's poetry. It presents an analytical example of interpreting linguoculturological expressions in the distinct Afroz's style. The poetess's verses and tasbihs are used effectively and appropriately, and the chain of thoughts is expressed metaphorically through poetic quotations. The article emphasizes that Farida Afroz represents a unique type in modern Uzbek poetry—a distinct theme, an innovative element, and a poetic mystery. It also offers detailed insight into how the power of language enables communication with deeply hidden emotions, using subtle possibilities within both broad and narrow scales of the linguocultural dimension.*

Key words: *Farida Afroz, linguocultural unit, linguoculturological expression, emotional load, contextual functionality, modern poetry, tasbihs.*

Kirish. Shoir va shoiralar nazdida qalb tebranishlarining goh mayin, goh jo‘shqin jaranglari o‘z uslubida, o‘ziga xos lingvomadaniy ifodalar bilan sayqallanadi. Qachonki, so‘z go‘zal tuyg‘ularning ajoyib liboslariga o‘ralgan bo‘lsa, timsoliy karvonlar misolida ko‘zga tashlanadi va u o‘zining yuksak vazifasini namoyon eta oladi va bunda so‘z insoniy hissiyotlarning majoziy qanotiga aylanadi. Shuningdek Farida Afro‘z zamonaviy o‘zbek she’riyati olamida o‘ziga xos yagona tip, uning har bir ilhom namunasi alohida bir mavzu, alohida yangilik, alohida sirdir.Shu bois, shoira Farida Afro‘zda sirli tug‘ma iste’dod va qobiliyat,yana qumridek nolon ko‘ngil, samimiylik bor. Shoira uyg‘oq ruhning teran nigohi bilan dunyoni anglab, inson qalbini, dardini o‘zimniki deb bilgan holda misralarni Afro‘zona sharhini beradi deb baralla ayta olamiz. Farida Afro‘z tuyg‘ular uyg‘oqligini inson tirikligining mezoni, deb biladi. Shu boisdan, shoira tuyg‘ularni va o‘zini so‘roqqa tutadi.

Men o‘zi kimman, tashlandiq quduq
Yomg‘irlarning esidan chiqqan,
Baliqlari tashna jon bergan,
Qamishlari o‘yib naylangan,
Tashlandiq quduq.

Shoira ushbu misralarda dunyo unutib yuborayotgan ishqni yuragiga solib ana shu otashda yonib, oxir-oqibat o‘zi ham unut bo‘layotganini his qilsa-da, tushkunlikka tushmaydi.

Uzoqlardan yig‘laguvchi yor,
Yuragingni dupuri keldi,
Ko‘z yoshlaring daryosi toshqin
Tosh diydamning qo‘rg‘onin yiqdi.

Hatto uzoqdagi yorning yig‘isi, uning yuragini urishi, go‘yo ko‘z yoshining toshqini, toshdek qotgan dliydani yumshatib, qo‘rg‘onni olib tashlaydi. Lingvomadaniy so‘zlarning etnik tarkib holatiga qarab lingvomadaniy ifodalarni samarali qo‘llagani sezilib turadi, misralarni o‘qib go‘yo ichida yashaydi odam.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Farida Afro‘z she’riyati o‘zbek adabiyoti va tilshunosligida ko‘plab ilmiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va yangi qirralari talqinida o‘rganilmoqda. Bu borada o‘zbek tilshunosligida H.Qo‘chqorova, N.Maxmudov, G.Jo‘rayev, O.Matyoqubov kabi olimlarning ishlarida ham lingvokulturologiya haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning fikricha lingvomadaniy ifodalar leksik, stilistik darajalarda hank o‘rinish beradi. Shoira ijodida bu birliklar ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi.

Farida Afro‘z she’riyatida so‘zlar ko‘lami keng va o‘zgacha marjonday ipga tiziladi. Tematik jihatdan rang-baranglikni ifoda etgan she’rlari “Meni kuting” she’rlar 1jild, Toshkent (2023-yil), “O‘zimni sog‘inib” 2 jild, tasbehlar, Toshkent (2023-yil), “O‘limi yo‘q hayot” 3 jild, qissalar Toshkent (2023-yil), “Obodim yor” qo‘shiqlar kitobi Toshkent (2019-yil) kabi to‘plamlarida berilgan.

Farida Afro‘z she’riyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar unchalik ko‘p bo‘lmasa-da, shoiraning poetik olami ozbek tanqidchiligi tomonidan yuqori baholangan. Bugungi kunda Farida Afro‘z she’riyati misolida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari magistrlik dissertatsiyasi sifatida ham olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Farida Afro‘z she’riyatida lingvomadaniy birliklarning ifodasi va ularning xususiyatlarini o‘rganish uchun bir necha lingvistik metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Asosiy metod sifatida deskriptiv tahliliy uslub tanlandi. Bu uslub orqali poetik tahlillar, umuman olganda she’r misralaridagi lingvokulturologik ifodalar, Afro‘zona talqinlar tahlili bilan imkon qadar izohlashga e’tibor berildi, Farida Afro‘z talqini bilan yondashildi. Shu bilan birga,kontekstual tahlil, leksik-semantik tahlil va stilistik tahlil metodlaridan foydalanib, har bir lingvokulturologik ifodaning matndagi roli chuqur tahlil qilindi. Yana qiyosiy tahlildan ham foydalanildi (I.Mirzo, X.Rustamova) she’rlar qiyosiy o‘rganildi.

Lingvokulturologik birliklarni ajratish va tasniflash: Shoira Zulfiya Mo‘minova shunday yozadi:

“She’rlaringdagi ayolga xos, bahorga xos, qushga xos, quyoshga xos mehribonlik bilan iftixorlanaman. O‘qigan qalblar barg yozaversin” [4].

Shoira aytganidek, haqiqatdan ham shunday. Farida Afro‘zda tabiatga xos, jamiyatga xos, ishqqa xos yagona samimiylik bilan yo‘g‘rilgan lingvokulturologik ifodalar bisyor uchraydi. Ular o‘ziga xos tarzda o‘zgacha yondashishni ham talab etadi, hatto o‘ylantiradi, aniq markazni bilib-bilmaslik, sha’ma orqali sizni diqqat markazingizni jalb etadi.

Tahlil va natijalar.

Mehmonlar ketdi,
Xorigan dasturxon ustida,
Anor po‘chog‘i va g‘iybatlar qoldi.

Ushbu tasbihda asosiy narsani shoira go‘yo yashirgan. Boshqa narsalar timsolini chizish bilan, yashirilgan obrazni tahlil qilish imkonini ulashadi. Tasbehda kim va qanday mehmonlar ochiq ifodasi berilmagan, biroq dasturxonning xorigani va uning ustida anor po‘choqlari va g‘iybatlar qolgani tasviri, she’rda ko‘zda tytilgan mehmonlarni bilishga, ma’lum xulosaga kelishga imkon yaratadi.

Topilgan natijalar tahlili:

Xorigan dasturxon, vaqtning tanobini tortdim,yuragim to‘lyapti, lug‘atlarni bulg‘ama, xorigan kuylagimdan uzr so‘rayman, har kecha yostig‘im g‘avg‘o ko‘tarar, toqat tulporini tut, ko‘nglimni yopdim,donishmand bulbul, xatolarning tillari biyron, yuragimni to‘kkali quduqqa keldim, sehrgar tuyg‘u, yuragim duv to‘kildi, qilichingni qayrab kelsanda kabi Farida Afro‘zga xos lingvokulturologik ifodalardir.

Xulosa va takliflar. Farida Afro‘z ijodiy namunalari ko‘ngil nedesa shuning ifodasini chizish bilan cheklanmaydi, aksincha har bir o‘quvchini yoki kimsani, o‘z xayoli, o‘z dardi bilan ketayotganda, orqasidan kimdir uning aziz ismini aytib chaqirganda nechog‘lik segak va xushyor tortsa, shoira ham yelkasiga ana shunday ulkan yuk ortiganini, kechagidan bugun dilgirroq ekanini, ziyrakroq va balandroq yashashi kerakligini dil izhorlarida ifodlab berganini his qilamiz. Ma’lumki, hamma vaqt ham zamon zayli ila zamon yuki shoirlar yelkasida bo‘lgan. Farida Afro‘z ham o‘z zamonidan fikran oldinda, botinan ilgarilab, o‘z dunyosi olamida diltortar, otashdek cho‘g‘lantiradigan, ba’zida qayta umid beradigan, kun shukronalari bilan namoyon bo‘ladi va o‘qiguvchi qalbini zabt etadi. Masalan:

…Daryo bo‘ling, qaytishingiz kutayin,
Yomg‘ir bo‘ling hovuchlarim tutayin.

Daryo bo‘ling deganida hamma narsani o‘qib o‘tib ketishi uchun imkonni, yomg‘ir bo‘ling hovuchlarim tutayin deganida, sirdosh, mehribon inson mehrgarning bir hovuchi ham mehr ekanligi borasida fikr bergan.

Shoira inson hayotining g‘oyat murakkab, o‘zaro munosabatlarning ayrim o‘rinlardagi chigallik manzaralarini chuqur anglab yetadi va ularni obrazli tasvir bilan lingvomadaniy birlik va ifodalarda gavdalantiradi. Milliy va hayotiy sezimlarni ustalik bilan ifoda etgani kabi, uning she’rlari ham muxlislari qalbiga muhrlanib qoladi.

Bu o‘rinda B.Nazarov shunday deydi: “Farida, shubhasiz, ustoz shoirlarning munosib vorisi, ulardan ko‘p narsa o‘rgangan, ularni o‘ziga bamisoli mayoq deb bilsa, ajab emas” [5] –deydi. Bu shoiraning nafaqat sifati, balki siyratiga ham berilgan bahodir. Shundan kelib chiqib, Yuqorida Farida Afro‘zning tasbihlaridan ham namunalar berildi, bu turkum tasbihlarida tasvirning sababini anglatishga xizmat qiladigan xulosalar berilmagani aniq, unda shoira ruhiy olam manzarasi ila betakror badiiylikni so‘z qudrati ila misralarda singdiradi, dardning ko‘lamini to‘la his qilish imkonini beradi xolos:

Qirq beshga jimgina, yolg‘iz, benavo,
Xotirjam kiryapman, loqayd, beparvo,
Kirgan kabi xuddi qabrga...

Qabrga kiradigan jasadgina yolg‘iz, benavo, beparvo bo‘ladi. Hatto qirq beshga kirgan odam fojiasini ham o‘quvchiga tinch ohangda yetkazadi va undan ulkan tahlil uchun yuksak mahorat darajasini talab qilgani esa yashirin tarzda so‘zlar zanjirida anglashiladi va lingvonmadaniy tahlilga yo‘naltirishida deb bilaman.

Senga bir so‘z demog‘im qiyin,
Yarimta so‘z lug‘atlarda yo‘q,
Baliqlaga qanday yaxshi-ya!

Bu tasbehda esa yarimta so‘z lug‘atlarda yo‘q ifodasi bilan, shoira nasihat qilgandek bo‘ladi, keying misra buni yanada oydinlashtiradi, yoki mavzu lisoniga ko‘ra rang-baranglikni kashf etadi.Bir qarashda fikr, falsafa, bir qarashda inson umri, vaqt, mushohada, ko‘zga yaqqol tashlanadi, o‘ylanadi kishi o‘qisa, tasavvufona ohang bilan: kecha, bugun, ertaga tahlilini keng ifodasini uchlikla tasvirlaydi.Ularda tugallanmagan harakat dinamikasi esa aytilganlarni xayolan davom ettirish imkonini yaratadi degan xulosani beradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Farida Afro‘z yangicha tafakkur, tuyg‘ular junbushida toblanayotgan, qovurilayotgan, izlanib shodlanayotgan, barchaga ruhiy tetiklik, bardosh, samimiylik, kechirimlilikni ulashaotgan shoiradir. U o‘z tuyg‘ulari olamidagi so‘zlarida joziba va qalbga o‘qdek sanchila oladigan hissiyotlar, yangiliklar, ezguliklar, anduh, armon, nadomat va nurli dardlar bilan olishib, kelishib, hatto ulashish uchun kuch topa oladigan shoiragina emas, balki tilshunoslik ilmini rivojiga ham o‘zining lingvokulturologik ifodalari bilan ulkan hissa qo‘shib borayotgan betakror shoiradir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdullayeva Z. Zamonaviy o‘zbek she’riyati: til va uslub masalalari. — Toshkent: Fan, 2021.
2.Farida Afro‘z. Sen kelgan kun. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
3.Farida Afro‘z. Ozimni sog‘inib. Toshkent. 2023..
4. Фарида Афрўз шеърияти: талқинлар, тақризлар, суҳбатлар, бағишлов шъерлар Шамолда шам кўтариб... . Тошкент “DAVR PRESS”. 2010. 262 б.
5. Бўтаева Фарида Афрўз. Ўзимни соғиниб... тасбеҳлар. “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент. 2023.
6.Topildiyeva F. Farida Afro‘z she’riyatida millat ruhiyati va til. “New renaissance” international scientific journal. Toshkent. 2023.

UO’K 811.161.1

BADIIY MATNLARDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

X.M. Toshpo‘latova, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Lingvokulturologiya fani madaniyat va tilshunoslik kesishgan nuqtada yuzaga kelgan yangi soha bo’lib, uning tadqiqot obyektlari hisoblangan lingvokulturologik birliklarning boy*

manbasi badiiy matnlar hisoblanadi. Ushbu maqolada badiiy matnlardan olingan manbalar asosida lingvokulturologik birliklar va ularning izohlari tadqiq qilingan.

Kalit so’zlar: *madaniyat, til, lingvokulturologiya, frazeologizm, metafora, nutqiy murojaat birliklari, streotiplar, milliy madaniy xususiyatlar.*

Аннотация. *Лингвокультурология – новая область возникшая на стыке културы и языкознания а художественные тексты – богатый источник языковых единиц которые рассматриваются как обьекты ее исследования. В статье на основе источников художественных текстов изучаются лингвокультурные единицы и их интерпретации.*

Ключевые слова: *культура, язык, лингвокультурология, фразеологизм, метафора, единиц речи, стереотипы, национально-культурные особенности.*

Abstract. *Linguoculturology is a new field that emerged at the intersection of culture and linguistics, and the rich source of linguoculturological units that are its objects of research are literary texts. This article examines linguoculturological units and their interpretations based on sources taken from literary texts.*

Key words: *culture, language, linguoculturology, phraseology, metaphors, speech units, stereotypes, national-cultural characteristics.*

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro aloqasini, tilni madaniyat nuqtayi nazaridan o‘rganishni tadqiq qiluvchi fan sohasidir. Bu atama dastlab frazeologik maktab asoschilari V.N.Teliya[1] va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova [2] va boshqalarning ishlarida ko‘rindi. So‘nggi yillarda til va madaniyat masalalarini *lingvokulturologiya* fani atroflicha o‘rganishga kirishdi. Lingvokulturologik birliklarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Zero, til – madaniyat xazinasi, sandig‘i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og‘zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi [4].

Lingvokulturologiyaning predmeti – madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi [4]. Badiiy adabiyot bunday lingvokulturologik birliklarning asosiy manbayi hisoblanadi. Chunki badiiy asarlarda xalqning turmush tarzi, urf odatlari, qadriyatlari, frazeologik, paremiologik fondi, qahramonlari, ramzlar, obrazlar, bir so‘z bilan aytganda madaniyati o‘z aksini topadi. Quyida Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidan olingan mikromatn orqali lingvokulturologik birliklarning namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Halima, aziz jiyanim, aytganlaringning hammasi to‘g‘ri, bitta xatosi bo‘lsa, o‘lay agar... Bolalarim katta bo‘lib, qatorga kirib, ishlab yurganiyam, Masturaning men kabi uyda yolg‘iz o‘tirganiyam, mening kasal bo‘lib bir dastyorga, qarovchiga muhtoj bo‘lib qolganimam to‘g‘ri. Lekin gapingga kirishning hech iloji yo‘q. Bo‘ynimga sirtmoq solsalar ham qaytib o‘sha alvasti bilan birga yashashga rozi bo‘lmayman. Ko‘nglim qolib ketgan, tushunasanmi? Qarib qolgan bo‘lsam, hech qisi yo‘q. Mana, Anya mendan yoshi katta, u ham yolg‘iz, uning ham qizi Rossiyaga turmushga chiqib ketib qolgan. “Kel”, desa, ham bu “yo‘q” deydi. Shu yerda tug‘ildim, shu yerda yashadim, shu yerda o‘laman, deydi, qurmag‘ur. U ham bir kunini ko‘rib yuribdi. Men ham shunday. Dumalab-sumalab bo‘lsa-yam amallayapman. Bir kun shunaqa – bir yiqilamanu boshqa turmayman, ungacha eplanaman, qo‘rqma jiyanim... Ammo Masturani boshqa tilingga olma, opa-singillaringga, qolgan qarindoshlargayam ayt, agar oldimda Masturadan gap ochadigan bo‘lsa, kelishmay qo‘yaqolishsin. “Kasalligimda yo‘qlamadi” deb xafayam bo‘lmayman. Ko‘nglim qolgan Masturadan jiyanim, ko‘nglim...[5]

Mazkur matnni lingvokulturologik tahlil qilish jarayonida uni voqelantiruvchi bir qator frazeologizmlar, streotiplar, metaforik ifodalar, nutqiy murojaat birliklari o’rganildi. Jumladan,

1) Qatorga kirmoq- frazeologizm; - biror guruhga mansub kishilar qatoridan, safidan o‘rin olmoq [6].

Bu frazeologizm ma’lum bir insonlar toifasiga qo‘shilish ma’nosida ijobiy ma’noda ham, salbiy ma’noda ham qo‘llanilishi mumkin. Ushbu o‘rinda bu frazeologizmni ijobiy ma’noda ishlatilganining

guvohi bo‘lamiz: qahramon Muhammad akaning bolalarining balog’atga yetib, ishlab, pul topib, o‘zlarini eplaydigan darajaga yetganlik ijobiy ma’nosini tushunamiz.

Uning (Siddiqjonning) nomi chiqmaganligiga hech kim e’tibor qilmagan bo‘lsa ham, nazarida, hamma unga: Xafa bo‘lmang, axir bir kuni ***qatorga kirib qolasiz****, deyayotganday bo‘lar edi.* A. Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”.

2) Bo‘yniga sirtmoq solmoq.- frazeologizm; - Oyoqlariga kishan solmoq, biror ishga majburlamoq [7].

Ushbu frazeologizmning kelib chiqish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. “Sirtmoq – uchidan tortsa surilib, siqiladigan qilib bog‘langan bo‘yinbog‘” [8]. Sirtmoq, asosan, asirlarning yoki qullarning bo‘yniga tashlab, ularni yurishga majburlash uchun ishlatilgan. Hozirgi kunda bu frazeologizm o‘z asl ma’nosidan ko‘ra konnotativ ma’noda qo‘llaniladi. Ushbu asarda bu birlik qahramonning xohlanmagan ishga – xotini bilan yarashishga majburlanayotganini ifodalaydi.

3) Ko‘ngli sovimoq (yoki qolmoq, qaytmoq)- frazeologizm; Avvalgi yaxshi munosabati, mayli yo‘q bo‘lmoq, ixlosi qaytmoq, sevmaydigan, yoqtirmaydigan bo‘lib qolmoq [9].

Bu somatik frazeologizm bo‘lib, uning bir necha o‘xshash variantlari mavjud. Ushbu mikromatnda qahramonning dil kechinmalarini yaqqol namoyon qilish uchun ishlatilgan. *“Ko‘nglim qolib ketgan, tushunyapsanmi?”, “Ko’nglim qolgan Masturadan, ko‘nglim…”* gaplari orqali Muhammad akaning xotini bilan munosabatlarini, ular o‘rtasidagi sovuqchilik darajasini anglash mumkin..

4) Kun kechirmoq- bir kunini ko’rmoq – frazeologizm; tirikchilik qilmoq, tirikchilik o‘tkazmoq [10].

Professor Sh. Rahmatullayevning fikricha, bu frazeologizm polisemantik xarakterga ega bo‘lib, vaqt o‘tkazish va tirikchilik qilish kabi ma’nolarga ega. Tahlil qilish uchun olingan matnda ushbu ibora yoshi katta, qari insonlarning boshqalarning, xususan, farzandlarining ko‘magisiz ham bir maromda o‘z hayotlarini kechirishda davom etayotganligi ma’nosini ifodalaydi.

Yersiz, ot-ulovsiz qishloqning kun kechirishi — o‘lim azobi. Oybek, “Tanlangan asarlar”.

5) O‘lay agar – ish-harakat, gap-so‘z va shu kabilarning chinligini alohida ta’kidlaydi.

Odatda, o‘zbek xalqi lingvomadaniyatida boshqalarni aytilayotgan fikrga ishontirish, gapning yolg‘on emasligini ta’kidlash uchun *non ursin, til tortmay o‘lay, ko‘zim chiqsin, o‘lay agar* singari iboralar ishlatiladi[11]. Qasamning sababi – qasam ichuvchi o‘zining rostgo‘yligini tinglovchiga ta’kidlashni yoki o‘zini bir narsani qilish yoki tark etishga majburlashni qasd qilishidir. Bunday qasam ichish iboralari ba’zan qo‘pol semantik-modal ma’noning mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu qasamning behuda qasam ichish turiga mansub bo‘lib, “behuda qasam deganda o‘ylab-o‘ylamay, til o‘rganib qolganidan ichiladigan qasamga aytiladi. Ayniqsa arablarda qasam lafzi oson chiqadi, ko‘p ishlatiladi. Bu xuddi biz turkiy xalqlardagi har narsaga “Xudo haqqi”, deyaverishga o‘xshaydi [12]”. Ushbu ibora xalqning diniy qarashlari oqibatida shakllangan, unda ishlatilgan o‘lim semasi insonning foniy dunyodagi hayotining yakuni, illo, oxirat diyorining ibtidosi sifatida qaraladigan tushuncha hisoblanadi.

6) qurmag‘ur- o‘lmagur, tushmagur, bor bo‘lgur, baraka topgur (yengil koyish) ma’nolarini ifodalaydi[13]. Duo ma’nosida qo‘llaniladigan ushbu ijobiy birlik lingvomadaniy xususiyatga ega bo‘lib, asosan, yoshi kattalar, nuroniy insonlar nutqida ishlatilganligining guvohi bo‘lish mumkin.

Qurmag‘ur, yaxshi yigit. Yosh traktorchi bo‘lsa ham, ishi pishiq, jonkuyar universalchi. N. Safarov, Xadicha Ahrorova.

7) Alvasti – metafora; shu maxluqqa nisbatlash, u bilan ataluvchi shaxs (asosan xotin-qizlarga nisbatan) [14].

O‘zbek folklori namunalarida uchraydigan dev, ajdar, semurg‘, pari, jin, alvasti, ajina kabi obrazlar, odatda, afsonaviy obrazlar sifatida e‘tirof qilinadi. Alvasti mifologik obrazi o‘zida qarilik va ziyon belgilarini aks ettiradi. Bundan tashqari, alvasti mifologizmi salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lganligi uchun yovuzlik semasi, qo‘rquv emotsiyasi, o‘ta xunuklik, tasqaralik ramzi sifatida ongimizda muhrlangan.

Alvasti – ko‘plab turkiy xalqlarda suv stixiyasi (tabiiy ofat) bilan bog‘liq yovuz jin (demon), shayton [15] bo‘lib, odatda och rangli uzun sochlarini yoyib olgan badbashara ayol ko‘rinishida tasavvur qilingan. G.P.Snesarevning ta’kidlashicha, eroniy va turkiy xalqlar orasida bu obrazdan faol tarqalgan boshqa bir demonologik obrazni topish amrimahol [16].

Badiiy ijodda alvasti, asosan, keksa va makkor ayol, birovning yorini o‘ziga og‘diruvchi, jangovar guruh a’zosi, tashqi qiyofasi va nigohidan mavhumligi va tasqaraligi, harakatlaridan esa yovuzligi, jodugarligi, gunohdan hazar qilmasligi seziladigan kishi, sevilmagan xotin, qilig‘i beo‘xshov ayol, shuningdek, to‘zg‘igan soch timsoliga nisbatan ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi [17].

Ushbu romandan olingan misolda “alvasti” demonomorfizmi Muhammadjon akaning nutqida sevilmagan xotinni ifodalab, umuman birga yashashni xohlamasligini ta’kidlash uchun ishlatilgan.

8) Bir yiqilib boshqa turmaslik – metaforik ifoda; bu yerda evfemizm hodisasidan foydalanilgan bo‘lib, o‘lim so‘zini ifodalash uchun qo‘llanilgan birikma.

Evfemizmlar— nutqimizdagi ma’nosi qo‘pol bo‘lgan so‘zlarni chiroyli tarzda ifoda etuvchi birliklar. Ular disfemizmlarning aksi hisoblanib, nutqingizdagi inson ruhiyatiga salbiy ta’sir etuvchi so‘zlarning ma’nolarini mayinroq tarzda ifodalab beradi. Bunday birliklarning paydo bo‘lishi til egalarning yashash tarzi, tarixi, kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

9) Kasalni ko‘rgani bormoq – o‘zbek xalqining milliy-madaniy streotiplariga ko‘ra, kasal insonni ziyorat qilish, unga biror taom olib borish udumi shakllangan. Bu qadriyatning ildizi islom dini axloqiga borib taqaladi. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam “Musulmonning musulmon ustidagi haqi beshtadir:

- Salomga alik olish
- Kasalni borib ko‘rish;
- Janozaga ergashish;
- (Taom yoki boshqa biror narsaga) chaqirganga javob qilish;
- Aksa urganga javob qaytarish”, dedilar. (Buxoriy va Muslim rivoyatlari) [18].

Ko‘rib o‘tilgan lingvomadaniy birliklar o‘zbek madaniyatining, kundalik nutq etiketining muhim komponenti hisoblanadi. Ular asrlar davomida shakllangan bo‘lib, ular ma’lum xalqqa mansub insonlar ongida olamning konseptual manzarasini tushunishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday badiiy matn o‘zida bir qator lingvomadaniy xususiyatlarni jamlaydi. Ular orqali xalqning turmush tarzi, qadriyat va an’analari haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Shu bilan birgalikda, ushbu xalq tomonidan olamning lisoniy manzarasi qanday tushunilishi haqida ma’lumot olish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva M. R. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjıması muammolari (Agata Kristi asarlarining o‘zbekcha tarjimalari misolida): 2023/12 Fil.fan bo'yicha falsafa.dok.. (PhD) Diss... Avtoref. Volume1.Issue 1. Pages 56.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati.1-jild. T.:Universitet, 2000.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. T.:O‘qituvchi. 1978.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. – T.: Sharq, 2008.
5.Ulug‘bek Hamdam. Muvozanat. Roman. Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, T., 2007.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – T., 2019. -248 b.
7. O‘rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan Ziyosi nashriyoti, 2024. -148-b
8. Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б. 32.
9. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М., 1990. –С. 26.
10. Маслова В.А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. –М., 1999. -125 с
11. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Қуванчбек-Машҳура, 2018. – Б. 28.
12. Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1982. -286 стр.
13. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London, 1971.
14. https://izoh.uz/word/son
15. https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary
16. https://izoh.uz/word/qurmag‘ur
17.https://uz.wiktionary.org/wiki/alvasti
18.https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/87228-bemor-ziyorat-qilishning-odoblari

UO'K 006:72

SOHAVIY LUG'ATLARDAGI IT TERMINLARINING SEMANTIK VA FUNKSIONAL TAHLILI: "FLOWGORITHM" DASTURIDAGI TERMINLAR MISOLIDA

O. Turopova, tayanch doktorant, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada lug'atshunoslik amaliyotida leksik birliklarning tahlil turlari va sohalashtirilgan lug'atlardagi funksional va semantik ma'nolari xususida so'z yuritiladi. Xususan, axborot texnologiyalariga oid terminlarning vazifasi va semantikasi tahlil qilinib, misollarda asoslab o'tiladi. Natijada, sohalashtirilgan terminlar lug'aviy ma'nolaridan uzoqlashuvi blok sxemali misol terminlari asosida tushuntiriladi.*

Kalit so'zlar: *Lug'aviy birlik, lug'atlar, termin, sohalashtirilgan lug'atlar, "flowgorithm" dasturi, funksional tahlil, semantik tahlil.*

Аннотация. *В статье рассматриваются виды анализа лексических единиц в лексикографической практике и их функционально-семантические значения в специализированных словарях. В частности, анализируются и обосновываются на примерах функция и семантика терминов, связанных с информационными технологиями. В результате на основе терминов-примеров структурных схем объясняется отклонение специализированных терминов от их словарных значений.*

Ключевые слова: *Лексическая единица, словари, термин, специализированные словари, программа «flowgorithm», функциональный анализ, семантический анализ.*

Abstract. *This article discusses the types of analysis of lexical units in lexicographic practice and the functional and semantic implications of specialized vocabulary. In particular, it examines the functions and semantics of terms related to information technology, supported by illustrative examples. As a result, the deviation of specialized terms from their dictionary meanings is explained using example terms in the form of a block diagram.*

Keywords: *Lexical unit, dictionaries, term, specialized dictionaries, "Flowgorithm" program, functional analysis, semantic analysis.*

Kirish. Tildagi lug'aviy birliklar turli jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Birlik tushunchasi umumiy bo'lib, tilshunoslikda keng ma'noga ega. Biz maqolada *"birlik"*larni so'z, tushuncha, o'rni kelganda, termin va yoki atama sifatida ko'rib chiqamiz. *"Lug'aviy birlik"* tushunchasiga tilshunoslar turlicha ta'riflar berishadi. Xususan, Sodiqov lug'aviy birlikni tildagi ma'no anglatadigan mustaqil birlik deb qaraydi. U so'z, so'z birikmasi, frazeologizmlar va terminlarni leksik birliklar sifatida ajratadi [1]. Lug'aviy birliklar tildagi kognitiv birlik sifatida qaralishi lozim. U til birliklarining inson tafakkuridagi aksini tahlil qiladi va ular ong strukturasiga qanday bog'lanishini ko'rsatadi [2]. Birliklar turli xususiyatlariga ko'ra tahlil qilinadi. Lug'aviy birliklar mazmuni, shakli va ishlatilish sohasi bo'yicha tahlil qilinishi kerak deb hisoblaydi Numonov [3]. U ayniqsa, frazeologik birliklarni leksik birlik sifatida o'rganishga alohida e'tibor bergan. Lug'aviy birliklar boshqa tillar bilan taqqoslash orqali chuqur tahlil qilinishi mumkin. Lug'atdagi har bir birlikni madaniy-kontseptual doirada baholash maqsadga muvofiqdir [4]. Leksika va leksik birliklar haqida keng ma'lumot beruvchi *lug'atshunoslik* vositasida tilni mukammal o'rganish, til xususiyatlaridan xabardor bo'lish, til birliklarining lingvistik mohiyatini aniqlash, professionalizm va kasbiy muloqot o'rtasidagi bog'liqliklarni belgilash, tilning turli xil funktsional-uslubiy sohalarini ajratish mezonlarini keng o'rganish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Lug'atchilik amaliyotida olinadigan leksik birliklar tuziladigan lug'at turiga ko'ra farq qiladi. Svenson semantik tahlil asosida so'zning asosiy, ko'chma, emotsional, funksional va stilistik ma'nolarni ochish mumkinligini ta'kidlaydi [5]. Ikki tilli tarjima lug'atlar tuzish amaliyotida so'zlardagi ekvivalentlik, denotativ, konnotativ va kontekstga moslik jihatlari ko'rib chiqiladi [6]. Lug'at tarkibiga kiradigan so'zlar ushbu tarkibga kirishgacha bo'lgan jarayonda ko'plab tahlillarni "boshdan o'tkazadi". Bu esa lug'at sifati va mohiyatini belgilab beradi.



Rasm 1. Juft sonlarni chiqarish uchun blok sxema

Lisoniy (lingvistik) lug‘atlarda so‘z ma’nolari, imlosi, talaffuzi, til birliklari va filologik tushunchalarga oid ma’lumotlar beriladi [7]. Lisoniy lug‘atlar ham o‘z o‘rnida *umumiy* va *xususiy* turlarga bo‘linadi. Xususiy lug‘atlar – ma’lum soha bo‘yicha tildagi ma’lum mikrosistemalar, guruhlarga ko‘ra taxlab olinadi. Sohaga oid terminlarni ishlab chiqishda so‘z va atamalarning ma’nosiga qarab izohli va izohsiz turlarga ajratiladi. Izohsiz lug‘atlarga “O‘zbek tilining qisqacha imlo lug‘ati” (F. Kamolov va Z.Ma’rufov, 1962), “O‘zbek tilining chappa lug‘ati” (R. Qo‘ng‘irov, A. Tixonov, 1968) kabilar kirsa, izohli lug‘atlarni “Axborot texnologiyalariga oid terminlarning izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”lar tashkil qiladi. Sohalashtirilgan lug‘atlarda leksik birliklar o‘z sohasi doirasidagi semantikasi va funksiyasi jihatidan saralab olinadi. Bu o‘z navbatida, umum uchun emas, maxsus soha vakillari uchun mo‘ljallangan lug‘at sifatida qaraladi.

Natija. Ingliz tili axborot texnologiyalar asrida asosiy til sifatida qo‘llanilar ekan, undagi birliklarning ma’nosi sohaga ko‘ra farqlanib boradi. Misol uchun, IT sohasini o‘rganuvchilar dastlabki algoritmlarni ishlab chiqish uchun ishlatadigan *“Flowgorithm”* dasturida ishlatiladigan leksik birliklarni *(Rasm 1.)* sintaktik va semantik tahlilini ko‘rib chiqamiz. *(Jadval 1.)*

Rasmdagi turli rangli shakllar o‘z ichiga olgan terminlar – leksik birliklarni funksional jihatdan aniqlashtirib bermoqda. Bir qarashda sodda dasturdagi oddiy so‘zlar sifatida ko‘rinishi tabiiy hol. Lekin ular o‘rtasida sintaktik bog‘liqlik bor. Misol uchun, ingliz tili grammatikasida “shartli qo‘shma gaplar” deb nomlangan mavzu barchamiz uchun tanish.

Shartli qo‘shma gaplar qoidasi bu yerda ham matematik amallar tizimida qo‘llanilmoqda, ya’ni “*Input son”* da qabul qilingan qiymat *“i”* ga teng yoki undan katta bo‘lganda, ikkinchi shartni bajarish uchun *“True”* bo‘limiga yo‘naltiriladi. Qiymat qachon *“i”* dan kichik bo‘lsa, dastur *“End”* bo‘limiga boradi.

1-jadval.

“Flowgorithm” dasturi terminlari

Terminlar	Funksiyasi	Semantikasi

Main, end	Dasturni boshlash va tugatish vazifalarini bajaruvchi	*Main* – ingliz tilidan *"asosiy, bosh"* degan ma'nolarni anglatadi. *End – "yakunlash", "tugatish".*
integer	Butun qiymatlardagi o'zgaruvchilarni qabul qiluvchi vazifasini bajaruvchi	*Integer* – lotincha so'z bo'lib, "whole" – "butun" degan ma'noni anglatadi.
input	Foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan qiymatlarni qabul qiluvchi	*Input* – kompyuter yoki elektron qurilmaga ma'lumotlarni joylash.
output	Dastur tomonidan chiqariladigan qiymatlar yoki natijalar	*Output* – inson, mashina yoki kompyuter dasturlari tomonidan ishlab chiqarilgan ma'lumot.
True, false	Dasturda shart bajarilganda to'g'ri yoki noto'g'ri bo'yicha amalni ko'rsatadi	*True - "to'g'ri"* ma'nosini saqlab qolgan*;* *False – "noto'g'ri"* ma'nosini saqlab qolgan.

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgandek, har bir termin denotativ ma'nosini qisman yoki to'liq saqlagan holda konnotativ mazmunga hissa qo'shgan. Biz leksik birliklarni tahlil qilar ekanmiz, ularni dastlab lug'aviy, so'ngra undan kelib chiqqan tushunchalarni o'rganishga harakat qildik. Natijada, terminlar o'rtasidagi sintaktik aloqa buzilgan taqdirda, dastur ham o'z funksiyasini bajarmaydi. Sintaktik qurilmalarning to'gri qo'llanilishi axborotni aniq yetkazish uchun ximat qiladi. Shunday ekan, tilshunoslik nafaqat zamon va makon, balki soha tanlamasdan keng miqyosda qo'llanilishiga yana bir bor amin bo'ldik.

Xulosa. Axborot texnologiyalari sohasi vakillari va havaskor dasturchilik faoliyatidagi har bir mutaxassis uchun tildagi grammatik va leksik qoidalarning muhim ahamiyat kasb etishini guvohi bo'ldik. Xulosa o'rnida aytish joizki, til – bu kuchli qurol. Har qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar, biz til vositalari va birliklarini to'g'ri va o'z o'rnida qo'llay olishimiz nafaqat savodli, balki sohada o'z mutaxassisiga aylanishimiz uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sodiqov Abduvahob *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – 250 b.

2. Yo'ldoshev A. *Til va tafakkur*. – Toshkent: Fan, 1995. – 180 b.

3. Nurmonov Abdulla *Leksikologiya va leksikografiya masalalari*. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 200 b.

4. Mamatov A. *O'zbek tilida chog'ishtirma lug'atshunoslik asoslari*. – Toshkent, 2020. – 150 b.

5. Svensén, Bo. *A Handbook of Lexicography: The Theory and Practice of Dictionary-Making*. Cambridge University Press, 2009. – 416 p.

6. Hartmann, R. R. K. *Interlingual Lexicography: Selected Essays on Translation Equivalence, Contrastive Linguistics and the Bilingual Dictionary*. John Benjamins, 2007. – 248 p.

7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili**.** – Toshkent: Talqin nashriyoti, 2005. – 227 b.

UO'K: 81'255.2:811.214.21

"YULDUZLI TUNLAR" VA "ULUG'BEK XAZINASI" ROMANLARINING HINDCHA TARJIMASIDA QO'LLANILGAN SINONIM SO'ZLAR TAHLILI

Z.R. Tursunbayeva, tayanch doktorant, Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Yulduzli tunlar" va "Ulug'bek xazinasi" romanlarining hindiy tiliga qilingan tarjimasida ifodalanilgan sinonimlar so'zlar va ularning tahlili keltirilgan. Undan tashqari ushbu ikki asarda keltirilgan tarixiy so'zlar, sinonim so'zlarning tarjimadagi ahamiyati, tarjimon uni qo'llashda nimalarga e'tibor berganligi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar. *Tarjima, tarixiy so'zlar, arxaizmlar, sinonim, ekvivalent, transliteratsiya, saroybon, sandal, bakovul, yasavul.*

Аннотация. *В статье представлены синонимы и их анализ, выраженные в переводе на хинди романов "Звездные ночи" и "Сокровища Улугбека". Кроме того, приводится информация об исторических словах, цитируемых в этих двух работах, о значении синонимов при переводе и о том, на что обращал внимание переводчик при их использовании.*

Ключевые слова. *Перевод, исторические слова, архаизмы, синоним, эквивалент, транслитерация, сарайбон, сандал, баковул, ясавул.*

Abstract. *This article presents the synonyms and their analysis in the Hindi translation of the novels "Starry Night" and "The Treasure of Ulugbek". In addition, information is provided about the historical words used in these two works, the importance of synonyms in translation, and what the translator paid attention to when using them.*

Key words. *Translation, historical words, archaisms, synonym, equivalent, transliteration, saraibon, sandal, bakovul, yasavul.*

Kirish. Asarni tarjima qilish muallifning o‘ziga xos uslubi, tasvirlanayotgan voqeaning xususiyati, obraz yoki personajning yosh, jins, vazifa, ixtisos, malaka, millat e‘tiqod va boshqa belgilari hamda asarning janri va turini hisobga olgan holda muvofiq so‘z va iboralarni topib, o‘z o‘rnida ishlata bilishi demakdir. Tarjima qilishdan maqsad ikkinchi tilga so‘zlar va gaplar shunchaki ko‘chirish emas, balki ularning mag‘zida yashirinib yotgan ma’noni ro‘yobga chiqarishdan iborat. Birinchisi hech qanday mahorta talab qilmaydigan mexanik ish, ikkinchisi esa chinakam san’atdir. Shuning uchgun professor M.M.Morozov so‘z tanlash muammosi –“tarjimaning o‘zak muammolaridan” deb tariflagan edi. Darxaqiqat, asliyatdagi sinonim, omonim, antonim iboralar, o‘xshatmalar va shunga o‘xshash leksik birliklarni tarjima qilish ham tarjimondan mahorat talab etadi. “Yulduzli tunlar” va “Ulug‘bek xazinasi” asarlari hindiy tiliga Sudhir Kumar Mathur tomonidan trajima qilingan. Keltirilgan tarixiy-arxaik leksikalarning tarjimasida tarjimon bir qancha sinonimlardan foydalangan.

Sinonim so‘zlar bu-ma’nosi bir biriga yaqin yaki o‘xshash bo‘lgan so‘zlardir. Ular o‘zaro almashinish imkoniyati beradi, bu esa tilni boyitadi, ifodaning xilma xilligini ta’minlaydi va nutqni yanada aniq jonli qiladi. Sinonimlar tildagi ifodaviy imkoniyatlarni krngaytiradi, bir xil tushuncha uchun turli so‘zlar ishlatish orqali nutq yanada boy va xilma xil bo‘ladi. Sinonimlar yordamida ma’lum bir holat yoki tushunchani yanada aniqroq va to‘liqroq ifodalash mumkin. Sinonimlar yordamida so‘zlarni turli ijtimoiy, madaniy yoki ilmiy kontekstlarga moslashtirish mumkun. Bir so‘zni ko‘p marta ishlatishdan qochib, sinonimlardan foydalanish matnni xatolardan holi va toza qiladi. Sinonimlar yordamida matn yoki nutqni rang barang qilish mumkin. Sinonimlarning tilshunoslikdagi roli nihoyatda muhim, chunki ular tilning ravon va to‘liq bo‘lishini ta’minlaydi. Ba’zi bir so‘zlar, o‘z ona tilida yaxshi ma’no beradi, lekin tarjimasi boshqa madaniyatlarda noaniq yoki noqulay bo‘lishi mumkin. Sinonimlar madaniyatga mos keladigan so‘zni tanlash imkonini beradi, bu tarjima jarayonini yanada aniq va o‘qish uchun qulay qiladi. Ba’zan bir so‘zning turli ma’nolari bo’lishi mumkin. Sinonimlar yordamida bu ma’nolarni ajratib olish va o‘quvchiga to‘g‘ri ma’no yetkazish osonlashadi. Sinonimlar tarajimada muhim rol o‘ynaydi, chunki ular matnning to‘griligini, aniqligini va tushunarliligini yaxshilaydi.

Asosiy qism. Odil Yoqubovning Ulug‘bek xazinasi asarida keltirilgan “patir” so‘zi ikki xil tarzda tarjima qilingan. Mutarjim birinchi jumlada patir so‘zini गुलाबीनान, ya’ni “kichkina”, “pushti” “yengil non”, ikkinchi jumlada esa मसालेनान**,** ya’ni “ziravorli non” tarzida tarjima qilgan. Fikrimizcha, गुलाबीनान va मसालेनान ham “patir” so‘zini ifodalayolmaydi. Chunki “Patir ko‘pincha yog‘ aralashtirilgan oshirilmagan xamirdan chekiklab tayyorlanadigan yupqaroq non”. [6.253] “Patir” ham milliy yegulik turi hisoblanib asosan O‘rta Osiyo aholisi vakillari orasida iste’mol qilinadi va bu non turi boshqa xalqlarda uchramaydi.Shuning uchun “patir” so‘zini transliteratsiya qilib, matn ostida उज़बेकों का देशीनान tarzida izoh berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ushbu asarda keltirilgan “chopar” so‘zini क़ासिद tarzida ifodalangan.क़ासिद hindiy tiliga arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “chopar” degan ma’noni bildiradi. Tarjimon हरकारा va क़ासिद so‘zlarini qo‘llash orqali “chopar” so‘zining ekvivalentlarini bera olgan. Asarning boshqa bir jumlasida “chopar” so‘zi हरकारा tarzida tarjima qilingan. हरकारा [2.788] so‘zi “xat tashuvch”, “chopar” degan ma’noni anglatadi. Bu yerda tarjimon “chopar” so‘zining aynan ekvivalentini topa olgan.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani tarjimasida esa “yasavul” so‘zi अंगरक्शाक tarzida “chopar” so‘zi esa सन्देशवाहक shaklida tarjima qilingan. Bu ikkisi ham hindcha so‘z bo‘lib aynan” yasavul” va “chopar” ma’nolarini izohlaydi. Demak tarjimon bu yerda “yasovul” va “chopar” so‘zlarining hundiy tilidagi ekvivalentini bera olgan. Endi quyidagi misolda keltirilgan yasavul so‘zining tarjimada berilishini ko‘rib o‘tamiz.

उलूग़ बेक खिन्न मन सोते जा रहे थे कि दरवाज़ा खुला और कमरे में दो सैनिक आये ,दोनों नंगी तलवारें लिये हुए थे ,उनके कानों में मुरकियां देखकर उलूग़ बेक पहचान गये कि वे बल्ख़ के है। उनके पीछे-पीछे कोई अपरिचित सांवला *यसाऊल* आया ,उसने लापरवाही से गहरे हरे रंग के साफ़े से ढका सिर झुकाकर सलाम बजाया और दरवाज़े की ओर मौन संकेत किया। [4.122].

Bu gapda *yasavul* so'zi transliteratsiya qilinib, matn ostida izoh berilgan. Izoh quyidagicha. यसाऊल – सिपाही,पहरेदार. Izoh aniq va to'g'ri berilgan deb hisoblaymiz. Ammo ushbu jumlaga qadar uchragan barcha *yasavul* so'zlari पहरेदार tarzida tarjima qilingan va shu jumlada yasavul so'zi transliteratsiya qilinib, matn ostida izoh berilgan. Shu o'rinda o'z-o'zidan savol tug'iladi. Nima uchun tarjimon dastlab uchragan *yasavul* so'zlarini (8,9,111 sahifalarda) पहरेदार tarzida tarjima qilgan, matn o'rtasiga kelganda esa bu so'zni transliteratsiya qilib matn ostida izoh berishni lozim topgan?

Tarjimon dastlab uchragan *yasavul* so'zini transliteratsiya usuli orqali tarjima qilib, keyingi jumlalarda पहरेदार so'zini qo'llaganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

"Obrez-uyning poygagi yoki dahlizga yuvinish, yuz-qo'l yuvish uchun maxsus yasalgan usti berk o'ra, xandaq". [6.79]. Mutarjim tarjimada "obrez" so'zini transliteratsiya qilib, matn ostida quyidagicha izoh bergan. आबरेज़-वज़ू व ग़ुस्ल के लिये गड्ढानुमा खास जगह. So'zma so'z tarjima. Obrez yuvinish va g'usl qilish uchun ajratilgan maxsus joy. Izoh o'rinli va to'g'ri keltirilgan. "Yulduzli tunlar" tarjimasida *obrez so'zining*- नाबदान tarzida o'girilganiga ham guvoh bo'ldik.

Endi "tancha" so'ziga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Tancha tarjimada सन्दाल tarzida transliteratsiya qilinib, matn ostida quyidagicha izoh berilgan:

सन्दाल-एक प्रकार की अंगीठी, जिसमें गरम राख डालकर ऊपर से बड़ा कम्बल ढंक दिया जाता है। सर्दियों में लोग इसके चारों ओर कम्बल में अपने पैर रखकर बैठे रहते है और इस प्रकार उन्हें गर्म रखते है।[9.106].

So'zma so'z tarjima. Sandal shunday isitish qurilmasiki, unga issiq cho'g' solib, yuqori qismiga katta ko'rpa o'rab qo'yiladi. Qishda odamlar uning to'rt tomonidan ko'rpaga oyoqlarini solib o'tirishadi va shu tariqa isinishadi.

Endi "Yulduzli tunlar" romani tajimasida "sandal" so'zining ifodalanilishiga e'tibor qaratamiz.

Ular baxmal ko'rpa yopilgan issiq sandalning ikki chetida o'tirib kechki taomni birga yemoqda edilar [4.127].

वे मखमली रज़ाई से ढके **संदल** पर बैठे शाम का खाना खा रहे थे। [4.136]

Ushbu jumladagi sandal so'zi संदल shaklida transliteratsiya qilinib, matn ostida quyidagicha izoh keltirilgan.

संदल एक प्रकार की चौकी जिसे गरम अंगीठी या फर्श में बने जलते कोयलेवाले दड्ढे पर रखकर मोटे रजाई से ढक दिया जाता है। सर्दी में उसके चारों ओर रजाई से पैर ढककर लोग बैठते या सोते है।[9.10]

So'zma so'z tarjima: Sandal shunday isitish qurilmasiki, unga issiq cho'g' solib, yuqori qismiga katta ko'rpa o'rab qo'yiladi. Qishda odamlar uning to'rt tomonidan ko'rpaga oyoqlarini solib o'tirishadi va shu tariqa isinishadi.

Ma'lumki tancha ya'ni, sandal xonaning chekkaroq yeriga qurilgan chuqurcha, unga qo'yiladigan pastak kursi va ustiga yopiladigan ko'rpa,mahalliy isitish qurilmasidir.(qish sovug'ida sandal oyoq-qo'l isitish uchun xizmat qiladi, ayni paytda undan yemak stoli sifatida foydalaniladi). Ikkala romandagi sandal so'ziga berilgan izohlar bir biriga yaqin bo'lib, o'rinli qo'llanilgan va "sandal" so'zini izohlay olgan.

Ali Qushchi unga yaqinlashib tavoze bilan salom berdi, lekin Mirzo Ulug'bek o'ng qo'lini vazmin ko'tarib uni to'xtatdi-da, pastdan chiqib kelgan *saroybonga* yuzlandi: -Bakavullar istirohat da emasmu?[9.10]

सुलतान ने ताली बजायी। नीचे से बूटों की ठकठक सुनाई दी और उनके आगे ख़ानसामाँ आ खड़ा हुआ। "बकाऊल सोये तो नहीं ?" [10.13]

Ushbu jumladagi "bakavul" va "saroybon" so'zlari tarixiy so'z hisoblanadi. Saroybon [6.452].saroyni qo'riqlovchi, qorovul, xon saroyi qo'riqchisi. Tarjimada bu so'z ख़ानसामाँ tarzida o'girilgan. ख़ानसामाँ [1.421] so'zi hindiy tiliga fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "xizmatkor, qarol, xizmatkorlar boshlig'i" degan ma'nolarni bildiradi. Izohli lug'atda izohlangan "saroybon" so'zi qorovullik, qo'riqchilik vazifasidan tashqari, o'sha davrda "saroybon" xizmatchi vazifasini ham bajargan. Demak tarjimon tarjimada ख़ानसामां so'zini qo'llash bilan saraybon so'zini ifodalab bera

olgan.Bakavul [7.74] **s**o‘zining birinchi ma’nosi “xon, shoh saroyida ularga tayyorlanadigan taomlarni tatib ko‘ruvchi va ovqat tayyorlash ishlariga mas’ul mansabdor.” Ikkinchi ma’nosi “oshpaz”. Bu so‘z tarjimada transliteratsiya qilinib, matn ostida quyidagicha izohlangan.बकाऊल– शाहीख़ानसामाँ Tarjimada izohlangan ख़ानसामाँ so‘zi biroz e’tirozli. Chunki tarjimada ख़ानसामाँ so‘zi asliyatdagi ikkita tarixiy so‘zni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Bu yerda biroz xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Chunki ikkita tarixiy so‘zni ifodalash uchun bitta so‘zni qo‘llash kitobxonda tushunmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. ख़ानसामाँ so‘zining birinchi ma’nosini yuqorida ko‘rib o‘tdik. Garchi ख़ानसामाँ so‘zining ikkinchi ma’nosi oshpaz bo‘lsada, tarjimon bu yerda boshqa bir so‘zni ya’ni birinchi ma’nosi “oshpaz” bo‘lgan बावरची [2.245] so‘zini tanlashi, izohda शाही बावरची tarzida berishi ma’qul bo‘lar edi. Chunki Pirmiqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida keltirilgan “bakovul” [4.375] so‘zi बावरची [1] [4.382].tarzida tarjima qilingan.

Chopar so‘zi -हरकारा, क़ासिद, सन्देशवाहक kabi sinonim so‘zlardan foydalanib tarjima qilingan. हरकारा fors tilidan क़ासिद *arab tilidan o‘zlashgan so‘zlardir* सन्देशवाहक esa sof sanskritcha so‘z hisoblanadi. हरकारा va fors arab tillaridan o‘zlashgan so‘z bolsada hindiy tiliga lug‘atiga kiritilgan. Ayrim so‘zlarning ma‘nolari o‘tadydigan vazifalari mamlakatlarning, madaniy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalari natijasida tarjima tili sohiblariga ham tanish bolib qoladi va lug‘at tarkibiga o‘zlashib boradi. Bu yerda biz tarjimonning so‘z boyligi darajasining yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin**.**

Xulosa. Sinonim so‘zlarni tanlay bilish asarning uslubini aks ettirishda g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lib, yozuvchining so‘z boyli miqdorini va uning badiiy mahorati darajasini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Sudhir Kumar tarjimasining lug‘ati nihoyat darajada boy, unda asl nusxadagi so‘zlarning ma’no nozikliklariga aynan muvofiq tushadigan sinonimlar topib ishlatilgan.Tahlilimiz mobaynida yasavul so‘zi-अंगरक्शक, पहरेदार, यसाऊल, bakavul so‘zi-बकाऊल, ख़ानसामाँ,बावरची, Saroybon-ख़ानसामाँ, सरायबान, qal’a-क़िला, फ़सिल, to‘n-पोस्तीन, चोग़ा tarzida tarjima qilinganiga guvoh bo’ldik. Sinonim so‘zlarni tanlay bilish asarning uslubini aks ettirishda g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lib, yozuvchining so‘z boyligi miqdorini va uning badiiy mohorati darajasini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хинди-русский словарь. В двух томах, 1-том. / А.С Бархударов, В.М Бескровный и др. Под ред. В.М Бескровный. – М.: Советская энциклопедия, 1972 – 912 с.

2. Хинди-русский словарь. В двух томах, 2-том. / А.С Бархударов, В.М Бескровный и др. Под ред. В.М Бескровный. – М.: Советская энциклопедия, 1972. – 912 с.

3. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at. / U.Isoqovqa, M.Rahimov va bosh. N.Bozorova tahriri ostida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008 – B. 321.

4. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2009. – 543 b.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик 3-жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. – 740.б

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик 5-жилд. – Тошкент: Ўзб.Мил.Энц, 2006. – 630.б

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. / С.Ф Акобиров, Т.А. Аликулов, З.М Маъруфов ва бош. М Маъруфов таҳрири остида – М.: Рус тили, 1981. – 632 b.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. / С.Ф Акобиров, Т.А. Аликулов, З.М Маъруфов ва бош.М Маъруфов таҳрири остида – М.: Рус тили, 1981. – 603 b.

9. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.–334 b.

10. सुधीरकुमारमाथुर, उलूग़बेक की धरोहर, रादुगाप्रकाशन, ताशक़न्द १९८३ – ३६६ प

11. सुधीरकुमारमाथुर, बाबूर, रादुगाप्रकाशन, मास्को १९८८– ५५६ प

UO’K 81

HAQORATNING SUBYEKTIV TAFAKKUR MAHSULI SIFATIDA VOQELANISHI

Z. M. Tuxtasinova, PhD, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Qo‘qon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada subyektiv tafakkur, uning shakllari, haqorat konseptining inson tafakkurining mahsuli sifatida ichki nutqda voqelanishi tasvirlangan. Berilgan fikrlar badiiy adabiyotdan olingan misollar orqali tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: subyektiv tafakkur, nutq, nutq shakllari, ichki nutq, haqorat, muloqot.*

Аннотация. *В данной статье описывается субъективное мышление, его формы, проявление понятия оскорбления во внутренней речи как продукт человеческого мышления. Приведенные идеи анализируются на примерах из художественной литературы.*

Ключевые слова*: субъективное мышление, речь, формы речи, внутренняя речь, оскорбление, общение.*

Abstract. *This article describes the subjective thinking, its forms, the manifestation of the concept of insult in internal speech as a product of human thinking. The ideas given are analyzed through examples taken from fiction.*

Key words*: subjective thinking, speech, forms of speech, inner speech, insult, communication.*

Kirish. Bizning subyektiv idrokimiz chek-chegarasiz borliqning voqeliklari ichida faqat ayrimlarini qabul qiladi [10,33]. Nutq – bu fikrni ifodalash usuli bo‘lish bilan birga uning shakllanishiga zamin yaratuvchi hamdir. Muloqot jarayonida kishi tafakkurining shakllanishi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, atrofdagilarga bo‘lgan munosabati, saviyasiga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, lisoniy vositalar bilan kodlangan ma’lumotlarni uzatish va qabul qilish, nutq xosil qilish jarayonida g‘oyaning paydo bo‘lishi yoki aksincha, nutqiy ifodalardan ma’noni chiqarib olish, uni tushunish kognitiv jarayon bo‘lib, bu jarayon uning amalga oshirilish shartlari va muloqot ishtirokchilariga bog‘liqdir [4,166]. Ushbu murakkab jarayon tilshunoslik, psixologiya, neyrolingvistika, pragmatika fanlari nuqtai nazaridan o‘rganilib kelinmoqda. Nutqning xosil bo‘lishida so‘zlayotgan kishining til bo‘yicha savodi, shuningdek, dunyoviy bilimi muhim o‘rin egallaydi. Rus olimasi O. M. Kazarsevaning fikriga ko‘ra, muloqotda kishining shaxsiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy usuli bu nutqdir[3,16].

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Nutqning ichki va tashqi shakllari bir-biridan farqlanadi. Ichki nutq tashqi nutqdan ifodalanish imkoniyati cheklanganligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, tashqi nutq og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalanishi mumkin. Kishi o‘z fikrini bayon etishdan avval uni o‘ylaydi, ongida shakllantiradi. Aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani ichki nutqda o‘ylash nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda sodir bo‘ladi. Nutqiy vaziyatda u yoki bu fikrni to‘g‘ri bayon eta olish muloqotning maqsadi, uning kimga qaratilganligi va nima haqida bo‘lishiga bog‘liq. Kognitiv o‘zlashtirish va mental jihatdan mustahkamlangan informasion tezaurusga murojaat qilgan holda, adresant tushuncha va konseptlarning kerakli zahirasini ajratib oladi, ularni til formulalariga solib, nutqini o‘ziga xos tarzda tuzadi, bu formulalarni muloqot jarayoniga singdiradi, shu orqali noverbal maqsadlariga erishish uchun diskurs yaratadi [5,47]. Insonning fikrlash jarayoni va uning so‘z, gap va jumlalarga aylanib bayon etilish jarayoni ko‘plab olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Inson tafakkurining mexanizmi haqida fikr yuritar ekan, Jinkin N. I. uning ikkita qarama-qarshi dinamik aloqada – predmet-tasviriy (ichki nutq) va nutq-harakat kodi (ekspressiv nutq)da amalga oshirilishini aytadi. Birinchisida fikr shakllanadi, ikkinchisida u uzatiladi va yana fikr shakllanadi. Inson tafakkurining ana shu ikki qismli mexanizmi kirgan axborotni mantiqiy vositalaridan foydalanib qayta ishlashi uning su’niy yaratilgan qurilmalardan ajratib turadi [2,26].

Tajriba qismi. Kishilar to‘g‘risidagi ichki nutq ko‘proq o‘ziga yaqin bo‘lgan shaxslarga – oila a'zolariga, do‘stlariga, yaqin sherigiga va kam hollarda, uzoq va notanish kishilarga, jamiyat va olamga qaratilgan bo‘ladi. Shuni aytish kerak-ki, kishilar ko‘proq o‘zlariga bog‘liq bo‘lgan narsalarga qiziqishadi (va bu haqida o‘zlariga gapirishadi.) [8,10]

– Termizga borib keldim, – dedi Jamshid erga boqqanicha.

–Savolga alik olmagan Asadbek bu gapdan keyin unga ajablanib qaradi-yu, indamadi.

–Kesakpolvon «Ahmoq, Termizni aytib qovun tushirdi-ku», deb ichida so‘kinib qo‘ygach, so‘roqni davom ettirdi:

–Termizda nima bor ekan senga? [11,67]

Kesakpolvon ham Asadbekning huzurida Jamshid va o‘ziga tegishli sirni ochilganini bilib, ichida Jamshidni so‘kdi. Bu bilan ma’lum bir ma'noda alamidan chiqdi. Va suhbatni doimgidek davom ettirdi.

Ma’lumki, aqlan sog‘lom odam hech kim yo‘q yerda bo‘shliqqa gapirmaydi (kommunikativ vaziyat taqozo etgan holatlardagi “ichki nutq” bundan mustasno, albatta). Ya’ni, so‘zlovchi nutqi

hamisha biz adresat deb aytayotgan kimgadir yoki nimagadir qaratilgan bo‘ladi va bu nutqning qay darajada davom etishi ko‘p hollarda adresat munosabatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Zero, adresat kommunikasiya jarayonida faqatgina qabul qiluvchigina bo‘lib qolmay, balki bu jarayonning faol qatnashchisi hamdir.[7,12]

Agar haqorat konseptini raqibni ijtimoiy xatti-harakat me’yorlarini buzganlikda ayblash deb ta’riflaydigan bo‘lsak, haqorat kishining ichki nutqida ham sodir bo‘ladigan hodisa deb hisoblashimiz mumkin bo‘ladi. Zero, nemis yozuvchisi Patrik Zyuskindning “Ifor” asarida keltirilishicha, fikrlar ham haqorat bo‘lishi mumkin:

Lekin uni shahardan chiqarib yuborish haqidagi fikri, o‘z toifasidagi o‘rtoqlari qilganidek, qizlari, hatto, butun oilalari bilan jo‘natish fikri uning uchun chidab bo‘lmas haqorat edi.[9,52]

Har qanday tashqi nutq, dastavval, inson ongida ichki nutq shaklida namoyon bo‘ladi. So‘ngra u til bo‘yicha bilimlar asosida tartibga keltiriladi va tashqariga chiqariladi. Haqorat ham dastlab ichki nutqimizda yoqimsiz bo‘lgan tashqi ta’sirlar ko‘magida hosil qilinadi va tashqi nutq orqali ifodalanadi.

Ichkarida tafakkur qilinayotgan fikrlar har doim ham talaffuz qilinmaydi. Bayon etilmagan fikrlar tinglovchini so‘zlovchining aniq maqsadidan voqif bo‘lmay qolishiga olib keladi. Biroq, ichki nutqda kishining asl maqsadi namoyon bo‘ladi. Og‘zaki so‘zlashuvda kishining ichki nutqini aniqlab bo‘lmaydi. Bunday ichki nutq badiiy asarlarda muallif tomonidan keltiriladi. Bu orqali o‘quvchiga qahramonning ichki kechinmalari, o‘y-fikrlari haqida ma'lumot beriladi. Matnlarda ichki nutq “hayoldagi o‘y”, “fikr” so‘zlari bilan ifodalanadi.

Ichki nutq inson hayotida ma’lum bir vazifalarni ham bajaradi. Bolalikda xatti-harakatlarni tartibga solish va murakkab kognitiv funksiyalarni qo‘llab-quvvatlashda ichki nutqning o‘rni muhim. Kishi voyaga etganida esa ichki nutq ko‘plab kognitiv jarayonlarga ta’sir qiladi, ammo ichki nutqning kognitiv va tajribaviy tarzda qanday qo‘llanilishida individual o‘zgarishlar mavjud.[1,45] Ushbu fikrning tasdig‘ini quyidagi matnlrda ko‘rishimiz mumkin:

Qosim unga termilgancha qotib qoldi. Xayolida ming xil o‘y. Biri: “Bu ukkag‘arning bolasi tulkilik qilayapti”, desa, ikkinchisi: “Tan beribdi-da, mochag‘ar”, derdi. Uchinchi, to‘rtinchi o‘ylar ham bir-biriga qarshi, bir-birini inkor qilardi.

– Taklifim yoqmadimi, oka? – dedi Ikrom Qosimning jim bo‘lib qolganini ko‘rib.[3,152]

Ushbu matnda Qosimning ichki nutqi Ikromga qaratilganligini, uning Ikromni yoqtirmasligi (ukkag‘ar, mochag‘ar kabi haqorat so‘zlar orqali aniqlandi) va undan shubhalanishini anglanadi. Lekin u bu fikrini yuzaga chiqarmaydi, aks holda ularning endi tiklanayotgan munosabatlariga putur etishi mumkin. Shuningdek, ichki nutqdagi so‘zlar ham kishining jamiyatning qaysi qatlamiga mansubligini bildiradi. “Mochag‘ar, ukkag‘ar” kabi so‘zlar bilan haqoratlash jinoyat olamining vakillari uchun odatiy holdir.

Olingan natijalar tahlili va xulosa. Nutq ham insonning ijtimoiy hayotining mahsuli bo‘lib, ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatdagi qoidalar bilan belgilanadi, ushbu qoidalarga amal qilish esa adresantni o‘zi intilgan natijaga erishishiga, noverbal maqsadlariga etishishiga olib keladi.[5,26]

Umuman olganda, kishi har qanday ijtimoiy toifaga mansubligidan qat’iy nazar, o‘z sha’ni va obro‘sini saqlashga harakat qiladi. Haqorat esa har qanday jamiyatda qoralanadi. Chunki u salbiy xis-tuyg‘ularni ifodalaydi va keltirib chiqaradi. Ma’lumki, qonunda haqorat uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Faqat bu qonun tashqi nutq, xatti-harakatlar orqali ifodalangan haqoratga tegishlidir. Ichki nutqdagi haqoratni hech kim isbotlay olmaydi, chunki u insonning ichki olamidan tashqariga chiqqani yo‘q. Ichki nutqdagi haqorat, toki u tashqarida bayon qilinmaguncha jinoyat hisoblanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alderson-Day B, Fernyhough C. Inner Speech: Development, Cognitive Functions, Phenomenology, and Neurobiology. Psychol Bull. 2015 Sep;141(5):931-65. doi: 10.1037/bul0000021. Epub 2015 May 25. PMID: 26011789; PMCID: PMC4538954.

2. Жинкин Н. И. О кодовых переходах во внутреннй речи// Вопросы Языкознания.–1964. – № 6. – с. 26-38.

3. Исмоилов Н. Иблис салтанати (1-китоб). – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. – 304 б. – Б. 152-153.

4. Кубрякова Е. С., Демьянков В. З., Панкрац Ю. Г., Лузина Л. Г. Краткий словарь когнитивных терминов. под общ. ред. Е.С. Кубряковой. – М.: Филол. ф-т МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. – 245 с.

5. Кусов Г.В. Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт.- Дисс. … канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 245с.

6. Матвеева Т. В. Полный словарь лингвистических терминов. – Ростов н/Д: Феникс, 2010. – 562 с.
7. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона:.2021. – 67 б.
8. Morin, Alain & Uttl, Bob. Inner speech: A window into consciousness. The Neuropsychotherapist//10.12744/tnpt.14.04.2013.01.
9. Патрик Зюскинд. Ифор.(рус тилидан Г. Саидғаниева таржимаси)/Жаҳон адабиёти: адабий-бадиий, ижтимоий-публицистик журнал, № 8/207, 2014 йил, август. 208 б., 50-б.
10. Сергин В.Я. Субъективное восприятие окружающего мира: нейробиологические механизмы и смысл// Открытое образование, no. 1, 2009, pp. 33-44//https://cyberleninka.ru/article/n/subektivnoe-vospriyatie-okruzhayuschego-mira-neyrobiologicheskie-mehanizmy-i-smysl (дата обращения: 13.03.2025).
11. Тоҳир Малик. Шайтанат (4-китоб). – Тошкент: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Давлат илмий нашриёти, 2018. – 528 б. – Б.67.

UDC 81-13

THE METHODS AND FUNCTIONS OF TRANSLATING RELIGIOUS TEXTS

D.R. Ubaydullayeva, teacher Fergana state university.

Annotatsiya. *Diniy matnlarni tarjima qilish boshqa tarjima turlariga qaraganda ancha murakkab hisoblanadi. Ularni tarjima qilish jarayonida faqat tarixni emas, balki barcha diniy matnlarning madaniyatini ham taqqoslashga to'g'ri keladi. Bu xilma-xillik har birini boshqalardan ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Bundan tashqari, diniy matnlarni tarjima qilishda ularni boshqalarga ravshan ko'rsatish uchun turli usullar va funksiyalardan foydalanish mumkin.*

Kalit so'zlar: *tarjima, tarjimon, muqaddas kitoblar, audiovizual, taqlid, transkripsiya, diniy, madaniyat, islom, xristianlik.*

Аннотация. *Перевод религиозных текстов значительно сложнее по сравнению с другими видами перевода. При их переводе необходимо учитывать не только исторические аспекты, но и культурное наследие всех религиозных текстов. Это разнообразие помогает различать каждый из них. Кроме того, при переводе религиозных текстов можно использовать различные методы и функции для их более наглядного представления другим.*

Ключевые слова: *перевод, переводчик, священные книги, аудиовизуальный, имитация, транскрипция, религиозный, культура, ислам, христианство.*

Abstract*. The study of the religious texts translation is much more difficult when compared with other types of translational works.While translating them we have to compare not only history, but also culture of all religious texts. This diversity is able to help to differtionate each of them. Additionally,in translation of religious texts we can use number of methods and functions to delinate them obviously to others.*

Key words: *translation, translator, holy books, audiovisual, imitation, transcriction, religious, culture, islam, Christ.*

Introduction. The origins of religious translation can be found in the translation of biblical books. Translations including theology or other processes involving languages of religion subsequently became more widespread and commonplace. Therefore, the first religious translations were restricted to holy books like the Bible. The investigation of translation now include audiovisual translation as a core component. The terms "audiovisual" and "translation" need to be clarified here. Translation, also known as is an approach of converting text from one source language to another target language, according to academic consensus. Any word will nonetheless, nevertheless, deal with the process of translating text between languages. This instance of translation is focused on the audiovisual text, which is made up of several channels and symbols. As a result, audiovisual translation is an increasingly complicated entity than written text since it involves lexical aspects, symbols, and signs. The translation of audiovisual content includes dubbing and subtitling, for instance. The primary distinction between subtitling and dubbing is the goal outcome's mode shift. While in subtitling the source language is in the form of printed matter and the language being targeted is in the form of speech, in dubbing both the source and target languages are speech-based. researchers have studied translation techniques in great detail.

The main findings and results. Translating religious texts presents a set of unique challenges due to the complexity of religious language, cultural nuances, and the importance of maintaining the integrity and accuracy of the original text. Here are some methods and functions commonly used in translating religious texts:

1. Literal Translation: This method aims to reproduce the original text word-for-word, focusing on maintaining the most accurate translation possible. It is typically employed when the text contains specific theological or doctrinal concepts that need to be accurately conveyed.

2. Dynamic Equivalence: Dynamic equivalence focuses on conveying the meaning of the text rather than a literal translation. It aims to capture the essence, intent, and impact of the original text while utilizing language and cultural expressions that resonate with the target audience. This approach is commonly used when translating religious texts aimed at a broader or non-native audience.

3. Formal Equivalence: Also known as "faithful" or "functional" equivalence, this method aims to maintain both the form and function of the original text. It seeks to reproduce the grammar, syntax, and idiomatic expressions of the source text as closely as possible, while also capturing its intended meaning.

4. Contextualization: Contextualization involves adjusting the translation according to the target culture's religious and cultural context, customs, and beliefs. It aims to make the translated text more relatable and accessible to the audience, employing culturally specific terms, idioms, and concepts.

5. Interlinear Translation: This method involves providing a literal translation of each word or phrase directly below the source text. It is commonly used in scholarly or academic settings to aid in understanding the original language and syntax while providing a direct, word-for-word translation.

6. Exegetical and Hermeneutical Considerations: Translating religious texts often requires deep knowledge of both the source and target languages, as well as the associated religious and theological concepts. Translators may need to interpret difficult passages or ambiguous terms based on historical context, religious understanding, and textual analysis.

7. Cultural Adaptation: When translating religious texts, cultural adaptation is often necessary to ensure the text resonates with the target audience. This may involve replacing or adding religious expressions, rituals, or practices familiar to the target culture while maintaining the original spiritual or doctrinal meaning.

8. Glossaries and Footnotes: Complex religious texts may require the inclusion of glossaries or footnotes to provide explanations, definitions, or alternative interpretations of key terms, concepts, or cultural references. These aids can enhance the reader's understanding and engagement with the translated religious text.

9. Collaborative Approaches: Translating religious texts often benefits from collaboration among scholars, theologians, linguists, and native speakers of the target language. This collaborative effort brings together different areas of expertise, ensuring a more accurate and culturally appropriate translation.

10. Review and Quality Assurance: Translation of religious texts should undergo rigorous review and quality assurance processes to ensure fidelity to the source text and adherence to the intended meaning. Reviewers may include experts in the source and target languages, religious scholars, and members of the faith community to ensure accuracy and faithfulness.

Undoubtedly, culture presents one of the most challenging subjects for translators to work with because it can lead to a number of issues during the translation process, including issues with idioms and metaphors, forms of address, and issues with words that have dual meanings. The notion of culture is essential to any translation methodology. Translations into foreign languages always involve intercultural communication because culture is a key component of translation. An important error will be made by the translator if they fail to recognize the relationship between language and culture.There are some important sites of translating most popular religious books from target language to source language. It is clear that Quran and Bible are the most renowned ones among translation world because of their popularity

Ismatulla Abdullayev who was a renowned Arabic scholar, translated this text into Uzbek Cyrillic in 2012 at his own expense and 100 copies were published. Important information on the history of translations, the translation, and the life and work of Oltinkhan Tora was included in his prelude to the Qur'an in Uzbek. Published by Ismatulla Abdullayev, this translation solely includes the original Altinkhan Tora text."Tafsiri Hilal" is translated to match the verses exactly and provides an explanation of them. Additionally, a large amount of room is given to the remarks in Alauddin Mansur's translation. Below are the initial recommendations:

Conclusion. To sum up, translations of the Qur'an for the benefit of people who could not read the original were not encouraged by Islam. Conversely, some Muslim officials even denounced as impious or even blasphemous the attempt to create such translations. Thus, the Qur'anic translation is a controlled translation. Rigorous restrictions on whose expertise converts, what gets translated, the manner in which it is interpreted, for whomever the phenomenon is translated, and how regularly the outcome of the translation is distributed and debated are all part of controlled translation, as defined by Robinson (2000: 103–107). In relation to Bible translation Religious history indicates that common people want and receive translations of religious writings into their own tongues. Pentateuch for the Hellenized Jewish community in Memphis and Latina for the Latin-speaking followers of Christ of the fourth and fifth centuries are two examples of this. The control over the translation's comprehensibility is reminiscent of the previous Bible translations from the evangelical societies' era. This leads to a literal translation that maintains the sacred text's integrity.

REFERENCES:

1. M.A.Mahmoud// Problems of Translating Islamic Religious Items-Beirut,2014.

2. J.A.Naude//Religious translation- University of Free State, 2010

3. I.G'ofurov,N.Qambarova,O.Mo'minov//Tarjima nazariyasi-Toshkent, 2012

4. Ubaydullayeva, Durdona, and Muhammadjon Tojiboyev. "Translation is the study of linguistic and literary." Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. Vol. 1. No. 1. 2023.

5. Ubaydullaeva, D. (2022). Ҳозирги замон тилшунослигида қўшма гаплар тавсифи, таснифи ва метатили масалалари. Science and innovation, 1(B6), 560-564.

6. Ubaydullaeva, D. (2022). Problems of description, classification and metatalogy of complex sentences in modern linguistics. Science and Innovation, 1(6), 560-564.

UDK 808.3

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHART KOMPONENTLI GIPOTAKSEMALARNING IZOMORFIK VA ALLOMORFIK JIHATLARI

D.R. Ubaydullayeva, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik va allomorfik jihatlari va ularni taqozo etuvchi omillar tahlil qilingan. Turli tizimga mansub bo'lgan ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda ularning ta'rifi, tasnifi, struktur-semantik jihatlari hamda shart subordinatorlarining joylashish tartibi tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *Shart komponentli gipotaksema, izomorfizm, allomorfizm, sintaktik vosita, subordinatorlar.*

Аннотация. *В статье анализируются изоморфные и алломорфные аспекты гипотаксем условного компонента в английском и узбекском языках, а также факторы, обуславливающие их наличие. Проанализированы их определение, классификация, структурно-семантические аспекты, расположение условных подчинителей с целью выявления сходства и различий в гипотаксемах условного компонента в английском и узбекском языках, принадлежащих к разным системам.*

Ключевые слова: *Условный компонент гипотаксема, изоморфизм, алломорфизм, синтаксический аппарат, подчинители.*

Abstract. *The article analyzes the isomorphic and allomorphic aspects of conditional component hypotaxemes in English and Uzbek and the factors that require them. Their definition, classification, structural-semantic aspects, and the arrangement of conditional subordinators were*

analyzed in order to determine the similar and different aspects of conditional component hypotaxemes in English and Uzbek languages, which belong to different systems.

Key words: *Conditional component hypotaxema, isomorphism, allomorphism, syntactic device, subordinators.*

Kirish. Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik va allomorfik jihatlari bu aynan ikki tilda shu gaplarning o‘xshash va noo‘xshash xususiyatlari hisoblanadi. Izomorfik jihati o‘zaro o‘xshash bo‘lgan tomonlari bo‘lsa, allomorfik jihati esa ularning farqli tomonlaridir. Yuqoridagi qiyosiy tahlillarimizdan kelib chiqib shuni ta’kidlashimiz lozimki, analitik tillarga mansub ingliz tili va agglyutinativ tillarga kiruvchi o‘zbek tilidagi shart komponentli gipotaksemalar izomorfik va allomorfik jihatlarga ega. Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik (o‘xshash) jihatlari quyidagilardir:

O‘zbek va ingliz tillarining eng muhim izomorfik jihati shundaki, har ikkala til ham shart manosini ifodalovchi sintaktik vositalarga boy. Ular ma’lum monotaksemalar, gipotaksemalar, ega komponentli gipotaksemalar, to‘ldiruvchi komponentli gipotaksemalar, aniqlovchi komponentli gipotaksemalar, o‘rin komponentli gipotaksemalar, payt komponentli gipotaksemalar, proporsional komponentli gipotaksemalar, qiyos komponentli gipotaksemalar, parataksemalar va murakkab sintaktik butunliklardir. Bu vositalarning yig‘indisi birgalikda shart konsepti maydonini hosil qiladi. Shart konsepti maydon yadro (markaz) va periferiyadan tashkil topadi. Yadroni har ikkala tilda ham shart komponentli gipotaksemalar hosil qiladi, chunki ular shart semantikasini sof ifodalaydi, nutqda eng ko‘p ishlatiladi, stilistik jihatdan neytral, ularni boshqalar o‘rnida ham ishlatish mumkin. Qolgan sintaktik vositalar periferiyani hosil qiladi. Ularda shart munosabati ikkinchi darajali ma’no bo‘lib, ular boshqa birlamchi sintaktik munosabatlar bilan birga kelib sintaktik sinkretizmni tashkil qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi shart munosabatlarini ifodalovchi vositalar o‘rtasidagi asosiy farqlar ularning yuzaki strukturasida, ishlatilishida, qoliplarining sonida va stilistik xususiyatlaridadir.

Shart komponentli gipotaksemalarning ta’rifiga to‘xtalsak, deyarli ikki tilda (ingliz va o‘zbek tillarida) shart komponentli gipotaksemalarga berilgan ta’rif bir xil desak ham bo‘ladi.

Ikkala tildan kelib chiqib, biz shart komponentli gipotaksemalarga quyidagicha ta’rif beramiz:

“Shart komponentli gipotaksemalar shunday SHKGki, unda kamida bir bosh gap va bir tobe komponent bo‘lib, tobe komponent bosh gapdan anglashilgan ish – harakatning (shart, zaruriyat kabilarni) amalga oshirilishi uchun qaysidir ish harakatni bajarish zaruriyatini nazarda tutadi.” Ta’rifning bir xil ekanligi bu ularning izomorfik (o‘xshash) jihatidir.

Muhokama. Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning shart komponent qismi bosh gapga nisbatan postpozitiv, prepozitiv, interpozitiv tartibda joylashadi. Ikki tilda ham ularning kelish tartibi erkindir.

Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning shart komponentlari asosan bosh gapga quyidagi yo‘llar bilan bog‘lanadi;

Ingliz tilida:

1) shart subrodinatorlari (if, unless, if not, once, in case)

2) *that* bog‘lovchisi bilan keluvchi fel so‘z turkumidagi bog‘lovchi so‘zlar yordamida (considering (that), admitting (that), presuming (that), seeing (that) assuming (that), allowing that, on the understanding that, with the understanding that, conceding that)

3) shart subordinatorlari vazifasida keluvchi so‘zlar (while, whereas)

4) so‘roq olmoshlari yordamida (when, who)

O‘zbek tilida:

1) shart subordinatorlari yordamida (agar, agarda, mabodo, basharti, koshki)

2) sintetik subordinatorlar yordamida (-sagina, -sa-chi, -sa bormi, -sa edi, -sa ekan, -sa qaniydi)

3) bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida (yo‘qsa, bo‘lmasa, aks holda) Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning **izomorfik** jihatlari quyidagicha:

1) Har ikki tilda SHKGlar bosh gapdan anglashilgan voqea, hodisa, belgi-xususiyatning qanday shart-sharoitlarda ro‘y berishi yoki ro‘y bermasligini ko‘rsatadi.

2) Ular kamida ikki komponentdan bosh va tobe komponentlardan iborat.

3) SHKGlar komponentlarini bog‘lashda shart subordinatorlari qo‘llanadi, bu ularning sindetik turidan dalolat bersa, komponentlari subordinatorsiz (so‘z tartibi o‘zgarishi orqali) bog‘lanadigan SHKGlar ham mavjud.

4) Har ikkala tilda subordinatorlar tobe komponent oldidan qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa ular eron tillaridan oligan subordinatorlar (agar, gar, basharti, mabodo).....?

5) Har ikkala tilda SHKGlarda tobe (shart yoki konditsional) komponent bosh gapga nisbatan boshida, o‘rtasida, oxirida kela oladi.

6) Har ikkala tilda SHKGlarda tobe komponent bosh komponentdan oldin kelish holatlari ustun.

Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning **allomorfik** jihatlari quyidagicha:

1) SHKG turlari son jihatdan farqlanadi.

2) Ingliz tilida barcha subordinatorlar analitik vositalar, o‘zbek tilida esa sintetik, analitik va analitik sintetik vositalar yordamida ifodalanadi.

3) Ingliz tilida “if” komponentli SHKG son jihatdan ustun, o‘zbek tilida esa “-sa” sintetik subordinatori orqali bosh komponentga bog‘langan tobe komponentlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

4) SHKGlar ikkala tilda yuzaki strukturasi bilan farqlansa, ichki ma’no jihatdan asosan farqlanmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida bog‘lovchi vositalarning o‘xshash jihatlari ham mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi *agar,gar, garchi, agarda, mabodo, basharti, koshki, zora, agarda, aks holda, bo‘lmasa, yo‘qsa va.xkzlar* kabi bog‘lovchilar ingliz tilidagi *if, in case, once, unless, providing that, supposing that, provided that, granting that, granted that, assuming that, presuming that* bog‘lovchilariga to‘g‘ri keladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillardagi SHKGlarning izomorfik va allomorfik jihatlari ulardagi ma'lum tipologik qonuniyatlar bilan tushuntiriladi. Bunday qonuniyatlar qiyoslanayotgan tillarning tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq o‘lib, mazkur tillarning qaysi tipga mansubligi bilan belgilanadi. Ingliz tili analitik tipdagi SVO tillar qavmiga mansubligi uning SHKGlarida komponentlar o‘rtasida faqat analitik subordinativ vositalar qo‘llanilishini, o‘zbek tili esa agglyutinativ tipdagi SOV tillar qavmiga tegishli bo‘lganligi uchun unda mazkur gaplarning komponentlarini faqat analitik-sintetik va sintetik subordinativ vositalar orqali bog‘lanishini kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдураҳмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1958.

2. А.Мамажонов. Қўшма гап стилистикаси. Тошкент: Фан, 1990.

3. Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. Тошкент: Фан, 1989.

4. Нурмонов А, Махмудов *Н, Ахмедов А,* Солихўжаева С. *Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси*. – Тошкент Фан, 1992.

5. Хошимов Ғ.М. Сложноподчиненные предложения с придаточными цели в разносиситемных языках. – М. 1982

6. Хошимов Ғ. М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Т.: Фан, 1991

UO’K 808.5

KUNDALIKNING ADABIY SHAKL SIFATIDAGI NAZARIY ASOSLARI

D.R. Ubaydullayeva, PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg’ona
D.D. Xoshimov, magistrant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg’ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kundalik janrining adabiyotdagi o‘ziga xos shakli sifatida nazariy asoslari tahlil qilinadi. Kundalik adabiyoti badiiy tafakkur, shaxsiy kechinmalar va ichki monolog asosida shakllangan individual tajribaning aksidir. Maqolada kundalikning adabiy-estetik funksiyalari, uning avtobiografik matn sifatidagi o‘rni, zamonaviy adabiy jarayondagi o‘zgarishlari hamda adabiy tanqiddagi baholanishi ilmiy-nazariy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *kundalik janri, adabiy shakl, avtobiografizm, ichki monolog, adabiy tafakkur, mualliflik pozitsiyasi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы жанра дневника как своеобразной формы в литературе. Ежедневная литература - это отражение индивидуального опыта, сформированного на основе художественного мышления, личных переживаний и внутреннего монолога. В статье рассматриваются литературно-эстетические функции дневника, его роль как автобиографического текста, его изменения в современном литературном процессе и его оценка в литературной критике на основе научно-теоретического подхода.*

Ключевые слова: *жанр повседневности, литературная форма, автобиографизм, внутренний монолог, литературное мышление, авторская позиция.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of the everyday genre as a specific form in literature. Everyday literature is a reflection of individual experience, formed on the basis of artistic thinking, personal experiences, and inner monologue. The article examines the literary and aesthetic functions of the diary, its place as an autobiographical text, its changes in the modern literary process, and its evaluation in literary criticism based on a scientific and theoretical approach.*

Key words*: genre of everyday life, literary form, autobiography, inner monologue, literary thinking.*

Kirish. Adabiyot inson tafakkuri, ichki dunyosi va ijtimoiy ongining eng nozik qatlamlarini badiiy obrazlar orqali ifodalovchi muhim san'at turlaridan biridir. Adabiy jarayonda shakllangan har bir janr insoniyatning madaniy-estetik taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Shular sirasiga kiruvchi kundalik janri ham o'ziga xos xususiyatlari, subyektiv yondashuvi va ichki samimiyati bilan ajralib turadi. Avvalboshdan xususiy-muloqot shakli sifatida qaralgan kundalik, vaqt o'tishi bilan badiiy-estetik mazmun kasb eta boshladi hamda adabiy janrlar tizimida mustahkam o'rin egalladi.

Bugungi adabiy tanqid va nazariyada kundalikning nafaqat shaxsiy hujjat yoki avtobiografik manba sifatidagi, balki adabiy shakl darajasidagi mohiyati tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Xususan, XX–XXI asr adabiyotida ushbu janr badiiy tafakkur, mualliflik pozitsiyasi va shaxsning ichki kechinmalarini ifodalash vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Shu bois, kundalik janrining nazariy asoslarini, uning adabiy shaklga aylanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hozirgi adabiy jarayonni chuqurroq anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada kundalikning adabiy shakl sifatidagi o'ziga xos jihatlari, uning janrlar tizimidagi o'rni, badiiy-estetik xususiyatlari va zamonaviy adabiyotdagi namoyon bo'lish shakllari nazariy yondashuvlar asosida o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kundalik janrining adabiy shakl sifatidagi o'rni bir qancha adabiyotshunoslar tomonidan turli davrlarda tahlil etilgan. Jumladan, rus adabiyotida M.M. Baxtinning dialogizm nazariyasi, avtobiografik shakllarning o'zaro munosabati haqida ilgari surgan g'oyalari ushbu janrni tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. G'arbiy adabiyotshunoslikda esa Philippe Lejeune'ning "avtobiografik shartnoma" konsepsiyasi kundalik va avtobiografiya o'rtasidagi farqlarni aniqlashda muhim ilmiy yondashuvni taklif etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida esa kundalik janrining badiiy-estetik xususiyatlari hali to'liq ilmiy asosda chuqur tahlil qilinmagan bo'lsa-da, ayrim adiblarning (masalan, Cho'lpon, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qodiriy) shaxsiy kundaliklari asosida olib borilgan izlanishlar mavjud. So'nggi yillarda adabiy tanqidda shaxsiyat, ichki monolog, mualliflik pozitsiyasi va intim badiiyat kabi tushunchalarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, bu esa kundalik janrini qayta ochib berish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, zamonaviy adabiy jarayonda internet bloglari va raqamli kundaliklar shaklida paydo bo'lgan yangi adabiy ifoda vositalari kundalik janrining yangi shakllanish bosqichini tahlil qilishga zamin yaratmoqda.

Ushbu tadqiqotda kundalik janrini adabiy shakl sifatida o'rganish uchun quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi.

Tarixiy-adabiy tahlil – kundalik janrining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va adabiy jarayondagi o'rni tarixiy kontekstda o'rganildi.

Komparativ tahlil – turli adabiy maktablar va madaniy muhitlarda shakllangan kundalik namunalarining o‘zaro taqqosiy tahlili amalga oshirildi.

Struktural yondashuv – kundalik janrining ichki tuzilmasi, uslubiy xususiyatlari, mualliflik nutqi va kompozitsion birliklari tahlil qilindi.

Estetik-nazariy tahlil – kundalikning badiiy qiymati, adabiy-estetik funksiya va qabul jarayonidagi o‘rni o‘rganildi.

Kontekstual tahlil – kundalik matnlarining muallif hayoti, ijtimoiy-madaniy sharoitlar bilan bog‘liqligi kontekstda yoritildi.

Ushbu metodlar orqali kundalik janrining adabiy shakl sifatidagi xususiyatlari ko‘p qirrali va chuqur tahlil qilinishiga erishildi.

Muhokama. Kundalik janri dastlab shaxsiy yozuv, xotira va hayotiy voqealarni qayd etish vositasi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u adabiy shaklga aylana bordi. Ushbu shakl o‘zida nafaqat muallifning kundalik hayotini, balki uning ichki kechinmalari, ijtimoiy voqelikka bo‘lgan munosabatini, shaxsiy-estetik dunyoqarashini ham aks ettira boshladi. Kundalikning adabiy shaklga aylanishida yozuvchining individual uslubi, tafakkur darajasi, zamonaviy badiiy konvensiyalar va ijtimoiy sharoitlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Muhokamali jihatlardan biri shuki, kundalik adabiyotda avtobiografik janrlar bilan yaqinlik kasb etsa-da, u to‘liq avtobiografiya emas. Kundalik matnlari ko‘pincha fragmentar, vaqtga bog‘langan, tuzilishi jihatdan bo‘lakli bo‘lib, bu uni boshqa an’anaviy janrlardan ajratib turadi. Shu sababli ba'zi adabiyotshunoslar kundalikni adabiy shakl sifatida emas, balki oraliq janr – “avtohujjatli adabiyot” sifatida baholaydilar. Biroq kundaliklarda mavjud badiiy ifoda vositalari, ichki dramatizm, mualliflik pozitsiyasi va uslubiy yondashuvlar uni alohida adabiy shakl sifatida e’tirof etishga zamin yaratadi.

Yana bir muhim jihat shuki, kundalik orqali muallif o‘zining jamiyatga, o‘ziga, hayotga bo‘lgan munosabatini ochiq va bevosita ifoda etadi. Bu esa adabiy jarayonda kundalikni subyektivlikning eng yuqori shakli sifatida ko‘rishga imkon beradi. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotda kundalik matnlar psixologik chuqurlik, ichki monolog va individual tafakkurni ifodalash vositasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday qilib, kundalikning adabiy shakl sifatidagi nazariy asoslarini tahlil qilish – adabiyotning shaxsiylik va estetik ifoda chegaralarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu esa uning adabiy jarayondagi rolini yanada kengroq ko‘lamda baholash imkonini beradi.

Natijalar. O‘tkazilgan nazariy tahlil va ilmiy izlanishlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi. Kundalik – adabiy shakl sifatida shaxsiy tajriba, ichki kechinmalar va mualliflik tafakkurining bevosita ifodasi bo‘lib, o‘ziga xos kompozitsion va uslubiy tuzilishga ega badiiy matn shaklidir. Kundalik adabiyotda subyektivlik, ichki monolog, samimiyat va fragmentarlik kabi xususiyatlar orqali adabiy ifoda vositasi sifatida o‘zining o‘rni va ahamiyatiga ega.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kundalik matnlarida mualliflik pozitsiyasi, vaqt va makon bilan bog‘liqlik asosiy belgilar sifatida namoyon bo‘ladi va bu uni boshqa janrlardan farqlab turadi.

XX–XXI asr adabiyotida kundalik shakli orqali yozuvchi nafaqat o‘zining ichki dunyosini, balki davr ijtimoiy-ma’naviy muhitini ham aks ettira oladi. Bu esa kundalik janrining madaniy-tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida kundalik janrini adabiy shakl sifatida tizimli va chuqur o‘rganish hali yetarli darajada emas, ammo bu yo‘nalishda olib borilayotgan dastlabki izlanishlar istiqbolli ilmiy yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Xulosa. Kundalik janri adabiy tafakkurning shaxsiy va intim shakllarini ifodalashda muhim vositalardan biri sifatida qaralishi zarur. Ushbu janrning adabiy shaklga aylanishi, bir tomondan, yozuvchining individual psixologik holati va estetik qarashlarini yoritishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, u zamonaviy adabiyotda mualliflik nutqi, ichki monolog va badiiy tafakkur kabi jarayonlarning chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda.

Kundalik matni ko‘pincha xotira va voqelikni qayd etuvchi hujjatli shakl sifatida qaralsa-da, adabiy-estetik jihatdan u badiiy janrlar tizimida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning tuzilmasi, uslubi va mazmuni muallif dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, adabiy asar darajasidagi ifodaviylik,

tahlilchanlik va estetik baholashni o‘zida mujassam etadi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar kundalik janrining adabiy-estetik imkoniyatlarini ochib berish, uning tarixiy shakllanish jarayoni, janrlar tizimidagi o‘rni va zamonaviy ifodalanish usullarini belgilashga xizmat qiladi. Kelgusida bu yo‘nalishda yanada kengroq empirik va amaliy tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – 502 с.
2. Lejeune, Philippe. *On Autobiography*. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1989. – 221 p.
3. Gusdorf, Georges. *Conditions and Limits of Autobiography* // *Autobiography: Essays Theoretical and Critical*. Princeton University Press, 1980.
4. Шмелев Д. Н. Очерки по стилистике русского языка. – Москва: Наука, 1977. – 304 с.
5. Mirziyoev Sh.M. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
6. G‘ofurov Q. *Adabiy jarayon va badiiy tafakkur*. – Toshkent: Fan, 2006. – 288 b.

UO'K 808.5

O‘ZBEK VA QIRG‘IZ TILSHUNOSLIGIDAGI FONETIK TERMINLARNING TAHLILI

M.A. Ubaydullayeva, dots., Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi fonetik terminlarni solishtirib tahlil qilish uchun ularning tovush tizimi, urg‘u, talaffuz xususiyatlari va fonologik qonuniyatlarini ko‘rib chiqish kerak. Ushbu maqolamizda o‘zbek va qirg‘iz tillarining fonetik terminlarini qiyosiy tahlil qilib o‘tdik. Tadqiqotda har ikki tilning fonetik sohasi terminologiyasining o‘xshashliklari va farqlari o‘rganilib, ularni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar berildi.*

Kalit so‘zlar: *unli tovush, ndosh tovush, "ovozsiz undosh", "intonatsiya", "qattiq undosh", "yumshoq undosh", "keng unli", "yumshoq undosh", "shiddat".*

Аннотация. *Для сравнительного анализа фонетических терминов узбекского и кыргызского языков необходимо рассмотреть их звуковую систему, ударение, особенности произношения и фонологические закономерности. В данной статье мы провели сравнительный анализ фонетических терминов узбекского и кыргызского языков. В ходе исследования были изучены сходства и различия терминологии фонетической области обоих языков и даны практические рекомендации по их совершенствованию.*

Ключевые слова: *гласный звук, ндошный звук, "глухой согласный", "интонация", "твердый согласный", "мягкий согласный", "широкий гласный", "мягкий согласный", "интенсивность".*

Abstract. *To compare and analyze phonetic terms in Uzbek and Kyrgyz languages, it is necessary to consider their sound system, accentuation, pronunciation characteristics and phonological laws. In this article, we passed a comparative analysis of the phonetic terms of the Uzbek and Kyrgyz languages. The study examined the similarities and differences in the terminology of the phonetic field of both languages and made practical recommendations for their improvement.*

Key words: *vowel sound, consonant sound, "voiceless consonant", "intonation", "hard consonant", "soft consonant", "wide vowel", "soft consonant", "intensity".*

Fonetik terminologiya har qanday tilshunoslik tarmog‘ida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek va qirg‘iz tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, ularning fonetik tuzilishida ko‘plab o‘xshashlik va farqli tomonlar mavjud.Biroq fonetik terminologiyada ba'zan atama birligi va mazmunida chalkashliklar uchrab turadi. Shuning uchun tilshunoslikda aniq, bir xillik va ishonchli fonetik terminlarni shakllantirish katta ahamiyatga egadir. Ushbu tadqiqotimizda maqsad qilib o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi fonetik terminlarni solishtirish, ularning o‘zaro munosabati va farqlarini aniqlash hamda tilshunoslik amaliyotida yanada takomillashgan, uyg‘un tilshunoslik tilining shakllanishiga hissa qo‘shishdir. O‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik sohalarida terminologiyaning soddalashtirilishi va umumlashtirilishini qo‘llab-quvvatlash mukammal infratuzilma yaratishga yordam beradi. Fonetik terminlar til tovushlarini tavsiflash, tasniflash va o‘rganishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu terminlar tilshunoslik mahsuli bo‘lib, ovozlar xususiyatlari, ularning hosil bo‘lishi, o‘zgarishi va fonetik jarayonlarni ifodalaydi. Umuman olganda, fonetik terminlar tillararo farqlarga qaramay, ovoz tizimini ifodalashda umumiy asosiy tushunchalarga ishora qiladi. Masalan, "unli tovush", "undosh",

“ovozsiz undosh”, “intonatsiya” kabi terminlar ko‘pgina tillarda mavjud. Biroq talaffuzning o‘ziga xos jihatlari sababli, ba’zi terminlarning ta’rifi va qo‘llanilishi farqli bo‘lishi mumkin.

Fonetik terminlarning aniq va tushunarli bo‘lishi tilshunoslik tadqiqotlarining sifatini oshirish, talabalar va o‘qituvchilar uchun qulaylik yaratadi. Shu sababli, umumiy tushunchalar va tilga xos jihatlar o‘rganilishi lozim. O‘zbek tilining fonetik terminologiyasi,asosan, qadimgi turkiy tilshunoslik asoslariga tayangan bo‘lib, unda tovushlarning hosil bo‘lishi, tasnifi va ovozlarning o‘ziga xosliklari yoritilgan. O‘zbek fonetik terminlarida unli va undosh tovushlar, ularning uzunligi, urg‘u va intonatsiya haqida aniq tushunchalar mavjuddir. O‘zbek tilida “unli tovush”, “qattiq undosh”, “yumshoq undosh” kabi kategoriyalar an’anaviy ravishda ishlatiladi. Shuningdek, talaffuzdagi lotin va kirill alifbosidagi farqlar fonetik terminlarga ham ta’sir ko‘rsatgan holatlar kuzatiladi. Ba’zi terminlarning leksik shakli xalq tilidagi talaffuzga yaqinlashtirilishi ham mumkin, bu esa ilmiy atamalarning ommaviylikka moslashishiga qaratilgan urinishlarni ko‘rsatadi. O‘zbek fonetikasi o‘zbek tilining dolzarb xalq tili talaffuzlari bilan hamohanglikda takomillashtirilmoqda.

O‘zbek tilida fonetik terminlar ko‘pincha maktab va universitetlarda darsliklar orqali o‘rgatiladi, shuning uchun ularning izohlari ilmiy va amaliy jihatdan mukammal bo‘lishi talab etiladi. O‘zbek tilida fonetika terminiga quyidagicha ta’rif bergan. “Fonetika deganda tilshunoslikning eng quyi sathi ham, shu sathni o‘rganadigan sohasi ham tushiniladi. “Fonetika” grekcha “phonetikos” – tovushga, ovozga xos degan ma’noni anglatadi. Fonetika tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o‘laroq, nafaqat o‘rganish manbayining funksional tomonini, balki nutq tovushini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossasini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi”[1. B.61].

Qirg‘iz tilidagi fonetik terminologiya ham turkiy tillar oilasining uyg‘un qismi sifatida umumiy asoslarni o‘z ichiga oladi, biroq ularning ba’zilari mahalliy tilning o‘ziga xos talaffuz faktorlari bilan ajralib turadi. Qirg‘iz tilida fonetika terminiga quyidagicha ta’rif berilgan. “Фонетика – тилдин тыбыштык жүйөсүн ичине камтыган тил системасынын бир бөлүгү жана ал бөлүктү изилдеп үйрөтүүчү тил илиминин бир бөлүмү”[2.B.5]. Qirg‘iz tilida ba’zan ovozlarning o‘zgacha talaffuzi, ayniqsa undoshlar sistemasi jihatidan seziladi. Qirg‘iz fonetik terminlarida “keng unli”, “yumshoq undosh”, “shiddat” kabi atamalar mavjud bo‘lib, ular til tovushlarining aniqlik bilan tasniflanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, Qirg‘iz tilida turkiy tillarda keng tarqalgan “uqish” va “sholshilish” kabi tovush xususiyatlari uchun maxsus atamalar ishlatiladi. Qirg‘iz tilshunosligida til fonetikasini o‘rgatishda milliy xususiyatlarga e’tibor katta, shuningdek, avlodlar orasida an’anaviy talaffuz uslublari saqlanib kelmoqda. Bu esa fonetik terminlarda dialektal va tarixiy jihatdan chuqurlashtirilgan ta’riflar kiritilishiga olib keladi. Qirg‘iz tilida fonetik terminlarning ma’nosi, ta’rifi va ishlatish usullari ta’lim va ilmiy tadqiqotlarda doimiy ravishda rivojlantirilmoqda, bu holat tilning madaniy merosini saqlash bilan ham uzviy bog‘liqdir. O‘zbek va qirg‘iz tillari har ikkisi turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgani uchun, ularning fonetik terminologiyasida ko‘plab o‘zaro o‘xshashliklar mavjud. Eng avvalo, har ikkala tilda unli va undosh tovushlarning asosiy turlari va ularning hosil bo‘lish jarayonlarini ifodalovchi terminlar bir xil asosga ega. Ikkinchidan, intonatsiya, urg‘u va ohanglarni ta’riflashda o‘xshash tushunchalar va atamalar keng qo‘llaniladi. Masalan, “stress”, “bo‘g‘ilish”, “yaqinlashish” kabi atamalar tilshunoslikda umumiy bo‘lib, ishonchli aloqa vositasidir. Shuningdek, har ikkala til fonetik terminologiyasida talaffuz turlarini, ya’ni yumshoq va qattiq tovushlarni tasniflashda o‘xshash klassifikatsiyalar mavjud. Bu o‘zaro tushunishni osonlashtiradi va ikki til bo‘yicha tadqiqotlar integratsiyasiga yordam beradi. Bu o‘xshashliklar fonetik terminologiyani umumiy tilshunoslik doirasida samarali qo‘llashga imkon yaratib, til o‘rganishda va ilmiy almashuvda katta foyda keltiradi. Garchi o‘zbek va qirg‘iz tillari ko‘plab o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ularning fonetik terminologiyasida sezilarli farqlar ham mavjud. Eng muhim farq terminlarning leksik shakli va ba’zan ularning mazmunida ko‘riladi. Misol uchun, o‘zbek tilidagi “qattiq undosh” tushunchasi ba’zan qirg‘iz tilida “qattiq talaffuzli undosh” sifatida batafsilroq ifodalanadi, bu esa talaffuzning soddalashtirilganligi bilan bog‘liq. Shu sababli ayrim terminlarning tarafdorlari atama tanlashda turlicha yondashuvlarga ega. Shuningdek, undoshlar va unli tovushlarning ayrim fonetik xususiyatlarini qayd etishda ikki til orasida tafovutlar uchraydi. Qirg‘iz tilida ba’zi tovushlar uchun alohida atamalar bor, ular o‘zbek tilida kam qo‘llaniladi yoki umuman

mavjud emas. Fonetik terminlarni bir xillashtirish va takomillashtirish uchun qiyosiy tahlil muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek va qirg‘iz tillarining o‘xshashligi va farqlarini chuqur o‘rganish orqali, eng maqbul va aniq atamalar tizimini yaratish mumkin. Birinchidan, har ikkala tilning fonetik tizimidagi asosiy atamalarni yagona tushuncha va ta’riflar doirasida umumlashtirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv fonetik terminologiyani universal va samarali qiladi. Ikkinchidan, milliy til xususiyatlari hisobga olinib, dialektal va leksik tafovutlarni ilmiy tarzda izohlash orqali tushunchalar aniqroq shakllanishi mumkin. Har ikki tilshunoslik maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bu boradagi ishlarga katta hissa qo‘shadi. Yana bir tavsiya – yangi texnologiyalar va axborot tizimlari yordamida fonetik terminlar bazasini yaratish va uni doimiy ravishda yangilab borishdir. Bu ilmiy va ta’limiy jarayonlarda aniq va to‘g‘ri atamalarni taqdim etishga imkon beradi.

O‘zbek va qirg‘iz fonetik terminologiyasini takomillashtirish yo‘lida amaliy tavsiyalarni amalga oshirish zarur. Avvalo, tilshunoslik muassasalari va universitetlarda ikki tildagi fonetik terminlarni bir xillik va izchillik bilan o‘rgatish uchun umumiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, tilshunoslik sohasidagi mutaxassislar uchun maxsus seminar, konferensiya va ilmiy anjumanlar tashkil etilishi, tajriba almashinuvi va yangi tashabbuslarni ilgari surish imkoniyati yaratilishi muhim. Shuningdek, elektron ma’lumot bazalari, glosariy va onlayn resurslar yaratilib, keng jamoatchilik, jumladan talabalar va o‘qituvchilar foydalanishi uchun qulayini ta’minlash lozim. Bu uzoq muddatda tilning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakda tilshunoslik sohasida yana chuqurroq qiyosiy tadqiqotlar olib borish, yangi tarjimonlik va avlodlar uchun aniq tushunarli fonetik terminologiya yaratish istiqbollarini kengaytiradi va milliy tillarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biz quyida har ikki tildagi tovushlarni solishtirib o‘tamiz.

1. Tovush tizimlari solishtirish

O‘zbek fonetikasi:

1. Tovush tizimlari solishtirish

O‘zbek fonetikasi:

1. **Unlilar:** 6 ta asosiy unli (a, o, u, e, i, o‘) va ularning cho‘ziq variantlari (ā, ō, ū, ē, ī, oʔ).
2. **Undoshlar:** 24 ta undosh, shu jumladan **q, g‘, h** kabi o‘ziga xos tovushlar.
3. **Tovush uyg‘unligi:** Unlilar hamohangligi (singarmonizm) kuchli emas, lekin ba’zi dialektlarda (qipchoq shevalarida) sezilarli.
4. **Urg‘u:** Odatda so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

Qirg‘iz fonetikasi:

- **Unlilar:** 14 та. кыска унвүүлар (а, е(э), и, ы, ө,у,ү); созулма унвүүлар (аа ээ,оо,өө, уу, үү) kabi variantlari mavjud.
- **Undoshlar:** 25 ta bo‘lib, ular quyidagi turlarga bo‘linadi. «Үнсуз тыбыштар ушул жасалыш бөтөчөлүктөрүнө карата үчкө бөлүнет: 1) каткалаң(күч менен айтылган үрсүздөр:п, т, с, ш, ч, к, к, х, ф, ц, ш;); 2) жумшакдар (аслсыз айтылчулар): б в д з ж ж г г); 3) уяңдар (абдан аслсыз айтылчулар): л, м, н, ң, р, й)»[3. В. 18]. Кыргыз тилиндеги үнсүздөр системасы артикулятциялык жактан жасалуу орду жана жасалуу ыгы боюнча бөлүштүрүлөт. Мындай бөлүштүрүү активдүү сүйлөө органдарынын (тил, эриндер) катышуусуна ылайыктуу жүргүзүлөт, анткени үнсүз тыбыштардын жасаллуу орду жана жасалуу ыгы сүйлөө органдарыбыздын кызматы менен аныкталат. Жасалуу ордуна карата үнсүз тыбыштар төмөнкүдай бөлүштүрүлөт:

1. **Эрин** – эринчилар: б, п, м
2. **Эрин** – тишчилдер: в, ф. Бул үнсүздөр кыргыздын төл сөздөрүнүн курамында кездешпейт. Жалан гана орус тилинен кабыл алынган жана интернационалдык сөздөрдүн күраминда келет.
3. **Уччулдар:** т, д, с, з, ш, н, л, р, ц.
4. **Орточулдар:** й, ч, ж (жолб жаңы).
5. **Түпчүлдөр:** к (көпөлек), г (гүл) ц, х.
6. **Артчылдар:** к (кара) (коргошун)[4. В. 18].

- **Tovush uyg‘unligi:** Kuchli singarmonizm (qattiq/yumshoq unlilar uyg‘unligi).
- **Urg‘u:** So‘zning birinchi bo‘g‘iniga tushadi (o‘zbekchadan farqli).

2. Talaffuz xususiyatlari

- **O‘zbekcha:**

1. **“A” tovushi** aniqroq, rus tilidagi “a” ga yaqin.

2. **“O‘” tovushi** faqat o‘zbek tiliga xos (qirg‘izchada “ө” bor, lekin talaffuzi boshqacha).

3. **“Q” va “G‘”** kuchli talaffuz etiladi.

- **Qirg‘izcha:**
  - **“Ы” tovushi** mavjud (o‘zbekchada yo‘q).
  - **“Y” va “Ө”** turkiy tillarga xos yumshoq unlilar.
  - **“Ғ”** tovushi o‘zbekchaga o‘xshash, lekin ba’zi so‘zlarda boshqacha ishlatiladi.

3. Fonologik farqlar

Xususiyat	***O‘zbek tili***	***Qirg‘iz tili***
Urg‘u joyi	Oxirgi bo‘g‘in	Birinchi bo‘g‘in
Sintarmonizm	Zaif	Kuchli
“O‘” tovushi	Bor (mas., “o‘tkir”)	Yo‘q (“ө” bor)
“Ы” tovushi	Yo‘q	Bor (mas., “қыз”)
Cho‘ziq unlilar	Ba’zi shevalarda	Ko‘proq ishlatiladi
“Q” tovushi	Bor (mas., “qonun”	Yo‘q (“k” bor)

4. Umumiy xususiyatlar

- Ikkala tilda ham **O, g‘, h** kabi undoshlar mavjud.
- Ikkalasida ham cho‘ziq unlilar ishlatiladi, lekin qirg‘izchada ko‘proq.
- Ikkala til ham turkiy tillar guruhiga kirgani uchun o‘xshash fonetik qonuniyatlarga ega (mas., so‘z boshida “m” tovushi kam ishlatilishi).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek va qirg‘iz tillari fonetik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, urg‘u, singarmonizm va ba’zi maxsus tovushlar (mas., o‘/ө, ы) tufayli farqlanadi. Qirg‘iz tilida urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushishi va kuchli singarmonizm mavjudligi eng muhim farqlardandir. Ushbu tadqiqotimizda o‘zbek va qirg‘iz tillarining fonetik terminologiyasi qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida har ikkala tilning fonetik terminlari tizimidagi o‘xshashliklar va farqlar batafsil ko‘rib chiqildi. Tahlillar asosida terminologiyani umumlashtirish va takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi. Natijalar tilshunoslik sohasida yagona, aniq va tushunarli fonetik terminlarni shakllantirishda muhim hissa qo‘shadi. Bu esa pedagogik jarayon va ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish imkonini beradi. Elektron va bosma resurslar yaratish ham tilning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotimiz milliy tillarning fonetik terminologiyasini takomillashtirish va mufassal izohlash uchun asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Raupova L., Abuzalova M., Yo‘ldosheva D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. “Tafakkur avlodi” 2023. –B 61.

2. Орузаева Б., Турсунов А., Сыдыков Ж., Акматалиев А., Мусаев С., Садыков Т. Азыркы кыргыз адабий тили. Avrasya Press. Бишкек 2009. Б. 5.

3. Орузаева Б., Турсунов А., Сыдыков Ж., Акматалиев А., Мусаев С., Садыков Т. Азыркы кыргыз адабий тили. Avrasya Press. Бишкек 2009.18-bet.

4. Abduvaliyev S., O‘zbek tilining fonetikasi. –Toshkent. – 2015. 15-bet.

5. Japarov T., Qirg‘iz tilining ovozshunosligi. Киргизистан. – 2017. 29-bet.

6. Turkiy tillar fonetik korpuslari. Qiyosiy nadqiqotlar. – Toshkent. – 2019. 35-bet.

UO’K 81-13

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “SADOQAT” LEKSEMASINING SINONIMIYASI

A.B. Umurzaqova, tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya*. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida “sadoqat” konseptining leksik-semantik xususiyatlari hamda sinonimik qamrovi qiyosiy tahlil qilib o‘rganilgan. “Sadoqat” leksemasining o‘zbek tilidagi sodiqlik, fidoyilik, vafo, vafodorlik, sidqidillik kabi sinonimlari bilan*

semantik farqlanishini, shuningdek, bu so'zlarning kontekstual qo'llanishiga qarab stilistik tafovutlarini yoritilgan. Ingliz tilidagi "loyalty" leksemasi "sadoqat"ga eng yaqin ekvivalent sifatida tahlil qilinib, uning eng yaqin sinonimlari – faithfulness, devotion, fidelity, allegiance, commitment kabi leksemalar semantik va pragmatik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Maqolada sinonimlar o'rtasidagi integral va differensial semantik birliklar ajratilib, ularning qo'llanish konteksti, uslubiy xosliklari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar muayyan misollar bilan asoslanadi.

***Kalit so'zlar**: sadoqat, sinonimiya, leksik-semantik tahlil, kontekstual farqlar, tarjima.*

***Аннотация**. В данной статье проводится сравнительный анализ лексико-семантических особенностей и синонимического охвата концепта «преданность» в узбекском и английском языках. Рассматриваются семантические различия между лексемой «sadoqat» и её синонимами в узбекском языке — такими как верность, самопожертвование, верноподданность, искренность и др., а также их стилистические различия в зависимости от контекста. В качестве ближайшего эквивалента лексеме «sadoqat» в английском языке проанализирована лексема loyalty, а также её синонимы: faithfulness, devotion, fidelity, allegiance, commitment. Статья выделяет интегральные и дифференциальные семантические признаки данных лексем, их контекстуальное употребление, стилистические особенности, а также переводческие трудности, возникающие при передаче этих понятий.*

***Ключевые слова**: преданность, синонимия, лексико-семантический анализ, контекстуальные различия, перевод*

***Abstract.** This article provides a comparative analysis of the lexical-semantic features and synonymic scope of the concept "sadoqat" (loyalty) in Uzbek and English languages. It explores the semantic distinctions between the Uzbek lexeme "sadoqat" and its synonyms, such as sodiqlik (faithfulness), fidoyilik (devotion), vafodorlik (fidelity), and sidqidillik (sincerity), while also highlighting their stylistic variations depending on the context. In English, the lexeme loyalty is examined as the closest equivalent to "sadoqat", alongside its key synonyms: faithfulness, devotion, fidelity, allegiance, and commitment. The study identifies integral and differential semantic components of these lexemes, their contextual use, stylistic nuances, and the translation challenges they pose.*

***Key words**: loyalty, synonymy, lexical-semantic analysis, contextual differences, translation*

Ma'naviyat insonlarning atrofdagilarga va butun borliqqa bo'lgan insoniy va ongli munosabatidir. U har bir insonning ichki dunyosini boyitishda, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini, axloqiy sifatlarini yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etadi. *Ma'naviyat* keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning asosi *fidokorlik, ezgulik, kamtarlik, saxiylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, farosat, vatanparvarlik, rahmdillik, rostgo'ylik, axloq, xolislik* kabi o'ttizdan ortiq asosiy tushunchalardan tashkil topishi asoslangan [1]. "*Sadoqat"* ma'naviyatning markaziy tushunchalaridan biri. Shaxs ma'naviy sifatlarida *sadoqat, sodiqlik, vafodorlik* kabi tushunchalar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki sadoqat insonning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlari va jamiyatdagi o'rni bilan bevosita bog'liq. *"Sadoqat"* konsepti insonni milliy qadriyatlariga sodiq qolishga, insonlar bilan halol va insoniy munosabatlar o'rnatishga undaydi.

"Sadoqat" arabcha *do'stlik, birdamlik, samimiylik* ma'nolarini anglatuvchi so'z bo'lib, chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlikni aks ettiradi: *O'g'lon, oqil ham mard bo'lgin, Mardlik – elga sadoqat. E. Vohidov, Nido [2]. Sadoqat*, odatda, insonning hissiy va ma'naviy jihatdan o'z va'dasiga, qadriyatlariga va mas'uliyatlariga bo'lgan sodiqligini, o'zining harakatlari, qarorlari va munosabatlarida to'g'ri va halol bo'lishini taqozo etadi. *"Sadoqat"* konsepti keng leksik-semantik qamrovga ega bo'lganligi bois uning sinonimlari va qiyosiy tadqiqi tilshunoslikda muhim ilmiy masala hisoblanadi. O'zbek tilida "sadoqat" konseptiga bevosita aloqador bo'lgan *sadoqatli, sadoqatkor, sodiq, sodiqlik, sidq, sidqidil* hamda *vafo, vafoli, vafodor, vafodorlik, fidoyi, fidokor, fidoyilik, fidokorlik* kabi "sadoqat" umumiy semali atov birliklar mavjud.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "sadoqat" umumiy semali leksemalarning sinonimik xususiyatlarida umumiy va xususiy semalar mavjud bo'lib, ularni turli ma'noviy kontekstlarga

xoslaydi. *Sadoqat* leksemasi "sodiqlik", "vafo", "vafodorlik", "sidqidillik", "fidokorlik" va "fidoyilik", "e'tiqod" leksemalari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Mazkur leksemalar turli kontekslarda o'ziga xos tarzda ma'no qirralari bilan ifodalanadi.

Quyida "sadoqat" "vafo" hamda vafodorlik" leksemalarining differensial va integral semalarini qiyosiy tahlil asosida semantik imkoniyatlarini ko'rib o'tamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "sadoqat" leksemasida "sodiqlik, "vafodorlik", "do'stlik", "ishonchlilik", "samimiylik", "chin qalbdan berilganlik", "fidokorlik" semalari mavjud. "Vafo va vafodorlik" leksemalarini "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga tayangan holda "va'dani bajarish", "so'zda, va'dada qat'iy turish", "ahd-paymonini muqaddas tutish", "yorga sadoqat", "do'stga sadoqat" kabi semalarini keltirish mumkin. Har ikkala leksemaning umumiy semantik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda quyidagi farqlarini kuzatish mumkin. "Sadoqat", "vafo" va "vafodorlik" leksemalarining integral semalari "yorga sadoqat", "do'stga sadoqat", "so'zga, ahdga vafo" semalari bo'lsa, differensial semalari "sadoqat" leksemasidagi "fidokorlik", "chin qalbdan berilganlik", "samimiylik" semalarining "vafo", "vafodorlik" leksemasida, va "kuniga yaramoq", "asqatmoq" semalarining "sadoqat" leksemasida mavjud emasligidir.

"Sadoqat", "vafo" hamda "vafodorlik" leksemalarining sintagmatik munosabatdagi integral semalari quyidagi birikuvlarda farqli ravishda namoyon bo'ladi. Masalan, "vatanga sadoqat", "e'tiqodga sadoqat", "kasbga sadoqat" so'z birikmalarini "vatanga vafo", "e'tiqodga vafo", "kasbga vafo" birikmalari bilan sintagmatik munosabatga kirishganda stilistik g'alizlikni yuzaga keltiradi. "Sadoqat" insonning ichki ruhiy va hissiy sodiqligini ifodalasa, "vafo", "vafodorlik" amalda qilinadigan sodiqlik bilan bog'liq. Bu misollardan bilish mumkinki, "vafo va vafodorlik" asosan shaxsiy munosabatlarda va kishining o'z so'zi va ahdiga qat'iy rioya qilishi bilan bog'liq bo'lsa, "sadoqat" kengroq tushuncha bo'lib, ichki "qat'iyat", "sodiqlik" va "fidoyilik"ni bildiradi va "vafo va vafodorlik"ga oid tushunchalarni ham qamrab olish xususiyatiga ega.

"Sadoqat" leksemasining sinonimlaridan biri hisoblangan "fidokorlik", "fidoyilik" leksemalari umumiy va xususiy jihatlari asosida farqlanadi. Xususan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "fidokorlik va fidoyilik" leksemasining "o'zini qurbon qilish", "jonbozlik qilish", "shaxsiy manfaatlarni chetga surish", "sodiqlik" semalari mavjud. Har ikkala leksema ham shaxsning biror maqsad, g'oyaga, kasbga, vatanga yoki insoniy munosabatlarda fidoyilikni ifodalashi umumiylik hosil qiladi. "Shaxsiy manfaatlarni chetga surish", "jonbozlik qilish", "o'zini qurbon qilish" semalari faqat "fidoyilik/fidokorlik" uchun xususiy va "sadoqat" leksemasida mavjud emas. "Ishonchlilik", "samimiyat", "halollik" semalari "fidoyilik/fidokorlik" leksemasi tarkibida uchramaydi. Demak, "sadoqat" qat'iy sodiqlik, ichki e'tiqod va ishonchga asoslangan bo'lib, ko'proq ma'naviy va ruhiy bog'liqlikni anglatadi. Ular quyidagi sintagmatik munosabat asosida "vatanga sadoqat", "kasbga sadoqat" kabi ma'nolar asosida, "fidokorlik" esa odatda jismoniy harakat yoki amaliy fidoyilik bilan bog'liq bo'lgan sintagmatik munosabatda "xalq uchun fidokorona xizmat qilish", "fidokorona mehnat qilish" ma'nolari asosida shakllanadi.

"Sadoqat leksemanising eng yaqin sinonimi *"sodiqlik"* leksemasidir. Ko'p hollarda ular o'zaro leksik sinonim sifatida keladi va ular o'rtasidagi semantik farq katta emas. Arabcha *samimiy, sofdil chin, haqiqiy* ma'nolarini anglatuvchi "sodiq" leksemasi O'TILda sidqidildan berilgan, sadoqatli degan ma'nolarni ifodalaydi. Sodiqlik leksemasi sodiq so'ziga *-lik* affiksini qo'shish yordamida yasalgan. Sifat so'z turkumiga qo'shilgan *-lik* qo'shimchasi sodiq leksemasiga "shug'ullanmoq" semasini yuklagan. "-lik sifat va ravishlarga (belgi bildiruvchi so'zlarga) qo'shilib belgi oti yasaydi [3]". O'z navbatida "sadoqat" va "sodiqlik" leksemalari bir-biriga juda yaqin bo'lsa-da, ular o'rtasida nozik semantik farqlar mavjud. Sadoqat ko'proq ichki ruhiy hissiyot va ma'naviy jihatdan bog'lanishni aks ettiradi. Masalan, *onaning farzandiga sadoqati* uning ichki ruhiy fidoyiligini, muhabbatini aks ettiradi va ushbu konteksda "sadoqat" leksemasi kuchli hissiy va ma'naviy bo'yoqdorlikka ega. "Sodiqlik" esa, asosan, barqarorlik va amaliy sadoqatni, fidokorlikni ifodalaydi.

"Sadoqat" konsepti har bir millatning lug'at boyligida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, turli tillarda har xil leksik-semantik vositalar orqali ifodalanadi. Cambridge va Oxford Dictionaryda ingliz tilidagi "sadoqat" konseptini ifodalovchi *loyalty, loyal, loyalist, loyally, faithful, faithfulness, faithfully, fidelity, devoted, devotion, constancy, staunch, staunchness, dedicated, dedication,*

allegiance, adherence, steadfast, steadfastness leksemalari aniqlandi. O‘zbek tilidagi **“sadoqat”** leksemasining ingliz tilidagi eng yaqin ekvivalenti **“loyalty”** hisoblanib, ushbu so‘zlar mazmunan bir-biriga juda yaqin va ikkalasi ham sodiqlik, vafodorlik va mustahkam ishonchni ifodalaydi. Oxford English Dictionary [4] da *“loyalty”* ga quyidagicha tarif berilgan: *faithful adherence to one's promise, oath, word of honour, etc.; conjugal faithfulness, fidelity.* (O‘z va’dasiga, qasamiga, sharafli so‘ziga va hokazolarga sadoqat bilan amal qilish; nikohda sodiqlik, vafodorlik). *Loyalty* so‘zi keng semantik qamrovga ega bo‘lib, ma’nosi konteksga qarab o‘zgarishi mumkin. *“Faithfulness”, “devotion”, “allegiance”, “fidelity”, “commitment”* “loyalty” leksemasining eng yaqin sinonimlari hisoblanadi. Bundan tashqari ingliz tilida *sadoqat* konseptini ifodalovchi o‘ttizga yaqin sinonimlari mavjud bo‘lib, ular “loyalty” leksemasining ma’lum bir xususiyatini ifoda etadi.

Faithfulness – asosan, shaxsiy munosabatlarda vafo, do‘slik aloqalarida sodiqlikni ifodalaydi. Diniy kontekstda xudoga e’tiqod qilishga va diniy tamoyillarga nisbatan sadoqatni ham ifoda etadi. Shuningdek: *faithfulness* o‘z so‘ziga *sodiqlik, ishonchlilik, halollik, samimiylik* kabi ma’nolarni ham o‘z ichiga oladi. If you do, you will find an old f*aithful* friend waiting for you [5]. *Faithfulness* leksemasining qo‘llanilish doirasi *loyalty* ga nisbatan ancha torroq. Ijtimoiy, siyosiy va biznes-marketing sohalarida *faithfulness* odatda qo‘llanilmaydi. Bunga qarama-qarshi tarzda, diniy kontekslarda *loyalty* leksemasining ishlatilish doirasi chegaralangan. Masalan, “national loyalty,” “consumer loyalty,” “loyalty card,” “loyalty oath,” “corporate loyalty” kabi birikmalarni faithfulness leksemasi bilan o‘zgartirish juz’iy xatolarga sabab bo‘ladi.

Devotion – fidoyilik, jonbozlik va cheksiz sadoqatni anglatib, insonning muayyan shaxsga, g‘oyaga, diniy e’tiqodga yoki ish faoliyatiga bo‘lgan chuqur fidoyiligini, to‘la bag‘ishlanganligini bildiradi. And if he knew, then what would I see if I did look in his eyes? Blame? Indignation? Or, God forbid, what I feared most: guileless *devotion*? [6] *Loyalty devotion*ga oid tushunchalarni ham qamrab olish xususiyatiga ega bo‘lsa-da, *devotion loyalty*ga qaraganda ko‘proq hissiy va ruhiy jihatdan chuqur sadoqat va shartsiz muhabbatni ifoda etadi.

Fidelity – nikoh va shaxsiy munosabatda vafodorlik, cheksiz sadoqatni ifodalaydi. Bundan tashqari, insonning o‘z ishiga, tamoyillari va qasamyodiga sodiq qolishni ham anglatadi. Diniy va biznes-marketing kontekslarida ham uchraydi.

Ideally, you should feel confident of your husband’s *fidelity [7].*

Fidelity leksemasining *loyalty*ga nisbatan qo‘llanilish doirasi torroq va asosan, amaliy va qat’iy sodiqlikni ifodalaydi: shaxsiy munosabatda xiyonat qilmaslik, va’daga vafo qilish, diniy doirada diniy amallarni bajarish va rioya qilish kabilar. Siyosiy va huquqiy kontekslarda qo‘llanilmaydi.

Commitment – keng qamrovli birlik bo‘lib, shaxsiy munosabatlarda, kasbiy faoliyatda, ijtimoiy va siyosiy doiralarda faol qo‘llaniladi. Biror shaxs, ish, faoliyat, yoki g‘oyaga nisbatan qat’iy sadoqat, mas’uliyatni bildiradi. Asosan, sodiqlikning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, insonning o‘z mas’uliyatlariga, maqsadiga, burch va majburiyatlariga nisbatan bag‘ishlanganligini, qat’iy amalini ifoda etadi.

I can be loyal, but loyalty isn’t blind *commitment* to cosigning on stupidity and bad decisions[8].

Mazkur maqolada **sadoqat** leksemasining o‘zbek va ingliz tillaridagi sinonimiyasi tahlil qilinib, ushbu tushuncha har ikkala tilda o‘ziga xos semantik va stilistik xususiyatlarga ega ekani aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida sadoqat tushunchasi **sodiqlik, fidoyilik, fidokorlik, vafo, sidqidillik,** kabi so‘zlar orqali ifodalanib, ko‘proq insoniylik, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida esa **loyalty, devotion, faithfulness, fidelity, allegiance, commitment** kabi sinonimlar vositasida ifodalangan va ko‘proq huquqiy, ijtimoiy hamda hissiy kontekstlarga bo‘lingan. Har ikkala tilda sadoqat leksemasi sinonimlari oid o‘ziga xos konnotativ va pragmatik jihatlarga ega bo‘lib, tarjima jarayonida ekvivalent tanlashda ehtiyotkorlik bilan yondashish, har bir sinonimning kontekstual ma’nosini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. F. Yuldashev, “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini”: Filol.fan.dok.(DSc)… diss.Avtoreferati.Qarshi.2023. – 14-bet.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. T: O‘zME, 2024. VI jildlik. IV jild. – B. 409

3. Hojiyev A. O‘zbek tilida so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent, 2007. – B. 97

4. www.oed.com

5. Khaled Hosseini. The Kite Runner, Bloomsbury Publishing Plc, 2009. B - 156

6. Khaled Hosseini. The Kite Runner, Bloomsbury Publishing Plc, 2009. B - 57
7. https://www.collinsdictionary.com/us/sentences/english/fidelity
8. L. Ajayi, I'm judging You, Henry Colt &Ho 2016. –B.35

UO'K 811.22

"QORA" LEKSIK BIRLIGINING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ETIMOLOGIK VA SEMANTIK O'ZGARISHLARI: TARIXIY-TAQQOSLOVIY TAHLILI

H.A.Urakova, o'qituvchi, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi qora va ingliz tilidagi black leksemalarining etimologik manbalari, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda semantik kengayish jarayonlari tarixiy-taqqosloviy yondashuv asosida tahlil etildi. Tadqiqot natijalari rang termini dastlabki yadro ma'nosidan keng ijtimoiy-madaniy metaforalarga qadar evolyutsiya qilganini, o'zbek tilida agrar-maishiy va marosimiy kontekstlar, ingliz tilida esa industriyalashuv, irqiy identifikatsiya va iqtisodiy diskursning ustuvor rol o'ynaganini ko'rsatdi. Leksema ma'nolaridagi polarlashuv (salbiy → neytral → ijobiy) har ikkala til tarixida uzluksiz kechgan bo'lsa-da, ularning intensivligi va yo'nalishi mahalliy madaniy tajriba bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: *qora, black, etimologiya, semantik kengayish, rang metaforasi, tarixiy-taqqosloviy tahlil.*

Аннотация. В статье рассматриваются лексемы qora в узбекском и black в английском языках с точки зрения их этимологии, исторических трансформаций и семантических изменений в сравнительно-историческом аспекте. Показано, что исходное значение цвета постепенно развилось в широкий спектр социальных, культурных и психологических коннотаций: в узбекском – под воздействием аграрно-бытовых и ритуальных факторов, в английском – в результате индустриализации, расовой идентификации и экономического дискурса. Установлено, что процесс поляризации значений (от негативных к нейтральным и позитивным) протекал в обоих языках, однако его интенсивность и направление определялись локальным культурным контекстом.

Ключевые слова: *qora, black, этимология, семантическая эволюция, цветовая метафора, сравнительно-исторический анализ.*

Abstract. The article offers a historical-comparative analysis of the Uzbek lexeme qora and its English counterpart black, tracing their divergent etymological roots, stages of historical development, and patterns of semantic expansion. Findings reveal that both colour terms moved far beyond their basic chromatic sense to form complex sociocultural and psychological networks of meaning. In Uzbek, agrarian-ritual contexts guided this evolution, whereas in English, industrialisation, racial identity politics, and economic discourse played decisive roles. Despite a shared trajectory of semantic polarization—negative → neutral → positive—the pace and direction of change were shaped by distinct cultural experiences.

Keywords: *qora, black, etymology, semantic shift, colour metaphor, historical-comparative analysis.*

Til manzaralarida rang nomlari ko'pincha insoniyatning eng qadimiy kognitiv tajribalarini, shu bilan birga, madaniy-ijtimoiy tafovutlarni ham aks ettiradi. Ularning ichida "qora" atamasi alohida ahamiyatga ega: u ibtidoiy jamiyatlardan boshlab to zamonaviy raqamli diskursgacha turli qatlamlarda boy semantik zanjir hosil qilib keladi. O'zbek tilidagi **qora** va ingliz tilidagi **black** leksemalari shakl jihatdan o'xshash ma'no yadrolarini ifodalasa-da, ularning etimologik ildizlari va tarixiy rivojlanish yo'llari mutlaqo turlicha bo'lib, bu holat ikki til hamda ikki madaniyatda rang termini qanday semantik polifoniya hosil qilganini tadqiq etish zaruratini tug'diradi.

Bugunga qadar turkiy tilshunoslikda "qora" rangining fonetik-morfologik jihatlari Mahmud Koshg'ariy, Radlov, Sevortyan kabi olimlar asarlarida teran yoritilgan bo'lsa, ingliz tilshunosligida **black** ning evolyutsiyasi Oksford lug'atlari, Old English korpuslari hamda Trask singari germanistlar tadqiqotlarida qayd etilgan. Ammo bu ikki leksika birligining taqqosloviy tarixiy semantikasi hali yetarli darajada izchil tahlil etilmagan; mavjud izlanishlar, odatda, bitta til doirasida yoki umumiy

rang-nomlar tipologiyasida chegaralanadi. Shu bois o‘zbek va ingliz tillaridagi “qora/black” antroponim, frazeologik, sotsiokultur va psixosemantik o‘zgarishlarni bir matnda chuqur qiyoslash ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish, madaniyatlararo lingvosemantik mexanizmlarni ochib berish imkonini yaratadi.

Mazkur maqola ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, ikki til rang atamasining etimologik ildizlarini rekonstruksiya qiladi, keyinchalik yuz bergan semantik kengayish yoki torayish bosqichlarini xronologik tartibda kuzatadi hamda bu jarayonni tarixiy kontekstlar – agrar-ritual ko‘rinishlar, sanoatlashuv, irqiy diskurs, iqtisodiy metaforalar – prizmasida izohlaydi. Tadqiqot materiallari sifatida “Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig”, XIX–XX asr ozarbayjon va o‘zbek matbuoti hamda Old English homiliyalari, Chaucer korpusi, Viktoriya davri matnlari va zamonaviy ingliz ommaviy axborot vositalari tanlab olindi. Diaxron-taqqosloviy, komponent-tahlil va diskursiv-pragmatik usullar birgalikda qo‘llanib, leksemalarning turli davrlardagi funksional-stilistik yuklamalari, konnotativ spektri hamda ijtimoiy-psixologik qiymati aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari “qora/black” leksemasining polarlashuv – salbiydan neytral va ijobiygacha – hodisasi ikki til tarixida ham uzluksiz kechganini, biroq bu ko‘chma ma’nolarning paydo bo‘lish tezligi va dominant yo‘nalishi mahalliy tarixiy-madaniy omillar bilan belgilanganini ko‘rsatishi kutiladi. Shu orqali maqola rang terminlari evolyutsiyasi nafaqat lingvistik, balki sotsiotafakkurdagi o‘zgarishlarni ham yoritadigan ko‘zgu sifatida xizmat qilishini tasdiqlaydi.

“Qora” rang nisbatan universal bo‘lib, turli tillar va madaniyatlardagi asosiy rang termini sifatida qadim zamonlardan buyon ishlatiladi. Shu bilan birga, u rang sohasidan tashqariga chiqib, diniy-ma’naviy, ijtimoiy-psixologik, hatto iqtisodiy tushunchalarni anglatuvchi boy semantik tarmoq hosil qilgan. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi **qora** hamda ingliz tilidagi **black** leksemalarining kelib chiqish manbalari, tarixiy rivojlanish yo‘llari va ma’no siljishlari taqqoslanadi. Tadqiqot uslubiy jihatdan etimologik rekonstruksiya, tarixiy-semantik kuzatuv va madaniyatlararo pragmatik tahlilga tayandi. Maqsad – ikkala til doirasida rang termini qanday semantik polifoniya yaratganini ochib berish va uni o‘zaro taqqoslashdir.

O‘zbek tilidagi **qora** so‘zi Proto-turkiy *kara (*qara) formasiga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asarida *kara* ni “siyoh rang” ma’nosida keltirar ekan, uni qattiq, zulmatga xos belgi bilan bog‘laydi[1]. Proto-turkiy davrdagi *k/*q fonemalarining o‘zaro almashishi natijasida bugungi o‘zbekcha **qora** shakli vujudga kelgan[2]. Ingliz tilidagi **black** esa qadimgi inglizcha *blæc* (mil. V – XI asrlar) formasidan kelib chiqib, Proto-german *blakkaz* ga boradi, u esa proto-indevrop *bʰleg-* (“yonish”, “porlash”) ildiziga ulanadi[3]. Diqqatga sazovor jihat shundaki, german tillarida dastlabki “porloq, yaltirab turgan” semasi keyinchalik “to‘liq qorayib ketgan, so‘ngan” ma’nosiga o‘sgan, o‘zbekcha **qora** esa boshidan “qalin zulmat” tasavvurini bergan. Demak, ikkala tilda rang nomi farqli etimologik yo‘nalishda rivojlangan: biri negativ oksidlanish metaforasi (blackened), ikkinchisi to‘liq zulmat metaforasiga asoslangan.

O‘zbek tarixiy yodgorliklarida **qora** dastlab asosiy rang atamasidir: *qora ot, qora yer, qora ko‘m-g‘ishta*. XIV asr “Qutadg‘u bilig”da **qora** “quyi, oddiy, oddiy xalq” ma’nosini ham oladi[4]. Ingliz tilida esa **black** XIII–XIV asrlarda ilk bor “zulmat”dan tashqari “musibat, yovuz niyat” semalarini qabul qiladi; masalan, *black death* (1348–1350 yillardagi o‘lat) ni ifodalashda[5]. Rangdan tashqari, ijtimoiy va diniy manbalardan kelgan tushuncha kengaya boshlaydi.

O‘zbek tilida **qora** rang so‘zining ko‘plab metaforik qo‘llanmalari mavjud: **qora choy** (qaynatilgan kuchli choy), **qora pul** (naqd pul), **qora ish** (yomon kirdikor), **qoralash** (ayblash). Odatda, “chuqur, poyoni yo‘q”, “mashaqqatli”, “negativ” konnotatsiya beradi. Shu bilan birga, “qora tush” (“esda qolarli”, “chuqur iz qoldirgan”) kabi neytral-eufemistik qo‘llanma ham topiladi. Ingliz tilida **black** salbiy konnotatsiyalarni juda erta egallagan: *black mood, black list, black magic*. Biroq XX asrdan boshlab konnotatsiyalar diversifikatsiya bo‘ldi: *black coffee* – ijobiy neytral, *black belt* – professionallik belgisi, *Black Friday* – iqtisodiy ijobiy (foydaga chiqqan kun) semantikasi. Demak, inglizcha **black** va o‘zbekcha **qora** har ikki til madaniyatida ham negativ asosiy vektorni saqlab qolgan holda, turli semantik polarlashuvni bosib o‘tgan.

Tarixiy kontekstda Markaziy Osiyoda **qora** rang ma’naviy jihatdan “yer, ost”, “quyosh tig‘i yetmaydigan joy” bilan bog‘lanib, marosimiy liboslarda kam qo‘llanilgan. Biroq Qurbon Hayiti

davrida qoramol atamasi rangni ijobiy mo‘tabar hodisaga ulaydi. Anglo-sakson an’anada esa **black** o‘lim va motam rangidan tashqari, protestant etikasi ta’sirida rasmiylik va kamtarlik ramziga ham aylangan. Viktoriya davridagi qora liboslar ijtimoiy izzat-nafs timsoli edi[6].

O‘zbekcha: **“Qora kunlarim ko‘p bo‘ldi”** (mashaqqatli davr), **“Qora terga tushmoq”** (zo‘rg‘a ishlash), **“Qora qarg‘a”** (falokat alomati). Inglizcha: **“black sheep”** (oiladagi “nomunosib” a’zo), **“black and white”** (aniq-oydin), **“pitch-black”** (mutlaqo qorong‘i). Ikkala tillagi frazemalar ko‘pincha universal kognitiv asos – qorong‘ilik va noma’lumlikka insoniy qo‘rquv –dan kelib chiqadi, ammo ayrim milliy alomatlar (masalan, o‘zbekcha “qora ter”) agrar-klimatik kontekst bilan bog‘liq.

Globalizatsiya sharoitida **black** inglizcha matnlarda irqiy identifikator bo‘lib, 1960-1970-yillarda paydo bo‘lgan *Black Power* diskursida ijobiy avtonomiya ramziga aylandi[7]. O‘zbek tilida esa **qora** so‘zi etnik identifikatsiyada qo‘llanilmay, ammo zamonaviy pop-madaniyatda “qora humor” (black humor) kabilar kalkasimon o‘zlashmoqda. Raqamli muhitte *dark mode* ni **qora fon** deb tarjima qilish esa rang terminining texnokommunikativ ijtimoiylashuvini ko‘rsatadi.

Etymologik jihatdan **qora** va **black** turli ildizlardan chiqqan bo‘lsa-da, rang tayanch ma’nosi tevaragida o‘xshash semantik yo‘nalish – “negativ-xavf” konnotatsiyasi –ga ega bo‘lib, tarix jarayonida har ikkisi ham ma’no polorlashuviga yuz tutdi. Ingliz tilida “porlash → qo‘ng‘irish → zulmat” evolyutsiyasi kuzatilsa, o‘zbek tilida “zulmat → mashaqqat → ijtimoiy pastlik” yo‘nalishi avvaldan mavjud edi. Ikkala til ham rangni ijtimoiy-psixologik metafora sifatida kengaytirgan, biroq ingliz tilida industriyalashuv va irqiy siyosat, o‘zbek tilida esa agrar-maishiy va marosimiy omillar kuchliroq rol o‘ynagan. Shu tarzda, semantik kengayishning sotsiokultur o‘qi har doim lokal tarixiy tajribaga mos ravishda modullashadi.

Xulosa. “Qora/black” leksemasining etimologik ildizlari turlicha, lekin har ikki tilda ham u rang kategoriyasidan tashqari chuqur konseptual qatlamlarga ega bo‘ldi. Tarixiy dinamika shuni ko‘rsatadiki, zulmat va noma’lumlikka insonning arxaik munosabati rang terminini salbiy semantik inklyuzivlikka yo‘naltirgan. Biroq zamonaviy davrda bu leksik birlik ijobiy va neytral metaforalarni ham ko‘paytirmoqda: ingliz tilida irqiy identitet va iqtisodiy barqarorlik, o‘zbek tilida esa texnologik interfeyslar hamda xalqona e’tiqodga yaqin sohalarda. Demak, “qora” va “black” semantik evolyutsiyasi tarixiy jarayonlarning ajoyib ko‘zgusidir; u rang terminlari til tizimlari va madaniyatlararo tafovutlarni baralla namoyon qilishini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mahmud Koshg‘ariy. *Devonu lug‘otit-turk*. Tahr. A.R.Boboyev. T.: Fan, 1960, 245-b.
2. E.V.Sevortyan. *Etimologicheskiy slovar’ tyurkskix yazykov*. M.: Nauka, 1974, 487-b.
3. Oxford English Dictionary Online. “black, adj. and n.”, 2025-yil 10-iyun holati.
4. S.Holt. *Medieval Pandemics and Language*. Cambridge UP, 2015, 67-68-b.
5. L.Craik. *Victorian Clothing and the Colour Black*. London: Routledge, 2009, 101-b.
6. M.Brooks. *Black Power: A Cultural Lexicon*. Chicago: UCP, 2021, 58-62-b.

UDC 830.1

EXAMINING THE INTERPLAY OF AXIOLOGY AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN CONVEYING VALUES

D.S. Usmonova, senior teacher, PhD, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqola frazeologik birliklardagi aksiologiya sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, til va qadriyatlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga e’tibor qaratadi. An’anaviy ravishda aloqa vositasi sifatida qaraladigan til bu yerda jamiyatning qadriyatlari, e’tiqodlari va me’yorlarini aks ettiruvchi oyna sifatida ochib beriladi. Maqolada qadriyatlar mavhum tushunchalar emas, balki bizning harakatlarimiz va qarorlarimizga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tamoyillar ekani, ular ishlatadigan til bilan chuqur bog‘liqligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Aksiologiya, Qadriyatlar, Til, Frazeologik birliklar, Madaniy ahamiyat, Etika, E’tiqodlar, Me’yorlar, Falsafa, Lingvistika, Idiomatik ifodalar, Madaniy va lingvistik ahamiyat,*

Аннотация. *Данная статья посвящена увлекательной сфере аксиологии в фразеологических единицах и раскрывает сложные взаимосвязи между языком и системой*

ценностей. Язык, традиционно рассматриваемый как средство общения, представлен здесь как зеркало, отражающее ценности, убеждения и нормы общества. В статье подчеркивается, что ценности - это не абстрактные понятия, а руководящие принципы, влияющие на наши действия и решения, глубоко вплетённые в используемый нами язык.

Ключевые слова: *Аксиология, Ценности, Язык, Фразеологические единицы, Культурная значимость, Этика, Убеждения, Нормы, Философия, Лингвистика, Идиоматические выражения, Культурная и языковая значимость, Культурная идентичность.*

Abstract. *This article delves into the captivating realm of axiology within phraseological units, shedding light on the intricate relationship between language and values. Language, traditionally viewed as a means of communication, is here unveiled as a mirror reflecting a society's values, beliefs, and norms. This article underlines that values are not abstract concepts but guiding principles that influence our actions and decisions, deeply interwoven with the language we employ.*

Key words: *Axiology, Values, Language, Phraseological units, Cultural significance, Ethics, Beliefs, Norms, Philosophy, Linguistics, Idiomatic expressions, Cultural and linguistic significance,*

Introduction. Language, a complex and culturally significant phenomenon, extends beyond its role as a communication tool to act as a mirror of societal values, beliefs, and norms. Axiology, situated at the crossroads of philosophy and linguistics, examines the principles of values and ethics. This article explores the complex relationship between axiology and language, examining how phraseological units encapsulate and convey values. Renowned for their linguistic and cultural importance, these units serve as key mechanisms for embedding societal values into language. By exploring this dynamic interplay, the study uncovers the profound connections between the values we uphold and the language we use to express them.

Literature review. The study of axiological assessment in world linguistics is inextricably linked with the beginning of the study of relational forms representing the semantic category of language. In turn, the expression of value attitudes is studied primarily through lexical units. This line of research allows us to gain a deeper understanding of how language reflects and conveys value meanings and emotional connotations, and how these meanings influence communication and interaction between people. Research in this area helps to expand our knowledge of the language system and its relationship with the socio-cultural sphere. As for the issues and problems of reflecting value meanings in the linguistic consciousness of the individual and the linguistic and cultural community, this topic was addressed in their works by such authors as N.D. Arutyunova, A. Vezhbitskaya, and others [1]. Among Uzbek authors I would like to mention such researchers as Z.S. Aripov, B.M. Juraev, and others [2] whose works discuss problems associated with the reflection of value meanings in the linguistic consciousness of the individual and the linguistic and cultural community.

Discussion. Values span ethical principles, moral standards, aesthetic tastes, and cultural norms. They are not abstract but serve as guiding principles in our decisions and actions. These values are closely tied to language, which acts as a medium for expressing and preserving them. Language does more than communicate—it reflects our cultural and ethical beliefs. Through word choice, idioms, and metaphors, we reveal and reinforce deeply held norms. Phraseological units, especially idioms, vividly illustrate this link between language and values. These expressions, whose meanings exceed the sum of their parts, condense cultural experiences and traditions. Idioms offer insight into a community's worldview. For example, the English idiom "killing two birds with one stone" emphasizes efficiency, while the Russian "locking the barn after the horse has bolted" highlights the value of foresight. Such expressions reveal what different cultures prioritize and believe.

Cultural variations in phraseological units further highlight the cultural nuances of values embedded in language. Each culture has its own unique phraseological units, reflecting its values, historical context, and societal priorities. For example, the Italian phrase «Dove c'è fumo, c'è fuoco» (where there's smoke, there's fire) encapsulates the value of skepticism, emphasizing that appearances can be deceiving. Conversely, the Japanese expression «mono no aware» conveys an appreciation for the impermanence of life, highlighting the value of transience. Each culture's

phraseological units offer insights into what they cherish and prioritize, providing a window into their cultural ethos.

However, language is not only a reflection of values; it can also perpetuate and reinforce societal biases and stereotypes, particularly in the context of gender. This intersection of axiology and language becomes especially pertinent when considering phraseological units. Many languages contain gendered expressions and idioms that contribute to the perpetuation of gender stereotypes, reinforcing inequalities. For example, the English idiom «cry like a girl» has historically been used to imply weakness or vulnerability in the face of adversity, perpetuating gender stereotypes that devalue femininity. Recognizing and challenging such language patterns is essential for promoting gender equality and fostering more inclusive and equitable communication [4].

Result. Axiology, a branch of philosophy concerned with the study of values, explores how ethical, aesthetic, and cultural norms shape human thought and behavior. Far from being abstract notions, values serve as guiding principles in decision-making and interaction. One of the most powerful tools for expressing and transmitting these values is language. Language functions not only as a means of communication but also as a reflection of deeply rooted cultural and ethical beliefs. Through vocabulary, idioms, and metaphors, language embodies and perpetuates the values of the communities that use it.

Phraseological units, particularly idiomatic expressions, offer a vivid example of the interaction between language and values. Idioms condense shared experiences, cultural traditions, and moral lessons into compact linguistic forms. For instance, the English idiom "killing two birds with one stone" reflects the value of efficiency, while the Russian expression "locking the barn after the horse has bolted" emphasizes the importance of foresight. Idioms differ significantly across cultures, reflecting unique societal priorities and historical experiences. The Italian phrase "Dove c'è fumo, c'è fuoco" underscores skepticism and critical thinking, whereas the Japanese concept of "mono no aware" conveys an appreciation for the transience of life. Such expressions offer valuable insights into what each culture values and how those values are linguistically encoded.

Recognizing and challenging such patterns is essential for fostering inclusive and equitable communication. Ultimately, language serves both as a mirror reflecting cultural values and as a messenger transmitting them across generations. Studying the axiological dimensions of language deepens our understanding of how values are encoded, maintained, and sometimes contested within linguistic practices. This intersection of language and axiology not only enriches linguistic analysis but also contributes to cultural preservation and critical awareness.

Conclusion. In the intricate landscape of axiology in language, we discover that every word, idiom, and metaphor is imbued with values. This intricate interplay between language and values transcends mere communication; it profoundly reflects our beliefs, culture, and ethical principles. By examining the connections between language and values, we can promote cross-cultural empathy, challenge stereotypes, and engage in more inclusive and equitable communication. It is through this understanding that we appreciate the rich tapestry of values that shape our language and, in turn, our world. In the intricate web of language, we find not just a tool for communication, but a profound expression of who we are and what we hold dear.

REFERENCES:

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 341 с.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.

2. Арипова З.С. Шахс аҳлоқий фазилатлари такомилида миллий маънавият ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро алоқадорлиги: Филс. фанл. номз. ...дисс. – Тошкент, 2012. –146 с.;

3. Lakoff, G., and M. Johnson, 1999, Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and its Challenge to Western Thought, New York: Basic Books

4. Satvoldievna, U. D. (2021). Axiological Characteristics of English, Uzbek, and Russian Phraseological Units. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 40-45.

5. Satvoldievna, U. D. (2020). A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. Проблемы современной науки и образования, (2 (147)), 32–34

6. Усмонова, Д. С. (2019). Роль и особенность соматических фразеологизмов различных языков. Мировая наука, (9 (30)), 250–252.

7. Sotvoldiyevna, U. D., & Zafarjon, D. (2023). Turli Tillardagi O 'Xshatishlar Tarjimasining Lingvomadaniy Xususiyatlari. Miasto Przyszłości, 31, 330-332.

8. Usmonova, D. S., & Djalolov, Z. J. (2022, October). The role of culture in translation process. International conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 160-163).

9. Usmonova, D. (2022). Axiological Features of Phraseological Units (in the Case of Uzbek, Russian and English Languages). Miasto Przyszłości, 26, 135-136.

UO'K 82(091)

LUIZA GLYUK IJODIDA FEMINISTIK MOTIVLAR TALQINI

M.A. Usmonova, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Nobel mukofoti sohibasi, amerikalik shoira Luiza Glyukning she'riy asarlarida uchraydigan feministik motivlar tahlil qilinadi. Tanlab olingan she'rlar asosida olib borilgan tahlil Glyukning ayol shaxsiyati, mustaqilligi, onalik, travma va patriarxal jamiyatdagi ayol tajribasi kabi mavzularni qanday yoritishini ochib beradi. Maqolada Glyukning an'anaviy gender rollariga nisbatan tanqidiy yondashuvi va ayol subyektivligini qayta tiklashga intilishi alohida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *feministik adabiy tanqid, feministik motivlar, ayollar she'riyati, travma va xotira, ayol subyektivligi, zamonaviy amerika she'riyati*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются феминистские мотивы в поэтическом творчестве Луизы Глюк — лауреата Нобелевской премии и одной из ведущих американских поэтесс. На основе анализа избранных стихотворений показывается, как Глюк затрагивает темы женской идентичности, автономии, материнства, травмы и женского опыта в патриархальном обществе. Особое внимание уделяется тому, как поэтесса тонко, но мощно критикует традиционные гендерные роли и стремится к восстановлению женской субъектности.*

Ключевые слова*: феминистская литературная критика, феминистские мотивы, женская поэзия, травма и память, женская субъектность, современная американская поэзия*

Abstract. *This article explores the feminist motifs present in the poetic works of Louise Glück, a Nobel Prize-winning American poet known for her introspective style and thematic depth. Through a close reading of selected poems, the study highlights how Glück addresses themes such as female identity, autonomy, motherhood, trauma, and the female experience in a patriarchal society. The analysis emphasizes the subtle yet powerful ways in which Glück challenges traditional gender roles and reclaims female subjectivity.*

Key words: *feminist literary criticism, feminist motifs, women's poetry, trauma and memory, female subjectivity, contemporary American poetry.*

Kirish. Luiza Glyuk (1943–2023) — Nobel mukofoti sovrindori bo'lgan amerikalik shoira — asarlari aniq "feministik she'riyat" toifasiga kirmasa-da, uning ko'plab she'rlarida feministik motivlar chuqur ildiz otgan. Ayniqsa, jinslarga bo'lgan munosabat, ayol subyektivligi (ichki dunyosi), mifologiya va ayol tanasining individualligi mavzularini o'rganishda bu motivlar yaqqol ko'rinadi. Shu o'rinda aytish joizki, Luiza Glyuk feminist shoira sifatida talqin qilinmasada, uning she'rlari mavzu jihatdan ayollarga xos jihatlarni ko'p tahlil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Quyida shoira asarlarining feministik mavzularga doirlari tahlil qilingan:

1. Miflarni feministik nigohda qayta talqin qilish. Glyuk ko'pincha klassik miflarni, ayniqsa ayol obrazlari ishtirokidagi hikoyalarni qayta talqin qiladi, an'anaviy tarzda sukut saqlagan yoki noto'g'ri tushunilgan ayollarga qayta ovoz beradi. Bunday tarzdagi miflarni qayta yozish — bu o'ziga xos feministik harakat hisoblanadi. (***Meadowlands)***

2. Ayol shaxsiyati va ovozi. Glyukning she'rlarida tez-tez ayol lirik obrazlar uchraydi — ular **travma, yakka holatda yashash** holatlarini boshdan kechiradi. Uning his-tuyg'ulari jilovlangan uslubi ko'pincha ichki ziddiyatlarni ochib beradi — ayniqsa, jamiyat tomonidan ayollarga yuklatilgan rollarga bog'liq holda. (***Averno)***

3. Tana va insonlardagi istaklar. Glyuk ayol tanasini tasvirlar ekan, jinsiy istak, qarish va jismoniy erkinlikning murakkab tomonlariga duch keladi. (*The Wild Iris)*

4. Uy bekaligini tanqid qilish. Glyuk asarlarida uy hayoti, ayniqsa turmush va onalik kabi mavzular muntazam tarzda tanqid qilinadi. U bu sohalarni xavfsiz makon sifatida emas, balki ko‘pincha yolg‘izlik va hissiy ziddiyat joylari sifatida tasvirlaydi. (*Ararat)*

Tadqiqot metodologiyasi. Luiza Glyuk ijodida ayol ruhiyati mavzusi ko’p kuylangan. Uning ba’zi asarlarini tahlil qilar ekanmiz ijodkor ayol lirik qahramonlarga ko’p murojaat qilishiga ham amin bo’lishimiz mumkin. Misol uchun, uning *Meadowlands* (1996) to‘plamida *Odisseya* eposini Penelopa (ayol lirik qahramon) nigohidan qayta tasvirlashga guvoh bo’lamiz, yozuvchi zamonaviy oilaviy hayotni qadimgi mif bilan uyg‘unlashtiradi. Penelopa oddiygina sodiq rafiqa emas, balki ichki dunyosi boy, o‘zicha fikrlovchi, murakkab va ba’zan achchiqlikni boshdan kechiruvchi ayol sifatida tasvirlanadi.

Yana bir misol *Averno* (2006) to’plami, bu asarda Persefona haqidagi mif qayta hikoya qilinadi. Glyuk faqat qurbonlik mavzusiga emas, balki xohish-istaklar, ona-qiz munosabatlari (Demetra va Persefona) hamda shaxsiy erkinlik masalalariga ham chuqur e’tibor qaratadi. *The Wild Iris* (1992) to’plami ham tabiat tilidan so’zlangan bo’lsada, ayollik mavzusiga ham taalluqlidir.

Bu to‘plamdagi ko‘plab she’rlarda lirik subyektning tanasi tabiat, chirish va yangilanish tsikllari bilan chambarchas bog‘langan — bu esa ayollik tajribasining kuchli metaforasidir. Luiza Glyuk oila mavzusiga ham ko’p e’tibor qaratadi. O’zining tajribasidan kelib chiqib oilaviy munosabatlar, oila a’zolarining bir-biriga bo’lgan munosabatlarini ko’p asarlarida mavzu qilib tanlaydi. Shu kabi to’plamlaridan biri *Ararat* **(1990)**ham oila travmasi mavzusini chuqur o‘rganadi — otasining vafoti va aka-uka o‘rtasidagi raqobat kabi mavzular orqali ideallashtirilgan oilani tanqid qiladi**.**

Glyukning feministik mavzulari ochiq siyosiy bo‘lmasa-da, ular nozik, ko‘pincha psixologik va chuqur adabiy ranglarga egaligi bilan ajralib turadi. U ayollik, erkinlik va ayollarning jamiyatga nisbatan qarshilik g‘oyalarini qatlamli tarzda o‘rganadi — bu jarayonda miflar, oilaviy munosabatlar va lirik she’rning shaxsiy ovozidan ko’p foydalanadi.

Tahlil va natijalar. Keling, Luiza Glyukning uchta muhim she’rini yaqindan tahlil qilish orqali ko‘rib chiqamiz — bu she’rlarida feministik motivlar yorqin ifodalanadi. Har biri turli nuqtai nazarni namoyon qiladi: mifologiya, uy hayotiga tanqidiy yondashuv va ayol irodasi.

1. “Persephone the Wanderer”(**“Sayohatchi Persefona”)** (*Averno,* 2006)

Bu she’rda Persefonaning Hades tomonidan olib ketilishi haqidagi mif qayta talqin qilinadi. Asarda ona va qiz o‘rtasidagi psixologik murakkablik **va** ayolning mustaqilligi markaziy mavzu qilib olingan.

Feministik tahlil:

- Rozilikning noaniqligi: Glyuk Persefonani oddiygina qurbon sifatida ko‘rsatmaydi. she’rda Persefona butunlay majburan emasligi taxmin qilinadi:

“It is not what people think.” (tarjimasi: “Bu odamlar o‘ylaganidek emas.”

Bu satr an’anaviy mifni inkor etadi va Persefonaning ichki istaklari borligini, uni faqat erkaklar o‘yinining qurboni sifatida emas, balki shaxs sifatida ko‘rsatadi.

- Ayol subyektivligi: Demetra (ona) kuchli, ammo egallovch sifatida tasvirlanadi. Glyuk onalikni ideallashtirmaydi, balki uning nazoratga asoslangan tomonlarini ochib berishga harakat qiladi. Persefonaning doimiy ravishda yer osti dunyosiga qaytishi uning shaxsiy makon va erkinlikni tiklashi sifatida talqin qilinadi.
- Qattiq judoliklarga qarshi chiqish: Glyuk hayot va o‘lim, aybsizlik va tajriba, on ava qiz kabi an’anaviy qarama-qarshiliklarni savol ostiga oladi, bu esa ayollarga yuklatilgan qat’iy rollarni yana bor ko’rib chiqish zaruruligini ko’rsatadi.

2. “Parados” (*Meadowlands,* 1996)

Bu she’r Glyukning *Meadowlands* to‘plamidan olingan bo‘lib, unda Gomerning *Odysseya* asari zamonaviy munosabatlar, ayniqsa nikoh kontekstida qayta tasvirlanadi.

Feministik tahlil:

- **Nikoh — jang maydoni**: Uy hayoti Glyuk she’rlarida urushdek tasvirlanadi. *Meadowlands*da u nikohdagi hissiy ziddiyatlarni *Odysseya*dagi epik janglar bilan solishtirib, an’anaviy “baxtli oila” obrazini savol ostiga qo‘yadi.

• **Penelopaning ko‘ngli qolishi:**

"I was once a bride, a virgin.
Why do you think you can question me?"

Tarjimasi: "Men bir vaqtlar kelin edim, bokira edim.
Nima uchun sen meni savolga tutishing mumkin deb o‘ylaysan?"

Bu satrlar erkaklarning ayollar hayotiga va tanasiga egalik qilish huquqini tanqid qiladi, hatto nikoh ichida ham. Sukut — kuch vositasi**:** Penelopaning jimligi zaiflik emas, balki himoya. U o‘z ichki dunyosini saqlab qoladi, erkak tafsiriga bo‘ysunmaydi.

Xulosa va takliflar. Luiza Glyukning she'riy ijodi feministik motivlar bilan boy bo‘lib, bu motivlar ko‘pincha ochiq siyosiy bayonotlar emas, balki psixologik, poetik va ramziy ifodalar orqali yuzaga chiqadi. Uning asarlarida ayollik tajribasi — onalik, travma, tanaga egalik, sukut va ichki kurash kabi mavzular orqali chuqur va qatlamli tarzda yoritiladi. Glyuk klassik miflarni qayta talqin qilish orqali an'anaviy ayol obrazlariga yangi ma'no beradi, ularni faol, murakkab va subyektiv mavjudot sifatida ko‘rsatadi.

Shoiraning she'rlari bizga ayol ovozining qanchalik muhim va kuchli bo‘lishi mumkinligini eslatadi — hatto jimlik, chetlanish yoki zulmat fonida ham. Glyukning lirik qahramonlari ko‘pincha ichki ziddiyatlar bilan kurashadi, lekin aynan shu kurash orqali o‘z shaxsiyligini va erkinligini tiklaydi.

Xulosa qilib aytganda, Luiza Glyuk ijodidagi feministik motivlar zamonaviy adabiyotda ayol subyektivligini yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Shoira nafaqat individual ayollik tajribasini, balki uni jamiyat va tarix kontekstida ko‘rsatish orqali feminist adabiy diskursga o‘ziga xos, chuqur va ta'sirli hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Glück, Louise. *Ararat*. New York: The Ecco Press, 1990.
2. Glück, Louise. *Averno*. New York: Farrar, Straus and Giroux, 2006.
3. Glück, Louise. *Meadowlands*. New York: Ecco Press, 1996.
4. Glück, Louise. *The Wild Iris*. New York: The Ecco Press, 1992.
5. Hass, Robert. "The Art of Poetry No. 67: Louise Glück." *The Paris Review*, No. 134, 1995.
6. Kitchen, Judith. *Understanding Louise Glück*. University of South Carolina Press, 2005.
7. Usmonova Mukhayyo Akramovna. (2021). "The Role of Literature in ESL Classes."
8. Usmonova Mukhayyo Akramovna. (2023). "Luiza Glyuk ijodi va uning adabiyotshunoslikdagi o‘rni."
9. Usmonova Mukhayyo Akramovna. (2023). *The Reflection of National Traditions in Modern Uzbek Women's Poetry*.
10. Vendler, Helen. *Poets Thinking: Pope, Whitman, Dickinson, Yeats*. Harvard University Press, 2004.

UO'K 81-13

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTERNET JARGONLARIDAN FUNKSIONAL FOYDALANISH

Sh.Y. Usmonova, PhD, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona
G.A. Abdurazzaqova, magistrant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya*. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan internet jargonlari funksional-lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli muloqotda keng tarqalgan qisqartmalar, norasmiy ifodalar, madaniy va ijtimoiy konnotatsiyalar hamda ularning kommunikativ funksiyalari solishtirma yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Ingliz tilidagi "lol", "idk", "brb" kabi qisqartmalar hamda o‘zbek tilidagi "aka", "zapchast", "brat" kabi so‘zlar orqali zamonaviy internet muloqotining til o‘zgarishlariga ta'siri yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *internet jargonlari, qisqartmalar, ingliz tili, o‘zbek tili, raqamli kommunikatsiya, funksional tilshunoslik.*

Аннотация. *В статье проводится функционально-лингвистический анализ интернет-жаргона, используемого в английском и узбекском языках. Рассматриваются распространённые сокращения, неформальные выражения, культурные и социальные коннотации, а также их коммуникативные функции в цифровой среде. На основе сравнительного подхода раскрывается влияние таких выражений, как "lol", "idk", "brb" в*

английском и "aka", "zapchast", "brat" в узбекском языке на языковые изменения в интернет-общении.

***Ключевые слова**: интернет-жаргон, сокращения, английский язык, узбекский язык, цифровая коммуникация, функциональная лингвистика.*

***Abstract.** This article analyzes the functional and linguistic features of internet jargons used in English and Uzbek languages. It focuses on common abbreviations, informal expressions, and their social and cultural connotations in the context of digital communication. A comparative approach is employed to highlight how expressions like "lol", "idk", and "brb" in English and "aka", "zapchast", and "brat" in Uzbek reflect changes in language use in online discourse.*

***Key words**: internet jargon, abbreviations, English language, Uzbek language, digital communication, functional linguistics.*

Kirish. XXI asrda internet vositalarining hayotimizga chuqur kirib kelishi natijasida tilshunoslikda yangi yo'nalish – internet tilshunosligi vujudga keldi. Ayniqsa, bu sohada internet foydalanuvchilari o'rtasida shakllangan o'ziga xos jargonlar alohida o'rganishga loyiq. Internet jargonlari asosan qisqalik, ifoda tezligi va samimiylikni ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bu holat ingliz va o'zbek tillarida ham kuzatiladi, biroq ularning shakllanishi va qo'llanishi til va madaniyatga xos xususiyatlarga ega.

Internet jargonining tabiati va funksional jihatlari

Internet jargonlari og'zaki nutq elementlarining yozma ko'rinishga o'tgan shakllaridir. Ular odatda qisqartmalar, talaffuz asosidagi yozuvlar, inglizcha so'zlarning o'zbek tiliga moslashgan variantlari shaklida bo'ladi. Masalan, ingliz tilida: LOL – "laughing out loud", BRB – "be right back", OMG – "oh my God". O'zbek tilida esa: kruto – zo'r, zapchast – avtomobil ehtiyot qismi, aka/oka – katta hurmat bildiruvchi muqobil nom, brat – birodar (rus tilidan o'zlashgan). Bu jargonlarning asosiy funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlarda tezkor, samimiy, norasmiy aloqa o'rnatishdir.

Ingliz va o'zbek internet jargonlarining shakllanish xususiyatlari

Inglizcha jargonlar ko'pincha fonetik qisqartmalar asosida shakllanadi. Masalan, "idk" (I don't know), "ttyl" (talk to you later). Ingliz tilining analitik tuzilmasi bunday qisqartmalarga imkon beradi. O'zbek tilida esa bu ko'proq fonetik va morfologik moslashish yo'li bilan amalga oshadi: "aka" → "oka", "zapchast" – rus tilidan, "chotkiy" – zo'r. Bu misollar o'zbek tilida kirishma so'zlar va so'zlashuv uslubidagi iboralarning jargonlashuvini ko'rsatadi.

Jargonlarning kommunikativ vazifalari va madaniy aks sadosi

Internet jargonlari faqatgina til emas, balki madaniy kontekstni ham aks ettiradi. Ingliz tilidagi "ghosting" yoki "FOMO" kabi jargonlar zamonaviy ijtimoiy hodisalarga ishora qiladi. O'zbek tilida esa "aka", "brat", "patron", "ko'cha bolasi" kabi jargonlar yoshlar mentalitetini, ijtimoiy tengsizlikni yoki shaxslararo hurmatni anglatadi. Bu jargonlar nafaqat til birligi, balki ijtimoiy tajriba, shaxslararo munosabatlar va madaniyatni ham yoritadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi internet jargonlari tilshunoslikda yangi bosqich – raqamli muloqot bosqichini anglatadi. Ular nafaqat tezkor va samarali aloqa vositasi, balki madaniy, ijtimoiy, lingvistik xususiyatlarning yorqin ko'rinishidir. Ularni o'rganish orqali nafaqat zamonaviy til o'zgarishlarini, balki jamiyatdagi tendensiyalarni ham tahlil qilish mumkin.

Internet jargonlari zamonaviy tilshunoslikda o'ziga xos fenomen sifatida qaralmoqda. Ular tilni soddalashtirish, tezlik bilan axborot yetkazish, shuningdek, norasmiy muloqot muhitida o'zaro yaqinlik hissini yaratish funksiyalarini bajaradi. Internet foydalanuvchilari orasida jargonlar orqali o'zaro birdamlik shakllanadi, bu holat "lingvistik identifikatsiya" deb ataluvchi jarayon bilan bog'liq. Jargonlar ko'pincha yoshlar tilida faol qo'llanadi, chunki ular o'z ifodalarini boshqa ijtimoiy guruhlardan farqlash, o'ziga xoslikni namoyon qilishga intiladi.

Bundan tashqari, internet jargonlarining rivojlanishida memlar, emojilar, hashtaglar, qisqartmalar va multimodal vositalarning kengayishi muhim rol o'ynaydi. Masalan, "AFK" (away from keyboard), "GG" (good game) kabi iboralar global axborot maydonida umumiy tushuniladigan birliklarga aylangan. O'zbek tili foydalanuvchilari esa bunday atamalarni mahalliy ijtimoiy kontekstga moslashtirib, ularga o'ziga xos semantik yuk yuklaydi. Shu jihatdan, internet jargonlari

nafaqat tilning zamonaviy ko‘rinishidir, balki global va lokal madaniyatlarning kesishuv nuqtasida shakllanayotgan kommunikativ hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Crystal, D. (2001). Language and the Internet. Cambridge University Press.
2. Androutsopoulos, J. (2006). Introduction: Sociolinguistics and computer-mediated communication. Journal of Sociolinguistics.
3. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press.
4. Qodirova, N. (2020). O‘zbek tilida internet jargonlari va ularning ijtimoiy funksiyasi. Filologiya masalalari, №2.
5. Karimov, Sh. (2019). Zamonaviy til o‘zgarishlari: Jargon va argolar. O‘zbek tili va adabiyoti, №4.
6. Djamoliddinova, M. (2021). Yoshlar tilida zamonaviy sleng va jargonlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Thurlow, C., & Mroczek, K. (2011). Digital Discourse: Language in the New Media. Oxford University Press.
8. Li, C. (2022). Internet slang and cross-cultural communication. International Journal of Language Studies.
9. Yusupov, A. (2018). Raqamli lingvistika va til o‘zgarishlari. Ilm-fan va zamon, №3.
10. Uzbek Milliy Ensiklopediyasi. (2020). Jargon.

UDK 808.3

CONCEPT IN LINGUISTICS: AN INTERDISCIPLINARY EXPLORATION

O. Uzakova, teacher, Central Asian medical University, Farg'ona

Annotatsiya. *«Kontsept» tushunchasi lingvistika sohasida markaziy o‘rin tutadi, bu ma’noni, kategoriyalashni va muloqotnini tushunishning asosidir. Kontseptlar — bu til orqali ifodalanadigan va yetkaziladigan obyektlar, harakatlar yoki g‘oyalar haqidagi aqliy tasavvurlar. Ushbu maqolada lingvistikaning turli sohalarida, jumladan semantika, pragmatika, kognitiv lingvistika va leksik semantika sohalarida «kontsept» tushunchasining turli talqinlari ko‘rib chiqiladi. Kontseptlarning inson ongida shakllanishi, tuzilishi va ifodalanishi, ularning til bilan bog‘liqligi va kommunikatsiyaga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, til shakllari va kontseptual mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlikka, xususan metafora nazariyasi va kontseptlarning til orqali mujassamlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *kontsept, lingvistika, kognitiv lingvistika, semantika, pragmatika, kategoriyalash, metafora, prototip, konseptual metafora, aqliy tasavvurlar.*

Аннотация. *Понятие «концепт» играет центральную роль в лингвистике, являясь основой для понимания смысла, категоризации и коммуникации. Концепты — это ментальные представления объектов, действий или идей, которые язык кодирует и передаёт. В статье рассматриваются различные трактовки «концепта» в различных подполях лингвистики, включая семантику, прагматику, когнитивную лингвистику и лексическую семантику. Обсуждается процесс формирования, структуры и представления концептов в человеческом сознании, их связь с языком и влияние на коммуникацию. Особое внимание уделяется связи между языковыми формами и концептуальным содержанием, включая теорию метафоры и воплощение концептов в языке.*

Ключевые слова: *концепт, лингвистика, когнитивная лингвистика, семантика, прагматика, категоризация, метафора, прототип, концептуальная метафора, ментальные представления*

Abstract. *The concept of “concept” plays a central role in the study of linguistics, serving as the foundation for understanding meaning, categorization, and communication. Concepts are the mental representations of objects, actions, or ideas that language encodes and conveys. This article delves into the various interpretations of “concept” across linguistic subfields, including semantics, pragmatics, cognitive linguistics, and lexical semantics. The article explores how concepts are formed, structured, and represented in the human mind, how they are linked to language, and how they influence communication. Additionally, it highlights the connection between linguistic forms and conceptual content, with a particular focus on metaphor theory and the embodiment of concepts in language.*

Key words: *concept, linguistics, cognitive linguistics, semantics, pragmatics, categorization, metaphor, prototype, conceptual metaphor, mental imagery.*

Introduction. The study of "concept" in linguistics involves examining the mental representations that words, phrases, and sentences correspond to. It is an interdisciplinary issue that touches on several subfields of linguistics, such as semantics, syntax, pragmatics, and cognitive linguistics. Understanding how concepts are formed and conveyed is crucial to understanding meaning in language. The connection between linguistic forms and the concepts they express is central to both theoretical and applied linguistics. Linguists and cognitive scientists alike are interested in the process by which abstract and concrete concepts are translated into language, influencing communication and thought.

In this paper, we explore the concept of "concept" from multiple linguistic perspectives, including the cognitive and semantic approaches, the role of categorization, metaphorical representations, and the interaction between grammar and concept formation. We will also highlight how the concept of "concept" in linguistics aligns with broader issues in cognition, perception, and communication.

Theoretical Foundations of Concepts in Linguistics. The study of concepts within linguistics is deeply connected to the philosophy of mind, cognitive science, and semiotics. At its core, the concept refers to the mental representations of categories or ideas that are encoded in language. The nature of these representations is multifaceted and can vary across disciplines.

Defining Concepts in Linguistics. Linguistically, concepts can be understood as the cognitive structures that allow humans to categorize, interpret, and label the world around them. While a dictionary definition of a word might focus on its grammatical and syntactic properties, the linguistic concept of a word also involves how humans mentally represent the meaning of that word. This is often distinct from how a word is used in specific syntactic contexts.

For example, the word "apple" might refer to a tangible object (the fruit), but the concept of "apple" includes various mental attributes, such as its taste, color, and texture. Understanding these cognitive dimensions of meaning is essential for understanding how words and their meanings interact within language.

Concepts in Relation to Meaning. Semantics, the study of meaning, is one of the primary subfields where the role of concepts is analyzed. Semantics is concerned with the meaning of words, phrases, and sentences, but it also addresses how these meanings are formed and interpreted within human cognition. Concepts play a crucial role in semantic theory because they provide the mental content that corresponds to linguistic forms. Without an understanding of how concepts are structured, we cannot fully explain how meaning works in language [1].

Cognitive Linguistics and the Embodiment of Concepts. Cognitive linguistics presents a more integrated view of language and cognition, arguing that linguistic structures and meanings are deeply rooted in our bodily experiences and sensory perceptions. Language does not merely represent abstract concepts but rather embodies them in ways that are intimately connected human experience [2].

Conceptualization and Mental Representation. Cognitive linguists argue that concepts are not abstract, isolated units but are grounded in our sensory, motor, and emotional experiences. These embodied concepts are organized and structured by human perception, action, and interaction with the world. This perspective contrasts with the traditional view in which language is seen as a system of abstract symbols that merely map onto external objects.

For instance, spatial concepts like "up," "down," "in," and "out" are understood through physical interaction with the environment. The concept of "up" is associated with vertical motion or position, grounded in human experience. This is what cognitive linguists refer to as **embodied cognition**, which emphasizes that our mental representations of concepts are shaped by how we physically and perceptually engage with the world.

Conceptual Metaphor Theory. One of the most influential theories in cognitive linguistics is **Conceptual Metaphor Theory (CMT)**, which was developed by George Lakoff and Mark Johnson. This theory posits that abstract concepts are often understood and expressed metaphorically through

more concrete or familiar concepts. The essence of metaphor, according to CMT, is not just a linguistic phenomenon but a fundamental cognitive process [3].

Lakoff and Johnson's seminal work *Metaphors We Live By* (1980) argued that metaphors shape how people think about concepts, influencing their understanding of abstract ideas like time, emotions, and even morality. For example, in English, the metaphor **"time is money"** frames time as a limited resource, leading to expressions such as "spending time," "saving time," or "wasting time." This metaphor is not just a feature of language but a reflection of how people conceptualize time. In this sense, metaphors are not mere linguistic flourishes but cognitive tools shape the way we perceive the world and communicate about it.

Categories and Conceptual Structure. Linguists also study how concepts are categorized. The process of **categorization** involves grouping objects, events, or ideas based on shared features or characteristics. In this section, we explore the role of categorization in language and how words are used to represent conceptual categories.

Prototype Theory. One of the most influential theories of categorization in cognitive linguistics is **Prototype Theory**, developed by Eleanor Rosch. According to this theory, concepts are not defined by a strict set of necessary features but by a "prototype" or a best example of a category. The prototype represents the most typical or frequent instance of a concept, and other instances of the concept are classified based on their similarity to this prototype [4].

For example, when we think of the concept of "bird," we might first think of a robin or a sparrow, which are prototypical birds. However, less typical examples, such as penguins or ostriches, still fit within the category of "bird," even if they do not align with the prototype. This approach allows for a more flexible understanding of how categories and concepts are structured in the mind and reflected in language. Words like "dog" or "chair" are flexible categories with boundaries that can shift based on contextual factors, and this is captured in language through the use of various modifiers or qualifiers.

Pragmatics and Conceptualization in Context. While semantics focuses on the meaning of words and sentences in isolation, **pragmatics** is concerned with how meaning is shaped by context. In pragmatics, the study of concepts involves understanding how speakers use language to convey meanings that depend on the situation, the speaker's intentions, and the listener's interpretations.

The Role of Context in Conceptualization. In pragmatics, concepts are seen as dynamic and context-dependent. A single word can evoke different concepts depending on the context in which it is used. For example, the word "bank" can refer to a financial institution or the side of a river, depending situational context.

Speech Acts and Conceptualization. In addition to understanding words in context, pragmatics also examines **speech acts**—the actions performed through language. Speech acts, such as asserting, questioning, promising, or apologizing, involve the use of concepts in communication. These concepts are often negotiated through conversation and can be shaped by cultural norms, social relationships, and the shared knowledge of speakers.

Lexical Semantics and the Relationship Between Words and Concepts. Lexical semantics examines how words and their meanings relate to the mental concepts they represent. The study of lexical semantics explores the nuances of word meaning, including how a word can have multiple senses or meanings based on its usage in different contexts [5].

Polysemy and Word Sense. Many words in natural languages are **polysemous**, meaning that a single word can have multiple meanings. The meanings associated with a polysemous word are often related to each other through shared conceptual features. For example, the word "foot" can refer to a body part, a unit of measurement, or the base of something. Understanding these multiple senses involves understanding how the various meanings of the word are linked through conceptual structures.

Word-Meaning and Conceptual Networks. Linguists argue that meanings are not isolated entities but are part of interconnected **conceptual networks**. A word's meaning can be understood as a node in a complex web of related concepts. These conceptual networks reflect how concepts are mentally organized and how they relate to each other in various linguistic contexts.

Conclusion. The concept of "concept" in linguistics is an intricate and multifaceted subject that intersects with multiple domains of human knowledge, including cognition, perception, and communication. Concepts are central to our understanding of meaning, language structure, and categorization. Whether through the embodied grounding of concepts in sensory experience, the flexibility of categorization, or the role of context in pragmatic interpretation, the study of concepts in linguistics provides profound insights into how humans use language to make sense of the world. Theoretical frameworks like Cognitive Linguistics, Conceptual Metaphor Theory, and Prototype Theory help explain how abstract ideas are represented, structured, and conveyed through language, deepening our understanding of how language functions as both a tool for communication and a reflection of human thought.

REFERENCES:

1. Fodor, J. A. (1975). *The Language of Thought*. Harvard University Press.
2. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). *Cognitive Linguistics: Beyond Phonology*. Cambridge University Press.
3.Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
4. Rosch, E. (1975). "Cognitive representations of semantic categories." *Journal of Experimental Psychology: General*, 104(3), 192–233.
5. Geeraerts, D. (2010). *Theories of Lexical Semantics*. Oxford University Press.

UO'K 811

INGLIZ TILIDA ILK IDIOMALAR PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

D.D. Xakimov, o'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon
ORCID: 0009-0009-7171-0687

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilidagi idiomalar paydo bo'lishining tarixiy ildizlari, ularning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tilga ta'sirini tahlil qiladi. Idiomalar tilning madaniy qatlamini ifodalovchi o'ziga xos birliklardir. Tadqiqot jarayonida idiomalarning lingvistik xususiyatlari, tarixiy asarlar orqali tilga kirib kelishi, shuningdek, globalizatsiya va texnologik taraqqiyotning zamonaviy idiomalarga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Maqola tilshunoslar, tarjimonlar va ingliz tilini o'rganuvchilar uchun amaliy va nazariy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *idioma, ingliz tili, til tarixi, stilistika, Shekspir, globalizatsiya, tilshunoslik*

Аннотация. *В статье анализируются исторические корни появления идиом в английском языке, этапы их развития и их влияние на современный язык. Идиомы — это уникальные единицы, представляющие культурный пласт языка. В процессе исследования будут освещены лингвистические особенности идиом, их внедрение в язык через исторические труды, а также влияние глобализации и технического прогресса на современные идиомы. Статья может служить практическим и теоретическим ресурсом для лингвистов, переводчиков и студентов, изучающих английский язык.*

Ключевые слова: *идиома, английский язык, история языка, стилистика, Шекспир, глобализация, лингвистика*

Abstract. *This article analyzes the historical roots of the emergence of idioms in the English language, the stages of their development and their impact on the modern language. Idioms are unique units that represent the cultural layer of the language. The research process will highlight the linguistic features of idioms, their introduction into the language through historical works, as well as the impact of globalization and technological progress on modern idioms. The article can serve as a practical and theoretical resource for linguists, translators and students of the English language.*

Keywords: *idiom, English, language history, stylistics, Shakespeare, globalization, linguistics*

Tilning boyligi nafaqat uning lug'at boyligida, balki undan hosil bo'lgan metaforik, idiomatik va stilistik birliklarda ham namoyon bo'ladi. Idiomalar, ayniqsa, ingliz tilida keng tarqalgan bo'lib, ularning ildizlari asrlar davomida shakllangan. Bu maqola ingliz tilida ilk idiomalar qanday paydo bo'lganini, ularning rivojlanish bosqichlarini va hozirgi kunda qanday o'zgarishga uchraganini tahlil qiladi.

Idioma (frazeologizm) tilning muhim ekspressiv vositasi hisoblanadi. Idioma mustaqil ma'noga ega bo'lgan turg'un ekspressiv iboradir. Aksariyat hollarda idiomalar xalq tomonidan yaratilgan va shuning uchun oddiy odamlarning qiziqishlari va kundalik faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Idiomatik iboralar xalqning mehnati, hayoti va madaniyati bilan bog'liq fikrlarni aks ettiradi. Ular tilning milliy o'ziga xosligini, boshqa tillardan farqini to'liq ochib beradi. Demak, idiomalarning asosiy maqsadi nutqqa alohida ifodalilik, takrorlanmas o'ziga xoslik, aniqlik va obrazlilik berishdir.

Idiom – bu birikma bo'lib, uning ma'nosi tarkibidagi alohida so'zlarning lug'aviy ma'nosidan keskin farq qiladi. Ular ko'pincha milliy madaniyat, mentalitet va tarix bilan bog'liq bo'ladi. Ingliz tilidagi idiomalar har xil sintaktik shakllarda namoyon bo'ladi: frazeologik birliklar, metaforik iboralar, stabil iboralar va boshqalar.

Idiomatik iboralarning madaniy qiymati ular mazmunining inkor etilmaydigan haqiqiyligidadir. Ularni tahlil qilish orqali mamlakat tarixini kuzatib borish, uning urf-odat va an"analari bilan qisman tanishish, shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning mentaliteti haqida tushunchaga ega bo'lish mumkin. Idiomatik iboralarni tahlil qilish mezonlarini aniqlash uchun ushbu iboralarning tabiatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqladik. An'anaviy ravishda bu omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Tashqi omillar - mamlakatning geografik joylashuvi, qo'shni davlatlar bilan aloqalari, iqlim sharoiti va boshqalar.

2. Ichki omillar - kundalik turmush va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, din, an'analar, urf-odatlar va boshqalar.

Ingliz tilidagi dastlabki idiomalar o'rta asrlarga taalluqli bo'lib, ularning ko'pchiligi diniy matnlar, xalq og'zaki ijodi va adabiyotda shakllangan. Uilyam Shekspir ingliz tiliga juda ko'p idiomatik iboralarni kiritgan yozuvchi sifatida tanilgan. Masalan, "in a pickle", "break the ice", "green-eyed monster" kabi iboralar aynan Shekspir asarlaridan kelib chiqqan.

Boshqa davlatlar bilan munosabat Buyuk Britaniya tarixi haqida gapiradigan bo'lsak, ingliz tilida gollandlarni juda yoqimsiz ko'rinishda ifodalaydigan frazeologik birliklar mavjudligi qiziq. Buni Angliya asrlar davomida Gollandiya bilan dunyodagi birinchi raqamli dengiz davlati bo'lish uchun kurashganligi bilan izohlash mumkin. Ikki davlat o'rtasidagi bu o'ziga xos qarama-qarshilik ingliz frazeologiyasida o'z aksini topgan.

XVII asrga kelib Angliyada "golland"(Dutch) so'zi "begona" ma'nosini oldi ("tushunarsiz", "g'ayrioddiy" ma'nosida). Quyida "Golland"(Dutch) so'zi ishtirok etgan ingliz frazeologik birliklariga misollar keltirilgan: Dutch bargain- mast holatda tuzilgan shartnona; Dutch courage- mast odam jasorati; in Dutch- muammoli vaziyatda(qolmoq); to talk like Dutch uncle- aql o"rgatmoq(so'zma-so'z tarjimasi)golland amakidek gapirmoq.

Iqlim bilan bog'liq idiomalar ham, shubhasiz, iqlim odamlarning mentalitetiga katta ta'sir ko'rsatadi va shunga mos ravishda idiomatik iboralar tegishli bo'lgan so'zlashuv nutqida o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, Buyuk Britaniyaning iqlimi bulutli va yomg'irli ob-havo bilan ajralib turadi. Bu *"yomg'ir" ("rain")* so'zi ishtirok etgan ko'plab ingliz maqollarining mavjudligini tushuntiradi: *It never rains but it pours* - (so'zma-so'z tarjimasi) *tashvish(balo,ofat) yomg"ir bilan kelmaydi, jala(to'fon) bilan keladi; Rain at seven, fine at eleven* - (so'zma-so'z tarjimasi) *7 da yomg"ir, 11 da ochiq(yaxshi) havo; Keep something for a rainy day* - (so'zma-so'z tarjimasi: *yomg"irli kunga asrab qo"ymoq) qora kunga saqlamoq(asrab qo"ymoq).*

Tadqiqotimizda idiomalar rivojlanish bosqichlarini quyidagicha davrlarga bo'ldik:

1) Qadimiy va o'rta davrlar: Ushbu davrlarda idiomalar og'zaki xalq ijodi, bibliya tarjimalari va she'riyat asosida paydo bo'lgan. Turg'un frazeologik birliklar sifatida ular asta-sekin normativ tilga o'tgan. Aynan shu davrda din bilan bog'liq idiomalar shakllangan.

Din. Barcha xalqlarda bo'lgani kabi inglizlarda ham dinning hayotdagi o'rni juda kattadir. Ingliz tilida *"God"(Xudo), "Devil"(Shayton)* so'zlari ishtirok etgan idiomatik iboralarning ko'pligi fikrimizga asos bo'ladi. Quyida ulardan misollar keltiramiz: *He that serves God for money will serve the devil for better wages*- (so'zma-so'z tarjimasi) *pul uchun xudoga xizmat qilgan inson ko"proq pul uchun shaytonga ham xizmat qiladi; Lord helps those who help themselves* - (so'zma-so'z tarjimasi) *Xudo o'ziga yordam beradiganga yordam beradi(ya"ni: xudoning yordamiga ishon, lekin to"xtama);*

Man proposes but God disposes - (so'zma-so'z tarjimasi) *inson taxmin qiladi, xudo amalga oshiradi; Open not your door when the devil knocks* - (so'zma-so'z tarjimasi) *shayton taqillatganda eshikni ochma; The devil lurks behind the cross* - (so'zma-so'z tarjimasi) *shayton xochning ortiga yashiringan;*

2) Renessans davri va Shekspir asarlari: Bu bosqichda san'at va adabiyot tilga faol ta'sir ko'rsatib, yangi idiomalar yaratilishiga sabab bo'lgan.

3) XVIII–XIX asrlar: Lug'atlar va grammatika kitoblarida idiomalar alohida bo'lim sifatida o'rganila boshlangan. Rasmiy tilshunoslik doirasida ham ular tahlil qilina boshladi.

An'ana. Ingliz xalqi urf-odatlari haqida gapirganda, Angliyada eng ko'p iste'mol qilinadigan ichimlik choy ekanligini ta'kidlash kerak. Inglizlar choy tayyorlash va choy ichish jarayoniga alohida e‟tibor qaratadilar. Natijada, ingliz tilida *"cup of tea"* iborasi bilan bir nechta idiomatik iboralar hosil bo'lgan. cup of tea(so'zma-so'z tarjimasi) choy finjoni – inson(ayol), subyekt. Frazeologik birlikning tarkibiy kengayishi ingliz tilida yangi ma‟nolarni keltirib chiqargan. an old cup of tea – kampir; an unpleasant cup of tea – yoqimsiz odam; to be one‟s cup of tea – yoqimli.

4) XX–XXI asrlar – Globalizatsiya va texnologiya davri: So'nggi davrlarda yangi idiomalar zamonaviy media, kino, internet va ommaviy madaniyat orqali yuzaga kelmoqda. Masalan, "to go viral", "hit the road", "spill the tea" kabi iboralar so'nggi yillarda ommalashgan.

Iqtisodiyot. Tarixan Angliya poytaxti London shahri dunyo iqtisodiy markazlaridan biridir. Londonda dunyodagi eng katta fond birjalaridan biri joylashgan. Shu sababli ham ingliz tilida "money"(pul) va boshqa iqtisodiyotga doir idiomatik iboralarni uchratish mumkin. *Time is money - (so'zma-so'z tarjimasi) vaqt bu puldir(Vaqting - naqding); No bees, no honey; no work, no money* - (so'zma-so'z tarjimasi) *asalarisiz asal, ishsiz pul bo'lmaydi; It is better to be born lucky than rich* - (so'zma-so'z tarjimasi) *boy bo'lib emas, baxtli bo'lib tug‟ilgan yaxshiroq*;

Bugungi kunda idiomalar ingliz tilining har bir sohasida – adabiyotda, siyosatda, ommaviy axborot vositalarida, hatto ijtimoiy tarmoqlarda ham faol ishlatilmoqda. Ular nafaqat tilni obrazli qiladi, balki so'zlovchi madaniy olamini ham ifodalaydi. Shu bois idiomalar til o'rganuvchilar uchun muhim stilistik vosita hisoblanadi.

O'zbek va ingliz tillari tarixan bir – biriga yaqin tillar bo'lmasada, boshqa dunyo tillarida bo'lgani kabi bu tillar orasida ham o'xshash idiomalar mavjud. Bu jihat turli millat, turli mafkura egalari dunyoqarashi, mentalitetida biroz bo'lsa ham o'xshashlik borligini ko'rsatib beradi. Quyida shunday idiomalardan namunalarni keltirib o'tamiz.

I.**Mazmunan aynan bir xil (asl ma'noda) qo'llanuvchi idiomatik iboralar**. Appetite comes with eating - Ishtaxa tanovul payti ochiladi; A cat and dog life - It va mushukday yashash; To be in seventh heaven - Yettinchi osmonda uchmoq; To take oneself in hand - O‟zini qo‟lga olmoq; To get out of the bed on the wrong side- Chap tomoni bilan turmoq; Open-hearted - ochiq ko‟ngil; To look for a needle in a haystack- Somon ichidan igna qidirmoq; The dogs bark, but the caravan goes on = The moon doesn‟t heed the barking of dogs - It hurar , karvon o‟tar; Better late then never - Hechdan ko‟ra kech yaxshi; Make a mountain out of a molehill - Pashshadan fil yasamoq.

II. **Obrazlar almashtirilgan holda (Ko'chma ma'noda) qo'llanuvchi idiomatik iboralar.** As two peas - Ikki suv tochisiday(o'xshash); Hungry as a hunter- Itday och; The rotten apple injures its neighbours – Bitta tirraqi buzoq butun podani buzadi; To kill two birds with one stone - Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq; Be on nettles - Ignaning ustida o'tirgandek.

Tildagi idiomalarda, ya'ni milliy xususiyatga ega bo'lgan qatlamda qadriyatlar tizimi, jamoat axloqi, dunyoga, odamlarga, boshqa xalqlarga munosabati saqlanadi. Frazeologizmlar, maqollar, matallar bir madaniyat bilan birlashgan muayyan jamoaning turmush tarzi, geografik o'rni, tarixi va an'analarini eng aniq tasvirlaydi. Til xalq madaniyatini saqlaydi, saqlagan holda keyingi avlodlarga yetkazadi. Ushbu ishda biz idiomatik iboralar orqali ingliz xalqining mentaliteti bilan tanishdik. Til nafaqat o'z xalqining madaniyatini, uning ijtimoiy tuzilishini, mentalitetini, dunyoqarashini va yana ko'p narsalarni aks ettiribgina qolmay, balki o'zida to'plangan ijtimoiy-madaniy axborotni ham saqlaydi va keying avlodga yetkazadi, bu esa o'z o'rnida keyingi avlodlar shakllanishining eng muhim va samarali usuli bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fernando, C. (1996). Idioms and Idiomaticity. Oxford University Press.

2. Makkai, A. (1972). Idioms: Structural and Psychological Perspectives. The Hague: Mouton.
3. Ammer, C. (2013). The American Heritage Dictionary of Idioms. Houghton Mifflin Harcourt.
4. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
5. Speake, J. (ed.). (2015). Oxford Dictionary of Idioms. Oxford University Press.

UO'K 398+398.22(571.52)

EPIK MATN TAHLILI VA TIL XUSUSIYATLARI (ALPOMISH DOSTONI MISOLIDA)

M.G'.Xakimova, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Maqolada Alpomish dostonining tili, dostonda qo'llangan arxaik so'zlar, dostonda qo'llanilgan antonimiya va sinonimiyaning dostondagi o'rni va vazifasi tahlil qilingan. Shuningdek, dostonda etimologik jihatdan ko'proq o'z qatlamga mansub lug'aviy birliklar, shuningdek, o'zlashgan qatlamga mansub lug'aviy birliklarning o'zaro ma'nodoshlik hosil qilganligi kuzatilgan.*

Kalit so'zlar: *Alpomish doston, folklor, lingvopoetika, doston tili, o'zlashma so'zlar, arxaizmlar, sinonimiya, antonimiya, og'zaki ijro.*

Аннотация. *В статье проведён анализ языка эпоса "Алпомиш", в котором рассматриваются архаические слова, а также роль и функции антонимии и синонимии в тексте. Кроме того, отмечается, что в поэме встречается большее количество лексических единиц, относящихся к родному слою с точки зрения этимологии, а также лексических единиц заимствованного слоя, которые создают семантические связи.*

Ключевые слова: *Эпос "Алпомиш", фольклор, лингвопоэтика, язык эпоса, заимствованные слова, архаизмы, синонимия, антонимия, устное исполнение.*

Abstract. *The analysis of the language of the "Alpomish" epic focuses on the archaic words used in the poem, as well as the role and functions of antonymy and synonymy within the text. Additionally, it is noted that the poem features a larger number of vocabulary units belonging to the native layer etymologically, as well as vocabulary units from the borrowed layer that create semantic connections.*

Keywords: *Alpomish epic, folklore, linguopoetics, epic language, borrowed words, archaisms, synonymy, antonymy, oral performance.*

O'zbek xalqi o'zining g'oyat qadimiy madaniyati va serqirra ijodiy salohiyati bilan jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Bu madaniyatning eng yorqin ko'rinishlaridan biri – xalq og'zaki ijodi, xususan, qahramonlik dostonlaridir. "Dostonlarda tarixiy voqealar va uzoq o'tmish voqealari aks ettirilgan. Ular asrlar davomida takomillashib, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllangan. Ularda ijtimoiy ong, axloqiy qarashlar, urf-odatlar, an'analar aks etadi. Bu ularning g'oyaviy, badiiy va estetik qiymatini belgilaydi"[1]. Dostonlar shunchaki o'tmish yodgorligi emas, balki milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarni avloddan avlodga uzatish, xalqning estetik ideallari va dunyoqarashini ifodalovchi tirik an'ana va ma'naviy me'ros hisoblanadi. Ular orasida "Alpomish" dostoni alohida mavqega ega bo'lib, o'zbek xalqining epik tafakkuri cho'qqisi sanaladi. "Alpomish – xalqning asriy tajribalaridan kelib chiqqan xulosalari – bilimlarining qaymog'i.[2.15]. Alpomish dostoni sujetining rang-barangligi, doston tilining boyligi va obrazliligi, janr xususiyatlari, badiiy uslubi va badiiy tasvir vositalarining mohirona qo'llanishi va uyg'unligi, ijro uslubi bilan jahon eposshunosligida o'zbek epik dostonlarining qiymatini yanada oshirgan. Ushbu dostonni folklor hodisasi sifatida tushunish uchun uning syujet qurilishi, yetakchi motivlari, kompozitsion xususiyatlari bilan birga, bu elementlarni jonlantiruvchi va epik olamni yaratuvchi badiiy til – lingvopoetikasini o'zaro chambarchas bog'liqlikda o'rganish muhimdir. Nega deganda, dostondagi har bir so'z, har bir ibora, har bir o'xshatish yoki mubolag'a – bu shunchaki til qoidalariga bo'ysunadigan birlik emas. Aksincha, u epik olamni yaratadigan ranglar, qahramonlar joniga jon, so'ziga kuch bag'ishlaydigan ohanglar, tinglovchini (yoki o'quvchini) o'sha qadimiy dunyoga olib kirib, o'ziga rom eta oladigan qudratli vositadir. Aynan mana shu til orqali doston avloddan avlodga o'tib kelgan, baxshilar uni sayqallagan, xalq uni yuragiga jo qilgan. Shu ma'noda,

dostonning tili – bu uning ruhidir. Mazkur tadqiqotda lingvistik vositalarning doston poetikasi tizimidagi o‘rni va folklorik funksiyalarini ochib berish maqsad qilingan. Ya’ni, til birliklari qanday qilib epik syujetni harakatlantirishi, motivlarni jonlantirishi, obrazlarni yaratishi va umumiy epik atmosferani hosil qilishdagi rolini tahlil etish ko‘zda tutiladi. Doston tili, uning leksik qatlamlari (o‘z va o‘zlashma) shunchaki til tarixi nuqtai nazaridan emas, balki epik dunyoqarashni, qahramonlar va muhitning o‘ziga xosligini ifodalovchi badiiy vosita sifatida qaraladi. Masalan, o‘z qatlam so‘zlar dostonning milliy ruhini, qadimiyligini ta’minlasa, o‘zlashma qatlam (arabcha, forscha, xitoycha) ma’lum bir madaniy-tarixiy kontekstni yaratish, ijtimoiy tabaqalanishni ko‘rsatish yoki hatto “begona” muhitni tasvirlashda poetik funksiya bajarishi mumkin. Alpomish dostonida qo‘llangan leksik birliklarning Ayniqsa, o‘zlashma so‘zlar – arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan leksika – doston matniga shunchaki singib ketmagan, balki uning ma’no olamini kengaytirib, epik dunyoqarashni boyitgan. O‘zlashma qatlam leksikasining poetik vazifasini quyidagicha izohlash mumkin: O‘zlashma qatlam: ***Arabcha va fors-tojikcha so‘zlar:*** Islom dini bilan bog‘liq tushunchalar **(*xudo, tangri, haq, pir, murid, taqdir, qismat, foniy, mahshar, jannat*** va hokazo) dostonga faqat diniy ruh bag‘ishlab qolmay, balki qahramonlarning ichki dunyosini, olam va odam haqidagi qarashlarini, taqdirga bo‘lgan munosabatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Bu so‘zlar orqali qadimgi qahramonlik g‘oyalari bilan islomiy axloqiy-falsafiy qarashlar murakkab bir sintezni hosil qiladi. Ijtimoiy-siyosiy atamalar **(*shoh, sulton, vazir, amr, farmon, fuqaro, mahram*)** esa epik jamiyatning tuzilishini, undagi ierarxiyani, boshqaruv va munosabatlar tizimini tinglovchi (yoki o‘quvchi) ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Ular epik makonning ijtimoiy qiyofasini chizadi. Axloqiy-falsafiy tushunchalar (***adolat, zulm, vafo, xiyonat***) va kundalik hayotga oid so‘zlar **(*dunyo, mol, davlat, noiloj, sarson*)** dostonning axloqiy mezonlarini belgilaydi, qahramonlar xatti-harakatiga baho berishga undaydi va asarning ta’sirchanligi va hayotiyligini oshiradi. Shu bilan birga, doston tilida uchraydigan arxaik so‘zlar (***sag‘ir, tumog‘, ko‘tohlik, muzofot, mahshar, manglay, pir, murid*** kabi) ham shunchaki eskirib qolgan lug‘aviy birliklar emas. Ular epik asarga alohida viqor, qadimiylik ruhini bag‘ishlovchi, uni kundalik nutqdan ajratib turuvchi muhim poetik vositadir. Bu so‘zlar go‘yo vaqt ko‘prigi vazifasini o‘taydi – tinglovchini voqealar sodir bo‘layotgan olis epik zamonga olib kiradi, o‘sha davr muhitini his qilishga yordam beradi. “Qizig‘i shundaki, hatto ***mahshar*** yoki ***pir*** kabi asli o‘zlashma bo‘lgan ayrim so‘zlar ham doston kontekstida ham diniy ma’noni, ham shu bilan birga qadimiylik ruhini beruvchi arxaik element sifatida namoyon bo‘ladi.”[4.5]

Demak, o‘zlashma so‘zlar doston dunyosining mazmuniy qatlamlarini boyitsa, arxaizmlar shunchaki eskirgan birliklar emas, balki epik asarga qadimiylik, o‘tmish muhitini jonlantiruvchi muhim poetik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

“Alpomish” dostonining til qudrati va badiiy jozibasi ko‘p jihatdan uning leksik-semantik vositalarni, xususan, sinonimiya va antonimiya hodisalarini mahorat bilan qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi. Bu lingvistik hodisalar shunchaki til boyligi emas, balki epik poetikaning faol elementlaridir. Sinonimiya va antonimiyalarning dostondagi o‘rni va vazifasini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

Alpomish dostonida qo‘llangan sinonimlar juda boy va rang barangdir. Masalan, **(*og‘a, aka, emikdosh; tangri, xudoy, haq, oblo, rabb; el, xalq, xaloyiq; qismat, taqdir; shoh, sulton*)**. *Dostondagi she’riy parchalarda kelgan sinonimlar:*

Toychixon amriman jallod kelgandir.(29)
Shunday bo‘ldi haqdan menga farmonlar,(193)
Har na qismat yozilgandan bilaman, Azaliy taqdirga nimish qilaman.(11)
Qizu juvon bari yig‘ilib keladi. Ayollari to‘qiz tovoq qiladi.
Ne bir xotinlar vaqti xush bo‘p boradi.(160) Elu xalqqa yurib xabar berayin,
Hamma xalq eshitsin, ani ko‘rayin.(121) Go‘ristondan bu manzil-joy so‘radi. Mozorotda yurgan odam sargardon, Yotoq joy so‘ragan,men ham sarsonman Qayerda joy bo‘lsa borib qo‘naman, Bu sababdan mazgil so‘rab turaman.(85) Hech bir dushman bo‘lolmasin barobar, G‘animlarning dodin berar jonivor.(78) Qultoy qul havoda ko‘rinmay ketar, Davlatli xon shunday ko‘kka qaradi. Qultoy osmondan tushib keldi .(75) Falak sarson qildi meni, qaytayin.(85)

"Alpomish" dostoni til olami sinonimlarga nihoyatda boy **(*og'a-aka-emikdosh; tangri-xudoy-haq; el-xalq-xaloyiq; qismat-taqdir; shoh-sulton* va hk)** bu leksik rang-baranglik emas, balki, og'zaki epik ijodning o'ziga xos xususiyatlaridir, baxshining ijrochilik mahorati va an'anaviy poetikaning talablari bilan bevosita bog'liq hodisadir. "Baxshi – o'ziga xos fenomen ular asrlar davomida xalq xotirasida saqlanayotgan, o'z ijodiyoti bilan xalqning ma'naviy olamini boyitgan betakror san'atkorlardir. Baxshilar – epik asarlarning teran mazmun-mohiyatini anglashga, tajriba falsafiy va badiiy qiymatini anglab yetishga ko'maklashadigan, jamoatchilik orasida yuksak hurmatga sazovor bo'lgan san'atkorlardir.[5.21] Quyidagi misollar asosida "Alpomish" dostonida qo'llangan sinonimlarning asosiy folkloristik vazifalarini ko'rib chiqamiz:

1.Doston og'zaki ijro etiladigan janr bo'lgani uchun unda ritm, ohang va she'riy vazn kabi ijro unsurlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Baxshi doimo vaznga moslashishi kerak. Har bir misraning o'z o'lchovi, o'z vazni bor. Shunday paytda turli bo'g'inli ma'nodosh so'zlar (***amr*** – qisqa, ***farmon*** – uzunroq) xuddi kerakli o'lchamdagi g'ishtga o'xshaydi. Baxshi misradagi bo'sh joyga qaysi so'z to'g'ri kelsa, o'shani tanlab oladi. Bu unga she'riy vaznni va kuyning ritmini buzmasdan, ijroni bir maromda, silliq davom ettirishga katta yordam beradi.

2.Dostonlarda ko'pincha takrorlanib turadigan, xuddi naqshdek tayyor iboralar, qoliplar bo'ladi (***elu-xalq, shohu- sulton*** kabi). Bu qoliplar baxshiga juda qo'l keladi: birinchidan, ijroni osonlashtiradi (yangi gap tuzib o'tirmaydi), ikkinchidan, dostonning qadimiy, an'anaviy uslubini saqlaydi, uchinchidan, ham baxshining, ham tinglovchining esida qolishini osonlashtiradi. Masalan, qabristonni tasvirlash kerak bo'lsa, ***go'riston*** yoki ***mozorot*** so'zlarini, qo'noq aytishda ***manzil, joy*** yoki ***mazgil*** kabi so'zlarni shu qoliplar ichida erkinroq ishlatib ketaveradi, bu esa bir xillikdan qochishga ham yordam beradi.

3.Baxshi tinglovchini lol qoldirmoqchi yoki biror fikrni uning ongiga singdirmoqchi bo'lsa, shunda u ketma-ket bir nechta ma'nodosh so'zni ishlatadi (***dushman*** deydi, ketidan ***g'anim*** deydi; yoki osmonni tasvirlaganda ***ko'k, osmon, falak*** deydi). Bu narsa bir narsani qayta-qayta, lekin har safar sal boshqacharoq urg'u bilan aytishga o'xshaydi. Sinonimlarni qo'llaganda so'zning ahamiyati oshadi, ko'lami kengayadi, ta'sir kuchi ortadi. Bu epik asarlarga xos kattalik, salobat hissini berishning bir usulidir.

4.Baxshilar semantik noziklik va obrazlilikni oshirish maqsadida, garchi so'zlar ma'nodosh bo'lsa ham, ular orasida ko'pincha ozgina farq bo'ladi. Baxshi aynan shu nozik farqlardan tasvirni aniq yoki obrazga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llaydi. Masalan, ayollarga nisbatan ***qiz, juvon, ayol, xotin*** so'zlarining har biri personajning yoshi, ijtimoiy holati yoki vaziyatiga qarab aniqroq tasvirlaydi. Yoki ***tanga-tilla*** deganda, kattalik emas, balki ko'z oldimizda yaltirab turgan boylik manzarasi paydo bo'ladi, bu tinglovchi hayoliy tasavvurida yanada jonliroq va to'laroq obraz tasvirlanishiga yordam beradi. Xullas, "Alpomish" dagi sinonimlar shunchaki so'z ko'pligi emas. Ular ham ijro texnikasiga (ritm, vazn, yodlash), ham ma'no va obraz yaratishga, ham an'ana doirasida ijod qilishga yordam beradigan muhim vosita. Ular orqali dostonning ham an'anaviy qurilishi saqlanadi, ham mazmuni boyiydi, ham uning tirik folklor asari sifatidagi tabiati namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lumki, qahramonlik eposining asosini konflikt, ya'ni qarama-qarshi kuchlar, qadriyatlar yoki dunyoqarashlar to'qnashuvi tashkil etadi. Antonimlar – tazod san'ati (antiteza) – ana shu fundamental konfliktni til darajasida eng yorqin va ixcham tarzda ifodalovchi badiiy prinsipdir. Antonimiya orqali qahramonlarning xarakterlari, ularning axloqiy tanlovlari yanada bo'rtib ko'rinadi masalan, asosiy motivlar (masalan, mardlik, xiylakorlik, vafodorlik va xiyonat) yanada aniqroq ifodalanadi. Dostonda qo'llangan antonimiya epik dunyoqarash va konflikt dramatizmini yuzaga keltiradi:

Zid ma'noli so'zlar juftligi **(*yer-osmon, rost-yolg'on, shoh-gado, do'st-dushman, yaxshi-yomon, yashamoq-o'lmoq*)** epik asarning strukturasida va mazmunida hal qiluvchi rol o'ynaydi. *Masalan: Ko'zima ko'rinmas yer bilan osmon, Mazgilim bo'libdi qorong'i zindon.(222)*

O'lim navbat yetar shohu gadoga,(81) Unday zo'rni bilganimday qilarman, Yolg'on aytmay, rostin aytgin bul zamon.(51) Biring aka, biring uka, Boysari.(13)

Qasd aylasa,bilmaganin bildirar, Do'st yig'latib, dushmanini kuldirar. (13)

Dostondagi antonimik juftliklar tahliliga chuqurroq nazar tashlasak, antonimiya baxshi mahoratining namunasi, epik tasvirni yaxshilashning nozik usuli ekanligini yaqqol ko‘ramiz. Yuqoridagi antonim birliklarning dostonda qanday o‘rni va vazifasi borligini tahlil qilamiz:

Yer-osmon yoki ***shoh-gado*** antonimlar bular oddiy zidlikdan ko‘ra epik miqyosni, qamrovning kengligini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Baxshi bu juftliklar orqali “istisnosiz hamma joy” yoki “mutlaqo barcha odamlar” degan ma’noni anglatib, qahramonning qayg‘usi, qudrati yoki biror hodisaning cheksizligini, umumiyligini ta’kidlasa, ***Yolg‘on-rost*** zid ma’noli so‘zlar esa epik asarlarning axloqiy o‘zagi bilan bevosita bog‘liq. Ular haqiqat va yolg‘on, adolat va zulm, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi fundamental kurashni aniq va keskin ifodalaydi. Bu juftliklar orqali baxshi qahramonlarning ma’naviy qiyofasini chizadi. ***Do‘st-dushman*** yoki ***yig‘latmoq-kuldirmoq*** kabi zid so‘zlar bular ko‘pincha xalq maqollaridagi donolikni va hayotiy kuzatuvlarni o‘zida aks ettiradi. Ular taqdirning o‘zgaruvchanligi, insoniy munosabatlarning murakkabligi, hayotdagi keskin burilishlar va ziddiyatlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. ***Bilmaganin – bildirar*** so‘zi bu turdagi qarama-qarshilik ko‘proq ma’noni kuchaytirish, ta’kidlash vazifasini bajaradi. Bu yerda zidlik noma’lumlikdan ma’lumlikka o‘tishni, biror haqiqatning ochilishini yoki biror ishning muqarrarligini ko‘rsatish orqali fikrning yoki holatning ahamiyatini oshiradi.

Alpomish dostonidagi antonimlar – bu epik tafakkurning tildagi ifodasi, xalqona so‘z san’atining namunasi va baxshining ijrochilik mahoratining ko‘rinishidir. Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” dostonining tili shunchaki lingvistik materiallar yig‘indisi emas, balki murakkab va ko‘p qatlamli folklorik-poetik tizimdir. “Alpomish” dostoni tilining lingvopoetikasi uning folklor tabiati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilsagina, bu shoh asarning butun buyukligi va badiiy qudratini to‘laroq anglash mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlarda turli baxshilar variantlaridagi lingvopoetik o‘ziga xosliklarni qiyosiy o‘rganish, og‘zaki-formulaviy tizimning til bilan aloqasini chuquroq tahlil qilish kabi yo‘nalishlar istiqbolli tadqiqotlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан. 2008
2. Turdimov Sh. Etnos va epos.- Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2012. - 96 bet.
3. Qo‘ziyev U. Izohli lug'atlarda diniy birikmalarning ifodalanishi // O‘TA, 2010. - N 5. - B. 88-91.
4. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан. 2008
5. Alpomish. (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni). – Toshkent: Sharq nashriyot matbaa konserni Bosh tahririyati, 2010. - 398 bet. (*Mazkur maqoladagi “Alpomish” dostonidan olingan barcha misollar shu nashrdan olingan).*

UO’K 808.5

TELEVIDENIYE MATNLARINING YURISLINGVISTIK TAHLILI

M.N. Xamdamova, Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID 0009-0000-8048-7522

Annotatsiya. *Mazkur maqolada televideniye matnlarining lingvistik xususiyatlari yuridik sohaga oid materiallarni yoritish orqali tahlil qilinadi. Medialingvistika nuqtayi nazaridan televideniye tilining huquqiy diskursdagi o‘ziga xosliklari, yuridik masalalarni yoritishda qo‘llaniladigan til va uslublar, shuningdek, huquqiy axborotlarni keng auditoriyaga yetkazishda tilning transformatsiyasi tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar*: televideniye, matn, lingvistika, medialingvistika, yirislingvistika, yurislingvistik tahlil, huquqiy diskurs, jurnalist, tildan foydalanish tendensiyalari, media tili.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвистические особенности телевизионных текстов на примере материалов, связанных с юридической сферой. С точки зрения медиалингвистики рассматриваются особенности телевизионного языка в правовом дискурсе, языковые и стилевые средства, используемые при освещении юридических вопросов, а также трансформация языка при передаче правовой информации широкой аудитории.*

Ключевые слова: *телевидение, текст, лингвистика, медиалингвистика, юридическая лингвистика, юридико-лингвистический анализ, правовой дискурс, журналист, тенденции использования языка, медиа-язык.*

Abstract. *This article analyzes the linguistic features of television texts through the coverage of materials related to the legal field. From the perspective of medialinguistics, the study examines*

the specific characteristics of television language in legal discourse, the language and styles used to present legal issues, as well as the transformation of language when conveying legal information to a broad audience.

Key words: *television, text, linguistics, medialinguistics, legal linguistics, legal-linguistic analysis, legal discourse, journalist, language use trends, media language.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalarining, xususan, televideniyening ahamiyati beqiyosdir. Televideniyeda turli janr va mavzulardagi materiallar efirga uzatilib, ularda til jamoasining har bir a'zosi ko'zda tutiladi va sohalar kesimidagi jarayonlar, mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti namoyish etib boriladi. Bular orasida huquqiy mavzulardagi dasturlar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Xususan, siyosiy voqeliklar sharhi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari haqidagi informatsion lavhalar, ko'rsatuvlar, sud jarayonlarini aks ettirgan materiallar, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan qisqa teleroliklar, yuridik soha vakillari ishtirokidagi suhbatlar, shuningdek, ma'lum bir jinoiy harakat tafsilotlarini yorituvchi dasturlarni tayyorlash davomida, albatta, qonun hujjatlari va yuridik terminlarga murojaat etiladi. Bunda jurnalistning lingvistik va huquqiy savodxonligi muhim ahamiyatga ega.

Televideniye tilining yuridik materiallarni yoritishda qanday ishlatilishi, xususan, huquqiy xabarlar, sud jarayonlari, qonun loyihalari va davlat siyosati bilan bog'liq ko'rsatuvlarda qay tildan foydalanilishi esa hozirgi kunda katta ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Ushbu maqolada sohalar kesishmasida yuzaga keluvchi qorishiq nutq doirasidagi mediamatnlarni qisman bo'lsada, tahlilga tortamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'lumki, medialingvistika va yurislingvistika yo'nalishlari OAVda e'lon qilingan yuridik mavzudagi matnlarni o'rganishga, tilning jamiyatdagi ijtimoiy roli va huquqiy ongni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlashga imkon beradi. Shu sababli ushbu maqolada televideniye orqali yuridik materiallarning qanday yoritilayotgani va bu jarayonda tilning qanday transformatsiyalanganligini tahlil qilishga harakat qilamiz.

F.Nesterenko va Y.Mamatova muallifligidagi "Huquqiy jurnalistika: kecha va bugun" nomli kitobda matbuot va televideniye qonunlar nufuzini oshirish, qonun ijodkorlari va huquqiy sohada faoliyat yurituvchi insonlarning imidjini yaratuvchi kuchli vosita ekanligi, matbuotning huquqshunoslar va jamoatchilik bilan faol muloqotni ta'minlashda vositachi bo'lishi kerakligi ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan qator materiallar misolida ko'rsatib beriladi.

Yuridik matnlar va atamalar televideniyeda til orqali ommalashtiriladi. Bu jarayonda qator jihatlarga e'tibor qaratiladi. Xususan, yuridik matnlar ko'pincha aniq ifodalangan, sohaviy terminlar asosida shakllantirilgan tilni talab qilsa-da, televideniyedagi yuridik xabarlar ko'pincha auditoriyaga tushunarli va qiziqarli bo'lishi uchun soddalashtirilgan shaklda beriladi. Shu bilan birgalikda, sud jarayonlari yoki qonunlar to'g'risidagi xabarlar ko'pincha jiddiy va rasmiy uslubda bo'lishi kerak, biroq ommaviy axborot vositalarida ko'proq soddalashtirilgan shaklda taqdim etiladi va bu, bizningcha, to'g'ridir.

Muhokama va natijalar. Televideniye matnlarining yuridik masalalarni yoritishdagi xususiyatlari turli janrlar va uslublarga asoslanadi. O'zbek telekanallarida sud jarayonlari haqidagi xabarlar ko'pincha qisqa va aniq bo'ladi. "Xalqaro sudda ishtirok etayotgan O'zbekiston fuqarosi ustidan olib borilayotgan ish" tarzida soddalashtirilgan va auditoriyaga tushunarli uslub ishlatiladi.

Yuridik masalalar, ayniqsa yangi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar televideniye orqali yoritilganda, ko'pincha ekspertlar bilan intervyular, huquqshunoslarning fikrlari, yangiliklar tahlillari va ularning ahamiyati haqida xabarlar beriladi: "Prezidentning yangi farmoni loyihasi taqdim etildi. Unga ko'ra, xalqning ijtimoiy himoyasini mustahkamlashga qaratilgan yangi chora-tadbirlar joriy etiladi" kabi. Masalan, Farg'ona viloyati teleradiokompaniyasining "Farg'ona-24" informatsion dasturining 2022-yil 5-fevral kuni efirga uzatilgan sonida "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorining ahamiyati, uning asosida faoliyatga kiritilayotgan o'zgarish va

yangi tartiblar atroflicha tushuntirilgan. Bunda sud organlari xodimlari intervyusidan o‘rinli foydalanilgan. Ya’ni, “...*sud tuzilmalari takomillashtirildi, bir sud - bir instantsiya tamoyili ilgari surildi, ma’muriy sudlar alohida sud sifatida ajratildi. Muhimi, bu islohotlar 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida ham olib boriladi. Ularning dastlabkisi sifatida “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi*” kabi tushunarli shaklda berildi. Mazkur lavhada, shuningdek, Farg‘ona tumanlararo ma’muriy sudining raisi S.Qurbonov intervyusi beriladi va unda sudya qarorni qabul qilishdagi siyosiy zarurat va asosiy maqsadni soda shaklda gapirib o‘tadi. Intervyu beruvchining nutqi ham ayni jarayonda to‘liq yuridik, rasmiy yoki publitsistik uslubda emas, ular uyg‘unlashuvidan kelib chiqqan nutq shaklida taqdim etiladi. Mazkur matnda muallif qo‘llayotgan yuridik terminlar – bu *sud tuzilmalari, istansiya, ma’muriy sudlar, davlat organlari qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar, fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari, himoyachi, prosessual qonun hujjatlari* kabilardan iborat.

Jurnalistlar va huquqshunoslar o‘rtasidagi suhbatlar, munozaralarda, odatda, huquqiy terminologiya ko‘proq murojaat etiladi, lekin u auditoriyaga tushunarli bo‘lishi uchun tushuntirishlar bilan birga aytib o‘tiladi.

Bundan tashqari, televideniyeda sud jarayonlari va jinoiy ishlar, ularning tahlili va yakunlari bo‘yicha tayyorlangan ko‘rsatuvlar ham efirga uzatilib, bu materiallar reklamasi, ya’ni anonsi qisqa va e’tibor tortuvchi so‘zlar hamda ayrim yuridik atamalar asosida beriladi. Masalan, “Tezkor xabar! Farg‘ona viloyatiga aylanma yo‘llar orqali giyohvandlik vositalarini olib kirmoqchi bo‘lgan shaxslar to‘xtatib qolindi” kabi. Bunday xabarlar matnida *bojxona organlari, davlat chegarasi, gumonlanuvchi, jinoiy harakat, tezkor surishtiruv* singari leksik vositalar – yuridik atamalar ham ishlatiladi.

Televideniye tilining asosiy vazifalaridan biri jamoatchilikni huquqiy masalalar haqida xabardor qilishdir. Yuridik xabarlarni yetkazishda til nafaqat axborot uzatish, balki auditoriyani qiziqtirish va ularni yanada faol ishtirok etishga undash imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalari o‘zining tarqatadigan axborotiga mos tilni tanlaydi. Bu esa auditoriyaga axborotni qanday qabul qilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Teleko‘rsatuvlar orqali nafaqat axborot tarqatiladi, balki jamoatchilik ongiga ta’sir o‘tkaziladi, muayyan ijtimoiy, siyosiy va madaniy g‘oyalar shakllanadi. Shunday ekan, televideniye matnlarining tili, uslubi, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu matnlarning yurislingvistik, ya’ni huquqiy va tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlili o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, ommaviy axborot vositalarining qonuniy chegaralarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Televideniye tilida yuridik materiallarni yoritishda leksik va sintaktik vositalar soddalashtiriladi, shuningdek, huquqiy ma’lumotlarning yanada aniq va tushunarli tarzda yetkazilishi ta’minlanadi. Yuridik atamalar, qonunchilik va sud jarayonlari haqida ma’lumot berishda tilning transformatsiyasi va pragmatik yondashuvlar yordamida auditoriya uchun qabul qilinadigan shaklda taqdim etiladi. Telematnlar nafaqat axborot yetkazuvchi, balki kuchli ijtimoiy-psixologik va huquqiy ahamiyatga ega vositadir. Ularning yurislingvistik tahlili orqali so‘z erkinligi bilan inson huquqlarini muvozanatlash mumkin. Bu esa jamiyatda sog‘lom axborot muhitini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, jurnalistlar, muharrirlar va yuristlar ushbu yo‘nalishda hamkorlikda ishlashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бакиева Г., Тешабаева Д. Оммавий ахборот воситалари тили. Ўқув қўлланма. – Т.: “O‘zkitobsavdonashriyot”, 2019. – 172 б.

2. Rahmatullaev, Sh. *Ommaviy axborot vositalari tili*. – T.: O‘zMU, 2016.

3. Xudoyberganov, B. *Yurislingvistika asoslari*. – T.: Innovatsiya, 2020.

4. Нестеренко Ф., Маматова Я. Ҳуқуқий журналистика: кеча ва бугун. – Т., 2011.- Б.31.

5. t.me/Fargona_trk link

UO'K 81-13

FRANSUZ-O'ZBEK PARALLEL KORPUSLARI: TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKDA YANGI IMKONIYATLAR

N.Yu. Xamidova, katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korpus lingvistikasining dolzarb yo'nalishi sifatida parallel korpuslarning ahamiyati yoritilgan. Xususan, fransuz va o'zbek tillari misolida parallel korpuslar yaratish, ularning lingvistik va tarjimashunoslikdagi roli, segmentatsiya, moslashtirish va annotatsiyalash bosqichlari chuqur tahlil qilingan. Maqola tarjima strategiyalari, interferensiya hodisasi va til o'rgatishdagi qo'llanilishi bilan ham alohida ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *parallel korpuslar, korpus lingvistikasi, fransuz tili, o'zbek tili, tarjima nazariyasi, segmentatsiya, moslashtirish, interferensiya, til o'rgatish, tarjimashunoslik*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение параллельных корпусов как важного направления корпусной лингвистики. На примере французского и узбекского языков подробно анализируются этапы создания корпусов, их роль в переводоведении и лингвистике, а также методы сегментации, выравнивания и аннотирования. Отдельное внимание уделяется стратегиям перевода, интерференции и использованию корпусов в обучении языкам.*

Ключевые слова: *параллельные корпуса, корпусная лингвистика, французский язык, узбекский язык, теория перевода, сегментация, выравнивание, интерференция, обучение языкам, переводоведение*

Abstract. *This article explores the significance of parallel corpora as a key area of corpus linguistics. Using French and Uzbek as an example, it provides a detailed analysis of corpus creation stages, including segmentation, alignment, and annotation. The study highlights the role of parallel corpora in linguistics and translation studies, examining translation strategies, interference phenomena, and their application in language teaching.*

Keywords: *parallel corpora, corpus linguistics, French language, Uzbek language, translation theory, segmentation, alignment, interference, language teaching, translation studies*

Hozirgi zamonaviy lingvistika ilm-fanining taraqqiy etgan tarmoqlaridan biri bu - korpus lingvistikasi bo'lib, u tilni real nutq namunalariga asoslangan holda o'rganishga imkon yaratadi. Ayniqsa, turli tillar o'rtasidagi tarjima jarayonini tizimli ravishda o'rganishda parallel korpuslar alohida ahamiyat kasb etadi. Parallel korpuslar - bu ikki va undan ortiq tildagi bir-biriga tarjima qilingan matnlarning muvofiqlashtirilgan to'plamidir. Bunday korpuslar lingvistik tahlil, mashinaviy tarjima, terminologik tadqiqotlar, kontrastiv lingvistika, leksikografiya hamda til o'rganish jarayonlarida keng qo'llaniladi.

O'zbek tilida rasmiy korpus loyihalari endigina shakllanmoqda. Shu jihatdan, fransuz-o'zbek parallel korpuslarini yaratish va tahlil qilish masalasi dolzarb bo'lib, bu ikki til o'rtasidagi tarjima strategiyalarini, strukturaviy farqlarni va kommunikativ uslublarni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bu tadqiqot orqali o'zbek tilining kompyuter lingvistikasi sohasida keng qo'llanishi uchun poydevor yaratiladi.

Parallel korpuslar lingvistik tadqiqotlar va tarjima texnologiyalarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular odatda ikki yoki undan ortiq tilda yozilgan matnlarning o'zaro tarjima qilingan shaklini o'z ichiga oladi. Asosiy afzalligi shundaki, bu korpuslar orqali ikki til orasidagi grammatik, leksik va stilistik farqlarni amaliy misollar asosida o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Parallel korpuslar tarkibi va foydalanish maqsadiga ko'ra bir necha turga bo'linadi: Ikki tilli (bitext) parallel korpuslar – faqat ikki til (masalan, fransuzcha va o'zbekcha) o'rtasidagi tarjima matnlarini o'z ichiga oladi. Bunday korpuslar odatda bir tildagi matn (masalan, asl fransuzcha) va uning o'zbekcha tarjimasidan tashkil topadi. Ular tarjima sifati, adekvatlik va sadoqat masalalarini tadqiq qilish uchun qulaydir. Ko'p tilli parallel korpuslar – uch va undan ortiq tildagi tarjima moslamalarini o'z ichiga oladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining rasmiy hujjatlari 24 tilda mavjud bo'lgan Europarl korpusi orqali turli tillar orasidagi tarjima strategiyalarini tahlil qilish mumkin.

Bo‘laklangan parallel korpuslar – bunday korpuslar faqat matnning muayyan qismlarini tarjima qiladi. Ular ko‘proq tadqiqot maqsadlarida, ayniqsa, frazeologizmlar, gap konstruktsiyalari, so‘zma-so‘z tarjima holatlarini tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Parallel korpuslar asosan quyidagi sohalarda ishlatiladi: kontrastiv tilshunoslik - ikki til o‘rtasidagi struktura va foydalanishdagi farqlarni aniqlash uchun. Mashina tarjimasi - statistik va neyron tarjima tizimlari uchun o‘quv ma’lumotlari sifatida. Lingvodidaktika - til o‘rgatish vositasi sifatida. Masalan, o‘zbek tilini o‘rganayotgan fransuz talabasi parallel matnlardan foydalanib, kontekstda yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi. Leksikografiya – ikki tilli lug‘atlar yaratishda asosiy manba.

Fransuz va o‘zbek tillari turli genealogik oilalarga mansub bo‘lib, biri indoyevropa, ikkinchisi esa turkiy tillar oilasiga kiradi. Til tizimlarining tubdan farqli bo‘lishi ularning morfologiyasi, sintaksisi va leksikasi darajasida seziladi. Shunday farqlarga qaramay, bugungi kunda ikki til o‘rtasida aloqa va tarjima jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Biroq bu yo‘nalishda, ayniqsa, parallel korpuslar bo‘yicha ilmiy manbalar va zamonaviy resurslar yetarli emas.

Bugungi kungacha fransuz-o‘zbek parallel korpuslari bo‘yicha ayrim urinishlar qilingan. Ularning ayrimlari quyidagilardan iborat: Google Translate kabi ommaviy mashina tarjima platformalarida foydalanuvchi tomonidan kiritilgan tarjima juftliklari asosida yaratilgan avtomatik parallel korpuslar mavjud, biroq bu korpuslar ochiq manbada mavjud emas va sifati kafolatlanmagan. Linguee, Glosbe, Tatoeba kabi onlayn tarjima platformalari ayrim fransuzcha iboralarning o‘zbekcha tarjimalarini taqdim etsa-da, bu manbalar lingvistik jihatdan sistematik parallel korpus hisoblanmaydi. O‘zbek Milliy korpusi va Fransiya Milliy korpusi (Frantext, Corpus Le Monde) singari alohida milliy korpuslar mavjud, ammo ular hali bir-biri bilan integratsiyalashmagan. Fransuz tilida ko‘plab parallel korpuslar mavjud bo‘lsa (Europarl, OPUS, JRC-Acquis), o‘zbek tili uchun bunday parallel variantlar juda cheklangan.

Ba’zi ilmiy loyihalar (masalan, universitetlar, tarjimashunoslik bo‘yicha dissertatsiyalar doirasida) qisqa hajmli eksperimental parallel korpuslarni yaratgan. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi matnlari, BMT rezolyutsiyalari yoki UNESCO hujjatlari fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan shaklda mavjud bo‘lishi mumkin.

Fransuz–o‘zbek parallel korpusini yaratishda quyidagi asosiy bosqichlar e’tiborga olinadi:

Manba tanlash - asl fransuzcha matnlar (adabiyot, huquqiy matnlar, maqolalar) va ularning o‘zbek tarjimalari aniqlanadi. Bu yerda mualliflik huquqlari, matn sifati, tildagi uslubiy xususiyatlar hisobga olinadi.

Moslashtirish (alignment) - gap yoki paragraf darajasida mos segmentlar ajratiladi. Fransuz va o‘zbek tillaridagi sintaktik tuzilmalarning farqli bo‘lishi bu bosqichni murakkablashtiradi.

Ushbu ikki tilning grammatik va sintaktik tizimlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud: bu farqlar tarjima jarayonida sinonimiya, ekvivalentlik, konnotatsiya, qisman tarjima, ekspansiya yoki qisqartirish kabi strategiyalarni talab qiladi. Shu sababli, parallel korpus yordamida bu holatlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Quyida real parallel matndan (masalan, UNICEF hujjatlari) olingan qisqa segment misoli keltiriladi:

Fransuzcha: L’éducation est un droit fondamental pour chaque enfant.

O‘zbekcha: Ta’lim har bir bola uchun asosiy huquqdir.

Bu yerda “un droit fondamental” iborasi “asosiy huquq” deb tarjima qilingan, lekin so‘zma-so‘z emas, balki semantik ekvivalent orqali berilgan. Shunday parallel segmentlar tahlili orqali til juftliklari orasidagi tarjima transformatsiyalari aniqlanadi.

Parallel korpuslar bugungi kunda tilshunoslik, tarjimashunoslik, til o‘rgatish va sun’iy intellekt sohalarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ular turli darajadagi lingvistik tahlillarni amalga oshirish, tarjima sifatini baholash, yangi lug‘at birliklarini aniqlash va o‘qituv jarayonini takomillashtirish imkonini beradi.

Parallel korpuslar tarjimashunoslik sohasida bir necha asosiy yo‘nalishda ishlatiladi: tarjima strategiyalarini aniqlash: sinonimika, qisqartirish, ekspansiya, modulyatsiya, ekvivalentlik, transpozitsiya kabi usullarni segmentlar orqali kuzatish mumkin. Tarjimada interferensiya

hodisalarini o‘rganish: manba til strukturasi maqsad tilga qanday ta’sir ko‘rsatgani kuzatiladi. Terminologiyani tekshirish: maxsus atamalar har ikki tilda qanday berilgani aniqlanadi.

Misol: Fransuzcha: L’État est garant de la liberté d’expression.

O‘zbekcha: Davlat so‘z erkinligining kafilidir.

Bu yerda “garant” → “kafil” ekvivalentlik strategiyasi asosida tarjima qilingan.

Parallel korpuslardan chet tilini o‘rganish jarayonida ham samarali foydalanish mumkin: Tarjima asosida grammatika o‘rgatish: biror grammatik konstruksiya qanday tarjima qilinganini taqqoslash orqali tushuncha mustahkamlanadi. Ko‘p tillilikni rivojlantirish: o‘quvchi har ikki tilda bir matnni o‘qish orqali kontekstual o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tilga xos kollokatsiyalarni o‘rganish: ko‘p uchraydigan iboralar va ularning tarjimalari o‘rganiladi.

Masalan, “prendre une décision” → “qaror qabul qilmoq” kollokatsiyasi o‘zbek tilida ham idiomatik tarzda beriladi.

Parallel korpuslar ikki til orasidagi farqlarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi: Sintaktik mosliklar va nomosliklar: gap tuzilmalari, urg‘u, passiv forma, modal konstruktsiyalar. Morfologik farqlar: flektiv va agglutinativ tilning namoyon bo‘lish shakllari. Semantik ekvivalentlik: so‘z yoki iboralar qanday semantik transferga uchraydi. Masalan, fransuz tilidagi "il faut que" konstruktsiyasi o‘zbek tilida “... kerak”, “... lozim” kabi strukturalar orqali ifodalanadi. Parallel korpuslar bu singari strukturalarni ommaviy segmentlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Fransuz–o‘zbek parallel korpusi - bu tilshunoslik, tarjimashunoslik va sun’iy intellektni integratsiyalovchi dolzarb ilmiy va amaliy loyiha. Uni yaratish orqali:

o‘zbek tilining texnologik rivojlanishiga xizmat qilinadi; tarjima sifati oshadi;

o‘quv jarayoni boyiydi; yangi lingvistik tadqiqotlar uchun asos yaratiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tilini xalqaro miqyosga olib chiqishda, uni boshqa tillar bilan taqqoslab o‘rganishda parallel korpuslar muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, fransuz tili kabi rivojlangan, turli manbalarga ega til bilan parallel korpus shakllantirish - o‘zbek tilining ilmiy qamrovini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. McEnery T., & Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press. 2012.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge. 1992.
3. Biber D., Conrad S., & Reppen, R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge University Press. 1998.
4. Leech G. Corpora and theories of linguistic performance. In Directions in Corpus Linguistics. 199).
5. O‘zbek tilining milliy korpusi loyihasi. www.corpus.uz

UDK: 81`27:316.77[575]

O‘ZBEKISTONDA INGLIZ TILINING IJTIMOIY MAVQEYI VA TA’SIRI

Sh.Sh. Xayitova, Farg‘ona davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
Orcid id: 0009-0008-1133-8038

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekistonda ingliz tilining ijtimoiy mavqeyi va ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda huquqiy hujjatlar tahlili, ijtimoiy so‘rovnomalar, intervyular va xalqaro ma’lumotlar asosida ingliz tilining ta’lim, kasb, ijtimoiy status va iqtisodiy imkoniyatlarga qanday ta’sir qilayotgani ko‘rsatib berilgan. Natijalar ingliz tilining global til sifatidagi o‘rni kuchayib borayotganini va bu til O‘zbekiston jamiyatida ham ijtimoiy lift vazifasini bajarayotganini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, ijtimoiy mavqe, til siyosati, ta’lim, O‘zbekiston, globalizatsiya, CEFR, til o‘rganish.*

Аннотация. *В данной статье анализируется социальный статус и влияние английского языка в Узбекистане. В исследовании рассматриваются правовые документы, социологические опросы, интервью и международные данные, чтобы показать, как английский язык влияет на образование, профессию, социальный статус и экономические возможности. Результаты подтверждают, что роль английского как глобального языка усиливается и что он выполняет функцию социального лифта в обществе Узбекистана.*

Ключевые слова: *английский язык, социальный статус, языковая политика, образование, Узбекистан, глобализация, CEFR, изучение языков*

Abstract. *This article analyzes the social status and influence of the English language in Uzbekistan. The study examines legal documents, social surveys, interviews, and international data to demonstrate how English affects education, employment, social status, and economic opportunities. The findings confirm that the role of English as a global language is strengthening and that it serves as a social elevator in Uzbek society.*

Key words: *english language, social status, language policy, education, Uzbekistan, globalization, CEFR, language learning*

Kirish. Globalizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda ingliz tili dunyo miqyosida xalqaro muloqot, fan, texnologiya va iqtisodiy hamkorlik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ham ingliz tilining o‘rni so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Davlat siyosatida ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatishni rag‘batlantirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, ingliz tilining jamiyatdagi mavqeyi, uni bilish darajasi va real ijtimoiy ta’siri hali to‘liq o‘rganilmagan. Ushbu maqola O‘zbekistonda ingliz tilining ijtimoiy mavqeyi va ta’sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Uslublar. Tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo‘llanildi:

1. **Huquqiy hujjatlar tahlili**: Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Xalq ta’limi, Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligi hujjatlari tahlil qilindi.
2. **Empirik tadqiqot**: 2024-yilning noyabr-dekabr oylarida Toshkent, Samarqand, Andijon va Nukus shaharlarida 500 nafar respondent (talabalar, o‘qituvchilar, xodimlar va ota-onalar) orasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi.
3. **Intervyular**: Til markazlari rahbarlari, ta’lim mutaxassislari va nodavlat ta’lim tashkilotlari vakillari bilan yarimstrukturaviy suhbatlar olib borildi.
4. **Ikkinchi darajali ma’lumotlar**: Jahon banki, British Council, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi.

Natijalar. So‘rovnomalar va hujjatlar tahlili asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

- **Ingliz tiliga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj ortmoqda**: So‘rovda ishtirok etganlarning 89% ingliz tilini o‘rganish zarur deb hisoblaydi. Ular tilni yuqori darajada bilish xalqaro grantlar, yuqori malakali ish o‘rinlari va xorijda o‘qish imkoniyatlarini yaratishini ta’kidlaydi.
- **Ta’lim siyosatidagi o‘zgarishlar**: 2018-2023 yillarda ingliz tilini o‘qitish maktablar va universitetlar darajasida chuqurlashtirildi. 4000 dan ortiq maktabda boshlang‘ich bosqichdan ingliz tili majburiy fan sifatida kiritildi. Yangi pedagogik metodikalar, onlayn platformalar va xalqaro sertifikatlashtirish tizimlari joriy etildi.
- **Xususiy sektor faollashgan**: Xususiy til markazlari soni oxirgi 5 yilda 2,5 barobarga oshdi. Aksariyati CEFR (Common European Framework of Reference) mezonlari asosida ta’lim bermoqda. IELTS, TOEFL va Cambridge Assessment kabi imtihonlarga tayyorlov kurslari keng tarqalgan.
- **Ingliz tilining ijtimoiy prestiji oshgan**: Intervyularda qatnashganlarning ko‘pchiligi ingliz tilini "zamonaviylik va bilim timsoli" deb atagan. Til bilish nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy statusni belgilovchi mezon sifatida qabul qilinmoqda. Ommaviy axborot vositalarida ingliz tilidagi kontentga qiziqish ortmoqda.
- **Raqamli texnologiyalar orqali o‘zlashtirish**: O‘zbekistonda ingliz tilini onlayn tarzda o‘rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Coursera, Udemy, Duolingo va BBC Learning English kabi resurslardan foydalanish hollari ko‘paymoqda.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ingliz tilining O‘zbekiston jamiyatidagi o‘rnini chuqur o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki bilim va raqobatbardoshlik omiliga aylanmoqda. Bunday jarayonlar til siyosatining ijtimoiy adolat, hududiy tenglik va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, yoshlar orasida ingliz tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiya kuchli. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, ochiq fikrlovchi, xorijiy tajribani singdira oladigan mutaxassislar yetishib

chiqishiga zamin yaratadi. Shuningdek, ingliz tilining yuqori darajadagi bilim resurslariga kirish imkoniyati sifatida qaralayotgani e’tiborga molikdir.



Diagrammada respondentlarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan asosiy motivatsiyalari foizlarda ko‘rsatilgan

Shunga qaramay, qator muammolar ham mavjud:

- Qishloq va chekka hududlarda malakali ingliz tili o‘qituvchilari yetishmaydi.
- Sertifikatlash tizimi bir hil darajada joriy etilmagan.
- Til o‘rganishning iqtisodiy to‘siqlari mavjud (kurslar narxi, materiallar, texnologik infratuzilma).
- Dastlabki bosqichlarda metodika yetishmasligi va motivatsiya pastligi kuzatiladi.

Xulosa. O‘zbekistonda ingliz tilining ijtimoiy mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanmoqda. Ingliz tili ijtimoiy liftga aylangan: u orqali yoshlar ta’lim, ish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu boisdan davlat siyosatida va ta’lim tizimida tilga oid islohotlar chuqur va tizimli yondashuv asosida davom ettirilishi kerak. Kelgusida ingliz tilining ijtimoiy adolat, barqaror taraqqiyot va raqobatbardosh jamiyat qurilishiga qo‘shgan hissasi yanada ortadi. Shuningdek, til o‘rgatishda mintaqaviy farqlarni kamaytirish, raqamli texnologiyalardan foydalanishni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-maydagi PQ-5117-son qarori
2. British Council Uzbekistan Annual Report 2023
3. Jahon banki: Education Sector Review Uzbekistan, 2022
4. UNESCO Education for Sustainable Development Goals (ESDG) Report, 2023
5. Uzbekistan Education Statistics 2023, Ministry of Higher Education
6. Duolingo Global Language Report 2023
7. Cambridge English Annual Review, 2023

UO’K 81-13

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA AYOLLAR KOSMETIKASIGA OID TERMINLAR TADQIQI

S.X. Xo’jamqulova, magistrant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi
M.B. Nizomova, PhD, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida ayollar kosmetikasiga oid terminlar lingvistik jihatdan o‘rganildi. Terminlarning morfologik tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda tarjima usullari tahlil qilindi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kosmetik atamalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatildi. Shuningdek, ushbu sohada terminlarni standartlashtirish zarurligi asoslab berildi.*

Kalit so’zlar: *kosmetika, termin, ingliz tili, o‘zbek tili, tarjima, morfologiya, semantika, terminologiya, ayollar go‘zalligi.*

Аннотация. *В данной статье изучаются лингвистические аспекты терминов, связанных с женской косметикой, на английском и узбекском языках. Анализируются морфологическая структура, семантические особенности и способы перевода терминов. Показаны проблемы, возникающие при переводе косметических терминов с английского на узбекский язык, и пути их преодоления. Также обосновывается необходимость стандартизации терминов в этой области.*

Ключевые слова: *косметика, термин, английский, узбекский, перевод, морфология, семантика, терминология, женская красота.*

Abstract. *This article studies the linguistic aspects of terms related to women's cosmetics in English and Uzbek. The morphological structure, semantic features, and translation methods of the terms are analyzed. The problems that arise when translating cosmetic terms from English to Uzbek and ways to overcome them are shown. The need for standardization of terms in this area is also justified.*

Keywords: *cosmetics, term, English, Uzbek, translation, morphology, semantics, terminology, women's beauty.*

Kirish. Globalizatsiya jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi turli sohalarda, jumladan, go‘zallik sanoatida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, ayollar kosmetikasiga oid vositalar nafaqat tashqi ko‘rinishni o‘zgartirish vositasi, balki estetik did, milliy madaniyat, zamonaviy imij va shaxsiy brendning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Ushbu sohadagi taraqqiyot esa o‘z-o‘zidan yangi atamalar, tushunchalar va ifoda vositalarining shakllanishiga olib keldi.

Ayniqsa, ingliz tili bugungi kunda xalqaro kommunikatsiyaning yetakchi vositasi bo‘lib, ko‘plab kosmetik mahsulotlar, reklama va marketing matnlari asosan ushbu tilda ishlab chiqilmoqda. Inglizcha terminlar boshqa tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham faol o‘zlashtirilmoqda. Biroq bu jarayon ko‘pincha tartibsiz, lingvistik mezonlarga to‘liq mos kelmagan holda kechmoqda. Natijada, o‘zbek tilida kosmetik vositalarga oid ayrim terminlarning noaniqligi, ko‘p variantliligi va noto‘g‘ri tarjimasi muammo sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Masalan, ingliz tilidagi *"foundation", "concealer", "highlighter", "eyeliner", "lip gloss", "setting spray"* kabi atamalar ko‘plab iste’molchilar uchun tanish bo‘lsa-da, ularning o‘zbek tilidagi adekvat tarjimalari yoki mos atamalari hali to‘liq shakllanmagan. Ba’zi hollarda bu terminlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri transliteratsiya qilinadi, ayrim hollarda esa erkin tarjimalar qo‘llaniladi. Bu esa atama birligi, izchilligi va aniqligi masalalarini yuzaga keltiradi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan terminlar muayyan sohaga oid tushunchalarni aniq, ixcham va universal shaklda ifodalovchi birliklar hisoblanadi. Kosmetika sohasida esa bu atamalar texnik, ilmiy va marketing ahamiyatiga ega bo‘lib, ularning to‘g‘ri va izchil ishlatilishi nafaqat til madaniyati, balki iste’mol madaniyatini ham shakllantiradi. Shu bois, bu sohadagi terminlarni o‘rganish, ularni tizimlashtirish va tarjima qilishning nazariy hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Asosiy qism. Ayollar kosmetikasi sohasi ko‘p qirrali, keng tarmoqli bo‘lib, unda yuzlab mahsulot turlari mavjud. Ular o‘z funksiyalariga, tuzilishiga, qo‘llanish usuliga va kimyoviy tarkibiga ko‘ra farqlanadi. Shu sababli ushbu sohada yuzaga kelgan terminologik tizim ham murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishga ega. Har bir mahsulot turi o‘ziga xos atamalar orqali nomlanadi, bu esa ularning iste’molchilarga to‘g‘ri yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilida ushbu terminlar odatda professional kosmetologiya yoki tijorat sohasida shakllangan bo‘lib, ular ko‘pincha birikmalar (masalan, “liquid foundation”, “matte lipstick”, “hydrating serum”) tarzida ishlatiladi. Ushbu atamalar o‘zbek tilida ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmasdan, asl shaklida ishlatiladi yoki fonetik transkripsiya orqali o‘zlashtiriladi (masalan, “tonal krem”, “konstiler”, “haylayter”, “primer”).

Bu yerda muhim masala — atamalarning o‘zbek tilida to‘g‘ri va aniq ekvivalentini yaratish. Ayrim terminlar an’anaviy o‘zbek so‘zlari bilan almashtirilgan (masalan, “yuz kremi”, “lab

bo‘yog‘i"), ammo ko‘pchilik zamonaviy mahsulot nomlari o‘zlashtirilgan yoki tarjima qilinmagan. Natijada bitta atama bir necha ko‘rinishda ishlatiladi, bu esa terminologik noturg‘unlikka olib keladi.

Misol uchun, ingliz tilidagi **"concealer"** atamasi o‘zbek tilida "konsiler", "yopuvchi vosita" yoki "dog‘ni yashiruvchi krem" tarzida turlicha ishlatiladi. Shuningdek, **"highlighter"** – "yorituvchi vosita", "ajratib ko‘rsatuvchi krem", "haylayter" kabi variantlarga ega. Ushbu ko‘p variantlilik atamalarning standartlashmaganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, kosmetika terminlari nafaqat mahsulot nomlarini, balki ularning tarkibi, ta'sir mexanizmi va ishlatilish usulini ham ifoda etadi. Shu bois ularni faqat lug‘aviy tarjima qilish emas, balki funktsional va madaniy kontekstda talqin etish ham muhimdir.

Terminlarning strukturaviy va semantik tahlili. Kosmetika sohasi terminlari tilshunoslikda maxsus leksika guruhiga mansub bo‘lib, ular odatda yuqori darajada ixtisoslashgan, ma'lum sohaga oid tushunchalarni ifodalashga mo‘ljallangan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi kosmetik terminlar morfologik va semantik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni o‘zaro solishtirish ushbu sohadagi terminologik tizimni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ingliz tilidagi kosmetik atamalar morfologik jihatdan quyidagi shakllarda uchraydi:

- **Oddiy (simple) so‘zlar**: *powder, blush, primer, toner* – bular bir bo‘g‘inli, asosiy ma'no yuklovchi birliklardir.
- **Murakkab (compound) so‘zlar**: *lipstick (lab+bo‘yog‘i), eyeshadow (ko‘z+soya), foundation cream (asos kremi)* – bu yerda ikki yoki undan ortiq leksik birliklar birlashib yangi termin hosil qiladi.
- **Affiksli (affixal) so‘zlar**: *moisturizer, highlighter, illuminator* – bular fe'l asosiga -er, -or, -izer qo‘shimchalari qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladi.
- **Qisqartmalar (abbreviations)**: *BB cream (Blemish Balm), CC cream (Color Correcting)* – zamonaviy mahsulotlar nomlanishida keng qo‘llaniladi.

Bu terminlarning ko‘pchiligi o‘zining ichki tuzilmasida mahsulotning funksiyasi, vazifasi yoki ta'sir mexanizmini aks ettiradi. Masalan, *"moisturizer"* – namlantiruvchi vosita, *"concealer"* – yashiruvchi vosita, *"illuminator"* – yorqinlik beruvchi vosita.

O‘zbek tilida kosmetika atamalari asosan quyidagi manbalardan shakllanadi:

- ✓ **To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima**: *lab bo‘yog‘i (lipstick), yuz kremi (face cream), qosh qalamchasi (brow pencil)* – bu yondashuv semantik aniqlikni ta'minlaydi.
- ✓ **O‘zlashma so‘zlar**: *tonal krem, konsiler, haylayter, bronzer* – asosan inglizcha so‘zlarning fonetik o‘zgarishiga asoslanadi.
- ✓ **Adaptatsiyalashgan terminlar**: ba'zi atamalar tilimizga moslashtirilib, milliy talaffuzga yaqinlashtirilgan holda ishlatiladi (masalan, *skrablovchi vosita, seting spreyi*).

O‘zbek tilidagi atamalarda grammatik strukturaga moslashish kuzatiladi. Masalan, *"haylayter"* so‘ziga *-li* qo‘shimchasi qo‘shilib, *haylayterli ko‘z bo‘yog‘i* kabi birikmalar hosil qilinadi. Bu esa terminologiyaning mahalliylashuvi va tilimizga moslashish tendensiyasini ifodalaydi.

Ko‘plab kosmetika terminlari o‘zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelayotgani sababli, ularning ma'noviy ekvivalentlarini to‘g‘ri belgilash muhimdir. Ingliz tilidagi ayrim so‘zlar bir necha o‘zbekcha variant bilan tarjima qilinadi, bu esa terminologik noaniqlikka sabab bo‘ladi. Masalan:

Inglizcha termin	O‘zbekcha variantlari	Izoh
Concealer	Konsiler / yashiruvchi krem	Har ikkisi ishlatiladi
Highlighter	Haylayter / yorituvchi vosita	Kontekstga qarab farq qiladi
Blush	Rumyana / yuz qizartirgichi	Har ikkisi iste'molda bor
Foundation	Poydevor kremi / tonal krem	Turli tilda yoziladi

Bu semantik noaniqliklarni bartaraf etish uchun terminlarni standartlashtirish, yagona izohli lug‘atlar yaratish, shuningdek, har bir atamaning aniq ekvivalentini belgilash zarur.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kosmetik terminlarni tarjima qilishda tilshunoslikdagi umumiy tarjima tamoyillari asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq kosmetika sohasi o‘zining xususiy leksikasi, texnik ifodalari va reklama-uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu sababli, bu yo‘nalishda qo‘llaniladigan tarjima usullari va ularning samaradorligini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima (literal translation)

Bu usulda inglizcha atamaning har bir komponenti o‘zbek tilidagi mos so‘z bilan almashtiriladi. Masalan:

- *lipstick* – **lab bo‘yog‘i**
- *face cream* – **yuz kremi**
- *eye pencil* – **ko‘z qalamchasi**

Bu yondashuv terminologik aniqlikni ta’minlaydi va o‘quvchi/foydalanuvchi uchun tushunarli bo‘ladi. Biroq barcha hollarda ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qo‘llash mumkin emas. Masalan, *setting spray* atamasining so‘zma-so‘z tarjimasi "o‘rnatish spreyi" bo‘lib, bu ma’no jihatidan tushunarsiz chiqadi.

Erkin tarjima (free translation)

Bu usulda atamaning ma’nosi kontekst asosida ifodalanadi. Masalan:

- *highlighter* – **yorituvchi krem / ajratib ko‘rsatuvchi vosita**
- *concealer* – **dog‘ni yopuvchi krem / yashiruvchi vosita**

Erkin tarjima usuli estetik ifodaning muhim bo‘lgan reklama matnlarida keng qo‘llaniladi. Biroq u terminologik izchillikni saqlashda ba’zan muammoli bo‘lishi mumkin.

Transliteratsiya (fonetik o‘zlashtirish)

Bu usulda inglizcha atama talaffuziga yaqin holatda o‘zbek tiliga kiritiladi:

- *blush* – **blash / blashka**
- *bronzer* – **bronzer**
- *primer* – **praýmer / praymer**

Transliteratsiya o‘zbek tilida hali ekvivalenti shakllanmagan, lekin keng iste’molda bo‘lgan atamalar uchun qo‘llaniladi. Bu usul orqali atama tushunarli bo‘ladi, biroq uni o‘zbek tili me’yorlariga moslashtirish zarur bo‘ladi.

Xulosa. Ayollar kosmetikasiga oid terminlar ingliz va o‘zbek tillarida shaklan va ma’nan farqli jihatlarga ega bo‘lib, ularning tarjimasida izchillik va aniqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilidagi terminlarning ko‘pchiligi fonetik tarzda o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da, ba’zilarining aniq va tushunarli ekvivalentlari hali shakllanmagan. Shu bois, kosmetik atamalarni standartlashtirish, izohli lug‘atlar yaratish va tarjimada yagona yondashuvni joriy etish zarur. Bu esa tilimiz boyishiga va ushbu sohada samarali muloqotga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ахмедова, Н. Т. (2020). *Терминология ва таржима назарияси*. Тошкент: Фан.

2. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.

3. Махмудов, Н. А., & Шарипова, З. А. (2015). *Замонавий ўзбек тили: Лексикология ва стилистика*. Тошкент: Ўқитувчи.

4. Oxford English Dictionary (2023). *Online edition*. Retrieved from: https://www.oed.com

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2021). 5 jildlik. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

UO’K 082.1

TARJIMA JARAYONIDA EKVIVALENTLIK VA UNIKAL KONSEPTUAL O‘ZIGA XOSLIK

M.R. Xolboyeva, student, Termez State University, Termez

Annotatsiya. *Mazkur maqola tarjima jarayonida ekvivalentlik va unikal kontseptual o‘ziga xoslikni tahlil qiladi. Tarjima qilinganda matn mazmuni va badiiy ifodaning saqlanishi muhim, ammo har bir til o‘ziga xos madaniy va semantik jihatlarga ega bo‘lgani uchun bu jarayon murakkab. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy va ilmiy matnlardan olingan misollar yordamida ekvivalentlik va o‘ziga xoslikning til va madaniyatlararo ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *tarjima, ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik nazariyasi, lingvistik operatsiya, o’xshashlik va tafovutlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется эквивалентность и уникальная концептуальная специфичность в процессе перевода. При переводе важно сохранить содержание и художественное выражение текста, но поскольку каждый язык имеет свои культурные и семантические аспекты, этот процесс сложен. Лингвокультурное влияние*

эквивалентности и оригинальности анализируется на примерах английских и узбекских литературных и научных текстов.

Ключевые слова. *перевод, эквивалентность, динамическая теория эквивалентности, лингвистическая операция, сходства и различия*

Abstract. *This article analyzes the equivalence and unique conceptual specificity in the translation process. When translating, it is important to preserve the content and artistic expression of the text, but since each language has its own cultural and semantic aspects, this process is complex. The linguistic and intercultural influence of equivalence and originality is analyzed using examples from English and Uzbek literary and scientific texts.*

Keywords: *translation, equivalence, dynamic equivalence theory, linguistic operation, similarities and differences.*

Kirish. Tarjima san'ati nafaqat tillar o‘rtasidagi aloqa vositasi, balki madaniy ko‘prik sifatida ham faoliyat yuritadi. Har bir til nafaqat kommunikatsion funksiyani bajaradi, balki o‘zida madaniy va tarixiy qiymatni aks ettiradi. Shu sababli, tarjimonning vazifasi faqat so‘zlarni boshqa tilga o‘girish emas, balki o‘sha so‘zlar ortidagi ma'no va madaniy nuanslarni ham to‘g‘ri ifodalashdan iboratdir. Bu jarayonda ekvivalentlik va kontseptual o‘ziga xoslik asosiy tushunchalar hisoblanadi, chunki ular tarjima matnining mazmuniy va madaniy aniqligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ekvivalentlikni ta'minlash tarjimon uchun qiyinchilik tug‘diradi, chunki tillar o‘rtasidagi grammatik tuzilma, semantik maydon va madaniy o‘ziga xosliklar bir xil emas. Masalan, ingliz tilidagi "Time is money" [2] iborasi vaqtni qimmatbaho resurs sifatida tasavvur qilishni ta'kidlaydi, bu anglo-sakson pragmatizmi va iqtisodiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyati. O‘zbek tilida ham vaqtga nisbatan shunday yondashuvlar mavjudligini "Vaqt aqchadir, G‘ofil bo‘ma, qochadir" [1] maqolida ham ko'rish mumkin. Ammo shu bilan bir qatorda, vaqtning qadriyat sifatida sabr, shukur va o‘ziga e'tibor qaratish bilan bog‘liqligini ifodalaydigan iboralarni ham uchratishimiz mumkin, masalan, "Vaqt — g‘animat, o‘tsa — nadomat" [1] shu kabi naqllar sirasiga kiradi. Ushbu misollar tillarning kontseptual dunyoqarashlari va madaniy kontekstlari qanchalik o'xshash va farqli ekanligini ko‘rsatadi.

Tarjima jarayonida bunday madaniy farqlarni hisobga olish muhimdir, chunki ular matnning ma'nosini to‘g‘ri tushunishni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, Eugene Nida (1964) [3] tomonidan taklif etilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi ahamiyatli, chunki u matnni tarjima qilishda o‘quvchi uchun tanish va tushunarli bo‘lgan usulni ta'kidlaydi. Nida ta'kidlashicha, tarjima faqat leksik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak emas, balki uni qabul qiluvchi madaniyat vakillari uchun ham mantiqiy va mazmunli bo‘lishi lozim.

Asosiy qism. Tarjima jarayonida ekvivalentlikka erishish har doim ham mukammal emas, chunki har bir til o‘zining fonetik, grammatik va semantik xususiyatlari bilan birga madaniy boyliklarini ham o‘zida aks ettiradi. Tarjimonning maqsadi nafaqat matndagi so‘zlarni boshqa tilga o‘girish, balki uning semantik mazmunini, hissiy ohangini va madaniy kontekstini saqlab qolishdan iboratdir. Ammo bu jarayonning murakkabligi tarjimonni ijodiy yondashuvga majbur qiladi.

Masalan, Alisher Navoiyning she'riyatiga nazar soladigan bo'lsak, barchaga mashhur

Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,
Har neniki sevmak ondin ortuq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.

ruboiysi Q. Ma'murov tarjimasida quyidagicha talqin qilinadi:

I love you more than my soul, oh, my dear,
I love you more than all numbers, oh, my dear,
Loving anything can not be more than that,
I love you much more than that, oh, my dear.

"Ruboiyning inglizcha jarangidan ham aynan sharqona ohangni his qilish mumkin. Bu kabi she‘rlar ingliz lirikasida uchramaydi. Ammo mazkur ruboiydagi "Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz" misrasida shoir *"son"* deganda aynan sanoq sonlarni nazarda tutmagan balki "sanalishi mumkin

bo‘lgan har qanday mavjudotlardan ko‘ra kuchliroq sevaman” demoqchi. Ingliz lirikasida “seni hamma raqamlardan ko‘ra ko‘proq sevaman” degan ibora yo‘q. Binobarin tarjima tilida o‘ta oddiy shaklda berilgan ushbu iborani Navoiy ham qo‘llayotgani yo‘q. Agar mutarjim she‘rdagi “sondin” so‘zini shunchaki sanoq son emas balki, sanab adog‘iga yetib bo‘lmas, cheksiz degan ma’noda qo‘llanilganligini anglaganda edi ehtimol bu kabi jiddiy xatoga yo‘l qo‘ymagan bo‘lar edi. Shu o‘rinda mutarjim Taniqli Navoiyshunos tarjimon Falsafa fanlari doktori Sh. Sirojiddinov izohlaganidek “sondin” so‘zini tarjimada *“numbers”* emas balki *“infinity”* ya’ni cheksizlik deb ekvivalent qo‘llaganda edi ruboiyning asl ma’nosini, ruhiyatini qolaversa, uning jarangdorligini to‘laqonli saqlab qolishga erishgan bo‘lar edi.” [4] Bu yerda tarjimon faqat so‘zlarni emas, balki tasvirlangan madaniy hissiyot va qadriyatlarni ham his qilib, ijodiy yondashuvni qo‘llashi lozim.

"lying" so'zi ikki ma'noda ishlatilgan: bir tomondan u "yotibdi", ikkinchi tomondan esa "yolg'on gapiryapti" degan kinoyaviy ifodani bildiradi. Bu misol orqali qahramonning doimiy yolg'onlar ichida yashayotgani ustidan hazil qilingan.

O. Uayldning "The Importance of Being Earnest" asarida keladigan Ernest ismi ham erkak ismi ma'nosida ham jiddiy, samimiy ma'nolarida kelgan: *"It is a terrible thing for a man to find out suddenly that all his life he has been speaking nothing but the truth. Can one be earnest without being Ernest?" [3]* Asarda "Ernest" ismi bilan "earnest" sifatining birikishi orqali kuchli kinoya yaratilgan. Personajlar ismning "jiddiy" inson bo'lish bilan qanday bog'liqligini muhokama qilib, ikki ma'no ustida o'ynaydi.

U. Shekspirning "Gamlet" asarida esa omonim bo'lib kelgan *grave* so'zi qabr hamda jiddiy ma'nolarida kelgan *"Alas, poor Yorick! I knew him, Horatio: a fellow of infinite jest..."* Yorickning bosh suyagi ustida Gamletning kinoyaviy monologi davomida *grave* so'zi ikki ma'noda tushuniladi: jiddiy va qabr. Kulgi ustasi bo'lgan Yorickning endi jiddiy va qabrda ekanligi kinoya bilan beriladi.

Shu nuqtayi nazardan, omonimlardan foydalanish yozuvchilarga sevgi, erkinlik, axloq, irqiy va ijtimoiy muammolar kabi asosiy mavzularni yanada yorqin, samarali o'rganishga yordam beradi, tanqidiy fikrlash hamda o'quvchilarda hissiy faollikni uyg'otadi.

Xulosa. Kinoyada qo'llaniladigan omonimlar yozuvchilarga bir xil so'zlar kontekstga qarab bir necha ma'noga yega bo'lishi mumkin bo'lgan polisemantik, ko'p qatlamli matnlar yaratishda o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi. Ushbu uslub mualliflarga o'quvchining idroki bilan o'ynashga, ma'no soyalarini o'zgartirishga va talqinning qo'shimcha darajalarini yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Nesin (1950). "Sizning yurtingizda eshak yo'qmi?" Istanbul
2. M. Twain, (1885). The Adventures of Huckleberry Finn. New York: L. Charles Webster & Company.
3. Oskar Uayld (1895)"The Importance of Being Earnest" London
4. W. Shakespeare, (1595). A Midsummer Night's Dream. London.
5. А. Қодирий "Ўткан кунлар" 2014 "Sharq nashriyoti"
6. Бегматов, Э. (2019). Тил ва бадиий матнда семантик кўпмаъноилик. Тошкент: Фан нашриёти.
7. Раҳимов, Б. (2015). Луғатшунослик асослари ва омонимия масалалари. Тошкент: Университет нашриёти.
8. https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1057-oltin-devor-komediya-erkin-vohidov.html?utm_source=chatgpt.com
9. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-kecha-va-kunduz-roman

UO'K 808.5

JAHON TILSHUNOSLIGIDA GIPERBOLA QURILMASINING LINGVISTIK TADQIQ ETILISHI HAMDA "GULIVERNING SAYOHATLARI" ASARI TARJIMASIDA GIPERBOLIK YONDASHUVLAR

H. Xusanov, mustaqil izlanuvchi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. *Jahon tilshunosligida giperbola qurilmasining lingvistik tadqiqiga turli izlanivchilar turlicha yondashganlar, bu esa giperbolaning lingvistik xususiyatlari rang-barang ekanligi va nutqimizda o'z fikr va muloxazalarimizni yoki qarashlarimizni tinglovchiga yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etishini tushunishimiz mumkin.Bundan tashqari giperbola juda ko'p jahon adabiyoti namoyondalarining asarlarida ham o'z aksini topgan. Bunga misol qilib buyuk ingliz yozuvchisi Jonatan Sviftning Guliverning sayohatlari asarini olishimiz mumkin. Maqolada bu asarning o'zbek tiliga tarjima qilinishida giperbolik yondashuvlardan misollar ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *giperbola, lingvokognitiv asos, mubolag'alashgan semantika, ta'sirchanlik vositasi, metabola, metoplazma, psixolingvistik, metologizm, Chelsi, London, Gulliverning sayohatlari.*

Аннотация. *Разные исследователи имеют разные подходы к лингвистическому исследованию устройства гиперболы в мировой лингвистике, а значит, мы можем понять,*

что языковые особенности гиперболы разнообразны и что они играют важную роль в передаче наших мыслей и мнений или взгляды слушателя в нашей речи. К роме тово, гипербола отражено и в произведениях множество представителей мировой литературы. Примером тому являются Путешествия Гулливера великого английского писателя Джонатана Свифта. В статье также приведены примеры гиперболических подходов при переводе данного произведения на узбекский язык.

Ключевые слова: *гипербола, лингвокогнитивная основа, преувеличенная семантика, средства впечатления, метабола, метоплазма, психолингвистика, метологизм, Челси, Лондон, путешествия Гулливера.*

Abstract. *Different researchers have different approaches to the linguistic research of the hyperbole device in world linguistics, which means that we can understand that the linguistic features of hyperbole are diverse and that they play an important role in conveying our thoughts and opinions or views to the listener in our speech. In addition, hyperbole is also reflected in the works of several representatives of world literature. For instance, Gulliver's Travels by the one of the great English writers Jonathan Swift. The article also provides examples of hyperbolic approaches in the translation of this work into Uzbek language.*

Key words: *hyperbole, lingvocognitive basis, exaggerated semantics, means of impression, metobole, metoplasm, psycholinguistic, metologism, Chelsea, London, Gulliver's travels .*

Kirish. Muloqot jarayonida so‘zlovchi o‘z niyat-maqsadini tinglovchiga yetkazishda nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar nutq figuralari, troplar kabi vositalardan unumli foydalanadi. “Giperbola” stilistik vositalarning ichida eng keng tarqalgan, universal vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. So‘zlovchi muloqot jarayonida suhbatdoshiga kuchli ta'sir o‘tkazish maqsadida, o‘zining kommunikativ-pragmatik niyat – maqsadini namoyon etishda, predmet, yoki hodisani tavsiflashda mubolag‘alashtirish zaruratiga ehtiyoj sezadi. Masalan, ingliz tilida “*I am very hungry, I could eat an elephant.", o'zbek tilida "Shunaqangi qornim ochqadiki, hozir bitta filni yeb tugataman"* va h.k. fikrimizga misol bo‘la oladi.

“Giperbola”ning universal tabiati uning lingvokognitiv asosi bo‘lgan “giperbola konseptual semantikasi” (GKS) bilan tavsiflanadi va u tilda so‘zlovchining tafakkurida mavjud bo‘lgan sosium tomonidan me'yorlashtiriladi, shu bois giperbola sosiumlar konseptosferasida o‘z ifodasini topgan idrokiy hodisa bo‘lib, bunda uning semantikasini til qonuniyatlariga ko‘ra o‘ziga xos verbal va noverbal vositalar tizimi orqali voqelantirilmay iloji yo‘q” [4: 2015, 74-75]. Shuningdek, “har qanday “kognitiv/konseptual semantika” verbal vositalar orqali voqelantirilishi shart” [5: 1993, 137], lekin ayrim hollarda bunday semantikalar muloqot vaziyati taqozosi bilan qisman noverbal vositalar, aniqrog‘i, “paralingvistik vositalar” [6: 2005, 24] orqali ham voqelantirilishi kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus tilshunosi S.N. Sirovatkin giperbolaga semiotik, aniqrog‘i, funksional semiotik nuqtai nazardan [7: 1977, 129] giperbolaning mavjud barcha ta'riflarini talabga javob bermaydi deb hisoblaydi. Ushbu muallif giperbolaga sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan yondashib, uning murakkab va ko‘pqirrali mubolag‘alashtirish stilistik vositasi ekanini e'tirof etgan holda, uning mohiyatini to‘liq aks ettiruvchi bir ta'rif berishning imkoniyati yo‘q ekanligini ta'kidlaydi. [1: 1977, p.129-130]

L.P.Krisin odatda mubolag’alashgan jumlalar insonning voqelikka bahosi, balki uning faoliyati bilan bog’liq, balki boshqa jonli mavjudot (hayvonlar, qushlar, hashorot)lar faoliyati, xattoki, jonsiz predmetlar (daraxtlar, tog’lar, quyosh,bahor,tabiat va x.k.) bilan bog’liq voqeliklarni ifodalashda ham keng qo’llanilishini aytadi.[2: 1989, p.199]

S.J.Dyubua tilshunoslik maktabi vakillari giperbolani o’ziga xos talqin etadilar. Ular tilning barcha aspektlariga xos o’zgarishlarni “metabola” (ritorik figura) atamasi orqali ifodalashni maqsadga muvofiq deb topadilar. Mazkur maktab olimlari tomonidan ishlab chiqilgan metabolaning ikki asosiy turi, ya’ni grammatik va leksik metabola kabi tasniflnishi ham tadqiqotchilarda ma’lum qiziqish uyg’otadi [3:Дюбуа ва б.қ., 1986,108].

Giperbolani taxlil qilish natijasida I.S.Kuraxtanovna quyidagi hulosaga keladi: “Giperbolada predmet, xodisa va xarakatning sub’ekt uchun muxim bo’lgan jixati

(kata/kichik) miqdoriy tavsifining o'lchovi-darajasi o'ta kattalashtiriladi, kuchaytirildi, bo'rttiriladi, sodda mubolag'alashmagan kuchaytirishda esa tavsifning o'rtacha, odatiy daraja-o'lchovi beriladi" [8: 1978, p.119].

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyoda o'z asarlarida "giperbola" dan keng foydalanga adib va yozuvchilar juda ko'plab topiladi. Ulardan biri XVIII asrning buyuk ingliz yozuvchisi Jonatan Svift hisoblanadi. U o'zining "Gulliverning sayohatlari" satirik romani bilan dunyoga nom taratgan. "Gulliver sayohatlari"dagi voqealar shunday ajoyib tizilganki, kitobxon asar qahramonining g'aroyib kechmishlarini uzluksiz diqqat bilan kuzatadi, adibning jo'shqin fantaziyasidan zavqlanadi. Yozuvchi o'z romanini yaratar ekan, jimit karliklar-u ulkan odamlar, tantiqlar-u yolg'onchilar haqida hikoya qiluvchi xalq ertaklaridagi usul va obrazlardan, shuningdek, XVII asr Angliyasida keng tarqalgan memuar sarguzasht adabiyoti haqqoniy va uydirma sarguzashtlar tasvirlangan kitoblardan keng foydalanadi. Dunyoning juda ko'plab tillariga tarjima qilingan bu asar o'zbek tilida ham ko'plab kitobxonlarning qalbidan chuqur joy oldi. Asarning tarjimasida ko'plab giperbola yoki mubolag'alarga ko'zimiz tushishi mumkin. Bunga juda ko'plab misollarni keltirish mumkin:

It was reckoned that above a hundred thousand inhabitants came out of the town upon the same errand; and in spite of my guards, I believe there could not be fewer than ten thousand, at several times, who mounted my body by the help of ladders – *Katta yo'lning boshqa tomonida, ibodatxona ro'parasida balandligi besh fut keladigan minora turardi. Imperator eng yaqin amaldorlari bilan, meni yaxshiroq ko'rish uchun, minora ustiga ko'tarildi. Meni ko'rish uchun, alohida hisobga ko'ra, ibodatxona yoniga yuz mingdan ortiq shaharlik to'plandi. Ularning o'n mingdan ortig'i menga chirmashib oldi, deb o'yladim*

I thought it the most prudent method to lie still, and my design was to continue so till night, when, my left hand being already loose, I could easily free myself: and as for the inhabitants, I had reason to believe I might be a match for the greatest army they could bring against me... – *Men to qorong'i tushgunga qadar qimirlamay yotgan ma'qul, deb o'yladim. Qorong'ida, chap qo'lim yordamida bo'shalib olishim uncha qiyin emas. Bordi-yu, bu mamlakat odamlarining hammasi ham shu ko'rib turganlarim singari mitti bo'lsa, menga qarshi qo'yiladigan har qanday armiyani bir yoqlik qilishga qudratim yetadi*

It was computed that eleven thousand persons were killed – *Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortganiigi uchun o'n bir ming fanatik o'lim jazosiga hukm qilingan*

A squall that you might have heard from London Bridge to Chelsea – ***shunaqayam osmonni boshiga ko'tarib yig'ladiki, agar u Chelsida bo'lganida London ko'prigida turganlar ham uning ovozini eshitardi***

She apprehended some mischief would happen to me from rude vulgar folks, who might squeeze me to death, or break one of my limbs by taking me in their hands. She had also observed how modest I was in my nature, how nicely I regarded my honor, and what an indignity I should conceive it to be exposed for money as a public spectacle to the meanest of the people – *U qo'pol, to'nkamijoz odamlar menga ziyon-zahmat yetkazishidan qo'rqardi. Axir, ular meni qo'llariga olib, bo'g'ib qo'yishlari yo mayib qilishlari hech gap emas-da. Boshqa tomondan, qizcha mendagi tabiiy kamtarlikni hamda or-nomus bobida o'ta nozik tabiatliligimni bilardi, odamlarni kuldirish uchun meni pulga ko'rsatishsalar, buni o'zim uchun or deb bilishimdan hadiksirardi.*

The queen commanded her own cabinetmaker to contrive a box that might serve me for a bedchamber – ***Malika saroy duradgoriga menga yotoqxona vazifasini o'taydigan quti yasashni buyurdi***

The room was quilted on all sides, as well as the floor and the ceiling, to prevent any accident from the carelessness of those who **carried me, and to break the force of a jolt when I went in a coach –** *Xonamning devorlari, shipi, poli kigiz bilan qoplandi. Bularning hammasi uyimni boshqa yoqqa ko'chirganda baxtsiz hodisa yuz bermasligi, faytonda ketayotganda silkinish quvvatini pasaytirishi uchun qilindi.*

...each of them near as large as a Bristol barrel... – *Har biri bochkaday keladigan o'nlarcha olma ustimga to'kildi*

I am confident that all the drums and trumpets of a royal army, beating and sounding together just at your ears, could not equal it – *Men shunga aminmanki, bordi-yu, Angliya armiyasidagi hamma nog'orachilar va karnaychilar baravariga muzika chalganda ham bunchalik shovqin hosil qila olmasdilar*

Tahlil va natijalar. Atayin to'qilgan yolg'on narsalar haqida Svift shunday bemalol va rostgo'ylik bilan hikoya qiladiki, go'yo so'z hayotda har qadamda uchraydigan narsa va voqealar ustida borayotgandek tuyuladi. Gulliver hikoyalari shunday asosli va ishonarliki biz ham , xuddi Gulliver kabi , o'sha jimit odamchalarni, ular qurshagan butun muhitni aniq-ravshan ko'rayotgandek bo'lamiz.

Ho'sh, "Gulliverning sayohatlari" asarining bu qadar ishonarli va qiziqarli asar bo'lishiga nima omil bo'ldi? Bunga albatta Jonatan Svift tomonidan ishlatilgan o'ziga xos bo'lgan til, deb aytsak bejiz bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu asar tili to'g'risida turli olimlar tomonidan har xil fikrlar bildirilmoqda va bu haqida izlanishlar davom etmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, giperbola, antigiperbola, litota, meyozis, gradatsiya, antigradatsiya, klimaks, antiklimaks va grotesklar hayotda predmetlar tavsifini yoki kuchaytirish (kattaytirish), yoki kichraytirish (kamaytirish) bilan bog'liq ekan, ularning asosiy farqi shundaki, giperbola, antigiperbola va groteskda ma'lum tavsifni doimo o'ta kuchaytirish (kattaytirish) yoki o'ta kichraytirish (kamaytirish. kuchsizlantirish) kuzatilsa, litota va meyozislarda oddiy, odatiy kichraytirish (kamaytirish) semantikasi bor, lekin "o'ta kichraytirish (kamaytirish)" semantikasi yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сыроваткин С.Н. – Принципы и методы лингвистических исследований в свете семиотики. 1977, p.129-130

2. L.P.Krisin –Социолингвистические аспекти изучения современного русского языка. 1989, p.199

3. Ж. Дюбуа - Общая риторика. - М.: "Прогресс". 1986, p. 109-109

4. Karaboev J.B. - Лингвокультурологические особенности вербализаторов концептуальной семантики "гипербола" // Вестник Челябинского государственного университета. Филология Искусствоведение. Выпуск 95. - Челябинск, 2015, p.74-75

5. Jackendoff R. Semantics and Cognition. 6th ed. Cambridge (Mass.): The MIT Press. 1993, p.137

6. Kolshnaskiy V.G. Логика и структура языка . Лингвистическое наследие 20 века. URSS 2005, p. 24

7. Сыроваткин С.Н. Явление гиперболизации в плане функциональной лингвосемиотики. В сб.: Вопросы лексикологии, стилистики и грамматики в аспекте общего языкознания. Калинин, 1977,p.129

8. Курахтанова И.С.- Языковая гипербола и функциональная характеристика стилистического приема гиперболы (на материале англ. языка): автореф. диссс…канд.фил.наук. 1978, p.119

UO'K 81'42

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA MILLIY KOLORITNING O'RNI

Sh.Xusanova, o'qituvchi, Toshkent Amaliy Fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakili Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy koloritning namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Adib qahramonlarining hayoti, nutqi, urf-odatlari va milliy qadriyatlari orqali o'zbek xalqining hayot tarzi, madaniyati, an'analari tasvirlangan. Milliy kolorit asarlarning badiiy-estetik qiymatini oshirish bilan birga, ularni realistik ruhda yoritishga xizmat qiladi. Maqolada Shukur Xolmirzayevning ayrim hikoyalari misolida milliy koloritning turli ko'rinishlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek adabiyoti, hikoya, milliy kolorit, qahramon, madaniyat, an'ana, urf-odat, realizm, badiiy-estetik qiymat.*

Аннотация. *В данной статье анализируется проявление национального колорита в рассказах крупного представителя узбекской литературы Шукура Холмирзаева. Через жизнь, речь, обычаи и национальные ценности его героев отображены образ жизни, культура и традиции узбекского народа. Национальный колорит не только повышает художественно-эстетическую ценность произведений, но и служит их реалистичному освещению. В статье на примере некоторых рассказов Шукура Холмирзаева рассматриваются различные проявления национального колорита.*

Ключевые слова: *узбекская литература, рассказ, национальный колорит, герой, культура, традиция, обычай, реализм, художественно-эстетическая ценность.*

Abstract. *This article analyzes the manifestation of national color in the stories of Shukur Xolmirzayev, a prominent figure in Uzbek literature. Through the lives, speech, customs, and national values of his characters, the lifestyle, culture, and traditions of the Uzbek people are depicted. National color not only enhances the artistic and aesthetic value of the works but also contributes to their realistic portrayal. The article examines various aspects of national color in some of Shukur Xolmirzayev's stories.*

Key words: *Uzbek literature, short story, national color, character, culture, tradition, custom, realism, artistic-aesthetic value.*

Shukur Xolmirzayev – XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning hikoyalari o‘zbek xalqining turmush tarzi, mentaliteti va ruhiyatini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida milliy kolorit alohida o‘rin egallaydi. Milliy kolorit – bu millatning o‘ziga xosligi, madaniyati, urf-odatlari va an’analari badiiy asarlarda qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatib beruvchi vositadir. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy kolorit ayniqsa, qahramonlarning hayoti, nutqi, an’analari va turmush tarzi orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada adibning hikoyalarida milliy koloritning o‘rni, badiiy-estetik ahamiyati hamda qahramonlarning obraz yaratishdagi roli tahlil qilinadi.

1. Milliy kolorit tushunchasi va uning adabiyotdagi o‘rni

Milliy kolorit tushunchasi adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Bu atama badiiy asarlarda muayyan xalqning madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari, turmush tarzi va tafakkurini aks ettiruvchi elementlar majmuasini anglatadi. Milliy kolorit asarning nafaqat voqealar rivoji, balki undagi qahramonlarning xarakteri, til uslubi va tasviriy vositalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Milliy kolorit tushunchasini quyidagi jihatlar orqali tahlil qilish mumkin:

1.1. Til va nutq xususiyatlari

Har bir xalqning tili va nutq madaniyati o‘ziga xos bo‘lib, u badiiy asarlarda milliy koloritning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, o‘zbek adabiyotida qahramonlarning so‘zlash uslubi, maqol va matallar, shevaga oid so‘zlar, xalqona iboralar milliy ruhni oshirishga xizmat qiladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida qishloq aholisi nutqining tabiiy va samimiy tasvirlanishi milliy koloritni kuchaytiradi. Masalan, uning hikoyalarida "yo‘g‘-e", "bo‘ldi-da", "o‘h-ho‘" kabi xalq orasida keng qo‘llaniladigan so‘zlar uchraydi.

1.2. Urf-odatlar va an’analar

Har bir xalqning milliy an’analari va urf-odatlari uning madaniyati va tarixiy taraqqiyotining muhim qismidir. O‘zbek adabiyotida an’anaviy nikoh marosimlari, osh berish, qiz uzatish, bolani beshik to‘y qilish kabi marosimlarning tasviri milliy koloritni boyitadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida qishloq aholisi hayotiga xos bo‘lgan ushbu an’analar jonli va tabiiy tasvirlangan.

Masalan, "Olabo‘ji" hikoyasida qishloq odamlarining o‘zaro aloqalari, ular orasidagi o‘ziga xos munosabatlar tasvirlanib, xalqona urf-odatlar aks ettiriladi. Hikoyada yoshlar va kattalar o‘rtasidagi hurmat, oila qadriyatlari, marosimlarga e’tibor kabi milliy jihatlar ko‘zga tashlanadi.

1.3. Muhit va tabiat tasviri

Adabiyotda milliy koloritni kuchaytirishning yana bir muhim omili tabiat tasviridir. O‘zbek adabiyotida dala-mehnat jarayonlari, bog‘-rog‘ tasviri, yozning issig‘i yoki kuzning salqinligi kabilar badiiy matnga milliy ruh bag‘ishlaydi.

Shukur Xolmirzayevning "Yozning oxiri" hikoyasida yozning tugab, kuz faslining boshlanishi tabiat manzaralari orqali juda aniq tasvirlanadi. Yaproqlarning sarg‘ayishi, bog‘dagi daraxtlarning so‘lishi, odamlarning yozgi yumushlardan keyingi xotirjamligi kabi tasvirlar milliy koloritni oshirishga xizmat qiladi.

1.4. Milliy mentalitet va qadriyatlar

Milliy koloritni belgilovchi asosiy omillardan biri bu xalqning mentaliteti, ya’ni dunyoqarashi va qadriyatlaridir. O‘zbek xalqining mehmondo‘stligi, kattalarga hurmat, sabr-toqat, oilaparvarlik kabi jihatlari badiiy asarlarda o‘z aksini topadi.

Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida qahramonlarning o‘zaro munosabatlarida bu jihatlar yaqqol ko‘rinadi. Masalan, qishloq odamlari orasidagi iliq munosabatlar, o‘zaro yordam, oila qadriyatlari hikoyalarining asosiy mavzularidan biri bo‘lib xizmat qiladi.

1.5. Badiiy tasvir vositalari orqali milliy koloritni yaratish

Adabiyotda milliy koloritni oshirish uchun metafora, epitet, tashbeh, ta’kid kabi badiiy tasvir vositalari ham qo‘llaniladi. O‘zbek xalqining mentaliteti, qahramonlarning hayot tarzi va dunyoqarashi ushbu tasviriy vositalar orqali yanada jonli tasvirlanadi.

Masalan, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida "qushdek yengil yurdi", "osmon uzra charaqlagan yulduzlar" kabi ifodalar uchrab, ular milliy ruhni oshirishga xizmat qiladi.

2. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy kolorit ko‘rinishlari

Shukur Xolmirzayev hikoyalari o‘zbek xalqining hayot tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va mentalitetini aks ettirishga xizmat qiladi. U o‘z asarlarida realistik tasvir vositalaridan foydalangan holda milliy koloritni yanada jonli va tabiiy ifodalashga erishgan. Milliy kolorit uning hikoyalarida quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘ladi:

2.1. Qahramonlarning hayoti va turmush tarzi

Shukur Xolmirzayev hikoyalari qishloq aholisi, oddiy dehqonlar va hunarmandlarning hayoti, ularning mehnati va oilaviy qadriyatlarini yoritishga qaratilgan. Qahramonlar odatda o‘zining tabiiy hayot kechirish tarzi, kundalik yumushlari, mehnat bilan bog‘liq muammolari orqali tasvirlanadi. Masalan, "Olabo‘ji" hikoyasida qishloq odamlari orasidagi munosabatlar, qariyalarga hurmat, oddiy hayot tarzi aks etadi. Ushbu hikoyada qishloq odatlariga xos bo‘lgan quyidagi jihatlar kuzatiladi:

Kattalar va yoshlar o‘rtasidagi hurmat.

Qishloq hayotining oddiyligi va samimiyligi.

Dehqonchilik va mehnat bilan bog‘liq oddiy, lekin hayotiy muammolar.

Bu hikoyada asosan milliy xarakter tasviri asosiy o‘rinda turadi. Qahramonlarning dunyoqarashi, so‘zlash uslubi va hayotga bo‘lgan qarashlari milliy ruhni yaqqol aks ettiradi.

2.2. Qahramonlarning nutqi va til xususiyatlari

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida qahramonlarning nutqi jonli, xalqona va realistik tarzda berilgan. U o‘z asarlarida so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan og‘zaki ifodalar, maqollar va xalq iboralaridan keng foydalanadi. Masalan:

"Maymun yetaklagan odam" hikoyasida qahramonlarning nutqi sodda va tabiiy bo‘lib, xalq orasida keng tarqalgan iboralar uchraydi:

"Odamning o‘zini maymunga o‘xshatsa ham, odamligicha qolar ekan."

"Har kim o‘zining boshiga tushgani bilan yurarkan-da."

Bu hikoyada odamlarning maymunni yetaklagan odamga bo‘lgan munosabati orqali milliy mentalitet tasvirlanadi. Odamlarning tasavvurlari, ijtimoiy qarashlari, oddiy hayot haqidagi fikrlari milliy koloritni boyitadi.

2.3. O‘zbek xalqiga xos urf-odat va an’analar

Shukur Xolmirzayev asarlarida qishloq aholisi hayoti, to‘y marosimlari, mehmondo‘stlik, marhumlarni xotirlash kabi milliy urf-odatlar aniq tasvirlangan. Ayniqsa, u oilaviy qadriyatlarga alohida e’tibor qaratadi.

Masalan, "Yozning oxiri" hikoyasida:

Yoz va kuz fasllarining o‘zbek xalqi hayotidagi ahamiyati.

Hosil yig‘im-terimi jarayonlari va dehqonchilik ishlari.

Qishloqdagi odamlarning haroratli va mehribon munosabatlari.

Bu hikoyada fasllar almashinuvi bilan birga inson hayotidagi o‘zgarishlar, qishloq odatlarining barqarorligi va xalqning hayot falsafasi ochib berilgan.

2.4. Muhit va tabiat tasviri

Adib tabiat tasviriga alohida e’tibor qaratadi. Uning hikoyalarida qishloq manzaralari, bog‘-rog‘lar, dalalar, tog‘lar va sahro tasvirlari milliy koloritni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Masalan, "Yozning oxiri" hikoyasida quyidagi tabiat tasvirlari uchraydi:

"Shamol qum zarralarini yo‘l bo‘ylab sudrab ketardi."

"Kech kuzning salqin sukunati ichra tog‘lar go‘yo burchakka qisilgan."

"Bog‘dagi daraxtlar sarg‘ayib, ohangrabodek jim qotgan edi."

Bu tasvirlar nafaqat atrof-muhitni ifodalash, balki qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berish uchun ham muhim rol o‘ynaydi.

2.5. O‘zbek xalqining mentaliteti va qadriyatlari

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xalqning ichki dunyosi, mentaliteti va qadriyatlari yaqqol aks etgan. Qahramonlar orasidagi o‘zaro hurmat, mehribonlik, mehnatsevarlik, soddalik va hayotga bo‘lgan realistik qarashlar uning hikoyalarida markaziy o‘rinni egallaydi.

Masalan:

"Maymun yetaklagan odam" – odamlarning noodatiy hodisalarga bo‘lgan qiziqishi, ammo konservativ qarashlari aks etgan.

"Olabo‘ji" – qariyalarga hurmat, oilaviy qadriyatlar va qishloq aholisi orasidagi o‘ziga xos ijtimoiy munosabatlar ko‘rsatilgan.

"Yozning oxiri" – dehqonchilik hayoti, oddiy qishloq kishilarining hayotga bo‘lgan munosabati yoritilgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy kolorit nafaqat bezak yoki qahramonlar muhitini tasvirlash vositasi, balki asar mazmunining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Adib xalqning urf-odatlari, turmush tarzi, mentaliteti va tabiatini chuqur yoritib, o‘zbek adabiyotida milliy ruhni jonlantirishga muvaffaq bo‘lgan. Uning hikoyalari orqali qishloq odamlari hayoti, ularning dunyoqarashi va o‘ziga xos nutq uslubi bevosita o‘quvchini milliy muhitga olib kiradi.

Xolmirzayev ijodida milliy koloritning ifodalanishi qator usullar bilan amalga oshirilgan. Qahramonlarning hayoti va turmush tarzi realistik yondashuv asosida tasvirlanib, oddiy xalq vakillarining kundalik muammolari, quvonch va tashvishlari orqali milliy ruh berilgan. Nutq xususiyatlari, ya’ni xalqona iboralar, maqollar va jonli muloqot asarlarga tabiiylik baxsh etgan. Bundan tashqari, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar hikoyalarning badiiy strukturasini boyitib, o‘zbek xalqining madaniy merosi va milliy mentalitetini aks ettirgan.

Tashqi muhit tasviri ham milliy koloritni oshirishga xizmat qilgan. Qishloq manzaralari, mavsumiy o‘zgarishlar va tabiat hodisalari qahramonlarning ichki dunyosi bilan uyg‘un holda berilgan. Adib nafaqat milliylikni ifodalash, balki uni chuqur badiiy falsafa bilan uyg‘unlashtirish orqali milliy adabiyotimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari orqali milliy koloritning turli qirralari yoritilib, o‘zbek xalqining ma’naviy dunyosi, an’anaviy qadriyatlari va milliy xarakteri teran ochib berilgan. Uning ijodi o‘zbek adabiyotida realizm yo‘nalishining yorqin namunasini yaratib, milliy adabiy merosimizning boyishiga katta hissa qo‘shgan. Shu sababli Xolmirzayevning hikoyalari faqat badiiy asar sifatida emas, balki xalqimizning o‘tmishi, buguni va qadriyatlarini aks ettiruvchi tarixiy va madaniy manba sifatida ham qimmatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Doniyorova, Sh. (2002). Ijodkor va uslub. Toshkent: Fan.

2. Karimov, N. (2022). Shukur Xolmirzayev (1940-2005). Milliylik-millat ko'zgusi.

3. Karimov, H., Doniyorova, Sh., Tilovova, G., Toshboev, O., Qo‘chqorova, M., Shahobov, K. (2020). Shukur Xolmirzaev hikoyalari va unda folklorizmlar tasnifi. Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

4. Qodirova, N. M. (2024). Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy qadriyatlarning badiiy talqini. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(3),

5. Qulmatov, U. P. (2023). Shukur Xolmirzayev hikoyalariga tahlil. PEDAGOGS jurnali, 31(4),

UO'K 81`373.23

"QADIMGI TURKIY SO'ZLAR LUG'ATI"DAGI ANTROPONIMLAR TARKIBIDA KELGAN AYRIM TITUL-UNVON VA EPITETLAR XUSUSIDA

Sh.M. Xusainova, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, o'qituvchi, TTA Urganch filiali, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" onamastikasining muhim obyekti bo'lgan antroponimlar, ularning tarkibiy tuzilishi hamda lug'atdagi antroponimlar tarkibida uchraydigan ayrim titul-unvonlar (saŋun, qaγan, tutuq, tegin) hamda epitetlar (alp, arslan, bilgä), ularning etimologiyasi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *onomastika, antroponim, antoponimika, antroponimiya, antroponimist, antrokon, titul, epitet.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются антропонимы, которые являются важным объектом ономастики «Древнетюркского словаря», их морфологическая структура, а также некоторые титулы и звания (саңун, қаған, тутуқ, тегин), эпитеты (алп, арслан, билга) встречающиеся в составе антропонимов словаря, и их этимология.*

Ключевые слова: *ономастика, антропоним, антропонимика, антропонимия, антропонимист, антрокон, титул, эпитет.*

Abstract. *This article discusses anthroponyms, which are an important object of onomastics in the "Dictionary of Ancient Turkic Words", their morphological structure, as well as certain titles and ranks (saŋun, qaγan, tutuq, tegin), epithets (alp, arslan, bilgä) found within the dictionary's anthroponyms, and their etymology.*

Key words*: onomastics, anthroponym, anthroponymics, anthroponymy, anthroponymist, anthropokon, title, epithet.*

Kirish. Qadimgi turkiy xalqlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda onomastika, ya'ni ismlar tizimini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" singari manbalar turkiy xalqlarning til boyligi, tarixiy tafakkuri va ijtimoiy tuzilmasini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu lug'atda saqlanib qolgan shaxs ismlari, unvonlar (titullar), epitetlar va boshqa onomastik birliklar VII–XIII asrlardagi qadimgi turkiy jamiyatning ko'zgusi sifatida diqqatga sazovordir. "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" onomastikasini tahlil qilish turkiy tillarning tarixiy rivojlanishi, madaniy merosi va lingvistik xususiyatlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.

Metodologiya. Tadqiqot davomida qadimgi turkiy so'zlar, titullar, epitetlar, va onomastik birliklarning o'rganilishi jarayonida bir nechta asosiy manbalarga tayandik. Jumladan, "Древнетюркский словарь" (2016) qadimgi turkiy so'zlar va ularning semantik maydonini o'rganishda muhim manba bo'ldi. G.B.Babayarov va A.V.Kubatin tomonidan tayyorlangan tadqiqotda (2016) Sog'd yozuvidagi tangalarda uchraydigan turkiy titullar va epitetlar o'rganilgan bo'lib, bu qadimgi onomastik birliklarning siyosiy-huquqiy vazifalarini aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, Q.Sodiqov, Sh.Kamoliddin, M.Isxaqov, A.Shabalov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan yozilgan maqola va kitoblar turkiy titullarning matnlardagi ishlatilishi, yozuv shakllari bo'yicha boy dalillarni taqdim etadi. Leksikografik manbalar – E.V.Sevortyan, N.V.Podolskaya, A.Hojiev, M.Hakimov izohli lug'atlari terminlarning aniq qo'llanishi va semantik chegaralarini tushunishga yordam beradi.

Onomastik tahlil orqali ismlar va titullarning tarkibiy qismlari, tarkibiy tuzilmalari, qo'llanilish konteksti o'rganildi. Buni amalga oshirishda Q.Sodiqov (2004, 2006, 2015), D.T.Yuldashev (2024) ishlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Muhokama va natija. Ushbu maqolada "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" asosida qadimgi turkiy onomastik tizimning ayrim jihatlari, xususan, shaxs nomlari va u bilan bog'liq bo'lgan titullar hamda epitetlar tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati"dagi antroponim, unvon va epitetlarning lug'aviy, tarixiy va madaniy kontekstini ochib berishga, shuningdek, ularning semantik yondashuvlarini yoritishga qaratilgan.

Antroponim onomastikaning lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N.V.Podolskaya antoponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim, ginekonim, partonim kirishini qayd qilgan [6; 31].

Antoponimika – Leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini) o‘rganuvchi bo‘limi [10; 17].

Biror tildagi antroponimlar majmuyi *antroponimiya* deb yuritiladi. Masalan, o‘zbek antroponimiyasi, qozoq antroponimiyasi kabi. Antroponimlarni tadqiq qiluvchi soha *antroponimika* deb nomlanadi va onomastikaning bu bo‘limi antroponimlarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Antroponimika mutaxassisi *antroponimist* (o‘zbekcha antroponimshunos) deb yuritiladi. Biror tildagi antroponimlarning yig‘indisi, mavjud *antrokonni* tashkil qiladi [2; 11].

Qadimgi turkiy xalqlar tarixiy, madaniy va diniy ongining ko‘zgusi sifatida antroponimik tizimni rivojlantirgan. Ushbu maqolamizda “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati” (Древнетюркский словарь)da qayd etilgan antroponimlar asosida qadimgi turkiy antroponimiya lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘at”idagi antroponimlarning tarkibini ko‘rib chiqishga harakat qildik va shu maqsadda o‘z oldimizga bir nechta vazifalarni qo‘ydik:

1) lug‘at tarkibidagi antroponimlarni yig‘ish;

2) antroponimlar tuzilishi va ularning tarkibidagi titullar hamda epitetlarni o‘rganish.

Keyingi yillarda turkiy tillar onomastikasi bilan shug‘ullanuvchi bir qator yosh tadqiqotchilar yetishdi. Ular e’lon qilayotgan ishlarning tahlili maxsus tadqiqotni talab qiladi [2; 15].

“Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”dagi antroponimlarni morfologik tarkibiga ko‘ra sodda, epitet + antroponim, antroponim + titul tarkibli antroponimlar deb tasnif qilib izohlash mumkin:

1. Sodda tarkibli antroponimlar: *Abbaz, Ačatastru, Ašmïš, Bekinä, Bekirä, Čidin, Čigüj, Dahhak, Dartiraštri, Egdäčin, Ervüz, Faruq, Farzind, Gajakasapi, Gandakamini, Gopali, γaričandri...*

2. Epitet + antroponim: Alp aja, Alp Buryučan, Alp qutluγ, Alp tarχan, Alp turmïš, *Arslan balban, Arslan meŋü, Arslan sïq toγrul, Bilgä beg, Bilgä čikšän, Bilgä qaγan, Bilgä talij, Čik bilgä čigši...*

Epitet – (*yun.* epitheton – qo‘shilgan, ilova qilingan) antik davrdan ma’lum badiiy tasviriy vositalardan. Narsa va hodisalarga, tushuncha va hokazoga xos xususiyatlarni obrazli tavsiflash. Qadimgi turkiy nomlar orasida epitetli nomlar ham ancha salmoqlidir. Masalan:

alp (so‘g‘d.) epiteti “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”da uchta lug‘at maqolada izohlanadi. Shularning birinchisida, **qahramon** ma’nosida: *alplar birlä urušma / bęglär birlä turušma* – qahramonlar bilan jangga kirma, / beklar bilan bahsga kirma (MK 101_5); **dovyurak, mard, dadil***: ešnägin bars men qamuš ara bašïm andaγ alp men erdämlig* men – [xotirjamlik bilan] esnayotgan arslon, boshim qamishda, men shunday mard va jasoratliman (*ThS* II_{15}); ikkinchi lug‘at maqolasida **qiyinchiliklar, og‘ir sinovlar** ma’nosida: *anïn bu orunnuŋ atï alpta jegädtäči atlïy orun tep tetir* shuning uchun bu bosqichning nomi “Qiyinchiliklarni yengish” deb nomlanadi (*Suv* 317_{10}); uchinchi lug‘at maqolasida esa **antroponim** ekanligi izohlangan: *Alp er toŋa-Toŋa alp er (*turkiy Qoraxoniylar naslidan bo‘lgan afsonaviy Turon hukmdori*), Alp Buryučan (Man I 27$_9$)* [3; 39-40].

Shuni ta’kidlash kerakki, **alp** so‘zi tadqiqotchilar tomonidan älp sifatida tiklangan [1; 898]. **alp** so‘zi Turk xoqonligi davrida va unga yaqin davrda epitet sifatida qo‘llanilgan va xoqon, tegin, va boshqa qator unvonlar oldidan o‘rin olgan. Alp atamasi xoqonlikning boshqaruv tizimida, asosan, ierarxiyaning eng yuqori pog‘onasini egallagan unvonlardan oldin qo‘llanilgan.

arslan – bu qadimgi turkiy davlatlar unvonlari tizimida keng tarqalgan epitetlardan biridir. Arslon so‘zi birinchi marta Xitoy manbalarida **a-si-lan** shaklida Buxorodan Xitoyga elchi sifatida borgan turkiy shahzodalardan biri bilan bog‘liq holda qayd etilgan. *Arslan balban, Arslan meŋü, Arslan sïq toγrul, Arslan tegin, Begäč Arslan tegin – shahzoda Arslan tegin. čerig körsä alp er kör arslan bolur mard jangchi, qo‘shinni ko‘rsa (~ qo‘shin ko‘rganda), sher bo‘lib qoladi (QBN 179$_6$)*[3; 59,98].

bilgä epitet – dono, aqlli, siyosiy-ijtimoiy elita vakillari orasida keng tarqalgan. Qadimgi turkiy unvonlar tizimida bilgä "dono, donishmand" atamasi boshqalarga qaraganda tez-tez va asosan yuqori lavozimni egallagan mansabdor shaxslar unvonlari oldidan epitet sifatida ishlatilgan. Shunday qilib, bu epitetning hukmron sulola vakillari, masalan, *Bilgä qaγan va Bilgä tegin* unvonlari bilan tez-tez ishlatilishi e'tiborni tortadi. Bu holat xoqonlik unvonlari tizimida bilgä epiteti yuqori mavqeni egallagan deb taxmin qilish imkonini beradi. Shunday qilib, bilgä epitetini ko'p komponentli unvonlar orasida ko'rish mumkin, masalan, *Čik bilgä čigši, Ïnanču kül bilgä qaγan, Kül bilgä χan* [3; 106].

3. Antroponim + titul: *Čočuq böri saŋun, Toŋïtï tutuq, Bilgä qaγan, Istämi qaγan, Buqaγ tutuq, Buzač tutuq, Sïlïγ tegin, Toŋa tegin, Vipulačantri tegin.*

Antroponimlar o'z ichiga ism, familiya, laqab, taxallus va ko'plab boshqa elementlarni oladi. Bu birliklarning muhim komponentlaridan biri sifatida titul elementlari alohida o'rin tutadi. *Titul* shaxsning ijtimoiy maqomini, lavozimini yoki hurmat shaklini ifodalovchi unvon bo'lib, u turkiy xalqlarning madaniy merosida chuqur ildiz otgan.

O'tmishda yashab o'tgan xoqon, xon, sulton va beklarning davlat nomidan e'lon qilgan yorliqlarining boshlanish qismida ularning unvonlari bitilgan. Ushbu unvonlarda ularning darajalari, sifatlari va nomlari aks etgan [9; 364–365].

Fanda qadimgi turkiy bitiglarda kelgan unvonlar tarixiy hamda filologik jihatdan o'rganilgan. Shunga qaramay, turkiy tilli unvonlarning tadqiq etilmagan jihatlari ham bor [8; 19-27]. Shu jihatdan "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" tarkibidagi titul-unvonlarni ko'rib chiqamiz.

Lug'atdagi antroponimlarning katta qismini titul-unvon bilan kengaygan antroponimlar tashkil qiladi. Masalan, **Saŋun –** xitoy tilida mansab, lavozim. Askarlar mashhur *saŋunlar* boshchiligida harakat qilganlar. J.Hamiltonning ta'kidlashicha, turkiy xalqlar bu unvonni xitoycha **"tszyantsyun"** unvonidan o'zlashtirgan bo'lib, undagi **tsiang-kiun, tsi̯ang-ki̯uən** shakllarini **Saŋun/Säŋün** ko'rinishiga o'zgartirganlar [4; 28-33]. *Altun taj saŋun, Čočuq böri saŋun, El kirmiš saŋun, El almïš saŋun, Erk arslan saŋun, Bajna saŋun, Čočuq isig saŋun.*

qaγan so'zi "Древнетюркский словарь"ning birinchi lug'at maqolasida xoqon, oliy hukmdor, xon deb izohlangan: ne qaγanqa išig küčig berür men – mehnatim va kuchimni qaysi xoqonga bag'ishlayman? (КТ б$_9$); ošbu qaγannuŋ čerigi köp köp balïqlarï köp köp erdilär erdi – bu xoqonning ko'p qo'shini va shaharlari bor edi (ЛОК 14$_8$) [3; 429].

qaγan qadimgi turkliylar tomonidan o'rnatilgan oliy hokimiyatni ifodalovchi unvon bo'lib, milodiy VI asr o'rtalarida eng yirik ko'chmanchi imperiya – Turk xoqonligi tashkil topgan davrda mavjud bo'lgan. Bu titulning kelib chiqishi aniq emas; ayrim tadqiqotchilar bu atama qadimgi turklar tomonidan juan-juan (yoki jujan, bu milodiy V–VI asrlarda Mongoliya va unga tutash hududlarda yashagan ko'chmanchi xalq (jujanlar), ba'zan ularni Rouran deb ham atashadi) tilidan o'zlashtirilgan deb hisoblaydi. Chunki turklar bir muddat ushbu xalqning tobeligida bo'lishgan. Boshqa nuqtai nazarga ko'ra, *qaγan* tituli turklar va juan-juanlar tomonidan umumiy holda xitoy tilidan hunlar orqali o'zlashtirilgan. Xitoy manbalarida ushbu atama birinchi marta IV asr boshlarida hunlar hukmdoriga nisbatan qo'llanilgan [5; 10].

"Древнетюркский словарь"ning ikkinchi lug'at maqolasida ***qaγan*** – atoqli otlar komponenti deya izohlangan: *Aj qaγan, Bumïn qaγan* – 1-turk xoqonligi asoschisi, turk xoqonligi unvoni, ism va titul (O$_1$), *Altun qaγan, Baz qaγan, Bilgä qaγan, Oγuz bilgä tamγačï, Qapaγan qaγan, Urum qaγan* [3; 429].

qaγan unvoni dastlab faqat VI–VII asrlarda Turk xoqonligi oliy hukmdorlariga tegishli bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik kichikroq hukmdorlar ham shu unvon bilan atala boshlagan [1; 904].

Tegin, *tekin, tigin, tegit* – shahzoda; hukmdor oilasining kichik a'zolari nomiga qo'shiladigan unvon (КЧ$_{24}$; МК I 413; *KP 22$_2$*) **Tegin** –hukmdorlar naslini bildiradi. *Alp tegin, Arïγ tegin, Arslan tegin, Begäč arslan tegin, Asan tegin, Boγaz tegin, Jaγan tegin, Jaruq tegin, Kül tegin, Vipulačantri tegin.*

E'tiborlisi, lug'atdagi atoqli otlar qatorida qo'sh titulli qo'shma nomlar ham anchagina: *Čača tutuq seŋun, Begu tutuq qirqu seŋun, Bars qan saŋun, Baγatur čigši, Bogu qan saŋun* kabi.

Bu kabi antroponimlarda titullar deyarli nom tarkibi darajasiga chiqqan. Va ular bir qancha turkologlar tomonidan izohlangan. Masalan, **Seŋün \\ Saŋun** – xitoycha (tszyan-tsyanun); “titul, rutbə”, “hozirgi generalga to‘g‘ri keladi”, “lashkorboshiga berilgan unvon va ayni vaqtda bitiktosh yasovchi usta” kabi.

\\ **Tutuq** – xitoycha (ti-tog) – viloyat harbiy boshqaruvchisi va ism komponenti; viloyat harbiy hokimi. Xitoycha *dudu* yoki *to-tog* so‘zidaan olingan, deyiladi. Lekin aksincha bo‘lishi ham mumkin”; Harbiy ma’muriyat boshlig‘i uchun tutuq qo‘llangan. \\ Tutuŋ – xitoycha (tu-thoŋ) – viloyat boshqaruvchisi va ism komponenti [11; 9-13]...

Xulosa. “Qadimgi turkiy so‘zlar lugäti”da keltirilgan antroponimlar nafaqat shaxslarning ismlari, balki turkiy xalqlarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va tarixiy voqeligi bilan bog‘liq ma’naviy boylikdir. Lug‘atdagi antroponimlarni tahlil qilish jarayonida turkiy xalqlar nom qo‘yishda tabiat, diniy obrazlar, madaniy xususiyatlar va etnik tamoyillarga asoslanganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, qadimgi turkiy antroponimlar turkiy xalqlarning qadimiy madaniyati, harbiy an’analari va diniy tasavvurlarini aks ettiradi. Ular nafaqat tarixiy manbalarda saqlanib qolgan, balki hozirgi turkiy tillarda ham yangi shakllarda yashab kelmoqda. Bu ismlarning lingvistik tahlili turkiy tillarning leksikasi va grammatikasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, antroponimlarning o‘ziga xos tuzilmalari, yasalish xususiyatlari mavjud. Antroponimiyada bitta lug‘aviy birlik (komponent)ning funksional universalligi, ba’zan qo‘shma ism qismlarining o‘zaro ma’noviy aloqaga ega bo‘lmasligi va boshqalar kuzatiladi.

“Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”dagi titul-komponentli antroponimlar qadimgi turkiy xalqlarning ijtimoiy tuzilmasi, siyosiy tizimi va madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Antroponimiyadagi titul komponentlar tarixiy izchillik va madaniy meros uzviyligini ifodalovchi muhim til birliklaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Бабаяров Г.Б., Кубатин А.В. Древнетюркские титулы и эпитеты на согдоязычных монетах Средней Азии эпохи раннего средневековья. Үлкен Алтай әлемі – Мир Большого Алтая – World of Great Altai 2(4.2) 2016

2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.

3. Древнетюркский словарь. – Астана, 2016.

4. Кожобеков М.Ч. Государственный аппарат в Кыргызском каганате. Историческая и социально-образовательная мысль. 2018. Том 10. – №2-2. – С.28-33.

5. Коновалова И.Г. О вожможных источниках заимствования титула «каган» в Древней Руси. // Славяне и их соседи. Вып. 10. – Москва, 2001.

6. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. Москва: Наука, 1978

7. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва, 1974.

8. Содиқов Қ. Қорабалғасун ёдгорликларининг туркий матни ва уйғур хоқонлиги даврида тарихий монументал матн тузиш анъанаси. // Хитой ва Марказий Осиё халқларининг маданий, адабий, тил алоқалари: ўтмиш ва ҳозирги замон. – Тошкент, 2004. – Б.19–27.

9. Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент, 2013. – Б.364–365.

10. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.

11.Yuldashev D.T. “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati” onomastik tadqiqotlar uchun manba sifatida. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2024. – №5. – B.9-13.

UO’K 808.5

O‘ZBEK VA INGLIZ BOLALAR FOKLOR QO‘SHIQLARIDA TAKROR SAN’ATLARINING QO‘LLANILISHI

G.F. Yoqubova, tayanch doktorant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlarining o‘ziga xosligi va fonetik xususiyatlari yoritib berilgan. Ingliz va o‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlari bir necha namunalari tahlili misolida takror san’atining qo‘llanilishi va o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *takror, anafora, anadiplosis, alliteratsiya, drastik gradatsiya, zanjirli semantik bog‘lanish.*

Аннотация. *В данной статье освещаются особенности и фонетические черты английских и узбекских детских фольклорных песен. На примере анализа нескольких образцов*

английского и узбекского детского фольклора раскрываются особенности использования повторов как художественного приёма.

Ключевые слова: *повтор, анафора, анадиплозис, аллитерация, градация, цепная семантическая связь.*

Abstract. *This article explores the unique features and phonetic characteristics of English and Uzbek children's folklore songs. Through the analysis of several examples, the study reveals how repetition is used as a stylistic device in both English and Uzbek children's folklore, highlighting its distinctive aspects.*

Key words: *repetition, anaphora, anadiplosis, alliteration, drastic gradation, chained semantic connection.*

Bolalar folklor qo‘shiqlari avloddan avlodga o‘tib boradigan hamda bolalarning bolalik dunyosini, tilini , ijodiy tasavvurini rivojlantirishda o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatgan bebaho madaniy merosdir. Bolalar qo‘shiqlari shunchaki so‘zlar va ohanglar yig‘indisi emas balki bola ongiga chuqur singib ketadigan, xotirasini mustahkamlaydigan hamda o‘z ona tilining naqadar jozibador ekanligini his qildiradigan mohirona yaratilgan san’at asarlaridir. Bolalar folklor qo‘shiqlarining ohangdorligi , xotirada tez va osongina qolishida turli xil fonetik vositalar qo‘llanilishi mumkin. Ularning markazida esa takror san’atining turli shakllari – anafora, epifora, simploka, anadiplosis, assonans va konsonans kabi usullar yotadi. Aynan shu takroriy elementlar bolalar qo‘shiqlariga o‘ziga xos ritm, ohangdorlik va esda qolarlilik baxsh etadi, ularni nafaqat ko‘ngilochar, balki o‘qituvchi va rivojlantiruvchi vositaga aylantiradi. Ushbu maqolada biz ingliz bolalar folklor qo‘shiqlarining boy dunyosida takror san’atlarining qanday namoyon bo‘lishini, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini va bolalar psixikasiga ta'sirini atroflicha ko‘rib chiqamiz.

Anafora – takrorning bir turi hisoblanib, u qo‘shiq she’rida bir xil boshlanuvchi so‘z yoki iboralarning qo‘llanilishi. Anafora qo‘shiq matnida boshlang‘ich urg‘u berish vazifasini bajaradi. Ingliz bolalar folklor qo‘shiqlarida anaforaning ko‘plab namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

Pease pudding hot, pease pudding cold,
Pease pudding in the pot - nine days old.
Some like it hot, some like it cold,
Some like it in the pot - nine days old.[1]
(No‘xat bo‘tqa — issiq taom,
Sovug‘ida ham bor orom.
Qozonda turar — to‘qqiz kun,
Baribir yeydi har bir jon.
Ba’zisi issiq yoqtirar,
Ba’zisi sovuq so‘rarlar.
Ba’zilar aytar: “Zo‘r bo‘lur,
To‘qqiz kun tursa, nur bo‘lur!”)

Ushbu qo‘shiqda *Pease pudding hot* jumlasi birinchi va ikkinchi satrlarda, *Some like it* esa uchinchi va to‘rtinchi qatorlarda takrorlanib anaforani hosil qilmoqda.

Quyidagi folklor qo‘shiqda ham anaforaning namunasini ko‘rish mumkin:

Simple Simon met a pieman going to the fair;
Said Simple Simon to the pieman " Let me taste your ware"
Said the pieman to Simple Simon " Show me first your penny"
Said Simple Simon to the pieman " Sir, I have not any!"[2]
(Sodda Saymon novvoyni uchratdi,
Sodda Saymon undandan so‘radi:
“Bir burdagina ber pirogingdan”
Novvoy dedi: “Ko‘rsat oldin pul manga!”
Saymon dedi: “O‘zimda yo‘q bir tanga!”)

Yuqorida keltirilgan misolda *Said Simple Simon* jumlasi ikkinchi va to‘rtinchi qatorda takrorlanib kelmoqda. Shuningdek ushbu keltitilgann parchada alliteratsiyani ham ko‘rish mumkin.

Alliteratsiya – bosh undosh tovushlar takrorlanishi bo`lib she'riy hamda nasriy asarlarda uchratish mumkin. Alliteratsiya bolalar folklor qo‘shiqlarida ham keng qo‘llanilib , uning ta'sirchanligi, ohangdorligi va xotiraga tez va osonlik bilan o‘rnashib qolishiga yordam beradi. Shuningdek alliteratsiya qo‘llanilgan so‘zga urg‘u berish, diqqatni tortishda ham muhim vosita sanaladi. Alliteratsiya orqali bolalarga yetkazib berilishi maqsad qilingan muhim g‘oyalarga e'tibor qaratiladi. Ushbu qo‘shiq matnida keltirilgan *Said Simple Simon* so‘zlarining barchasi "*s*" tovushi bilan boshlanishi bilan qo‘shiqdagi asosiy qahramon Simple Simon ("Sodda Simon") ga diqqatni qaratadi.

…Tepachaning ustida
Oqqina o‘tovni ko‘rdim.
Oqqina o‘tov ichida
Oqqina kelinni ko‘rdim.
Oqqina kelin oldida
Oqqina beshikni ko‘rdim.
Oqqina beshik ichida
Oqqina buvakni ko‘rdim.
Oqqina buvak oldida
Oqqina jomni ko‘rdim.[3]

"Dilon, Dilon" nomli o‘zbek xalq bolalar folklor qo‘shig‘idan olingan bu parchada har bir qatorda takrorlanib kelgan "*oqqina"* so‘zi anaforaning klassik namunasi hisoblanadi. Ushbu so`zning takror qo‘llanilishi orqali qo‘shiq matnida keltirilgan har bir obrazning har biri poklik, musaffolik, go‘zallik bilan bog‘lanadi. *Oqqina* so`zini bu yerda faqat rang ma'nosida emas, balki poklik, go‘zallik, yangi hayot, muqaddaslik kabi ramziy ma'nolarda ishlatilgan. Chunki o‘zbek xalqida oilaviy qadriyatlar, yangi tug‘ilgan chaqaloq, ona, oila muhiti- barchasi musaffo va ilohiy deb talqin qilinadi. Shu orqali anaforik takror ushbu folklor namunasida ma'naviy yuksaltirish uchun ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari ushbu qo‘shiq matnida anadiplosis qo‘llangan bo‘lib , bir satr oxirida ishlatilgan so‘z keying satr boshida takrorlanib kelmoqda va zanjirsimon bog`lanish hosil qilmoqda. Ya'ni , *o‘tov, kelin, beshik, buvak, jom* so`zlari satrlarda aynan takrorlanib batafsilroq tasvirni davom ettirmoqda. Anadiplosis orqali qo‘shiq matnida ritmik yaxlitlik, obrazning chuqurlashuvi va kompozitsion uzviylik ta'minlanmoqda. Anadiplosisning bolalar folklor qo‘shiqlarida qo‘llanilishini ingliz folklorida ham kuzatishimiz mumkin.

For want of a nail the shoe was lost.
For want of a shoe the horse was lost.
For want of a horse the rider was lost.
For want of a rider the battle lost.
For want of a battle the kingdom lost,
And all for the want of a horseshoe nail. [4]
(Mix yo‘qoldi – taqa yo‘q bo‘ldi.
Taqa yo‘q – ot yo‘qoldi.
Ot yo‘q – chavandoz yengildi.
Chavandoz yengildi – jang boy berildi.
Jang boy berildi – saltanat yutqazdi.
Hammasi bir mix sababli edi.)

Ushbu ingliz xalq bolalar folklor qo‘shig‘ida ham anadiplosis qo‘llanilgan bo‘lib, qo‘shiqqa kuchli ritm, ma'no kuchaytirish va zanjirli semantik bog‘lanish ta'sirini beradi. Har bir misra orqali zanjirli sabab-oqibat ifodalanib , har bir kichik yo‘qotish keyingi kattaroq yo‘qotishga olib kelgani ta'kidlanmoqda. Shuningdek she'rdagi yo‘qotishlar ahamiyati oshib borib , gradatsiya , ya'ni drastik kuchayib borish kuzatilmoqda:

Mix yo‘q – taqa yo‘q- ot yo‘q – chavandoz yutqazdi – jang boy berildi – saltanat boy berildi.

Xulosa qilib, aytganda bolalar folklor qo‘shiqlarida takrorning turli usullaridan foydalanish orqali bolalar qo‘shiqlariga o‘zgacha musiqiylik, ohangdorlik, ritm va ekspressiv bo‘yoqdorlik

xususiyatlari kuchaytiriladi. Bolalar folklor qo‘shiqlari qaysi bir xalq, millatga tegishli bo‘lmasin, takror san’atining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Linda Alchin. The Secret history of nursery rhymes. 2004. 35-p
2. Linda Alchin. The Secret history of nursery rhymes. 2004. 72-p
3. Sultonov.Y, Rahmonov.N, Turdimov.Sh. Chittigul. - T. : O'qituvchi, 1992. - 17-b.
4. Linda Alchin. The Secret history of nursery rhymes. 2004. 21 -p
5. Opie and P. Opie. The Oxford Dictionary of Nursery Rhymes (Oxford University Press, 1951, 2nd edn., 1997.

UO’K: 821.512.133.09-1

ZEBO MIRZO SHE’RLARIDA LIRIK QAHRAMON MASALASI

Q.V.Yo‘lchiyev, f.f.d., dots., Farg‘ona davlat universteti, Farg‘ona
Orcid: 0000-0001-7051-2704

Annotatsiya. *Maqolaning kirish qismida lirik qahramon muammosini Zebo Mirzo she’rlari misolida tadqiq etishning dolzarbligi asoslangan. Adabiyotlar tahlili va metodologiya bandida esa olimlarning fikrlari keltirilgan. Muhokama qismida esa Zebo Mirzo she’rlari tahlilga tortilgan. Shoira yaratgan lirik qahramonda muallif fikrlash tarzi, borliqni individual anglashi va ifodasi borligi ko‘rsatilgan. Lekin mullif obrazi hamma vaqt ham lirik qahramon bilan bir xil emasligi ham inobatga olingan. Xulosa keltirilgan. Foydalanilgan adabiyotlar tegishli tartibda sanab ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *obraz, kechinma, mifologik obraz, lirik qahramon, botiniy olam, badiiy-estetik idrok.*

Аннотация. *Во введении статьи обоснована актуальность исследования проблемы лирического героя на примере стихотворений Зебо Мирзо. В разделе об анализе литературы и методологии представлены мнения ученых. В обсуждаемой части анализируются стихи Зебо Мирзо. В лирическом герое, созданном поэтессой, показан авторский образ мышления, индивидуальное понимание и выражение бытия. Однако также учитывается, что он не всегда идентичен лирическому герою. Приведено заключение. Использованная литература перечислена в соответствующем порядке.*

Ключевые слова: *образ, переживание, мифологический образ, лирический герой, внутренний мир, художественно-эстетическое восприятие.*

Abstract. *The article introduces the relevance of examining lyrical heroes through Zebo Mirzo's poetry works. The section for literature analysis together with methodology contains expert scientific viewpoints. The research analyzes Zebo Mirzo's works in the discussion part. Through his lyrical creation the poet demonstrates how he thinks while expressing his personal understanding and heartfelt expression of existence. The lyrical hero exists in his own context but this does not imply that all time periods can be evaluated in his thinking. A conclusion is given. The literature appears in appropriate order within the research paper.*

Key words: *image, sentiment, mythological image, lyrical hero, inner world, artistic and aesthetic perception.*

Kirish. Lirik qahramonni ma’lum shoirga tegishli turkum she’rlar asosida o‘rganish orqali muallifning poetik mahorati haqida fikr yuritish mumkin. Shu ma’noda iste’dodli shoira Zebo Mirzo she’rlarini tadqiq etish zarurati bor. Birinchida, shoira yaratgan lirik qahramon borliqni badiiy idrok qilishda yangicha qiyofasi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, unda na’anaviylik ham yaqqol ko‘rib turadi. Lekin shoiraning lirik qahramon yaratish masalasi adabiyotshunoslar tomonida yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aslida “lirik qahramon” terminini adabiyotshunoslikka Y.Tinyanov olib kirgan. Olim lirik asar markazidagi shaxs va uning mavqei haqida fikr yuritadi va quyidagilarni qayd etadi: Lirik nutqni amalga oshiruvchi va keyin she’riyatga mavzuiy material sifatida ko‘chuvchi adabiy shaxs – “shoir, lirik qahramon, monologchi” adabiy takomil hamda taomillar almashunuvi bilan bog‘liqdir”[2.160-161]. Bunda olim lirik qahramon Lomonosov odasi, V.Jukovskiy she’rlari va Derjavinning prozaik she’rlari asosida stilizatsiya jarayonidan o‘tganini

yozgan. Demak, ma'lum takomil bosqichidan keyingina aniq xarakter shakliga kirgan lirik shaxs obraz ekanligini qayd etgan.

"Lirik qahramon – bu muallif botiniy olamini aks ettrish usullaridan biri, bu shoirning lirikadagi obrazi. Lirik qahramon – muallif-shorning badiiy "nusxasi" bo'lib, lirik kompozitsiya matni (turkum, she'riy kitob, lirik poema, butun lirikasi o'zagi)dan aniq ichki-ruhiy olamga ega, yorqin chizilgan qiyofa yoki individual taqdirga ega shaxs sifatida o'sib chiqadi"[3, 452]. Mazkur fikr ham yuqoridagi fikra yaqinligi bilan ajralib turadi. Unda lirik qahramon lirik kompozitsiyaga bog'ligi ta'kidlangan

H.Umurov lirik qahramon va, umuman, obraz haqida quyidagi mulohazani ilgari surgan: "Obraz umumlashmalik va individuallik qonuniyatlarining birlshuvidan yuzaga kelgan ekan, ularni, san'atkor dilidan o'tkazib, o'zligini qo'shib tasvirlarkan, albatta, unda badiiy to'qimaning, fantaziyaning qay darajadadir qudrati qo'shilgan bo'ladi"[1, 32]. Mazkur mulohazada bevosita lirik qahramon haqidagi jihatlar ham bor. Unda lirik obrazning umumlashmaligi, individualligi va muallifning botiniy olamida badiiy sintezi haqidagi fikr to'g'ri ko'rsatilgan.

Natija va muhokamalar. Ko'rinadiki, lirik qahramon haqidagi fikrlarda hali yaxlit yagona, xulosaviy qarash to'la shakllanmagan. To'g'ri, lirik qahramon lirik asar markazida turuvchi, lirik syujet (kechinma, o'y-kechinma)ni shakllantiruvchi shaxs ekanligi, mavhum holat, vaziyatni real voqelikda konkret predmet tasvirida berishi, umumlashma va xususiya jihatlariga egaligida umumiylik bor. Konkret ijodkor ijodida, she'rlarida esa lirik qahramon muallifning borliqni badiiy-estetik anglashi va ifodasi doim farqlanib turadi.

Aytish kerakki, Zebo Mirzo she'rlarining aksariyatida hayotni badiiy aks ettirishning sentimentalizm va mifologik oqimini qo'shib olib borish ko'zga tashlanadi. "*tirilish*" she'rida Odam Ato va Momo Havo ("*men bir ojiza-men axir Havvoman, Havvoman, Xudo!*"), jannat va do'zax, odamning qayta tirilish va u dunyoda o'zi istagan odam bilan yashashi mumkinligi haqidagi mifik tushunchalardan foydalanib, o'quvchini lirik qahramon xayolidagi olamga olib kiradi. Bu yerda o'quvchi ko'z o'ngida lirik qahramon "*go'r zulumotdan eng yorug' kunlarni terib ol...*" gan ma'nan jasoratli shaxs bo'lgani, lekin hozirgi "*ko'zi bog'lanib*", "*jahannam tubiga qulagan*", aynan shu tubanlikda turib asliga qaytish uchun tinimsiz kurashayotgan kishi sifatida tasvilanadi. Bu kurashda u "*nahslar qahrini ichiga yutib*", "*siltanib-siltanib uchmoq*"qa shaylanayotgan, ammo "*bag'rini yerdan uzolmayot*"gan va Xudodan bir tola nur so'rab o'tinayotgan odam sifatida gavdalandi. Shu yerda u o'zining Odam Ato va Momo Havvoga dahldor ekanligini anglamoqda. Chunki u xuddi Odam Ato va Momo Havo singari "*jannat qushlarining yodi*"da yashagan, "*mayin havolarni qo'msaydi*". Lirik qahramoning bunday deyishga haqqi bor. Chunki u hali o'zligini yo'qotganicha yo'q: "*tun* (zulmat, ma'naviy qashshoqlik, ruhiy inqiroz)*ni yorib o'sgan gul ko'zida muqaddas oyatday yuksalaman tik*" deya ruhida "*nimadir yangi*" ekanligini sezmoqda. Ruh balki "Qur'oni karim"da "puf" deb Xudo o'zidan kiritgan nafas[7], buddizmda Buddalikni anglagan Sidxarta Shakyamuni, nasroniylikda Xudoga o'xshatilib yaratilgan odamdir. Shuning uchun u haqli ravishda "*Men Havvoman*" demoqda. Shu o'rinda shoira o'zigacha bo'lgan bilim va tushunchalarni qayta ko'rib chiqyapti ("*Men – so'nggi tomchiman, Yagona najot*", "*Ishq-mening tushimda olgan bitta bo'sangizdan ko'rgan farzandim!..*", "*Mening uyim – ko'nglim qafasim"*, "*Xudo meni senga xatoga berdi*", "*Sening isming – muqaddas oyat*") va ularning yangi tomonini ochib berishga uringan. Aynan shu xususiyati bilan zamonaviy adabiyotdagi yetakchi oqim bo'lgan postmodernizmning dekonstruktiv kayfiyatini yuzaga chiqargan. Jak Derridaning fikricha, dekonstrutsiya bir tushunchadan boshqasiga o'tish emas, balki, konseptual darajada ag'darish va uning ma'nolarini urg'ulash hisoblanadi. Zebo MIrzo lirikasida ham XX asrda shakllangan dunyoqarashni tubdan qayta yaratib, mumtoz lirikadagi ishq motivi va lirik qahramon qarashlarini konseptual darajada yangilashga erishgan deyishga asos bor. Shoira lirik qahramon orali ko'plab diniy-mifologik tushunchalarning yangi ma'no qirralarini kashf etishga harakat qiladi.

Umrimni o 'tkinchi sabo berdim,
Eng so 'nggi chaqamni gadoga berdim,
Bu telba ruhimni Xudoga berdim.
Sabo olib bordi, gadoga berdi,
Gado yig 'ib bordi Xudoga berdim,

Xudo meni senga xatoga berdi,
Sen meni kimlarga berding, Azizim?

She'rga diqqat bilan razm solinsa, uning shakli ham o'zgacha: avvalgi ikki band uch qator, so'ng esa asosiy g'oyani ochib beruvchi satr keladi. Birinchi banda *sabo →gado → Xudo*, ikkinchi banda esa *sabo →gado → Xudo →xato* mazmuniy tizimi ko'zga tashlanadi. Lirik qahramonning hissiy dialektikasi birinchi bandda uch detal-obraz bilan yuzaga chiqyapti. Keyingi bandda esa ular yoniga to'rttinchi detal - xato qo'shilgan. She'r so'nggida esa alohida qatorda ritorik so'roqning kelishi va unda konkret shaxs uchun ishlatiladigan badiiy murojaat vositasi (*Azizim*)ning borligi she'r mazmuni va poetik g'oyasiga aniqlik kiritgan.

Shoira o'z poetik maqsadini ifodalash uchun tovushlardan, xususan o tovushining estetik ta'siridan juda unumli foydalangan. Qofiya uchun olingan so'zlarning o tovushi bilan tugashi o'quvchiga estetik zavq beradi. O tovushi kontekstda turli vazifa bajarishi mumkin. Zamirida lirik qahramonning dardi, huzur-halovati yashirin. Shoira satrlarning asosiy urg'u tushadigan o'rnida o tovushining qo'llashi bilan lirik qahramonning ichki kechinmasi, dardi, so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan hissiyotini ifolalayapti. Bu yerdagi sabodan murod, shunchaki, tongi shabada emas, balki umrni oluvchi o'tkinchi sabo – bu yoshlikning hoyi havaslari, amalga oshmaydigan orzu- umidlar ortidan quvish kabi ma'nolarni anglatadi. Gado – umr, baxt, muhabbat so'rab keluvchi. Chaqa – esa umid, muhabbat, tuyg'u, omad, baxt kabi poetik ma'nolarni anglatadi. Lirik qahramon o'zining eng aziz tuyg'u, umid, muhabbatini gadoga berdi. Lekin gado undan taskin oldi-yu baxt bermadi. Gado ham oxirida uni tashlab ketdi va lirik qahramon Xudoning taqdiriga tashlab qo'yildi. Endi u Xudo bilan qoldi. Yolg'iz Xudogina unga taskin va umid bermoqda. Shu yerda lirik qahramon, o'z zimmasidagi vazifani anglamoqda: Xudo meni senga xato (qilish)ga berdi. Shoira Momo Havoning yaratilishi bilan bog'liq mifga murojaat qilgan. Ya'ni, Odam Atoni olim, farishtalar obid qilib yaratildi. Olimning olimligi isbotlanishi uchun u hayotiy izlanishlar olib borish kerak. Odam xatolar qilib, adashib, asl yo'lga, hidoyat yo'lig chiqishi mumkinligi, asl haqiqatni, idealni, Allohni anglashi mumkinligiga ishora qilinadi. Ammo Odam ana shu xatoga yo'l qo'yishi uchun sabab-vosita kerak. Lirik qahramon o'zining sevgani uchun vosita qilib yaratilganini biladi. Shuning uchun meni xato (qilish)ga berdi, deya ta'kidlaydi. Birinchi galda, lirik qahramon o'zining javobsiz sevgisi va erta uzilgan baxti uchun qayg'urayotgandek tuyulyapti. Bu to'g'ri, lekin kontekstda, boshqa, ikkinchi mazmun ham bor. Eng avvalo, bu qayg'u, oshiq yoki idealning zimmasidagi vazifani, mohiyatni ochilmay qolishidan havfsirash qayg'usidir. Ana shu qayg'u lirik qahramonni boshqarmoqda. U kelajakda o'z oshig'ini yoki idealidagi kishining maqsadsiz qolishidan cho'chiyapti. Ana shuni anglash yo'lidagi iztiroblarini qog'ozga tushiryapti.

Kelajakni ko'rish, tushunish bu amalda bilish degani hamdir. Tushunish esa doimo muhitga bog'liq bo'ladi. Shoira uchun bunday muhit uning she'rlarida yuzaga chiqqadi. Shoira she'rlaridagi muhit, zamon bu his etish, bilish, anglash, kurashish va doimo olg'a borish manbai bo'lib kelgan. Shuning uchun bizning tushunchamiz kontekstga bog'liq bo'ladi. Chunki kontekstdagi odam (lirik qahramon)ning mavjudligi o'z-o'zini namoyon etuvchi sifatida ichki kechinmasini teran ifodalaydi. Shuning uchun lirik qahramon olami she'rda bizga ko'rinib turgan badiiy voqelikka nisbatan kengroq ekanligini e'tirof etish mumkin. Lirik qahramonning o'tgan zamoni, hozirgi kuni va kelajagi bir she'rda namoyon bo'ladi. Hozirgi zamoni orqali lirik qahramon o'z oshig'i, undan umr, baxt so'rab kelgan gado, u bilan o'tkazgan baxtli kunlari va o'tkinchi saboga sovurgan yillari, so'ngra undan ayrilgan daqiqasidagi kechinmalari va kelajagini tasvirlagan. Diqqat qilinsa, shoira sanayotgan lahzalar o'z ichiga yillarni sig'dirgan. Bunday xulosalar lirik qahramonning she'rdagi voqelik va detallarga munosabatidan anglanmoqda. Birinchi satrdagi sabo (tonggi yoqimli, mayin shaboda) detal sifatida kelyapti. Keyingi bandda esa sabo obraz darajasiga olib chiqilgan. Saboning go'zal va kishiga xush yoqishi bilan uning bag'rida lirik qahramonning baxtli daqiqalari ham borligi ochilgan. Gadoning chaqani olishi va uni yig'ib borib Xudoga berishida ham lirik qahramon o'z ideali bilan yashagan. Chunki nimanidir yig'ish uchun lirik qahramon tasvirlagan gadoga vaqt kerak. Ana shu vaqt ichida esa gado baxtli, lekin u o'z baxtini boy berishga mahkumdir. Shu o'rinda inson bir vaqt ham baxtli ham baxtsizdir degan tamoyilga amal qilingani oydinlashyapti. Chunki lirik qahramon birinchi bandning so'nggida o'z ruhining "telba" lini va uni Xudoga berganini tan olyapti. Oshiq yoki idealga esa faqat jism qolyapti. U ham bir kuni ruh kabi Xudoga qolmoqda.

Shoira o‘z she’rlarida lirik qahramon ichki dunyosini so‘z, ibora, obraz, detal va, ayniqsa, tinish belgilaridan unumli foydalangan. Ayniqsa, so‘roq belgisi, undov belgisi, tire, ko‘p nuqta shoira uchun ma’lum bir poetik vazifani, lirik qahramon kechinmasini ifodalash uchun xizmat qilganini alohida ta’kidlash shart.

Uzoq kutdim nimani buncha?
Tushlarimda ham izladim imkon.
Boshimni egib yashadim shuncha,
Bunchalar pastsan, osmon.
Osmon! [10,32]

Mazkur band she’rning boshlanishi bo‘lib, she’r ritorik so‘roq bilan boshlangan. Bunda lirik qahramon o‘tgan umri, faoliyatini tahlili natijasida kelingan xulosani javobsiz savol tarzda ifodalaydi. Aynan ana shu xususiyat lirik subyekt kechinmasidagi afsus, armon tabiatini ko‘rsatadi. Ammo bu tushkunlikni emas, balki irodasi mustahkam, kelajakdan umid qiluvchi shaxsni anglatadi. Keyingi misralardagi “*Tushlarimda ham izladim imkon* / *Boshimni egib yashadim”* satrlarida lirik qahramon real hayotdan topolmagan istagini, maqsad va idealini topish uchun tinimsiz intilishganini ta’kidlagan. Bunda tush detaliga ishora qiladi. Holbuki tush ruhiy-psixologik jarayon bo‘lib, kishi qattiq istasa yoki charchasa xayolida o‘sha istak davom etishi mumkinligi barchaga ma’lum hodisa sanladi. Shoira ana shu voqelikni lirik qahramon ruhiyati, botiniy olamidagi baxt, istakka yetishish vositasi sifatida beradi. Yerga qarab yashash bir qarashda ilojsiz, chorasiz vaziyatni anglatsa, bu yerda lirik qahramon o‘z qalbiga yaqin odamni o‘z ichki olamidan izlashiga ishora qilganini ko‘rish mumkin. Ana shu izlanish mahsuli esa lirik subyekt botinidagi tug‘yon, isyonni ijtimoiy adolatsizlikka, haqsizlikka qarshi badiiy murojaat sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Natijada undov belgisi takror ritmik usuli yordamida osmon so‘zini obrazga aylantirgan. Osmon dastlab lirik qahramonga dunyoning torligi, orzulari amalga oshib, boshini tik tutib yashasi uchun pastlik qilishini anglatsa, keyingi o‘rindagi osmon lirik qahramoning intilgan obyekti sanaladi (“*Baxt deganingga teng ko‘rmading hech, Nahot berganlarim bo‘lsa kam?*”). Lirik qahramon hamon uni sevadi, unga talpinadi. Lekin real hayotda inson doimiy baxtli bo‘lolmaydi, visol, baxt istagi lirik qahramonning asosiy ruhiy qudratini, hayotsevarligini ham bildiradi. Buni lirik qahramon “*Bo‘shat qabrimdan, Osmon!*” [10, 32] deya muroijaatida ham kuzatish mumkin. Lekin ungacha osmon obraz sifatida bir qancha mazmuniy qatlamlarini ochib beradi.

Zebo Mirzo she’rlaridagi lirik qahramon tasvirlagan odamni yetuk odam deyish mumkin. Shuning uchun uning ismini “*farishtlar zikr etar betinim*”, uning ismi “*Arsh etagidan qadr tuni to‘kilgan xayol*” va “*muqaddas oyat*”. Unga barcha yetuk sifat va vazifalar (“*nafasing tekkan har narsa uyg‘onar, Jonlanib ketadi hatto tosh*”[10, 16], “*...kuyik ko‘ngilning jannatiy xobi, do‘zax azobi*”[10, 36], “*Kaftingda ayolga aylanar g‘uncha, shu qadar masrursan! ... seniki shu dunyo kecha-ketguncha*” [10, 17], “*Sening uying osmon*” [10, 54]) tegishli hisoblanadi. Ana shunday komil sifat va narsalar orasidagi aloqani oddiy ong bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Bu ongda kechadigan o‘zgacha hodisa sanaladi. Mavjudligi bo‘yicha o‘tkinchi, ammo oddiy odamga nisbatan yuksak va u anchayin komilroq mavjudlikdir. Chunki u kontekstdan kontekstga lirik qahramon ichki vaqti bo‘yicha yashayapdi. O‘quvchi uni sezadi, tasavvur qiladi. Bunday ideallik o‘z madaniyati, o‘z dunyoqarashiga ega. Zamonaviy odam idealga aylanishi mumkin. Buning uchun tabiiy qonunlarni bilishi va ularni boshqara olishini namoyon qilish, anglashi, vaqt qonunini o‘ziga bo‘ysundirish kerak. Bu esa inson o‘z kuchiga ishonsa amalga oshadi. Postmodernizmning bu xususiyati “insonni yangitdan kashf etish kerak. Buning uchun ratsonal inson konsensiyasidan, insonni sxemaga solish, ideallashtirish g‘oyalaridan voz kechish va uning zamonaviy namunasini yaratish lozim. Bunday namuna o‘zining jismi, ongi, ong osti faoliyati bilan XX asrdagi fojeaviy iztirob, ruhiy zarbalarga javob topsin va tamaddunning rivojlanishini belgilab bersin”[8, 981], degan mulohazani o‘rtaga tashlaydi. Bu bugungi o‘zbek adabiyotining bosh muammosi bo‘lgan zamonaviy qahramon yaratish va uning jamiyatni boshqarishdagi roli hamda o‘rnini belgilashdagi vazifalarga to‘la mos keladi.

Xulosa. Zebo Mirzo she’rilarida lirik qahramon she’r kompozitsiyasini tashkil etuvchi asos sifatida keladi. Lirik subyekt botiniy olamidagi mavhum kechinma, jarayonni aniqlashtirib, inson tasavvur qilishi mumkin bo‘lgan reallik bilan ifodalaydi. Natijada lirikadagi subyektiv olam nisbatan

obyektivlashadi. Ammo aynan muallifning o‘zi emas, yoki to‘la to‘kis “lirik men” ham bo‘lolmaydi. Balki alohida shaxs sifada yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Умуров, Хотам. Адабиёт назарияси: (Дарслик). — Тошкент: Шарк, 2002. – 256 б.

2. Тынянов Ю. Н. Литературный факт /Вступ. ст., коммент. В. И. Новикова, сост. О. И. Новиковой. — М.: Высш. шк., 1993. – 319 с.

3. Роднянская И.Б. Лирический герой / Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. — М.: НПК «Интелвак», 2001. – Стб. 1040.

4. Zebo Mirzo. Nur kukunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 128 b.

UDC 81-13

ADJECTIVE IN LATIN AND GRAMMAR CATEGORIES OF ADJECTIVE

S.K.Yorova, PhD, Samarkand State Medical University, Samarkand
P.Khushnoor, student, Samarkand State Medical University, Samarkand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lotin tilidagi sifatlar va ularning grammatik kategoriyalari o‘rganilgan. Sifatlarning jins, son va kelishik kabi o‘zgaruvchan shakllari, shuningdek, ularning sintaktik vazifalari va gapdagi o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *lotin tili, sifat, grammatik kategoriya, jins, son, kelishik, morfologiya, sintaksis.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются прилагательные в латинском языке и их грамматические категории. Анализируются изменяемость прилагательных по роду, числу и падежу, а также их синтаксические функции и роль в структуре предложения.*

Ключевые слова: *латинский язык, прилагательное, грамматические категории, род, число, падеж, морфология, синтаксис.*

Abstract. *This article examines adjectives in the Latin language and their grammatical categories. It explores the morphological changes of adjectives in terms of gender, number, and case, as well as their syntactic functions and placement in sentence structure.*

Keywords: *Latin language, adjective, grammatical category, gender, number, case, morphology, syntax.*

Introduction. An adjective is a part of speech that describes, identifies, or quantifies a noun or pronoun. In the context of grammar, adjectives play a crucial role in providing additional information about a noun, thereby enhancing the meaning and clarity of sentences. By modifying nouns, adjectives help convey specific attributes, characteristics, or qualities, allowing for more vivid and precise communication.

Adjectives can be categorized based on their function. Descriptive adjectives, for instance, characterize a noun by providing information about its qualities, such as color, size, shape, or emotional state. For example, in the sentence "The tall building towered over the small houses," the adjective "tall" describes the building, while "small" provides information about the houses.

Both adjectives allow the reader to visualize the scene more clearly. Another type of adjective is the quantitative adjective, which indicates the quantity of the noun being modified. In the sentence, "She has three cats," the adjective "three" specifies the number of cats. This type of adjective is essential for conveying information related to amounts or degrees.

Additionally, adjectives can be used in comparative and superlative forms to compare different nouns. For example, in the sentence "This book is more interesting than that one," "more interesting" serves as a comparative adjective, emphasizing the difference between the two books. Similarly, in "She is the smartest student in the class," "smartest" is a superlative adjective that highlights her position among all students. Overall, adjectives are vital components of language that enrich our communication by providing essential details and enabling comparisons, making our expressions more engaging and informative.

Material and methods. Grammar categories of adjectives.

Adjectives can be classified into several grammatical categories, each serving a distinct purpose in modifying nouns or pronouns. The primary categories include descriptive, quantitative, demonstrative, possessive, and interrogative adjectives.

Descriptive adjectives. Descriptive adjectives provide information about the qualities or attributes of a noun. They help paint a vivid picture in the reader's mind. For example, in the sentence "The colorful flowers bloomed in the garden," the adjective "colorful" describes the flowers, giving insight into their appearance. Descriptive adjectives can modify nouns in various ways, including indicating color, size, shape, or emotional state.

Quantitative adjectives. Quantitative adjectives indicate the quantity of the noun they modify. They answer questions such as "How many?" or "How much?" For instance, in "There are five apples on the table," the adjective "five" specifies the exact number of apples. This category is crucial for expressing amounts and can include both cardinal numbers (one, two, three) and ordinal numbers (first, second, third).

Demonstrative adjectives. Demonstrative adjectives are used to point out specific nouns. They include words like "this," "that," "these," and "those." For example, in the sentence "l prefer this book over that one," "this" and "that" help to specify which books are being compared. They establish a clear connection between the speaker and the nouns, indicating proximity and reference.

Possessive adjectives. Possessive adjectives show ownership or possession. They include words such as "my," "your," "his," "her," "its," "our," and "their." For instance, in "Her car is parked outside," the adjective "her" indicates to whom the car belongs. Possessive adjectives are essential for conveying relationships between people and objects.

Interrogative adjectives. Interrogative adjectives are used in questions to modify nouns. They include words like "which," "what," and "whose." For example, in the question "Which book did you choose?" the adjective "which" helps specify the noun "book" in the context of the inquiry. Interrogative adjectives are crucial for gathering information and clarifying specifics in conversations.

Each of these categories plays a significant role in sentence construction, enhancing clarity and providing essential details about the nouns they modify. Understanding these categories helps in using adjectives effectively in both written and spoken communication.

Vocabulary forms of adjectives. Adjectives can take various forms to express different degrees of comparison, primarily through comparative and superlative forms. These variations allow speakers and writers to convey distinctions in quality, size, and other attributes among nouns. Understanding how to form these variants is essential for effective communication.

Comparative adjectives. Comparative adjectives are used to compare two nouns, indicating that one possesses more or less of a quality than the other. The rules for forming comparative adjectives vary based on the number of syllables in the adjective: 1 . One-Syllable Adjectives: For most one syllable adjectives, the suffix " -er" is added. For example: Tall Taller Fast Faster Two-Syllable Adjectives: For most two syllable adjectives ending in "-y,"

the "-y" is replaced with "-ier":

Happy Happier Easy Easier

Two or More Syllables: For adjectives with two or more syllables, "more" is placed before the adjective:

Beautiful More beautiful

Interesting More interesting

Superlative adjectives. Superlative adjectives express the highest degree of quality, comparing three or more nouns. The formation rules are similar to those for comparative adjectives:

1 . One-Syllable Adjectives: The suffix "-est" is added:

Tall Tallest

Fast Fastest

1. Two-Syllable Adjectives: For two-syllable adjectives ending in "-y,"

1. change "-y" to "-iest":

Happy Happiest

Easy Easiest

1. Two or More Syllables: Use "most" before the adjective:

Beautiful Most beautiful

Interesting Most interesting

Irregular adjectives. Some adjectives have irregular forms that do not follow the standard rules for comparison. These include:

Good Better (comparative), Best (superlative)

Bad Worse (comparative), Worst (superlative)

Far Farther (comparative), Farthest (superlative)

Irregular adjectives must be memorized, as they do not conform to the typical patterns of formation. Understanding these forms is crucial for accurate speech and writing, enhancing clarity and precision in communication.

Conclusion. Predicative adjectives, on the other hand, come after a linking verb and relate to the subject of the sentence. They provide information about the subject rather than modifying a noun directly. For instance, in the sentence "The sky is blue," the adjective "blue" is predicative because it follows the linking verb "is" and describes the subject "the sky." This construction is particularly important in conveying states of being or conditions.

Predicative adjectives can also be used in conjunction with other verbs, such as "become" or "seem," as in "She became tired." Here, "tired" is predicative, giving insight into the subject's state after the action of the verb.

Both attributive and predicative adjectives play a vital role in sentence structure. Attributive adjectives enhance the noun they precede, while predicative adjectives provide essential information about the subject. Understanding the correct placement of each type helps in crafting clear and effective sentences, ultimately contributing to richer and more nuanced communication.

REFERENCES:

1. Karimovna, Y. S., & Zulkarnain, S. (2023, November). Degrees of comparison of adjectives and coordination with nouns of fifth declension. In *Konferensiyalar| Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 80-82).

2. Yorova, S. K. (2024). Specialized Speech Potential in the Field of Medicine. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, *2*(5), 175-180.

3. Karimovna, Y. S., & Sachdeva, L. (2023). Different Approaches And Issues Of Teaching Foreign Language In Context Of Globalization. *Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali*, *3*(5), 226-229.

4. Karimovna, Y. S., & Olimovna, H. F. (2024). Tibbiy diskursga xos bo 'lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *1*(8), 68-71.

5. Karimovna, Y. S. (2020). English and Uzbek medical conversation between doctor and patient (Analysis from a linguistic point of view). *Journal of Critical Reviews*, *7*(5), 292-294.

UO'K 811.512.133-055

O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLIKDA GENDER MASALALARI: NAZARIYALAR VA TADQIQOTLAR

B.Yuldasheva, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek va xorijiy tilshunoslikda gender masalalari o'rganilishi bayon qilinib, unda gender, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar, shuningdek, gender rollarining tildagi ifodalanishini, tadqiqotlarda gender rollarining tillar tizimida qanday berilganligini, tarixiy rivojlanish va madaniy kontekstdagi farqlarning muhokamasi tahlilini o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar. *O'zbek tilshunosligi, xorijiy tilshunoslik, gender rollar, til tizimi, madaniy kontekst.*

Аннотация. *В данной статье исследуются гендерные вопросы в узбекской и зарубежной лингвистике. Анализируются взаимодействия между полом, языком и культурой, а также языковое выражение гендерных ролей. Исследование охватывает аспекты исторического развития, культурного контекста и различий в выражении гендера.*

Ключевые слова. *Узбекское языкознание, зарубежное языкознание, гендерные роли, языковая система, культурный контекст.*

Abstract. *This article examines gender issues in Uzbek and foreign linguistics. The interactions between gender, language and culture, as well as the linguistic expression of gender roles, are*

analyzed. The research includes aspects of historical development, cultural context, and differences in gender expression.

Key words. *Uzbek linguistics, foreign linguistics, gender roles, language system, cultural context.*

Gender lingvistika tillar va gender identifikatsiyalari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan soha bo‘lib, gender rollarining til orqali ifodalanishi va gender identifikatsiyalarining tildagi aks etishi kabi masalalarni qamrab oladi. Ushbu maqola o‘zbek va xorijiy tilshunoslikda gender masalalarini ko‘rib chiqadi, gender lingvistikasining asosiy nazariyalarini taqdim etadi va amaliy tadqiqotlar orqali gender rollarining til orqali ifodalanishini tahlil qiladi. O‘zbek va xorijiy tilshunoslikda gender masalalari so‘nggi yillarda muhim tadqiqot mavzusi bo‘lib qolmoqda. Gender, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tilshunoslikka yangi nazariyalar va yondashuvlar kiritmoqda. Misol uchun, feministik tilshunoslik, gender rollarining til orqali qanday shakllanishini o‘rganadi. O‘zbek tilida “xotin” va “er” so‘zlari, odatda, an’anaviy gender rollarini ifodalaydi [4]. O‘zbek tilida “xotin” atamasi ko‘pincha ayolning oiladagi rolini, “er” esa erkakning oiladagi o‘rnini belgilaydi va bu so‘zlar gender stereotiplarining mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi. Xorijiy tadqiqotlarda, masalan, tilshunos Lakoff [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, tilning gender roli qanday shakllanishi haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Olim ayollarning tilga xos xususiyatlari ko‘pincha qabul qilingan gender rollariga bog‘liqligini ta’kidlaydi[2].

O‘zbekistonda gender masalalarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va intervyular olib borilgan, bu esa gender masalalariga oid xulosa chiqarishga yordam beradi [5]. Gender masalalarini o‘rganishda, S. T. Serebrennikov [3] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, o‘zbek tilidagi gender rollarining belgilanishi va bu belgilarning ijtimoiy tenglikka ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari gender tengligi va til o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Gender lingvistika sohasida o‘zbek va xorijiy tilshunoslikda tadqiqotlar quyidagi metodologiyalar orqali amalga oshiriladi:

1.Lingvistik analiz: bunda gender atamalar, so‘zlar va ularning til strukturasidagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘zbek va xorijiy tillarda gender olmoshlar va so‘zlar qanday ishlatilishi va gender rollarining til orqali qanday aks ettirilishi o‘rganiladi. Misol uchun, o‘zbek tilidagi gender olmoshlar (u, ular) va gender so‘zlari (xonim, janob) kabilar tahlil qilinadi.

2. Empirik tadqiqotlar: bu turdagi tadqiqotlarda so‘rovnomalar, intervyular va tajribalar orqali gender rollarining til orqali qanday ifodalanganligi va qabul qilinganligini o‘rganiladi. Bu metodologiya o‘zbek va xorijiy tillarda gender identifikatsiya va gender roli qanday o‘zgarishini aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, o‘zbek va xorijiy tillarda gender tengligi va diskriminatsiya bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishni aytishimiz mumkin.

3.Tarixiy analiz: Tarixiy analiz metodologiyasida gender til ifodalarining tarixiy rivojlanishini va madaniyatdagi o‘zgarishlari o‘rganiladi. Bundan tashqari tarixiy matnlar va arxiv materiallarini tahlil qilish orqali gender rollarining vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganligini aniqlash va o‘zbek tilida va xorijiy tillarda gender ifodalarining tarixiy rivojlanishini taqqoslash mumkin.

4.Madaniyatlararo tadqiqotlar: turli tillar va madaniyatlarda gender ifodalari qanday farq qilishini taqqoslash ushbu turdagi tadqiqotlarda amalga oshiriladi. O‘zbek va xorijiy tillar orasidagi gender til ifodalarining farqlari va o‘xshashliklarini o‘rganish hamda gender rollarining ko‘rsatkichlari va madaniyatdagi ta’sirlarini solishtirish ham shu metodologiyaga xos. O‘zbek va xorijiy tilshunoslikda gender masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarga olib keladi:

1.Gender til ifodalari: o‘zbek va xorijiy tillarda gender identifikatsiyalarini ifodalovchi tillar va gender olmoshlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan. Masalan, o‘zbek tilida gender olmoshlar va so‘zlar qanday ishlatilishi tahlil qilinadi, ingliz va boshqa xorijiy tillarda gender ifodalari qanday o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi.

2.Gender rollar va tildagi o‘zgarishlar: tildagi gender rollar va ifodalar madaniy va tarixiy kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin. O‘zbek tilidagi gender rollar va ifodalar bilan xorijiy tillardagi gender rollarini taqqoslash, gender ajratish va gender tengligi haqida ma’lumot beradi.

3.Gender insonlararo munosabatlarda: gender til ifodalari shaxslararo munosabatlarga ta’sir qiladi, bu esa gender tenglik va diskriminatsiyaga olib kelishi mumkin. O‘zbek va xorijiy tillarda gender til ifodalari va gender rollarining shaxslararo muloqotda qanday muammolar yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi barcha tadqiqotlar gender masalalari tilda qanday aks etishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida gender stereotiplarini tasvirlovchi ko‘plab iboralar mavjud. Masalan, “erkak kishi” yoki “ayol kishi” iboralari gender rollarini ifodalaydi, bu esa an’anaviy tushunchalarning davom etishini ko‘rsatadi [7]. Xorijiy tadqiqotlar, masalan, ingliz tilida “man up” yoki “like a girl” iboralari, gender stereotiplarining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin [8]. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi-ki, til gender rollarini kuchaytiradi, bu esa shaxsiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keladi [1].

O‘zbek va xorijiy tadqiqotlar tahlilida bir qancha o‘xshashliklar va farqlar mavjudligi namoyon bo‘ldi. O‘zbek tilida “ayol kishi” iborasi ko‘proq hurmatni ifodalaydi, ammo ba’zan gender rollarini qattiq belgilaydi. Xorijiy tadqiqotlarda esa, ko‘pincha gender tengligi haqida gapiriladi va bu tilga qanday ta’sir etishi tahlil qilinadi. Masalan, Judith Butler [1] “Gender Trouble” asarida genderning ijtimoiy konstruktsiya sifatida o‘rnini ta’kidlaydi va bu genderning tildagi ifodasiga qanday ta’sir qilishini ochib beradi.

Gender masalalari tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar gender rollarining til orqali qanday yaratilishi va mustahkamlanishini, shuningdek, gender tengligi haqida muhokama yuritish imkonini beradi. O‘zbek tilida olib borilgan tadqiqotlar, masalan, ayollarning o‘zini tutish tarzidagi o‘zgarishlar, ularning mamlakat iqtisodiyoti va siyotida olib borilayotgan islohotlardagi o‘rni gender tengligi haqidagi fikrlarining o‘zgarishini ko‘rsatadi.RAH Shuningdek, xorijiy tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar gender masalalarining ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday aks etishini aniqlashtirishga yordam beradi. Masalan, feminizmning tilning gender roliga ta’siri ko‘plab tadqiqotlarda muhokama qilingan[8]. Shuningdek, o‘zbek va xorijiy tilshunoslikda gender masalalari bo‘yicha qilinayotgan o‘zgarishlar va yangiliklarni inobatga olish muhimdir, chunki tillar va gender rollar davomli rivojlanishda bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan fikrlar o‘zbek va xorijiy tilshunoslikda gender masalalarining qanday yondashuv asosida tahlil qilinayotganiga ahamiyat berish lozimligini anglatadi. Gender rollarining tilda ifodalanishi, tilshunoslikning ijtimoiy kontekstda qanday muhim o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida gender masalalari tobora ko‘proq e’tiborga olinmoqda va bu o‘zgarishlar tilga qanday ta’sir etishini tushunish muhimdir. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun ham gender masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish zarurdir chunki gender masalalarida til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy jamiyatda alohida e’tiborni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Butler, J. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York: Routledge.

2. Lakoff, R. (1975). Language and Woman's Place. New York: Harper & Row.

3. Serebrennikov, S. T. (2000). Gender rollari va ijtimoiy tenglik: O‘zbek tilidagi tadqiqotlar. O‘zbek filologiyasi jurnali, 3, 45-58.

4. Rahimova, D. (2018). O‘zbek tilida gender masalalari: Nazariyalar va amaliyot. Tilshunoslik va madaniyat, 2(1), 78-85.

5. Khamraeva, N. (2021). O‘zbek Tili va Gender Stereotiplar: Yondashuvlar va yechimlar. Lingvistika va zamonaviy O‘zbekiston, 4(2), 112-120.

6. Hymes, D. (1974). Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.

7. Tashkent, A. (2020). Gender rollari va o‘zbek tili: Tahlil va tavsiyalar. O‘zbek tili va madaniyati, 5(3), 15-23.

8. Coates, J. (1998). Language and Gender. Oxford: Blackwell Publishing

UO'K 81-26'06.053.56

SINXRON TARJIMA: NAZARIY ASOSLAR, MUAMMOLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

K. Yuldasheva, doktorant, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sinxron tarjimaning nazariy va amaliy asoslari, uning boshqa tarjima turlaridan farqlari, afzallik va cheklovlari keng tahlil qilingan. Shuningdek, tarjima jarayonida uchraydigan lingvistik, psixologik va texnik muammolar, ularni bartaraf etish strategiyalari ham ko'rib chiqilgan. Maqolada sinxron tarjimonlarga qo'yiladigan talablar, tarjimaning sifatini baholash mezonlari va sinxron tarjimaning bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sinxron tarjima, og'zaki tarjima, tarjimon, strategiya, psixolingvistika, grammatik muammo, semantik ekvivalentlik, xato tahlili, real vaqt tarjimasi.*

Аннотация. *В данной статье подробно рассмотрены теоретические и практические основы синхронного перевода, его отличия от других видов устного перевода, а также его преимущества и ограничения. Особое внимание уделено лингвистическим, психологическим и техническим трудностям, возникающим в процессе перевода, и стратегиям их преодоления. Также раскрываются требования к синхронному переводчику, критерии оценки качества перевода и актуальность синхронного перевода в современном мире.*

Ключевые слова. *синхронный перевод, устный перевод, переводчик, стратегия, психолингвистика, грамматическая проблема, семантическая эквивалентность, анализ ошибок, перевод в реальном времени.*

Abstract. *The article provides an in-depth examination of simultaneous interpretation (SI), regarded as one of the most complex and demanding forms of interpreting. Unlike consecutive interpreting, SI involves delivering the translation in real-time, almost simultaneously with the speaker's speech, without requiring pauses or interruptions. This characteristic makes SI particularly suitable for international conferences, high-level diplomatic meetings, live broadcasts, and other real-time communication scenarios.*

Key words: *simultaneous interpretation, oral translation, interpreter, interpreting strategy, psycholinguistics, grammatical challenges, semantic equivalence, error analysis, real-time translation*

Sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng qiyin turi bo'lib, bunda sinxron tarjimon so'zlovchi (ma'ruzachi, chiqish qiluvchi, bayonot beruvchi, savollarga javob beruvchi...) nutqi bilan bab-baravar qadam tashlaydi, uni bir vaqtning o'zida tarjima qiladi. Shu sababli ham tarjima uchun alohida vaqt ajratilishi talab qilinmaydi va ma'ruzachi ham o'z nutqini to'xtatishga majbur bo'lmaydi. Bir paytning o'zida og'zaki nutqni eshitish va uni tarjima qilish sinxron tarjimaning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Sinxron tarjima birinchi navbatda turli xalqaro va davlatlararo uchrashuvlar, konferensiyalar, seminarlar, matbuot anjumanlari va boshqa yig'inlarda keng qo'llaniladigan tarjima turi hisoblanadi. Ammo, shu bilan birgalikda, bugungi kunda sinxron tarjimaning boshqa ko'pgina o'rinlarda, masalan, muayyan bir tilda yaratilgan kinofilmlarni namoyish etish jarayonida parallel vaqtda boshqa tilga o'girish, teleradiokanallar orqali to'g'ridan-to'g'ri berilayotgan ma'lum shaxslarning chiqishlari yoki intervyularini bir paytning o'zida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish kabi o'rinlarda ham qo'llanilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Amalda sinxron tarjimaning quyidagi uch varianti kuzatiladi:

1) eshitib sinxron tarjima qilish;
2) qog'ozga qarab sinxron tarjima qilish;
3) oldindan tarjima qilingan matnni sinxron o'qish [1. B. 3].

Sinxron tarjima nafaqat o'zining anchagina qiyin va murakkab ekanligi, balki eng tezkor tarjima sifatida o'ta muhim va qimmatli ekanligi bilan ham ajralib turadi. Agar yozma – yozma tarjima yordamida bir tildagi ma'lumot ikkinchi tilga ma'lum vaqt oralig'idan so'ng yetkazilsa,

og‘zaki – og‘zaki tarjima, ayniqsa uning sinxron tarjima turi bir tildagi ma’lumotning ikkinchi tilga yetkazilishi uchun hech qanday vaqt oralig‘iga hojat qoldirmaydi. Boshqacha qilib aytganda, agar tarjimaning boshqa turlari faqat ma’lum vaqt oralig‘ini bosib o‘tish sharti bilan tillar o‘rtasidagi to‘siqni olib tashlashga erishsa, sinxron tarjimaning maqsadi tillar o‘rtasida shunday farq yoki to‘siqning mavjud ekanligini bilintirmaslikka, tafovutlar o‘rtasidagi vaqt oralig‘ini esa keskin qisqartirishga qaratilgan bo‘ladi.

Sinxron tarjima tarjimondan nafaqat yuqori bilim darajasi, katta tajriba va yuksak mahorat, balki katta mas’uliyatni ham talab qiladi. Bir tilda bayon etilayotgan fikr va ma’lumotni to‘xtalishsiz, shu zahotiyoq ikkinchi bir tilga o‘girib berish mas’uliyati sinxron tarjimani boshqa tarjima turlaridan ajratib turuvchi yana bir muhim jihati hisoblanadi.

Sinxron tarjima ma’lum bir tilda so‘zlovchi (ma’ruzachi, chiqish qiluvchi, bayonot beruvchi, savollarga javob beruvchi va sh.k.) bilan ikkinchi bir til egasi bo‘lgan tinglovchi o‘rtasida hech qanday vaqt talab etmaydigan jonli aloqa, ko‘prik vazifasini bajaradi.

XX asr boshlaridan qo‘llanila boshlagan sinxron tarjima o‘z mohiyatiga ko‘ra yangi zamon – jahon davlatlari va xalqlari o‘rtasida kengaya va mustahkamlana boshlagan aloqalar va hamkorliklar zamoni mahsuli bo‘lib, turli tillarda so‘zlashuvchi turli mamlakatlar vakillari ishtirokida o‘tadigan turli uchrashuvlar va yig‘inlarning tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqan hodisa hisoblanadi.

Tarjima, garchi bir tilda bildirilgan ma’no, fikr va ma’lumotni ikkinchi tilga o‘girib berish vazifasini bajarishi bilan qimmatli bo‘lsa-da, barcha holatlarda ham bir tildagi ma’no, fikr va ma’lumotning shakl va mazmunini ikkinchi tilda to‘liq tiklashning iloji bo‘lmaydi. Turli tillarning turlicha leksik, sintatktik, semantik, stilistik va hatto fonetik xususiyatlari, qolaversa, turli tillarda gaplashuvchi turli xalqlarda voqelikning turlicha qabul qilinishi tarjimaning asliyat bilan to‘la mos kelishini qiyinlashtiradi.

Tarjimaning barcha turlarida bo‘lgani kabi, uning anchayin qiyin va murakkab, ayni paytda o‘ta mas’uliyatli turi bo‘lgan sinxron tarjimaning ham o‘ziga xos afzalliklari va cheklangan jihatlari mavjud.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, sinxron tarjima so‘zlovchi (ma’ruzachi, chiqish qiluvchi, bayonot beruvchi, savollarga javob beruvchi) nutqi bilan bir vaqtda amalga oshiriladi va ketma-ket tarjimadan farqli o‘laroq, tarjima uchun alohida vaqt ajratilishi talab etilmaydi va tarjima chog‘ida so‘zlovchi nutqini to‘xtatishga hojat bo‘lmaydi. Bu esa sinxron tarjimaning quyidagi afzalliklarini belgilab beradi:

1) Sinxron tarjimada so‘zlovchining nutqi, tinglovchining tinglashi yoki ular ishtirokidagi tadbirning o‘tkazilishi uchun sarflanadigan vaqtning ikki barobarga qisqarishiga olib keladi.

2) Sinxron tarjimada so‘zlovchining nutqida uzilish va to‘xtalish yuz bermasligi sababli, so‘zlovchi o‘z nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini, ya’ni ularning reaksiyasi va kayfiyatini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.

3) Sinxron tarjimada tinglovchi ham uzluksiz tarjima qilinayotgan nutqni tinglash jarayonida so‘zlovchining kayfiyatini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.

4) Sinxron tarjima so‘zlovchining nutqi yoki u ishtirokida o‘tgan tadbirning ommaviy axborot vositalari, xususan elektron ommaviy axborot vositalari tomonidan tezkor tarzda, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jonli efirda yoritilishini ta’minlaydi. Ya’ni so‘zlovchining nutqi yoki u ishtirokida o‘tgan tadbirdan nafaqat u yerda ishtirok etayotgan tinglovchilar, balki elektron ommaviy axborot vositalari vositasida turli mamlakatlar jamoatchiligi ham o‘sha paytning o‘zida xabardor bo‘lishadi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, sinxron tarjima g‘ayrilisoniy omillar – ijtimoiy va psixologik jihatlar nuqtai nazaridan qaraganda bir qator afzalliklarga ega ekan. Ammo, lisoniy nuqtai nazardan qaraganda-chi?

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, turli tillardagi turlicha grammatik sistemalar va boshqa xususiyatlar barcha turdagi tarjima jarayonida ma’lum qiyinchiliklar va cheklovlarni keltirib chiqaradi. So‘zlovchi nutqini hech qanday vaqt oralig‘isiz tarjima qilishga mo‘ljallangan, boshqa tarjima turlariga nisbatan tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatlari ancha cheklangan sinxron tarjimada esa bunday qiyinchiliklar va cheklovlar anchagina jiddiy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shu sababli sinxron

tarjima jarayonida ham g‘ayrilisoniy, ham lisoniy jihatlardan ba’zi bir muammolarning yuzaga kelishi tabiiy holdir. Sinxron tarjimaning asosiy cheklangan jihatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) G‘ayrilisoniy oimllar:

A) Vaqt bilan bog‘liq cheklanishlar: Sinxron tarjimada nutqni bir paytda tinglash va tarjima qilish jarayonida yuz bergan ko‘proq to‘xtalish, ya’ni nisbatan ko‘proq vaqt davomida tinglash yoki tarjima qilishdan to‘xtash butun bir jumla, bir yoki bir necha gapning tarjimon tomonidan tarjima qilinmasdan qolishiga yoki kechikib tarjima qilinishiga, bu esa o‘z navbatida nutqning boshqa bir qismining tarjimon tomonidan qabul qilinmasdan qolishiga sabab bo‘ladi. Sinxron tarjimada tarjima qilinayotgan nutqning har bir bo‘lagi iloji boricha o‘z o‘rnida tarjima qilib borilishi lozim.

B) Sinxron tarjima jarayoni ishtirokchilari bilim va malaka darajasi hamda qabul qilish qobiliyati bilan bog‘liq cheklanishlar: Sinxron tarjima jarayoni ishtirokchilari – so‘zlovchi, tinglovchi va tarjimonning turli bilim va malaka darajasiga hamda qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi ham sinxron tarjima davomida muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Davlat va jamiyat hayotining ma’lum tor sohasiga oid bo‘lgan nutqni tarjima qilishda tarjimon tinglovchilarning tushunish darajasini e’tiborga olishi, jumladan ayrim izohlar berishi lozim bo‘ladi. Ammo sinxron tarjima chog‘ida buning imkoniyati o‘ta cheklangan bo‘ladi.

2) Lisoniy omillar:

A) Nutq mazmuni bilan bog‘liq cheklanishlar: Sinxron tarjimada umuman so‘zlanayotgan nutq to‘g‘risida, xususan nutqning hali so‘zlanmagan davomi to‘g‘risida ma’lumot yoki tasavurning bo‘lmasligi nutqda bildirilayotgan va uning davomidagi qismlar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki nutqning davomida izohlanadigan qismlarini tarjima qilishda qiyinchilik tug‘diradi.

B) Tilning grammatik xususiyatlari bilan bog‘liq cheklanishlar: Turli tillardagi turlicha grammatik xususiyatlar, jumladan turlicha gap tuzilishi, masalan, gap bo‘laklarining turli o‘rinlarda kelishi, shuningdek, qo‘shma gaplardagi bosh gap va ergash gaplar ketma-ketligining turlicha bo‘lishi bir tildagi nutqning, ayniqsa uzun gapdan iborat bo‘lgan nutq qismining to‘xtamasdan tarjima qilish imkoniyatini cheklab qo‘yadi.

d) Tilning leksik va frazeologik xususiyatlari bilan bog‘lik cheklanishlar: Tarjimaning barcha turlarida uchraydigan turli so‘zlar, iboralar va frazeologizmlar tarjimasi bilan bog‘liq muammolar sinxron tarjimada ham o‘ziga xos qiyinchiliklar tug‘diradi.

Aytish mumkinki, tarjimaning boshqa turlarida bunday so‘zlarning asl ma’nosini aniqlashning imkoni bo‘ladi. Ammo sinxron tarjimada buning iloji yo‘q. Buning uchun tarjimon nutqda aytilayotgan o‘sha so‘z yoki ma’no to‘g‘risida oldindan ma’lumotga ega bo‘lgan bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Tarjimaning eng tezkor, eng qiyin va eng mas’uliyatli turi bo‘lgan sinxron tarjima bilan shug‘ullanish tarjimondan boshqa turdagi, jumladan yozma tarjimalarni amalga oshiruvchi tarjimonlar oldiga qo‘yiladigan umumiy talablardan tashqari, quyidagi narsalarni talab qiladi:

1) Har ikkala tilni tarjima qilinayotgan nutqni lug‘atdan foydalanmasdan tarjima qiladigan darajada yaxshi bilish va har qanday ma’noni har ikkala tilda erkin ifoda eta olish.
2) Har ikkala tilda o‘ta tez, ravon va aniq so‘zlay olish.
3) Kuchli eslab qolish qobiliyatiga ega bo‘lish.
4) Diqqat va fikrni jamlay olish qobiliyatiga ega bo‘lish.
5) O‘ta tez reaksiyaga ega bo‘lish.
6) Aqliy va jismoniy chidamlilikka ega bo‘lish.
7) Bir paytning o‘zida tinglash va so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lish.

Shuning bilan birgalikda, sinxron tarjimon nafaqat ikki tilni yaxshi bilishi, balki ikki til tegishli bo‘lgan mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotining, ilm-fanining barcha sohalari, shuningdek ushbu mamlakatlar xalqlari madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi va mentaliteti to‘g‘risida iloji boricha ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishi, ushbu mamlakatlar hayotida yuz berayotgan voqealar va jarayonlardan xabardor bo‘lib turishi lozim bo‘ladi.

Sinxron tarjima hozirgi vaqtda og’zaki tarjimaning eng ko’p tarqalgan turi bo‘lib, notiq bilan tarjimon nutqi orasidagi farq 3-4 soniyadan 10 soniyagacha bo’ladi. Sinxron tarjimaning

afzalliklaridan yana biri bu real vaqtda o’nlab tillarga tarjima qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham sinxron tarjima nafaqat uning ehtiyojmandlari bo’lgan ishbilarmon kishilar (siyosatchilar, iqtisodchilar)ning vaqtini tejabgina qolmay, majlis va muzokaralarning yuqori darajada o’tishini ta’minlab, qator sohalarda burilishlar yasadi. Shuningdek, tarjimashunoslik sohasini ham keskin rivojlantirib yubordi va tarjimonlarga bo’lgan talabni ham oshishiga olib keldi.

Quyida sinxron tarjimaga qo’yiladigan talablar keltirilgan:

Sinxron tarjima murakkab kognitiv jarayon hisoblanib, tarjimon bir vaqtning o’zida manba tilidagi nutqni eshitishi, anglashi, eslab qolishi, segmentlarga bo’lishi, to’g’ri interpretatsiya qilishi va yetkazib berishi zarur. Xalqaro sinxron tarjimonlar assotsiatsiyasi qaroriga muvofiq, sinxron tarjimon ishtirokchi notiqning mazmunini faqatgina 80% ini tarjima qila olsa muvaffaqiyatga erishgan hisoblanadi. Ko’plab kishilarning odatda so’zlash tezligi juda tez bo’lib, ular nutq so’zlayotgan paytlarida ham doim o’zlarining nutq matni mazmuni haqida qayg’uradilar. Ustiga ustak turli mahalliy sheva aksentlarida so’zlab murakkablashtiradilar.

Mazkur holatlarda sinxron tarjimon o’zining bor bilim xazinasini harakatga keltirish va tajribasidan kelib chiqqan holda bor kuchi bilan ish yuritishga majbur bo’ladi. Atayin sekin suratda so’zlab sinxron tarjimon haqida qayg’ura oladigan notiqlar unchalik ko’p emas. Bu esa mutaxassisning tabiatiga nihoyatda yuqori talablar qo’yadi. Sinxron tarjimaning xususiyatlaridan biri bo’lgan uning afzalliklari ham mavjud.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, sinxron tarjima vaqt cheklovlari, kuchli kognitiv yuklama va lisoniy murakkabliklar bilan ajralib turuvchi jarayon bo‘lib, u tarjimondan nafaqat til bilimini, balki madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstni chuqur tushunishni, shuningdek, kuchli psixologik bardoshlikni ham talab qiladi.

Maqolada psixologik va lingvistik muammolarning, xususan, nutqning oldindan noma’lumligi, grammatik tafovutlar, idiomatik ifodalarni o‘girishdagi murakkabliklar, va uzoq davom etuvchi sessiyalarda charchoqni boshqarish masalalari yoritilgan. Shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan xatolar — tushirib qoldirish, qo‘shish, almashtirish va semantik siljishlar tasniflanadi hamda ularni kamaytirish bo‘yicha strategiyalar taklif etiladi.

Muallif strategik yondashuvlar – oldindan taxmin qilish, kutish, va qayta shakllantirish metodlarini samarali vosita sifatida taqdim etadi. Xalqaro standartlarga tayanib, hatto tajribali tarjimon ham jonli nutqning taxminan 80 foizini to‘g‘ri yetkaza olishini qayd etadi.

Yakunda, sinxron tarjima zamonaviy ko‘p tilli kommunikatsiyaning eng samarali shakllaridan biri sifatida yuqori baholanadi. Uning sifati va ishonchliligini oshirish uchun tarjimonlarni puxta tayyorlash, tipik xatolarga nisbatan xabardorlikni kuchaytirish hamda sinovdan o‘tgan strategiyalarni qo‘llash muhim ekani ta’kidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Shiryaev, A.F. (1979). Sinkhron tarjima [Simultaneous Translation]. Moscow.

2. Alshinbayeva, K. (n.d.). Methodology of simultaneous translation: some strategies and features. Journal name missing. No missing. Pp. 209-212.

3. Chernov, G.Ch. (2008). Sinkhron tarjima nazariyasi va amaliyoti [Theory and Practice of Simultaneous Translation]. Moscow: Xalqaro munosabatlar.

4. Beyker, M. (2005). Tarjima bo'yicha darslik [Textbook on Translation]. London: Routledge.

5. Buehler, H. (n.d.). Professional tarjima va tarjimani baholashning pragmatik mezonlari [Professional translation and pragmatic criteria for translation evaluation]. In: AILA 1984 ish [AILA 1984 Proceedings]. Brussels.

6. Pokorn, N.K. (2016). Tarjimonlarni tayyorlash va kasbiy faoliyatida chet tiliga tarjima [Translator training and foreign language translation in professional activities]. Sankt-Peterburg davlat universiteti axborotnomasi. 9-seriya. Filologiya. Sharqshunoslik. Jurnalistika. No 4. Pp. 86-99.

7. Barik, H.C. (1973). Sinkhron tarjima: vaqtinchalik va miqdoriy ma'lumotlar [Simultaneous translation: temporary and quantitative data]. Language and Speech. No 16. Pp. 5-270.

8. Gile, D. (1990). Konferentsiya tarjimoni treningining asosiy tushunchalari va modellari [Basic concepts and models of conference interpreter training].

UO'K 81-13

SHAXS DUNYOQARASHINING LINGVISTIK PROYEKSIYASI

A.A.Yunusova, katta o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada odamlar tildan qanday qilib o'zlarining dunyoqarashlarini loyihalash uchun til afzalliklari va shaxsiy o'ziga xoslik o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlash orqali vosita sifatida foydalanishlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda leksik, sintaktik va pragmatik xususiyatlar shaxsning madaniy va tajribaviy kelib chiqishini qanday aks ettirishi, pragmatika, nutq tahlili va kognitiv lingvistikaning nazariyalariga tayangan holda tekshiriladi.*

Kalit so'zlar: *Shaxsiy o'ziga xoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, nutq tahlili, leksik va sintaktik xususiyatlar, til va idrok, tildagi madaniy qadriyatlar.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается, как люди используют язык в качестве инструмента для проецирования своих собственных мировоззрений, подчеркивая связь между языковыми предпочтениями и индивидуальной идентичностью. Исследование изучает, как лексические, синтаксические и прагматические особенности отражают культурный и эмпирический фон человека, опираясь на теории прагматики, анализа дискурса и когнитивной лингвистики.*

Ключевые слова: *Личностная идентичность, когнитивная лингвистика, прагматика, анализ дискурса, лексические и синтаксические особенности, язык и восприятие, культурные ценности в языке.*

Abstract. *This article examines how people use language as a tool to project their own worldviews, highlighting the relationship between linguistic preferences and individual identity. The study explores how lexical, syntactic, and pragmatic features reflect a person's cultural and experiential background, drawing on theories from pragmatics, discourse analysis, and cognitive linguistics.*

Key words: *Personal identity, cognitive linguistics, pragmatics, discourse analysis, lexical and syntactic features, language and perception, cultural values in language.*

Kirish. Til shunchaki muloqot vositasi emas, balki shaxsning dunyoqarashini aks ettiruvchi, shakllantiruvchi va uzatuvchi kuchli vositadir. Odamlarning lingvistik tanlovlari, lug'at va sintaksisdan metafora va nutq uslubigacha, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy tajribalar va kognitiv asoslar bilan chuqur bog'langan. Ushbu g'oya lingvistik nisbiylik asosini tashkil qiladi va til shaxsiy va madaniy o'ziga xosliklarni qanday o'zida mujassamlashtirganini o'rganishda markaziy o'rin tutadi.

Kognitiv lingvistika va sotsiolingvistika doirasida lingvistik dunyoqarashlar bo'yicha olib borilgan muhim tadqiqotlarga qaramay, hali o'rganilmagan bir qancha o'lchovlar mavjud. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati til jamoalari tomonidan shakllantirilgan jamoaviy dunyoqarashga qaratilgan, ammo shaxsiy dunyoqarashlar shaxsiy tildan foydalanish orqali qanday qilib noyob tarzda prognoz qilinishiga kamroq e'tibor berilgan. Bundan tashqari, shaxsning dunyoqarashining dinamik tabiati - uning ijtimoiy, psixologik yoki hissiy o'zgarishlarga javoban qanday rivojlanishi - kamdan-kam hollarda lingvistik jihatdan o'rganiladi. Pragmatika, nutq tahlili va identifikatsiyani o'rganish o'rtasidagi kesishish bunday tahlil uchun boy, ammo etarli darajada foydalanilmagan hududni taqdim etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - shaxsiy nutqda chuqur madaniy va kognitiv yo'nalishlarni ochib beradigan izchil naqshlarni aniqlashga e'tibor qaratgan holda, individual dunyoqarashlar lingvistik jihatdan qanday prognoz qilinishini o'rganishdir.

Tadqiqotning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Shaxsning dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvistik xususiyatlarni (leksik, sintaktik, pragmatik) tahlil qilish;

Shaxsiy tajriba va individual nutqda tildan foydalanish o'rtasidagi munosabatni o'rganish;

Til individualligi va dunyoqarash ifodasi bilan bog'liq mavjud nazariyalardagi kamchiliklarni aniqlash;

Shaxsiylashtirilgan nutqda lingvistik proektsiyani o'rganish uchun uslubiy asosni taklif qilish.

Ushbu maqola tilning shaxsiy o’ziga xoslikni qanday aks ettirishini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va tilshunoslik va individual dunyoqarash o’rtasidagi bog’liqlikni ko’rish uchun yangi ob’ektivni taklif qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Til va dunyoqarash o‘rtasidagi munosabat azaldan lingvistik va antropologik tadqiqotlarning markaziy masalasi bo‘lib kelgan. Til nisbiyligi sifatida ham tanilgan Sapir-Uorf gipotezasi [5, 207] til fikrga ta’sir qiladi va turli tillarda so’zlashuvchilar dunyoni boshqacha qabul qiladi, deb ta’kidlaydi. Garchi bu nazariya katta munozaralarga sabab bo’lgan bo’lsa-da, u lingvistik tuzilmalar inson bilimi va madaniy tushunchasini qanday shakllantirishini o’rganish uchun asos yaratdi.

Kognitiv lingvistikada Lakoff va Jonson kabi olimlar metafora shunchaki lingvistik xususiyat emas, balki odamlarning voqelik haqidagi tushunchalarini qanday tuzayotganini ochib beruvchi kontseptual vosita ekanligini ta’kidlaydilar[3, 103]. Xuddi shunday, Fillmorning ramka va sxemalar nazariyasi tildan foydalanishda o’rnatilgan madaniy shakllangan kognitiv modellarning rolini ta’kidlaydi. Ushbu nuqtai nazarlar umumiy kontseptualizatsiya lingvistik iboralarga va kengaygan holda, jamoaviy dunyoqarashga qanday ta’sir qilishini ta’kidlaydi [7, 105].

Ijtimoiy lingvistika sinf, jins va etnik kelib chiqishi kabi ijtimoiy o’zgaruvchilar til tanlashga qanday ta’sir qilishini o’rganish orqali ushbu tadqiqotni yanada kengaytirdi. Labov va Ekkert kabi tadqiqotchilar tilning ijtimoiy o'ziga xoslik belgisi sifatida ishlashini, Fairclough kabi nutq tahlilchilari esa kundalik muloqotda kuch va mafkura dinamikasi qanday singdirilganligini ko’rsatgan [1, 63].

Biroq, bu tadqiqotlarda ko’p hujjatlashtirilgan jamoaviy lingvistik naqshlar mavjud bo’lsa-da, ular ko’pincha individual lingvistik ifodani - noyob shaxsiy tajribalar, his-tuyg’ular va e’tiqodlar so’zlovchining lingvistik o’ziga xosligini shakllantirish usullarini e’tiborsiz qoldiradilar. Pragmatika va nutq tahlili bu ish uchun istiqbolli vositalarni taklif etadi. Tannen kabi olimlar shaxsiy rivoyat tuzilmalari shaxsni qanday ochib berishini o’rganishgan, van Deyk esa nutq ishlab chiqarishning kognitiv va mafkuraviy jihatlarini ta’kidlagan [2, 67].

Ammo, individual dunyoqarash proektsiyasini tahlil qilish uchun pragmatika, kognitiv semantika va identifikatsiyani o’z ichiga olgan keng qamrovli asos hali ham rivojlanmagan. Ushbu tadqiqot mavjud nazariyalarga asoslanib, dunyoqarashni aks ettiruvchi shaxsiy til naqshlarini kuzatish uchun uslubiy yondashuvni taklif qilish orqali ushbu bo’shliqni to’ldirishga qaratilgan.

Natijalar va muhokama. Individual nutq namunalarini tahlil qilish lingvistik tanlovlar shaxsiy dunyoqarashni qanday aks ettirishi va shakllantirishini ko’rsatadigan bir nechta e’tiborga loyiq naqshlarni aniqladi. Ishtirokchilarda takrorlanadigan uchta asosiy lingvistik xususiyat paydo bo’ldi: metaforalardan izchil foydalanish, baholovchi til va shaxsiy deyksis, bularning barchasi shaxsiy o’ziga xoslik va madaniy uyg’unlik ko’rsatkichlari bo’lib xizmat qildi.

1. Metaforik ramka va kontseptual dunyoqarash. Ishtirokchilar tez-tez madaniy va empirik ma’lumotlarga asoslangan metaforalardan foydalanganlar. Misol uchun, bir ishtirokchi doimiy ravishda sayohat metaforalaridan foydalangan holda hayot voqealarini tasvirlab berdi ("Men boshqa yo’lni tanladim", "Bu men uchun chorraha bo’ldi"), harakat, o’tish va qaror qabul qilish orqali shakllangan dunyoqarashni taklif qiladi. Ushbu metaforik ramka nafaqat shaxsiy qadriyatlarni (masalan, avtonomiya, kashfiyot), balki madaniy asoslarni ham ochib berdi, chunki hayotning sayohat sifatidagi metaforasi ham G'arb, ham Sharq nutqlarida keng tarqalgan, ammo kontekstga qarab turli xil axloqiy ma’nolarga ega.

2. Baholovchi va hissiyotli til. Leksik tahlil, ayniqsa, ishtirokchilar o’tmish tajribasi haqida fikr yuritganda, hissiy jihatdan zaryadlangan sifatlar va qo’shimchalarning yuqori chastotasini aniqladi. Bu baholar shunchaki tavsiflovchi emas, balki voqealarni ma’ruzachining ichki qadriyatlar tizimiga mos keladigan tarzda shakllantirishga xizmat qilgan. Misol uchun, tabiat va jamiyat atrofidagi ijobiy leksik tanlovlar ekologik axloq va kollektivizmga qaratilgan dunyoqarashni ta’kidladi. Ushbu foydalanish Hallidayning tilni ma’no potentsiali tizimi sifatidagi g’oyasiga mos keladi, unda ma’ruzachilar o’zlarining ijtimoiy haqiqatlarini baholash tanlovlari orqali faol ravishda quradilar [6, 45].

3. Shaxsiy deyksis va identifikatsiyani aniqlash. Birinchi shaxs olmoshlari, vaqt belgilari va fazoviy deyksislardan foydalanish ham o'z-o'zini joylashtirish haqida tushuncha berdi. "Men" so'zining harakat fe'llari ("Ishonaman", "Men boshdan kechirdim", "Men harakat qilaman...") bilan birgalikda qayta-qayta qo'llanilishi vakolatni kuchaytirdi va sub'ektiv nuqtai nazarni ta'kidlab, odamlar o'zlarining shaxsiyatlarini lingvistik ravishda rivoyat nazorati orqali loyihalashtiradilar degan fikrni qo'llab-quvvatladi. Aksincha, ko'proq shaxssiz konstruktsiyalardan foydalangan ma'ruzachilar ("aytish mumkin", "ishonish mumkin") mazmundan uzoqlashishga moyil bo'lib, yo ko'proq tahliliy dunyoqarashni yoki kamtarlikning madaniy jihatdan shartli strategiyasini aks ettiradi.

Ushbu natijalar lingvistik tanlovlar shunchaki fikrni etkazishdan ko'proq narsani amalga oshiradi, degan gipotezani qo'llab-quvvatlaydi - ular insonning dunyo haqidagi tushunchasini faol ravishda shakllantiradi va ifodalaydi. Oldingi tadqiqotlar asosan guruhga asoslangan lingvistik naqshlarga (masalan, milliy, etnik yoki jinsga asoslangan nutq uslublari) urg'u bergan bo'lsa-da, bu tadqiqot shaxsiy tajriba va bilish hatto eng kichik til birliklariga ham chuqur ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, natijalar shuni ko'rsatadiki, lingvistik proyeksiya ham barqaror, ham dinamikdir: ba'zi naqshlar doimiy bo'lib qolsa (masalan, metaforalardan foydalanish), boshqalari hissiy holat yoki ijtimoiy rolga qarab o'zgaradi. Ushbu ikkilik pragmatikani, identifikatsiyani o'rganishni va kognitiv lingvistikani bog'laydigan kelajakdagi fanlararo tadqiqotlar uchun ajoyib imkoniyatlarni ochadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot odamlarning til tanlashlari ularning dunyoqarashini kuchli aks ettirishini tasdiqlaydi. Ma'ruzachilar metafora, baholovchi atamalar, deyksis va modal iboralar orqali kundalik nutqda o‘z e'tiqodlari, qadriyatlari va madaniy yo‘nalishlarini kodlaydilar. Natijalar lingvistik ifoda nafaqat bilish ko'zgusi, balki ma'no va o'ziga xoslikning faol konstruktori ekanligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Kollektiv lingvistik dunyoqarashlar keng o'rganilgan bo'lsa-da, bu tadqiqot lingvistik nisbiylikning individual o'lchovini tekshirish zarurligini ta'kidlaydi. Shaxsiy nutqqa e'tibor qaratish orqali biz til o'zimizni ifodalash va dunyoqarashni muhokama qilish vositasi sifatida qanday ishlashini chuqurroq tushunamiz.

Tadqiqot, shuningdek, fikr va til o'rtasidagi nozik o'zaro ta'sirni ochish uchun pragmatik va nutq tahlilini o'ziga xoslik nazariyasi bilan birlashtirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar o'z ko'lamini madaniyatlararo taqqoslashlar, bo'ylama tadqiqotlar va ko'p tilli sozlamalarni o'z ichiga olgan holda kengaytirishi mumkin, bu bizning dunyoqarashlar qanday rivojlanishi va lingvistik tarzda namoyon bo'lishi haqidagi tushunchamizni yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boroditsky L. (2011). *How language shapes thought*. Scientific American, 304(2), 62–65. https://doi.org/10.1038/scientificamerican0211-62

2. Gumperz, J. J., & Hymes, D. (Eds.). (1986). *Directions in sociolinguistics: The ethnography of communication* (2nd ed.). Blackwell.

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors we live by* (2nd ed.). University of Chicago Press.

4. Pavlenko, A. (2006). *Bilingual minds: Emotional experience, expression, and representation*. Multilingual Matters.

5. Sapir, E. (1929). The status of linguistics as a science. *Language*, 5(4), 207–214. https://doi.org/10.2307/409588

6. Tannen, D. (2007). *Talking voices: Repetition, dialogue, and imagery in conversational discourse* (2nd ed.). Cambridge University Press.

7. Whorf, B. L. (1956). *Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf*. MIT Press.

UO'K 81-13

MUHAMMAD SOLIHNING "SHAYBONIYNOMA" DOSTONIDA SHAYBONIYXON SHAXSIYATI TASVIRI

S.A.Yusupova, tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi, sarkarda, shoh va shoir Muhammad Shayboniyxon hayoti va ijod yo‘li, shayboniylar sulolasi tarixi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Muhammad Shayboniyxon haqida yaratilgan badiiy-tarixiy asarlar, shu jumladan,*

Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonlari tahlili o'rganilib, maqola tarixiy-badiiy faktlar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *Sulton Muhammad Shayboniyxon, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, "Shayboniynoma", Samarqand, adabiy muhit, adabiyot, tarixiylik, badiiylik.*

Аннотация. *В данной статье представлены сведения о жизни и творческом пути великого государственного деятеля, полководца, царя и поэта Мухаммада Шейбани-хана, а также история династии Шейбани. В частности, исследуется анализ художественно-исторических произведений, созданных о Мухаммаде Шейбани-хане, в том числе "Шейбани-наме" Камолиддина Бинаи, "Шейбани-наме" Мухаммеда Салиха, и раскрывается статья на основе исторических и художественных фактов.*

Ключевые слова: *Султан Мухаммад Шайбанихан, Захириддин Мухаммад Бабур, Камолиддин Бинаи, Мухаммед Салих, "Шейбани-наме", Самарканд, литературная среда, литература, историчность, художественность.*

Abstract. *This article provides information about the life and creative path of the great statesman, commander, king and poet Muhammad Shabaniykhan, the history of the Shaybani dynasty. In particular, the analysis of the literary and historical works created about Muhammad Shaybaniykhan, including Kamaliddin Binoi's "Shaybani-name" and Muhammad Salikh's "Shaybani-name", is studied, and the article is presented on the basis of historical and artistic facts.*

Keywords: *Sultan Muhammad Shaybani Khan, Zahiriddin Muhammad Babur, Kamaliddin Binoiy, Muhammad Salikh, "Shaybani-name", Samarkand, literary environment, literature, historicity, artistry*

Mustaqillikning ilk yillarida adabiyotshunoslik va tarixnavislikda yurtimizning milliy qahramonlarini yuzaga chiqarish g'oyasi surildi. Xususan, buyuk sarkarda temuriylar davlatining asoschisi Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk siymolar ulug'landi. Sanalmay qolgan eng ziddiyatli shaxslar sirasida Sulton Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon kabi buyuk shohlar ham bor edi.

So'nggi 30 yil mobaynida tarixchi, adabiyotshunos, geograf olimlar tomonidan Sulton Muhammad Shayboniyxon hayoti va ijod yo'li, shayboniylar sulolasi tarixi, adabiy muhiti o'rganilmay qolmoqda. Hattoki bugungi kunga kelib "Shayboniyxon bizga o'gaymi, begonami?" degan tushuncha va qarashlar ham paydo bo'lmoqda. Bunga bir qancha sababalar mavjud bo'lib, asosiy sabablardan biri sifatida Shayboniyxon va Zahiriddin Muhammad Bobur munosabatlari hamda buyuk Amir Temur tuzgan davlatni parokanda qilgan shaxs sifatida talqin etilishidir. Ikki buyuk sarkarda, davlat arboblarining munosabatlari bir-biriga zid ravishda o'rganilib, ijobiy-salbiy baho berish holatlarini uchratamiz. Bunday kabi talqinlar haqiqatdan yiroq bo'lib, aslida esa Shayboniyxon va Zahiriddin Muhammad Bobur o'rtasida quda-andachilik, savdo-sotiq, ilm-ma'rifatda, elchilik aloqalari, munosabatlari o'rnatilgan edi. Yana shuni ta'kidlash joizki, sovet davrining ilmiy izlanish va tadqiqotlarining aksarida Muhammad Shayboniyxonning markaziy Osiyoda davlat barpo etishi natijasida tashqi dunyodan uzilish boshlanganligi, vaholanki bu davrda Usmonlilar imperiyasi, Xitoy, Sibir, Hindiston va boshqa mintaqalar bilan doimiy diplomatik, iqtisodiy-siyosiy munosabatlar olib borilganligini tarixan bilamiz. Xususan, Sulton Muhammad Shayboniyxon ham o'zbek madaniyati tarixi va adabiyoti taraqqiyotida munosib o'rin tutgan davlat arbobi, sarkarda va ijodkordir. XX asrning birinchi yarmidan O'zbekiston hududida jahon ilmiy-fani talablariga mos ko'rinishdagi ilmiy adabiyotlar chop etila boshlandi, 1947-yilgi IV jildlik "O'zbekiston tarixi" asari ham shular jumlasidandir. Mzakur manbaning 1967-yilgi nashri I jildi 516-sahifasida Shayboniyxon Sirdaryodan Markaziy Afg'onistonga qadar bo'lgan hududlarda ulkan imperiya barpo etgani haqida so'z boradi. Shuningdek, sulola boshqaruvi davrida mulkiy munosabatlar qayta shakllanib, harbiy yurishlar umumiy xarakterga bo'lmagani ko'rsatib o'tilgan. Bu esa davlatning iqtisodiy salohiyati oshishiga, yirik amaldor va lashkarboshilarning uzoq muddat davomida xonga sodiq xizmat qilishiga sabab bo'ldi. Tarixchi olim Baxtiyor Alimjonov e'tirof etganidek, "Shayboniyxon tomonidan yaratilgan tizim"ning asrlar bo'yi saqlanishiga ham ushbu omil ta'sir ko'rsatgan. 1974-yilda chop etilgan yirik

fundamental asar "O'zbekiston SSR tarixi" kitobida Shayboniyxon shaxsiyatiga "Oltin O'rdaning ko'chmanchi o'zbeklari Temuriylar davlatini tugatdi", deya fikr bildirilib o'tilgan. Yana bir muhim manba "O'zbekiston tarixi" monografiyasida XVI-XIX asr birinchi yarmini o'rganishga bag'ishlangan qismida esa "Muhammad Shayboniyxon Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy raqibi" sifatida ko'rsatilgan. Bu esa bizning shonli tariximizning buyuk milliy qahramonlarining dushmani bizga ham dushman tamoyili shakllanib qolganligidan darak beradi.[N.M.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: "O'qituvchi",1976].

Tarixiy-badiiy asarlarda Shayboniyxon timsolini tarixiy, adabiy jihatdan o'rganish orqali Muhammad Shayboniyxon hayoti va faoliyati, uning shaxs va ijod masalalari ham keng tadqiq etiladi. Bu esa kelajak avlodni har tamonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim estetik vazifani bajaradi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda Muhammad Shayboniyxon singari shoir, sarkarda, davlat arbobining hayoti va faoliyati mukammal aks etgan, qolaversa, o'tmish tarixiy voqeyligi to'la bayon etilgan asarlarni yangicha nuqtai nazardan o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Shoh va shoir, shayboniylar sulolasi asoschisi, buyuk sarkarda Sulton Muhammad Shayboniyxonning hayot va ijod yo'li bugungi kunga kelib Sharq va G'arb tarixchi, adabiyotshunos olimlari tomonidan ulkan qiziqishga sabab bo'lmoqda. Shayboniyxonning asl ismi Sulton Muhammad Shayboniyxon ibn Budoq Sulton ibnAbdulxayrxon bo'lib, yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasiga ko'tarilgan tarixiy shaxsdir. O'zbek ulusi hukmdori Abulxayrxonning 11 ta o'g'li bo'lgan bo'lib, 11 o'g'ilning 1 tasi Shayboniyxonning otasi shoh Budoq bo'lgan. Shayboniyxon 1451-yil Abulxayrxonning o'g'li shoh Budoq Sultonning xonadonida tavallud topgan bo'lib, otasidan erta ayrilib, o'z otasining eng sodiq xizmatkori Qorachabek qo'lida tarbiyalangan. Keyinchalik unga Turkiston va O'tror hukmdori Muhammad Mazid Darxon homiylik qiladi. Xonning turkiycha "Shayboniyxon" va arabcha "Muhammad" ismlari mavjud bo'lgan. Bobosi Abulxayrxon unga "Shohbaxt" deb laqab qo'ygan. Harbiy tashkilotchilik qobiliyatiga to'g'risida "Boburnoma" asarida "Shayboqxon" ya'ni "kuch-qudrat egasi" deya ta'riflab o'tilgan. Yoshligidanoq Buxoro madrasasida ta'lim olgan, bundan so'ng Dashti Qipchoqqa qaytib, lashkar to'plashga muvaffaq bo'lib, o'z qo'shini bilan temuriylarga yollanma qo'shinlashkarboshisi bo'lib faoliyat boshlagan. U o'z qo'shini bilan Mo'g'iliston, Movoraunnahr, Xorazm hukmdorlariga xizmat qilib, ulkan tajribaga ega bo'lgan. Natijada temuriylar davlatining ichki va tashqi vaziyatini yaxshi bilib olgan. Xon ko'chmanchi o'zbek davlatini qayta tiklash yo'lida kurash olib borgan, ammo o'zbek, qozoq qabilalari tomonidan kuchli to'sqinliklarga duch kelgan. Bobosi Abulxayrxon vafotidan so'ng parchalanib ketgan qabilalarni birlashtirishga, beayov qonli urushlar natijasida 1480-yilda ko'chmanchi o'zbeklar davlatini tiklashga erihdi. Muhammad Shayboniyxon Markaziy Osiyo tarixida yuksak burilish yasagan shaxslardan biri bo'lib, u o'sha davrgacha shakllangan forsiy tildagi hujjat almashinuv va ilmiy-adabiy til muhitini turkiylashtirishga hissa qo'shgan. Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Ro'zbehxon Isfahoniy, Mulla Shodiy kabi bir qancha tarixchi va adabiyotshunos olim-u fuzalolarga homiylik qilib, Movarounnahrda turkiy tildagi asarlar soni ko'payishiga turtki bo'lgan.

Kamoliddin Binoiyning forschada yozilgan "Shayboniynoma" dostoni, Muhammad Solihning "Shayboniynoma" kabi dostonlari mavjuddir. Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" dostoni Shayboniylar tarixiga oid dastlabki manbalardan biri bo'lib, ushbu doston Kamoliddin Binoiy tomonidan Muhammad Shayboniyxonning xizmatida bo'lgan paytda 1505-1507-yillarda yaratilgan. Bu doston Muhammad Shayboniyxon va uning o'g'li nazorati ostida yozilib, "Tavorixi guzidayi nusratnoma" negizida fors tilining nozik iboralari va fasohat ilmidan keng foydalanilgan. Dostonining nusxalari ko'p, ulardan biri xorazmlik tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan 1914-1915-yillarda o'zbek tiliga tarjima qilingan nusxasi hisoblanadi. Asarda Muhammad Shayboniyning tavallud kunidan boshlab to 1505-yilgacha, ya'ni uning Movarounnahr va xorazm bo'ysundirishga qadar bo'lib o'tgan voqealar hikoya qilinadi. [Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi:metodik qo'llanma. Toshkent: Bayoz, 2021-264-b.]

Shayboniyxon homiylik qilgan yana bir o'zbek tarixchi va shoirlardan biri Muhammad Solih bo'lib, u 1500-yilning iyul oyidan Shayboniyxon saroyida shoir, maslahatchi lavozimida faoliyat

yuritgan. [Ahmedov B., 1994216-b]. Muhammad Solihning yoshlik yillari Hirotda kechgan bo‘lib, otadan juda yosh yetim qolib, turmushning g‘am-anduhlarini boshdan kechirganligi haqida “Shayboniynoma” dostonining kirish qismida shunday deydi:

Hajrning o‘tidan joni kuygan,
So‘zu g‘am birla nihoni kuygan.
Laqabi solihu o‘zi tolih,
Nur Said o‘g‘li Muhammad Solih.

Muhammad Solih yoshlikda juda ko‘p qiyinchiliklarni ko‘rib, Xusayn Boyqaro saroyida xizmat qiladi. Otasini qatl qilgan, unga nisbatan ishonchsizlik bilan qaragan temuriylardan uning ko‘ngli ranjib, 1499-yilda Shayboniyxon xizmatiga kiradi. Xon uni qo‘li ochiqlik bilan kutib olganligini e’tirof etadi.

“Samarqand Muhammadxon Shayboniyxon qo‘liga kirgach, unga mulozim bo‘lib, xonning saltanat saroyi ichkilari qatorida xizmatda turdi”. [G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir,2013]. Uning “Shayboniynoma” asari Muhammad Shayboniyxon tarixi to‘g‘risida tarixiy-jangnoma doston bo‘lib, turkiy tilda 1506-yilda yozib tugallangan. Bu haqida “Buxoro yohud Movorounnahr tarixi” kitobida Herman Vamberi shunday yozgan “Keyinchalik Movarounnahrga ketib, Sulton Mahmud saroyi doirasida e’tibor qozongan va nihoyat, Shayboniy Muhammadxon uni saroy shoiri qilib olgan”. [Herman Vamberi, 1990:73-b] Ushbu dostonda Sulton Shayboniyxonning temuriylarga qarshi olib borgan harbiy yurishlari tasviri ifodalanib, asar 76 bob, 8902 misradan iborat. Doston muqaddimasi 16 bobdan tashkil topgan bo‘lib, hamd va na’t 1-3-boblar, 4-bob so‘z ta’rifiga, Shayboniyxon shaxsiyati tasviri va ta’rifi 5-14-boblarni o‘z ichiga oladi.

Tengrining soyasi Shayboniyxon,
Kim ani qo‘ydi xalifa rahmon.
G‘aybdin oti Muhammad bo‘ldi,
Qobili davlati sarmad bo‘ldi.
Borchaning yaxshilik oning qoshida
Borchaning davlati oning boshida

Asarda Muhammad Solih Shayboniyxonni shunday tariflar bilan boshlaydi. Boshlaydi. [Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. –Т.: ЎзССР фанлар академияси нашриёти, 1961. – 7 б]

Muhammad Solih “xon” so‘ziga alohida urg‘u berib, asarda “xon” ni “podshoh, jahon ishqi sultoni, oshiq, orif” kabi quyidagicha ta’riflaganligini guvohi bo‘lamiz:

Xon erur podshahi olami so‘z,
Xon erur erta-kecha hamdami so‘z.
Xon so‘zi ishqi jahonidindur,
Xon so‘zi g‘ayb lisonidindur.
Xon o‘zi oshiq erur, orif ham,
Borcha so‘z jonibidin voqif ham.
Xon o‘zi so‘zni base xub aytur,
Nazm ila nasrni marg‘ub aytur.

Asarda1499-1500, 1505-1506-yillarda ro‘y bergan tarixiy voqealar bayon etilgan. “Shayboniynoma” dostonida Shayboniyxonning 1499-1500-yillarda Turkistondan Samarqandga qo‘shin tortib kelishi hamda Samarqandni bosib olish uchun qilingan ilk urinishlarning barbod bo‘lishi va chekinishi tasvirlangan bo‘lib, Buxoro viloyatining hokimi Boqi Tarxon va uning qo‘shini Dabbusiy qo‘rg‘onida (hozirgi Ziyovuddin yaqinida) qamal qilib, Buxoroni bosib olishi, Qorako‘l,Qarshi, G‘uzor va boshqa hududlarda aholi qo‘zg‘olonlarining qattiqqo‘llik bilan bostirilishi, Samarqandni 6 oy qamal qilinishi, Boburning Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo‘lishi, Shayboniyxonning Samarqandni, keyinroq Andijon, Toshkent, Hisor, Badaxshon va boshqa viloyatlarni zabt etishi birma-bir bayon etiladi. Doston 1504-1506-yillarda Shayboniyxonning Xorazmga yurishi,uni egallab olib, g‘alaba bilan Buxoroga qaytishi tasviri bilan tugaydi.

“Shayboniynoma”ning 1510-1511-yillarda Qosim ismli kotib tomonidan ko‘chirilgan eng eski qo‘lyozma nusxasi Venada saqlanadi. Bu qo‘lyozma nastaliq uslubida yozilgan bo‘lib, 218 varaqni tashkil etadi. Bu qo‘lyozmada jang va ziyofat manzaralarini tasvirlovchi 9 ta miniatyura ham

keltirilib, ushbu qo'lyozma asosida G.Vamberi 1885-yilda Venada dostonning asl tekstini va uning nemis tiliga o‘girilgan tarjimasini chop ettirgan edi.1904-yili esa shu qo‘lyozma asosida rus turkshunosi P.M.Melioranskiy Peterburgda “Shayboniynoma”ning asl matnini nashr ettirib, Vamberi nashridagi kamchiliklarni tuzatadi va o‘sha nusxadagi 2 ta mimiatyurani ham kitobga kiritadi. Asar 1961-yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan to‘la nashrdan chiqarilgan. Bu qonli kurashlarning shohidi va ishtirokchisi bo‘lgan Muhammad Solih o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, o‘zi qatnashgan voqealarini bayon qiladi. Muhammad Solih Shayboniyxon bilan eng ko‘p kurash olib borgan temuriy hukmdor Zahiriddin Muhammad Boburning kurash tafsilotlarini o‘qib, xolis baho bergan. Bobur bu kurash tafsilotlarini o‘zining “Boburnoma” asarida keltirib o‘tgan bo‘lib, unda ko‘rinadiki, shayboniylarning jang sulubi o‘ziga xos sharq an’analari asosida tashkil etilgan. Bu taktikalar dushman jang uslubi, qo‘shin tuzilishi va jang maydoniga qarab o‘zgartirilib borilgan. Qo‘shinning asosiy qismini suvoriylar tashkil qilib, asosan, jangni ochiq maydonda va tekislikda olib borishga harakat qilganliklari, tarkibdagi eng uchqur otlar asosiy qismning yon tomonidan jangga kirishganliklari, jang boshlanganidanoq suvoriylar dushman qo‘shinlari qanotidan aylanib o‘tib, ularni o‘rab olishlari “Boburnoma” da tasvirlangan. Shayboniyxon bilan ko‘p bor kurash olib borgan Zahiriddin Muhammad Bobur bu taktikani “Boburnoma” da quyidagicha tasvirlaydi: “ular bizning ilgarimizdan ham, ortimizga ham bostirib kelib, elimizni sarosimaga soldi. Ularning urushdagi ulug‘ hunari ushbu to‘lg‘amadir va hech bir urush to‘lg‘amasiz o‘tmaydi.” [Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Tosh.: O‘qituvchi, 2008.]

Muhammad Shayboniyxonning kuch-qudrati oshib, Xuroson va Movarounnahrda harbiy-siyosiy faoliyat olib borayotgan bacha temuriy va chig‘atoy sarkarda va ularning qo‘shinlarini bo‘ysundirib, o‘z davlati ostida birlashtirgan. “Boburnoma” da bu haqida Bobur shunday deydi: “Movarounnahr va Xurosonda hamma Shayboqxon tomoniga o‘tib ketdi, faqat bir mengina qoldim” deb ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ўзбекистон Руспубликаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Андижон вилояти «Боғи Бобур» истироҳат масканида сўзлаган нутқидан. 05.06.2017.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Фан, 2019. – 5 б.

3. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. –Т.: ЎзССР фанлар академияси нашриёти, 1961. – 320 б.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Tosh.: O‘qituvchi, 2008.

5. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixiy Rashidiy. Tosh.: Sharq, 2010.

6. N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: “O‘qituvchi”,1976.

7. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –T.: O‘qituvchi, 1994.-B.216.

8. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. –T.: O‘zbekiston, 2013. – B.1094.

9. Ўзбек адабиёти тарихи, 3-жилд. Тошкент: Фан.1984.

10. Herman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – T.: G‘.G‘.ulom nomidagi ASN, 1990. -B 73.

11. Sabtelni, M. The poetic circle at the court of Timurid Sultan Husain Baiqara and its political significiance. – Harward, 1979.

12. Qorayev Sh. O‘zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. – T.: Ilm-fan va ma’naviyat, 2024. – B.310.

13.Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. Monografiya. – T.: Intellekt, 2023. –B .262.

14. Zamiraxon Isoqova. Zahiriddin Muhammad Bobur va Shayboniyxon munosabatlariga yangicha yondashuv maqolasidan.

UDC 659.123.1

FUNCTIONS OF NON-LINGUISTIC TOOLS USED IN UZBEK ADVERTISING TEXTS

Sh.M. Yunusova, PhD, Associate Professor, Tashkent Institute of Management and Economics, Tashkent

Annotatsiya. *Maqolada reklama matnlarida foydalanuvchilarga ta’sir qilish va ularning e’tiborini jalb qilishga qaratilgan pragmatik omillar haqida ma’lumot berilgan. Reklama matnlarida faol qo‘llanadigan nolingvistik vositalarning tasnifi ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pragmalingvistika, substansional-pragmatik, reklama, reklama matnlari, nolingvistik, yashirin reklama, til vositalari.*

Аннотация. *В данной статье определены наиболее часто используемые прагматические факторы в рекламных текстах, основная цель которых – воздействие на пользователей и привлечение их внимания. Также дана классификация неязыковых средств, используемых в рекламных текстах.*

Ключевые слова: *прагмалингвистика, субстанционально-прагматический, реклама, рекламные тексты, неязыковой, скрытая реклама, узбекский сленг, языковые средства.*

Abstract. *This article defines the most commonly used pragmatic factors in advertising texts, the main purpose of which is to influence users and attract their attention. A classification of non-linguistic means used in advertising texts is also given.*

Keywords: *pragmalinguistics, substantional-pragmatic, advertisements, advertising texts, non-linguistic, hidden advertising, Uzbek slang, language aids.*

Introduction. Pragmalinguistics emerged based on an approach to communication systems through the widely popularized method of pragmatic analysis in linguistics. Pragmalinguistics developed as an independent field of linguistics in the 1960s and 1970s. In 1970, an international conference on "Pragmatics of Natural Language" was held in Dordrecht. Professor M. Bar-Hillel, the editor of the collection of lectures presented at the conference, noted that the conference participants unanimously agreed that "pragmatic characteristics of natural language communication, as well as syntactic and semantic features of this communication, should be studied within the framework of a linguistic theory"(*Bar-Hillel, Y.1970*).

The substantial-pragmatic approach in Uzbek linguistics is a new empirical direction that studies linguistic possibilities in relation to non-linguistic phenomena such as the speaker, listener, their interaction in the process of communication, and the communicative situation. Traditional pragmalinguistics aims to study the process of communication directly from the point of view of efficiency, whereas substantial pragmatism starts from the treasury of opened possibilities. In this regard, the results of substantial study of the Uzbek language and the research conducted in connection with this play the role of theoretical foundation. In Uzbek linguistics, which has passed its rational stage, pragmatic direction is developing in one form or another: the substantive-syntactic analysis (Mahmudov 1992);pragmaical text analysis (Hakimov 1993:24); pragmatical analysis of commuincation situation(Safarov 2008). However, the new direction of pragmalinguistics that has emerged in Uzbek linguistics sharply differs from existing directions in terms of research principles, goals, and objectives. This is the Uzbek substantional-pragmatic approach (Mengliyev 2013). This is because "world pragmalinguistics aims to study the process of speech communication directly from the perspective of effectiveness, while Uzbek substantive-pragmatism has defined the direction of substantive pragmatics, based on the treasure trove of open and described possibilities"(Ibragimov 2019: 34).

The substantival-pragmatic approach, as a new empirical direction in Uzbek linguistics, studied linguistic possibilities in connection with such non-linguistic phenomena as the speaker, listener, their interaction in the process of communication, and the communicative situation. This approach showed that the practical use of human language possibilities manifests itself in the appearance of a number of non-linguistic factors, such as the personal qualities of the speaker and listener, the purpose of speech, its types, speech strategy and tactics, speech etiquette, culture of communication, worldview, level of knowledge, interests of the speaker or listener. Substantival-pragmatic linguistics is a promising direction, formed on the basis of substantival linguistics, which has proved that by opening up hundreds of concrete realizations and forms of language possibility, it is oriented towards determining which of these forms is more effective and under what conditions.

Materials and methods. Pragmatic factors play a particularly important role in advertising texts, the main goal of which is to influence users and attract their attention. Non-linguistic means used in advertising texts can be classified as follows:

Such non-linguistic means are mainly used in TV commercials and online advertising. In recent times, the popularity of video advertising in online advertising has reduced the overall volume of TV commercials, but it remains one of the most popular forms of advertising for advertisers.

Certainly, the share of internet advertising in the volume of video traffic in the dynamics of internet usage is significant and increases from year to year. For example, the wallpaper advertising for *Suzane* was popular and successful because it featured a well-known artist. One of the advertisements that ensured the success of advertising with the desired appearance is the advertising of the Galavit medicine. The text of this advertisement consists of only one simple sentence: "*Galavit helps when you have flu and colds*!"

Indeed, there is a highlighted part in the advertising text, and usually linguists turn to the highlighted parts to emphasize a certain fragment. "The selected parts are used to highlight and exaggerate a fragment in speech, draw the attention of the listener to this fragment. Such fragments are pronounced with special intonation and are considered an important stylistic means" (O'rinboyev 2001:92). But we can say that the success of the above advertising of medicine was ensured by a pleasant rhythm of music and the right choice of performers (using the image of young children). It is clear that the success of commercials prepared for television and the Internet can be ensured by the popularity of performers among the people or their attractive appearance. In this case, the language aids can be minimized. It is for this reason that celebrity advertising requires manufacturers of goods and service providers to be prepared for high financial costs. This type of non-linguistic means is also very useful for roadside advertising monitors.

When using this non-language tool, only the advertiser's phone number can be used as the language means. Advertising monitors and banners are the most convenient tools for this type of advertising. This is evidenced by the image of heavy equipment and household goods on roadside banners and monitors. Sometimes the image of the product goes beyond the boundaries of the banner and plays an important role in attracting the attention of users. It is impractical to advertise services with this type of ad. Services are represented by language tools in advertising monitors and banners. At the same time, the creative potential of advertising creators is also important. Therefore, Article 4 of the Law "On Advertising" in the new version includes the following opinion: "Advertising in whole or in part may be subject to copyright and related rights"(https://lex.uz/uz/docs/-6052631).

This non-linguistic tool is used by advertisers in places where visual effects used in ads are considered insufficient. This process (selection of suitable music for advertising) is analyzed by experts and its influence on the choice of users is checked. Scientific research is no secret to anyone that music affects a person's emotions and mood. Therefore, in the process of creating any ad, an attempt is made to turn to music. This type of advertising is suitable for radio, television and online advertising. The music chosen to advertise some products and services has become so successful that you no longer need to use words. Only visual aids and music are enough to advertise such goods and services. For example, in ads for products such as Nescafe (https://www.youtube.com/watch?v=-K_NQg01_So), Nestle Decoration (https://www.youtube.com/watch?v=iyJ-5nRAEFg), music is used as the main pragmatic tool. For example, 30-second video ad of Nestle Decoration there is one single sentence is used, which sounds for 5 seconds only. This is the clear indication of the high importance of music in advertising. The 45-second Nescafe product commercial used only one noun and it was the product name. Of course, visual media also play an important role in the success of advertising the listed products. But music is undoubtedly the main tool that attracts the attention of users in these advertising texts. In most advertisements, music can also be used as an additional tool to convey the purpose of the advertisement. We did not consider it necessary to include in this item, since in such advertising, in addition to language and music, non-linguistic means are actively used. For example, in a medicine advertisement of Romidon (https://www.youtube.com/watch?v=) music and background song was the key for success.

Such non-linguistic means are also important in the promotion of certain goods and services. For example, in an advertisement for carbonated refreshments, the sound effect of the process of opening their containers and the visual effect similar to bubbles in a bottle make the user unwittingly want to consume the beverage. We can observe this using the example of advertising Coca-Cola (https://www.youtube.com/watch?v=0ok9-I0jkp8). This 30-second commercial repeatedly mentions the aforementioned sound effects (the knock of full glasses of drink, the sound of the bottle being opened, etc.) and the visuals (the bottles of drink, evenly arranged in boxes, the satisfied look of the

person consuming it) done. Due to the popularity of Coca-Cola in its traditional types of advertising, there is almost no need for language tools. When presenting a new type of product to consumers, language means are of great importance, since it is necessary to identify the similarities and differences between a new type of product and a traditional product. For example, a sugar-free Coca-Cola ad uses text consisting of multiple sentences (https://www.youtube.com/watch?v=U0DkJK-fWQ0).

Заключение. В числе переводчиков на русский язык произведений Алишера Навои имелись женщины. В их числе стоит упомянуть имена трех переводчиц. Среди них имелась полиглот Татьяна Спендиарова, которая в совершенстве владела армянским, русским, немецким, французским и английским языками. Светлана Сомова же была поэтессой. В раннем творчестве поэтессы мы можем увидеть только её переводы, но с 1942 года она начала печатать и свои сборники стихов. А Татьяна Боровкова больше всего занималась научной деятельностью, принимая участие в составлении «Древнетюркского словаря».[17] В целом, они занимались художественным творчеством, научной деятельность. Все три учёные занимались изучением и популяризацией восточной культуры и литературы в Советском Союзе. Они активно занимались переводами произведений восточных авторов на русский язык, способствуя культурному обмену между Востоком и Западом. Все они были не просто переводчицами, а творческими личностями с собственным голосом в обществе и поэтических кругах. Их деятельность сочетала художественное творчество и научные исследования, что сделало их заметными фигурами в своей области.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Сомова, Светлана Александровна. Стихи и переводы. Ташкент / Светлана Сомова. — Ташкент : Союз сов. писателей Узбекистана. [Узбек. отд-ние Литфонда СССР], 1947. — 135 с. : заставки : 19 см.

2. Сомова, Светлана Александровна. Стихи и переводы. Ташкент. / Светлана Сомова. — Ташкент : Союз сов. писателей Узбекистана. [Узбек. отд-ние Литфонда СССР], 1947. — 135 с.10 р.

3. «Сорок девушек». Каракалпакский эпос в переводе Светланы Сомовой. Государственное издательство детской литературы Министерства Просвещения РСФСР. Москва 1952. Ленинград.

4. С. Каралаев. Эр-Тоштюк : Кирг. нар. эпос / Сказитель Саякбай Каралаев; Перевела С. Сомова. — Фрунзе: «Киргизгосиздат», 1958. — 210 с.

5. *С. Сомова.* Встречный ветер: Стихи (Циклы: Дальние дороги; Волжские встречи; Ташкентские стихи; Солдатский дневник; Думы о любви). — Ташкент: «Гослитиздат УзССР», 1958. — 151 с.

6. С. Сомова. Поэма о поэте (Х. Алимджане) (Циклы: Спутники души; Год в Черемушках; Азийские акварели). — Ташкент: «Гослитиздат УзССР», 1962. — 87 с.

7. Указ Президиума Верховного Совета СССР О награждении орденами и медалями работников литературы и искусства Узбекской ССР : [арх. 26 февраля 2022] // Советское искусство. — 1951. — № 98 (8 декабря). — С. 1.

8. Александр Константинович Боровков (1904–1962) — советский лингвист-тюрколог, узбековед, член-корреспондент АН Узбекской ССР (1943), заслуженный деятель науки Узбекской ССР, член-корреспондент АН СССР (1958), доктор филологических наук, профессор.

9. Милибанд С. Д. Востоковеды России: XX — начало XXI века: Биобиблиографический словарь: В 2-х книгах.

10. «Востоковеды России» XX– начало XXI века. С. Д. Милибанд; Отв. ред. В. М. Алпатов; Институт востоковедения РАН; Институт научной информации по общественным наукам РАН. — Кн. 1: А—М. — М.: Восточная литература, 2008. — С. 180.

11. Рада Аллой. Веселый спутник: воспоминания об Иосифе Бродском. — Журнал "Звезда", 2008. — 112 с. Архивировано 9 ноября 2017 года.

12. Алишер Навои. Избранные стихотворения 1 книга. Предисловие А, Каюмова . Газели. ИЗ ДИВАНА «ЧУДЕСА ДЕТСТВА». В настоящее издание вошли образцы лирических и эпических произведений Алишера Навои. Оно подготовлено на основе собрания сочинений Навои в десяти томах (на русской языке), Ташкент, 1968—1972 гг. За основу первой книги — «Избранные стихотворения» взяты 1—11 тома указанного десятитомника (Переводчики — коллектив, составитель и редактор Х С. Сулейманов), Ташкент, 1969 г.

13. Алишер Навои. Избранные стихотворения 1 книга. Предисловие А, Каюмова . Газели. ИЗ ДИВАНА «ЧУДЕСА ДЕТСТВА». 45-49-50-52 стр.

14. Спендиаров Александр Александрович (1871–1928)— российский и армянский композитор, дирижёр, Народный артист Армянской ССР (1926).

15. Будагян Г. Е. Со Спендиаровым: страницы воспоминаний — Ереван: Амроц, 1999. — 63, с., [8]. ил., портр

16. Алишер Навои. Избранные стихотворения 1 книга. Предисловие А, Каюмова . Газели. ИЗ ДИВАНА «ЧУДЕСА ДЕТСТВА». 20-22-25-40-94 стр.

17. «Древнетюркский словарь». Авторы: В.М.Наделяев, Д.М.Насилов, Э.Р.Тенишев, А.М.Щербак, Т.А.Боровкова, Л.В.Дмитриева, А.А.Зырин, И.В.Кормушин, Н. И. Летягина, Л. Ю. Тугушева. - Ленинград: Наука. Ленингр. отд-ние, 1969. - 686 с. (Словарь содержит около 20 000 древнетюркских слов и устойчивых выражений).

УЎК 81-13

САИД АҲМАДНИНГ "СОБИҚ" ҲИКОЯСИДАГИ ОТ СЎЗ ТУРКУМИГА ОИД СЎЗЛАР ТАҲЛИЛИ

И.К.Козиева, ўқитувчи, Бухоро давлат университети, Бухоро
Ҳ.Зайитхонова, талаба, Бухоро давлат университети, Бухоро

Аннотация. *Ушбу маколада биз Саид Аҳмаднинг "Собиқ" ҳикоясидаги от сўз туркумига оид сўзлар таҳлил қилдик ва ушбу ҳикоядаги от сўз туркумига алоқадорини морфемик жиҳатдан кўриб чиқдик. Мақолада шунингдек Саид Аҳмад ўзининг юмористик ҳикояси орқали инсонлар сал ютғимиздан ҳаволаниб (балки билмаган ҳолда) асосий вазифаси қолиб бошқа нарсаларга чалғиб қолишини тушунтирганлиги ҳакида гапирилган.*

Калит сўзлар: *Атоқли от, турдош от, сюжет, морфологик таҳлил, асар.*

Аннотация. *В этой статье мы проанализировали слова, относящиеся к категории существительных в рассказе Саида Ахмада "Бывший", и морфемно рассмотрели слова, которые относятся к категории существительных в этой истории. В статье также говориться, что Саид Ахмад своим юмористическим рассказом объяснил, что люди отвлекаются на другие вещи, оставаясь при этом (возможно, неосознанно) главной задачей салафитов.*

Ключевые слова: *Имена собственные, имена нарицательные, сюжет, морфологический разбор, произведение.*

Abstract. *in this article, we analyzed the words of the noun phrase category in Said Ahmad's "Former" story and examined morphemically its relation to the noun phrase category in this story. The article also speaks of Haki as Said Ahmad explained through his humorous account that human beings are envied (perhaps unbeknownst to them) of our poor achievement while remaining distracted by other things.*

Keywords: *proverbial nouns, related nouns, plot, morphological analysis, work.*

Саид Аҳмад бу воқеани асарнинг бош қаҳрамони тилидан ҳикоя қилади. Асар ҳажвий, соф юмористик йўналишда ёзилган. Ёзувчи жамиятда соддадил, ҳалол инсонларнинг хатти-ҳаракатларида пайдо бўлаётган дабдабабозлик, ортиқча машмаша, нозарур юмушларга чалғиб, кулгили вазиятларга тушиб қолиш каби нуқсонлар устидан енгил кулади. Катта мақсадлар йўлида интилаётган яхши бир меҳнаткаш инсонни асраб-авайлаш, унинг кучидан оқилона фойдаланиш, ҳар бир одам ўз ўрнида бўлиб, ўз вазифасини сидқидилдан бажариши лозимлиги каби мақсадлар ҳажвий йўсинда тасвирланган вазиятлар орқали англашилади. Ёзувчи ҳикояда бадиий тилнинг халқона, нозик қочиримли, ширали, кўп маъноли хусусиятларидан кенг фойдаланади.

Бизнинг назримизда ҳикояда ҳозиргача ўз мавжудлигини йўқотмай келаётган дабдаба, ортиқча расмиятчиликлар танқид остига олинган. Биз инсонлар сал ютуғимиздан ҳаволаниб (балки ўзимиз билмаган ҳолда) асосий вазифамиз қолиб бошқа нарсаларга чалғиб қоламиз. Бир бор ўша ишни маромига етказамиз аммо атрофдагилар мақтовидан сўнг "бўлди мен энг зўри, мен ишимни қойиллатиб бажариб қўйдим" деган фикрлар пайдо бўлади бизда ва ўша қойиллатган ишимизни яна давом эттирмаймиз нима учундир афсуски. Саид Аҳмад худди шу нарсани ўзининг юмористик ҳикояси орқали бизга кўрсатган, тушунтирган гўё.

Асардаги от сўз туркумига оид сўзларнинг морфемик таҳлили.

a) **Пахта** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Пахта – ғўза ўсимлигининг чигит ва толалардан иборат оппоқ юмшоқ ҳосили.

b) **Ғайрат** – от, турдош от, мавҳум от, туб от.
Ғайрат – иш-ҳаракатга бўлган кучли интилиш, берилиш ҳисси; иштиёқ.

c) **Иш** –от, турдош от, фаолият-жараён оти, туб от.
Иш – иш-юмуш, бажарадиган вазифа.

d) **Тошкент** – от, атоқли от, аниқ от, туб от.
Тошкент – Ўзбекистон республикасининг пойтахти.

e) **Мухбир** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Мухбир – таҳририят таркибида журналист сифатида хизмат қилувчи ходим.

f) **Овоз** – от, турдош от, мавҳум от, туб от.
Овоз – гапириш, қичқириш, куйлаш, сайраш пайтида ўпкадан чиқаётган ҳавонинг урилиши билан товуш пайчаларининг тебранишидан ҳосил бўладиган товуш.

g) **Лента** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.
Лента – безак учун ишлатиладиган ёки сочга тақиладиган энсиз узун тасма.

h) **Радио** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.
Радио – сигнал, овоз каби ахборотларни маълум масофага электромагнит тўлқинлар ёрдамида Симеиз узатиш ва қабул қилиш усули.

i) **Телевизор** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.
Телевизор – телестудиядан узатиладиган телесигналларни тасвир ва овоз тарзида қабул қилиб кўрсатадиган ва эшиттирадиган аппарат.

j) **Хат** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Хат – ёзув, ёзилган, чизилган ёки ўйиб туширилган белгилар; матн.

k) **Обрў** – от турдош от, мавҳум от, туб от.
Обрў – кишининг тутган иши ва яхши хислатлари туфайли жамоатчилик қошида топган эътибори; ҳурмат, нуфуз.

l) **Туш** – от, турдош от, мавҳум от, туб от.
Туш – уйқуда содир бўладиган субъектив психик ҳодиса.

m) **Руҳ** – от, турдош от, мавҳум от, туб от.
Руҳ – инсоннинг номоддий моҳияти, тириклик манбаи.

n) **Раис** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Раис – баъзи орган, ташкилот, идора, жамият ва шу кабиларнинг бошлиғи, раҳбари.

o) **Машъала** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Машъала – ёқилган машъал.

p) **Соқол** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Соқол – иякни қоплаб ўсадиган қил-туклар.

q) **Дазмол** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Дазмол – кийим-кечак, газлама ва шу кабиларни қиздириб текислаш, силлиқлаш, ғижимини ёзиш учун мўлжалланган асбоб.

r) **Шим** – от, турдош от, аниқ от, туб от.
Шим – гавданинг белигача бўлган пастки қисмига кийиладиган устки кийим.

s) **Насиҳат** – от, турдош от, мавҳум от, туб от.

Насиҳат – яхши йўлга солиш, таълим бериш мақсадида айтилган гап; маслаҳат, панд, ўгит.

t) **Газета** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.

Газета – расмий журнал.

u) **Бет** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Бет – саҳифа.

v) **Чакка** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Чакка – бош суюгининг ёноқ билан пешана оралиғидаги икки ён қисми.

w) **Сурат** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Сурат – рассом томонидан чизилган тасвир, расм.

x) **Идора** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Идора – маълум бир ижтимоий, давлат, хўжлик, савдо тармоқларини бошқариш учун штатли ходимлари ва маъмурияти бўлган ташкилот, муассаса, бошқарма ва улар ўрнашган бино.

y) **Оёқ** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Оёқ – жонли организмларгавдасининг таяниб туриши ва юриши ёки ўрмалаши учун хизмат қиладиган аъзо.

z) **Этик** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Этик – болдирни бекитиб турадиган узун қўнжли, пошнали пойабзал.

aa) **Кенгаш** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Кенгаш – биргаликда муҳокама қилмоқ, ўзаро маслаҳатлашмоқ.

bb) **Уй** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Уй – яшашга ишлашга хизмат қиладиган қурилма, бино, хона.

cc) **Йўл** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Йўл – одамлар, жониворлар ва бошқа нарсалар қатнови натижасида ер сатҳида из босилиб ҳосил бўлган узун, давомли қисм, қатнов қисми.

dd) **Дала** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Дала – аҳоли яшайдиган жойдан ташқарида бўлган, экин экиладиган ер, экинзорлар.

ee) **Машина** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.

Машина – бир турдаги ҳаракат энергиясини иккинчи турдаги ҳаракат энергиясига айлантириш, материал ёки ахборотларни ўзгартириш, алоқа ўрнатиш, юк ва одамлмарниташиш учун мўлжалланган механизм ёки механизмлар мажмуи. (ҳикояда одамларни ташиш учун мўлжалланган машина назарда тутилган).

ff) **Одам** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Одам – кишилик жамиятининг айрим бир аъзоси, шахс.

gg) **Киночи** – от, турдош от, аниқ от, ясама от.

-чи от ясовчи қўшимча ёрдамида отдан от ясалган

Киночи – кино ходими.

hh) **Кийим** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Кийим – инсон танасини ташқи муҳит таъсири ва тирли меҳаник таъсирлардан асрайдиган воситалар тўплами.

ii) **Кино** – от,турдош от, аниқ от, ўзлашма от.

Киноа – кинематографиянинг техник воситалар асосида шаклланган бадиий ижод тури.

jj) **Гап** – от, турдоў от, мавҳум от, туб от.

Гап – нутқ воситасида ифодаланган фикр, ўй, мулоҳаза.

kk) **Раён** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма.

Раён – бирор географик, иқтисодий ва кабилар белгилар,хусусиятлар билан ажралиб турадиган жой, ҳудуд.

ll) **Маданият уйи** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Маданият уйи – аҳолининг маданий дам олишини уюштириш мақсадида қурилган йирик муассаса.

mm) **Маросим** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Маросим – диний ёки анъанавий урф-одатлар муносабати билан ўтказиладиган тадбир, йиғин.

nn) **Механизатор –** от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.

Механизатор – механизация мутахассиси.

oo) **Табрик нутқи** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Табрик нутқи – бирор яхши кун, сана ёки эришилган ютуқ, яхшилик муносабати билан билдирилган қутлов сўзлари, муборакбод.

pp) **Уста** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Уста – бирор касб-ҳунар билан шуғулланувчи малакали мутахассис.

qq) **Чапак** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Чапак – кафтларнинг бир-бирига урилиши ва ундан чиқадиган товуш; қарс, қарсак.

rr) **Меҳмон** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Меҳмон – тўй, зиёфат ва шу кабилар муносабати билан йўқлаб келган (борган) шахс.

ss) **Жой** – от, турдош от, аниқ от, ясама от.

Жой – ўрин.

tt) **Артист** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.

Артист – санъат асарларини томошабинлар учун намойиш қилувчи ижрочи.

uu) **Пивохўрлик** – от, турдош от, фаолият-жараён оти, ясама от.

-лик от ясовчи қўшимчаси ёрдамида отадан от ясалган.

Пивохўрлик – бир неча киши йиғилиб пиво ичиш.

vv) **Эшик** – от, турдош от, аниқ от туб от.

Эшик – уй, хона, бино ёки ҳовлининг кираверишида ўрнатиладиган, очиб-ёпиб туриладиган қурилиш буюми.

ww) **Соч** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Соч – одамнинг бош терисидан ўсадиган ипсимон шох унум.

xx) **Йигит** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Йигит – жинсий ва жисмоний жиҳатдан вояга етган эркак.

yy) **Елка** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Елка – қўлнинг танага яқин қисми.

zz) **Сумка** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.

Сумка – нарса солиб кўтариб юриладиган, чарм, мато ва шу кабилардан ясалган буюм.

aaa) **Ука** – от, турдош от, аниқ от, туб от.

Ука – бир ота-она ўғилларидан кичиги (катта ёшдаги фарзандларга нисбатан).

bbb) **Виставка** – от, турдош от, аниқ от, ўзлашма от.

Виставка – кўргазма.

ccc) **Эс** –от, турдош от, мавҳум от, туб от.

Эс – хаёл, зотира.

Ушбу мақолада биз Саид Аҳмаднинг " Собиқ " хикоясидаги барча турдош отларни морфемик ва этимологик жиҳатдан таҳлил қилиб чиқдик. Бу макола ёрдамида ҳикоядаги от сўз туркумига оид кўзларни ўз ва ўзлашган қатлам жиҳатдан турларига бўлиб ўргандик.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бегматов Э.А. Ўзбекистон номлари маълумоти исмлари маъноси (изоҳли луғат). 14 600 исмлар изоҳи.2-нашри. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси (луғат), 2007. — 608 б.

2. Нафасов Т., Т.Маркаев: Сайтда ҳаракатланиш қидирув ўзбек этноантропонимлари. // Ономастика. Ўзбекистон ономастикаси. Сат. тез.II рес. илмий-амалий.конф. - Қарши, 1989. — Б. 136-140.

3. Суперанская А.В. Атоқли отлар структураси фонология ва морфонология.-М.: Наука, 1969.

4. Петровский Н.А. Рус шахсий исмлар луғати.-М.: Издательство Советская энциклопедия,1966.

5. Ермолович Д.И. Атоқли отлар тиллар ва маданиятлар ўртасида..-М.: Р.Валент, 2001.

6. Козиева И. К. Лексико-семантические свойства антропонимов в художественной литературе //Tadqiqotlar. uz. – 2024. – Т. 33. – №. 1. – С. 167-171.

7. Ikbol K. Aesthetic onomastics and its functions in artistic and intertext //International Journal on Integrated Education. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 132-136.

8. Komiljonovna K.I. Anthroponymy as a branch of onomastics //Open Access Repository. – 2023. – Т. 9. – №. 9. – С. 84-87.

9. Koziyeva I. Issues of anthroponymy in uzbek and russian linguistics //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B1. – С. 121-123.

10. Kozieva I. Anthroponymy studies //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 63-65.

УДК 811.161.1

ПОИСК "НОВОГО" ЯЗЫКА В РУССКОЙ ПРОЗЕ НАЧАЛА XXI ВЕКА

Э.Э. Курбонов, магистрант, Термезский государственный педагогический институт, Термез

О.Х. Кадырова, преподаватель, Термезский государственный педагогический институт, Термез

Annotatsiya. *Maqolada 21-asr boshidagi rus nasrida "yangi" tilning shakllanishi va faoliyati xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Unda zamonaviy mualliflar tomonidan badiiy matnlarning lingvistik dizaynidagi asosiy tendentsiyalar, jumladan, so'zlashuv nutqi elementlari, jargon, postmodern amaliyotlar, shuningdek, internet va ommaviy madaniyatning uslub va lug'atga ta'siri tahlil qilinadi. Viktor Pelevin, Vladimir Sorokin, Zaxar Prilepin, Lyudmila Ulitskaya kabi yozuvchilarning ijodiga qisqacha sharh yangi adabiy til izlanishlari kontekstida berilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy rus nasri, adabiy til, postmodernizm, neologizmlar, internet lug'ati, til tajribalari.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности формирования и функционирования «нового» языка в русской прозе начала XXI века. Анализируются ключевые тенденции в языковом оформлении художественных текстов современных авторов, включая элементы разговорной речи, жаргонизмы, постмодернистские практики, а также влияние интернета и массовой культуры на стилистику и лексику. Проводится краткий обзор произведений таких писателей, как Виктор Пелевин, Владимир Сорокин, Захар Прилепин и Людмила Улицкая, в контексте поисков нового литературного языка.*

Ключевые слова: *современная русская проза, язык литературы, постмодернизм, неологизмы, интернет-лексика, языковые эксперименты.*

Abstract. *The article examines the features of the formation and functioning of the "new" language in Russian prose of the early 21st century. It analyzes key trends in the linguistic design of literary texts by modern authors, including elements of colloquial speech, jargon, postmodern practices, as well as the influence of the Internet and mass culture on style and vocabulary. A brief overview of the works of such writers as Victor Pelevin, Vladimir Sorokin, Zakhar Prilepin and Lyudmila Ulitskaya is given in the context of the search for a new literary language.*

Key words: *modern Russian prose, literary language, postmodernism, neologisms, Internet vocabulary, language experiments.*

Введение. Русская проза начала XXI века продолжает активный поиск новых выразительных средств, отражающих динамику социокультурных процессов, вызванных цифровизацией, глобализацией и постсоветской трансформацией ментальности. На смену «высокой» литературной норме XX века приходит гибридная, многослойная структура художественного текста, в которой сталкиваются литературные и нелитературные регистры, включая сленг, бюрократизмы, англицизмы и интернет-жаргон.

Актуальность темы определяется необходимостью осмысления изменений, происходящих в языке художественной литературы, как отражении более широких культурных и идеологических сдвигов.

Теоретические подходы к понятию "нового" языка

Понятие "новый язык" не является однозначным. В литературоведении оно может означать:

- **Обновление стилистических форм** (синтаксис, ритм, структура);
- **Расширение лексики за счёт маргинальных слоёв языка** (сленг, жаргон);

• **Интертекстуальность** и **языковая игра** (характерная для постмодернистской прозы);

• **Трансгрессия литературной нормы** как акт художественного сопротивления.

По словам М.М. Бахтина, "слово всегда живёт на границе со своим другим" — в XXI веке эта граница всё чаще проходит между официальным, нормативным языком и разнородными социальными идиолектами.

Языковые эксперименты в прозе Виктора Пелевина и Владимира Сорокина

Виктор Пелевин

Пелевин активно использует гибридные языковые формы — сочетает философскую лексику с интернет-мемами и сленгом, вводит персонажей, говорящих на условном "языке нового времени". Например, в романе *"iPhuck 10"* язык нарратива насыщен цифровой лексикой, кальками и имитацией алгоритмического мышления.

Владимир Сорокин

Сорокин разрушает традиционные формы повествования, используя искусственные языки, архаику, бюрократические шаблоны. В романе *"Теллурия"* он применяет метод языковой фрагментации — каждый рассказ написан в уникальной стилистике, что отражает деконструкцию единой языковой картины мира.

Реалистическая и документальная стилистика в прозе Захара Прилепина и Людмилы Улицкой

Захар Прилепин

В его прозе доминирует документально окрашенный язык, приближённый к устной речи. В романе *"Санькя"* автор использует разговорные конструкции, просторечие, элементы молодёжного сленга, что создаёт эффект подлинности, "живого языка улицы".

Людмила Улицкая

Её проза отличается тонкой стилизацией под повседневную речь разных социальных групп, частым использованием внутреннего монолога, что позволяет передавать интонационную и психологическую достоверность. Вместе с тем, её язык остаётся «гуманистическим», обращённым к экзистенциальным темам.

Влияние интернета и медиатехнологий на языковую картину прозы

Современные авторы активно интегрируют в художественные тексты:

• интернет-мемы,

• эмодзи и графические элементы,

• лексемы из IT-сферы (*логин, баг, апгрейд*),

• транслитерации (русский текст латиницей),

• речевые паттерны соцсетей (краткость, обрывочность, ироничность).

Это приводит к формированию *сетевой стилистики*, в которой традиционный литературный язык переосмысляется под влиянием цифрового дискурса.

Дилемма читабельности и художественной ценности

Поиск нового языка сталкивается с проблемой восприятия: не все читатели готовы воспринимать радикальные языковые эксперименты. Возникает вопрос: что важнее — эстетическая инновация или сохранение ясности и культурной преемственности?

Литература XXI века стремится к **многоголосию**, к включению разнородных языковых пластов, что делает текст полифоничным и интерпретативно открытым (по Бахтину).

Заключение. Русская проза начала XXI века характеризуется стремлением к языковому обновлению, что проявляется в разрушении жанровых и стилистических границ, активном заимствовании из разговорной, сетевой и профессиональной лексики, а также в экспериментах с формой. "Новый" язык — это не просто набор неологизмов, а отражение изменяющегося мировоззрения, новых способов мышления и коммуникации.

Таким образом, литература становится пространством не только художественного, но и языкового поиска, где каждое слово оказывается не только знаком, но и знаком времени.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бахтин М.М. *Проблемы поэтики Достоевского.* — М.: Наука, 1972.

2. Лотман Ю.М. *Семисфера культуры.* — СПб.: Академический проект, 2000.

3. Пелевин В. *iPhuck 10.* — М.: Эксмо, 2017.

4. Сорокин В. *Теллурия.* — М.: АСТ, 2013.
5. Прилепин З. *Санькя.* — М.: Эксмо, 2006.
6. Улицкая Л. *Зелёный шатёр.* — М.: АСТ, 2011.
7. Кузнецова Т.Ю. *Современный литературный язык: трансформация и эксперимент.* — М.: Языки славянских культур, 2021.

УДК 808.5

ЮМОР И САТИРА В ТВОРЧЕСТВЕ А.АВЕЧЕНКО

Г.Э.Кучкарова, стажёр-преподаватель, Каттакурганский филиала СамГУ, Каттакурган

Annotatsiya. *Maqolada 20-asr boshidagi taniqli yozuvchilardan biri Arkadiy Averchenko ijodining ba'zi xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Yozuvchiga maishiy satirik an'analar meros bo'lib qolganligi ta'kidlanadi. Maqolada yozuvchining ijodi rus adabiyotining satirik chizig'ining rivojlanishiga nima olib kelganligi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *satira, janr, uslub, hajviy, effekt, satira, jamiyat, insoniy illatlar.*

Аннотация. *В статье рассматривается некоторые особенности творчестве одного из известных писателей начала 20 века Аркадия Аверченко. Подчеркивается, что писатель наследует отечественную сатирическую традицию. Рассматривается то новое, что вносит творчество писателя в развитие сатирической линии русской литературы.*

Ключевые слова: *сатира, жанр, стилистика, комический, эффект, сатира, общество, человеческие пороки.*

Abstract. *The article examines some features of the work of one of the famous writers of the early 20th century, Arkady Averchenko. It is emphasized that the writer inherits the domestic satirical tradition. The new things that the writer's work brings to the development of the satirical line of Russian literature are considered.*

Key words: *satire, genre, style, comic, effect, satire, society, human vices.*

Сатира всегда была неразрывно связана с идеями и процессами, которые развивались и существовали в обществе. Она раскрывала грани наиболее острых социально-культурных противоречий, оперативно и глубоко реагируя на проблемы жизни социума, показывая их с новой стороны. В этом смысле она всегда занимала особое положение, переосмысляя объект изображения через обличительно-осмеивающие образы, не стесняясь показать действительность со специфической стороны. Проблема смешного в каждое время находит своё выражение. По-своему реализуется эта проблема в один из самых неоднозначных периодов истории – на рубеже XXI-XX вв. Указанный период можно назвать по-настоящему переломным. Трагические изменения, последовавшие позже, своё начало берут именно на рубеже веков, когда пересмотру подвергалось абсолютно все, начиная от политических и исторических концепций, заканчивая трансформацией художественных форм в искусстве и в литературе, в частности.

Именно эта сфера, наиболее чутко реагирующая на все окружающие изменения, отражает их в художественно преломленном виде, показывая самую самую суть происходящих перемен.

Совершенно не случайно, что одним из самых востребованных жанров этого времени стала сатира. Именно в переломные исторические моменты сатирический жанр наиболее ярко и остро способен обозначать те формы, общественные и художественные, которые либо должны уйти в прошлое, уступить место новым, либо каким-нибудь образом трансформироваться, чтобы обозначить своё место в новом мире. Можно вспомнить, что именно жанр сатиры оказался превалирующим, например, в петровскую эпоху, в корне изменившую весь порядок в жизни в стране. В рассматриваемый период, который принято называть Серебряным веком русской культуры, наиболее востребованным литературным жанром оказалась лирика, как жанр, чьей задачей является отражение эмоциональных переживаний эпохи, вполне логично, ведь именно переживание является первоначальным

звеном в общем порядке осмысления происходящего. И уж затем следует это самое переосмысление, когда в свои закономерности права вступает проза.

Классическое выражение «человечество, смеясь, расстаётся со своим прошлым» очень точно формулирует логику популярности сатирического направления в переломную эпоху. Наиболее популярным в это время стали жанры сатирической прозы, начиная с крупных романов заканчивая жанром сатирического очерка и фальетона.

Особое место в ряду русских сатириков рассматриваемого периода занимает фигура Аркадия Аверченко- писателя- юмориста, драматурга, литературного критика. Самое удивительное было в том, что блестящий талант писателя развился как бы сам по себе, т.к. образование он фактически не получил- за плечами было всего два класса образования. Талант и природный ум сполна компенсировали недостаток образования.

Начав свою трудовую деятельность с должности конторщика, затем бугалтера, Аверченко достаточно быстро понял своё предназначение. Литературная его карьера развернулась достаточно быстро, популярным он стал практически сразу. Одна из наиболее ярких особенностей литературного творчества писателя заключалась в том, что произведения его были восприняты практически всей читательской аудиторией, т.к они не были узко социально ориентированы. Есть свидетельства, что рассказы Аверченко были чести у Николая II. Во многих отношениях писателя можно назвать последователем Чехова, с той, однако, разницей, что чеховская ирония редко переходит сарказм, у Аверченко же, именно сатирическое, саркастическое выходит на первый план. В этой связи его.

Скорее можно сравнить с Салтыковым-Щедриным, только без щедринской ориентированности на социальную проблематику. Стилистика большинства произведений. Аверченко значительно отличалась от привычной, той, что так характерна была для журналов, подобных известным «Осколкам», что позволило критике заговорить об «американизме» его юмора. Рассказы писателя строятся, как правило, нединамично; например, центральным персонажем все чаще становится не традиционный неудачник, а, скорее иронический удачник, автор без сожаления при необходимости использует мнимую смерть персонажа. Любое явление в произведениях Аверченко вырывается из привычного ряда и переносится в иной ряд; знак плюс меняется на знак «минус» при сохранении в остальном всей системы, как, например, в минюатюре «Бедствие», где настоящим бедствием становится неурожай. Очень часто используется фантазия, подчёркнутый вымысел, даже буффонада и эксцентрика. Однако о самых необыкновенных вещах Аверченко повествует, как о будничных происшествиях, подчеркивая реальность фантастического. Писатель заставляет героев «двигаться» путешествовать, встречаться со многими людьми, больше действовать, меньше разговаривать. Слово «странный» постоянно попадается в рассказах Аверченко: «странные вещи», «странная дружба», «странная любовь» и т.д. Если другая известная писательница- Надежда Тэффи описывает «обычность», «обыденность», то Аверченко заостряет внимание на нарушении привычных установок. У Тэффи по подчеркивается комизм нормы, у Аверченко комическое строится на нарушении нормы, причём нарушении удивительном, неправдободобном. Юморист любит оперировать чисто литературными категориями, стремясь исключить возможность сопереживания, разрушающего, как известно, комический эффект. При описании внешности, обстановки и т.п. очень часто используется литературные штампы. В его рассказах действуют герои, осознаваемых как персонажи и, -более того, сознающие, себя персонажами. О самых невероятных событиях зачастую рассказывается от первого лица, на повествователе акцентируется внимание, он оказывается в центре событий.

Стилистика Аверченко, действительно, разительно отличалась от привычной юмористичной описательности, она напоминала читателям и критикам, скорее, М.Твена. Но вряд ли справедливо говорить о значительном влиянии американской школы юмора на формировании Аверченко ка писателя. Скорее надо отметить, что традиции русской комической литературы были не сводимы к бытописательству и комическим «словечкам» журнала известного издателя Н.Лейкина.

Иронический удачник – главный герой не только фольклорных, произведений, но и многих водевилей. Фантастика для создания комической ситуации использовалась Н.В.Гоголем и М.Е.Салтыковым-Щедриным. Многие принципы достижения комического эффекта, применявшиеся Аверченко, ранее уже были опробованы в русской комедии 18 в., в шуточной поэзии, в пародийной литературе, да и в журнальной юмористике – прежде всего, в творчестве А.П.Чехова. Заслуга Аверченко в том, что он сумел объединить все эти приёмы и создать стиль чисто юмористического произведения, задача которого-рассмешить.

Русский сатирик Салтыков-Щедрин пользуется сатирическими приёмами для того чтобы обратится политическим темам и вечным вопросам жизни.

Анализируя одну из сказок Салтыкова-Щедрина авторская оценка жизненной философии героя в тексте «Премудрого пискаря» отражается элементами сатиры. Писатель пользуясь иронией показывает негативное отношение к персонажу. [2] Также нельзя не упомянуть, что ключевую, главную роль в произведении сыграли гротеск и гипербола, которые преувеличивают отрицательные черты героя, чтобы показать всё убожество его философии: «Кажется, что я жив? ах, что-то завтра будет» [2]. Автор саркастичен по отношению к премудрому пискарю, который ведёт затворническое существование. Главная идея состоит в том, что невозможно прожить настоящую жизнь, дрожа в вырытой норе, боясь высунуться. Таким образом, с помощью элементов сатиры, которые использует Салтыков-Щедрин, прослеживается осуждение им обывательского образа жизни героя, являющегося аллегорией человека. [1]

ЛИТЕРАТУРА:

1.Толковый словарь Ожегова. Под ред. Ожегова С. И., Шведовой Н. Ю., 1992.

2.М. Е. Салтыков-Щедрин. Сказки для детей изрядного возраста// «Фригато». [Электронный ресурс]: https://frigato.ru/skazki/saltykov-schedrin/

3.Волков А.И. «Сатирические рассказы Н.Теффи» -М., 1997.-265с.

4.Контор А.П. «Смех сквозь слёзы русской литературе».-М., 2001.-163.с.

УЎК 006.72

МЕТРОЛОГИК АТАМАЛАРНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИНИ ТАЙЁРЛАШ УЧУН ЗАРУРАТ

Н.Мамадалиева, ф.ф.д., проф., ЎзР ВМ ҳузуридаги Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги, Тошкент

Аннотация. *Метрология соҳасида атамаларнинг аниқ ва ягона талқини миллий илмий-амалий фаолиятнинг сифатини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Бу мақолада Ўзбекистон шароитида метрологик атамаларнинг изоҳли луғатини яратиш зарурати ва бу луғатнинг илмий, таълимий hamda саноат соҳаларидаги аҳамияти таҳлил қилинган. Шунингдек, терминологияни стандартлаштириш орқали тил муаммоларини бартараф этиш ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш масалалари кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *метрология, изоҳли луғат, атамалар, терминология, стандартлаштириш, миллий тил, илмий тадқиқот.*

Аннотация. *Точное и единое понимание терминов в области метрологии играет важную роль в повышении качества научно-практической деятельности. В данной статье рассматривается необходимость создания пояснительного словаря метрологических терминов в условиях Узбекистана, а также значимость такого словаря для науки, образования и промышленности. Обсуждаются вопросы стандартизаціи терминологии, устранения языковых проблем и укрепления международного сотрудничества.*

Ключевые слова: *метрология, пояснительный словарь, термины, терминология, стандартизация, національный язык, научное исследование.*

Abstract. *Accurate and unified interpretation of terms in the field of metrology is crucial for enhancing the quality of scientific and practical activities. This paper analyzes the necessity of developing an explanatory dictionary of metrological terms in the context of Uzbekistan, as well as*

iy significance for scientific research, education, and industry. Issues of terminology standardization, resolution of language barriers, and strengthening international cooperation are also discussed.
Keywords: *metrology, explanatory dictionary, terms, terminology, standardization, national language, scientific research.*

Ўзбекистон Республикаси иқтисодининг қатор тармоқлари, хусусан машинасозлик, энергетика, нефть-газ қазиб олиш, кимё ва қишлоқ хўжалигининг тез суръатлар билан ривожланиши бошқа соҳаларнинг ҳам жадал тараққий этишига туртки бўлди.

Ушбу шартлар фан-техника ва истиқболли юқори салоҳиятга эга соҳалар бўйича эҳтиёжнинг қондирилиши учун юксак сифатли рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқарилишини таъминлай оладиган юқори малакага эга мутахассисларга бўлган эҳтиёжни оширди.

Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларида мутахассисларни тайёрлаш маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳалари ривожланишининг бир қисмидир.

Бу йўналишда кадрлар тайёрлаш масаласининг муҳимлигини инобатга олган ҳолда йигирмага яқин техника олий ўқув юртлари таркибида "Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш" кафедраси ташкил қилинди. Шундан кейин, мустақилликнинг биринчи йилларида мамлакатда стандартлаштириш ва метрология соҳасига эътибор қаратилиш бошланди. Бироқ давлат тилида метрология бўйича атамалар луғати мутахассис профессор-ўқитувчилар жамоасига маълум қийинчиликлар туғдириши билан бирга, миллий техник кадрлар тайёрлаш сифатини ҳам ўз таъсирида ўтказарди.

Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили тўғрисида"ги Қонунига [1] мувофиқ стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифатни бошқариш соҳаларида мутахассислар тайёрлашда, тегишли меъёрий ҳужжатлар ва давлат стандартларини ишлаб чиқишда ҳамда амалиётда, рус тилидаги техник атамаларни давлат тилида таснифлаш учун 2001-2004 йилларда амалдаги Ўздавстандарт йўналтируви таъминотида давлат тилида метрология соҳаси бўйича атамаларни ифодаловчи "Ўзбекистон Республикаси Давлат стандарти" ишлаб чиқилиб, қабул қилинди. Улар қуйидагилар:

- O'zDst 8.010.1:2002 "ДЎТ. Метрология. Атамалар ва таърифлар. 1-қисм. Асосий ва умумий атамалар" [2];
- O'zDst 8.010.2:2003 "ДЎТ. Метрология. Атамалар ва таърифлар. 2-қисм. Ўлчаш воситалари ва уларнинг параметрлари" [3];
- O'zDst 8.010.3:2004 "ДЎТ. Метрология. Атамалар ва таърифлар. 3-қисм. Метрологик таъминот" [4];
- " O'zDst 8.010.4:2001 ДЎТ. Метрология. Атамалар ва таърифлар. 4-қисм. Аналитик техник ўлчаш воситалари" [5].

Мазкур ҳужжатлар таълим жараёнида қабул қилинган давлат таълим стандартларига мувофиқ талабаларга билим беришни ҳам, метрология соҳасида амалиётни ҳам давлат тилида ташкил этишга хизмат қилмоқда.

Дунё иқтисодиётида ҳар қандай мамлакатнинг тутган ўрни ишлаб чиқараётган маҳсулотларининг рақобатбардошлиги билан белгиланади. Мамлакатимизнинг ҳам ривожланган давлатлар қаторидан жой олиши учун юқори сифатли маҳсулотларни ишлаб чиқаришга эришиш барчамизнинг олдимизда турган энг долзарб масалаларидан биридир. Ўзбекистоннинг Жаҳон савдо ташкилоти (ЖСТ)га аъзо бўлиши жадалашиши билан маҳсулотлар сифатига бўлган талаб ҳам янада ошиб бормоқда. Бу ўз навбатида сифат инфраструктурасининг муҳим элементларидан бири бўлган метрология соҳаси билан узвий боғлиқ.

Сўнгги йилларда ҳукуматимиз, қолаверса, шахсан Президентимизнинг техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги соҳасига бўлган эътиборлари ва тўғридан-тўғри қўллаб-қувватлашлари натижасида биргина метрология йўналишида норматив-ҳуқуқий соҳани такомиллаштириш, моддий-техника базани ривожлантириш, малакали кадрларни тайёрлаш

ҳамда халқаро муносабатларни кучайтириш борасида "Метрология тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни [6], Ўзбекистон Республикаси Президентининг 3та, Вазирлар Маҳкамасининг 5та қарори ва 2 идоравий ҳужжатлари қабул қилинди. Давлат раҳбарининг қарори билан давлат бюджети маблағлари ҳисобидан 48 та харид қилинадиган эталонлар ва юқори аниқликдаги ўлчаш воситалари рўйхати тасдиқланди.

Халқаро тарози ва ўлчовлар бюросига (BIPM) аъзо сифатида қўшилиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳам Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарор лойиҳалари ишлаб чиқилиб, Вазирлар Маҳкамасига киритилди.

Ўлчашлар ягона бирликда бўлишини таъминлаш борасида жами 9та миллий стандартлар (қонунлаштирувчи метрология, ионловчи нурланиш, путур етказмасдан текшириш, ёқилғи, ўлчашларни бажариш услубиёти, элепктр ва магнетизм, турини тасдиқлаш, газ сарфи ва босим йўналишлари) ишлаб чиқилди. Бу эса соҳадаги атамаларни тизимлаштириш, уларни таълим даргоҳидаги талабадан тортиб олимгача бир хил қўллаб, бир талқин этишни тақозо қилади. Шу нуқтаи назардан метрологик атамаларнинг изоҳли луғатини тайёрлаш учун қандай зарурат бор деган савол туғилади.

Кириш. Инсоният тараққиёти ва илмий-техник инқилоб туфайли метрология нафақат лаборатория тадқиқотларининг, балки ишлаб чиқариш, соғлиқни сақлаш, муҳандислик, энергия, экология каби соҳаларнинг ажралмас қисмига айланди. Ҳар бир ўлчов, назорат, стандарт ва сертификатлаш жараёни айнан аниқ ва умумий тушунилган атамалар воситасида амалга оширилади. Шундай экан, илмий ва амалий соҳаларда тўғри англашув ва мулоқот учун метрологик атамаларнинг умумий, аниқ ва изоҳли луғати зарурати туғилади.

Метрология соҳасида қўлланиладиган атамаларнинг турли манбаларда турлича талқини, айрим ҳолларда нотўғри таржима ва изоҳланиши мутахассислар, таълим олувчилар ва ишлаб чиқарувчилар ўртасида тушунмовчиликларга сабаб бўлмоқда. Бундан ташқари, глобаллашув ва рақамлашув жараёнлари давлатлараро стандартлашувни талаб этмоқда. Бу эса метрологик атамаларни бир хил ва тўғри қўллаш масаласини янада долзарблаштиради.

Шу ўринда биргина мисол келтирадиган бўлсак**,** "калибровка" ва "тарозилаш" атамалари амалиётда кўпинча адаштириб қўлланилади. "Калибровка" — бу ўлчаш воситасининг кўрсаткичлари билан меъёрий қийматлар ўртасидаги муносабатни аниқлаш жараёни бўлса, "тарозилаш" — асбобни белгиланган стандартларга мувофиқлаштириш жараёни.

Метрологик фаолиятда қўлланадиган тушунчалар Ўзбекистон Республикаси "Метрология тўғрисида"ги Қонунининг 2 моддаси билан белгиланган [6]:

- «метрология» -ўлчовлар, уларнинг ягона бирликда бўлишини таъминлаш усуллари ва воситалари ҳамда талаб қилинадиган аниқликка эришиш хақидаги фан;
- «ягона ўлчов бирилилиги» – ўлчовларнинг натижалари қонунлаштирилган бирликда акс эттирилган ва хатоликлари берилган эҳтимолликда маълум бўлган ўлчов ҳолати;
- «ўлчов воситаси» – ўлчовлар учун фойдаланиладиган ва нормалланган метрологик хусусиятга эга бўлган техника воситаси;
- «бирлик эталони» – физик ўлчам бирлигини бошқа ўлчов воситаларига ўтказиш мақсадида уни қайта ҳосил қилиш ва сақлаш учун мўлжалланган ўлчов воситаси;
- «давлат эталони» – ваколат берилган миллий органнинг арори билан Ўзбекистон Республикаси худудида ўлчов бирлиги ўлчами сифатида эътироф этилган эталон;
- «метрологик хизмати» – давлат органлари ва юридик шахсларнинг метрология хизматлари тармоғи ҳамда уларнинг ўлчовлар ягона бирликда бўлишини таъминлашга қаратилган фаолияти;
- «давлат метрология назорати» – метрология қоидаларига риоя этилишини текшириш мақсадида давлат метрология хизмати органлари амалга оширадиган фаолият;
- «ўлчов воситаларини текширувдан ўтказиш» -ўлчов воситаларининг белгилаб қўйилган техник талабларга мувофиқлигини аниқлаш ва тасдиқлаш мақсадида давлат метрология хизмати органлари (ваколат берилган бошқа органлар, ташкилотлар) томонидан бажариладиган операциялар мажмуи;

- «ўлчов воситаларини калибрлаш» – метрологик жиҳатларнинг хақиқий қийматларини ва ўлчов бирликларининг қўллашга яроқлилигини аниқлаш ҳамда тасдиқлаш мақсадида калибрлаш лабораторияси бажарадиган операциялар мажмуи;

- «ўлчов воситаларини метрологик аттестация қилиш«– ягона намуналарда ишлаб чиқариладиган (ёки Ўзбекистон ҳудудига ягона намуналарда олиб кириладиган) ўлчов воситаларининг хоссаларини синчиклаб тадқиқ этиш асосида улар қўлланиш учун ҳаққоний эканлигининг метрология хизмати томонидан эътироф этилиши;

- «метрология хизматлари, марказлари, лабораторияларини аккредитатсия қилиш» – ўлчовларнинг ягона бирлигини таъминлаш ишларини аккредитатсия қилишни белгиланган соҳада ўтказишга метрология хизматлари, марказлари, лабораторияларининг ваколатли эканлигининг расмий эътироф этилиши;

- «ўлчов воситаларини калибрлаш хуқуқига эга бўлиши учун юридик шахслар метрология хизматини аккредитатсия қилиш« – юридик шахслар метрология хизматининг белгиланган соҳада ўлчов воситаларини калибрлашдан ўтказишга ваколатли эканлигининг расмий эътироф этилиши;

- «ўлчовларнинг бажарилиш услубиётларини метрологик аттестация қилиш» – ўлчовларни бажариш услубиётининг унга қўйилган метрология талабларига мослигини баҳолаш ҳамда тасдиқлаш мақсадида тадқиқот ўтказиш;

- «ўлчовларнинг бажарилиш услубиёти» – операциялар ва қоидалар мажмуи бўлиб, уларнинг бажарилиши хатолари маълум бўлган ўлчов натижалари олишни таъминлайди.

Метрология соҳасидаги атама ва таърифлар тўғрисидаги тўлиқроқ ахбортни Ўзбекистон Республикасининг O’zDSt 8.010.1:2002, O’zDSt 8.010.2:2003, O’zDSt 8.010.3:2004 va O’zDSt 8.010.4:2002 давлат стандартларини танишган ҳолда олиш мумкин.

Усуллар

Тадқиқотда қўлланилган илмий ва услубий ёндашувлар

Ушбу тадқиқотни амалга ошириш жараёнида қатор илмий ва услубий ёндашувлар асос қилиб олинди. Улар қуйидагилардан иборат:

1. **Мавжуд манбалар таҳлили.** Ўзбекистонда ва жаҳон амалиётида метрология соҳасида мавжуд бўлган луғатлар, стандартлар ҳамда энциклопедик манбалар кенг қамровда таҳлил қилинди. Жумладан, Халқаро Метрология Луғати (VIM) [7], Қонунлаштирувчи метрология атамаларининг халқаро луғати (OIML/VIML) [8] ҳамда Ўзбекистон Давлат Стандарти (O’zDST)нинг тегишли ҳужжатлари асосий таҳлил объекти сифатида ўрганилди.

2. **Атамаларни тизимлаштириш.** Ўлчов, стандартлаш, сертификатлаш ва мувофиқликни баҳолаш соҳаларида қўлланиладиган атамалар алоҳида сараланди. Улар алфавит тартибида тузилиб, ўзбекча, русча ва инглизча вариантлари ўзаро қиёсий таҳлил қилинди. Бу орқали терминологик бирлик ва аниқликни таъминлашга интилиш қилинди.

3. **Мутахассислар билан интервьюлар ўтказиш.** Метрология соҳасида фаолият юритаётган илмий ходимлар, амалиётчилар, ўқитувчилар ва соҳа экспертлари билан юзма-юз ва масофавий интервьюлар ташкил этилди. Улар орқали мутахассисларнинг амалда қўлланаётган атамаларни англашда дуч келаётган муаммолари ҳамда уларнинг амалиётдаги эҳтиёжлари аниқланди.

4. **Ишчи луғат прототипини яратиш.** Юқоридаги барча маълумот ва таҳлиллар асосида изоҳли атамалар луғати лойиҳаси ишлаб чиқилди. Мазкур луғат прототипи синов тартибида мутахассислар иштирокида қўллаб кўрилди ва унинг фойдаланиш самарадорлиги баҳоланди. Бунда луғатнинг тузилиши, атамаларнинг аниқлиги ва қўлланилишидаги қулайликлар тажриба асосида текшириб чиқилди.

Натижалар. Тадқиқот жараёнида олиб борилган таҳлиллар натижасида бир қатор муҳим илмий ва амалий хулосаларга келинди. Аввало, манба таҳлили доирасида жами 20 та халқаро ва миллий стандартлар, 5 та энциклопедик нашрлар, 7 та илмий мақолалар ҳамда 10 та таълимий адабиётлар ўрганилиб, улар асосида тахминан 1500 та метрологик атамалар аниқланди ва сараланди. Ушбу таҳлил жараёнида айрим жиддий муаммолар юзага чиқди. Жумладан, айрим атамалар ва уларга оид тушунчалар турли манбаларда турлича талқин

этилгани кузатилди. Масалан, "ўлчов бирлиги" атамаси айрим соҳаларда бошқача маънода қўлланилиши, тушунчаларнинг бир хил талқинини таъминлашдаги муаммоларни келтириб чиқаради. Ёки "дастлабки текширув" (первичная поверка) ва "қайта текширув" (повторная поверка) атамалари баъзи ташкилотларда бир хил маънода ишлатилади.

Шу билан бирга, кўплаб атамаларнинг аниқ ва илмий жиҳатдан асосланган ўзбекча ифодаси йўқлиги, ҳамда рус ва инглиз тилларидан таржима қилишда номутаносиб ва номувофиқ ёндашувлар мавжудлиги аниқланди. Бу эса, миллий илмий дискурсда турли тушунмовчиликларга олиб келиши мумкинлигини кўрсатади.

Мутахассислар билан ўтказилган интервьюлар ва фикр алмашинувлари асосида атамаларни ўзбек тилида расмийлаштириш ва уларни стандартлаштириш, изоҳли луғатларда нафақат атаманинг таърифи, балки унинг амалиётдаги қўлланилишига оид мисоллар билан бойитиш, шунингдек, бу луғатларни университетлар ва техникумлар дарсликларига асосий манба сифатида жорий этиш зарурлиги бўйича таклифлар илгари сурилди.

Шу асосда яратилган ишчи луғат прототипи 100 та атамани қамраб олди. У метрология соҳасидаги 10 нафар мутахассис томонидан баҳоланди. Баҳолаш натижаларига кўра, луғатда келтирилган атамаларнинг аниқлиги 92% деб баҳоланган бўлса, фойдаланиш қулайлиги 88% ни ташкил этди. Бу натижалар ишлаб чиқилган луғатнинг илмий ва амалий аҳамиятини тасдиқлайди ҳамда унинг кенгроқ жорий этилиши учун асос бўла олади.

Мунозара. Методологик аниқлик ва тушунарлилик ҳар қандай илмий соҳа ривожи учун муҳим асосдир. Метрология соҳасида бу аҳамият янада юксак: ҳар қандай хатолик инсон ҳаёти, иқтисодий йўқотиш ва ишончсизликка олиб келиши мумкин. Изоҳли луғат яратилиши ушбу муаммони бартараф қилишга хизмат қилади. Шу билан бирга, ушбу луғат, мутаносиб ва мувофиқ атамалар тизимини йўлга қўяди, академик таълимда ягона услубий база яратади. Шунингдек, Давлат стандартларининг аниқ ва бир хил талқинини таъминлайди ва халқаро ҳамкорликда тил тўсиғини камайтиради.

